

N.A. TASTANOV

# KURASH TURLARI NAZARIYASI VA USLUBIYATI



Toshkent – 2017


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT  
ISHLARI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI

N.A. Tastanov

# KURASH TURLARI NAZARIYASI VA USLUBIYATI



Y-8233/4

«Sano-standart» nashriyoti  
Toshkent – 2017

**UO'K: 796.8(075.8)**

**KBK: 75.715**

**T 25**

**Kurash turlari nazariyasi va uslubiati / darslik:**  
N.A.Tastanov.-T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil. –  
480 bet.

Darslik jismoniy tarbiya institutlari va jismoniy tarbiya fakultetlarida kurash turlari bo'yicha ixtisoslashgan bo'lim talabalari uchun hozirgi zamon talablari asosida fanni o'rganish dasturiga muvofiq yozilgan. Muallif mazkur darslikda o'quv rejasidagi I-II-III-IV-bosqich talabalari uchun o'tiladigan barcha mavzusiga to'xtalgan.

O'quv qo'llanmada sport kurashi tarixi, texnik-taktik tayyorgarlik, musobaqa qoidalari, doping nazorat va talabalarning ilmiy ishlari bo'yicha zamonaviy bilim va tajribalar birlashtirilgan. O'quv qo'llanma O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, jismoniy tarbiya fakultetlarining o'qituvchi va talabalari, kurash turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy terma jamoasining trenerlari va sportchilari uchun mo'ljallangan.

### **Taqrizchi:**

Gapparov X.Z

O'zbekiston Respublikasi IIV TOHTBYU Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi boshlig'i, p.f.n., dotsent

**UO'K: 796.8(075.8)**

**KBK: 75.715**

**ISBN: 978-9943-5005-4-2**

© N.A.Tastanov 2017

© «Sano-standart» nashriyoti, 2017

## SO‘Z BOSHI

Insonni tarbiyalash, uning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatligini mustahkamlash, ish qobiliyatini oshirish, sportchilarda zarur bo‘lgan ruhiy muhitni yaratishning ko‘p qirrali jarayonida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati yuqoridir. Sog‘lom insonlarni tarbiyalashda yordam beradigan sport kurashining har xil turlari jismoniy tarbiya tizimida muhim o‘rin egallaydi. Shu jumladan, kurash turlari ham jismoniy tarbiya tizimida o‘z o‘rniga ega.

Mazkur ish kurash turlari nazariyasi va usuliyati bo‘yicha darslik hisoblanib, u jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning amaldagi o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan. Darslik asosan kurash turlari bo‘yicha ixtisoslashgan jismoniy tarbiya instituti va fakultetlaridagi bakalavriatura talabalari uchun mo‘ljallangan. Shu bilan birga u malaka oshirish fakultetlari tinglovchilari, magistratura talabalari, shuningdek, murabbiylar uchun foydali bo‘lishi mumkin. Darslik turli malakadagi kurashchilarni sport trenirovkasining zamonaviy nazariy va uslubiy asoslarini o‘quvchi uchun tushunarli shaklda berilgan.

Darslik O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti milliy va xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasining ko‘p yillik ishini tahlili hamda umumlashtirish asosida, Vatanimiz va horijiy murabbiylarning ish tajribasi, sport trenirovkasining eng muhim muammolari bo‘yicha ma‘lumotlarni o‘rganish hamda umumlashtirish asosida yozilgan. Darslikni tayyorlashda muallif jismoniy tarbiya va sport trenirovkasi sohasidagi yetakchi mutaxassislar – A.A.Novikov, Yu.V.Veroxshanskiy, V.M.Dyachkov, M.A.Godik, D.D.Donskoy, V.M.Zatsiorskiy, M.Ya.Nabatnikova, L.P.Matveyev, N.G.Ozolin, V.N.Platonov, V.P.Filin, A.V.Rodionov, sport kurashi mutaxassislari – A.Q.Ataev, I.I.Alixanov, R.A.Piloyan, R.Petrov, A.I.Lens, V.M.Igumenov, B.M.Ribalko, E.M.Chumakov, F.A.Kerimov, A.P.Kupsov, X.Tunnenman, G.S.Tumanyan, V.V.Shiyan, O.P.Yushkov, Ch.T.Ivankov ishlariga tayangan.

## **I BOB. KURASH TURLARINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI**


### **1.1. Kurash turlarining umumiy tarixi.**

Kurash turlari to‘g‘risida tarixiy ma‘lumotlarni yig‘ish arxiv ma‘lumotlari bilan ishlash, tarixiy manbalarni tahlil etish, kurash turlari bo‘yicha federatsiyalarning ma‘lumotlari hamda kutubxonadagi ma‘lumotlardan foydalanish yordamida olish mumkin. Shuningdek hozirgi axborot texnologiyalarining shiddatli ravishda rivojlanishi natijasida zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni internetdagi rasmiy saytlardan yig‘ish mumkin.

Kurash turlarining shakllanishi va rivojlanishi har hil sharoitlarda vujudga kelgan. Kurash turlari eng qadimgi sport turlaridan bo‘lib, juda qiziqarli va yorqin tarixga ega. Qadimgi inson ko‘p ming yillar davomida instinktli hujum va himoyalash harakatlaridan to zamonaviy kurash turlari usullariga yaqin bo‘lgan koordinatsiyalashgan harakatlarga qiyin yo‘lni bosib o‘tgan. O‘troq hayot boshlanishi bilan xalqlarning jismoniy tarbiyasida jangovar tayyorgarlikka xos bo‘lgan va birinchi navbatda, har hil yakkakurash turlari oldingi qatorga qo‘yilgan. Qadimgi insonning muntazam yashash joylarida ov qilish sahnalari bilan bir qatorda kurashayotgan kishilarning tasviri paydo bo‘la boshladi. Misrning Beni Gasan qishlog‘ida topilgan ehromning devorlaridagi mukammal texnikaga ega bo‘lgan kurashchilarning tasvirlari taxminan e.a. 2800-yillarga (1-rasm) va Sakkaradagi Fiokxoten ehromining devoridagi kurash, yugurish, harakatli o‘yinlar, akrobatik harakatlar va ovga chiqishni tasvirlovchi rasmlar e.a.III ming yillikning o‘rtalariga (2-rasm) mansub ekanligi aniqlangan, Mesopotamiyada belbog‘li kurashni aks ettiruvchi bronzali haykal e.a.2600-yillarda hamda Shumerlar davriga mansub devordagi o‘yma haykal (3;9-rasmlar) tayyorlanganligi ma‘lum bo‘lgan. Qadimgi Hindistonda ham har xil yakkakurash turlari keng tarqalganligi aniqlangan. Mahalliy aholi sog‘lomlashtirish gimnastikasi, raqs va quolsiz o‘z-o‘zini himoya qilish sohasida qimmatbaho ananalarni ehtiyotlik bilan saqlab kelgan. Qadimiy hind qo‘lyozmalarida bellashuv va yakkakurashning shunday shakllari haqida ta‘kidlanadiki, bunday bellashuvlarning uslubi raqibga qo‘l yoki oyoq yordamida zarba berish, shuningdek bo‘g‘ish usullarini qo‘llash bilan tavsiflanadi.




1-rasm. Misrda m.a. 2800 yillarga mansub bo'lgan ehrom devoridagi erkin kurash bo'yicha texnik usullar va jangovor harakatlar ko'rinishi.



2-rasm. Sakkaradagi Fioxxoten ehromining devoridagi kurash, yugurish, harakatchi o'yinlar, akrobatik harakatlar va ovga chiqishni tasvirlovchi rasmlar (e.a.III ming yillikning o'rtalariga mansub)




3-rasm. Belbog'li kurashni aks ettiruvchi Mesopotamiyada topilgan bronzali xaykal (e.a. III ming yillik boshi)




4-rasm. Bellashuvchi yigitlar (Afina xaykali poyidagi relyef ko'rinishidan parcha – e.a. 510 y.)



5-rasm. Gerakl va Anteyning bellashuvi (Chervetr vazasidagi rasm, Gretsiya)



6-rasm. Raqibini taslim bo'lishga majbur etuvchi kurashchi va pankrationdagi harakatlar (Terrakota, e.a. VI asr)



7-rasm. Yunon-rim kurashini aks ettiruvchi Gretsiyada topilgan amphora



8-rasm. Qadimgi Xitoydagi bellashuvlarni aks ettiruvchi devoriy rasm (e.a. III ming yillik boshi)



9-rasm. Shumerlar davriga mansub devordagi o'yma xaykal



Qadimgi Xitoyda jismoniy tarbiyaning birinchi paydo bo'lishi e.a. 3 ming yillikning boshiga to'g'ri keladi. Taxminan e.a. 2698-yilda "Kungfu", deb nomlangan kitob yozilgan, unda birinchi bor xalqlar o'rtasida keng tarqalgan davolovchi gimnastika, massaj, kasalliklardan forig' etuvchi harakatlar, shuningdek jangovar raqslarning (8-rasm) tasnifiy ta'riflari tizimlashtirilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Qadimgi Xitoy jamiyatida o'sha davrning falsafiy qarashlariga asoslanib, o'sib kelayotgan avlodning axloqiy tarbiyasiga, yoshlarning irodasi hamda xarakterini shakllantirishga katta e'tibor qaratgan. Agar bellashuv jarayonida biron bir kurashchi qo'pollik qilsa yoki qoidani buzadigan bo'lsa, unda hakamlar va tomoshabinlar bu kurashchini "syao tszan" deb qoralaganlar. Bu so'z jamiyatning yuqori darajada nafratlanishini anglatadi.

Jismoniy tarbiya va kurashning rivojlanishida Qadimgi Yunoniston alohida o'rin tutadi. Eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda Qadimgi Yunonistonda jismoniy tarbiya tizimi yaratildi va u hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Maxsus maktablarda tajribali o'qituvchilar kurash, shuningdek qisqa masofalarga yugurish, uzunlikka sakrash, nayza va disk uloqtirishlardan tashkil torgan dastur bo'yicha bolalar tayyorgarligiga alohida e'tibor berganlar. Shu bilan birga shug'ullanuvchilar qo'l jangini olib borish, toshlar uloqtirish malakasini egallab borganlar.

Qadimgi Yunonistondagi kurash texnikasi va uning rivojlanishi to'g'risida ko'p sonli haykallar, amforalar hamda vazalardagi tasvirlar (4-7-rasmlar), shoirlar asarlari, tarixchilar, faylasuflardan – Gomer, Pindar, Platon va boshqalarning risolalari guvohlik beradi. Masalan, Gomerning "Iliada"sida (eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda) Ayaks va Odissey o'rtasidagi bellashuv shunday bayon etiladi: "Kurashchilar belbog'larini taqib, maydon o'rtasiga chiqdilar hamda qo'llari bilan mahkam chirmashib, bir-birlarini o'rab oldilar. Kuchli quchoqlashish ostida qahramonlarning gavdalari qirsilladi, zo'riqdi va ulardan ter quyila boshladi. Kurashchilar gavdasidan qonlar chizib chiqa boshladi, lekin ular bellashishni davom ettiraverdilar".

Qadimgi Yunoniston Olimpiada O'yinlari vataniga aylandi (eramizdan avvalgi 776y.). Birinchi Olimpiada O'yinlari dasturiga kurash mustaqil sport turi (e. a. 708 y.), shuningdek pentatlonning, ya'ni, maxsus beshkurashning tarkibiy qismi sifatida (eramizdan avvalgi 708 yildan boshlab) kiritilgan (6-rasm).

Kurashning boshqa jismoniy mashqlar bilan bir qatorda san'atga tenglashtirilishi o'sha davrning o'ziga hos xususiyati edi. Kurash bilan o'sha davrning yirik vakillari – olimlar, shoirlar, davlat arboblari, sarkardalar shug'ullangan. O'sha davrdagi ko'pgina taniqli arboblar – matematik Pifagor, faylasuf Evripid va Platon, Pindar hamda boshqalar Olimpiyada O'yinlari g'oliblari bo'lishgan. Yunonlarning har tomonlama jismoniy tarbiyalash tizimi o'rnini Qadimgi Rimdagi aniq ifodalangan harbiy-jismoniy tarbiya egalladi. Bunda jangovar o'yinlar va safdagi tayyogarlikka katta e'tibor qaratildi.

Gladiatorlar jangi va jangovar aravachalarda musobaqalashish kabi tomoshabop o'yinlar katta o'rinni egallay boshladi.

Evropada XI-XV asrlarda ritsarlarni tayyorlashdagi jismoniy tarbiya tizimi paydo bo'ldi. Har hil yakkakurash turlari (jumladan quolsiz) uning ajralmas qismiga aylandi (12–13-rasmlar).

Talxofferning (1443–1467) kurash bo'yicha birinchi kitoblaridan biridagi o'quv rasmlarida tasvirlangan harakatlar va quolsiz o'z-o'zini himoya qilish usullari (ular Yaponiya samuraylarining “djiu-djitsu” kurashi texnikasini eslatadi) shu haqda dalolat beradiki, XV asrdan boshlab ritsarlarning juftlik harbiy mashqlari oddiy xalqning hozirgi davrgacha saqlanib qolgan ananaviy kurash shakllaridan muhim darajada farq qilgan. O'rta asrlar yilnomasi, qo'lyozmalaridan ma'lumki, hamma bozorlar, to'ylar, diniy bayramlarda boshqa ko'ngilochar tomoshalar bilan bir qatorda albatta kurash musobaqalari o'tkazilgan (10–14-rasmlar).

Yunonlarning jismoniy tarbiya tizimiga qaytish – Uyg'onish davriga hosdir. Ushbu davrning ideali – har tomonlama rivojlangan, hayotning hamma sohalarida yuqori natijalarga erisha oladigan inson obrazidir. Buning natijasida italiya va nemis insonrvarlari yunonlar gimnastikasiga yana bir bor murojaat qilganlar. Italiyalik vrach X.Merkurialis o'zining “Gimnastika san'ati to'g'risida” deb nomlangan olti jildlik kitobida (1569-y.) qadimiy gimnastika ta'rifini bayon etgan. Shu davrning o'zida Fabian fon Auersvaldning “Kurash san'ati” (1539-y.) kitobi paydo bo'ldi. XVIII – XIX asrlarda milliylik xususiyati yorqin ifodalangan jismoniy tarbiya tizimlari yuzaga kela boshladi.


Ulardan – nemis jismoniy tarbiya tizimi Guni-Muts (1759–1838), Vits (1763–1836) va Yan (1778–1852); Shved jismoniy tarbiya tizimi – Ling (1776–1839); chex jismoniy tarbiya tizimi – Tirsh (1832–1884); Daniya jismoniy tarbiya tizimi – Naxtegal (1777–1847); Fransuz

jismoniy tarbiya tizimi – F.Amoros (1770–1847) va boshqalar tomonidan yaratilgan. Hamma milliy tizimlar tamoyillari va maqsadlari turlicha bo‘lishiga qaramasdan, boshqa jismoniy mashqlar bilan bir qatorda xalq orasida eng ommabor bo‘lgan kurash, qilichbozlik, yugurish, suzish, harakatli o‘yinlarni o‘z ichiga olgan.

Hamma davrlar hamda xalqlarning dostonlari kurash turlarining jismoniy tarbiyadagi muhim elementi, jismoniy mashqlarning eng ommabop xalq turlari sifatida keng tarqalganligi to‘g‘risida guvohlik beradi.



10-rasm. Xitoydagi bellashuvlarni aks ettiruvchi rasm



11-rasm. O‘rta asrlarda Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan yog‘li kurash bellashuvini aks ettiruvchi rasm.



12-rasm



13-rasm

## 1.2. O‘zbekistonda kurash turlarining rivojlanish tarixi

Qadimdan O‘zbekistonda kurash va belbog‘li kurash turlariga qiziqish yuqori bo‘lgan. To‘ylarda, sayillarda va har hil bayramlarda mazkur kurash turlarisiz tadbirlar o‘tmagan. Mustaqillik yillarida ananalar qayta tiklanib, hozirgi kunga kelib har bir viloyatda ikkala kurash turi ham yaxshi rivojlangan. Ikki milliy kurash turlaridan tashqari yunon-rim kurashi, erkin kurash, dzyudo kurashi va sambo kurashi yurtimizda keng tarqalgan va rivojlangan.


1991-yilning 1-sentyabr kuni O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin sport sohasiga hukumatimiz tomonidan e‘tibor kuchaytirildi. Hozirgi kungacha “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi” qonun uch marotaba qabul qilindi va qayta ko‘rib chiqildi (1992, 2000, 2015-y.y.). Mazkur qonunning takomillashib borishi albatta jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlanishiga ijobiy ta‘sir etdi. Qonun va qonun osti hujjatlarining ta‘sirida yurtdoshlarimiz alohida jamoa sifatida Olimpiada O‘yinlari, Jahon chempionatlari, Osiyo O‘yinlari va chempionatlari, nufuzli xalqaro musobaqalarga qatnashib munosib o‘rinlarni egallagan. Buning asosiy sababi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek – “Hech bir narsa yurtni sport kabi dunyoga tanita olmaydi”. Shu bilan bir qatorda kurash turlariga ham katta e‘tibor qaratilgan. 1998-yil 5-fevraldagi “Kurash Xalqaro Asosiatsiyasini qo‘llab quvvatlash”, 2012-yil 24-sentyabrdagi “Sport kurashlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan maktabni tashkillashtirish” to‘g‘risidagi Prezident farmoyishlari bunga yaqqol dalil bo‘ladi.

Polvonlarimiz qator nufuzli musobaqalarda – Olimpiada va Osiyo O‘yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari va xalqaro musobaqalarda g‘olib va sovrindor bo‘lib, mustaqil O‘zbekiston Respublikasini butun Jahonga tanitmoqda. Buning ta‘sirida yurtimizda nufuzli musobaqalarni o‘tkazish uchun katta ishonch bildirilib, eng yuqori darajadagi musobaqalar – Jahon va Osiyo chempionatlari hamda xalqaro musobaqalar o‘tkazilmoqda. 2014-yilning sentyabr oyida erkin, yunon-rim va ayollar sport kurashi bo‘yicha Jahon chempionati yuqori saviyada o‘tkazildi (15–20-rasmlar). Shuningdek dzyudo bo‘yicha Jahon Kubogi bosqichlari, sambo kurashi bo‘yicha Jahon chempionatlari, kurash va belbog‘li kurash bo‘yicha doimiy ravishda nufuzli musobaqalar o‘tkazilmoqda.



14-rasm

12–13-rasmlarda oʻrta asrlarda Evropa va 14-rasmda Oʻrta Osiyo xalqlaridagi bellashuvlar tasviri



**15-rasm**

**16-rasm**

**15–16 rasmlarda 2014-yilning 7–14-sentyabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan erkin va yunon-rim kurash turlari bo‘yicha Jahon chempionati**



**17-rasm**



18-rasm



19-rasm



20-rasm

17–18 rasmlarda 2014-yili Toshkentda FILA (UWW) Prezidenti Nenad Lalovichning Chiqishi, va byurosining o'tkazilishi, 19–20 rasmlarda 2014-yili Toshkentda erkin va yunon-rim kurashi muammolari bo'yicha xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (Chapdan o'nga birinchi – X.Tunneman GER, ikkinchi – D.Turlixanov KAZ, uchinchi – N.Lalovich SRB, to'rtinchi – A.Ruziev UZB, beshinchi – M.Mamiashvili RUS, oltinchi – S.Isroilov UZB, yettinchi –D.Kourbi USA, sakkizinchi – K.Abdurahmonov (UZB), to'qqizinchi – F.Kerimov UZB.).

### 1.2.1. Yunon-rim kurashi

Hozirgi kunda O'zbekistondagi ko'pchilik mutaxassislar o'rtasidagi tortishuvlarga sabab – Yunon-Rim kurashini adashib yunon-rum kurashi deb atalishida. “Rim” va “Rum” so'zlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tarixiy va badiiy adabiyotlarda qadimgi Yunonistondagi Olimpiada O'yinlari o'tkazilib (eradan avvalgi 776 yillarda), unda kurash turi bo'yicha musobaqalar ham o'tkazilgan (eradan avvalgi 708 yillarda). O'sha davrda bellashuvlar har hil qoidalar bo'yicha, har bir qishloq yoki shaharchada o'zlarining qoidalari bilan bellashuvlar olib borilgan. Mazkur qoidalardan birida barcha texnik harakatlar va ushlarlar tana bel qismining yuqorisidan ekanligi ko'pchilikka qo'l kelgani yunonlardagi bellashuv turini yaratdi. Qadimgi Yunoniston va Rimning o'zaro aloqalari tufayli Rimga jismoniy tarbiya vositalari ham kirib kelgan. Eramizdan avvalgi II asrda ba'zi rimlik faollar yunonlarning jismoniy tarbiya tizimidagi turlar va usullarni o'zlariga tatbiq etishga harakat qildilar. E.a. 80-yillarda Yunoniston Rim tomonidan bosib olingach, elchi Sulla Yunon Olimpiada O'yinlarini Rimga ko'chirishga urindi. Uning buyrug'iga binoan 175-Olimpiada O'yinlari Rimda o'tkazilishi kerak edi. Kurash turi rimliklarni ham qiziqtirganligi sababli Rim shahrida ko'ngil ochar tomosha turlari qatoridan joy olgan (L.Kun 1982, F.Kerimov 2001, J.Eshnazarov 2008). Qadimgi Rim Imperiyasining markazi hisoblangan Rim shahri hozirgi kungacha o'z nomini yo'qotgani yo'q. Ayrim mutaxassislarning ta'kidlashicha “rim” so'zi “yunon” so'zidan keyin kelganligi sababli va o'zbek transkriptsiyasi bo'yicha “rum” deb atalishi kerak degan fikrda. Lekin azaldan O'zbekiston hududida Rim Imperiyasi yoki Rim shahri to'g'risida so'z borganda – Rim Imperiyasi va Rim shahri deb yuritilgan. Demak mazkur kurash turi yunon-rum emas, balki, – yunon-rim kurashi deb nomlangani maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Eramizning I-II asrlariga kelib hakamlarning noto'g'ri hakamligi, xalqlar o'rtasidagi urushlar, Xristian dinining ta'sirida, Rim Imperiyasining parchalanishlari sababli borgan sari xalqda musobaqalarga qiziqish yo'qolib, Olimpiada O'yinlari harakati



sustlashgan va to'xtatilgan. XVIII-XIX asrlarda Evropada, ayniqsa, Fransiyada kurash bilan qiziqish qayta tiklana boshladi. Aholi o'rtasida kurashga bo'lgan qiziqishning uyg'onishi ko'p sonli professional kurashchilarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ular sirkalarda va bozorlarda o'z san'atlarini namoyish qilardilar. Shaharlarda alohida kurashchilar guruhlari paydo bo'la boshladi. Natijada professional kurashchilar o'rtasida shaxsiy birinchiliklar va Fransiya shaharlari, keyinchalik esa Jahon chempionatlari o'tkazila boshlandi. Mazkur chempionatlar bir yilda birnecha bor o'tkazilishi mumkin bo'lib, shuningdek moliyaviy foydani o'ylagan holda har hil shaharlarda o'tkazilgan. Chempionatlarning yaxshi tashkil etilishi, ularning keng targ'ib etilishi professional kurashga katta muvaffaqiyat keltirdi. Astasekin fransuzlar kurashi boshqa Evropa davlatlariga kirib bordi. Kurash keng ommaviylikka erishib borishi va geografik jihatdan tarqalishi bilan bir vaqtda texnik tomondan ham kengayib bordi. Qo'pol kurashchilarning bellashuvlari tomoshabinlar mehrini qozona olmadi, texnika, chaqqonlik va go'zallik yanada qadrlandi.

XIX asr o'rtasida Parijda ilk ixtisoslashgan kurash maydonlari ochildi, shu sababdan 1848-yil Fransiyada professional kurash rivojlanishining boshlanishi deb hisoblanadi. Bu yerga turli davlatlardan – Germaniya, Turkiya, Italiya, Rossiya, Shvetsiyadan turli turnirlar va chempionatlarda qatnashish uchun kurashchilar kelganlar, hamda xalqaro maydonda tanildi, Evropaning hamma davlatlarida “fransuzcha kurash” nomi bilan keng tarqaldi. Lekin “fransuzcha kurash”ning Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rimda rivojlanganligini hisobga olgan holda yunon-rim kurashi nomi berildi. U sobiq Sho'rolar davrida “klassik” kurash deb atab kelingan. Lekin sobiq Sovet ittifoqidan tashqarida yunon-rim kurashi nomi bilan musobaqalar o'tkazilgan.

1896-yilda Afinada I zamonaviy Olimpiada O'yinlari tashkil lashtirildi, uning dasturiga yunon-rim kurashi kiritildi, 1898-yildan boshlab Evropa chempionati, 1904-yildan rasmiy ravishda Jahon chempionatlari o'tkazib kelinadi. 1912-yilda havaskorlar o'rtasida kurash musobaqalarini kuzatish va o'tkazish bo'yicha Xalqaro qo'mita

tuzildi. 1921-yilda mazkur qo'mita Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasiga (FILA) aylantirildi. Uning nomi 2014-yilning 7–14-sentyabr kunlari Toshkentdagi Jahon chempionati davrida FILAning Byurosi ham o'tkazildi, mana shu yig'ilishda FILA nomi UWW (United World Wrestling, yaniy, Butunjahon Kurashlari Uyushmasi)ga o'zgartirildi. UWW Jahondagi eng yirik va ta'sir doirasi katta bo'lgan sport tashkiloti hisoblanadi. Hozirgi paytda u erkin va yunon-rim kurashi bo'yicha yuzdan ortiq milliy federatsiyalarni birlashtirgan.

Yunon-rim kurashi O'zbekistonda XX asrning boshida kirib kelib, 30-yillarda keng tarqaldi. O'sha davrlarda Toshkent sirkida Yo'ldosh Oxunboboev tomonidan katta musobaqa tashkillashtirilgani va bu musobaqada Hoji-Muxan Mungaytpasov g'olib bo'lganligi adabiyotlardan ma'lum. 40-yillarda 1941–1945-yillardagi urush sababli rivojlanish susayib, 50-yillarda qayta rivojlanish hamda 60-yillarga kelib birinchi natijalardan – Xamid Vahabov yuqori natijaga erishgan, Grigoriy Gamarnik Jahon chempioni, Yuriy Zelenin Evropa chempioni, Rifat Ablaev sobiq Sovet ittifoqi chempionligini qo'lga kiritdi. O'sha davrlardagi nohaqlik sababli, yaniy, Rifat Ablaev qrimlik tatar millatiga mansub ekanligi sababli Jahon chempionati va Olimpiada O'yinlariga chiqarilmagan. Rifat Ablaevning shogirdi Rustem Kazakov ham yuqori natijaga erishganda ham shu holat qaytarilishi mumkin edi. Lekin Sharof Rashidovning kafilligi bilan ikki karra Jahon chempioni hamda 1972-yilda Myunxendagi Olimpiada O'yinlarida Toshkent shahri polvoni Rustem Kazakov 57 kilogramm vazn toifasida oltin medalga sazovor bo'ldi. Bu natija yunon-rim kurashi bo'yicha O'zbekistonning Olimpiada O'yinlaridagi birinchi oltin medali edi. 70-yillar oxirida Vasiliy Anikin Evropa chempioni va Jahon Kubogi sohibi bo'ldi. 80-yillarda Toshkent polvoni Komil Fatkullin uch karra Jahon chempionatining kumush medal sohibi va "Do'stlik-84" O'yinlari g'olibi, yoshlar o'rtasida Farg'onalik polvon Isa Ilyasov Jahon chempioni bo'ldi.

90-yillarda Samarqand polvoni Navruz Usmanov yoshlar o'rtasida Jahon chempionligini qo'lga kiritdi. 1996-yilda AQShning Atlanta shahrida mustaqil jamoa sifatida O'zbekiston jamoasi birinchi marta

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

4-8233/17

Olimpiada O‘yinlarida ishtirok etdi. Atlantada 52 kilogramm vazn toifasida Shamsiddin Xudoyberdiev (16 o‘rin), 62 kilogramm vazn toifasida Bahodir Qurbonov (16 o‘rin), 68 kilogramm vazn toifasida Grigoriy Pulyaev (6 o‘rin), 130 kilogramm vazn toifasida Shermuxammad Qo‘ziev (10 o‘rin) qatnashdilar.

2000-yilda Avstraliyaning Sidney shahrida o‘tkazilgan Olimpiada O‘yinlariga 52 kilogramm vazn toifasida Shamsiddin Xudoyberdiev (10 o‘rin), 57 kilogramm vazn toifasida Dilshod Aripov (8 o‘rin), 62 kilogramm vazn toifasida Bahodir Qurbonov (5 o‘rin) qatnashdilar.

2001-yilda Gretsiyaning Afina shahrida o‘tkazilgan Jahon chempionatida 58 kilogramm vazn toifasida Dilshod Aripov yunon-rim kurashi bo‘yicha O‘zbekistonda birinchi Jahon chempioni unvoniga erishdi.

2004-yilda Gretsiyaning Afina shahrida o‘tkazilgan Olimpiada O‘yinlariga 74 kilogramm vazn toifasida Aleksandr Doktorashvili (1 o‘rin), 96 kilogramm vazn toifasida Aleksey Cheklakov (10 o‘rin) qatnashdilar.

2008-yilda Xitoyning Pekin shahrida o‘tkazilgan Olimpiada O‘yinlariga 55 kilogramm vazn toifasida Ildar Xafizov (8 o‘rin), 60 kilogramm vazn toifasida Dilshod Aripov (7 o‘rin), 96 kilogramm vazn toifasida David Soldadze (14 o‘rin) qatnashdilar.

2012-yilda Ulug‘ Britaniyaning London shahrida o‘tkazilgan Olimpiada O‘yinlariga 55 kilogramm vazn toifasida Elmurod Tasmuratov (10 o‘rin), 120 kilogramm vazn toifasida Mo‘min Abdullaev (12o‘rin). Shuningdek 2012-yil 20-sentyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Sport kurashlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktabini ochish” to‘g‘risida farmoni chiqdi. Unga ko‘ra Ichki Ishlar vazirligi huzuridagi “Dinamo” sport majmuasida sport kurashlari (yunon-rim va erkin kurash turlari) bo‘yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktabi ochildi.

2014-yilda Toshkentda o‘tkazilgan Jahon chempionatida Elmurod Tasmuratov bronza medali sohibi, hamda 2015-yildagi Osiyo chempionatida yunon-rim kurashi bo‘yicha ilk bor qatorasiga uch marta (2013–2015-y.y.) chempionlikni qo‘lga kiritdi. 2015-yilning Osiyo

chempioni 2015-yildagi Jahon chempionatining kumush medal sohibi Rustem Assakalov yuqori natijalarni ko'rsatgan.


2016-yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan Olimpiada O'yinlariga 59 kilogramm vazn toifasida Elmurod Tasmuratov (3 o'rin), 74 kilogramm vazn toifasida Dilshod Turdiev (12 o'rin), 85 kilogramm vazn toifasida Rustem Assakalov (12 o'rin), 120 kilogramm vazn toifasida Mo'min Abdullaev (13 o'rin).

Yurtimizda yunon-rim kurashining rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, shuningdek, bu kurash turi uch bosqichli – “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” sport musobaqalari dasturidan o'rin egallagan. Yunon-rim kurashini yanada rivojlantirishda hozirgi o'sib kelayotgan o'smirlar va yoshlarning ko'rsatkichlari Osiyo va Jahon arenasida yuqori natijalar bilan e'tirof etiladi. O'smirlar o'rtasida – Ilhom Baxromov Olimpiada chempioni, Nurbek Xaqqulov kumush medal sovrindori, Ruslan Kamilov bronza medal sovrindori bo'lishgan. O'zbek yunon-rim kurashi maktabining tarbiyalanuvchilari K.Fatkullin, R.Qudratov, G'.Abdullaev, O.Qurbonov va R.Ro'ziqulovlar murabbiyligida xalqaro maydonda oz o'rnini munosib egallagan deyish mumkin.


### **1.2.2. Erkin kurash**

Erkin kurash tarixining ildizi Qadimgi Yunonistonga va Misrga borib taqaladi. Ma'lumki, har xil sport turlari bo'yicha kompleks sinovlar qadimgi yunonlar umumiy jismoniy tayyorgarligi asosini tashkil qilgan. Erkin usulda kurashish hamma sport turlari ichida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Kurashchilar bellashuvlarida, hozirgi qoidalardan farqli o'laroq, raqibni safdan butunlay chiqarib yuborish yoki uni mag'lub bo'lganligini tan olishga majbur qilish g'alaba mezoni bo'lib xizmat qilgan. Kurashda bunga raqibni bellashuvni davom ettirishdan mahrum qiluvchi samarali usullarni o'tkazish, eramizdan avvalgi VIII asrdan boshlab esa – uni tizzada turishga majbur qilish yo'li bilan erishilgan. Qadimgi dunyo haykaltaroshlari kurash bellashuvlaridan parchalarni tasvirlaganlar. Bu bellashuvlarda kurashchilar oyoqlardan ushlashlar

bilan bir qatorda oyoqlar yordamida bajariladigan harakatlardan foydalanlar.




21-rasm



22-rasm



23-rasm



24-rasm

21–22-rasmlarda Jahon chempioni Dilshod Airov, 23–24-rasmlarda Olimpiada O‘yinlari va

**Jahon chempionati sovrindori Elmurod Tasmurodov**

Zamonaviy erkin kurash, mutaxassislarining fikricha, Angliyada shakllangan. Amerika qit‘asiga ko‘chib o‘tgan aholi orasida “Ketch” sport turi keng tarqalgan. Ketchning ikkita yo‘nalishi mavjud bo‘lgan. Birinchisi professional yo‘nalish, ikkinchisi talabalar yo‘nalishi. Shulardan birinchisida yiqitish va tashlash texnik usullaridan tashqari qo‘l va oyoq bilan zarba berish usullari ham ruxsat etilgan. Ikkinchisi,

ya'ni talabalar yo'nalishi hozirgi erkin kurash hisoblanadi. XVIII asrdanoq bu yerda shunday kurash varianti mavjud bo'lganki, bunda kurashchilarga hujum harakatlarini tanlashda keng imkoniyat berilgan.

XIX asr Yevropada professional kurashning jadal rivojlanish asriga aylandi. Sportdagi professionalizm Amerikani ham egalladi. Kurash serdaromad mashg'ulotga aylandi. Shimoliy Amerikada erkin kurashni targ'ib qiluvchi yoshlar sport to'garaklari paydo bo'la boshladi. Kurash insonni har tomonlama rivojlantiruvchi, qiziqarli va tomoshabop sport turiga aylandi. 1904-yilda AQShda o'tkazilgan uchinchi Olimpiada O'yinlarida amerikaliklar, mezbon sifatida o'z huquqlaridan foydalanib, birinchi marotaba Olimpiada dasturiga yunon-rim kurashining o'rniga erkin kurash musobaqalarini kiritdilar. Biroq boshqa davlat vakillari bu musobaqalarda tushunmaganliklari sababli ishtirok etmadi, AQSh vakillari golib bo'ldi. Keyingi Olimpiada O'yinlari (1908-y.) dasturida faqat yunon-rim kurashi bor edi. Biroq V Olimpiada O'yinlarida (1912-y.) tashkilotchilar erkin kurash va yunon-rim kurashini Olimpiya dasturiga kiritdilar.


1929-yil Parijda birinchi Yevropa chempionati, 1951-yil Tokioda birinchi jahon chempionati o'tkazildi.

1956-yildan erkin kurash bo'yicha erkaklar o'rtasida O'zbekiston chempionati o'tkazilgan. Erkin kurash sport turi O'zbekistonda yunon-rim kurashi hisobiga rivojlangan deyish mumkin. Sababi XIX asrda Amerika qit'asida rivojlangan erkin kurash XX asr boshida Evropada, XX asrning 20-30 yillarida Rossiyada tarqaldi, 50-60 yillarda O'zbekistonga ham kirib keldi. O'sha davrlarda yunon-rim kurashi bo'yicha Respublika chempionatida birinchi o'rinni egallagan kurashchilar sobiq Ittifoq chempionatiga yunon-rim kurashi bo'yicha qatnashardi, ikkinchi o'rinni egallagan sportchilar erkin kurash bo'yicha qatnashardi.


Keyinchalik O'zbekiston terma jamoasining bosh murabbiysi Kursat Ablaev, Obid Nazirov, Raxmonberdi Axmedov tomonidan olib borilgan rivojlantiruvchi ishlar evaziga erkin kurash bo'yicha ham alohida ko'zga ko'ringan sportchilar tayyorlana boshlandi.




**25-rasm**




**26-rasm**




**27-rasm**



**28-rasm**



**29-rasm**



**30-rasm**

**25–27-rasmlarda ikki karra Jahon chempioni, Osiyo O‘yinlari chempioni Dilshod Mansurov, 26-rasmda uch karra Olimpiada O‘yinlari chempini, ikki karra Jahon chempioni Artur Taymazov, 28-rasmda Osiyo O‘yinlari chempioni Bekzod Abduraxmonov, 29-rasmda Olimpiada O‘yinlari sovrindori Ixtiyor Navro‘zov, 30-rasmda karra Jahon chempioni Rashid Qurbonov.**

Shulardan 1970-yillarda Enver Abduramanov Jahon Kubogi sohibi va Yevropa chempioni bo‘ldi. Qo‘ldosh Asraqulov, Axroljon Ro‘ziev, Aleksandr Nedorezovlar tomonidan olib borilgan rivojlantiruvchi ishlar natijasida 80 yillar va 90 yillarda Arsen Fadzaev, aka-uka Aslanbek va Maxarbak Xadartsevlar 1988-yildagi (Seul, Janubiy Koreya) Olimpiada O‘yinlari chempioni bo‘lishdi. Arsen Fadzaev va Maxarbak Xadartsevlar 1992-yilda Ispaniyaning Barselona shahrida o‘tkazilgan Olimpiada O‘yinlari chempionligiga erishib O‘zbekistonda erkin kurash yaxshi rivojlanganligini e‘tirof etishdi. Shuningdek, 1993-yilda Ramil Ataulin Jahon chempionatining bronza medalini qo‘lga kiritgan.



1996-yildagi Atlanta Olimpiadasida Magomed Ibragimov kumush medal va Kuramagomed Kuramagomedov bronza medal sohibi bo'ldilar. 1997-yildan boshlab O'zbekistonda erkin kurash bo'yicha "Mustaqillik kubogi" Gran-pri musobaqasi o'tkazildi. 2003-yildan erkin kurash bo'yicha ayollar o'rtasida O'zbekiston chempionati o'tkazildi. Mustaqillik yillarida Artur Taymazov juda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Uning uchun birinchi Olimpiada O'yinlari kumush medali 2000-yilda (Sidney, Avstraliya) qo'lga kiritildi. 2004-yilda (Afina, Gretsiya), 2008-yilda (Pekin, Xitoy) va 2012-yildagi London Olimpiadasida oltin medallarni qo'lga kiritdi. Bunday sport natijasi – dunyoda kamdan-kam polvonlar erishadigan natijadir. Shu yuqori natijalarga erishganligi uchun O'zbekistonda sof tilladan Artur Taymazovning byusti(haykali) bunyod etildi. Soslan Tigiev 2008-yilda Pekin Olimpiadasida kumush va London Olimpiadasida bronza medal sohibi bo'ldi. Dilshod Mansurov 2001 va 2003-yillarda Jahon hamda 2010-yilda Osiyo O'yinlari chempionligini qo'lga kiritgan. 2016-yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida o'tkazilgan Olimpiada O'yinlarida hamyurtlarimiz Ixtiyor Navro'zov va Magomed Ibragimovlar bronza medal sohibi bo'lishdilar.

### **1.2.3.Dzyudo**


XVI asr oxirlarida Yaponiyada djiu-djitsu samuraylarning harbiy va jismoniy tayyorgarligi tizimi sifatida qo'llanilgan va o'ta sir saklangan. Zamonaviy dzyudo yaponcha djiu-djitsu yakkakurashidan kelib chiqqan deyish to'g'ri bo'ladi. Dzyudoning asoschisi Dzigaro Kano talabalik yillaridanoq tana va ruhiyatning uyg'unlashuviga erishish mumkinligi ustida jiddiy fikr yuritdi. 18 yoshga kelib unda yangi kurash turini yaratish fikri paydo bo'ldi. Kano yetarli darajada jismoniy qobiliyatlarga ega bo'lmasa-da, qisqa vaqt ichida djiu-djitsu, karate, sumo va boshqa yakkakurash turlarining ko'p sonli usullar texnikasini egallab oldi. Ular orasidan eng samaralilarini tanlab, xavfli ushlar va zarbalarni chiqarib tashlab, yangi kurash turini yaratdi. Bu dzyudo kurash turi edi, ya'ni – "egiluvchan yo'l" deb nom oldi. Kano 1882-yilda universitetni tamomlab, Tokioning Eyse ibodatxonasida birinchi dzyudo maktabi – "Kadokan" ("Usulni egallash uyi") ni ochdi. Dzyudo asoschisining hisoblashicha, bu sport turi usullarni mukammal o'rganib olib, ancha kuchli, lekin ephil bo'lmagan kishi ustidan g'alabaga erishish mumkin. Dzyudoda eng asosiysi – bu kuch emas,

balki yuqori mahorat, o'tkirlashtirilgan texnikadir. Shuning uchun dzyudo bo'yicha birinchi musobaqalar o'tkazilganda ishtirokchilarni vazn toifalariga qarab bo'linmagan. Nisbatan qisqa vaqt ichida dzyudo havaskorlari ko'paydi va ko'pgina mamlakatlarga tarqaldi. 1956-yilda Xalqaro dzyudo federatsiyasi tashkil qilindi. U hozirgi kunda 100 dan ortiq davlatlarni birlashtiradi. 1956–1958-yillarda Yaponiyada bo'lib o'tgan uchta jahon chempionati faqat mutloq toifada o'tkazilgan. Dzyudoning butun jahonda ommaviyligi ortib borayotganligi sababli 1961-yilda jahon chempionati birinchi marta Yevropa qit'asida – Parijda o'tkazildi. Bu chempionatda shov-shuv sodir bo'ldi. 27 yoshli gollandiyalik Anton Xeesink finalda jahon chempioni Kodzi Sone ustidan g'alabaga erishdi. Yaponiyalik dzyudochilarning birinchi mag'lubiyati tufayli 1964-yildan boshlab vazn toifalarini kiritildi. Shuningdek, 1964-yilda yaponlar mezbon huquqidan foydalanib, Tokiodagi Olimpiada O'yinlari dasturiga dzyudoni kiritdi. Turnirda 27 mamlakat vakillari qatnashdi. Olimpiada-64 mezbonlari uchta vazn toifasida birinchi o'rinni egalladilar. Va faqat A. Xeesink mutloq vazn toifasida g'alaba qozonib, oltin medalni qo'lga kiritdi. 1965-yilda Braziliyada bo'lib o'tgan jahon chempionatida ishtirokchilar to'rtta vazn toifasida medallar uchun kurash olib bordi. Yaponiyalik sportchilar uchta birinchi o'rinlarni egalladilar, Anton Xeesink to'rtinchi bor chempion bo'ldi.

Olimpiada-68 dasturiga dzyudo kiritilmadi. Lekin to'rt yildan so'ng, Myunxen-72 O'yinlarida bu kurash turi – Olimpiada turi maqomini oldi. Yana shov-shuv yuzaga keldi. Gollandiyalik Vim Ryuska og'ir va mutloq vazn toifalarida ikkita oltin medalni qo'lga kiritdi. 1976-yilda Xalqaro dzyudo federatsiyasi Kongressida vazn toifalarini sakkiztagacha yetkazish to'g'risida qaror qabul qilindi (-60kg; -66kg; -73kg; -81kg; -90kg; -100kg; +100kg; absolyut vazn toifalari). Har bir musobaqaning kichik vazndagi g'olib va sovrindorlari ham absolyut vazn toifasi, ya'ni, mutloq vazn toifasida bellashishi mumkin va bunda ishtirok etish ixtiyoriy hisoblangan.

O'zbekistonlik dzyudochilar xalqaro maydonlarda ko'p marta yutuqlarga erishganlar. 1996-yilda AQShning Atlanta shahrida o'tkazilgan Olimpiada O'yinlarida Armen Bagdasarov kumush medal sohibi, F.To'raev esa 1999-yildagi jahon chempionatida 2-o'rinni egallagan. 2008-yilda Xitoyning Pekin shahrida Abdulla Tangriev kumush va Rishod Sobirov bronza medal sovrindorlari, hamda 2012-

yilda Buyuk Britaniyaning London shahrida Rishod Sobirov bronza medal, 2016-yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida Rishod Sobirov, Diyorbek O‘razboevlar bronza medal sovrindorlari bo‘lgan.



31- rasm



32- rasm

31–32-rasmlarda dzyudo kurashining asoschisi – Dzigaro Kano.



33-rasm



34-rasm



35-rasm



36-rasm



37-rasm



38-rasm

33-rasmda Olimpiada O'yinlari kumush medal sohibi A.Bagdasarov, 34-rasmda dzyudo bellashuvlaridan lavha, 35-rasmda uch karra Olimpiada O'yinlari bronza medal sohibi Rishod Sobirov, 35-rasmda xalqaro turnir g'olibi va sovrindorlari Soyib Qurbonov va Ramziddin Sayidovlar. 37-rasmda Olimpiada O'yinlari kumush medal sohibi Abdulla Tangriev, 38-rasmda uch karra Olimpiada O'yinlari bronza medal sohibi Diyorbek O'razboev.

#### **1.2.4. Sambo.**

XX asrning 20–30-yillarida Rossiyada yangi kurash turi – sambo shakllana boshladi. O'sha davrlarda, ya'ni Sho'rolar hukumati paytida ko'chadagi bezorilarga qarshi hamda harbiylarni jangovor tayyorlash masalasi sambo kurashi yordamida hal etila boshlandi. Ushbu sport turining paydo bo'lishi va rivojlanishiga V.S.Oshepkov asos solgan.

Ilk bor 1991-yilda “Огонёк” jurnali sambo kurashi tog'risidagi haqiqatni yirik maqola etib chop etdi. Unga ko'ra taqdir taqqazosi bilan V.S.Oshepkovning oyilasi Saxalin oroliga – oq podshoga suiqasd qilganlikda ayblanib surgun qilingan, keyin Yaponiyaga qochib o'tishga majbur bo'lgan. Yaponiyada V.S.Oshepkov dzyudo kurashini “Kadokan” maktabida o'rganib, qora belbog' sohibi darajasigacha ko'tarilgan. 1918-yilda Rossiyaga qaytib kelib, o'sha davrdagi qizil armiyaga qo'shilgan va katta ofitser unvonigacha ko'tarilgan. Lekin yapon tilini mukammal bilganligi uchun, Yaponiya shpioni sifatida 1937-yilda isbotsiz repressiya qilingan. Shu sababdan uning nomi ko'p ma'lumotlarda aytilmasdan qolib ketgan. Uning rahbarligida 1918–1920-yillari Rossiyada dzyudoni rivojlantirmoqchi bo'lgan, lekin o'sha davrdagi “bolsheviklar” hukumatining Yaponiya bilan siyosiy munosabatlarda tortishuvlar mavjudligi sababli “вольная борьба” (erkin kurash) deb atalgan, bu nom ham “bolsheviklar”ga to'g'ri kelmadi, sababi amerikaliklar tomonidan erkin kurash (free style wrestling) sport turi alohida sport turi sifatida Jahonga tanilib ulgurgan edi, undan keyingina – sambo (самооборона без оружия, ya'ni, qurolsiz o'zini muhofaza qilish ma'nosini anglatadi) deb ataladigan bo'ldi. Sambo kurashi texnik-taktik tavsiflariga ko'ra dzyudo kurashiga yaqin. Yangi kurash turida V.S.Oshepkov kurashchilar kiyimini o'zgartirdi. U yaponcha kurashdagi ananaviy shim va kimonodan voz kechdi, ularni short (sport kalta shimi) hamda maxsus kurтка bilan o'zgartirdi. V.Oshepkov oyoq kiyimini ham o'zgatirib, yunon-rim va

erkin kurashlaridagi kabi sambovkani kiritdi. Texnik harakatlardan – tashlashlar, oyoqdan ushlab iqtish hamda oyoqlarga og‘riq beruvchi usullarni kiritdi. Shu bilan birga bug‘ish usullarini bekor qildi. 1931-yilda Moskva Davlat jismoniy tarbiya institutida yangi kurash turini o‘rganish boshlandi. V.Oshepkovning ishini V.A.Spiridonov va A.A.Xarlampievlar davom ettirdi.

Sambo Jahonning bir qator mamlakalarida keng tarqaldi. Eron, Mongoliya, Bolgariya, Yaponiya, Angliya, Ispaniya, AQSH, Fransiya, Italiya va boshqa davlatlarda mazkur kurash turiga qiziqish uyg‘ondi. 1966-yilda Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) Kongressi sambo kurashini xalqaro sport turi deb tan olish hamda yunon-rim, erkin kurash bo‘yicha chempionatlarning o‘tkazilish muddatlarida Jahon va Yevropa chempionatlarini tashkil qilish to‘g‘risida qaror chiqardi.

Sambo bo‘yicha birinchi Jahon chempionati 1973-yilda Tehronda bo‘lib o‘tdi. Hozirgi paytda musobaqalar ham erkaklar, ham ayollar o‘rtasida (1983-yildan) o‘tkazib kelinadi. 1979-yilda sambo bo‘yicha Xalqaro federatsiyasi (FIAS) tashkil topdi va hozirda 80 dan ortiq mamlakat a‘zo.



39-rasm



40-rasm



41-rasm





42-rasm

**39- va 42-rasmlarda samboning sport yo‘nalishi bo‘yicha bellashuvlardan lavha, 40-rasmda samboning jangovor yo‘nalishi bo‘yicha bellashuvlardan lavha, 41-rasmda Jahon chempioni Shuxrat Jo‘raev.**

O‘zbekistonda sambo bo‘yicha federatsiya 1964-yilda tuzildi. Sambo kurashidagi texnik harakatlar o‘zbek milliy kurashlaridan – kurashga (buxorochocha usul) yaqin. Ehtimol, shuning uchun bizning sportchilarimiz sambo kurashida yuqori natijalarga erishganlar. Yurtdoshlarimizdan Sayfuddin Xodiev, Sobir Qurbonov, Bobomurod Fayziev, Vyacheslav Elistratov va boshqalar jahon chempionlari bo‘lishgan. 1971-yildan Toshkentda sambo bo‘yicha “Toshkent oqshomi” xalqaro turniri o‘tkazilgan. 1996-yil O‘zbekistonda ayollar sambo federatsiyasi tashkil topdi. 1996-yil O‘zbekiston ayollar sambo federatsiyasi jahon va Osiyo sambo federatsiyasiga a‘zo bo‘lgan. 2001-yil O‘zbekistonda Osiyo sambo federatsiyasi tashkil topdi va uning prezidenti etib sambo bo‘yicha sport ustasi J.Sharapov saylandi. 2003-yil O‘zbekiston Osiyo sambo kurashish rivojlantirish Qo‘mitasi tashkil topdi va uning raisi etib xalqaro toifadagi sport ustasi Fazliddin Pulatov saylandi.

### **1.2.5. Milliy kurash turlari**

Dunyoda unchalik ko‘p bo‘lmagan davlatlardagina milliy kurash turlari mavjud. Bizning yurtimizda birdaniga ikkita milliy kurash turi

borligidan g'ururlanib, kelajak avlodlarimizga mazkur qadriyatimizni saqlab qolishimiz zarur. O'zbekistonda milliy kurash turlaridan kurash (43–44–45–46-rasmlar) va belbog'li kurash (47–48-rasmlar) juda yaxshi rivojlangan. Ko'p sonli tarixiy yodgorliklarda milliy kurash turlari o'z aksini topgan. ***Kurashning avvalgi nomi – buxoracha usuldagi kurash, belbog'li kurashning avvalgi nomi – farg'onacha usuldagi kurash deb atalgan.***

Baxslarni tinchlik yo'li bilan hal qilish, shuningdek dushmanni asirga olish usullarini o'z ichiga oladigan kurash usullarini tasvirlovchi qadimiy rasmlar hozirgi O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar davomida topilgan. Aytish joizki, musobaqalar oldidan uloqtirishlar, sakrashlar, kuchni namoyish qilishni o'z ichiga oluvchi mashqlar bajarilgan. Ular raqiblarning o'zaro bellashuvlari oldidan badan qizdirish vositasi sifatida xizmat qilgan. Kurashchilar bir-birining charmdan tayyorlangan belbog'idan yoki ustki kiyimining har hil joyidan ushlab, bellashishni boshlaganlar. Raqibni tashlash texnik usulini bajarishda oyoqlar bilan harakat qilishga hamda chalish usullariga katta e'tibor qaratilgan. O'zbekiston hududida yashovchi xalqlarda bellashuv birinchi tashlashgacha davom etgan. Bu musobaqalar milliy musiqa ohanglari sadolari ostida o'tkazilgan va musobaqa g'olibi xalq o'rtasida katta hurmatga sazovor bo'lgan. Kurashchilar bellashuvlari g'alaba, oilaviy tantana yoki mavsumiy bayramlar munosabati bilan o'tkaziladigan bayramlar bezagi bo'lgan.

Buyuk bobokolonlarimizdan Abu Ali Ibn Sino (980–1037) va Alisher Navoiy (1441–1501) asarlarida kuchli kurashchilarning bellashuvlari hamda ba'zi texnik usullarning ta'rifi yozib qoldirilgan. Ushbu asarlardan ko'rinib turibdiki, hozirgi O'zbekiston hududida usullar tizimi yetarlicha rivojlangan milliy kurash mavjud bo'lgan, qadimdan ikkita kurash turi shakllangan – raqib belbog'ini oldindan ushlab bellashish va raqibni erkin ushlab olishish. Kurashning birinchi turi “farg'onacha”, ikkinchisi – “buxorochocha” usul deb nomlangan. Bu milliy kurash turlari hozirgi kunda ham Respublikamizda keng tarqalgan. Ushbu turlar bo'yicha Respublika, Osiyo va Jahon chempionatlari o'tkaziladi.

1908-yildan boshlab Turkiston polvonlari o'rtasida professional musobaqalar o'tkazila boshlangan. 1936-yilda yoshlarni milliy kurashga qiziqishini hisobga olib Respublika sport qo'mitasi Toshkent shahrida milliy kurash seksiyasi tuzildi. 1937-yil Toshkent shahrida

birinchi bor Respublikaning 30 ta shahridan 120 ta polvon yig'ilib kurash bo'yicha O'zbekiston birinchiligi o'tkazildi. 1938-yilda "Sambo" kurashi joriy qilinganligi sababli sambo kiyimida (kurtka) kurash tushishi unga moslashish juda tez kechadi. 1939-yil O'zbek kurashining Farg'onacha va Buxorocha turlari bo'yicha musobaqa qoidalari ishlab chiqildi. 1945-yildan boshlab kurash bo'yicha Respublika birinchiliklari o'tkaziladi. 1947-yildan boshlab kurash umum o'zbek Spartakiadasi dasturiga kiritilgan. 1949-yildan boshlab kurash qishloq Spartakiadasi dasturiga kiritilgan. 1975-yildan O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutiga buxoracha va farg'onacha uslubdagi milliy kurash turlari bo'yicha abituriientlar qabul qilinishi boshlangan. Unda A.Absattarov buxoracha usuldagi kurash bo'yicha, J.Nurshin farg'onacha usuldagi kurash bo'yicha murabbiylik qilgan. 1991-yil xalqaro kurash assotsiatsiyasi prezidenti Komil Yusurov qadimiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni jamlab, dunyo andozalariga mos kurash qoidalarini ishlab chiqdi. 1992-yildan boshlab viloyatlarda kurash musobaqalari va turnirlari ommaviy tarzda o'tkazilib kelindi. 1993-yilda ulug' bobokalonimiz Al-Xakim At-Termiziy hotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnirni o'tkazish to'g'risida Vazirlar Maxkamasining qarori qabul qilindi. 1998-yilda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tuzildi (IKA), uning faxriy prezidenti etib mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov saylandi. 1999-yil 1–2-may kunlari Toshkent shahrining "Yunusobod" tennis saroyi va "Jar" sport majmuasida kurash bo'yicha birinchi Jahon chempionati o'tkazildi. Kurash bo'yicha birinchi jahon chempioni unvonini – A.Kurbonov, K.Murodov, T.Muxammadalievlar egalladi. 2000-yil 23-iyunda butun jahon kurashni rivojlantirish jamg'armasi tashkil qilindi. Mustaqillik yillarida ko'plab nufuzli xalqaro turnirlar, qit'alar va Jahon chepionatlari o'tkazilib kelinmoqda. 2017-yilning 7-mart kuni "Sport" gazetasida rasmiy ravishda – kurash XVIII yozgi Osiyo O'yinlari dasturidan o'rin egallaganligi e'lon qilindi. Unga ko'ra 2018-yilning 18-avgustdan 2-sentyabrgacha davom etadigan Indoneziyaning Jakarta va Palembang shaharlaridagi XVIII yozgi Osiyo O'yinlarining 19–22-avgust kunlari kurash bo'yicha bellashuvlar o'tkaziladi.



43-44-rasmlar





45-46-rasmlar





47-48-rasmlar

2001-yilning 29-iyulidan 2-avgustgacha Toshkent viloyatining Parkent tumanida O‘zbekiston Farg‘onacha usuldagi kurash federatsiyasining yig‘ilishi va seminari o‘tkazildi. Mazkur yig‘ilishda farg‘onacha usuldagi kurash – belbog‘li kurash deb ataladigan bo‘ldi va musobaqa qoidalari to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Belbog‘li kurash bo‘yicha bellashuvchilar oldindan bir-birining belbog‘idan ushlab, tashlash texnik usullarini faqat raqibni ko‘tarib bajaradi, raqib oyog‘ini ichkaridan va tashqaridan chalib hamda to‘sib amalga oshirish ruxsat etilmaydi. 2004-yilning 27–30-oktyabr kunlari Shahrisabzda Xalqaro Kurash Asosiatsiyasi tomonidan o‘tkazilgan Jahon chempionatiga belbog‘li kurash bo‘yicha 81 kg vazn toifasi kiritildi va unda Dilmurod Ro‘ziev birinchi bo‘lib jahon chempioni unvonini qo‘lga kiritdi. Belbog‘li kurashga o‘xshash kurash turlari ko‘pchilik xalqlarda mavjud bo‘lganligi sababli anchagina tortishuvlarni vujudga keltirmoqda. Masalan, 2001-yilda birnecha davlat vakillari Qirg‘izistonning O‘sh shahrida belbog‘li kurashga juda o‘xshash kurash bo‘lgan – Xalqaro Alish federatsiyasi tuzilib, alish bo‘yicha Jahon chempionati o‘tkazildi. Musobaqa qoidasi bo‘yicha bellashuvchilar oldindan bir-birining

belbogʻidan ushlab, yiqitish, tashlash texnik usullarini raqib oyogʻini ichkaridan va tashqaridan chalib hamda toʻsib amalga oshirishiga ruxsat etilgan holatda oʻtkazildi. Bundan keyin 2002-yilda Tehron va nihoyat 2003-yilda Istanbulda Jahon chempionati oʻtkazilganda bir tomondan Qirgʻiziston vakillari va bir nechta davlatlar Xalqaro Alish federatsiyasi alohida, ikkinchi tomondan esa Rossiya vakili Rif Gaynanov va bir nechta davlatlar tuzgan Xalqaro ananaviy milliy kurash turlari asosiatsiyasi oʻrtasida katta tortishuvlar sababli Jahon chempionatlari alohida-alohida oʻtkaziladigan boʻldi. Mazkur tortishuvlarning asosiy sababi – musobaqa qoidalaridagi kichik farq va qaysi til rasmiy ravishda tan olinishi edi. Agar alish kurashida rasmiy til – qirgʻiz, rus va ingliz tillari boʻlsa, belbogʻli kurashda – rus va ingliz tillari hisoblanadi (rus.t. – поясная борьба, ingliz.t. – belt wrestling, oʻzbek.t. – belbogʻli kurash). Buning taʼsirida Rossiya vakillari boshqarayotgan Xalqaro ananaviy milliy kurash turlari asosiatsiyasi tomonidan ikkita yoʻnalishda, yaʼni, klassik va erkin uslublarda Jahon chempionatlari oʻtkazilishi joriy etilgan. Belbogʻli kurashning klassik uslubida bellashuvchilar oldindan bir-birining belbogʻidan ushlab, yiqitish va tashlash texnik usullarini faqat raqibni koʻtarib bajaradi, raqib oyogʻini ichkaridan va tashqaridan chalib hamda toʻsib amalga oshirish ruxsat etilmaydi. Belbogʻli kurashning erkin uslubida bellashuvchilar oldindan bir-birining belbogʻidan ushlab, yiqitish va tashlash texnik usullarini raqib oyogʻining ichkarisidan va tashqarisidan chalib hamda toʻsib amalga oshirishi ruxsat etiladi. Bu chempionatlarga barcha davlatlar singari Oʻzbekiston polvonlari ham taklif etilgan va ishtirok yetib kelmoqda. Klassik uslubdagi belbogʻli kurash bizning eski nomdagi fargʻonacha uslubdagi va hozirgi paytdagi belbogʻli kurashga juda oʻxshash. Shu sababdan Rossiya vakillari boshqarayotgan Xalqaro ananaviy milliy kurash turlari asosiatsiyasi tomonidan oʻtkaziladigan Jahon chempionatlarida polvonlarimizdan – R.Umarov, aka-uka Zohidjon va Zaylobiddin Artiqovlar, Z.Jumaqulov, Sh.Mirzanov, X.Roʻziev, O.Mavlonov, B.Toʻxtasinov, I.Mashrabov va boshqalar yuqori natijalarga erishgan.

## *O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari*

**1. Kurash turlari to‘g‘risida tarixiy ma‘lumotlarni yig‘ishda qaysi uslub eng ishonchli hisoblanadi?**

- a) Kutubxonadagi ma‘lumotlardan foydalanish.
- b) Tarixiy manbalarni tahlil etish.
- c) Kurash turlari bo‘yicha federatsiyalarning ma‘lumotlaridan foydalanish.
- d) Arxiv ma‘lumotlaridan foydalanish.

**2. Misrning Beni Gasan qishlog‘ida topilgan ehromning devorlaridagi mukammal texnikaga ega bo‘lgan kurashchilarning tasvirlari qaysi yillarga mansub?**

- a) taxminan e.a. 280 yillarga.
- b) taxminan e.a. 2800-yillarga.
- c) taxminan e.a. 28 yillarga.
- d) taxminan 2800-yillarga.

**3. Qadimgi Yunonistonda jismoniy tarbiya tizimi qachon yaratilgan?**

- a) IX-VIII asrlarda.
- b) Eramizdan avvalgi III-V asrlarda.
- c) Eramizdan avvalgi IX-VIII asrlarda.
- d) Eramizdan avvalgi I-V asrlarda.

**4. Ayaks va Odissey o‘rtasidagi bellashuv bayon etilgan “Iliada”ni kim yozgan?**

- a) Gomer.
- b) Platon.
- c) Sokrat.
- d) Arximed.

**5. Qadimgi Yunonistonda Birinchi Olimpiada O‘yinlari qaysi yilda o‘tkazilgan?**

- a) e. a. 108 y.
- b) e. a. 776 y.
- c) e. a. 999 y.
- d) 1896-y.



**6. Qadimgi Yunoniston va Rim imperiyasi davridagi kurash turlaridan qaysi biri zamonaviy Olimpiada O'yinlari dasturiga 1896-yilda kiritilgan?**

- a) Kurash.
- b) Belbog'li kurash.
- c) Yunon-rim kurashi.
- d) Sambo kurashi.

**7. Zamonaviy Olimpiada O'yinlari dasturiga qaysi kurash turlari kiritilgan?**

a) 1896-yilda – yunon-rim, 1904-yilda – erkin, 1964-yilda – dzyudo kurash turlari.

b) 1900-yilda – yunon-rim, 1924-yilda – erkin, 1964-yilda – dzyudo kurash turlari.

c) 1988-yilda – yunon-rim, 1904-yilda – erkin, 1964-yilda – dzyudo kurash turlari.

d) 19-yilda – kurash, 1904-yilda – erkin, 1964-yilda – dzyudo kurash turlari.

**8. Yunon-rim kurashi bo'yicha yurtdoshlarimizdan kim birinchi bo'lib Olimpiada O'yinlarining oltin medalini qo'lga kiritgan?**

- a) 1972-yilda R.Ablaev.
- b) 1976-yilda Yu.Zelenin.
- c) 1984-yilda K.Fatkullin.
- d) 1972-yilda R.Kazakov.

**9. Erkin kurash bo'yicha yurtdoshlarimizdan kim birinchi bo'lib Olimpiada O'yinlarining oltin medalini qo'lga kiritgan?**

- a) R.Ataullin.
- b) B.Abduraxmonov.
- c) S.Tigiev.
- d) A.Fadzaev.

**10. Dzyudo bo'yicha yurtdoshlarimizdan kim birinchi bo'lib Olimpiada O'yinlarining medalini qo'lga kiritgan?**

- a) A.Tangriev.

- b) R.Sobirov.
- c) D.O‘razboev.
- d) A.Bagdasarov.

**11. Sambo kurashi bo‘yicha yurtdoshlarimizdan kim birinchi bo‘lib Jahon chempioni unvoniga sazovor bo‘lgan?**

- a) B.Fayziev.
- b) E.Maxmarasulov.
- c) S.Xodiev.
- d) O.Buchintsev.

**12. Kurash bo‘yicha birinchi Jahon chempionati qachon va qayerda o‘tkazildi?**

- a) 1996-yilning 1–2-may kunlari Toshkent shahrida.
- b) 1997-yilning 1–2-may kunlari Toshkent shahrida.
- c) 1999-yilning 1–2-may kunlari Toshkent shahrida.
- d) 2000-yilning 1–2-may kunlari Toshkent shahrida.

**13. Kurash bo‘yicha birinchi Jahon chempionatidagi g‘oliblarni ko‘rsating.**

- a) A.Qurbonov, K.Murodov, E.Maxmarasulovlar.
- b) A.Qurbonov, K.Murodov, T.Muxammadievlar.
- c) A.Qurbonov, B.Avezov, T.Muxammadievlar.
- d) A.Qurbonov, R.Ibragimov, T.Muxammadievlar.

**14. Yunon-rim kurashi, fransuz kurashi va klassik kurash turlari bir-biri bilan qanday farqlanadi?**

- a) Yunon-rim kurashi va klassik kurash turlari har xilligi bilan.
- b) Fransuz kurashi va klassik kurash turlari har xilligi bilan.
- c) Faqat nomi bilan, aslida ular bitta kurashning har xil nomi.
- d) Ular hozirgi kunda erkin kurashi deb nomlanadi.

**15. FILA tashkilotining nomi qachon va qayerda UWW nomiga o‘zgartirildi ?**

- a) 2016-yil Rio-de-Janeyro shahrida.
- b) 2014-yil Toshkent shahrida.
- c) 2015-yil Las-Vegas shahrida.
- d) 2012-yil London shahrida.

**16. Yunon-rim kurashi bo'yicha 2016-yilda o'tkazilgan Olimpiada O'yinlarida yurtdoshimizdan kim 3 o'rinni egalladi?**

- a) Dilshod Turdiev.
- b) Rustem Assakalov.
- c) Mo'min Abdullaev.
- d) Elmurod Tasmuratov

**17. Erkin kurash bo'yicha 2016-yilda o'tkazilgan Olimpiada O'yinlarida yurtdoshimizdan kimlar 3 o'rinni egalladi?**

- a) Ixtiyor Navro'zov, Soslan Tigiev.
- b) Ixtiyor Navro'zov, Artur Taymazov.
- c) Ixtiyor Navro'zov, Bekzod Abduraxmonov.
- d) Ixtiyor Navro'zov, Magamed Ibragimov.

**18. Dzyudo bo'yicha 2016-yilda o'tkazilgan Olimpiada O'yinlarida yurtdoshimizdan kimlar 3 o'rinni egalladi?**

- a) Armen Bagdasarov, Abdulla Tangriev.
- b) Abdulla Tangriev, Rishod Sobirov.
- c) Diyorbek O'rozboev, Rishod Sobirov.
- d) Rishod Sobirov, Abdulla Tangriev.

**19. Amerikadagi "Ketch"ning qanday yo'nalishlari mavjud edi?**

- a) Jangovor va sport yo'nalishlari.
- b) Professional va talabalar yo'nalishlari.
- c) Funktsional va sport yo'nalishlari.
- d) Professional va sport yo'nalishlari.

**20. Yurtdoshlarimizdan kim Olimpiada O'yinlarida uch marotaba oltin medalga sazovor bo'lgan?**

- a) Abdulla Tangriev.
- b) Rishod Sobirov.
- c) Artur Taymazov
- d) Bekzod Abduraxmonov.

**21. Yurtdoshlarimizdan kim Olimpiada O'yinlarida uch marotaba bronza medaliga sazovor bo'lgan?**

- a) Artur Taymazov
- b) Bekzod Abduraxmonov.

- c) Rishod Sobirov.
- d) Abdulla Tangriev.

**22. Dzyudoning asoschisi kim?**

- a) V.S.Oshepkov.
- b) Yamomoto Kanskiy
- c) Shinzo Abe
- d) Dzigaro Kano.

**23. Birinchi dzyudo maktabi – “Kadokan” (“Usulni egallash uyi”) qachon ochilgan?**

- a) 1988-yilda.
- b) 1882-yilda.
- c) 1982-yilda.
- d) 882 yilda.

**24. Dzyuyo qachondan boshlab Olimpiada O‘yinlari dasturiga kiritilgan?**

- a) 1952-yildan.
- b) 1956-yildan.
- c) 1960-yildan.
- d) 1964-yildan.

**25. Sambo kurashining asoschisi kim?**

- a) Dzigaro Kano.
- b) Vladimir Putin.
- c) V.S.Oshepkov.
- d) F.Pulatov.

**26. Sambo kurashining qanday yo‘nalishlari mavjud ?**

- a) Professional va talabalar yo‘nalishlari.
- b) Oddiy va murakkab yo‘nalishlari.
- c) Jangovor va sport yo‘nalishlari.
- d) Uzoq va yaqin yo‘nalishlari.

**27. Sambo bo‘yicha “Toshkent oqshomi” xalqaro turniri qayerda va qachondan boshlab o‘tkazilgan.**

- a) Farg‘onada 1971-yildan.
- b) Toshkentda 1971-yildan.
- c) Toshkentda 1999-yildan.

d) Toshkentda 2014-yildan.

**28. Buxoracha usuldagi kurash qachondan boshlab – kurash deb atala boshladi?**

a) 1995-yildan.

b) 1996-yildan.

c) 1997-yildan.

d) 1998-yildan.

**29. Farg‘onacha usuldagi kurash qachondan boshlab – belbog‘li kurash deb ataladi?**

a) 2001-yildan.

b) 2002-yildan.

c) 2003-yildan.

d) 2004-yildan.

**30. O‘zDJTIga qachondan boshlab buxorocha va farg‘onacha usullardagi kurash turlari bo‘yicha abituriyentlarni qabul qilish boshlangan?**

a) 1973-yildan.

b) 1974-yildan.

c) 1975-yildan.

d) 1976-yildan.

**31. Xalqaro ananaviy milliy kurash turlari asosiatsiyasi belbog‘li kurashning qaysi yo‘nalishlari bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazadi?**

a) Oddiy va murakkab yo‘nalishlar bo‘yicha.

b) Klassik va erkin yo‘nalishlar bo‘yicha.

c) Professional va talabalar yo‘nalishlar bo‘yicha.

d) Buxoracha va farg‘onacha yo‘nalishlar bo‘yicha.

**32. 2018-yilda o‘tkaziladigan XVIII yozgi Osiyo O‘yinlari dasturiga milliy kurashimizdan qaysi biri kiritilgan?**

a) Kurash.

b) Belbog‘li kurash.

c) Sirym kurashi.

d) Gushtungiri.

*O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kalitlari.*

№	A	B	C	D
1				*
2		*		
3			*	
4	*			
5		*		
6			*	
7	*			
8				*
9				*
10				*
11			*	
12			*	
13		*		
14			*	
15		*		
16				*
17				*
18			*	
19		*		
20			*	
21			*	
22				*
23		*		
24				*
25			*	
26			*	
27		*		
28				*
29	*			
30			*	
31		*		
32	*			

### *Adabiyotlar ro'yhati:*

1. Атаев А.К. Кураш Т., 1987.
2. «Алпомиш». Ўзб. ФАН нашриети, Т., 1969.
3. Лекаров А. «Ўзбек миллий курашининг археологик материаларида акс этилиши», журнал-тўплам «Турон тарихи» №21, Ташкент, 2002.
4. Бабур З. М. «Бобурнома», «Юлдузча» нашр., Т., 1989.
5. Грязнов М.П. "Древнейшие памятники героического эпоса народов Южной Сибири", «Археологический сборник», вып. 3, Л., 1961.
6. Гумилев Л. Н. "Древние тюрки". С-П., 2003.
7. Зияев Х. «Сибирдаги ўзбеклар», Ўз ССР давлат нашриёти, Т., 1958.
8. Зияев Х. «Ўрта Осиё ва Волга бўйлари», (XVI-XIX асрлар). Фан нашриёти. Т., 1965.
9. Ильдарханов И.Г. "Мы родом из «курэш»", «Ғасыр» нашр., 2003.
10. Исхаков Г.М. "Краткая история уйгуров", Алма-Аты, 1991.
11. Кашгарий М. «Девону луғатид турк», УзФАН нашриёти, т. 3, 1963.
12. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Т., 2001.
13. Кун Л. «Всеобщая история физической культуры и спорта», изд. «Радуга», М., 1982.
14. Купцова А.П. Спортивная борьба. М., 1978.
15. "Огонёк" ilmiy-adabiy jurnali, М., 5-9 betlar 1991yil.
16. Нуршин Ж.М., Саломов Р.С., Керимов Ф.А. Ўзбекча миллий спорт кураши. Т., 1993.
17. Mirzakulov Sh.A. Belbog'li kurash nazariyasi va uslubiati. Т., 2013у.
18. «Корни борьбы. Традиционные борющиеся стили». Лозанна, 2000.
19. Tastanov N.A. Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiati. Т., 2014.
20. Туманяна Г.С. Спортивная борьба. М., 1985.
21. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. Т., 2008. 23-30 б.
22. Юсупов К. Кураш халқаро мусобақа қоидалари, техникаси, тактикаси. Т. 2005.
23. "Sport" gazetasi, 10-son(7462), 7-mart 2017-yil.

## **II-BOB. KURASH TURLARI BO‘YICHA TEXNIK USULLARNING KLASSIFIKATSIYASI, SISTEMATIKASI VA ULARNING TERMINOLOGIYASI**

### **2.1.Kurash turlarida klassifikatsiya, sistematika va terminologiyaning ahamiyati**

Kurash turlari bo‘yicha texnik usullarni “oddiydan murakkabga” tamoyili asosida sinflarga ajratish, ularni o‘rgatish jarayoni yengil kechishi, didaktik va metodologik talablarga mos sistemani tuzish, texnik usullar va harakatlarning nomini muvofiqlashtirish, bel-lashuvlardagi texnik usullarning belgilarini yozib borish hamda mutaxassislarning ilmiy asosdagi munosabatlarini yengillashtirish uchun klassifikatsiya, sistematika va ularning terminologiyasi ahamiyatlidir. Texnik usullarning klassifikatsiyasi, sistemstikasi va terminologiyasini shakllantirish qaysi tilda tuzilishiga ham bog‘liq. O‘zbekiston hududida texnik usullar nomi Mustaqillik yillarigacha faqatgina rus tilida atalib yuritilgan. O‘zbek tilida birinchi bo‘lib F.A.Kerimov tomonidan 2001-yildagi darsligida ko‘rsatilgan. Lekin har bir kurash turiga alohida-alohida klassifikatsiya emasdi, bu darslik ko‘proq erkin kurashning texnik usullariga urg‘u berilib tuzilgan edi. Shuningdek Z.A.Bakiev tomonidan tayyorlangan 2010-yildagi o‘quv qollanmasida erkin kurash bo‘yicha texnik usullarning to‘liq terminologiyasi sistematik ravishda ko‘rsatilgan. 2013-yilda Sh.A.Mirzaqulov tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmada belbog‘li kurash hamda 2014-yilda N.A.Tastanov tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmada yunon-rim kurashi bo‘yicha ko‘rsatilgan. 2015-yilda Sh.A.Arslanov dzyudo va 2016-yilda E.I.Bayturaev sambo bo‘yicha texnik usullar klassifikatsiyasi, sistematikasi va terminologiyasi o‘zbek tilida ishlab chiqarildi.

### **2.2.Umumiy qoidalar**

Kurashi turlarida sportchining texnik harakatlari ko‘p va turli-tumanligi sababli u boshqa sport turlaridan farq qiladi. Kurash



turlarining texnik harakatlarini tartibga solish va ushbu sohada mutaxassislar o'rtasida muloqat qilish imkonini yaratish uchun kurash turlari texnikasining klassifikatsiyasi, sistematikasi hamda terminologiyasi ishlab chiqilgan.

Klassifikatsiya – bilimlarning u yoki bu sohasidagi bir-biriga tobe tushunchalar (sinflar, ob'yektlar, hodisalar) tizimidir. Klassifikatsiya ob'yektlarning umumiy belgilar va ular o'rtasidagi qonuniy bog'liqlikni hisobga olish asosida tuziladi. Klassifikatsiya turli-tuman ob'yektlarda to'g'ri yo'l tutishga yordam beradi hamda ular to'g'risidagi bilimlar manbai bo'lib hisoblanadi. Kurash turlarining usullarini ularning umumiy belgilariga qarab (klassifikatsiyasiga) taqsimlash mutaxassislariga fan to'g'risidagi nazariy hamda amaliy bilimlarni rivojlantirishga imkon yaratadi va bir vaqtning o'zida bu bilimlardagi kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Kurash turlarida texnik harakatlar klassifikatsiyasi to'g'risidagi bilim – ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlarni amalga oshirish uchun ma'lum harakatlarni ta'riflashda katta o'rin egallaydi. Yaxshi tuzilgan klassifikatsiya ilmiy asoslangan atamalarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Kurash usullari o'rtasidagi ichki bog'liqliklar sistematika asosida ko'rib chiqiladi. Sistematika – bu kurash texnikasini bir tizimga solish, ma'lum bir tartibda joylashtirish, ma'lum bir ketma-ketlikni belgilash demakdir. Sistematikada klassifikatsiyadan farqli ravishda ob'yektlarning ketma-ketligini aniqlash, belgilash uchun bir-biri bilan taqqoslanadi. Chunki uning davomida ko'rib chiqilayotgan ob'yektlar ularning o'xshashligi va o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda u yoki bu bo'linmaga ta'luqli bo'ladi. Sistematika ushbu klassifikatsion sxema imkoniyatlarini ochib beradi, uning kamchiliklarini ko'rsatadi.

Kurash turlarida klassifikatsiya va sistematikaning vazifasi – kurash turlari mohiyatini aks ettirish hisoblanadi. Klassifikatsiya va sistematika tushunchalarni aniqlash bo'yicha oldindan ish bajarimasdan turib, amalga oshirilmaydi (o'tkazish, yiqitish, tashlash, ag'darish va h.k.).

Kurash turlari terminologiyasi – bu mutaxassislar o'zlarining ilmiy va pedagogik ish faoliyatlarida foydalanadigan atamalar yig'indisidir.

Mazkur ko'pgina fanlarni klassifikatsiya va sistematika asosida tuzilgan terminologiya fan mohiyati to'grisida ma'lumotlar beradi hamda maqsadli ravishda takomillashtirish imkoniyati tug'iladi. Bunday termin ilmiy asoslangan terminologiya deb ataladi.

Klassifikatsiya, sistematika va terminologiya to'grisida fikr yuritilganda, ularning mana shu tartibda sanab o'tilishiga e'tibor berib, undagi tavsilot bo'yicha ish ketma-ketligini ko'rish mumkin. Ya'ni avval klassifikatsiya bajariladi, uning natijasida ma'lum bir tizim hosil bo'ladi, so'ngra esa uning asosida hamma kurash usullarining ilmiy asoslangan nomlari (terminlari) beriladi.

Bellashuvning har xil turlari umumiy qonuniyatlarga ega hamda ular quyidagilardan iborat (A.P. Kuptsov, F.A.Kerimov):

1. Bellashuvda ikkita sportchi qatnashadi, ulardan har biri texik usullar, himoya, qarshi usullar yoki kombinatsiya amalga oshiriladi. Bellashuvning har bir alohida daqiqalarida hujumni amalga oshirayotgan va hujumni qabul qilayotgan kurashchi aniqlanib boriladi.

2. Har bir kurashchi harakat faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – bu egallagan ustunlikni saqlab turishdir.

3. Hujumni amalga oshirayotgan kurashchining vazifasi raqibning gilamga nisbatan holatini o'zgartirish uchun uni muvozanatdan chiqarishdan iborat. Bunda kurashchilarni bir-biriga nisbatan holatlari turli xilda o'zgarib turishi mumkin.

4. Gilamga nisbatan holatni o'zgartirish shu bilan yengillash-tiriladiki, bunda kurashchilarning gilamga qaratilgan og'irlik kuchidan foydalaniladi.

5. Raqib tanasining ma'lum bir nuqtasiga zarur kuch berish har bir usulning biomexanik asosini tashkil qiladi (kuch momentlarini hosil qilish, kuch juftligini yaratish, og'irlik kuchlari va inertsiya kuchlaridan foydalanish).

6. Texnik usulni amalga oshirish g'olib bo'lishga imkon beradi va bir nechta qismlardan iborat: taktik tayyorgarlik harakatlari, ushlash, asosiy harakat, hujum hamda yakunlovchi harakat.

7. Har bir texnik usul o'zgartirilishi va dinamik vaziyat hamda raqib xususiyatlariga qarab murakkablashtirilishi mumkin.

8.Har bir texnik usulni amalga oshirish paytida raqib holatini hisobga olish, sur'at va tavsiflarga e'tibor qaratiladi. U bellashuvning vaziyatlarida yoki butun bellashuvda o'zgartirilishi mumkin.

9.Har bir usulni bajarish joyi kurash gilami o'lchamlari bilan chegaralangan.

### **2.3.Kurash turlari texnik usullarining yagona sistematikasi va sistematikasi**

Kurash turlarining mazmuni, alohida har bir kurash turida kurashchilarning harakatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligiga qaramasdan, umumiy asosga ega va bir xil belgilariga qarab ta'rif berilgan. Shuning asosida kurash turlari texnik usullarining yagona sistematikasi va sistematikasi ishlab chiqilgan (A.P. Kuptsov, F.A.Kerimov). Bunda har bir kurash turning o'ziga xos xususiyatlari saqlanib qolgan, sinf va guruhlar ajratilgan. Yunon-rim kurashi bo'yicha – barcha texnik harakatlar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan, erkin kurash bo'yicha – barcha texnik harakatlar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan va pastdan, sambo bo'yicha – barcha texnik harakatlar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan va pastdan hamda og'riq beruvchi usullar qo'shiladi, dzyudo bo'yicha – barcha texnik harakatlar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan va pastdan, og'riq beruvchi hamda bug'ish usullari qo'shiladi. Yuqoridagi kurash turlari yunon-rim, erkin, sambo va dzyudo kurash turlarining texnik harakatlari parter va tik turgan holatlarda amalga oshiriladi. Mazkur kurash turlari bo'yicha yagona klassifikatsiyasida milliy kurash turlari, ya'ni, kurash va belbog'li kurash ko'rsatilmagan. Belbog'li kurashning texnik usullari yunon-rim kurashi harakatlariga yaqinligiga hamda kurashning texnik usullari erkin, sambo va dzyudo kurash turlariga yaqinligiga, shuningdek milliy kurash turlarida parter holatidagi texnik usullar yo'qligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak – yangi yagona kurash turlari klassifiatsiya namoyon bo'ladi(1-jadval).

Kurash turlari texnikasi asosiy usullarining yagona tasnifi va tizimini ishlab chiqishda quyidagi vazifalar oldinga qo'yilgan:

– texnik harakatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning turli-tumanligi va murakkabligini ochib bergan holda uning mohiyatini aks ettirish;

– gilamda amalga oshiriladigan harakatni kurash turiga ajratmagan holda aks ettirish;

– hamma kurash turlari uchun umumiylikni aniqlashga yordam berish;

– har bir kurash turining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish;

– har bir kurash turiga boshqa turlardan (shu qatorda milliy kurashdan) musobaqa qoidasi bo‘yicha ruxsat etilgan usullarni o‘zlashtirish imkonini yaratish;

– asosiy texnik usullarni “maktabdagi bajarish” ga tasniflash;

– hamma kurash turlari uchun umumiy bo‘lgan texnik tushunchalar hamda ta’riflarni tuzish va har bir turning umumiy tamoyillarga asoslangan terminologiyasini yaratishga yordam berish.

Quyidagi umumiy kurash turlarining yagona klassifikatsiyasidan kelib chiqqan holda texnik usullarning alohida klassifikatsiyasi va sistematikasining asosiy xususiyatlari shundan iborat, ya’ni uning hamma darajalari har qaysi kurash turi (shu qatorda milliy) texnikasining bosqichma-bosqich ifodasi hisoblanadi hamda ko‘p sonli elementlarni tartibga solishga yordam beradi (1-jadval).

Birinchi daraja – sinflar, kurash qanday holatda amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi. Kurashning texnik harakatlari ham tik turishda, hamda parterda bajariladi. Ikkinchi daraja – kichik sinflar, bellashuvda nima bajarilayotganligini (tashlash, o‘tkazish, ag‘darish va h.k.) ko‘rsatadi. Uchinchi daraja – guruhlar, usul, ya’ni hujumni amalga oshirayotgan kurashchilarning usullarni bajarish paytidagi mumkin bo‘lgan asosiy harakat turlari qanday bajarilayotganligini ko‘rsatadi. Masalan, tashlashlar oldinga engashib, orqaga egilib, burilib va h.k. bajariladi. To‘rtinchi daraja – kichik guruhlar, mumkin bo‘lgan qo‘l bilan ushlab olishlar, oyoqlar bilan harakatlanishlar hamda usullarni bajarishning boshqa xususiyatlarini, ya’ni guruh ichidagi usullarni o‘zining variantlarga ajralishini ko‘rsatadi, ma’lum bir sistemaga soladi.

Sistematikaning shunday tuzilishidan foydalanib, hamma usullar nomini hosil qilish hamda bajarish murakkabligining ortib borishiga

qarab, ularni bir tartibda tuzib chiqish mumkin. Bu ham sistema hisoblanadi. Gilamda bajarish mumkin bo'lgan har qanday texnik harakat ushbu klassifikatsiya jadvaliga kiritilgan. Unga ko'ra rus tilida birinchi darajadan to'rtinchi darajagacha aytib yuritilar edi. O'zbek tilida esa to'rtinchi darajadan birinchi darajagacha aytib yuritiladi. Kurashchilarning qaysi holatdaligi, tik turish yoki parterda bajarish ko'rsatilmagan, ya'ni birinchi daraja aytilmasdan, texnik usulni to'rtinchi-uchinchi-birinchi darajalari bo'yicha termini ishlatish mumkin. Bunda birinchi daraja faqatgina nazarda tutiladi yoki agar jumlada ham tik turishda, ham parterda mavjud bo'lgan usullar to'g'risida gap borsa, ushbu hollarda qo'shimcha tushuntirish uchun birinchi darajadagi kurashchining holati aytiladi.

Usullarni ta'riflash uchun quyidagilarni bilish zarur:

1. Usul qanday ushlab olish va boshqa xususiyatlar bilan bajarildi, ya'ni ushbu holda usulning qanday varianti nazarda tutiladi (4-daraja).

2. Usul qanday bajarildi (orqaga egilib, oldinga engashib), ya'ni hujum qilayotgan kurashchining asosiy harakatini xarakterlovchi usul qaysi guruhga taalluqli (3-daraja).

3. Gilamda qaysi asosiy nomdagi texnik usul bajarildi (tashlash, o'tkazish, ag'darish va h.k.), ya'ni usul qaysi kichik guruhga taalluqli (2-daraja).

Masalan, yunon-rim kurashida – “Qo'l va bo'ynidan ushlab beldan oshirib tashlash” texnik usuli nomlanayotganda bunda to'rtinchi darajadagi ushlarlar, uchinchi darajadagi texnik usulning asosiy harakati va ikkinchi darajadagi texnik usulning asosiy nomi tartibi foydalanilgan. Usullarning har bir to'liq nomlanishidan uchta klassifikatsiya darajasiga muvofiq bo'lgan va shu tariqa ushbu usulning umumiy sistemikasidagi o'rnini ko'rsatib beruvchi uchta qism bo'lishi lozim.

Shunday qilib, yagona klassifikatsiya asosida yagona uslub bo'yicha ishlab chiqilgan kurash turlari terminologiyasi mutaxassislarning butun ilmiy-uslubiy va sport-pedagogik faoliyati uchun o'ta muhim ahamiyatga ega.

**Kurash turlarining yagona klassifikatsiyasi**

<b>Texnik usullarni amalga oshirish</b>	<b>Kurash turlari</b>			
<b>Parter va tik turgan holatda</b>	<b>Yunon-rim kurashi</b>	<b>Erkin kurash</b>	<b>Sambo</b>	<b>Dzyudo</b>
	<b>Barcha texnik harakatlar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan</b>	<b>Barcha texnik harakatlar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan</b>	<b>Barcha texnik harakatlar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan</b>	<b>Barcha texnik harakatlar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan</b>
	<b>tanasining bel qismi pastdan ta'qiqlanadi</b>	<b>tanasining bel qismi pastdan mumkin</b>	<b>tanasining bel qismi pastdan mumkin</b>	<b>tanasining bel qismi pastdan mumkin</b>
	<b>og'riq beruvchi usullar ta'qiqlanadi</b>	<b>og'riq beruvchi usullar ta'qiqlanadi</b>	<b>og'riq beruvchi usullar mumkin</b>	<b>og'riq beruvchi usullar mumkin</b>
	<b>bug'ish usullar ta'qiqlanadi</b>	<b>bug'ish usullar ta'qiqlanadi</b>	<b>bug'ish usullar ta'qiqlanadi</b>	<b>bug'ish usullar mumkin</b>
	<b>Tik turgan holatda</b>	<b>Milliy kurash turlari</b>		
<b>Belbog'li kurash</b>		<b>Kurash</b>		
<b>Barcha texnik harakatlar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan</b>		<b>Barcha texnik harakatlar qo'l bilan raqib tanasining bel qismi yuqorisida, oyoq bilan bel qismi pastdan mumkin</b>		

**Kurash turlarida asosiy texnik usullarning klassifikatsiyasi.**

1-daraja	2-daraja	3-daraja	4-daraja
Sinflar (kurashchi nig holati)	Kichik sinflar (texnik usulning asosiy nomi)	Guruhlar (texnik usulning asosiy harakati)	Kichik guruhlar (ushlashlar va yo'nalish- lar)
Tik turgan holatdagi usullar	O'tkazishlar	Qo'lini tortib, sho'ng'ib, qo'lini bo'yinga o'rab, oldinga chiqib- o'tirib.	Har xil ushlashlar bilan turli yo'nalish- larda bajariladiga n usullar variantlarin i hosil qiluvchi va boshqa yo'nalishda bajariladiga n qo'l va oyoqlar bilan harakatlani sh.
	Yiqitishlar	Zarb bilan, qayirib.	
	Tashlashlar	Beldan oshirib, yelkalaridan oshirib, qo'lini bo'yinga o'rab, ilib, to'sib, egilib, ko'krakdan oshirib.	
Parter holatidagi usullar	To'ntarishlar	Qayirib, aylana yugurib, o'tish bilan, aylantirib, ag'darib, bel orqali, ko'krak orqali.	
	Tashlashlar	Aylantirib, belini teskari ushlab egilib, beldan oshirib, ko'krakdan oshirib.	
	Og'riq beruvchi	Qo'lga, oyog'iga	
	Bug'ish	Yon tomondan, old tomondan, orqa tomondan, yuqoridan,	
	Xavfli holatda ushlashlar	Yon tomondan, old tomondan, oyoq tomondan, yuqoridan, ko'ndalangiga.	
Yuqoriga chiqib olish	Cho'kkalab, qochib (oldinga, orqaga), o'tib, yozilib (richag), qisib olib, qayirib (tuguncha), tortib, siqib olib, oldinga chiqib- o'tirib.		

## **2.4.Kurash turlaridagi tushunchalar va terminlar**

Tushunchalar va terminologiyada har qanday fanni o'rganish va o'qitish predmeti ochib beriladi, fanda to'planayotgan bilimlar jamlanadi. Agar tushuncha to'liq ta'rifga ega bo'lsa, ya'ni uni tuzish hamda ishlatish farqlari va usullari mezonlarining qisqa ifodasi berilsa, bunday tushuncha to'liq hisoblanadi. Kurash turlarida foydalaniladigan quyidagi asosiy tushunchalar va terminlarni ta'riflashda shunga e'tibor qaratish lozimki, ilmiy-usuliy adabiyotlar hamda amaliyotda ularning yagona ta'rifi kam uchraydi.

### **2.4.1.Tushunchalar va terminlar**

Kurashchi – bu kurash turlari bo'yicha ko'p yillik pedagogik jarayon ta'sirida tayyorgarlikdan o'tgan malaka va mahoratga erishgan sportchi. Bunda birgina kurashda (buxoracha usuldagi) emas, balki barcha kurash turlarining sportchilari ham – kurashchi deb yuritilishi mumkin. Shuningdek sambo kurashchisini – sambist, dzyudo kurashchisini – dzyudoist, yunon-rim kurashchisini – klassik deb yuritilishlar rus tilining ta'siridir.

Kurash bilan shug'ullanuvchi – bu kurash turlari bo'yicha pedagogik jarayon ta'sirida tayyorgarlik ko'rayotgan ko'nikmaga ega, lekin malaka va mahoratga erishmagan shug'ullanuvchi.

Hujumni amalga oshiruvchi – texnik usulni amalga oshirayotgan kurashchi.

Hujumni qabul qiluvchi – ustidan texnik usul bajarilayotgan kurashchi.

Kurashchilar tayyorgarlik sistemasi – yaxlit birlikni tashkil qiluvchi va maqsadga erishishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar yig'indisidir, ya'ni bu xalqaro arenadagi kuchli kurashchilarning model xarakteristikasiga javob bera oladigan va eng yuqori natijalarni ko'rsatishga qodir sportchilarni tayyorlashga qaratilgan tadbirlar kompleksidir.

Kurashchining trenirovkasi – bu tayyorgarlik sistemasining tarbiyaviy qismidir, yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan aniq reja asosida tizimlashtirilgan vositalar hamda uslublar yordamida sportchi



rivojlanishini boshqarishning pedagogik jihatdan tashkil etilgan jarayonidir.

Trenirovka faoliyati – trenirovka maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish bo'yicha trenerlar jamoasi hamda kurashchilarning birgalikdagi faoliyatidir.

Sport musobaqalari – kurashchi tayyorgarligi tizimining tarkibiy qismidir. Ular trenirovka maqsadlari hamda uning samaradorligi mezonini bo'lib xizmat qiladi, boshqa tomondan esa, ular maxsus musobaqa tayyorgarligining samarali vositasi hisoblanadi.

Sportchining texnik tayyorgarligi – kurashchining musobaqa faoliyatida yuqori ishonchliligini ta'minlaydigan hamda musobaqa qoidasi bo'yicha ruxsat etilgan harakatlar malakasini egallashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Sportchining taktik tayyorgarligi – musobaqa faoliyatida raqibga nisbatan ustunlikka erishish uchun texnik harakatlarni oqilona qo'llash malakasini egallashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Kurashchining jismoniy tayyorgarligi – jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish va funktsional imkoniyatlarni oshirish, texnik-taktik harakatlarning samarali egallanishini ta'minlaydigan hamda musobaqa faoliyatida yuqori darajadagi ishonchlilikka yordam beradigan tayanch-harakat apparatini mustahkamlashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Kurashchining ruhiy tayyorgarligi – ma'naviy, iroda va kurash turining o'ziga xos xususiyatlariga mos bo'lgan hamda musobaqa faoliyatida yuqori darajadagi ishonchlilikni ta'minlashga qodir ruhiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Kurashchining nazariy tayyorgarligi – sportchini trenirovka va musobaqa faoliyati samaradorligini oshiradigan maxsus bilimlar bilan qurollantirish.

Kurashchining intellektual tayyorgarligi – barcha tayyorgarlik jarayonlarini kelajakda zarur ekanligini oldindan tushunish va fahmlashga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Kurashchining integral tayyorgarligi – samarali musobaqa faoliyatini ta'minlash maqsadida texnik, taktik, ruhiy, jismoniy, nazariy

va integral tayyorgarlik bo'yicha trenirovka ta'sirlarining integratsiyalashuviga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Trenirovka nagruzkasi – mashg'ulotlar jarayonida kurashchiga trenirovka orqali ta'sir ko'rsatishning son ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi trenirovkaning tarkibiy qismidir.

Musobaqa nagruzkasi – musobaqa faoliyatidagi hajm va shiddat ko'rsatkichlarining son miqdoridir.

#### **2.4.2. Kurash turlarida taktik harakatlar**

Kurash turlari taktikasi – bu bellashuvlar va musobaqalarda yuzaga kelgan muayyan vaziyatlarda raqib xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik iroda va jismoniy imkoniyatlardan mohirona foydalanishdir.

Hujum uchun tayyorgarlik harakatlari – bu hujum harakatini bajarish uchun zarur bo'lgan raqibning kutilayotgan va himoyalanih harakatini keltirib chiqarish maqsadida bajariladigan kurashchining hujum harakatlaridir.

Taktik tayyorgarlik usullari – kurashchi harakatlari bo'lib, ular yordamida u hujum yoki qarshi xujum uchun qulay sharoitlarni yaratadi.

Razvedka – kurashchining raqib to'g'risida ma'lumot olishga qaratilgan taktik harakatlaridir. Bunda tashqi va ichki razvedka ajratiladi. Tashqi razvedkada raqib to'g'risida bellashuvgacha davr moboynda har xil axborot yig'iladi, ichki razvedkada esa aynan bellashuv paytidagi axborot yig'iladi, hamda shularga ko'ra kurashchi harakatini amalga oshiradi.

Niyatni yashirish – kurashchining taktik harakati bo'lib, uning yordamida u raqibdan o'zining asl niyatlarini yashiradi.

Xafv solish – kurashchining raqibni himoyalanihga o'tishga majbur qiluvchi taktik harakatidir.

Aldamchi harakat (aldash) – hujum qiluvchi tomonidan oxiriga yetkazilmaydigan va raqibni himoyalanihga majbur qiladigan usullar, qarshi usullar, ushlab olishlar, siltashlar, turtishlar va boshqa harakatlar.

Oo'shaloq aldash – kurashchining taktik harakati bo'lib, haqiqiy usulni raqibga aldamchi usul sifatida ko'rsatadi.

Chorlash – kurashchining taktik harakati bo‘lib, shu orqali u raqibni faol harakatlarga o‘tishga majbur qiladi.

Teskari chorlash – kurashchining taktik harakati uning faol harakatlarni to‘xtatib, raqibni ham shunday harakatlarga chorlash maqsadida amalga oshiradigan harakati.

Cheklab qo‘yish – kurashchining raqib harakatlari erkinligini cheklab qo‘yadigan taktik harakatlari.

Takroriy hujum – bir xil harakatlarni ketma-ket bajarishdan iborat bo‘lgan taktik harakat. Ushbu ketma-ket uyushtirilgan harakatlar ichida faqat oxirgisi hal etuvchi, qolganlari esa aldamchi harakat hisoblanadi.

Muvozanatdan chiqarish – kurashchining taktik harakati bo‘lib, u raqibni nomustahkam holatni egallashga majbur qilish bilan birga kurashchiga hujumni bajarish uchun qulay vaziyatni yaratadi.

### **2.4.3. Kurashchining texnik harakatlari**

Usul – g‘alabaga yoki raqib ustidan ustunlikga erishish uchun hujumni amalga oshiruvchining hujumni qabul qiluvchi holatini gilamga nisbatan o‘zgartirishga qaratilgan texnik harakatidir.

Himoya – hujumni amalga oshiruvchining bajarayotgan usulini hujumni qabul qiluvchi tomonidan to‘xtatib qolishga qaratilgan texnik harakat.

Oarshi usul – hujumni amalga oshiruvchining bajarayotgan usuliga hujumni qabul qiluvchi tomonidan javob usulini bajarishga qaratilgan texnik harakat.

Kombinatsiya – bir nechta texnik usullarning reja asosida va zanjirsimon tartibda ketma-ket hujum harakatlarining muvofiqlashtirilganligidir. Bu tizimdagi har bir hujumga raqib tomonidan qaysi himoya harakatidan foydalanishini oldindan yoki o‘z vaqtida mo‘ljal qilish ahamiyatlidir. Kombinatsiyalar texnik usullar uyg‘unligini ta‘minlashi hamda boshlang‘ich usullar keyingilarini bajarish uchun qulay dinamik vaziyat yaratishi zarur hisoblanadi.

Bog‘lam – tik turish holatidan boshlanib parter holatiga o‘tish yoki aksincha tartibda bajariladigan texnik usullar uygunligidir.

Yuqoriga chiqib olish – parter holatdagi kurashchining yuqoriga chiqishga yordam beradigan texnik harakat.

Zarb bilan ko'tarish – raqibni tana yordamida o'z oldidan yuqoriga zarbaviy harakat bilan ko'tarish.

#### **2.4.4. Kurash turlaridagi asosiy holatlar**

Kurashchining asosiy holatlari – sport tayyorgarligi jarayonida kurashchilar tomonidan qo'llaniladigan holatlardir.

Tik turgan holat – bellashuvni olib borish uchun zarur bo'lgan, kurashchining tik oyoqlarda turgan holatidir. O'ng, chap tomonlama, yalpi, past va baland tik turish turlari ajratiladi. Ular yaqin, o'rta va uzoq masofalardan turib qo'llaniladi.

O'ng tomonlama tik turish – kurashchining (raqibga nisbatan) o'ng oyog'ini oldinga chiqarib turgan holatidir.

Chap tomonlama tik turish – kurashchining chap oyog'ini oldinga chiqarib turgan holatidir.

Frontal tik turish – kurashchining tik turishdagi holati bo'lib, bunda uning oyoq kaftlari gavdasining yalpi tekisligida turadi.

Baland tik turish – tik turishda butun bo'yi bilan turgan kurashchining holatidir.

Past tik turish – kurashchining toz-son bo'g'imlari va oyoqlarni tizzalardan bukib egilib turishdagi holatidir.

Parter holati – kurashchining tizzalarda va qo'llari bilan gilamga tiralib turgan holatidir. Parterda pastdagi va yuqoridagi kurashchi holatlari ajratiladi.

Ko'prik – kurashchi gilamga nisbatan orqa bilan, kerilib, peshonasi hamda elka kengligida yozilgan oyoq kaftlari bilan tirab turish holatidir.

Xavfli holat – kurashchi kuraklarining gilamga nisbatan 90° C dan kam bo'lgan yaqinligi.

#### **2.4.5. Ushlashlar**

Ushlashlar – kurashchi texnik usulni amalga oshirishida muhim bo'lim hisoblanib, qo'l yoki qo'llar yordamida raqibning tana yoki kiyimining zarur qismidan ushlash.

Belbog‘li kurashdagi ushlab qoidasi – raqiblarning bir hildagi ushlabi bilan texnik harakatlar va bellashuvlar olib boriladi, bunda har bir kurashchi o‘ng qo‘li bilan raqibning chap qo‘ltig‘i ostidan o‘tkazib, chap qo‘li bilan raqibning o‘ng qo‘lining ustidan o‘tkazib belbog‘ini ushlaydi. Belbog‘ni ushlashda kaftni belbog‘ning tagidan kirgizib hamda yuqoriga qaratib ushlab to‘g‘ri ushlab hisoblanadi.

Ushlab qolish – kurashchining raqib hujumini to‘xtatib, keyin uni xavfli holatga o‘tkazishga qaratilgan texnik harakatidir.

Bosib ushlab qolish – kurashchining ko‘prik holatida turgan raqib kuragini gilamga tekkazib ushlab qolishga qaratilgan texnik harakatidir.

Ushlab olishlar – qo‘llar bilan bajariladigan harakatlar, ular yordamida kurashchi hujum yoki himoyalanihlarni amalga oshirish maqsadida raqibning belidan yuqori qismini turishi mumkin.

Nomdosh bo‘lmagan qo‘ldan ushlab olish – kurashchining o‘ng (chap) qo‘li bilan raqibning chap (o‘ng) qo‘lidan ushlab olish.

Nomdosh qo‘ldan ushlab olish – kurashchining o‘ng (chap) qo‘li bilan raqibning o‘ng (chap) qo‘lidan ushlab olish.

Oldindagi qo‘ldan ushlab olish – parterda raqibning xujum qiluvchiga yaqin turgan qo‘lidan ushlab olish.

Uzoqdagi qo‘ldan ushlab olish – parterda raqibning hujum qiluvchidan uzoq turgan qo‘lidan ushlab olish.

Qo‘l tagidan bo‘yinni ushlab olish – bunda o‘ng qo‘lni raqibning o‘ng qo‘li tagidan o‘tkazib, bo‘yin ustida chap qo‘l bilan birlashtirish yoki, aksincha, shu harakatni chap qo‘l bilan bajarish.

Qo‘ltiqlar tagidan bo‘yinni ushlab olish – (parterda orqadan-yondan) ikkala qo‘lni raqibning mos qo‘llari tagidan o‘tkazib, ularni bo‘yin ustida birlashtirgan holda ushlab olish.

Richagsimon shaklida ushlab olish – nomdosh bo‘lmagan qo‘l tagidan qo‘lni ushlab olib, yuqoridan raqib bo‘ynini ushlab.

Kalitsimon – hujum qiluvchi tomonidan raqibning mos qo‘lining tirsakdan bukilgan joyidan tirsak bukilgan joyi bilan ushlab olish va qo‘l kaftini elkaga qo‘yish.

#### 2.4.6. Texnik usullarning terminlari

To‘ntarish – parter holatidagi texnik usul hisoblanib, ularni amalga oshirish natijasida kurashchi raqibni gilamdan ko‘tarmasdan xavfli holatga tushiradigan texnik usul.

Oayirib – texnik usul bo‘lib, raqibning umirtqa o‘qi atrofida burish va gilamga orqasi bilan o‘girishga yordam beradi.

Aylana yugurib – texnik usul bo‘lib, uning natijasida kurashchi raqib boshi atrofida navbatma-navbat qadam tashlab harakatlanib uni gilamga orqasi bilan o‘giradi.

O‘tish bilan – texnik usul bo‘lib, uning natijasida kurashchi, raqibni qo‘lini kalitsimon ushlab, uning ustidan harakatlanib, gilamga orqasi bilan o‘giradi.

Aylantirib – texnik usul bo‘lib, uni bajarish paytida kurashchi, raqibni belidan yoki bel va qo‘lidan ushlab “ko‘prik” holatiga o‘tib, uni o‘zining ustidan, oldidan oshirib, o‘z boshi tomonga o‘giradi.

Ko‘krakdan oshirib – texnik usul bo‘lib, uning natijasida kurashchi, “ko‘prik” holatiga turib, raqibni gilamga orqasi bilan o‘giradi.

Ag‘darib – texnik usul bo‘lib, uning natijasida kurashchi raqibni oldinga boshdan oshirib gilamga orqasi bilan o‘giradi.

#### *Og‘riq beruvchi usul*

Og‘riq beruvchi usul – qo‘l yoki oyoq bo‘g‘inini bukilishiga teskari tortib hamda raqibga og‘riq berib bajariladigan texnik usul.

#### *Bug‘ish usullari*

Bug‘ish usullari – raqib bo‘ynidagi arteriya qon tomir yo‘lini har xil ushlab bug‘ish texnik usullari.

Taslim bo‘lish ishorasi – og‘riq beruvchi va bug‘ish usullari ta’sirida raqibga yoki gilamga qo‘l bilan urib taslim bo‘lganligi haqida ishora ko‘rsatish, ayrim holatlarda ovoz chiqarib ham taslim bo‘lish mumkin.

#### *O‘tkazishlar*

O‘tkazish – tik turgan holatdagi usul hisoblanib, hujumni amalga oshiruvchi raqibni tik turgan holatdan parter holatiga tushirishdir.

Oo'lidan tortib – texnik usul hisoblanib, uning ta'sirida kurashchi raqibni asosan tortib parter holatiga o'tkazadi.

Oo'l ostidan sho'ng'ib – texnik usul hisoblanib, uning ta'sirida kurashchi raqibni asosan qo'l ostidan sho'ngib parter holatiga o'tkazadi.

Oo'lini bo'yinga o'rab – texnik usul hisoblanib, uning ta'sirida kurashchi raqibning qo'lini bo'yinga o'rab parter holatiga o'tkazadi.

Oldinga chiqib o'tirish bilan – texnik usul hisoblanadi va qarshi usul sifatida ham qo'llanilishi mumkin, ya'ni parter holatidagi kurashchi oldinga surilib va raqibga nisbatan burilib hamda shu paytning o'zida yonboshga o'tirib parter holatiga o'tkazadi.

### *Yiqitishlar*

Yiqitish – tik turgan holatdagi texnik usul hisoblanib, kurashchi raqib tanasini gilamdan ko'tarmasdan xavfli holatga olib keladigan texnik usul.

Zarb bilan – texnik usul hisoblanib, uning natijasida kurashchi gavdasi va qo'llari bilan raqibni turtadi.

Oayirib – texnik usul hisoblanib, uning natijasida raqib o'z bo'yi o'qi atrofida buriladi.

### *Tashlashlar*

Tashlashlar – tik turgan va parter holatidagi texnik usullar hisoblanib, raqibni gilamdan ko'tarib xavfli holatga olib keladigan texnik usul.

Bo'yinga o'rab – tik turgan holatidagi texnik usul hisoblanib, bunda kurashchi raqibning qo'lini yoki kiyimining ma'lum bir qismini o'z bo'yniga o'rash bilan bajaradi.

Elkalardan oshirib – tik turgan holatidagi texnik usul hisoblanib, bunda kurashchi har xil ushlar bilan raqibni elkalardan oshirib tashlash.

Beldan oshirib – tik turgan va parter holatidagi texnik usul bo'lib, bunda kurashchi har xil ushlar bilan raqibga orqasi bilan burilish va keyin oldinga egilib yoki oldinga yiqilish hisobiga harakatni bajaradi.

Oldidan chalib – tik turgan holatidagi texnik usul bo'lib, bunda kurashchi har xil ushlar bilan raqib oyog'ining oldidan chalib tashlash hisobiga harakatni bajaradi (rus tilida – передняя подножка).

Orqadan chalib – tik turgan holatidagi texnik usul bo‘lib, bunda kurashchi har xil ushlar bilan raqib oyog‘ining orqasidan chalib tashlash hisobiga harakatni bajaradi (rus tilida – задняя подножка).

Ilib – tik turgan holatidagi texnik usul bo‘lib, bunda kurashchi har xil ushlar bilan raqib oyoqlarining orasidan oyoq bilan ilib tashlash hisobiga harakatni bajaradi (rus tilida – подхват).

To‘sib – tik turgan holatidagi texnik usul bo‘lib, bunda kurashchi har xil ushlar bilan raqib oyog‘ining yonidan oyoq bilan to‘sib tashlash hisobiga harakatni bajaradi (rus tilida – подсечка).

Egilib – tik turgan va parter holatidagi texnik usul bo‘lib, uning natijasida raqibni gilamdan ko‘tarib, vertikal holatdan gorizontol holatga o‘tkazadi.

Ko‘krakdan oshirib – tik turgan va parter holatidagi texnik usul bo‘lib, bunda kurashchi gavdasini orqaga egib, keyin orqaga yiqiladi.

### *O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari*

**1. Kurash turlari bo‘yicha texnik usullar qaysi tamoyil asosida sinflarga ajratiladi?**

- a) Oddiydan oddiyga tamoyili asosida.
- b) Murakkabdan oddiyga tamoyili asosida.
- c) Oddiydan murakkabga tamoyili asosida.
- d) Murakkabdan murakkabga tamoyili asosida.

**2. Kurash turlari bo‘yicha texnik usullarning klassifikatsiyasi, sistemikasi va ularning terminologiyasini tuzishda qaysi talablarga javob berishi lozim?**

- a) Kreativ va modern talablariga.
- b) Didaktik va metodologik talablarga.
- c) Ilmiy asoslanganlik talablariga.
- d) Xalqaro talablariga.

**3. Terminologiyani shakllantirish qaysi tilda tuzilishiga bog‘liqlik joyi bormi yoki yo‘qmi?**

- a) Faqat ingliz tilida.
- b) Faqat rus tilida.
- c) xa, bor.



d) yo‘q.

**4. Kurash turlari bo‘yicha texnik usullarning klassifikatsiyasi, sistematikasi va terminologiyasini o‘zbek tilida birinchi bo‘lib kim tomonidan taqdim etilgan?**

- a) F.A.Kerimovning 2001-yildagi darsligida.
- b) Z.A.Bakievning 2010-yildagi o‘quv qollanmasida.
- c) Sh.A.Mirzaqulovning 2013-yildagi o‘quv qollanmasida.
- d) N.A.Tastanovning 2014-yildagi o‘quv qollanmasida.

**5. Kurash turlari texnikasining klassifikatsiyasi, sistematikasi va terminologiyasi nima sababdan ishlab chiqilgan?**

- a) Ilmiy tadqiqot olib borish uchun.
- b) Trenirovkani to‘g‘ri o‘tish uchun.
- c) Kurashchilar gilamda o‘zaro muloqot qilishini onsonlashtirish uchun.
- d) Mutaxassislar o‘rtasida muloqot qilish imkonini yaratish uchun.

**6. Klassifikatsiya tushunchasini ko‘rsating.**

- a) Kurash texnikasini bir tizimga solish.
- b) Mutaxassislarning ilmiy va pedagogik faoliyatlarida foydalanadigan atamalar yig‘indisidir.
- c) Bilimlarning u yoki bu sohasidagi bir-biriga tobe tushunchalar tizimidir.
- d) Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni sinflarga ajratish.

**7. Sistematika tushunchasini ko‘rsating.**

- a) kurash texnikasini bir guruhga solish.
- b) kurash texnikasini bir tizimga solish.
- c) kurash texnikasini bir sinfga solish.
- d) Bilimlarning u yoki bu sohasidagi bir-biriga tobe tushunchalar tizimidir.

**8. Terminologiya tushunchasini ko‘rsating.**

- a) Bilimlarning u yoki bu sohasidagi bir-biriga tobe tushunchalar yig‘indisidir.
- b) Mutaxassislarning ilmiy va pedagogik faoliyatlarida foydalanadigan ko‘rsatmalar yig‘indisidir.

c) Mutaxassislarning ilmiy va pedagogik faoliyatlarida foydalanadigan atamalar yig'indisidir.

d) Mutaxassislarning ilmiy va pedagogik faoliyatlarida foydalanadigan yo'nalishlar yig'indisidir.

**9. Qaysi kurash turlari o'zbek milliy kurash turlariga kiradi?**

- a) Klassik kurash, erkin kurash, sambo.
- b) Dzyudo, kurash, belbog'li kurash.
- c) Yunon-rim kurashi, kurash, belbog'li kurash.
- d) Kurash, belbog'li kurash.

**10. Qaysi kurash turida barcha ushlar va texnik usullar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan bajariladi?**

- a) Kurash.
- b) Yunon-rim kurashi, belbog'li kurash.
- c) Erkin kurash.
- d) Sambo.

**11. Qaysi kurash turida barcha ushlar va texnik usullar raqib tanasining bel qismi yuqorisidan va pastdan bajariladi?**

- a) Erkin kurash.
- b) Yunon-rim kurashi.
- c) Belbog'li kurash.
- d) Gushtungiri kamarbastiy.

**12. Qaysi kurash turida bug'ish usullari ruxsat etilgan?**

- a) Sambo.
- b) Dzyudo.
- c) Klassik kurash.
- d) Erkin kurash

**13. Qaysi kurash turlarida og'riq beruvchi usullar ruxsat etilgan?**

- a) Dzyudo, kurash.
- b) Yunon-rim kurashi, kurash.
- c) Belbog'li kurash, sambo.
- d) Sambo, dzyudo.

**14. To'ntarish texnik usullari qanday bajariladi?**

- a) Parter holatida gilamdan uzib-ko'tarib.

- b) Parter holatida gilamdan ko'tarmasdan.
- c) Parter holatida aylantirib.
- d) Parter holatida qayirib.

**15. Tashlash texnik usullari qanday harakatda bajariladi?**

- a) Gilamdan uzib-ko'tarib.
- b) Gilamdan ko'tarmasdan.
- c) Qayirib.
- d) Aylantirib.

**16. Tashlash texnik usullari qanday holatlarda bajariladi?**

- a) Gilam o'rtasida.
- b) Gilam chekkasida.
- c) Faqat parter holatlarida.
- d) Tik turgan va parter holatlarida.

**17. Yiqitish texnik usullari qanday harakatda bajariladi?**

- a) Tik turgan holatda gilamdan uzib-ko'tarib.
- b) Tik turgan holatda gilamdan ko'tarmasdan.
- c) Tik turgan holatda qayirib.
- d) Tik turgan holatda aylantirib.

**18. Yiqitish texnik usullari qanday holatlarda bajariladi?**

- a) Gilam o'rtasida.
- b) Gilam chekkasida.
- c) Faqat tik turgan holatda.
- d) Tik turgan va parter holatlarida.

**19. Klassik kurash, fransuz kurashi va yunon-rim farqi nimada?**

- a) Texnik usullari bilan farqlanadi.
- b) faqat nomlanishida, aslida ular bitta kurash.
- c) Texnik harakatlari bilan farqlanadi.
- d) Klassifikatsiyasi bilan farqlanadi.

**20. Himoya va qarshi usul texnik harakatlarining farqi nimada?**

- a) Himoya va qarshi usul ikkalasi ham baholanadi.
- b) Himoya va qarshi usul ikkalasi ham baholanmaydi.
- c) Himoya baholanmaydi, qarshi usul baholanadi.
- d) Himoya baholanadi, qarshi usul baholanmaydi.

*O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kalitlari.*

№	A	B	C	D
1			*	
2		*		
3			*	
4	*			
5				*
6			*	
7		*		
8			*	
9				*
10		*		
11	*			
12		*		
13				*
14		*		
15	*			
16				*
17		*		
18			*	
19		*		
20			*	

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:***

1. Abdullaev Sh.A., Agzamov A.A. Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati. T., 2016.
2. Атаев А.К. Кураш. Т., 1987.
3. Бакиев З.А. Эркин кураш назарияси ва услубияти. Т., 2010.
4. Bayturaev E.I. Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyati. T., 2016.
5. Галковский Н.М., Керимов Ф.А. Вольная борьба. Т., 1987.
6. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Т., 2001.
7. Нуршин Ж.М., Саломов Р.С., Керимов Ф.А. Ўзбекча миллий спорт кураши. Т., 1993.
8. Mirzakulov Sh.A. Belbog‘li kurash nazariyasi va uslubiyati. T., 2013y.
9. Тастанов Н., Абдиев А., Боймуродов И. Греко-римская борьба. Т., 2007.
10. Tastanov N.A. Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. T., 2014.
11. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. T., 2015.
12. Юсупов К. Кураш халқаро мусобақа қоидалари, техникаси, тактикаси. Т. 2005.

## **III-BOB. KURASH TURLARI BO‘YICHA MUSOBAQA QOIDALARI VA HAKAMLIK QILISH ASOSLARI**

### **3.1. Musobaqalar to‘g‘risida tushuncha**

Musobaqa – bu o‘quv-trenirovka jarayonining tarkibiy qismidir. Musobaqalarda ishtirok etish maqsadi – g‘alabaga erishish yoki imkoni boricha yuqori o‘rinlarni egallashdan iborat. Trenirovka jarayonida odatda, sportchining yuqori sport natijalariga erishishiga yordam beradigan hamma sifatlarni yuksak darajada namoyon qilish uchun sharoitlar yaratish imkoniyati yo‘q. Musobaqalarda har bir sportchi o‘z raqibini engishga intiladi va bu intilish sportchidan barcha imkoniyatlarni safarbar etishni talab qiladi. Bu nafaqat insonning funksional imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradi, balki ularni shakllantirish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Musobaqalar quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- sport jamoasida o‘quv-trenirovka ishi ahvolini aniqlash;
- kurashchilar tayyorgarligi darajasini aniqlash;
- har bir tayyorgarlik bosqichida o‘quv-trenirovka ishiga yakun yasash;
- kurash turlarini targ‘ib qilishga va shug‘ullanuvchilar sonini oshirishga yordam berish.

Kurash musobaqalarini o‘tkazish xususiyatiga ko‘ra ular quyidagicha bo‘ladi:

- a) shaxsiy;
- b) jamoaviy;
- v) shaxsiy-jamoaviy;
- g) klassifikatsion.

Shaxsiy musobaqalarda – ishtirokchilarning har bir vazn toifasida egallagan o‘rinlari aniqlanadi. Jamoaviy musobaqalarda – jamoalar o‘rni aniqlanadi. Shaxsiy-jamoaviy musobaqalarda – bir vaqtning o‘zida ishtirokchilar va jamoalarning egallagan o‘rinlari aniqlanadi. Klassifikatsion musobaqalarda – ishtirokchilarning egallagan o‘rinlariga qarab sport malakalarini (sport razryadlari), reyting ochkolarini yig‘ish, Olimpiada O‘yinlariga ishtirokchilarni saralash uchun o‘tkazilishi mumkin. Ishtirokchilar tomonidan ko‘rsatilgan natijalar sport toifalariga muvofiq unvonlar xamda razryadlarni berishda yoki tasdiqlashda hisobga olinadi.

Musobaqalarni o'tkazish uslubiga ko'ra ular quyidagilarga bo'linadi;

- a) Aylanma sistema;
- b) Aylanma-chetlatish sistemasi;
- c) Aralash sistemasi;
- d) Olimpiya sistemasi.

Musobaqalarning bosqichlariga ko'ra tuman, viloyat, Respublika, Osiyo, Jahon va boshqalarga ajratiladi. Ayrim holatlarda "bosqich" so'zi rus tilidagi "этап" so'ziga to'g'ri kelganligi, yoki yana boshqacha aytganda "masshtab" so'zlari bilan ifodalanib kelingan.

Musobaqalarni o'tkazishda chempionat va birinchilik tushunchalari har xil tushuniladi. Aslida mazmun va mohiyati jihatidan bir hilga o'xshashligi sababli mutaxassislar o'rtasida baxslashuvni vujudga keltiradi. Mazkur tushunchalar ham o'zining aniq ta'riflanishini talab etadi.

Chempionat deganda – musobaqa bosqichiga ko'ra faqatgina kattalar o'rtasida tuman, viloyat, Respublika, Osiyo, Jahon chempionligini qo'lga kiritish uchun o'tkaziladigan musobaqalar tushuniladi. Bu chempionatlarda birinchi o'rinni egallagan kurashchi – "champion" degan titulga (unvonga) sazovor bo'ladi. Kurash turlarida musobaqa bosqichiga ko'ra chempionatlar yiliga bir marta o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Birinchilik deganda – musobaqa bosqichiga ko'ra kattalardan boshqa yoshdagilar (o'smirlar, yoshlar, faxriylar) o'rtasida birinchilikni qo'lga kiritish uchun o'tkaziladigan musobaqalar tushuniladi. Bu birinchiliklarda birinchi o'rinni egallagan kurashchi – "g'olib" degan titulga (unvonga) ega bo'ladi.

Bu bilan chempion yoki chempionatning nufuzini yuqoriroq ko'tarishga qaratilgan tushuncha deb hisoblanadi. Sababi o'smirlar va yoshlarning sportdagi eng yuqori va eng nufuzli musobaqalarga tayyorgarlik shashti to'xtab qolmasligi zarur. Masalan, xalqaro arenada Jahon g'olibi (yoshlar o'rtasida) va Jahon chempioni (kattalar o'rtasida) ikkalasining nufuzi baholaganda, albatta Jahon chempioni yuqoriroq baholanadi.

Shuningdek birnecha sport turlarining bir joyda va bir vaqtning o'zida o'tkaziladigan sport musobaqalar mavjud. Masalan, Olimpiada O'yinlari har to'rt yilda o'tkazilib, sport sohasida eng nufuzli va eng yuqori natijani qayd etish mumkin. Olimpiada O'yinlarining o't-

kazilishi nafaqat yuqori natijani ko'rsatuvchi sportchilar o'rtasida emas, balki har bir ishtirok etuvchi davlat mavqeyi to'grisida ham so'z boradi. Qaysi bir davlat rasmiy bo'lmagan hisob bo'yicha yuqori o'ringa ega bo'lsa, demak o'sha davlatning ham ijtimoiy ham iqtisodiy ko'rsatgichlari hamda tinchlik va barqarorlik hukm suradigan davlat deb ham hisoblanadi. 2016-yildagi Olimpiada O'yinlarida O'zbekiston Respublikasi 207ta davlat orasida 21-o'rinni va Paraolimpiadachilar orasida 16-o'rinni egallab yuqoridagi ko'rsatgichlar bo'yicha rivojlanganligini isbotladi.

Olimpiada O'yinlariga o'xshash bo'lgan Respublikamizda o'tkaziladigan sport musobaqalar – maktab o'quvchilari o'rtasida “Umid nihollari”, akademik litsey va kollej talabalari o'rtasida “Barkamol avlod”, oily ta'lim muassasalaridagi talabalar o'rtasida “Universiada” sport musobaqalari har uch yilda o'tkazilib kelinmoqda. Mazkur musobaqalar yordamida zamonaviy Olimpiada Harakatini davom ettirish bilan birga har bir viloyat va tumanlarda sport turlari rivojlanganlik darajasi hamda qay darajada ahamiyat berilayotganligini nazorat qilish mumkin.

Kurash musobaqalari taqvim (kalendar) reja va musobaqa nizomiga muvofiq rejalashtiriladi hamda o'tkaziladi. Bu birinchi muhim hujjatni musobani o'tkazayotgan tashkilot tayyorlaydi va tasdiqlaydi. Ularni puxta ishlab chiqish va sport tashkilotlariga muddatidan oldin xabar qilish musobaqalarning muvaffaqiyatli o'tishiga yordam beradi. Musobaqalarning taqvim rejasi ularni o'tkazishga mas'ul bo'lgan tashkilot tomonidan tuziladi.

Taqvim reja taqvim yili uchun ishlab chiqiladi. Taqvim rejani tuzishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

a) taqvim rejani ishlab chiqayotganda uni yuqori tashkilotlar tomonidan rejalashtirilgan musobaqalar muddatlari va dasturlariga asoslangan holda tuzish zarur;

b) musobaqalar soni va xususiyati o'z ahamiyatiga ko'ra shug'ullanuvchilarni mas'uliyatli musobaqalarga tayyorlashga yordam berishi lozim;

c) har xil turdagi musobaqalarni o'tkazish ko'zda tutiladi: tayyorgarlik, nazorat, saralash va asosiy.

Tayyorgarlik musobaqalarining asosiy maqsadi – kurashchilarni musobaqa sharoitlariga moslashtirish, musobaqa faoliyatining oqilona



texnik-taktik harakatlarini mustahkamlash, musobaqa tajribasini egallash.

Nazorat musobaqalarida – sportchining imkoniyatlari tekshiriladi, uning tayyorgarlik darajasi, bosib o‘tilgan tayyorgarlik bosqichi samaradorligi aniqlanadi. Ko‘rsatilgan natijalar asosida kurashchilarning kelgusidagi tayyorgarlik dasturi ishlab chiqiladi.

Saralash musobaqalari – natijalar bo‘yicha asosiy musobaqalarning ishtirokchilari aniqlanadi.

### **3.2. Musobaqa maqsadi va vazifalari**

Musobaqa o‘tkazilishida har bir tashkilotning o‘z oldiga qo‘yadigan asosiy maqsad va vazifalari mavjuddir:

1) Sport jamoalarida o‘quv-trenirovka va tarbiyaviy ishlarning ahvolini tekshirish;

2) Terma jamoa tarkibini qayta ko‘rib chiqish maqsadida eng yaxshi kurashchilarni vazn toifalari bo‘yicha saralab olish;

3) Sport tashkilotlari va sportchilar o‘rtasida do‘stlik aloqalarini mustahkamlash;

4) Aholi o‘rtasida kurash turlarini ommalashtirish va yoshlarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish.

### **3.3. Musobaqalarni boshqarish**

Musobaqalarni tashkillashtirish va o‘tkazishga umumiy rahbarlikni amalga oshiradigan tashkilot, shuningdek musobaqani o‘tkazish aniq kimga yuklatilishi; musobaqalar joyini tayyorlash, sportchilar va hakamlarni kutib olish, joylashtirish, ovqatlantirish, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatish, shuningdek madaniy tadbirlarni o‘tkazish uchun kim javobgar bo‘lishi ko‘rsatiladi.

### **3.4. Ishtirokchilar va qatnashuvchi tashkilotlar**

Musobaqalarda qatnashish uchun qaysi tashkilotlar va ishtirokchilarning qanday yosh guruhlariga ruxsat berilishi, trenerlar va vakillarning son tarkibi ko‘rsatiladi. Bu ko‘rsatgichlar har bir jamoadan musobaqaga ishtirok etish talabnomasida ko‘rsatiladi.

### **Musobaqalarni o‘tkazish shartlari va tartibi**

Musobaqalarni o‘tkazish xususiyati va usullari musobaqalarni o‘tkazish shartlari va tartibida ko‘rsatiladi. Kunlar bo‘yicha muso-

baqalar dasturi va turli vazn toifalaridagi bellashuvlar jadvali oldindan belgilanadi. Shaxsiy, shaxsiy-jamoaviy va jamoaviy musobaqalarida musobaqani o'tkazish sistemasi belgilanadi. Egallangan o'rinlar uchun ochkolarni berish tartibi tavsiya qilinadi.

### **3.5.Talabnomalarni berish muddatlari va tartibi**

Dastlabki talabnomalarni berish muddatlari, shuningdek qo'shimcha talabnomalarni berishning aniq muddati belgilanadi. Shuningdek mandat komissiyasiga taqdim etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati ko'rsatiladi.

### **3.6.Ishtirokchilar va hakamlarni qabul qilish shartlari**

Musobaqaga kelish vaqti, joylashtirish, ovqatlanish tartibi, sportchilarning etib kelish muddati aytib o'tiladi, shuningdek moliyaviy harajatlar kimning hisobidan bo'lishi ko'rsatiladi.

### **3.7.G'oliblarni taqdirlash**

Musobaqaning g'olib va sovrindorlarini taqdirlash ko'rsatiladi, hamda musobaqa ishtirokchilari, jamoalar, shuningdek ularni tayyorlagan trenerlar qaysi o'rin uchun hamda nima bilan taqdirlanishlari ko'rsatiladi. Mukofotlarning maxsus turlari ko'rsatiladi, ya'ni eng yaxshi texnik tayyorgarligi uchun, g'alabaga bo'lgan irodasi uchun, tushe yoki sof g'alaba bilan ko'p marta g'alaba qozonganligi uchun berilishi mumkin.

### **3.8.Musobaqa nizomiga bo'lgan asosiy talablar**

Musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazish uchun ikkinchi muhim hujjat – bu musobaqa nizomidir. Musobaqalardagi ayrim xususiyatlar va ularni o'tkazish usullari musobaqalar nizomida ko'rsatiladi. Musobaqa nizomiga bo'lgan asosiy talablar quyidagilardan iborat: aniqlik, ravshanlik, muayyanlik va asosiy bandlarda tushunchalarning turli xilda talqin qilinishining bo'lmasligi. Ushbu hujjat amaldagi qoidalarga asoslanib tuziladi va musobaqa o'tkazadigan tashkilot tomonidan tasdiqlanadi. Tasdiqlangandan keyin unga rioya qilish ishtirokchilar va hakamlar kollegiyasi uchun majburiy hisoblanadi.

### **3.9.Hakamlar kollegiyasi tarkibi va hakamlarning majburiyatlari**

Musobaqalarda xizmat ko'rsatish uchun hakamlar kollegiyasi kurash federatsiyasining hakamlar komissiyasi tomonidan tayinlanadi

va musobaqa o'tkazayotgan sport tashkiloti tomonidan tasdiqlanadi. Hakamlar kollegiyasi bosh hakam, bosh kotib, gilam rahbari, arbitr, yon hakam, sekundomerchi-hakam, axborotchi-hakam, musobaqa vrachidan tashkil topadi. Bosh hakam musobaqadagi hakamlar kollegiyasiga rahbarlik qiladi, musobaqa o'tkazayotgan tashkilot va tegishli kurash federatsiyasi oldida musobaqalarning o'tkazilishiga javobgar bo'ladi. Bosh hakam musobaqalar boshlanishidan oldin musobaqa o'tkaziladigan sport zal, kotibiyat uchun xonalar, jihozlar, asbob-anjomlar, zarur hujjatlarning yaroqliligini, ularning amaldagi qoidalarga muvofikligini tekshirishi shart. Bosh hakam musobaqalar arafasida hakamlar kengashini o'tkazadi va undan hakamlar o'rtasidagi majburiyatlarni taqsimlaydi, ishtirokchilar vaznlarini aniqlash uchun komissiya tayinlaydi, shuningdek gilamlar soniga qarab hakamlar brigadasini tuzadi. Bosh hakam musobaqalar davomida musobaqalarning qoidalari va musobaqa nizomiga muvofiq ularning o'tkazilishini boshqarib boradi.

Ayrim hollarda, ya'ni agar musobaqalar boshlanishidan oldin musobaqa o'tkazish joyi, jihozlar yoki asbob-anjomlar yaroqsiz holatda bo'lsa, bosh hakam musobaqalarni bekor qilishi, yoki noqulay meteorologik sharoitlarda, yoki musobaqalarni o'tkazishga to'sqinlik qiladigan boshqa qandaydir sabablarga ko'ra vaktinchalik tanaffus berishi mumkin. Bosh hakam musobaqalarning oxirgi kunida hakamlar, jamoa vakillari, trenerlarning yakuniy majlisini o'tkazadi, natijalarni tasdiqlaydi va hamma bajarilgan ishlarga baho qo'yadi.

Musobaqalarning bosh kotibi hakamlar kollegiyasi majlisi bayonnomasini yozib boradi, qur'a tashlash marosimini o'tkazadi va bellashuvlar tartibini belgilaydi, musobaqalar jadvalini tuzib chiqadi, hamma hakamlar hujjatlarini to'ldirib boradi, arizalar va norozilik bildirishnomalarini qabul qiladi, ular to'g'risida bosh hakamga xabar beradi, musobaqalarning o'tkazilishi to'g'risidagi texnik hisobotni tayyorlaydi.

Gilam rahbarining vazifalari ustun bo'lib, u arbitr va yon hakam ishini muvofiqlashtirib turadi. U bellashuvning borishini diqqat bilan kuzatib turishi va musobaqalar qoidalariga muvofiq holda hakamlar hamda sportchilar texnik harakatlarini baholab borishi shart. Arbitr va yon hakam o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, u o'z qarorini chiqarishga haqlidir, lekin hech qachon u birinchi bo'lib o'z fikrini bildirmaydi, balki yon hakam va arbitr fikrini eshitadi. Agar

arbitr va yon hakam sportchilarning harakat vaziyatlarini baholashda bir fikrda bo'lsalar, gilam rahbari hakamlar qaroriga aralashmaydi.

Arbitr bellashuvga bevosita hakamlilik qilish paytida eng mas'uliyatli vazifani bajaradi. U bellashuvning borishini boshqaradi, kurashchilar harakatini baholaydi va bellashuvning musobaqalar qoidasiga muvofiq o'tishini kuzatib turadi. U bellashuv boshlanishi to'g'risida ishora beradi, bellashuvni to'xtatadi va yakunlaydi, yon hakam yoki gilam rahbarining ma'qullashiga qarab, bellashuvni tik turishda yoki parterda davom ettirishni belgilaydi. Bellashuv paytida arbitr shunday joyda turishi kerakki, u turgan joydan kurashchilar harakatlari yoki amalga oshirayotgan usullarini aniq baholay olishi mumkin bo'lishi lozim. U kurashchilarning butun gavda qismini ko'rib turishi, ularning harakatlari va tashlamlari yo'nalishini oldindan ko'zlay bilishi, ularni to'g'ri baholashi hamda har qanday vaqtda noto'g'ri va ta'qiqlangan harakatlarning oldini olishga tayyor turishi zarur.

Yon hakam kurashchilarning texnik harakatlarini baholaydi va ularni maxsus bayonnomaga yozib boradi. U arbitrdan qat'iy nazar, hamma vaziyatlarda o'z fikrini bildirishi lozim, kurashchilar harakatlarini baholashda uning fikrlari arbitr fikrlari bilan mos kelishi, balki mos kelmasligi mumkin. Bellashuv paytida, agar yon hakam kurashchilarning u yoki bu texnik harakatlarini sezsa, arbitr esa bu harakatlarni ko'rmagan yoki unga e'tibor bermagan bo'lsa, u bu haqda arbitrga xabar berishi lozim. U qizil yoki ko'k (sambo, erkin va yunon-rim kurashida), ko'k yoki yashil (kurash va belbog'li kurashda), oq yoki ko'k (dzyudoda) ranglardagi maxsus ko'rsatkichni yuqoriga ko'tarib, arbitr o'z fikrini bildirmasa ham, shunday qilishi shart. Hozirgi texnik moslamalarning rivojlanishi bilan maxsus ko'rsatkichlar kompyuter yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Sekundomer-hakam kurashchilar, hakamlar va tomoshabinlarni vaqt to'g'risida ogohlantirib boradi. U sof g'alaba vaqtini qayd etadi, kurashchilarning kechikishlarini belgilaydi, bellashuv jarayonida taalluqli bo'lmagan vaqtning yo'qotilishini hisobga oladi. O'zining hamma harakatlarini gilam rahbari va arbitr bilan kelishib amalga oshiradi: arbitr xushtagi bilan sekundomerni yoqadi va o'chiradi.

Agar bellashuv kurashchining jarohat olganligi yoki uning kiyimida kamchilik borligi sababli to'xtatilsa, sekundomerchi-hakam har bir minut tugashi bilan vaqtni e'lon qilib turadi. Bellashuv tugashi

bilan sekundomerchi-hakam sekundomerni to'xtatadi va tovushli signal beradi. Buni u bir vaqtning o'zida bajarishi lozim.

Axborotchi-hakam musobaqalarni o'tkazish dasturi va tartibini e'lon qiladi, tomoshabinlarga kurashning borishi to'g'risida axborot beradi, har bir bellashuv natijalarini, navbatdagi juftlik tarkibini e'lon qiladi, musobaqa qoidalarini ayrim holatlarini tushuntirib beradi, musobaqa ishtirokchilarining sport faoliyatiga tavsif beradi. Musobaqalar borishi to'g'risidagi hamma ma'lumotlar musobaqa bosh hakami ruxsati bilan beriladi.

Musobaqa vrachi hakamlar kollegiyasi tarkibiga kiradi, u ishtirokchilarning tibbiy ko'rikdan o'tishi va musobaqalarni o'tkazishning sanitariya-gigienik sharoitlari uchun mas'ul hisoblanadi. Vrach vazn o'lchanayotganda sportchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazadi va zarur hollarda ishtirokchilarga musobaqada qatnashish uchun ruxsat berish to'g'risida xulosa chiqaradi. U ishtirokchi jarohatlanganda yoki kasal bo'lib qolganda tibbiy yordam ko'rsatishi lozim. Bellashuv paytida tibbiy yordam gilam maydonchasi tashqarisida ko'rsatiladi.

### **3.10. Musobaqa Nizomi**

Musobaqa to'g'risida Nizomni jismoniy tarbiya va sport Davlat Qo'mitasi yoki viloyat qo'mitalari tomonidan taqvim reja asosida Respublika yoki viloyatlarning kurash turi bo'yicha federatsiyalar tomonidan ishlab chiqarilib, jamoalarga yil boshida yoki 2–3 oy oldin tarqatiladi. Nizomda kim tomonidan o'tkazilishi, musobaqa nomi, maqsadi, vazifalari, musobaqani o'tkazish vaqti va joyi, musobaqa turi va shartlari, qatnashchilarga bo'lgan talablar, vazn toifalari, taqdirlash ko'rsatiladi (1-namuna).

### **3.11. Torozidan o'tkazish va qur'a tashlash**

Hozirgi kunda kurash turlarining har birida musobaqalar vazn toifasiga bo'linib o'tkaziladi. Kurash turlari bo'yicha torozidan o'tkazish va qur'a tashlash jarayoni har xil o'tkaziladi. Ayrimlarida bellashuvlardan bir kun oldin, ayrimlarida esa bellashuv kuni o'tkaziladi (3-namuna). Bunda bosh hakam, bosh kotib, ularning o'rinbosarlari, 2–3 hakam va musobaqa vrachi qatnashadi. Musobaqa qoidasiga muvofiq torozidan o'tkazish va qur'a tashlash jarayoni bir soat, ishtirokchilar soni ko'p holatda musobaqaning bosh hakami qarori asosida uning vaqti uzaytirilishi mumkin. Har bir vazn toifasi bo'yicha

torozidan o'tish paytida ishtirokchining vazni belgilangan ma'lum bir vazn toifasidan oshadigan bo'lsa, bu ishtirokchi o'sha vazn toifasi bo'yicha musobaqalarga qo'yilmaydi. Torozidan o'tkazish va qur'a tashlash vaqtida ishtirokchi bellashuv sport kiyimida toroziga turadi. Toroziga turgandan keyin yashirin, ya'ni ag'darilgan raqamlar yozilgan qog'ozlardan birini olib, undagi raqamni bosh kotibga ko'rsatadi. Bosh kotib o'z o'rnida bu raqamni musobaqadan oldin, jamoalar tomonidan berilgan talabnomalar asosida tayyorlangan torozidan o'tkazish va qur'a tashlash bayonnomasidagi ishtirokchining familiyasi, ismi sharifining to'g'risidagi satrga, qur'a raqami qatoriga yozib qo'yadi. Mazkur qur'a raqamlari asosida, eng kichik sondan boshlab katta son tomonga vazn bo'yicha raqamlar belgilanadi.

### **3.12. Musobaqani o'tkazish bayonnomasi**

Kurash turlari bo'yicha musobaqani o'tkazish bayonnomasi hozirgi kunda birnecha turda o'tkaziladi. Masalan, erkin va yunon-rim kurashlarida gerakles sistemasi, dzyudo kurashida yaponcha variantdagi olimpiya sistemasi, samboda shveytsariya uslubidagi aylanma chetlatish sistemasi, kurash va belbog'li kurashlarda olimpiya sistemasi qo'llaniladi. Lekin barcha kurash turlarida A va B guruhlariga bo'linib har bir guruhdan bittadan ishtirokchi finalda bellashadi. Dzyudo, erkin va yunon-rim (4 va 5-namuna) kurash turlarida final ishtirokchisiga yutqazgan ishtirokchilar o'zaro uchinchi o'rinlar uchun bellashadilar.

Musobaqani o'tkazish bayonnomasini oldin ishtirokchilar soniga qarab, keyin uni tuzish talab etiladi. Bunda ham o'z talablari mavjud, agar, ishtirokchilar soni 5dan oshmasa, ular o'zaro aylanma tizimda bellashadilar. Ishtirokchilar soni 5tadan ortiq bo'lsa bellashuv tartibi bo'yicha 4; 8; 16; 32; 64; 128 sonlariga keltirish bellashuvlari o'tkaziladi. Ishtirokchilar soni faqatgina yuqoridagi (4; 8; 16; 32; 64; 128) sonlar bo'yicha keltirilgandagina musobaqa oxirida, ya'ni finalda 2ta ishtirokchi qoladi. Keltirish bellashuvlari erkin va yunon-rim kurash turlarida pastdan yuqoriga, dzyudo va milliy kurash turlarida oralab keltirish uslubida o'tkaziladi. Agar ishtirokchilar soni 6tadan 7tagacha bo'lsa ularning soni keltirish bellashuvlaridan so'ng 4ta qolishi kerak, agar ishtirokchilar soni 9tadan 15tagacha bo'lsa ularning soni keltirish bellashuvlaridan so'ng 8ta qolishi kerak, agar ishtirokchilar soni 17tadan 31tagacha bo'lsa ularning soni keltirish bellashuvlaridan so'ng 16 ta qolishi kerak, agar ishtirokchilar soni 33 tadan 63 tagacha bo'lsa

ularning soni keltirish bellashuvlaridan so'ng 32 ta qolishi kerak, agar ishtirokchilar soni 65tadan 127 tagacha bo'lsa ularning soni keltirish bellashuvlaridan so'ng 64ta qolishi kerak va x.k. Qaysi songa keltirish bellashuvi o'tkazilsa, o'sha sondan ortiq nechta ishtirokchi bo'lsa, shuncha juftlik keltirish bellashuvida qatnashadi.

Musobaqani o'tkazish bayonnomasini tuzishning o'z talablari mavjud, bunda musobaqa nomi, o'tkazilish joyi, vaqti, vazn toifasi, musobaqalashuv jadvali, bosh hakam va bosh kotib imzolari ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari musobaqalashuv jadvalida birinchi qatorga vazn bo'yicha tartib raqam, ikkinchi qatorga ishtirokchilarning familiyasi, ismi, uchinchi qatorga ishtirokchining jamoasi, to'rtinchi qatorga sportchining malakasi, ya'ni sport razryadi yoki unvoni, beshinchi qatordan boshlab ishtirokchilar soniga qarab keltirish, nimchorak final, chorak final, yarim final, uchinchi o'rinlar uchun finallar va final bellashuvlari uchun ajratilgan qatorlarni qo'yish mumkin, oxirgi qatorga egallangan o'rinlar, kvalifikatsion ochkolar va ballar yoziladi. O'zaro bellashuvlarda ishtirokchilar ro'yhatining to'g'risiga raqiblar raqamlari yoziladi. Ayni shu raqamlar yordamida ishtirokchi kim bilan bellashishi ko'rinib turadi. Ishtirokchilar raqamlarining yonidagi ikki satrli katakchada ularning ko'rsatkichlari ko'rsatiladi. Yuqoridagi satrda kvalifikatsion ochkolar va pastdagi satrda texnik ballar ko'rsatiladi. F3 qatorlarida finalchiga yutqazgan ishtirokchilarning o'zaro bellashuvlari aks ettiriladi va F1 qatorlarida final bellashuvining ko'rsatgichlari ko'rsatiladi. O'rin va kvalifikatsion ochkolar qatorida – egallagan o'rinlar Rim raqamlarida, yig'ilgan kvalifikatsion ochkolar va texnik ballar yoziladi. Oxirgi qatorda egallangan I-VI-o'rinlar yig'ilgan ochkolar va texnik ballar ko'rsatilsa ham, ko'rsatilmasa ham aniq. Shu sababdan bu qatorga ularning o'rinlari ko'rsatiladi, yig'ilgan ochkolar va texnik ballar ko'rsatiladi. Bundan tashqari ayrim holatlarda, ya'ni, nizomdagi o'zgarishlar yoki musobaqa qoidalari o'zgarigan holatda olimpiya uslubida o'tkaziladigan musobaqalar tashkillashtirilishi mumkin. Olimpiya uslubi bo'yicha bir marta yutqazgan kurashchi qaytib bellashmaydi (8-namuna). Shu bilan bir qatorda Shveysariya uslubi xam oldindan ishlatilib kelingan (9-namuna). Shveysariya uslubida kurashchi ikki marta yutqazadigan bo'lsagina musobaqadan chetlashtiriladi.

### 3.13. Klassifikatsion ochkolarning berilish tartibi

Dzyudo, kurash va belbog‘li kurash turlarida olimpiya sistemasi qo‘llanilganligi sababli kvalifikatsion ochkolar ko‘rsatilishi shart emas. Sambo, erkin va yunon-rim kurash turlaridagi joriy musobaqa qoidasi bo‘yicha klassifikatsion ochkolar bellashuv tugagandan keyin, g‘alabaga erishgan yoki erishmagan holatlariga qarab beriladi. Sababi yutuq va yutqazish har xil bo‘lishi mumkin. Sambo, erkin va yunon-rim kurash turlarida:

Quyidagi holatlarda 4 ochko yutganga va 0 ochko yutqazganga berilishi mumkin:

– kurashchi “tushe” (tushe so‘zi frantsuz tilidan olingan – bel-lashuv paytida raqibning ikki kuragini gilamga tekkizish ma‘nosini anglatadi) g‘alabasiga erishganda, bunda yutqazgan raqibning texnik ballar yig‘indisiga qaralmaydi;

– raqibning jarohat olganida;

– raqibning gilamga chiqmasligida;

– raqib tomonidan musobaqa qoidasini qo‘pol ravishda buz-ganligida;

– raqibning musobaqadan chetlatilishida;

Quyidagi holatlarda 4 ochko yutganga va 0 ochko yutqazganga berilishi mumkin:

– texnik ustunlik bilan g‘alaba qozonish, bunda raqibning umuman texnik ballari yo‘q holatda;

Quyidagi holatlarda 4 ochko yutganga va 1 ochko yutqazganga berilishi mumkin:

– yaqqol texnik ustunlik bilan g‘alaba qozonish, bunda raqibning texnik ballari bor holatda;

Quyidagi holatlarda 3 ochko yutganga va 0 ochko yutqazganga berilishi mumkin:

– kurashchi texnik ballar hisobida yutganda, bunda raqibning umuman texnik ballari yo‘q holatda;

Quyidagi holatlarda 3 ochko yutganga va 1 ochko yutqazganga berilishi mumkin:

– kurashchi ikki davrni ballar hisobida yutganda, bunda raqibning texnik ballari bor holatda;

Quyidagi holatlarda 0 ochko qizil kiyimdagi kurashchiga va 0 ochko ko‘k kiyimdagi kurashchiga berilishi mumkin:



– bellashuvga chiqqan ikkala kurashchi ham musobaqa qoidasini qo‘pol ravishda buzish(diskvalifikatsiya);

### **3.14. Texnik harakatlar va usullar uchun beriladigan baholar**

Texnik harakatlar va usullar uchun beriladigan baholanayotganda hujumchi hujumni qabul qiluvchini qaysi holatga olib kelganligi, qaysi holatlarda qarshi hujum va kombinatsiyalar amalga oshilganligini hakamlar aniq baholashi kerak. Buning uchun hujumni qabul qiluvchining gilamga nisbatan qaysi holatda tushganligi yoki yiqilganligi inobatga olinadi. Shuningdek texnik usul gilamdan ko‘tarilgan yoki ko‘tarilmasdan bajarilganligi beriladigan bahoning salmog‘ini belgilaydi. Texnik usullarni baholashda quyidagi mezon tushunchalarini bilish zarurdir:

1. Tashlash usullari to‘liq va yuqori amplituda bilan bajarilsa eng yuqori baho bilan baholanadi. Dzyudoda – ippon, sambo, erkin va yunon-rim kurashida – 4 ball, kurash va belbog‘li kurashda – halol baholari beriladi.

2. Tashlash usullari to‘liq bajarilsa o‘rta baho bilan baholanadi. Dzyudoda – vazaari, sambo – 2 ball, erkin va yunon-rim kurashida – 4 ball, kurash va belbog‘li kurashda – yonbosh baholari beriladi.

3. Tashlash usullari to‘liqsiz bajarilsa kichik baho bilan baholanadi. Dzyudoda – vazaari, sambo – 1 ball, erkin va yunon-rim kurashida – 2 ball, kurash – chala, belbog‘li kurashda – yonbosh baholari beriladi.

4. Yiqitish usullari to‘liq va yuqori amplituda bilan bajarilsa eng yuqori baho bilan baholanadi. Dzyudoda – ippon, sambo, erkin va yunon-rim kurashida – 4 ball, kurash va belbog‘li kurashda – halol baholari beriladi.

5. Yiqitish usullari to‘liq bajarilsa o‘rta baho bilan baholanadi. Dzyudoda – vazaari, sambo – 2 ball, erkin va yunon-rim kurashida – 4 ball, kurash va belbog‘li kurashda – yonbosh baholari beriladi.

6. Yiqitish usullari to‘liqsiz bajarilsa kichik baho bilan baholanadi. Dzyudoda – vazaari, sambo – 1 ball, erkin va yunon-rim kurashida – 2 ball (agar parterga o‘tkazsa), kurash – chala, belbog‘li kurashda – yonbosh baholari beriladi.


7. Parter holatidagi to‘ntarish usullari to‘liq bajarilsa o‘rta baho bilan baholanadi. Faqat erkin va yunon-rim kurashida – 2 ball.

8. Parter holatidagi tashlash usullari to'liq bajarilsa o'rta baho bilan baholanadi. Faqat erkin va yunon-rim kurashida – 4 ball.

9. Parter holatidagi og'riq beruvchi usullar to'liq bajarilsa yuqori baholanadi. Sambo – sof g'alaba, dzyudoda – ippon.

10. Parter holatidagi bug'ish usullari to'liq bajarilsa yuqori baholanadi. Dzyudo – ippon. Musobaqa qoidalari buzilsa: Yunon-rim va erkin kurash turlarida – ogohlantirishlar, jarima ballar va diskvalifikatsiya belgilanadi; dzyudoda – shido, xantey; samboda – ogohlantirishlar, jarima ballar va diskvalifikatsiya belgilanadi; kurashda – tanbex, dakki va g'irrom (diskvalifikatsiya); belbog'li kurashda – dakki va g'irrom (diskvalifikatsiya);

– rasmda gilamga nisbatan yiqilish holati ko'rsatilgan. Texnik usullarni baholashda ularning qaysi burchak bilan bajarganligi ahamiyatlidir. Agar texnik usul bajarilganda kuraklar bo'yi o'tkazilgan visual chiziqning burchagi  $45^{\circ}$  va kam bo'lsa yuqori baho beriladi, agar ( $\beta$ ) to'liq bajarilgan usulda mazkur burchak  $90^{\circ}$ ni tashkil etsa ko'proq o'rta baholar beriladi, hamda ( $\gamma$ ) to'liqsiz bajarilgan usulda taxminan  $135^{\circ}$  va ko'pni tashkil etsa past baho beriladi.



**49- rasm. Gilamga nisbatan yiqilish holati.  $\alpha$  – to'liq bajarilgan usulda ( $45^{\circ}$  va kam),  $\beta$  – to'liq bajarilgan usulda ( $90^{\circ}$ ),  $\gamma$  – to'liqsiz bajarilgan usulda ( $135^{\circ}$  va ko'p)**

O‘zbekiston Respublikasi  
Jismoniy tarbiya va sport  
Davlat Qo‘mitasi  
“KELISHILGAN”

“ ” \_\_\_\_\_ 2017yil  
\_\_\_\_\_ R.J.Qurbonov

O‘zbekiston Respublikasi  
Yunon-rim kurashi federatsisi  
“TASDIQLAYMAN”

“ ” \_\_\_\_\_ 2017yil  
\_\_\_\_\_ B.R. Tursunov

**Yunon-rim kurashi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi  
championatini o‘tkazish musobaqa**

**N I Z O M I**

**1. Musobaqa maqsadi**

Musobaqani o‘tkazishdan maqsad – Respublika milliy terma jamoasiga va xalqaro musobaqalarga kuchli kurashchilarni saralash.

**2. Musobaqa vazifalari**

- yunon-rim kurashini Respublika aholisiga targ‘ibot qilish;
- barcha viloyatlarda yunon-rim kurashining rivojlanganlik darajasini aniqlash;
- yunon-rim kurashi bo‘yicha viloyatlardagi murabbiylarga oxirgi musobaqa qoidalari to‘g‘risida seminar o‘tkazish;
- milliy terma jamoaning asosiy va zahiradagi kurashchilarini aniqlash;

**3. Musobaqani o‘tkazish vaqti va joyi**

Yunon-rim kurashi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi chempionati 2012-yilning 22–24 aprel kunlari o‘tkaziladi. Musobaqaga kelish kuni 22 aprel. Mandat hay‘ati 22 aprel kuni soat 15<sup>00</sup> dan 16<sup>00</sup> gacha, torozidan o‘tkazish va qur’a tashlash soat 17<sup>00</sup> dan 18<sup>00</sup> gacha.

**4. Musobaqa turi va shartlari**

Musobaqa turi – shaxsiy-jamoaviy, musobaqani xalqaro asossiyatsiya FILA ning hozirgi qoidalari bo‘yicha o‘tkaziladi. Musobaqaga qatnashadigan jamoalar har bir viloyatning madaniyat va sport ishlari boshqarmasi hisobidan safarbar etiladi. Musobaqaga qatnashadigan

jamoalarning talabnomalari – 2012-yilning 12 aprel kunigacha elektron varianti internet orqali qabul qilinadi (namuna uchun – O‘zbekiston Respublikasi yunon-rim kurashi federatsiyasining internetdagi sayti WWW@.GRfedUZB.com). Talabnoma bilan birlikda elektron variantda har bir ishtirokchi to‘g‘risida va sport yutuqlari bo‘yicha qisqacha axborot, har bir viloyatning joriy yildagi birinchilik musobaqasini o‘tkazish bayonnomasidan nusxa talab etiladi.

### **5. Ishtirokchilarga bo‘lgan talablar**

Ishtirokchilar bellashuvlarga o‘z vaqtida, musobaqa qoidasi bo‘yicha sport formasida chiqishlari talab etiladi.

### **6. Vazn toifalari**

Yunon-rim kurashi bo‘yicha O‘zbekiston chempionatida quyidagi vazn toifalari bo‘yicha musobaqa o‘tkaziladi: **-55 kg; -60 kg; -66 kg; -74 kg; -84 kg; -96 kg; -120 kg**. Joriy yilda O‘zbekiston chempionatidan keyin may oyida Osiyo chempionatini o‘tkazish rejalashtirilganligi sababli, vazn toifalari bo‘yicha chegaraga **2 kg qo‘shiladi**.

### **7. Taqdirlash**

Yunon-rim kurashi bo‘yicha O‘zbekiston chempionatining har bir vazn toifasida I, II, III-o‘rinlarni egallagan ishtirokchilar O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligining diplomlari, hamda xomiylarning qimmatbaho sovrinlari bilan taqdirlanadi.

## “TASDIQLAYMAN”

Toshkent shahar jismoniy tarbiya  
va sport ishlari boshqarmasi raisi  
“ ” Xamraqulov A.

“ ” 2017yil

Toshkent shahri jamoasidan yunon-rim kurashi bo'yicha O'zbekiston chempionatida ishtirok etish uchun

## TALABNOMA

№	Ishtirokchi F.I.Sh.	vazn toifasi	tug'ilgan yili	malaka (r-d)	murabbiy	vrach qarori
1	Tasmuratov Elmurat	59kg	1991y	O'zXKS	Qudratov R.	sog'lom
2	Maxmudov Axmadjon	66kg	1990y	XTSU	Qurbonov O.	sog'lom
3	Namozov Fazliddin	71kg	1989y	SU	Qurbonov O.	sog'lom
4	Vardanyan Aram	74kg	1990y	XTSU	Qurbonov O.	sog'lom
5	Mo'minov Jahongir	81kg	1987y	XTSU	Qurbonov O.	sog'lom
6	Shamsiddinov Muxammadali	85kg	1978y	XTSU	Qurbonov O.	sog'lom
7	Qo'ziev Islom	97kg	1990y	SU	Qurbonov O.	sog'lom
8	Abdullaev Mo'min	130	1990y	XTSU	Qurbonov O.	sog'lom

Yunon-rim kurashi bo'yicha Toshkent  
shahar bosh murabbiysi:

Vrach:

Qurbonov O.Q.  
Abaeva E.A.

**YUNON-RIM KURASHI BO'YICHA O'ZBEKISTON CHEMPIONATI**  
Toshkent sh. « 22 » aprel 20 17 yil. Vazn toifasi 60 kg. Torozidan o'tkazish va qur'a tashlash  
BAYONNOMASI

t/r	Ishtirokchining familyasi, ismi	Ishtirok hli-ning jamoasi	Sport razryadi	Tug'il- gan sana	Qur'a Raqami	Vazn bo'yicha tartib raqam	Qo'shim- cha beigl
1	Abdug'apborov Shuxrat	Nam	SUN	1992	7	1	+
2	Xakimov To'liqin	Bux	SUN	1984	16	10	+
3	Nurmatov Saydullo	Far	SUN	1990	10	4	+
4	Eshonqulov Iskandar	Nam	SUN	1985	14	8	+
5	Muxiddinov Nasim	Far	SUN	1986	20	12	+
6	Nazirov Adxam	Tosh.sh	SUN	1988	8	2	+
7	Nigmatov Muxriddin	Far	SUN	1990	13	7	+
8	G'opirjonov Xusniddin	And	SUN	1990	25	13	+
9	Suyarov Muzaffar	And	SUN	1991	17	11	+
10	Otabekov Jo'rabek	And	SUN	1990	9	3	+
11	Mamayunusov Raxmonjon	And	SUN	1991	33	14	+
12	To'xtaqo'ziev Xamidullo	Far	SUN	1988	15	9	+
13	Atadjanov Mansurbek	Tosh.sh	SU	1986	42	15	+
14	Raimov Nurali	Far	SUN	1992	11	5	+
15	Ergashev Abror	Tosh.sh	SUN	1984	51	16	+
16	Boltaboev Nuriddin	Nam	SUN	1989	12	6	+

Bosh hakam: \_\_\_\_\_ // Bosh kotib: \_\_\_\_\_ // Musobaqa vrachi: \_\_\_\_\_ //

## YUNON-RIM KURASHI BO'YICHA O'ZBEKISTON CHEMPIONATI

Toshkent sh. « 23 » aprel 2017-yil. Vazn toifasi 60 kg.

## Musobaqani o'tkazish (Gerakles uslubi)

## BA YONNOMASI

Vazn bo'yicha vr	Ishtirokchi familiyasi, ismi	Ishtirok-chining jamoasi	Sport tazyadi	F 1/8	F 1/4	F 1/2	F3	F3	F3	F3	F3	F3	F3	F3	F3	F3	O'tin, kvalif. o'choklar
1	Abdug'apporov Shuxrat	Nam	SUN	2	4	3	1										
					5		4										III
2	Nazirov Adxam	Tosh.sh	SUN	1	0												XIV 0/1
					1												
3	Otabekov Jo'rabek	And	SUN	4	0												VI
					0												
4	Nurmatov Saydullo	Far	SUN	3	4	1	3	5	3								I
					7	3	3	8									
5	Raimov Nurali	Far	SUN	6	3	8	3	4	1								V
					8		6		3								
6	Boltaboev Nuriddin	Nam	SUN	5	1												X 1/7
					7												
7	Nigmatov Muxriddin	Far	SUN	8	1												XI 1/5
					5												

8	Eshonqulov Iskandar	Nam	SUN	7	3	5	1												VII 4/10
					6		4												
9	To'xtaqo'ziev Xamidullo	Far	SUN	1	4	1	3	1	0										III
				0	4	1	7	6	5										
10	Xakimov To'liqin	Bux	SUN	9	0														XIII 0/7
					7														
11	Suyarov Muzaffar	And	SUN	1	3	9	1												VIII 4/7
				2	5		2												
12	Muxiddinov Nasim	Far	SUN	1	1														XII 1/4
				1	4														
13	G'opirjonov Xusniddin	And	SUN	1	1														IX 1/8
				4	8														
14	Mamayunusov Raxmonjon	And	SUN	1	3	1	1												V
				3	1	6	9												
					2														
15	Atadjanov Mansurbek	Tosh.sh	SU	1	1														VI
				6	2														
16	Ergashev Abror	Tosh.sh	SUN	1	3	1	3	9	4										II
				5	6	4	1		7										
							4												
							4												

Bosh hakam \_\_\_\_\_ //

Bosh kotib \_\_\_\_\_ //



## YUNON-RIM KURASHI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON CHEMPIONATI

Toshkent sh. «23» aprel 2017-yil. Vazn toifasi 60 kg.

Torozidan o‘tkazish va qur‘a tashlash (Gerakles uslubi)

## BAYONNOMASI

t/r	Ishtirokchi familiyasi, ismi	Ishtirokchining jamoasi	Sport razryadi	Keltirish bellashuvlari		F 1/4		F 1/2		F3		F3		F1		O‘tin va ochkolar
				B	O	1	2	3	1	3	1	1	3	1	1	
1	Abdug‘apporov Shuxrat	Nam	SUN			1				3	1					VII 1/1
2	Nazirov Adxam	Tosh.s h	SUN	3	3	3	5	3	5					1	1	II
3	Otabekov Jo‘rabek	And	SUN	2	1					1	3	5	3			III
4	Nurmatov Saydullo	Far	SUN	5	1											X 1/6
5	Raimov Nurali	Far	SUN	4	3	3	2	1	1			3	1			V
				9	6	8						1	1			

6	Boltaboev Nuriddin	Nam	SUN	7	3 6	5	1 1																IX 4/6
7	Nigmatov Muxriddin	Far	SUN	6	1 4																		XII 1/4
8	Eshonqulov Iskandar	Nam	SUN	9	1 3																		XIII 1/3
9	To'xtaqo'ziev Xamidullo	Far	SUN	8	3 9	1 0	1 5																VIII 4/14
10	Xakimov To'lqin	Bux	SUN	1	4 7	9	3 8	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	1 2	V
11	Suyarov Muzaffar	And	SUN	1	0 0																		XIV 0/0
12	Muxiddinov Nasim	Far	SUN	1	4 3	1 5	3 5	1 0	3 7	1 0	3 7	1 0	3 7	1 0	3 7	1 0	3 7	1 0	3 7	1 0	3 7	1 0	I
13	G'opirjonov Xusniddin	And	SUN	1	0 1																		VI 1/3
14	Mamayunusov Raxmonjon	And	SUN	1	1 5																		XI 1/5
15	Atadjanov Mansurbek	Tosh.s h	SU	1	3 4	1 8	1 2	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	1 3	III

Bosh kotib \_\_\_\_\_ //

Bosh hakam \_\_\_\_\_ //

## YUNON-RIM KURASHI BO'YICHA O'ZBEKISTON CHEMPIONATI

Toshkent sh. « 23 » aprel 2017-yil. Vazn toifasi 60 kg.

## Musobaqani o'tkazish (Gerakles uslubi)

BAYONNOMASI

Vazn bo'yicha	Ishtirokchi familiyasi, ismi	Ishtirokchi- ning jamoasi	Sport razryadi	I doira		II doira		III doira		IV doira		V doira		O'rin, kvalif ochkolar
1	Abdug'aprov Shuxrat	Nam	SU N	2	4 4	5	4 14	4	3	3	1	B O		I 12/22
2	Nazirov Adxam	Tosh. sh	SU N	1	0 6	3	3 6	5	1	B		4	3 7	IV 7/21
3	Otabekov Jo'rabek	And	SU N	4	4 12	2	1 3	B		1	3	5	1 4	III 9/24
4	Nurmatov Saydullo	Far	SU N	3	0 0	B		1	0	5	1	2	1 6	V 2/9
5	Raimov Nurali	Far	SU N	B O		1	1 2	2	4	4	3	3	3 8	II 11/25

Bosh hakam \_\_\_\_\_//

Bosh kotib \_\_\_\_\_//

## YUNON-RIM KURASHI BO'YICHA O'ZBEKISTON CHEMPIONATI

Toshkent sh. «23» aprel 2017-yil. Vazn toifasi 60 kg.

Bellashuvni olib borish

BAYONNOMASI

Bellashuv №	Vazn bo'yicha №	Ishitirokchi famiyiasi ismi	Ishitirokchining jamasi	malaka (razryadi)	1-bo'lim			2-bo'lim			Kvalifikatsion ochkolar	ballar	Bellashuv vaqti
					1-min	2-min	3-min	4-min	5-min	6-min			
1	2	Nazirov Adxam	Tosh.s h	SUN	3	1	3				3	7	6 <sup>00</sup>
	3	Otabekov Jo'rabek	And	SUN	3		1	1			1	5	
2	4	Nurmatov Saydullo	Far	SUN		1	1	3+			1	6	6 <sup>00</sup>
	5	Raimov Nurali	Far	SUN	3		1	2	2+	1	3	9	

Bosh hakam \_\_\_\_\_ //  
Bosh kotib \_\_\_\_\_ //

## YUNON-RIM KURASHI BO'YICHA O'ZBEKISTON CHEMPIONATI

Toshkent sh. « 23 » aprel 2017-yil. Vazn toifasi 60 kg. Musobaqani o'tkazish (Yapon tizimi)

## B A Y O N N O M A S I

1	Maxammatov Nuriddin Tosh.sh	Maxammatov Nurid	
9	Yuldashev Isomiddin Far	Iskandarov Muxam	Maxammatov N
5	Iskandarov Muxammad And		Maxammatov N
13	Yunusov Abror Far	Alimov Oybek	Berdimurodov O
3	Alimov Oybek And	Berdimurodov Oyb	
11	Abdulaxatov Muxriddin Far		
7	Berdimurodov Oybek Jizzax		
15	O'rinxodjaev Xondamir Tosh.sh		Maxammatov N
2	Jumaqulov Latif And	Jumaqulov Latif	
10	Ismoilov Zoxid Tosh.sh	Turg'unboev Maqsum	Jumaqulov L
6	Turg'unboev Maqsum And	Ro'ziev Xursand	Egamov I
14	Ibojonov Otobek Far	Egamov Ixtiyor	
4	Mamajonov Muxammadyusuf Far		Jumaqulov L
12	Ro'ziev Xursand Tosh.sh		
8	Egamov Ixtiyor And		
16	Nurov Muzaffar Tosh.vil		

I- o'rin Maxammatov N. Tosh.sh.

II- o'rin Jumaqulov L. And. Bosh hakam

III- o'rin Berdimurodov O. Jizzax. Bosh kotib \_\_\_\_\_ //

III- o'rin Egamov I. And.

## YUNON-RIM KURASHI BO'YICHA O'ZBEKISTON CHEMPIONATI

Toshkent sh. « 23 » aprel 2017-yil. Vazn toifasi 60 kg.

Musobaqani o'tkazish (Shveysariya uslubi)

## B A Y O N N O M A S I

Vazn bo'yicha	Ishitirokchi familiyasi, ismi	Ishitirokchi ning jamoasi	Sport razryadi	1doira		2doira		3doira		4doira		5doira		6doira		7doira		8doira		O'rin, kvalif och-kolar
				2	3	3	4	3	4	1	2	1	3	1	2	1	1	2	1	
1	Abdug'ap- porov Shuxrat	Nam	SUN	2	3	3	4	3	4	1	6	1	13	1	x	x	x	x	x	V 11/23
2	Nazirov Adxam	Tosh. sh	SUN	1	4	0	x	0	0	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	XIII 1/4
3	Olabekov Jo'rabek	And	SUN	4	1	0	x	0	0	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	XIV 1/3
4	Nurmatov Saydullo	Far	SUN	3	3	4	1	4	1	6	1	5	3	x	x	x	x	x	x	VI 9/20
5	Raimov Nurali	Far	SUN	6	5	3	10	3	6	1	8	x	x	x	x	x	x	x	x	IX 5/19
6	Boltboev Nuriddin	Nam	SUN	5	3	3	11	4	4	4	4	3	16	3	1	1	1	1	1	III 2/6
7	Nigmatov Muxriddin	Far	SUN	8	4	1	13	1	6	1	6	x	x	x	x	x	x	x	x	VIII 6/13
8	Eshonqulov Iskandar	Nam	SUN	7	0	0	6	1	1	x	x	x	x	x	x	x	x	x	x	XV- XVI 1/1

9	To'xtaqo'ziev Xamidullo	Far	SUN	1 0	1 1	1 1	x				x					x				XII 2/2
<u>F10</u>	Xakimov To'lqin	Bux	SUN	9	3 7	1 2	5	3 6	1 1	3 8	B O	3 6	1 0			B O	1 3	1 3	1 3	II 4/9
11	Suyarov Muzaffar	And	SUN	1 2	3 8	9 9	6	0 4	1 0	1 2	x					x				VII 7/23
12	Muxiddinov Nasim	Far'	SUN	1 1	1 2	1 0	x				x					x				XI 2/5
<u>F13</u>	G'opirjonov Xusniddin	And	SUN	1 4	3 7	1 5	7	3 8	B O			1	3 6	1 7		3 6	1 9	0 6		I 6/15
14	Mamayn- rusov Raxmonjon	And	SUN	1 3	0 0	1 6	x				x									XV- XVI 1/1
15	Atadjanov Mansurbek	Tosh. sh	SU	1 6	1 6	1 3	x				x					x				X 2/10
16	Ergashev Abror	Tosh. sh	SUN	1 5	3 8	1 4	B O				1	3 6	1 4	3 6	1 4	1 3	1 4	1 4		IV 11/28

Bosh hakam \_\_\_\_\_//  
Bosh kotib \_\_\_\_\_//

### 9 – namuna

Quyidagi jadvalni bosh kotib faqatgina o'zi uchun, ya'ni musobaqa bayonnomasida kamchilik va hatolikga yo'l qo'ymaslik uchun foydalanadi.

1doira	2doira	3doira	4doira	5doira	6doira	7doira	8 doira
1–2	1–3	1–4	16–1	13–1	6–10	6–13	10–
3–4	2–4	5–10	4–6	6–16	13–16	10–	13
5–6	5–7	6–11	10–11	10–		BO	
7–8	6–8	7–13	13–	BO			
9–10	9–11	16–	BO				
11–12	10–12	BO					
13–14	13–15						
15–16	14–16						

#### *O'z-o'zini tekshirish uchun test savollari:*

#### **1. Musobaqa – bu qaysi jarayonning tarkibiy qismidir?**

- a) Yillik siklning.
- b) Makrosiklning.
- c) O'quv-trenirovka jarayonining.
- d) Mezosiklning.

#### **2. Musobaqalarda ishtirok etishdan maqsad nima?**

- a) G'alabaga erishish, imkoni boricha yuqori o'rinlarni egallash.
- b) Bellashuvda yutib chiqish.
- c) Raqiblarni sinab ko'rish.
- d) Raqiblar to'g'risida axborot yig'ish.

#### **3. Musobaqalarni o'tkazish xususiyatiga ko'ra ular qanday bo'linadi?**

- a) Shaxsiy, jamoaviy, shaxsiy-jamoaviy, klassifikatsion.
- b) Olimpiya, chetlashtirish.
- c) Aylanma, aylanma-chetlashtirish.
- d) Yutgan keyingi bosqichga chiqish yo'li bilan.

#### **4. Klassifikatsion musobaqalarning asosiy vazifasi nimadan iborat?**

- a) Kuchlini taqdirlashdan iborat.
- b) Jamoaning egallagan o'rinini aniqlashdan iborat.



- c) Saralashdan iborat.
- d) Shaxsiy birinchilikni aniqlashdan iborat.

**5. Musobaqalarni o'tkazish uslubiga ko'ra ular qanday bo'linadi?**

- a) Ko'rsatish va so'z uslubi.
- b) Aylanma, aylanma-chetlatish, aralash, olimpiya.
- c) Dinamik, statik, izometrik uslub.
- d) Yangi pedagogik texnologiyalar.

**6. Chempionat deganda qaysi musobaqa tushuniladi?**

- a) O'smirlar o'rtasidagi chempionat.
- b) Kattalar o'rtasidagi chempionat.
- c) Yoshlar o'rtasidagi chempionat.
- d) Faxriylar o'rtasidagi chempionat.

**7. Birinchilik deganda qaysi musobaqa tushuniladi?**

- a) Faxriylar o'rtasidagi birinchilik.
- b) Kattalar o'rtasidagi birinchilik.
- c) Yoshlar o'rtasidagi birinchilik.
- d) O'smirlar, yoshlar, faxriylar o'rtasidagi birinchilik.

**8. O'zbekistonda «Umid nihollari» musobasi kimlar o'rtasida o'tkaziladi?**

- a) OTM talabalari.
- b) ALvaK talabalari.
- c) Maktab o'quvchilari o'rtasida.
- d) Magistrantlar.

**9. O'zbekistonda «Barkomol avlod» musobasi kimlar o'rtasida o'tkaziladi?**

- a) OTM talabalari.
- b) ALvaK talabalari.
- c) Maktab o'quvchilari.
- d) Magistrantlar.

**10. O'zbekistonda «Universiada» musobasi kimlar o'rtasida o'tkaziladi?**

- a) OTM talabalari.
- b) ALvaK talabalari.
- c) Maktab o'quvchilari.
- d) Magistrantlar.

**11. Musobaqalar taqvim (kalendar) rejasi qanday hujjat?**

- a) Musobaqalarni o'tkazishning oylik rejasi.

- b) Musobaqalarni o‘tkazishning yillik rejasi.
- c) Musobaqalarni o‘tkazishning haftalik rejasi.
- d) Bellashuvlarni o‘tkazish rejasi.

**12. Musobaqa nizomida nimalar ko‘rsatiladi?**

- a) Bellashuv bayonnomasi.
- b) Musobaqa bayonnomasi.
- c) Torozidan o‘tkazish va qur’a tashlash bayonnomasi.
- d) Musobaqani o‘tkazish shartlari.

**13. Nazorat musobaqalarida nima tekshiriladi?**

- a) Kuch sifatining darajasi.
- b) Tayyorgarlik darajasi.
- c) Chaqqonlik sifatining darajasi.
- d) MJT darajasi.

**14. Talabnoma(заявка) qanday hujjat?**

- a) Musobaqalarni yillik rejalashtiruvchi hujjat.
- b) Musobaqadan keyingi hisobot hujjatlaridan biri.
- c) Jamoaning musobaqaga qatnashganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma.
- d) Jamoa nomidan musobaqaga ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjat.

**15. Musobaqaning mandat komissiyasi funksiyasi nimadan iborat.**

- a) Ishtirokchilarni torozidan o‘tkazadi.
- b) Taqdim etilgan hujjatlarni muvofiqlashtiradi, yo‘riqnomalarni tushuntiradi.
- c) Bellashuvlarda hakam vazifasini bajaradi.
- d) Musobaqani o‘tkazish bayonnomasini nazorat qiladi.

**16. Musobaqa nizomiga bo‘lgan asosiy talablar nimalardan iborat?**

- a) Holislik, shaffoflik, talabchanlik.
- b) Aniqlik, ravshanlik, muayyanlik.
- c) Qat’iyatlilik, demokratik, xususiylik.
- d) Tejamkorlik, uddaburonlik, ishbilarmonlik.

**17. Musobaqa bosh hakaminig asosiy vazifasi nimadan iborat ?**

- a) Musobaqaning tashkillashtirilishi va o‘tkazilishi bo‘yicha qisman javobgar.
- b) Bellashuvlar o‘tkazilishida hakamlar yo‘l qo‘ygan hatolar uchun javobgar.

c) Musobaqaning tashkillashtirilishi va o'tkazilishi bo'yicha to'liq javobgar.

d) Musobaqaning tashkillashtirilishi bo'yicha to'liq javobgar.

**18. Dzyudo kurashida musobaqani o'tkazish bayonnomasi qaysi sistema bo'yicha o'tkaziladi?**

a) Shveysariya variantdagi olimpiya sistemasi.

b) Yaponcha variantdagi olimpiya sistemasi.

c) Gerakles variantdagi olimpiya sistemasi.

d) Aylanma-chetlatish variantdagi olimpiya sistemasi.

**19. Bellashuvga chiqqan ikkala kurashchi ham musobaqa qoidasini qo'pol ravishda buzadigan bo'lsa qanday chora ko'riladi?**

a) Amnistiya.

b) Diskvalifikatsiya.

c) Ekzekutsiya.

d) Jarima solish.

**20. Bellashuvda bajarilgan texnik usulni baholashda nimaga e'tibor berish talab etiladi ?**

a) Amplitudasiga.

b) O'tkazilishiga.

c) Gilamga nisbatan yiqilish holatiga.

d) Ag'darilishiga.

***O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kalitlari.***

No	A	B	C	D
1			*	
2	*			
3	*			
4			*	
5		*		
6		*		
7				*
8			*	
9		*		
10	*			
11		*		

12				*
13		*		
14				*
15		*		
16		*		
17			*	
18		*		
19		*		
20			*	

***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:***

Abdullaev Sh.A., Agzamov A.A. Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati. T. 2016.

Атаев А.К. Кураш. Т., 1987.

Bayturaev E.I. "Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyati" Toshkent-2016.

Ионов С.Ф., Ципурский И.Л. Организация и судейство соревнований по борьбе самбо. М., 1983.

Kerimov F.A. Darslik. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti T., 2009.

Нуршин Ж.М., Саламов Р.С., Керимов Ф.А. Ўзбекча миллий спорт кураши. Т., 1993.

McIntosh J.S. Wrestling. Mason Crest. USA 2014.

Международные правила соревнований по греко-римской и вольной борьбе. М., ФСБР, 1997.

Mirzaqulov Sh.A. Belbog'li kurash nazariyasi va uslubiyati., T. 2013.

Tastanov N.A. Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. T. 2014.

William Welker. The Wrestling Drill Book-2nd Edition. Human-kinetics. USA 2013.

Internetdagi saytlar: [WWW.UWW.](http://WWW.UWW.), [WWW.IJF.](http://WWW.IJF.), [WWW.IKA.](http://WWW.IKA.), [WWW.FIAS.](http://WWW.FIAS.)

## **IV-BOB. KURASH TURLARIDA ILMIY ISHLAR TO‘G‘RISIDA TUSHUNCHALAR**

### **4.1. Kurash turlarida ilmiy ishlarning ahamiyati**

Mazkur mavzu bilan birga 5–11–23-boblarda o‘quv dasturiga asoslanib ilmiy ishlarga ta’luqli mavzular berilgan. Sababi mazkur mavzu va 5-boblarda ilmiy ishlar to‘g‘risida tushunchalar I-II-bosqichlar uchun, 11-bobda BMIning yozish qoidalari III-bosqich uchun, 23-bobda ilmiy ishlar to‘g‘risida kengroq bilim olish bilan birga bakalavriaturadan keyingi magistraturaga bazaviy tayyorgarlik tushunchalari IV-bosqich uchun berilgan. Har bir bosqichda talabalarga uzluksiz bilim berish hamda ularning ilmiy ishlar to‘g‘risida berilgan bilimlarni o‘zlashtirish hamda tushuna olishi maqsadida mavzular ketma-ket qo‘yilgan.

Ilmiy ishlar barcha sohalar kabi kurash turlarida ham olib boriladi. Ilmiy ishlarni olib borish uchun avvalambor u haqida tushunchaga va tasavvurga ega bo‘lish mazkur faoliyatning to‘g‘ri yo‘ldan borishini ta’minlaydi. Bunda o‘ziga hos ma’lum darajadagi qonun va qoidalarga, tartib va intizomga, oddiydan murakkabga va ketma-ketlik hamda ishonchlilik tamoyillariga qat’iy rioya etish talab etiladi. Oliy ta’lim muassasining endigina birinchi bosqichiga o‘qishga kirgan talaba ortda qolgan bog‘cha, maktab, litsey yoki kollejdagi orttirgan bilimiga tayangan holda ilmiy ishlarni olib bora oladimi, yoki yo‘qmi degan savol hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Sababi ilmiy ishlarni olib borish uchun bazaviy bilimlarga ega bo‘lish shart. Buning uchun ilmiy ishlarni olib borishdagi bosqichlarni e’tiborga olish zarur. Hozirgi kunda yoshlarimizga barcha sharoitlar yaratilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim muassasalarida motorikasini rivojlantirish uchun har xil o‘yin harakatlari, ongini rivojlantirish uchun sherlarni yodlash, qo‘shiq aytish ko‘nikmalari shakllanib, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida bazaviy bilimlar va kasbga yo‘naltirilib tarbiyalanmoqda. O‘rta ta’lim muassasasida adabiyot fanidan insho yozgan o‘quvchi uning ma’lum bir qolipda va qoidaga amal qilib, kirish, boblari va xulosasini yozishni hamda o‘rta maxsus ta’lim muassasasida bitiruv malakaviy ishini yozishni o‘rgangan. Bilim olishda

yangiliklarga intilishni uyg‘otish yo‘nalishida tarbiya olgan yoshlarning ilmga degan qiziqishi so‘nmasdan yanada rivojlantirilib borilishi zarur ahamiyat kasb etadi. Mana shu bilim olish harakati oliy ta‘lim muassasalaridagi bakalavriaturada bitiruv malakaviy ishini va magistraturada dissertatsiya yozish bilan davom etadi. Ozbekistonda yoshlarning uzluksiz ta‘lim olishidagi ilmiy ishlariga katta yo‘l ochilgan, buning uchun har bir oliy ta‘lim muassasidagi professor-o‘qituvchilar o‘z fanlari bo‘yicha iqtidorli talabalar bilan ishlash faoliyatini yurgizadilar, qo‘shimcha dars o‘tadi va mustaqil bilim olish uchun talabalarga yo‘naltiruvchi vazifalar beradilar.

Kurash turlari bo‘yicha qanday ilmiy ishlarni olib borish mumkinligini talabalar aniq bilishi zarur. Ayrim boshqa soha vakillari tushunmasdan “Sportda ham ilmiy ishlar bormi?” deb noto‘g‘ri savol berishadi. Masalan, ikki kurashchi bellashganda biri yutadi, ikkinchisi yutkazadi. Bunda yo‘tkazgan kurashchining nima uchun yo‘tkazganlik sabablarini qidirish kerakmi? Yoki, yo‘tkazgan kurashchi keyingi safar yutishi uchun yaxshiroq tayyorlanishi uchun qaysi uslubdan foydalanish zarurligi, bundagi kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini qidirib topish kimning zimmasiga tushadi? degan savollar o‘z-o‘zidan tug‘iladi. Albatta bu javobgarlik trenerning zimmasidadir. Shuning ushun bo‘lajak trenerlar va murabbiylar ilmiy ishlarni olib borish to‘g‘risida bilimga ega bo‘lishi shart. Kurash turlarida ilmiy ishlar hozirgi kungacha olib kelingan, olib borilmoqda va bundan keyin ham olib boriladi. Hozirgi kunda faqatgina ilmi kuchli trener va murabbiylarning shogirdlari yuqori natijalar ko‘rsata oladi. Kurash turlarida mashg‘ulotlarni o‘tkazish tamoyillardan biri – ilmiy asoslangan tamoyildan foydalangan holda olib borish deb belgilangan.

Birinchi bosqich talabalari ilmiy ishlar bo‘yicha:

- kurashchilar mashg‘ulotining dars konspektini,
- pulsometriya,
- xronometriya,
- ilmiy ishlardagi ko‘rsatgichlarni taqqoslash tuzilmasi,
- nazorat testlari

to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi zarur.

## 4.2.Dars konspekti

Kurashchilar mashg'ulotining dars konspekti – guruhning bir mashg'uloti uchun tuzilgan reja bo'lib, haftalik rejadana, haftalik reja oylik rejadana, oylik reja yillik rejadana kelib chiqqan holda tuziladi. Dars konspektida sport maktabining direktori yoki uning o'rinbosari tasdiqlaydigan joy, dars raqami, aniq sanasi, darsda foydalaniladigan anjomlar va o'tkaziladigan joy ko'rsatiladi.

Dars konspekti quyidagi vazifalarni belgilaydi va bular trenerning majburiyati hisoblanadi:

- 1) Bilim berish;
- 2) Tarbiya berish;
- 3) Sog'lomlashtirish.

Bilim berish vazifasi – yillik, oylik va haftalik rejada ko'rsatilgan mavzu bo'yicha shug'ullanuvchilarga bilim berish va ungacha bo'lgan bilimlarni yanada rivojlantirish va takomillashtirishdan iboratdir.

Tarbiya berish vazifasi – birinchi vazifadan kelib chiqqan holda, ya'ni, qanday mavzu berilgan bo'lsa o'sha mavzuning kurashchining tarbiyasiga ta'sir etuvchi jihatlari belgilanadi.

Sog'lomlashtirish vazifasi – bu ham birinchi vazifadan kelib chiqqan holda, ya'ni, qanday mavzu berilgan bo'lsa o'sha mavzuning organizmdagi qaysi qismiga ta'sir etish tomonlari belgilanadi.

Dars konspekti to'rtta qatordan iborat – birinchi qatorda darsning qismlari, ikkinchi qatorda darsdagi vazifalar mazmuni, uchinchi qatorda me'yorlash, to'rtinchi qatorda tashkiliy-uslubiy ko'rsatmalar ko'rsatiladi.

Dars konspekti uchta qismdan iborat – tayyorgarlik, asosiy va yakuniy qismlar.

Tayyorgarlik qismining vazifasi – shug'ullanuvchilar organizmini asosiy qismda olinadigan yuklamaga tayyorlash hisoblanadi.

Asosiy qismning vazifasi – darsga qo'yilgan birinchi vazifa, ya'ni, bilim berish vazifasini bajarishdagi mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va mahorat darajasini ko'tarishga qaratilgan.

Yakuniy qismning vazifasi – shug‘ullanuvchilar organizmini tiklash, asosiy qismda olingan yuklama oqibatidagi charchashni yo‘q qilish.

Tuzilgan dars konspektiga trener javobgardir.

### 4.3.Pulsometriya.

Kurashchilar mashg‘ulotida pulsometriya uslubini qo‘llash – yuklamani me‘yorlash uchun muhim uslubdir. Pulsometriya uslubi yordamida trener shug‘ullanuvchilarning organizmiga qay darajada yuklama berilganligini aniqlash uchun foydalanadi. Shuningdek pulsometriya uslubi yuklamalarni son jihatdan o‘lchash imkoniyatini ham yaratadi. Zamonaviy kurash treneri mashg‘ulot yuklamasining darajasini muntazam tahlil qilib borishi va musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari bilan uni taqqoslab turishi lozim. Buning uchun ish tartibi qaysi shiddatdagi zonada ish olib borilishiga qarab V.A.Sorvanov tomonidan taklif etilgan yuklamalar shiddatining tasnifi bo‘yicha baholanishi mumkin. Shu orqali yuklamaning qanday turi sportchi texnikasini takomillashtirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi, yuklama hajmi yetarlichami, har xil yuklama turlarining hajmi va yo‘nalishi o‘rtasidagi nisbat qanchalik optimal ekanligi aniqlanadi. Mashg‘ulotdagi yuklama hajmini aniqlash uchun mashqdan keyin YuQTning hisobi topiladi, so‘ngra jadvaldan shiddat qiymati topiladi, uni shu mashqni bajarish vaqtiga ko‘paytiriladi, barcha mashg‘ulotdagi vazifalarning yuklama birligining summasi qo‘shilib, butun mashg‘ulot yuklamasi aniqlanadi  $P_{\Sigma} = (t_1 \times p_1) + (t_n \times p_n)$ .



“TASDIQLAYMAN”

DARS KONSPEKTI

Guruh

T.A.

№ \_\_\_\_\_

Sultonov BO‘SM

direktori

Sana

Vaqti

“ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_y.

- Vazifalar:
- 1.
  - 2.
  - 3.

Dars o‘tkazish joyi va anjomlar:

Dars qismlari	Dars mazmuni	Me‘yorlash	Tashkiliy- uslubiy ko‘rsatmalar
Tayyorgarlik qismi (15–20min.)			
Asosiy qism (45–50min.)			
Yakuniy qism (10–15min.)			


Tuzuvchi trener: (imzo) Sh.A.Abdullaev.

**3-jadval. Sport kurashida V.A.Sorvanov tomonidan taklif etilgan yuklamalar shiddatining klassifikatsiyasi**


Trenirovka shiddatining tartibi	YuQT		Baho, ballar
	10 sek. ichida	1 min. ichida	
Ko‘proq aerob	19	114	1
	20	120	2
	21	126	3
	22	132	4
	23	138	5
	24	144	6
	25	150	7
	26	156	8
Aralash aerob-anaerob	27	162	10
	28	168	12
	29	174	14
	30	180	17
	31	186	21
	32	192	25
Anaerob-glikolitik	33	198	33
	34	204	38
	35	210	42
	36	216	46
	37	222	50

#### 4-jadval Sport kurashida yuklamalar shiddatini aniqlash jadvali

Aniqlash	Darsdagi vazifalar №																	jami
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	
Vazifa vaqti	5	5	5	10	10	8	8	8	8	8	8	6	6	10	5	5	5	120
10 <sup>II</sup> davomida YuQT	19	23	25	26	24	26	28	24	27	29	27	30	26	34	26	23	20	25,7
Ballarda baholash	1	5	7	8	6	8	12	6	10	14	10	17	8	33	8	5	2	-
Yuklama birligi	5	25	35	80	60	64	96	48	80	112	80	102	48	330	40	25	10	1240



**1- diagramma. Mashg‘ulot davomidagi pulsometriya dinamikasi**



**2- diagramma. Mashg‘ulot davomidagi yuklamaning dinamikasi**

Yuklama hajmini trenirovkaning ta’sir etish yo‘nalishi bo‘yicha qayd etish maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi jadval va formula yordamida aniqlangan birlik bu – yuklama birligi deyiladi. Yuklama birligining hajmiga qarab quyidagi darajalarga ajratish mumkin – kichik (600dan 800gacha), o‘rta (800dan 1000gacha), katta (1000dan 1200gacha) va maksimal (1200dan yuqori).

#### 4.4.Xronometriya

Harakatlarni bajarishga sarflangan vaqtni aniqlash va uni yozib olish xronometriya hamda uning mazmuni asosini tashkil etadi.

Xronometriya mustaqil tadqiqot uslubi sifatida ham qo'llaniladi (masalan, eng yaxshi trenerlar ish tajribasini umumlashtirishda va boshqa uslublarga qo'shimcha tariqasida, masalan, pedagogik tajribada).

Darsning umumiy (Uzich) va harakat zichligini (Hzich) aniqlash uchun o'quvchilarning quyidagi harakat turlari xronometriyasi amalga oshiriladi:

1.Mashg'ulotlarda o'rganiladigan hamma harakatlarni bajarish vaqti aniqlanadi.

2.Tushuntirishlarni eshitish va mashqlarning ko'rsatilishi, ko'r-gazmali qurollarning namoyish etilishini kuzatish.

3.Dam olish, o'quvchilarning navbatdagi mashg'ulotni bajarishlarini kutish.

4.Mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha harakatlar.

5.Oddiy.

Bunday ko'rsatkichlarni hisoblash quyidagi formulalarga asosan bajariladi:

$$U_{zich} = \frac{t_u - t_{to'x}}{t_u} \times 100\%$$

$$H_{zich} = \frac{t_b}{t_u} \times 100\%$$

bu yerda:  $U_{zich}$  – darsning umumiy zichligi;  $H_{zich}$  – darsning harakat zichligi;  $t_u$  – darsning umumiy vaqti;  $t_{to'x}$  – o'qituvchi aybiga ko'ra to'xtab qolish vaqti;  $t_b$  – mashqlar va topshiriqlarni bajarish vaqti.

Dars zichligi butunligicha va uning alohida qismlari bo'yicha hisoblanadi. Xronometriya natijalari grafik holda chizilishi mumkin. Grafik tasvirlash uchun eng yaxshi millimetrlig qog'ozdan yoki maxsus bloknotlardan foydalanish zarur. Xronometriya o'tkazayotib, shuni nazarda tutish lozimki, eng tez va qisqa yozuvda buning uchun, odatda, 2–3 sek sarflanadi. Bu vaqt ichida pedagogik jarayonning ko'pgina muhim daqiqalari kuzatuvchi nazaridan chetda qoladi. Ushbu

kamchiliklarni kam darajaga tushirish maqsadida kuzatishlar dasturini soddalashtirish yoki kuzatuvchilar brigadasini tashkil etish lozim.

#### **4.5. Ilmiy ishlardagi ko'rsatgichlarni taqqoslash tuzilmasi.**

Kurash turlarida ilmiy ishlarni olib borishda yangi uslubni sinab ko'rish uchun tadqiqot o'tkaziladi. Tadqiqotda asosan ikki guruh, ya'ni, nazorat va tajriba guruhlarini ishtirok etadi. Nazorat guruhi – kurash turlari bo'yicha sport maktablarida, doimiy nazoratdagi guruhlar va ularning faoliyati aniq tasdiqlangan reja asosida yuritiladi. Tajriba guruhi – yangi uslubni sinab ko'rish uchun tanlangan guruh deb hisoblanadi.

Tadqiqotning qanday o'tkazilganligini nazorat va tajriba guruhlarining tadqiqotdan oldingi hamda tadqiqotdan keyingi ko'rsatgichlarini taqqoslash yo'li bilan bilish mumkin.

Bunda quyidagi ko'rsatgichlar o'zaro taqqoslanadi (1-tuzilma):

1)  $x - x_1$  nazorat guruhining tadqiqotdan oldingi va keyingi ko'rsatgichlari;

2)  $y - y_1$  tajriba guruhining tadqiqotdan oldingi va keyingi ko'rsatgichlari;

3)  $x - y$  nazorat guruhining tadqiqotdan oldingi ko'rsatgichi bilan tajriba guruhining tadqiqotdan oldingi ko'rsatgichi;

4)  $x_1 - y_1$  nazorat guruhining tadqiqotdan keyingi ko'rsatgichi bilan tajriba guruhining tadqiqotdan keyingi ko'rsatgichi;

Nazorat testlari alohida harakat sifatlarining rivojlanish darajasini aniqlash, ayrim shug'ullanuvchilar bilan birga butun guruh tayyorligini taqqoslash, u yoki bu sport turi bilan shug'ullanish hamda musobaqalarda qatnashish uchun kurashchilarni optimal tanlab olishni amalga oshirish, ayrim kurashchilar bilan bir qatorda butun guruh trenirovkasini holisona nazorat qilishni kiritish, qo'llanilayotgan o'qitish uslublari, vositalari hamda mashg'ulotlarni tashkil qilish shakllarining afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashga yordam beradi.

Nazorat testlari har qanday tadqiqot uslublariga qo'yiladigan talablarga (barqarorlik, tanlanganlik, katta sig'im, qayta amalga oshirish) javob berishi lozim.

#### **4.6. Nazorat testlari**

Nazorat testlari nazorat mashqlari yoki testlar yordamida o'tkaziladi.

Nazorat test-mashqlarini ishlab chiqishda quyidagi umumiy qoidalarga amal qilish zarur:

1) tanlangan nazorat mashqlari hamma sinaluvchilar uchun bir xil sharoitda testlarni o'tkazish imkoniyatini berishi lozim;

2) nazorat mashqlari hamma sinaluvchilar uchun, ularning texnik va jismoniy tayyorgarligidan qat'iy nazar, yengil bo'lishi kerak;


3) qiyosiy tadqiqotlarda nazorat mashqlari o'rganilayotgan pedagogik omillarga nisbatan indifferentlilik bilan tavsiflanishi lozim (masalan, mashg'ulotning yangi mazmuni xususiyatini aks ettiruvchi nazorat mashqlariga qarab, uning katta samaradorligi to'g'risida fikr bildirib bo'lmaydi, ya'ni, boshqacha qilib aytganda, agar tajriba guruhlarida yangi harakatlar o'rganilsa, nazorat guruhida esa o'rganilmasa, testlar darsning yangi va eski mazmuni uchun bir xilda taalluqsiz bo'ladi);

4) har bir nazorat mashqi qaysidir bir ob'yektiv ko'rsatkichlarda (sekundlar, santimetrlar, kilogrammlar, takrorlashlar soni va h.k.) o'lchangan bo'lishi lozim;

5) nazorat mashqlari imkoni boricha o'lchanishi va baholanishiga ko'ra soddaligi bilan ajralib turishi zarur;

6) nazorat mashqlari sinaluvchilar uchun tadqiqot natijalariga ko'ra ko'rgazmali bo'lishi kerak.

Nazorat va tadqiqot guruhlarini solishtirish tuzilmasi



Nazorat mashqlarini tadqiqot va o'quv-tarbiya jarayoni vazifalariga bog'liq muddatlarda o'tkazishni tavsiya etish lozim. Nazorat testlari ko'pgina hollarda har bir o'qitish davrining boshida, o'rtasida va oxirida o'tkaziladi (masalan, yillik trenirovka siklining tayyorgarlik davrida). Biroq maxsus chidamlilikka qaratilgan nazorat testlari shiddati yuqori bo'lgan vazifalarni bajarishda va musobaqa davrida olib boriladi. Nazorat mashqlarini quyidagi ketma-ketlikda berishi tavsiya etiladi: birinchi kun – tezkor-kuch, ikkinchi kun – kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.

So'nggi yillarda testlash nazariyasida nafaqat ixtisoslashtirilgan nazorat mashqlari tizimini, balki morfo-funksional ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladigan komplekslarni ishlab chiqishga intilish kuzatilmoqda. Bundan tashqari, hamma testlash natijalarini ochkolarga aylantirishga urinish mavjud, chunki hamma testlar bo'yicha ochkolar yig'indisini o'zgartirish ham alohida shug'ullanuvchilarning, ham butun guruhning taraqqiyoti to'g'risida fikr hosil qilishga, jamoalarga saralashni yanada asoslangan holda amalga oshirishga imkon beradi.

Uyg'unlashtirilgan testlarga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki ular yordamida bitta harakat bo'yicha bir qancha harakat sifatleri hamda malakalarining rivojlanganlik darajasini aniqlash mumkin. Biroq yetarlicha salmoqli va qayta amalga oshirib ishonchli testlarni yaratish katta qiyinchilik tug'diradi, chunki ular uchun nisbatan murakkab harakatlarni tanlab olishga to'g'ri keladi. Bunday testlarning natijaliligi sinalluvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga bog'liq.

Nazorat testlari kurashchining holatini yoki qobiliyatini aniqlash uchun o'tkaziladigan o'lchash yoki sinovdir. Bunday o'lchashlar juda ko'p o'tkazilishi mumkin, lekin nazorat testi sifatida, faqatgina quyidagi metrologik talablarni qondiradiganlari ishlatilishi mumkin:

- 1) har qanday testni qo'llashning maqsadi aniqlanishi kerak;
- 2) testlarda natijalarni standartlashtirilgan o'lchash usullarini va test o'tkazish jarayonini ishlab chiqish lozim;
- 3) ularning ishonarliligini va informativligini aniqlash lozim;
- 4) testlarda natijalarni baholash tizimi ishlab chiqilishi lozim;
- 5) nazorat turini (tezkor, joriy va bosqichli) ko'rsatish lozim.

Maqsadga muvofiq ravishda barcha nazorat testlari bir nechta guruhlariga ajratiladi:



Testlarning ishonchliligi deb, bir xil sharoitlarda o'sha odamlarning o'zlarini (yoki boshqa ob'yektlarni) qayta testlash paytidagi natijalarning mos kelishiga aytiladi.

Stabillik – bir xil sharoitda ma'lum vaqt o'tishi bilan, testni amaliy jihatdan bir xildagi natijani ko'rsatish qobiliyatidir: birlamchi test – bu testning o'zi, qaytariluvchisi – bu, retest.

Kelishilganlik – testni, har xil shaxslar testlashni amalga oshirgan paytda amaliy jihatdan bir xildagi natijani ko'rsatish qobiliyatidir.

Ekvivalentlik – testni, bir nechta test vazifalari qo'llanishi paytida amaliy jihatdan bir xildagi natijani ko'rsatish qobiliyatidir.

Testning informativligi quyidagicha tasdiqlanadi: ma'lum bir son ko'rsatkichi aniqlanadi yoki informativlikka tekshirilgan boshqa test tanlanadi; informativlik mezoni bilan ko'zda tutilgan test o'rtasida korrelyasiya koeffitsienti hisoblanadi; agar, ushbu koeffitsient yuqori bo'lsa (qoidaga binoan, 0,8 dan yuqori), unda tekshirilayotgan testni informativli deb hisoblash kerak.

### 5-jadval. Kurash turlarida foydalaniladigan nazorat testlari

Sifatlar	Nazorat testlarinig turlari	O'lcham birligi
Kuch	1.Shtangada o'z vaznini yelkaga qo'yib o'tirib-turish	marta
	2. Shtangani yelkaga qo'yib o'tirib-turish	kg
	3. Shtangani yotgan holatda ko'krakdan ko'tarish	kg
	4. Tik turgan holatda shtangani ko'krakgacha ko'tarish	kg
	5.Ko'prik holatida shtangani ko'krakdan ko'tarish	kg
	6.Turnikda tortilish	marta
	7.Har xil og'irlikdagi shtanga blinlarini belbog'ga bog'lab turnikda tortilish	marta
Tezkor-kuch	1.O'z vazniga teng sherikni 10-marta beldan oshirib tashlash	s
	2. O'z vazniga teng sherikni 10-marta ko'krakdan oshirib tashlash	s
	3.O'z vazniga teng sherikni 10-marta yelkalardan oshirib tashlash	s

	4.O'z vazniga teng sherikni parter holatida belini ushlab yuqoriga 5-marta ko'tarish	s
	5.Joyidan uzunlikga sakrash	sm
	6. Joyidan balandlikga sakrash	sm
	7.UDS uskunasi (усиление динамометрического стенда) tezkor-kuch sifatini o'lchash asbobi	kg/s
Tezlik	1. 30metrga yugurish	s
	2.60metrga yugurish	s
	3.100metrga yugurish	s
	4. 200metrga yugurish	s
	5. 400metrga yugurish	s
Chaqonlik	1.3x10metrga moksimon yugurish	s
	2.4x10 metrga moksimon yugurish	s
	3.Maxsus harbiy tayyorgarlik to'siqlari osha yugurish	s
	4.To'siqlar orasidan zigzagsmon o'tib va qaytib yugurish	s
Chidamlilik	1.Uzoq masofalarga(3000metr, joylarda kross) yugurish	s
	2. 3minut yugurish + 30 sekund dam + 3minut yugurish	m
	3.Uchga bir bellashuvi (maxsus chidamlilik uchun), ya'ni bir kurashchi gilamda uchta raqibni almashtirib, yuqori sur'atda bellashuvni olib boradi. Bunda raqiblarning malakasi kurashchining teng. Bellashuv kurashchining bellashuvni to'xtatish to'g'risidagi ishorasigacha olib boriladi.	s
Egituvchanlik	1.Ko'prik holatida turish (most)	Ped.baho: 5;4;3;2;1;0
	2.Ko'prikchaga turish (mostik)	Ped.baho: 5;4;3;2;1;0
	3.Shpagatga turish	Ped.baho: 5;4;3;2;1;0

*O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari*

**1.OTM bakalavriatura talabalari qanday ilmiy ishni bajarishlari zarur?**

- a) Diplom ishini.
- b) Kurs ishini.
- c) Bitiruv malakaviy ishini.
- d) Dissertatsiya ishini.

**2.OTM magistratura talabalari qanday ilmiy ishni bajarishlari zarur?**

- a) Diplom ishini.
- b) Kurs ishini.
- c) Bitiruv malakaviy ishini.
- d) Dissertatsiya ishini.

**3.Quyidagilardan qaysi biri kurash turlarida mashg‘ulotlarni o‘tkazish tamoyili?**

- a) Kuchga asoslangan tamoyil
- b) Ilmiy asoslangan tamoyil
- c) Tezlikga asoslangan tamoyil
- d) Xoxishga asoslangan tamoyil

**4.Nima guruhning bir mashg‘uloti uchun tuzilgan reja hisoblanadi?**

- a) Pulsometriya.
- b) Xronometriya.
- c) Dars konspekti.
- d) Yakuniy qism.

**5.Dars konspektidagi birinchi vazifa quyidagi javoblarning qaysi birida to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) Tarbiya berish.
- b) Shug‘ullantirish.
- c) Bilim berish.
- d) Sog‘lomlashtirish.

**6.Dars konspektidagi ikkinchi vazifa quyidagi javoblarning qaysi birida to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) Tarbiya berish.
- b) Shug‘ullantirish.
- c) Bilim berish.
- d) Sog‘lomlashtirish.

**7. Dars konspektidagi uchinchi vazifa quyidagi javoblarning qaysi birida to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) Tarbiya berish.
- b) Shug'ullantirish.
- c) Bilim berish.
- d) Sog'lomlashtirish.

**8. Dars konspekti nechta qismdan iborat?**

- a) Ikki.
- b) Uchta.
- c) To'rtta.
- d) Beshta.

**9. Yakuniy qismning asosiy vazifasi nimadan iborat?**

- a) Organizmni uyg'otish.
- b) Organizmni uxlatish.
- c) Organizmni o'rgatish.
- d) Organizmni tiklash.

**10. Pulsometriya nima uchun muhim uslub hisoblanadi?**

- a) Yuklamani me'yorlash uchun.
- b) Yuklamani ko'tarish uchun.
- c) Yuklamani pasaytirish uchun.
- d) Yuklamani saralash uchun.

**11. Qaysi formula yordamida mashg'ulot yuklamasi aniqlanadi?**

- a)  $P_{\Sigma} = (x_1 \times y_1) + (x_n \times y_n)$
- b)  $P_{\Sigma} = (t_1 \times p_1) + (t_n \times p_n)$
- c)  $P_{\Sigma} = (r_1 \times p_1) + (r_n \times p_n)$
- d)  $P_{\Sigma} = (t_1 \times r_1) + (t_n \times r_n)$

**12. Ko'proq aerob shiddatda bir minutdagi YuQT urishning yuqori chegarani ko'rsating.**

- a) 150.
- b) 180.
- c) 222.
- d) 333.

**13. Ko'proq aerob-anaerob shiddatda bir minutdagi YuQT urishning yuqori chegarani ko'rsating.**

- a) 150.
- b) 180.

c) 222.

d) 333.

**14. Ko'proq anerob shiddatda bir minutdagi YuQT urishning yuqori chegarani ko'rsating.**

a) 150.

b) 180.

c) 222.

d) 333.

**15. Harakatlarni bajarishga sarflangan vaqtni qaysi uslub yordamida aniqlash mumkin?**

a) Pulsometriya.

b) Tonometriya.

c) Xronometriya.

d) Asfiktsiya.

**16. ... guruhi doimiy nazoratda va ularning faoliyati aniq tasdiqlangan reja asosida yuritiladi.**

a) Nazorat.

b) Tajriba.

c) Mashg'ulot.

d) Anjuman.

**17. ... guruhi yangi uslubni sinab ko'rish uchun tanlangan guruh deb hisoblanadi.**

a) Nazorat.

b) Tajriba.

c) Mashg'ulot.

d) Anjuman.

**18. Guruhlar orasidagi taqqoslash natijasida nimani bilish mumkin?**

a) Balandligini.

b) Farqni.

c) Pastligini.

d) Kengligini.

**19. Nazorat testlari kurashchining nimasini aniqlaydi?**

a) Bo'yinin yoki vaznini.

b) Holatini yoki qobiliyatini.

c) Kuchini yoki tezligini.

d) Chaqqonligini yoki chidamligini.

**20. 30metrga yugurish qaysi jismoniy sifatni aniqlaydi?**

- a) Kuch.
- b) Chaqqonlik.
- c) Egiluvchanlik.
- d) Tezlik.

***O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kalitlari.***

№	A	B	C	D
1			*	
2				*
3		*		
4			*	
5			*	
6	*			
7				*
8		*		
9				*
10	*			
11		*		
12	*			
13		*		
14			*	
15			*	
16	*			
17		*		
18		*		
19		*		
20				*

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ашмарин В.А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. М., 1978.
2. Благуш П.К. К теории тестирования двигательных способностей. М., 1982.
3. Керимов Ф.А. Спорт соҳасида замонавий илмий тадқиқотлар. Т., 2004.
4. Kerimov F.A. Darslik. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti T., 2009.
5. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. T. 2015.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Abdullaev Sh.A., Xolmatov A.I. Malakali kurashchilarning ilmiy-uslubiy asoslari. T. 2015.
2. Bayturaev E.I. “Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyati” Toshkent-2016.
3. Kerimov F.A. Darslik. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. T. 2004.
4. Mirzaqulov Sh.A. Belbog‘li kurash nazariyasi va uslubiyati., T. 2013.
5. Tastanov N.A. Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. T. 2014.

## **V-BOB. KURASH TURLARIDA OLIB BORILADIGAN ILMIY-TADQIQOT ISHLARI**

### **5.1. Ilmiy-tadqiqot ishlariga kirishish**

Ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tadqiqotchining tanlagan mavzusi bo'yicha ishga qay tarzda kirishishiga, material yig'ishni qanday tartibda olib borishiga, uni qanday qilib tizimga solib, tahlil qilishiga va, nihoyat, bajarilgan ish natijalarini qay tariqa taqdim etishiga bog'liq.

Kurash turlaridagi ilmiy-tadqiqot ishlari usuliyati hamda ularga metodologik yondashishni asoslash, boshlovchi olimlar ushbu ko'rsatmalarga tayangan holda tadqiqotning barcha bosqichlarini oqilona tashkil eta olishi tajriba ishining samarali yakunlanishiga turtki beradi.

Kurash turlarida o'tkaziladigan ilmiy tadqiqotlarning tamoyillari va xususiyatlari, kurash turlari bo'yicha muammolarni tadqiq etish jarayonida qo'llanadigan usullar, ularning tadqiqot yo'nalishini to'g'ri tanlashdan, mavzularni to'g'ri shakllantirish, amalga oshiriladigan tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlashtirishdan boshlab, yig'ilgan ilmiy ma'lumotlarning tahlili va umumlashtirilishigacha – hamma asosiy bosqichlari hamda ketma-ketligi ko'rib chiqilishi muammoning yechilishida yordam beradi.

Ilmiy tadqiqot materiallarini yig'ish, to'plash va bir tizimga keltirish kabi jihatlariga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda boshlovchi olimlar, odatda, ko'p xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Kurashchilarning musobaqa faoliyati ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish usuliyatlari, o'quv-mashq jarayonini kuzatish usullari hamda trenirovka va musobaqa faoliyati jarayonida sportchi organizmining funksional holatini tashxislash usullari bayon etilgan.

### **5.2. Kurash turlari va uslubiyati fani mohiyatini aniqlash**

Kurash turlari bo'yicha olimlar va boshqa qator ilm-fan sohasi vakillarining kurash turlari nazariyasi va uslubiyati fani mohiyatini aniqlashga, uning rivojlanish qonuniyatlarini, inson organizmida



mavjud ruhiy-funksional va jismoniy imkoniyatlar zaxiralarini bilishga qiziqishi nihoyatda ortdi.

Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati fanining o'ziga boshqa turli bilim sohalari vakillarining diqqatlarini tobora ko'proq jalb etgan holda bosib o'tgan yo'li bizni hozirgi bosqichda yagona sport fani bunyodga kelayotgani haqidagi masalani kun tartibiga qo'yishga hamda uni jiddiy muhokama qilishga undaydi.

Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati to'g'risidagi bilimlar tizimini yagona fan sifatida shakllantirish, uning bilish usullarini ishlab chiqishni amaliyot talablari ham, sport fanlari tizimidagi mustaqil ilmiy fan sifatida yuzaga kelgan sport to'g'risidagi fanning nazariy-metodologik muammolarini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyojlar ham taqozo etadi.

Hozirgi paytda kurash turlari nazariyasi va uslubiyatini o'rganadigan mustaqil ilmiy fanlar anchagina: biomexanika, bioximiya, fiziologiya, pedagogika, sport nazariyasi va boshqalar. Barcha ilmiy fanlar kabi ular tadqiqot ob'yekti sifatida kurashchining alohida xususiyatlari, munosabatlari, jihatlarini ajratib oladilar. Ularning har biri kurashni o'zicha, o'z tadqiqot predmeti nuqtai nazaridan tushunadi va, tabiiyki, bu sport to'g'risida yaxlit tasavvur bermaydi. Har qanday haqqoniy fan, ayni chog'da kurash turi haqidagi fan ham, yaxlit bir tizimdan iborat bo'lishi zarur. Tizimlilik nazariy bilimning o'ziga xos xususiyati, u bilimning rivojlanishida ichki mantiq, bilimni tashkil etgan tarkibiy qismlar orasida qonuniy aloqadorlik mavjudligidan darak beradi.

### **5.3. Dialektik usulning asosiy tamoyil va kategoriyalari**

Kurash turlari amaliyoti va uning rivojlanish jarayonini butun rang-barangligi bilan bir qatorda aks ettirgan kurashning yaxlit ilmiy tasvirini falsafa hamda umumilmiy metodologiyasiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Kurashning to'la tasvirini ishlab chiqishda, kurash haqidagi yagona fanni yaratishda falsafaning alohida o'rni bor va bu vazifani boshqa hech bir fan bajara olmaydi (jumladan, jismoniy tarbiya nazariyasi ham). Falsafa dialektikani voqelikni nazariy jihatdan o'z-

lashtirishning umumiy usuli sifatida tushunadi. Falsafa kategoriyalari tizimining tuzilish tamoyillari, ushbu tizimda qaysi fan o'z nazariy in'ikosini topishidan qat'i nazar, umuman dialektik tizim tuzilishining tamoyillari hisoblanadi.

**Dialektik usulning** asosiy tamoyil va kategoriyalari adabiyotlarda yetarlicha chuqur va mufassal yoritilgan. Faqat shuni ta'kidlash joizki, ulardan birining amalga oshishi o'z ortidan boshqalarini ergashtiradi va shu tariqa umuman dialektik usulning amalga oshishini (realizatsiyasini) ta'minlaydi.

Harakatning u yoki bu alohida shaklini tadqiq etuvchi fan dialektikaga umuman harakat haqidagi fan sifatida qaraydi. Aniqrog'i, bunday zarurat mazkur fan predmeti uchun xos bo'lgan xususiyat va munosabatlar unda shu predmetning taraqqiy etishi natijasi sifatida qaralganda yuzaga keladi. Bunda zaruratga ko'ra dialektika qonunlari uning (fanning) mazmuniy harakatlari tamoyillariga aylanadi, fanning o'zi esa dialektik shaklga ega bo'ladi.

Dialektika usulini bevosita aniq fanlar materialiga qo'llab bo'lmaydi. Dialektikani ilmiy bilishda qo'llash bilvositalik xususiyatiga ega. Bilvositalik ushbu fanning o'zgarishi, ular mazmunining rivojlanib borishi, ular ob'yektida dialektik nazariya predmetiga aylana oladigan xossalar va tomonlarning topilishi demakdir.

Dialektik usulning aniq fanda qo'llanilishi undagi o'zgarishning yangi, yanada yuksakroq nazariy darajaga ko'tarilishini nazarda tutadi.

#### **5.4. Bilishning nazariy va empirik shakllari**

Taraqqiyot asnosida kurash to'g'risidagi fan o'z-o'zidan shunday holatga keldiki, bilishning nazariy usullari unga tobora chuqurroq kirib borib, hozirgi paytda juda muhim, hatto belgilovchi ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Aslida, kurash to'g'risidagi fanning tajribaviy fan sifatidagi rivojlanish mantig'i uning **nazariylashuviga** olib keldi. Ammo nazariylashish deganda, uning o'z amaliy asosi bilan aloqasini uzib, tajriba o'tkazuvchi fan sifatida faoliyatini to'xtatganligini tushunmaslik kerak. Nazariylashuv xususida gapirganda, biz bilishning **nazariy va empirik shakllari** nisbatidagi aksentlarning o'rin al-

mashishini, ular orasidagi aloqa xususiyatlari o'zgarishini nazarda tutamiz. Kurash to'g'risidagi fanning nazariylashuvi uning nazariyalar bilan to'yinishi, unda nazariy fikrlash rolining oshishi, fan tuzilishining yuzaga kelgan qayta qurilishi demakki, natijada, uning samaradorligi ko'proq nazariy tadqiqotlarga bog'liq bo'lib qoladi.

Har qanday, jumladan, kurash to'g'risidagi fan rivojining dastlabki bosqichlarida, u shakllanishning empirik davrini boshdan kechirayotgan pallada, hodisalarning *empirik ma'lumotlar orasidagi o'zaro aloqadorligini belgilashga xizmat qiluvchi bilishning induktiv usullari* ustunroq edi. Unda mashg'ulot vositalari va usullari tasniflanish turining eng oddiy nazariy umumlashmalari ham empirik bilish rivojiga sezilarli turtki berardi. Biroq, tajriba ma'lumotlari doirasining tobora kengayib borgani sayin, ularni nazariy jihatdan anglash, oqilona ravishda guruhlariga bo'lish va tizimlashtirish ehtiyojiga aylanib qolmoqda. Bu ishlarning o'z vaqtida olib borilmayotganligi yoki butunlay o'tkazilmayotganligi tadqiqotlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Yildan-yilga kurash va kurashchilarni tayyorlash to'g'risidagi axborotlar hajmi o'sib bormoqda. Biz juda ko'p narsa bilamiz, ammo bilimlarimiz tarqoq va uzuq-yuluqdir. Egallanayotgan yangi bilimlarni mavjudlari bilan birlashtirib yuborish ko'pincha oson kechmaydi va shuning uchun ular, odatda, amaliyotga tatbiq etilmay qolib ketadi. Kurash sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishga hozirgidek tartibsiz yondashuv tufayli kurash to'g'risidagi fanning va, ayniqsa, kurash amaliyotining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ko'pdan-ko'p faktlarni keltirish mumkin.

Kurash, hozirgi dunyoda inson faoliyatining har qanday boshqa sohasi kabi, shiddatli kurashlar maydoniga aylandi va shunday bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizning xalqaro kurash maydonlaridagi obro'-e'tibori va ustuvorligi haqidagi masala nihoyatda dolzarbdir. Mamlakatimizning madaniy qurilish doirasi sohalaridan biridagi ustunligining eng yaxshi isboti – o'zbek kurashchilarining yorqin, qat'iy va mutlaq g'alabalari hisoblanadi.

## **5.5. Kurash turlaridagi ilmiy tadqiqotlarga qo‘yiladigan talablar**

Yuqori malakali kurashchilarni tayyorlashning sifat jihatdan yangi usuliga bo‘lgan ehtiyoj bu yangi vazifalar darajasida turadigan ishonchli nazariyani ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Kurash turlaridagi ilmiy tadqiqotlarga qo‘yiladigan *yangi talablar* quyidagi qoidalarda o‘z ifodasini topgan:

*1. Tadqiqotlar, umumlashma va xulosalarning yaxlit tizimlilik xususiyati.*

*2. Kurashchilarni tayyorlash tizimini rivojlantirishning mavjud imkoniyatlariga tayanish va uni optimallashtirish yo‘llarini izlashni uyg‘unlikda olib borish.*

*3. Inson organizmining ruhiy-jismoniy imkoniyatlariga ilmiy tadqiqotlar hamda ularni amalga oshirish ahamiyatining bosh mezonini sifatida qarash.*

Ko‘rsatilgan talablarning so‘nggisini alohida ta’kidlash kerak, chunki oxir-oqibat dastlabki ikki talabning bajarilishi ham unga bog‘liq. Kurashchilarni tayyorlash tizimini rivojlantirishning ijtimoiy jihatlarini hal etish, shuningdek, kurashchining birinchi jihat hal etilishi bilan uzviy aloqada bo‘lgan o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish hamda takomillashtirish imkoniyatlariga qarab mo‘ljal olish ilmiy kurash nazariyasining yaxlitlik xususiyati zaruratini shart qilib qo‘yadi.

Kurash turlari taraqqiyotining hozirgi zamon sharoitida kurash mahoratining shakllanish jarayoni (kurash-texnika natijalarining o‘sish sur‘ati) kurashchilarni tayyorlash tizimining ahvoriga qanchalar bog‘liqligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Shuning uchun ham kurashchilarni tayyorlash tizimining rivojlanishi jarayonida nimani qanday rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishni bilish juda muhim.

Boshqacha aytganda, kurash to‘g‘risidagi fan oldida bugungi kunda keyinchalik bitta yaxlit vazifa – kurash taraqqiyotini ratsional ravishda rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish atrofida birlashishi zarur bo‘lgan mutlaqo yangi muammolar qad ko‘taryapti.

## **5.6. Kurashchilarni tayyorlash jarayonining ijtimoiy jihatlarini**

Kurashchilarni tayyorlash jarayonining *ijtimoiy jihatlarini* deganda biz *rivojlantirish, tashkil etish va uning rivojini boshqarishni* tushunamiz: biologik jihatlar jismoniy mashqlar ta'sirida kurashchi organizmining holatidagi ruhiy-jismoniy o'zgarishlar demakdir. Kurashchi mashg'ulot tizimining bir unsuri (elementi) ekan, tayyorgarlik tizimi kurashchiga nisbatan tabiiy omillar singari atrof-muhit bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ayrim olimlar kurashning rivojlanishida amal qiluvchi qonunlarni, shuningdek, kurashchilarning tayyorgarligi jarayonidagi ijtimoiy hamda biologik jihatlarining o'zaro ta'siri qonuniyatlarini yaxlit holda o'rganish va hisobga olish zarurligi to'g'risidagi masalani kun tartibiga qo'yar ekanlar, ular batamom haqlar.

Kurashchilarni tayyorlash tizimida unsurlar rivojlanishining o'zaro bir-birini taqozo etish qonuni uni rivojlantirish bo'yicha yaxlit qarorlar qabul qilinishini talab etadi. Kurashchilarni tayyorlash jarayonida yuz berayotgan o'zgarishlar tahlili yana bir qonuniyat – kurash-texnik natijalarning o'sish sur'atiga ijtimoiy omillar ta'sirining kuchayishini keltirib chiqaradi.

Kurashchilar tayyorgarligi jarayonida ijtimoiy hamda biologik jihatlarining o'zaro ta'sirida ko'rsatilgan qonuniyatlar hisobi yuqori malakali kurashchilarni tayyorlash ishida orientatsiyani mohiyatan o'zgartirib yuborishi mumkinligini payqash qiyin emas.

Kurashchilarning mashg'ulot tizimini, uning tibbiy-biologik jihatini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan biologik omil har doim birdan-bir o'zgaruvchan (dinamik) omil hisoblangan. Bu esa kurash-texnika natijalarining o'sish sur'ati mashg'ulot usuliyatini yaxshilash, yuklama hajmining o'sishi va x.k., ya'ni kurashchi organizmining ruhiy-jismoniy holatidagi o'zgarishlarga bog'liq barcha narsalar bilan tobora mustahkamlanib boruvchi aloqada ekanligini ta'kidlab ko'rsatadi.

Biroq, kurash-texnik natijalardagi o'sish sur'atlarining ortib borishi va shunga muvofiq ravishda kurashchilarni tayyorlash tizimining kuchayib borayotgan rivojlanish sur'atlari to'g'risidagi mulohazalardan

kelib chiqib, biz kurash (yuqori natijalar kurashi) rivojlangan hozirgi sharoitda kurash-texnik natijalar o'sish sur'atining uni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish ishlari holatiga bog'liqligi oshib boryapti, degan xulosaga kelamiz. Va buning hayron qolarli joyi yo'q, negaki kurashchilarni tayyorlash jarayoni – bu *yagona o'zgaruvchan (dinamik) ijtimoiy-biologik tizimdir*.

Yuqoridagi fikrlar nuqtai nazaridan kurash-texnik natijalar darajasining kurashchilarni tayyorlash tizimining amal qilishi va rivojlanishini boshqarish vazifalarini takomillashtirish sur'ati va xususiyatlariga optimal muvofiqligi to'g'risidagi qonun haqida to'xtalish o'rinlidir.

Bu kurashni rivojlantirishning yangi, endigina paydo bo'lgan qonuni emas. U ilgari ham amal qilgan, lekin yashirin shaklda, chunki kurashchilarni tayyorlash jarayonining murakkabligi, ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalarining kurash-texnika natijalariga va sportning rivojiga ta'siri bu qadar yorqin ifodalangan ulkan miqyoslarga erishmagan edi.

### **5.7. Yuqori natijalar sportining rivojlanishi**

“Yuqori natijalar” sportining rivojlanib ketishi, uning “imkoniyatlar chegarasiga yaqin natijalar” sportiga aylanishi mutaxassislar, trenerlar, olimlarda sportchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan ilgari shakllanib qolgan qarashlar, ruhiy ko'nikmalarning sezilarli o'zgarishini nazarda tutadi. Nazariyada ham, amaliyotda ham odat bo'lib qolgan ko'pgina tasavvurlar, an'analardan voz kecha bilish, sportchilarni tayyorlash jarayoni uchun uning ijtimoiy va biologik jihatlari orasidagi haqiqiy nisbatlarni aks ettiruvchi tamoyillarni asos qilib olish kerak.

Bu tamoyillarning metodologik asosi sifatida dunyoning moddiy birligi to'g'risidagi qonunni qabul qilish, nazarimizda, eng to'g'ri yo'l bo'ladi. Tuzilishiga ko'ra, sportchilarning mashg'ulot tizimi ularni tayyorlash tizimining bir qismidir, demak, bu ikki tizim orasidagi o'zaro ta'sir jarayonida butun bilan qismlar orasidagi o'zaro ta'sirga xos bo'lgan qonunlar amal qiladi, umumlashtirib aytadigan bo'lsak, bu

*subordinatsiya (qismning butunga bo'ysunishi), koordinatsiya (muvozanat) va korrelyatsiya (munosabatdorlik) qonuniyatlaridir (o'zaro aloqadorlik tartibi, qismlarning o'zgarish xususiyatlari).*

Kurashchilarni tayyorlash va ularga rahbarlik qilish jarayonining rivojlanish darajalari orasidagi optimal muvofiqlik, shuningdek, sportchilarni tayyorlash jarayonining ijtimoiy va biologik jihatlari bilan sport-texnika natijalarining o'sish sur'ati orasidagi o'zaro ta'sir tamoyillari asosiy metodologik tamoyillar hisoblanishi lozim. Hozircha bunday muvofiqlikka erishilgani yo'q, faqat sportchilar tayyorlash jarayonidagi u yoki bu jihatlarning ko'proq yo'naltirib rivojlantirilishi haqida so'z yuritish mumkin.

Kurashchilarni tayyorlash tizimi bilan uning tizimchalarini bir butun hodisa sifatida tadqiq etish, uni sport-texnik natijalar o'sishining eng muhim zaxirasi deb hisoblash, butunlikka boshqaruvning alohida vazifasi sifatida qarash katta ahamiyatga ega.

### **5.8. Ilmiy tadqiqotning asosiy bosqichlari**

Ilmiy-tadqiqot ishlari keng ijodiy faoliyat va tinimsiz mehnat demakdir. Bu yo'lda tadqiqotchini juda ko'p xilma-xil qiyinchiliklar kutadi, ularni yengish uchun esa kuchli bardosh, qat'iyat lozim. Boshlovchi tadqiqotchilar, odatda, o'z ishlarini qanday tashkil etishni, uni qay yo'sinda olib borishni bilmaydilar.

Har qanday ilmiy tadqiqot quyidagi asosiy, mantiqan o'zaro bog'liq bosqichlarga bo'linishi mumkin:

– tadqiqot mavzusini tanlash: u, albatta, mazkur tadqiqotning ob'yekti sifatida tanlab olingan masalaning o'rganilganlik darajasini aniqlashga, ilmiy ishlanmalarning muayyan usuliyatini qo'llashning mavjud imkoniyatlariga qarab mo'ljal olishga asoslanadi hamda tadqiqotning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish bilan yakunlanadi;

– ish rejasini tuzish, xususan, tadqiqot usullarini o'zlashtirish hamda uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'z aksini topadigan uzil-kesil qarordir;

– tadqiqot materiallarini yig‘ish, to‘plash va ularga dastlabki ishlov berish; bu ish mazkur ilmiy tadqiqot oldida turgan vazifalarga va ularni hal etish uchun tanlangan usullarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi;

– ma‘lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish bajarilgan ishlarni jamlash hamda tadqiqot natijalari bo‘yicha aniq xulosalar chiqarish bilan yakunlanadi;

– tadqiqotni tugallash o‘z ichiga uning natijalari muhokamasi, ishni adabiy hamda texnik jihatdan shakllantirish, shuningdek, uni tarqatish (sotish) bilan bog‘liq imkoniyatlarni aniqlash amallarini qamrab oladi.

Ilmiy tadqiqotning sanab o‘tilgan bosqichlari nafaqat o‘zaro bog‘liq, ularning biri ikkinchisiga singib, kirishib ham ketgan. Izlanish jarayonida tadqiqotchi muntazam ravishda bajargan ishlariga tuza-tishlar, o‘zgartishlar kiritib turadi. Masalan, ish davomida yig‘ilgan ma‘lumotlarning sifatliy tavsifnomasi haqida yetarlicha aniq tasavvur paydo bo‘lgach, tadqiqotning nomlanishi, maqsad va vazifalariga aniqlik kiritishga to‘g‘ri keladi yoki tadqiqot materiallarini tahlil qilish hamda umumlashtirish chog‘ida qo‘shimcha ma‘lumotlar olish zarurati paydo bo‘ladi. Bularning barchasi tadqiqotchiga material yig‘ish va to‘plash bilan bog‘liq keyingi ishlarga o‘z vaqtida o‘zgartishlar kiritish, demak, vaqt va mehnatni tejash imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyati uning qanday tuzilganligi va usuliy ta‘minlanganligigagina emas, ilmiy xodimning tanlangan mavzuga qanday munosabatda ekanligiga ham bog‘liqdir. Ishga kirishar ekan, tadqiqotchi o‘zida tanlab olingan mavzuga chuqur ilmiy qiziqish his etishi, bor vujudi bilan unga berilib, doimo u haqda o‘ylashi, o‘z oldidagi tadqiqot masalalarini yechishning eng samarali yo‘llarini izlashi lozim. Shuningdek, ilmiy izlanishlar olib borishga intilayotgan tadqiqotchining umumiy va maxsus tayyorgarligi tadqiqot hajmi hamda mavzuning mazmuniga muvofiq bo‘lishi kerak.

### **5.9. Tadqiqot mavzusini tanlash**

Ilmiy tadqiqot jarayoni mavzu tanlashdan boshlanadi, uning to‘g‘ri tanlanishi esa ko‘p jihatdan keyingi ishlarning muvaffaqiyatini belgilaydi. Shuning uchun ham tadqiqotning to‘g‘ri tanlangan mavzusi



katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘ziga tadqiqotchi tomonidan ham, uning ilmiy rahbari tomonidan ham jiddiy e‘tiborni talab etadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ilmiy ish mavzusi tadqiqotchining keyingi maqsadli faoliyati uchun istiqbolli bo‘lishi, demak, u ilmiy tadqiqotlarga qo‘yiladigan umumiy talablarga to‘la javob berishi shart. Ilmiy tadqiqot mavzusining istiqbolli ekanligini belgilaydigan asosiy mezonlar: a) uning dolzarbligi, ya‘ni jismoniy tarbiya va sportning muayyan sohasidagi nazariy hamda amaliy ahamiyati; b) olinadigan ma‘lumotlar, tadqiqot usuli va yo‘nalishining yangiligi; c) murabbiylik va pedagoglik amaliyotining eng muhim ehtiyojlari bilan bevosita aloqadorlik; d) sport fanining mazkur sohasiga oid muayyan ilmiy masalani hal etish maqsadiga yo‘naltilganlik; e) mavjud sharoitda qo‘yilgan ilmiy vazifalarni bajarish mumkinligi (rahbarlik qiluvchi va bajaruvchi xodimlarning yetarliligi, xodimlarning tayyorlanganlik darajasi, zarur moddiy-texnika bazasining mavjudligi).

Ilmiy tadqiqotning istiqboli yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash va uning aniq mavzusini tanlab olishda ilmiy-texnik axborotlar katta ahamiyatga ega. Ular har qanday turdagi ilmiy-tadqiqot ishlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir tadqiqotchi ishni tanlangan mavzuga doir o‘zigacha qo‘lga kiritilgan ma‘lumotlarni to‘plash va o‘rganishdan boshlaydi, izlanishlarni o‘zi erishgan natijalar to‘g‘risidagi u yoki bu ma‘lumotlar bilan tugallaydi.

Ilmiy tadqiqot mavzusining istiqbolliligi mezonlarini aniqlash uchun tadqiqotchi quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha olib boriladigan ishning dastlabki tahlilini amalga oshirish kerak:

- mavzuning o‘rganilganlik darajasini aniqlash;
- tadqiqotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan usullarni belgilash;
- tadqiqotning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish.

Tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik darajasini aniqlashdan maqsad –mazkur masalaning mohiyati haqida umumiy tasavvur hosil qilish, o‘tmishda uning ilmiy tomondan ishlanishi qaysi yo‘llardan borganligi to‘g‘risida tushuncha hosil qilishdan iborat. Bunday ma‘lumotlar, birinchidan, amalga oshiriladigan tadqiqotning aniq vazifalari va unga

asos bo'ladigan usullarni to'g'ri belgilash imkonini bersa, ikkinchidan, avvalgi tadqiqotlarda yetarlicha yoritilgan masalalar ustida ishlash uchun ortiqcha kuch va mablag' sarflashning oldini oladi.

Bunday dastlabki tanishtirish manbalari sifatida ilmiy jurnallarda himoya qilingan dissertatsion ishlar ro'yxati keltiriladi, dissertatsiya ishlari avtoreferatlari, ilmiy anjumanlar to'plamlari, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha monografiyalar, O'zbekiston Respublikasi OAK byulleteni, tadqiqotchini qiziqtirgan masala bo'yicha adabiyotlarning umumlashtirilgan referativ obzorlari xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullarni belgilash ham ilmiy ishning mavzusini va uni bajarish yo'llarini uzil-kesil tanlab olishda katta ahamiyatga ega. Tadqiqotchi tanlagan usullar izlanishning maqsadiga eng samarali yo'llar bilan erishish, tadqiqot ob'yekti to'g'risida ishonchli ma'lumotlar olish hamda o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonning mohiyatini iloji boricha chuqur ochishni ta'minlamog'i lozim.

Tadqiqotchi tekshirilayotgan masala ustida ilmiy ish olib borish jarayonida qo'llashi mumkin bo'lgan tadqiqot usullari to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun dissertatsiya va avtoreferatlar kabi asosiy adabiy manbalardan foydalanishi, ular orqali tanlagan mavzusining o'rganilganlik darajasini aniqlashi mumkin. Tadqiqot usullarini belgilash uni muayyan sharoitlarda amalga oshirishning mavjud imkoniyatlariga bog'liqdir. Masalan, zarur moddiy-texnika bazasi – maxsus kompyuter dasturi asosida tahlil qilinadigan tezkor videotasmaga tushiruvchi uskunalar bo'lmasa, sportchi harakatlarining biomexanik xususiyatlarini tadqiq etishni rejalashtirishga qanday hojat bor?

Biroq, tadqiqotchini tekshiruvning faqat an'anaviy yoki soddalashtirilgan usullaridan foydalanishga yo'naltirish to'g'ri bo'lmaydi. Tadqiqotchi yangi usuliy yo'l-yo'riqlarni qo'llash bo'yicha qo'ldan kelgan barcha choralardan foydalanishi kerak. Buning uchun zarur asbob-uskunalarga ega bo'lgan muassasalar bilan ilmiy aloqalar o'rnatish lozim bo'ladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish ilmiy ish mavzusini tanlash amallarini oxiriga yetkazadi. Tadqiqotchi o'zini qiziqtirgan mavzuning o'rganilganlik darajasini hamda aynan shu muayyan sharoitda ilmiy jihatdan ishlanishi zarur bo'lgan masalalarni o'rganishda qo'llaniladigan usullarni aniqlagach, mazkur tadqiqotning vazifalarini belgilab olishi, oldida turgan maqsadni ifodalab bera bilishi shart. Yanada tushunarliroq qilib aytganda, u ilmiy-tadqiqot ishining bosqichlarida amal qilinadigan ishchi farazlarni aniqlashtirib olishi kerak.

Ishchi farazlar shakllantirilgach (keyingi barcha ishlar shu zaminga tayanadi), tadqiqotning ish rejasi tuziladi. Ilmiy xodim tanlagan farazlariga amal qilgan holda qanday materiallar to'plashi lozimligini, qanday tadqiqot ob'yektlari talab etilishini, oldinga surilgan farazlarni isbot qilish yoki rad etishga yaroqli ma'lumotlarni olish uchun tadqiqotni qaysi usullarda olib borishi zarurligini belgilaydi.

### **5.10. Tadqiqotning ish rejasini tuzish**

O'tkaziladigan tadqiqotning ish rejasi uning yo'nalishini belgilab berishi, ilmiy ishning maqsadi, chegaralari hamda asosiy vazifalari mohiyatini aniq ko'rsatishi kerak.

Ish rejasida mavzuning ishlanish bosqichlari boshlanadigan va tugallanadigan muddatlar ko'rsatilib, bunda amalga oshiriladigan vazifalarning turlari batafsil sanab o'tiladi. Masalan, adabiyotlarni yig'ish va o'rganish, odatda, quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiy manbalarni turli bibliografik ko'rsatkichlarni ko'zdan kechirish yo'li bilan aniqlash; b) chuqur o'rganilishi kerak bo'lgan adabiy manbalarning ro'yxatini (kartotekasini) tuzish; c) ajratib olingan asarlarni o'qib chiqish va ularga tegishli ishlov berish (qisqacha mazmunini yozib olish, zarur ma'lumotlarni ko'chirish); d) o'rganilgan adabiy manbalarning tanqidiy obzorini tuzish va xulosa chiqarish.

Ilmiy tajriba shaklidagi tadqiqotlarni rejalashtirishda quyidagilarni ko'zda tutish zarur: a) ilmiy tajribani o'tkazish usuliyatini o'zlashtirish; b) zarur asbob-uskunalar, hujjatlarni tayyorlash, pedagogik tajriba

o'tkaziladigan bo'lsa, u holda sportchilarning jismoniy hamda texnik-taktik tayyorgarligi darajasiga ko'ra tajriba guruhlarining tarkibini, pedagogik tajriba uchun ajratilgan muddatlarni belgilash; c) tadqiqotchining usuliy va texnik jihatdan tayyorgarligini aniqlash maqsadida dastlabki pedagogik tajribani o'tkazish; d) ishchi farazlarning zarur isbotini olish uchun ilmiy tajribani yoki ularning seriyalarini yo'lga qo'yish; e) tajriba ma'lumotlariga statistik ishlov berish va uning tajribalarini tahlil qilish; f) qo'shimcha tajribalarni (zarur bo'lganda) o'tkazish; g) ilmiy tajriba natijalarini umumlashtirish va ularni ilmiy farazlar bilan taqqoslash.

Tadqiqot bosqichlari va ularda olib boriladigan ishning muayyan turlarini rejalashtirishda belgilangan amallar ketma-ketligi hamda mantiqiy izchilligini aniq oydinlashtirib olish zarur. Muayyan topshiriqlar rejada ularni u yoki bu vaqt bo'lagida bajarish mumkinligidan kelib chiqib (masalan, tajriba tadqiqotlarining moddiy-texnika bazasi tayyorgarligini hisobga olgan holda) ko'rsatiladi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini rejalashtirishning juda muhim nuqtalaridan biri belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadigan tadqiqot usullarini uzil-kesil tanlab olish masalasidir. Eng ishonchli usullar tanlab olingach, ish rejasida o'rganiladigan ob'yektlar soni (sportchilar, mashg'ulotlar, musobaqalar toifasi) hamda o'rganiladigan ob'yektlarni kuzatish muddati belgilab qo'yiladi. Bunda rejadagi kuzatishlar miqdori olingan ma'lumotlarning statistik jihatdan ishonchliligiga mezon bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotni rejalashtirish ish rejasini tuzish bilan tugamaydi. Tadqiqotlar o'tkazish chog'ida dastlab tuzilgan ish rejasi muntazam ravishda tahrir qilib boriladi. Unga ishning alohida bosqichlarini amalga oshirish muddatlarini aniqlashtirish, qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurati, ba'zan esa ilgari ko'zda tutilmagan yangi ilmiy masalalarning yuzaga chiqishi bilan bog'liq o'zgartishlar kiritilishi mumkin.

Shunday qilib, tadqiqotning ish rejasi tadqiqotchi bajaradigan barcha ishlarning yo'naltiruvchi kuchi hisoblanadi, u o'tkaziladigan ilmiy tadqiqotning maqsadi hamda undagi asosiy masalalar mohiyatini

ochiq-oydin ko'rsatishi kerak. Tadqiqotning ish rejasi garchi hali taxminiy bo'lsa ham, bunday reja juda zarurdir. Usiz umuman ishga kirishish mumkin emas, chunki rejasiz tadqiqotchi ish jarayonida nimalar qilishi, qaysi yo'ldan borishi va qanday natijalar olmoqchi ekanligini bilmaydi. Ish rejasining dastlabki varianti qanchalik to'g'ri tuzilgan bo'lsa, tadqiqot o'tkazish davomida unga shuncha kam o'zgartirishlar kiritishga to'g'ri keladi.

### **5.11. Tadqiqot materiallarini yig'ish va to'plash**

Material yig'ish va to'plash har qanday yangi, o'ziga xos ilmiy tadqiqotning markaziy qismini tashkil etadi va, odatda, unga sarflanadigan vaqtning ko'prog'ini mazkur faoliyat band qiladi. Ilmiy-tadqiqot ishida bu bosqichning mohiyati tadqiqotchiga o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal etish va oldinga surilgan farazlarni isbotlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish hamda tizimlashtirish imkonini beradi.

Ilmiy ma'lumotlarni yig'ish ishlarining xususiyati va mazmuni tadqiqotning maqsadi hamda usullariga bog'liq. Izlanuvchi o'zini qiziqtirgan masala yuzasidan fanga ma'lum bo'lgan axborotni imkon qadar to'la o'zlashtirib olmog'i shart. Bularning bari ilmiytexnika ma'lumotlarini yig'ish va o'rganish yo'li bilan hal etilishi mumkin. Hozirgi vaqtda axborotlar hajmi juda muhim bo'lib, internet joriy etilganligi munosabati bilan imkoniyatlar kundan-kunga o'sib bormoqda. Shuning uchun har bir tadqiqotchi kerakli ilmiy-texnika ma'lumotlarini olish yo'llari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi hamda uning eng samarali usullarini qo'llay bilishi, axborot manbalaridan iloji boricha ko'p foydalanib, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun iloji boricha kam kuch va vaqt sarflashi lozim.

Zarur ma'lumotlarni olishning eng muhim yo'llaridan biri tadqiqotchini qiziqtirgan masalani yoritgan adabiyotlarni yig'ish hamda o'rganishdir. Adabiyotlar ustida ishlash uch asosiy vazifaning bajarilishini talab qiladi. Birinchidan, o'rganilayotgan muammo xususida mamlakat hamda dunyo adabiyotida yozilgan barcha ahamiyatli asarlarni topish kerak bo'ladi. Ikkinchidan, yig'ilgan adabiy

manbalarda berilgan ma'lumotlarni tizimga solib, amalga oshirib layotgan tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib tahlil qilish lozim. Va, nihoyat, uchinchi, barcha o'qilgan asarlarni bir-biriga bog'lab, tanqidiy nuqtai nazardan mag'zini chaqish zarur, odatda, bu amallarni tadqiqotchi ishlanayotgan ilmiy tadqiqot mavzui bo'yicha adabiyotlar obzorini tuzish vaqtida bajaradi.

Ko'rsatilgan vazifalarni hal etish uchun tadqiqotchi ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi kerakki, bunga adabiyotlarni bibliografik jihatdan o'rganish hamda ro'yxatga olish, adabiy manbalarni aniq maqsad bilan o'qish va qisqacha mazmunini yozib borish usuliyatlarini o'zlashtirib olish kiradi. Ilmiy asarni o'qiganda, uning mazmunini shunchaki bilib olishi emas, balki muallifning qarashlarini tanqidiy qabul qilishi, unga o'z mulohazalari va baholari bilan izoh berib borishi lozim. Ilmiy ishni o'rganishning 3 asosiy yo'li bor: 1) manbani ko'rib chiqish; 2) boshidan oxirigacha o'qish; 3) puxta o'zlashtirish.

Tadqiqotchi ma'lum bir adabiy manba bilan ilk bor tanishgach, unda yangi ma'lumotlar yo'qligiga, tadqiqot uchun biron-bir qiymatga ega emasligiga ishonch hosil qilgach, mazkur kitob yoki maqolani faqatgina ko'rib chiqadi. Bunday hollarda u asar sahifalarini tezgina ko'zdan kechirib, diqqatga sazovor biror parchaga duch kelsagina, uning mazmunini diqqat bilan o'rgana boshlaydi.

Boshidan oxirigacha o'qishda tadqiqotchi adabiy manbani shoshmasdan, diqqat bilan sinchiklab mutolaa qiladi. Bunda izchillikka rioya qilib, berilgan izohlarni nazardan qochirmaslik, rasmlar, jadval va chizmalarni yaxshilab o'rganish lozim. Kitobni puxta o'zlashtirish uni chuqur ishlab chiqish, o'qilgan materialning mazmunini qichqacha yozib olish demakdir.

Tadqiqotchi uchun zarur materiallarni yig'ish va to'plashning eng muhim yo'llaridan biri o'rganilayotgan ob'yekt yoki masala to'g'risida o'z kuzatuvlari, tajribalari va h.k. asosida tegishli ma'lumotlarni olishdir. Ularni qo'lga kiritishning yo'llari turlicha bo'lishi mumkin, bu mazkur holda tadqiqotning qanday usullaridan foydalanilganiga bog'liq. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tajriba tadqi-

qotlarining xillari ko'p va faqat ulargina tadqiqotchining shaxsan o'zi tomonidan material yig'ish hamda to'plashning asosiy yo'li hisoblanadi.

Ilmiy tajribaning maqsadi tadqiqotchida paydo bo'lgan g'oyani, ilgari surilgan faraz, konseptsiyani tasdiqlashdan iborat. Sport fanida qo'llaniladigan ilmiy tajriba tadqiqotlari hamda xususiy usuliyatlar nihoyatda rang-barangligiga qaramay, ularning asosida umum-metodologik va usuliy tamoyillar yotadi.

Tajriba asosida olingan natijalar tadqiqotchi ilgari surgan g'oya, ishchi farazlarni yo tasdiqlaydi, yoki unga ayrim o'zgartishlar kiritadi, to'ldiradi. Tajribalarni o'tkazishda ko'pincha yana nazorat tajribalarini yo'lga qo'yishga to'g'ri keladi, ularning vazifasi tajribadan eng to'g'ri, boshqacha aytganda, representativ natijalar olishni ta'minlashdir. Nazorat tajribalarini taqqoslash uchun namuna (etalon) deb atash mumkin. Shuning uchun ham ularni tabiiyga juda yaqinlashtirilgan sharoitlarda o'tkazish lozim, aks holda sport fanida ilmiy tajribalar o'tkazish umuman o'z ma'nosini yo'qotadi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatishlarni amalga oshirishning 3 asosiy turi bor. Kuzatish ma'lumotlarini umumta'lim yoki sport maktabida ishlaydigan tadqiqotchi o'qituvchi yoxud trener o'zining kundalik faoliyati davomida yig'ib, to'plab borishi mumkin. Ularni sportchi yoki jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning kundaliklarini tahlil qilish natijasida qo'lga kiritisa ham bo'ladi. Nihoyat, bunday ma'lumotlarga ega bo'lish uchun jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar har jihatdan ommaviy pedagogik testlash yordamida o'rganiladi, yoki sportchining mashg'ulot va musobaqa faoliyatining ayrim tomonlarini chuqur tadqiq etish maqsadida maxsus tayyorlangan majmualar tekshirish ishlari o'tkaziladi.

Shu tariqa tadqiqot materiallarini yig'ish va to'plash aniq maqsad bilan olib borilishi, ya'ni ilmiy tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib o'tkazilishi hamda uning ish rejasida ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishini ta'min etishi shart.

## **5.12. Yig‘ilgan ma‘lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish**

O‘rganilayotgan ob‘yekt to‘g‘risidagi materiallarni yig‘ish va to‘plash har qanday tadqiqotning markaziy qismini tashkil etsa, yig‘ilgan ma‘lumotlarni tahlil qilib, umumlashtirish ilmiy ijodning eng mas‘uliyatli bosqichi sanaladi. Aynan shu bosqichda tadqiqotchi o‘rganilayotgan masalani chuqur, har tomonlama qamrab olishi, to‘plangan ma‘lumotlarga to‘g‘ri, ilmiy jihatdan asoslangan baho berishi, o‘z mulohazalarining to‘g‘riligiga ishonchli dalillar keltira bilishi lozim. Yig‘ilgan ma‘lumotlarni avval tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, zarur tartibda guruhlariga ajratib olish maqsadga muvofiqdir. Bunday guruhlashtirish turli belgilarga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin. Ba‘zan taqsimlash sportchilarning yoshi, jinsi, tayyorgarlik darajasiga (yangi shug‘ullanuvchilar, razryad egalari, sport ustalari va xalqaro toifadagi sport ustalari) qarab, boshqa holda o‘quv-mashq hamda musobaqa yuklamalari ta‘siri ostida organizmning funksional harakatlaridagi u yoki bu o‘zgarishning yuzaga kelishi darajasi (masalan, kurashda – “texnarlar”, “tezkorlar”, “kuchdorlar”); uchinchi holda bajarilgan biomexanik, fiziologik, ruhiy tadqiqotlarning natijalari asosida, to‘rtinchi holda o‘rganilayotgan harakat faoliyatining yuzaga kelish yoki shakllanish muddatiga qarab bajariladi.

Yig‘ilgan materiallarni tahlil qilishning eng muhim vazifasi ilmiy tadqiqotning ilgari barcha bosqichlarida qo‘lga kiritilgan axborotga tanqidiy baho berishdan iboratdir. Bunday tanqidiy baho adabiyotlar mutolaasi asosida to‘plangan ma‘lumotlarga nisbatan qanchalik zarur bo‘lsa, muallifning o‘z tadqiqotlari natijasida olgan ma‘lumotlariga nisbatan ham shunchalik zarur. Bunda ma‘lumotlarning ishonchliligi va tipikligi darajasini aniqlashga alohida e‘tibor qaratiladi. Tadqiqotchi yig‘ilgan ilmiy ma‘lumotga usuliy yoki texnik tomondan yo‘l qo‘yilgan xatoliklar ta‘sir ko‘rsatganligiga ishonch hosil qilmog‘i kerak.

Tadqiqot materiallari muayyan maqsad asosida guruhlariga taqsimlab olingach, ularni tahlil qilish va umumlashtirish jarayonining muhim unsuri – olingan ma‘lumotlarni taqqoslash hisoblanadi. Bundan maqsad – ularning o‘xshash va farqli jihatlarini, mazkur tadqiqotning maqsad va vazifalariga qanchalik muvofiqligini, xususan, ishchi



farazlarning mohiyatini tashkil etuvchi nazariy hukmlar hamda qarashlar tizimiga mosligini ochib berishdir.

To'plangan ma'lumotlarni tahlil etish va umumlashtirish, tanqidiy baholash, taqqoslash hamda bog'liq jihatlarini aniqlash natijasida tadqiq etilayotgan hodisalarning o'xshash tomonlari, qonuniyatlari yuzaga chiqadi. Tadqiqotning yakunigacha xulosa qismiga zamin hozirlaydigan, ilmiy umumlashmalarning mag'zini tashkil etadigan narsa xuddi shuning o'zidir. Ilgari bayon etilgan ma'lumotlardan mantiqan kelib chiqadigan bu xulosalar tadqiqotchining taxminlari va taassurotlariga emas, aniq faktlarga, isbotlangan ma'lumotlarga asoslanmog'i lozim.

### **5.13. Tadqiqotni yakunlash va shakllantirish**

Ilmiy tadqiqotning so'nggi bosqichi uni yakunlash va shakllantirish bo'lib, odatda, buning tarkibiga izlanishlar natijalarini muhokama qilish va taqrizlash, ishni adabiy hamda texnik jihatdan shakllantirish, uni tarqatishning yoki tavsiya etishning ikkilamchi yo'llarini belgilash kiradi.

Ish natijalarini tadqiqotchi ishlagan ilmiy jamoada (kafedrada) muhokama etiladi va unga taqriz beriladi. Muhokamani tadqiqot tamomila yakunlanganidan keyingina emas, balki, uning amalga oshirilishi jarayonida, ma'lum bosqichlar tugallanganidan keyin o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Olib borilayotgan tadqiqot to'g'risida davriy ilmiy jurnallarda yoki ilmiy to'plamlarda muntazam ravishda axborot berib borishni tashkil etish muhokamalar miqyosini kengaytirishga imkon beradi. Ilmiy ish tadqiqotlari amalga oshirilyotganda, ishning asosiy mazmunini oldindan e'lon qilish uni himoyaga taqdim etishning majburiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi jarayonida muallif ko'pgina qimmatli, foydali maslahatlar olishi mumkin. U barcha mulohazalarni sinchiklab o'rganishi, e'tirozlarga sabab bo'lgan o'rinlarga alohida e'tibor qaratib, zarur bo'lsa, qayta ishlab chiqishi kerakki, bu ilgari surilgan dalillar tizimini yanada kuchaytirish, hatto ularni o'zgartirish, shu tariqa ilmiy ish sifatini yana ham oshirish imkonini beradi.

## **O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari:**

### **1. Ilmiy-tadqiqot deganda nimani tushunasiz?**

a. tajriba o‘tkazish va adabiyotlarni o‘rganish  
b. nazariyani ishlab chiqarish va laboratoriya tadqiqotlarini o‘tkazish

c. barcha isbot qoidalaridan o‘tgan, yangi savolni ishlab chiqarish

d. ilmiy tushuncha va bilimlarni tizimlashtirish va tasniflash.

### **2. Ilmiy izlanish nimani tavsiflaydi (xarakterlaydi)?**

a. o‘z ustida tizimli ravishda ish olib borish, tajriba, tadqiqot o‘tkazish va zarur xulosalarga erishish

b. tadqiqot natijasida olingan oldin o‘rganilgan yoki o‘rganilmagan muammoning yangi ko‘rsatkichlari, tadqiq etilayotgan muammoning yangiligi va xulosasi bilan

c. tajriba, pedagogik kuzatishni o‘tkazish va adabiyot tahlilini aniq o‘tkazish natijalari bilan

d. ilmiy hamda pedagogik nuqtai nazardan qaraganda yo‘nalishni rag‘batlantiruvchi baholash bilan.

### **3. Kurashchi mashg‘uloti, o‘rgatish nazariyasi va uslubiyati vazifalarini yechishda qaysi uslublardan foydalanish ko‘proq samarali hisoblanadi?**

a. pedagogik tajriba va uzluksiz hisobga olish uslubi (pedagogik kuzatuv, xronometraj, stenografiya va x.k.)

b. nazoratli sinov uslubi va tadqiqotning instrumental uslubi

c. adabiyotlardagi manbalarini tahlil, so‘rovnoma va statistik uslublar

d. a, b va c.

### **4. Tajriba guruhlarida o‘quv-tarbiyaviy uslublar qanday turlarga ega?**

a. tajriba uslubi, unda yangi pedagogik ta’sir etuvchi omillar samarasini o‘rganish uchun o‘quv-tarbiyaviy jarayonga kiritilgadi

b. a, c va d

c. nazorat uslubi

d. individual uslub.

**5. Tajriba guruhlarida o'quv-tarbiyaviy uslublarni tashkil-lashtirish jarayonining qaysi holatida individual uslub foyda-laniladi?**

a. aniq pedagogik jarayonni o'rganish zarurati vujudga kelganda, unga zarar yetkazmasdan

b. ob'yektning individul xususiyatini tadqiq etish zarurati vujudga kelganda

c. sportchining rivojlanish darajasini hisobga olish zarurati vujudga kelganda

d. a, b va c.

**6. Retrospektiv axborotni olish nima bilan tavsiflanadi?**

a. jamoaning natijalari va musobaqa bayonnomalarini tahlil etish bilan

b. adabiyotlardagi manbalarni tahlil etish, hujjatlar va retrospektiv hodisalarni so'rovnomadan o'tkazish

c. retrospektiv axborotlarni tahlil etish

d. faxriy sportchilarni so'rovnoma va suhbatdan o'tkazish.

**7. Modelli tajriba nima?**

a. alohida, suniy yaratilgan sharoitlarda hodisalarni sozlash va shu sharoitlarda tajriba o'tkazish

b. ko'p miqdordagi texnik anjomlarni va kompyuterlarni foy-dalanish

c. kerakli matematik formulalar va ularning ta'rifini qo'llash

d. a, b va c.

**8. Laboratoriya tajribasi tushunchasini belgilab bering**

a. bu institut laboratoriyasida o'tkaziladigan tajriba hisoblanadi

b. bu qat'iy standartlashtirilgan sharoitda, atrof muhitning ta'siridan alohida berkitilgan tajriba hisoblanadi

c. bu qandaydir bir jarayonlar asosida chuqur fiziologik mexa-nizmlarni yuzaga chiqarishda qo'llaniladigan tajriba hisoblanadi

d. b va c.

### **9. Qaysi holatlarda oddiy pedagogik tajriba qo‘llaniladi?**

- a. pedagogik jarayonning vazifalarini o‘zgartirmasdan mashg‘ulotning shartlarini tadqiqotchi tomonidan biroz o‘zgartirish zarurati tug‘ilganda
- b. ochiq havoda o‘tkaziladigan tajriba
- c. ma‘lum bir o‘quvchilar soni bilan tajriba o‘tkazish
- d. aniq javob yo‘q.

### **10. Test deb nima tushuniladi?**

- a. sportchining holatini aniqlash natijalari
- b. sportchining qobiliyatini va holatini aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan o‘lchovlar yoki sinovlar
- c. sportchining harakat yutuqlari
- d. b va c.

### **11. Xronometrlash degani nima?**

- a. sportchining organizm charchashini o‘lchash
- b. mashg‘ulot jarayonini tadqiq etish
- c. har xil harakatlarga ketgan vaqtni aniqlash va uning grafik ko‘rinishi
- d. a va b.

### **12. Nima yordamida nazorat sinovlari o‘tkaziladi?**

- a. Tadqiqotchi va priborlar
- b. So‘rovnoma va zarur bo‘lgan apparatlar yordamida
- c. Video yozuvlar yordamida
- d. Nazorat mashqlari va testlar yordamida

### **13. Qaysi testlar ijobiy va autogenli hisoblanadi?**

- a. barcha tajribalarda qo‘llaniladigan testlar
- b. ular to‘g‘ri bajarish tekshiruvidan o‘tganlar
- c. axborotli va ishonchlilik talabini qondiruvchi
- d. zarur variativlikga ega testlar.

### **14. Testlarning ishonchliligi degani nima?**

- a. testni har qanday sharoitda qo‘llash mumkinligi
- b. bir xil sharoitda, bir xil odamlarning (ob‘yektlarning) natijalari qayta o‘lchashda ham o‘xshashlik darajasi
- c. testni har doim va qanday ob-havoda qo‘llash mumkinligi

d. a va c.

**15. Testning bir xilligi deganda nimani tushunasiz?**

- a. sportchining jismoniy sifatlarini tadqiqot uslubi
- b. bir hil sharoitda, ma'lum bir vaqtdan keyin uni qaytarganda natijalarning qayta ko'rsatilishi
- c. tajriba natijalarini to'g'rilash imkoniyati
- d. a va c.

**16. Testning axborotliligi deganda nimani tushunasiz?**

- a. o'quv jarayoni to'g'risida kerakli ma'lumot berish
- b. tajribani olib borishda axborot texnologiyalaridan foydalanish
- c. sportchilarning tayyorgarlini boshqarish imkoniyati
- d. sportchining xususiyatlarini o'lchashdagi aniqlik darajasi (sifatlar, qobiliyatlar, tavsiflar va x.k.).

**17. Baholash (yoki pedagogik baholash) deganda nimani tushunasiz?**

- a. o'zlashtirish uchun pedagogik belgilar
- b. har xil vazifani bajarishdagi yutuqni unifikatsiyalangan o'lcham bilan belgilash
- c. sportchining tayyorgarlik tizimini tasniflash
- d. to'g'ri javob yo'q.

**18. Kvalimetriya nimani o'rganadi?**

- a. sifatning sonli baholash uslubini o'rganadi va ishlab chiqaradi
- b. sportchilar malakasini o'rganadi
- c. kurashchining bellashuvda faollik va tayyorgarlik darajasi
- d. sportchining har xil xususiyatlarini o'lchash va baholash.

**19. So'rovnoma deganda nimani tushunasiz?**

- a. sportchilarning anketasini to'ldirish
- b. qandaydir bir muammo bo'yicha fikrni ilgari surish
- c. anketalarni to'ldirish yordamida fikrlarni yig'ish uslubi
- d. a va b.

**20. Musobaqa faoliyatini yozib borishning qanday uslubi mavjud?**

- a. bellashuv bayonnomalarini olib borish
- b. video tasmaga yozib olish

c. stenografiya va soʻzlarni magnitofonga yozib olish

d. b va c.

**21. Texnika hajmi deganda nimani tushunasiz?**

a. texnik harakatlar bajarilishining vaqti

b. usullarning aniq bajarilish soni.

c. mashgʻulotlar va musobaqalarda kurashchi bajaradigan harakatlarning umumiy soni

d. bellashuvning borishidagi kurashchining ziyrak harakatlari.

**22. Texnikaning har tomonliligi deganda nimani tushunasiz?**

a. sportchi egallagan texnik harakatlarning har xillilik darajasi

b. kurashchining har xil tomonga usulni bajara olishligi.

c. texnika va taktikaning ajralishida

d. b va c.

**23. Ilmiy-tadqiqot ishlarida nechta bob mavjud?**

a. uchta

b. sakkizta

c. yettita

d. ikkita.

**24. Ilmiy-tadqiqot ishlarining kirish qismida asosan nima yoziladi?**

a. tarixi, kelib chiqish yoʻllari, gipoteza

b. mavzuning dolzarbligi, maqsadi, gipoteza

c. mavzuning dolzarbligi

d. mavzuning maqsadi.

**25. Ilmiy-tadqiqot ishlarining birinchi bobida asosan nima yoziladi?**

a. tadqiqot maqsadi

b. tadqiqot vazifalari

c. adabiyotlar shahri

d. respondentlar javobi.

**26. Ilmiy-tadqiqot ishlarining ikkinchi bobida asosan nima yoziladi?**

a. tadqiqot vazifalari

b. adabiyotlar sharhi

c. tadqiqot maqsadi

d. tadqiqotni amalga oshirish vazifalari, uslublari, tashkillashtirish.

**27. Ilmiy-tadqiqot ishlarining uchinchi bobida asosan nima yoziladi?**

a. tadqiqot natijalari

b. mavzu bo'yicha mantiqiy xulosa

c. adabiyotlar sharhi

d. matematik-statistika.

**28. Ilmiy-tadqiqot ishlarining hulosa qismida asosan nima yoziladi?**

a. natijalarni muhokamasi

b. mavzu bo'yicha mantiqiy xulosa

c. ilmiy hisobot

d. ilmiy tavsiyalar.

**29. Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi nimadan kelib chiqqan holda qo'yiladi?**

a. vazifasidan

b. gipotezadan

c. dolzarbligidan

d. ilmiy yangilikdan.

**30. Ilmiy tadqiqot ishining vazifalari nimadan kelib chiqqan holda belgilanadi?**

a. gipotezadan

b. dolzarbligidan

c. ilmiy yangilikdan

d. maqsaddan.

**31. Ilmiy tadqiqot uslublari tanlash nimaga bog'liq?**

a. tadqiqotni amalga oshirish vazifalariga

b. gipotezaga

c. ilmiy yangilikga

d. xulosaga.

**32. Ilmiy tadqiqot ishining natijalarini hisoblash qaysi uslubi yordamida amalga oshiriladi?**

a. adabiyotlar sharhi uslubi

- b. matematik-statistika uslubi
- c. pedagogik nazorat uslubi
- d. nazorat testlari.

**33. Nazorat testlarini hayotdagi qaysi bir asbobga o'xshatish mumkin?**

- a. tonometr
- b. spidometr
- c. torozi
- d. monometr.

**34. Ilmiy tomondan samaraliligi isbotlangan uslubni nima qilish kerak?**

- a. hayot yo'lini ko'rsatish
- b. arxivga topshirish
- c. muzeyga saqlab qo'yish
- d. hayotga tadbiiq etish.

**35. Kurashchining kuchini qaysi o'lchash birligidan ko'proq foydalaniladi?**

- a. kilogramm
- b. tonna
- c. sekund
- d. pedagogik baho.

**36. Kurashchining tezligini qaysi o'lchash birligidan ko'proq foydalaniladi?**

- a. kilogramm
- b. tonna
- c. sekund
- d. pedagogik baho.

**37. Kurashchining tezkor-kuchini Yu.V.Vexoshanskiynig UDS apparati yordamida qaysi o'lchash birligidan ko'proq foydalaniladi?**

- a. kilogramm
- b. tonna
- c. kilogramm/sekund
- d. pedagogik baho.



**38. Anketa uslubida nimadan ko'proq foydalaniladi?**

- a. savollardan
- b. plakatlardan
- c. videofilmlardan
- d. musobaqa natijalaridan.

**39. Kurashchining umumiy chidamligi ko'proq qaysi testlar bilan baholanadi?**

- a. qisqa masofaga yugurish
- b. uzoq masofaga yugurish
- c. o'rta masofaga yugurish
- d. ikki daqiqa ichida texnik usulni tezlikga tashlash.

**40. Kurashchining maxsus chidamligi ko'proq qaysi testlar bilan baholanadi?**

- a. qisqa masofaga yugurish
- b. uzoq masofaga yugurish
- c. o'rta masofaga yugurish
- d. ikki daqiqa ichida texnik usulni tezlikga tashlash.

**41. Kurashchining chaqqonligi ko'proq qaysi testlar bilan baholanadi?**

- a. 100 metrga to'g'ri yugurish
- b. 400 metrga to'g'ri yugurish
- c. 3x10 m mokisimon yugurish
- d. 60 metrga to'g'ri yugurish.

**O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

<b>№</b>	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
1.			*	
2.		*		
3.				*
4.		*		
5.	*			*
6.		*		
7.	*			*
8.				*

9.	*			
10		*		
11				*
12				*
13			*	
14		*		
15		*		
16				*
17		*		
18	*			
19			*	
20				*
21			*	
22	*			
23	*			
24		*		
25			*	
26				*
27	*			
28		*		
29			*	
30				*
31	*			
32		*		
33			*	
34				*
35	*			
36			*	
37			*	
38	*			
39		*		
40				*
41			*	

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ашмарин Б.А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. М., ФиС, 1978.
2. Губа В.П., Шестаков М.П., Бубнов Н.Б., Борисенков М.П. Измерения и вычисления в спортивно-педагогической практике. М., СпортАкадемПресс, 2002.
3. Железняк Ю.Д., Петров П.К. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте. М., Академия, 2002.
4. Захаров А.А., Захарова Т.Г. Как написать и защищать диссертацию. СПб., Питер, 2003.
5. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулиёти. Т., 2005.
6. Керимов Ф.А. Спорт сохасидаги илмий тадқиқотлар. Т., 2004.
7. Магистрлик диссертациясини ёзиш, расмийлаштириш ва химоя қилишга тайёрлаш бўйича услубий кўрсатмалар. Т., Молия, 1999.
8. Матвеев Л.П. Общая теория спорта. М., Воениздат, 1997.
9. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, Олимпийская литература, 1999.
10. Нормативные материалы по оформлению диссертации и автореферата. Методические указания. Под ред. М. Мухитдинова. Т., ВАК РУз, 2003.
11. Петров П.К. Курсовые и выпускные квалификационные работы по физической культуре. М., Владос-Пресс, 2003.
12. Селуянов В.Н., Шестаков М.П., Космина И.П. Основы научно-методической деятельности в физической культуре. М., Спорт-АкадемПресс, 2001.
13. Современная система спортивной подготовки. М., СААМ, 1995.
14. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Т., 2014.
15. Филин В.П., Семенов В.Г., Алабин В.Г. Современные методы исследований в спорте. Харьков, Основа, 1994.
16. e-mail: [fikrat\\_kerimov@ru](mailto:fikrat_kerimov@ru)

## **6-BOB. KURASH TURLARIDA O'RGATISH USLUBLARI**

### **6.1. O'qitishning maqsadlari va vazifalari**

Kurash turlarida o'qitish – bu kurash turlari nazariyasi va uni o'qitish usuliyati to'g'risidagi bilimlar kurashchining asosiy o'ziga xos musobaqa, hakamlik, pedagogik, tashkiliy faoliyati hisoblangan ko'nikma va malakalar tizimini shakllantirishga qaratilgan maqsadli tashkil qilingan pedagogik jarayondir.

O'qitish maqsadi shug'ullanuvchilarda trenerning kasb faoliyati konsepsiyasini aks ettiruvchi bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat. Ushbu konsepsiya bilimlar va malakalar, ilmiy fikrlash uslublari, shug'ullanuvchilarda ongli hamda amaliy faoliyatga ijodiy munosabatni tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

Kurash turlari nazariyasi va o'qitish usuliyati o'quv fanining o'ziga xos sharoitlari hamda xususiyatlarini aks ettiruvchi umumiy vazifalar quyidagilardan iborat:

– sport turi nazariyasi va o'qitish usuliyati bo'yicha bilimlarning optimal hajmi, har tomonlamaligi va yetarlicha chuqur bo'lishini ta'minlash;

– ijodiy anglash imkoniyatlarini takomillashtirish;

– kurashchining umumiy tayyorgarlik mashqlarini bajarish malakalarini shakllantirish va takomillashtirish;

– kurash texnikasi usullari himoyalaniqlar va qarshi usullarni bajarishni shakllantirish hamda takomillashtirish;

– musobaqa bellashuvlaridagi texnik-taktik harakatlarning optimal hajmi va turli xilligini shakllantirish;

– o'quv, o'quv-trenirovka, nazorat, musobaqa va ko'rgazmali bellashuvlarni olib borish ko'nikmalari hamda malakalarini shakllantirish;

– kurash usullarini bajarish texnikasini tahlil qilish bilimlari malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hamda takomillashtirish;

– kurash texnikasini ko'rsatib berish va tushuntirish malakasini egallash;

– murakkab texnik-taktik harakatlarni bajarishga o'rgatish va takomillashtirish bilimlari, malakalari hamda ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish;

– kurash bo'yicha darslarni tahlil qilish va o'tkazish malakalarini shakllantirish hamda takomillashtirish;

– kurash musobaqalariga hakamlilik qilish va ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish hamda o‘tkazish bilimlari, malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda takomillashtirish.

## 6.2. O‘qitish tamoyillari

Zamonaviy pedagogikada o‘qitish tamoyillari o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilab beradigan asosiy talablar hamda yo‘naltiruvchi qoidalar sifatida tushuniladi. Amaliy pedagogik faoliyatda o‘qitish tamoyillari asoslanadi, ular o‘qitish amaliyotini rejalashtirish, tashkil etish va tahlil qilish uchun yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Kurash turlarida o‘quv-trenirovka jarayoni jismoniy tarbiyaning asosiy tamoyillari: tarbiyaviy xususiyati, har tomonlama rivojlantirish; sog‘lomlashtirish va amaliy ahamiyatiga muvofiq holda olib boriladi.

O‘qitishning tarbiyaviy xususiyati o‘quv-trenirovka jarayonining qonuniyati hisoblanadi. Bu yerda kurashchilarning sport malakasi o‘shisi bilan bir vaqtning o‘zida shaxsga tegishli axloqiy me‘yorlar shakllantiriladi. Sport zaxirasini tayyorlash va asosan tarbiyalash bir qator murakkab tarbiyaviy muammolarni hal etish bilan bog‘liq. Sportda yuqori natijalarga erishishda kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni o‘z-o‘zi nazorat qilish, tahlil etish va baholash malakalarini tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Buning hammasi trenerning tarbiyaviy ta’siri natijasidir, uning rahbarligi ostida shug‘ullanuvchilar hayotiy vaziyatlarni hal etishga tayyor turish tajribasini oladilar.

Trener kasb mahoratidan tashqari, yuqori darajada ma’naviyatli va madaniyatli bo‘lishi, o‘z mas’uliyatiga vijdonan yondashishi, haqiqatgo‘y bo‘lishi hamda bolalarni sevishi va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi lozim. Trener shaxsiyatida ushbu sifatlarning namoyon bo‘lishi ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini belgilab beradi.

Har tomonlama rivojlantirish tamoyili trenerni har tomonlama rivojlangan sportchi shaxsiyatini shakllantirishga yo‘naltiradi. Sport faoliyati ma’naviy, aqliy, mehnat, estetik va boshqa turdagi tarbiya bilan chambarchas bog‘liq.

Trenirovkaning turli bosqichlarida oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishish, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga intilish, ma’naviy tajriba, iroda sifatlari, mustaqil fikrlash, mehnat qilish, sport g‘alabalari va mag‘lubiyatlariga matonatli bo‘lishni shakllantiradi.

Kurash turlari bo'yicha o'quv-trenirovka mashg'ulotlarining sog'lomlashtiruvchi yo'nalishi sport mahoratining bir tomonga o'sishi va sog'liq, jismoniy rivojlanganlik, shug'ullanuvchilarning tayanch-harakat apparati, yurak-qon tomiri, nafas olish hamda asab tizimini mustahkamlash orqali ifodalanadi. Ushbu tamoyilga amal qilmaslik, ayniqsa boshlang'ich sport tayyorgarligi bosqichlarida, o'smir kurashchilarda muntazam, ba'zi hollarda esa surunkali kasallanishga olib keladi va ommaviy razryadli sportchilarning kurash bilan shug'ullanmay qo'yishlarining asosiy sababi hisoblanadi.

Amaliy yo'nalishi. Kurash turlari katta amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tamoyilning amaliy namoyon qilinishi shuni nazarda tutadiki, kurashchi kutilmagan vaziyatlarda harakat qila olishi lozim. Katta yoshdagi sportchilar o'zlarini hamda yaqinlarini himoya qila olishlari zarur.

Kurash bo'yicha o'quv-trenirovka mashg'ulotlarining muvaf-faqiyatli olib borilishi ushbu jarayonning asosiy pedagogik (didaktik) tamoyillariga muvofiqligi bilan aniqlanadi.

O'quv-trenirovka mashg'ulotlari samaradorligi quyidagi didaktik tamoyillarga asoslanadi:

- 1.O'qitishning ilmiylik tamoyili.
- 2.O'qitishning yengillik tamoyili.
- 3.O'qitishning muntazamlilik tamoyili.
- 4.O'qitishning onglilik va faollik tamoyili.
- 5.O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili.
- 6.O'quv materialini puxta o'zlashtirish tamoyili.
- 7.Jamoali o'qitish va o'quvchiga individual yondashish birligi tamoyili.
- 8.O'qitishning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili.
- 9.O'qitish jarayonida o'qituvchining yetakchilik ahamiyati.

### **6.2.1. O'qitishning ilmiylik tamoyili**

O'qitishning ilmiylik tamoyili o'quvchidan o'quv materialini o'zlashtirish va ilmiy asoslangan usuliyat, o'qitish jarayonini tashkil etish qonuniyatlarini bilishni talab etadi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq o'quv-trenirovka jarayoni usuliyati hamda uni tashkil etish ilmiy asoslangan bo'lishi lozim, ya'ni shug'ullanuvchilar yosh xususiyatlariga mos hamda ko'p yillik tayyorgarlikning hamma bosqichlarida vazifalarni hal etish uchun foydali bo'lishi zarur.

Ilmiylik tamoyilini amalga oshirish bir qator shartlarning bajarilishini taqazo etadi:

– o‘rganilayotgan harakatlar o‘quvchilar tomonidan to‘liq, buzilmagan holda qabul qilinishi lozim;

– o‘rganuvchi o‘rganilayotgan harakatlarning muhim belgillari va xossalari o‘rganilayotgan harakatlarning boshqa harakatlar bilan bog‘liqligi va ularni musobaqa faoliyatida qo‘llash xususiyatlarini tushunishi hamda o‘zlashtirishi lozim;

– harakatlarni o‘rganayotib, ularni bir umrga o‘zgarmas narsa sifatida emas, balki rivojlanib va takomillashib boradigan narsa sifatida qabul qilish zarur;

– o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni nafaqat harakat vazifalarini hal etish qonuniyatlari, ilmiy izlanish natijalari bilan, balki ilmiy tadqiqotning yengil uslublari bilan tanishtirib borish lozim;

– ilmiylik tamoyili o‘quvchilarni faqat fanda tasdiqlangan ishonchli faktlar va bilimlar bilan tanishtirishi zarur;

– o‘qitish jarayonida fanda qabul qilingan atamalardan foydalanish mumkin.

Eskirgan va tor guruhlariga mansub atamalardan foydalanish mumkin emas.

### **6.2.2. O‘qitishning yengillik tamoyili**

O‘quv dasturi materialini o‘zlashtirish sifati bir qator omillarga bog‘liq. Lekin boshqa teng sharoitlarda material o‘quvchiga yengil bo‘lgan taqdirdagina o‘zlashtirilishi mumkin. Harakatlarga o‘rgatish sohasida yengillik tamoyili bir qator talablar bajarilgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin:

– o‘quvchining jismoniy tayyorgarligi hal etilayotgan harakat vazifasining o‘ziga xos xususiyatiga munosib bo‘lishi lozim;

– o‘quvchilarning harakat tayyorgarligi o‘rganilayotgan harakat xusu-siyatlari, hal etilayotgan harakat vazifasining o‘ziga xos xusu-siyatlariga muvofiq bo‘lishi kerak;

– o‘quvchi o‘rganilayotgan harakatni mantiqan tushunib yetishi va bu harakatni bajarishning hal etuvchi shartlariga o‘quvchi e‘tiborini qaratish lozim;

– o‘quvchining ruhiy tayyorgarligi o‘rganilayotgan harakat xususiyatlariga mos bo‘lishi kerak;

– tashkil etish vositalari, uslublari va shakllari o‘quvchilarning aqliy rivojlanganlik hamda texnik tayyorgarlik darajasiga muvofiq bo‘lish zarur;

– o‘quv materialini yuqori, lekin mazkur o‘quvchilar tarkibiga yengil bo‘lgan darajada o‘zlashtirilishini rejalashtirish lozim.

### **6.2.3. O‘qitishning muntazamlilik tamoyili**

O‘qitishning muntazamligi hamda izchilligi, shuningdek, ma’lum bir vaqt orasida nagruzka hamda dam olishning almashinuvi muntazamlilik tamoyili asosini tashkil etadi. Muntazamlilik tamoyilining amalga oshirilishiga o‘quv jarayonini rejalashtirish hamda dasturlash, o‘quv dasturlarini tuzishni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bunda nafaqat o‘rganilayotgan materialning borishi, balki dastur qismlari o‘rtasidagi tuzilmaviy bog‘liqliklar ochib beriladi. O‘qitish izchilligini rejalashtirish quyidagi usuliy qoidalarga tayanadi – ma’lumdan noma’lumga, yengildan qiyinga, oddiydan murakkabga, bilimlardan ko‘nikmalarga, asosdan qismlarga, xususiydan umumiyga, umumiydan xususiyya.

Muntazamlilik tamoyilini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagilar juda muhimdir:

– shug‘ullanuvchilarga bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar to‘g‘risida kompleks tasavvurlar berish;

– hamma o‘quv materialini qismlarga yengil ajratiladigan holda bir tizimga birlashtirish;

– ushbu tizimning o‘rganilishini shug‘ullanuvchilar xususiyatlari, ularning o‘qishi, ish sharoitlariga muvofiq holda, o‘quv material shartlariga muvofiq shiddatli faoliyat davrlarini uni mustahkamlash (takrorlash), musobaqalarda qatnashish davrlari bilan almashtirib, rejalashtirish lozim;

– pedagoglarning harakatlari va talablarida o‘rganilayotgan materialni qat’iy izchillik hamda asta-sekin murakkablashtirib borish bilan o‘rgatishga amal qilinishi lozim.

### **6.2.4. O‘qitishning onglilik va faollik tamoyili**

Onglilik va faollik tamoyili pedagogik rahbarlik va shug‘ullanuvchilarning ongli, faol hamda ijodiy faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni nazarda tutadi.

Onglilik o‘qitish maqsadi va vazifalari, o‘rganilayotgan materialni chuqur tushunishi, uni ongli ravishda amaliyotda qo‘llay olish



malakasida namoyon bo'ladi. Shug'ullanuvchilar faolligi mustaqillik, tashabbuskorlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi lozim. Bunday sifatlarni tarbiyalash shakllaridan biri – bu oddiy pedagogik ko'nikmalarga hamda o'z-o'zini nazorat qilishga (trenirovka kundaligini tutish, musobaqa faoliyatini tahlil qilish va h.k.) o'rgatishdir.

Onglilik va faollik tamoyilini amalga oshirish uchun quyidagi talablarni bajarish lozim:

- o'quv faoliyati talablarini tushunib yetish va shuning asosida uning sabab hamda maqsadlarini shakllantirish;

- shug'ullanuvchi o'quv faoliyatining hamma amallari hamda harakatlarini ongli ravishda bajarishi lozim;

- o'qish sabablarini faol shakllantirish va boshqarib borish;

- har bir o'quvchiga o'quv topshiriqlarining yengilligini ta'minlash;

- o'quv vazifasini hal etishga aloqador bo'lmagan talablarning dolzarbligini kamaytirish;

- o'qitish jarayonini shunday tuzish lozimki, oldin o'tilgan material yaxshi o'zlashtirilmasa, undan keyingi materialni o'zlashtirish qiyinchilik tug'dirishi zarur.

### **6.2.5. O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili**

Kurashning texnik-taktik harakatlariga o'rgatish harakatlanish to'g'risidagi tasavvurlarni, ya'ni o'rganiladigan harakatning ma'lum bir tushunchasi hamda ko'rinishini shakllantirishdan boshlanadi.

Amaliy tushunishda birinchi va eng muhim vazifa – bu ko'z orqali jonli his qilish hisoblanadi. Shunday ko'z orqali his qilishni ta'minlash ko'rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishning zarur sharti hisoblanadi.

O'rganilayotgan usul yoki usullar kombinatsiyalari obrazi (ko'rinishi) birinchi navbatda ko'z organlari orqali keladigan signallar hisobiga shakllanadi. Lekin o'rganilayotgan harakat obrazining shakllanishi nafaqat ko'z bilan his qilish yordamida, balki boshqa sezgi organlari: eshitish, vestibulyar apparat va h.k. dan kelayotgan hislar yordamida sodir bo'ladi.

O'qitishdagi ko'rgazmalilik bir vaqtning o'zida o'rganilayotgan harakat-ning ham obrazli, ham ko'rgazmali, ham so'z orqali ta'rifi qo'llanilgan taqdiridagina hosil bo'ladi.

To'laqonli tasavvurni shakllantirish uchun shug'ulanuvchi nafaqat ko'z bilan ko'rishi, balki o'rganilayotgan harakatning xususiyatlarini his qilishi, u to'g'risida harakatlanish tasavvurini shakllantirishi lozim. Shuning uchun kurash turlarida taktli sezuvchanlik katta ahamiyatga ega.

Ko'rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishda yosh, tarbiya va tafakkur xususiyatlarini hisobga olish lozim. Kichik yoshda bolalarning taqlid qilishga bo'lgan layoqatidan foydalanish va dars davomida topshiriqni bir necha bor ko'rsatib berish lozim. Katta yoshdagi kurashchilar bilan ishlash davomida ko'rsatib berish bilan birga harakatning ma'nosi, uning mazmuni hamda texnikaviy tavsifi tushuntiriladi. Ushbu yoshdagi kurashchilar bilan bo'ladigan mashg'ulotlarda ko'rgazmalilik tamoyili ideomotor mashqlar (harakatni uning hal qiluvchi fazalariga alohida diqqatni jamlagan holda hayolan ko'p marta qayta takrorlash) orqali amalga oshiriladi.

Ko'rgazmalilik tamoyilidan foydalanish samaradorligi, agar harakatning bajarilishi videomagnitofon yoki kinoqurilmalar yordamida yozib olinib hamda namoyish qilinsa, ancha oshadi.

Shunday qilib, kurash turlarida ko'rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishda o'qituvchi quyidagilarni bajarishi lozim:

– usulni ko'rsatib berayotganda uning texnik va taktik xususiyatlarini tushuntirib berish;

– o'rganilayotgan usulni bajarish uchun eng qulay bo'lgan hamma vaziyatlarni ko'rsatib berish;

– usulni butun holida, ya'ni bellashuvda qanday bajarilsa, shunday ko'rsatib berish (bunday ko'rsatib berish umumiy ko'rinishda usul to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish maqsadiga ega);

– usulni elementlari bo'yicha sekin ko'rsatib berish ( bunday ko'rsatib berish umumiy ko'rinishda usulning eng muhim elementlari to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish maqsadiga ega);

– ko'rgazma vositalarini umumiy jihatdan to'g'ri tanlab olish (ularning qo'llanilish ketma-ketligi va h.k.);

– o'rganilayotgan texnik harakatni o'qitishning mazkur bosqichida qanchalik kerak bo'lsa, shu darajada har tomonlama qabul qilishga yordam berish.

### **6.2.6. O'quv materialini puxta o'zlashtirish tamoyili**

O'quv materialini puxta o'zlashtirish tamoyili o'rganilayotgan bilimlar, shakllanayotgan ko'nikma va malakalarning xotirada uzoq vaqt saqlanib turishini bildiradi. O'zlashtirilgan materialning xotirada uzoq vaqt saqlanib turishi ko'pgina ob'yektiv va subyektiv omillarga: o'qitish sharoitlari, shug'ullanuvchilarning hayoti, mehnat va dam olish tartibiga bog'liq.

Ushbu tamoyil ikki tomondan ochib beriladi:

1) o'rganilayotgan materialning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlash;

2) shakllantirilayotgan harakat ko'nikmalarining ishonchligini ta'minlash.

Eslab qolish mustahkamligiga bir qator shartlar ta'sir ko'rsatadi, ulardan eng muhimlari quyidagilar:

– eslab qolishga ko'rsatma berish va eslab qolinadigan materialdan musobaqa faoliyatida foydalanish yo'llarini ko'rsatish;

– eslab qolinadigan axborot soni hamda uni qabul qilish su'ratini optimallashtirish;

– o'quvchilarning eslab qolinadigan harakatlar bilan ishlash shakllari turlarini o'zgartirib turish;

– turli takrorlash usullari va shakllaridan foydalanib, o'rganilayotgan harakatni muntazam tekshirib turish;

– materialning yorqin va ifodali taqdim etilishini hamda uni qabul qilishning yuqori ijobiy emotsional ko'rinishini ta'minlash.

Shakllantirilayotgan harakat malakalarining ishonchligini ta'minlash uchun bir qator shartlar bajarilishi lozim:

– alohida harakat vazifalarini hal etish usullariga emas, balki harakat vazifalari sinfini hal etish uslublariga, ya'ni harakatlanish strategiyasini tanlash ko'nikmalari hamda uni amalga oshirishning keng umumlashtirilgan malakalariga o'rgatish lozim;

– o'qitishni o'rganilayotgan harakat kerak bo'ladigan amaliy faoliyat bilan tanishtirishdan boshlash zarur;

– harakatlarni ularning faoliyatda amaliy natijalarga erishish uchun qaratilgan ma'nosini buzmaganda o'rganish kerak;

– harakatlarni faoliyat davomida (aynan shu faoliyat uchun ular o'rganiladi) takomillashtirish;

– harakatlarning o'zlashtirilishini faoliyat sifatiga qarab baholash.

## **6.2.7. Jamoali o'qitish va o'quvchiga individual yondashish birligi tamoyili**

Jamoali o'qitish va o'quvchiga individual yondashish birligi tamoyili kurash turlari bo'yicha o'quv-trenirovka jarayonini tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Jamoali o'qitishning har bir o'quvchiga individual yondashish bilan uyg'unligi kurashning oddiy texnik harakatlari bilan bir qatorda murakkab texnik-taktik harakatlarga muvaffaqiyatli o'rgatilishini ta'minlaydi.

Jamoali o'qitishda pedagog materialning yengilligi, shug'ullanuvchilarning harakat tajribasi, sportchilarning mashg'ulotlarga bo'lgan munosabatini hisobga olishi zarur. O'quv faoliyatini shug'ullanuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish lozim. Jamoali o'qitishning birligini ta'minlash va yengillashtirish uchun jismoniy hamda harakat tayyorgarligi, individual xususiyatlari bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchilarni guruhlariga birlashtirish zarur.

Harakatlarga o'rgatish darajasiga qarab, shug'ullanuvchilarni uchta guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga jismonan yaxshi rivojlangan, oddiy va murakkab harakatlarni a'lo darajada hamda tez o'zlashtiradigan shug'ullanuvchilar kiritiladi.

Ikkinchi guruhga harakatlarni a'lo darajada va yaxshi, lekin sekin o'zlashtiradigan shug'ullanuvchilar kiritiladi. Ular o'rtacha jismoniy rivojlanganlik bilan ajralib turadi.

Uchinchi guruhga harakatlarni o'rtacha va bo'sh o'zlashtiradigan shug'ullanuvchilar kiritiladi.

Jismoniy tayyorgarlik belgilariga ko'ra guruhlarini shakllantirishda shuni e'tiborga olish lozimki, kuch mashqlarida bo'sh bo'lgan shug'ullanuvchi chidamlilikni namoyon qilishni talab etadigan mashqlarda kuchli bo'lishi mumkin. Bitta guruhga kiritilgan hamma shug'ullanuvchilarning rivojlanganlik darajasi bir xil bo'lishi lozim.

Shunday qilib, ushbu tamoyilni amalga oshirish bir qator shartlarning bajarilishini talab etadi:

- mashg'ulotlarda do'stona yordam va muruvvat ko'rsatish ruhini yaratgan holda jamoali o'qitishni ta'minlash;
- jamoali o'qitish sharoitlarida individual yondashishni ta'minlash;
- shug'ullanuvchilar psixikasining individual xususiyatlari, shuningdek shug'ullanish sabablarini hisobga olish;

- jamoali o‘qitish sharoitlarida samarali individuallashtirish uslubi sifatida dasturlashtirilgan o‘qitishni qo‘llash;
- sportchining antropometrik, jismoniy, ruhiy va boshqa belgilarini hisobga olib, o‘rganilayotgan harakatlar qismlariga bo‘lgan talablarni individuallashtirish.

### **6.2.8. O‘qitishning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili**

Ushbu tamoyilni amalga oshirishning asosiy yo‘li shug‘ullanuvchini o‘zlashtirilgan materialni trenirovka va musobaqa faoliyatida qo‘llashga yo‘naltirishdan iborat. Kurash usullariga o‘rgatishni ularning musobaqalarda qo‘llanilishi bilan tanishtirishdan boshlash zarur. Kurashning murakkab texnik-taktik harakatlariga o‘rgatishda, odatda, o‘rgatishning bo‘laklangan uslubidan foydalaniladi. Biroq, agar shug‘ullanuvchi texnik harakatning alohida qismlarini o‘zlashtirsa, lekin harakatni to‘liqligicha bajarishni bilmasa, bunday hollarda harakatning alohida qismlarini o‘zlashtirish uni butunlay egallab olishga yordam bermaydi, deyiladi. bunday muvaffaqiyatsizlikning sababi shundan iboratki, shug‘ullanuvchi, harakat qismlarini o‘zlashtira turib, ularning o‘rganilayotgan harakat vazifasi va faoliyat maqsadi bilan mantiqiy bog‘liqligini belgilab olmagan.

Shug‘ullanuvchining musobaqa faoliyati harakatlarga o‘rgatish natijalarini baholashga imkon beradi.

O‘qitishning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyilining amalga oshirilishi quyidagi shartlarni bajarishni taqazo etadi:

- alohida harakat vazifalarini hal etish usullariga emas, balki harakat vazifalari sinfini hal qilish usublari hamda ularning o‘zini konstruksiyalash uslublariga o‘rgatish lozim;
- o‘rganishni o‘rganilayotgan harakat talab qiladigan amaliy faoliyat bilan tanishtirishdan boshlash zarur;
- harakatni uning mantiqiy yo‘nalishini (faoliyatda amaliy natijalarga erishish) buzmaganda holda o‘rganish;
- harakatni, u qanday faoliyat uchun o‘rganilayotgan bo‘lsa, shu faoliyatda takomillashtirish;
- faoliyat sifatiga qarab, harakatning egallanganligini baholash.

### **6.2.9. O'qituvchining o'qitish jarayonida yetakchilik ahamiyati tamoyili**

O'qituvchi faoliyati shug'ullanuvchilarga bilim berish hamda bilimlarning egallanish jarayoni, harakat malakalari va ko'nikmalarining shakllanishini boshqarib turishga qaratilgan. Shu ma'noda o'qitishning har bir amali o'qituvchining o'qitish jarayonidagi yetakchilik qilish ahamiyati tamoyilini amalga oshiradi.

O'qituvchining yetakchilik ahamiyatini tahlil qilishni ketma-ket, uning o'qitish jarayonidagi harakatlarini quyidagi bloklar bo'yicha ko'rib chiqish orqali bajarish mumkin:

- o'qitish maqsadini aniqlash;
- o'qitishning xususiy vazifalari tizimini aniqlash;
- o'qituvchilar tayyorgarligining boshlang'ich darajasini aniqlash;
- o'qitish mezonlarini aniqlash;
- o'zlashtirishni baholash uslublarini aniqlash;
- o'qitish strategiyasini aniqlash;
- zarur jihozlarni tayyorlash;
- o'quv qo'llanmasi va inventarlarni tayyorlash;
- o'qitishni butunligicha va elementlari bo'yicha baholash;
- o'qitishga zarur hollarda tuzatishlar kiritish.

Yuqorida ochib berilgan o'qitishning hamma tamoyillari bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, o'qitish jarayonida birga qo'llanilishi mumkin. O'quv jarayonida ularning birontasi buzilsa, boshqasini amalga oshirish qiyinlashadi. O'qituvchi hamma tamoyillarni yaxlit holda qo'llagan taqdirdagina o'qitishda yuqori natijalarga erishish mumkin.

### **6.3. O'qitish uslublari**

Harakatlarga maqsadli o'rgatish o'qituvchidan o'qitish uslublari tavsiflarini bilishni talab etadi. Hamma uslublar shartli ravishda uchta asosiy guruhga bo'linadi: so'zdan foydalanish (so'z) uslublari, ko'rgazmali qabul qilish uslublari (ko'rgazmali) va amaliy uslublar. O'z navbatida, uchta guruhning har biri bir nechta uslublardan tashkil topgan.

O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan so'zdan foydalanish uslublari butun o'quv jarayonini faollashtiradi, harakatlanishlar to'g'risida yanada to'liq hamda aniq tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi.

Ushbu uslublar yordamida o'qituvchi o'quv materialining o'zlashtirilishini tahlil qiladi va baholaydi.

Ko'rgazmali qabul qilish uslublari o'rganilayotgan harakatlarning ko'z bilan ko'rish va eshitish orqali qabul qilinishi ta'minlaydi.

Ko'rgazmali qabul qilish harakatlarni yanada tez, chuqur va mustahkam egallab olishga yordam beradi, o'rganilayotgan harakatlarga qiziqish uyg'otadi.

Amaliy uslublar shug'ullanuvchilarning faol harakat faoliyatiga asoslangan. Ular shartli ravishda ikkita guruhga bo'linadi: qat'iy va qisman tartiblashtirilgan mashqlar uslublari, harakat shakllari, nagruzka o'lehamlari, uning o'sib borishi, dam olish bilan almashlab turilishi va boshqalarni qat'iy tartiblashtirgan holda harakatlarni ko'p marta takrorlash bilan tavsiflanadi. Buning natijasida kerakli harakatlarni asta-sekin shakllantirib, alohida harakatlarni tanlab o'zlashtirish imkoniyati tug'iladi.

6-jadval

O'qitish uslublari			
So'zdan foydalanish uslublari	Ko'rgazmali qabul qilish uslublari	Amaliy uslublar	
Hikoya, ta'rif, suhbat, tushuntirish, tahlil qilish, ko'rsatma berish, hisoblash	Plakatlar, kinogrammalar, videoyozuvlarni ko'rsatish, namoyish qilish, ovozli va yozuvli signalizatsiya	Qat'iy tartiblashtirilgan mashqlar uslublari. Qismlarga bo'linib o'rganish. Butunligicha o'rganish.	Qqisman tartiblashtirilgan mashqlar uslublari. O'yin, musobaqa uslublari

Qismlarga bo'lib o'rganish uslubi dastlab harakatning alohida qismlarini o'rganishni, keyinchalik esa kerakli darajada butun holiga birlashtirishni nazarda tutadi.

Butunligicha o'rganish uslubi o'qitishning yakuniy maqsadiga qarab, harakat qanday ko'rinishda bo'lsa, uni shundayligicha o'rganishni ko'zda tutadi.

Qisman tartiblashtirilgan mashqlar uslubi o'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun harakatlarni nisbatan erkin tanlashga ruxsat beradi.

O'yin uslubi harakatlarning qat'iy tartiblashtirilishi, ularni bajarishdagi mumkin bo'lgan shartlarning yo'qligi bilan tavsiflanadi; ijodiy qobiliyatlarni mustaqil namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, mashg'ulotlarning ko'tarinki ruhda o'tishini ta'minlaydi.

Musobaqa uslubi maxsus tashkil qilingan musobaqa faoliyatini nazarda tutadi. Bunday faoliyat ushbu holda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish usuli sifatida qatnashadi.

Shunday qilib, o'quv-trenirovka mashg'ulotlarida hamma sanab o'tilgan uslublar turlicha birikkan holda, andozali shakllarda emas, balki sport tayyorgarligining muayyan talablarini hisobga olib, o'zgartirilgan shakllarda qo'llaniladi. Uslublarni tanlashda shu narsaga e'tibor berish lozimki, ular oldinga qo'yilgan vazifalar, umumiy didaktik tamoyillar, shuningdek sport trenirovkasining maxsus tamoyillari, shug'ullanuvchilarning yosh xususiyatlari, ularning malakasi hamda tayyorgarlik darajasiga qat'iy muvofiq bo'lishi shart.

## **6.4. O'qitish bosqichlari**

Harakatga o'rgatish jarayoni ma'lum bir vaqt davomida amalga oshiriladi. Bunday vaqt davri shartli uchta bosqichga bo'lingan: dastlabki o'rganish, qismlarga bo'lib o'rganish, mustahkamlash va keyingi takomillashtirish.

### **6.4.1. Dastlabki o'rganish bosqichi**

Dastlabki o'rganish bosqichida eng asosiy vazifa o'quvchilarda kurash turlarining o'rganilayotgan harakatini to'g'ri bajarish uchun zarur bo'lgan tasavvurlarni yaratishdan iborat. Ushbu bosqichning xususiyatlari quyidagilar: vaqt va makonda harakatlarning yetarli darajada aniq bo'lmashligi; mushak kuchlanishlarining noaniqligi; ortiqcha harakatlarning mavjudligi; kurash texnik harakatlarini bajarishda fazalar yaxlitligining buzilishi. Bunda shug'ullanuvchilar ko'pgina ortiqcha kuch sarflaydilar va usullarni ko'pgina gavda mushaklarini zo'riqtirish bilan bajaradilar. Tez toliqib qolish va ayniqsa yosh kurashchilarda ish qobiliyatining yetarli darajada bo'lmashligi ana shularga bog'liq.

Shunday qilib, ushbu bosqichda bir qator xususiy vazifalar hal etilishi lozim:



– o‘rganilayotgan texnik harakat to‘g‘risida yaxlit tasavvurni shakllantirish va ulardan bellashuvlarda foydalanish to‘g‘risida shug‘ullanuvchilarga ma’lumot berish;

– shug‘ullanuvchilarning harakat malakalari zaxirasini yangi kurash usulini egallash uchun kerak bo‘lgan elementlar bilan boyitish;

– parter va tik turishdagi oddiy usullarning butunligicha bajarilishiga erishish;

– kerak bo‘lmagan harakatlarni, ortiqcha mushak kuchlanishlarini bartaraf etish.

#### **6.4.2. Qismlarga bo‘linib o‘rganish bosqichi**

Qismlarga bo‘lib o‘rganish bosqichining asosiy vazifasi harakat malakasini shakllantirish hamda uni ko‘nikmaga o‘tgunga qadar takomillashtirishdan iborat. Bu bosqichda alohida kurash usullarining vaqt, makon va kuch tavsiflari aniqlanadi. Agar oldingi bosqichda harakat malakasini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda uning hosil bo‘lishi yuzaga keladi. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilinadi:

– o‘rganilayotgan usul texnikasini egallash va qismlarini aniqlab olish;

– o‘rganilayotgan harakatlarning qonuniyatlarini tushunishni chuqurlashtirish;

– bajarilishi zarur bo‘lgan amallarning ketma-ketligini batafsil gapirib turish bilan o‘rganilayotgan harakatni bajarish;

– o‘quv-trenirovka bellashuvlaridagi o‘rganilayotgan usullarning aniq, erkin va butunligicha bajarilishiga erishish.

#### **6.4.3. Mustahkamlash va keyingi takomillashtirish bosqichi**

Kurashchining texnik-taktik harakatlarini mustahkamlash va keyingi takomillashtirish bosqichida o‘qitishning asosiy vazifasi, ya’ni harakat ko‘nikmasini shakllantirish va musobaqa bellashuvlarida egallab olingan kurash usullarini qo‘lly olish malakasini hosil qilish vazifasi hal etilishi lozim. Buning uchun ushbu bosqichning quyidagi xususiy vazifalarini bajarish zarur;

– shug‘ullanuvchilarni egallangan texnik harakatlarni turli sharoitlarda va parterda kabi tik turishdagi boshqa usullar bilan birga qo‘shib bajarishga o‘rgatish;

– kurashchini o‘rganilgan harakatni har xil tayyorgarlikka (jismoniy, texnik, taktik va h.k.) ega bo‘lgan raqiblar bilan bajarishga o‘rgatish;

– shug‘ullanuvchilarning alohida xususiyatlariga muvofik va ularning jismoniy tayyorgarligi oshishini hisobga olgan holda o‘rganilgan texnik harakatlarni yangi elementlar (taktik tayyorgarlik usullari, ushlab olishlar, yakunlovchi fazalar) bilan boyitish;

– musobaqa bellashuvlarida o‘rganilgan texnik harakatning yetarli darajada barqarorligi va variantlilik, ishonchliligi va tejamlilikini ta‘minlash.

### ***O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari:***

**1.Sport kurashida o‘rgatish uslublarining qanday maqsad va vazifalari mavjud?**

a. o‘quvchilarni bilimlar tizimiga yo‘naltirish

b. o‘quv fanining xususiyatlari va maxsus sharoitlarni ko‘rsatuvchi bilimlar

c. sport kurashining nazariyasini va ta‘lim uslubiyatini ochib berish

d. a, b va c.

**2.O‘rgatish tamoyillari nima uchun kerak?**

a. kurash texnikasining usullar, himoyalar va qarshi usullarni bajarishni takomillashtirish va shakllantirish

b. amaliy pedagogik harakatlar uchun yo‘riq hisoblanadi, ular rejalashtirishda va amaliyotni tahlil etishda umumiy yo‘riqchi sifatida xizmat qiladi

c. kurash bo‘yicha darslarni o‘tkazishda ko‘nikmalarni shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi hisoblanadi

d. a, b va c.

**3.Sport kurashida nima tadqiqot ob‘yekti deb hisoblanadi?**

a. o‘rganish jarayoni nimaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, shu tadqiqot ob‘yekti hisoblanadi

b. bu qandaydir bir qarama qarshilikki, uni yo‘q qilish uchun maqsadli harakatlarni tashkillashtirni talab etuvchi amaldir

c. bu o‘quv-mashg‘ulot va musobaqa faoliyati

d. bu sportchilarning biologik jarayonlarini va psixologik imkoniyatlarini tadqiq etish.

#### **4. Tadqiqot predmeti deganda nimani tushunasiz?**

a. ham amaliy, ham nazariy nuqtai nazardan ko'proq ahamiyatga ega, o'rganishga layoqatli bo'lgan, ob'yektlarning xususiyatlari va tomonlari

b. sport maktablariga bolalarni saralash mezonlarini aniqlash

c. ma'lum bir sohada ilmiy va amaliy bilimning holati

d. a, b va c.

#### **5. Tadqiqot maqsadi deganda nimani tushunasiz?**

a. tadqiqot maqsadi nazariy o'rganish yoki amaliy yordamchi oxirgi natijaga yo'naltirilgan

b. har qanday ilmiy tadqiqotning maqsadi aniq bir muammoni yechish hisoblanadi

c. vujudga kelgan muammoni nazariy tahlil etish va amalda uni echilish holatiga baho berish

d. a, b va c.

#### **6. Kurashchilarning maxsus sifatlarining ilmiy tadqiqotida to'g'ri hakamlik qanday ahamiyatga ega?**

a. musobaqa faoliyatini o'tkazishni shunga ko'ra baholashga yo'l ochadi (hujum va himoya harakatlari, faollik, natijalar ko'rsatish va x.k.)

b. texnik usullarni to'g'ri aniqlashga yo'l ochadi

c. kurashdagi an'anani bajarishga yo'l ochadi

d. a, b va c.

#### **7. Ilmiy taxmin tushunchasiga tavsif bering.**

a. tadqiqot ob'yektini nazariy va empirik bilimlar va ular negizidagi yig'ilgan yangi bilimlarni olish asosida taxminlarni o'rganish

b. taxminning shakllanishi – isbotlash tizimi va tadqiqot uslublari. tajriba va tadqiqot jarayonida taxminni isbotlash, ularni aniqlash va to'g'irlash

c. taxminni isbotlash natijasi. ishonchli bilimga o'tishdagi ko'rsatkichlarni olish, to'ldirish, yangi taxmin bilan almashtirish

d. a, b va c.

#### **8. Ilmiy tadqiqot uslublari qanday talablar qo'yiladi?**

a. yonma–yon ta'sir etuvchi xossalarga qat'iyli harakati bilan ajralib turishi kerak

b. o'rganilayotgan hodisalarga nisbatan aniq tanlash xususiyatiga ega bo'lishi kerak va tadqiqot vazifasiga muvofiq ravishda o'rganilayotgan hodisalarni ko'rsatishi lozim

c. a, b

d. hech qanday talab qo'yilmaydi, ular ma'lum bir qolipga o'xshagan, ana shu qolip asosida ilmiy ish olib borilsa vazifa aniq bajariladi.

### **9. Ideomotor mashqlari deganda nimni tushunasiz?**

a. hal qiluvchi pallada diqqatni jamlash bilan harakatlar bajarilishini ko'p marotaba fikran tasavvur qilish

b. murabbiyning qat'iy nazorati ostida bajariladigan mashqlar

c. kurashchidagi barcha texnik–taktik harakat turlari

d. kurashchining maxsus va yordamchi mashqlari.

### **10. O'rgatishning ko'rgazmali tamoyilini amalga oshirish uchun murabbiy nima qilishi kerak?**

a. texnik usulni ko'rsatishda uning texnik xususiyatlarini tushuntirish kerak. O'rganilayotgan usulning barcha amalga oshirish yo'llarini ko'rsatish lozim

b. bellashuvlarda bajarilganligi uchun texnik usulni sekin va to'liq ko'rsatish kerak

c. uslubiy jihatdan ko'rgazmali vositalarni to'g'ri qo'llash kerak. Shu bilan birgalikda o'rgatish davriga mos ravishda texnik harakatlarni o'rgatishda har tomonlama to'g'ri ko'rsatish maqsadga muvofiqdir

d. a, b va c.

### **11. O'rgatishning mustahkamligi tamoyili deganda nimani tushunasiz?**

a. o'qishga bilib kirishish

b. o'rganilayotgan bilimlarning xotirada ko'p muddatga saqlanib qolishi, bilim va ko'nikmalarning shakllanishi

c. nazariy va amaliy bilimlarning to'g'ri jamlanmasi

d. o'rgatilayotgan predmetning sharti, tavsifi va xususiyatlari.

### **12. Xotirada saqlab qolishga qanday sharoitlar ta'sir etadi?**

a. musobaqa faoliyatidagi materiallarni eslab qolish uchun yo'riqlar va buyruqlarni shakllantirish. Axborotlarni eslab qolish sonini barqarorlashtirish va uni qabul qilish

b. esda qoladigan harakatlar bilan o'quvchilarning vazifalarini har xil shaklda berish. Har xil uslublar yordamida o'rganilayotgan harakatlarni har doim tekshirish

c. xotirani saqlab qolish uchun yorqin va yuqori darajadagi ijobiy ko‘rinishni ta‘minlash

d. a, b va c.

**13. Harakat ko‘nikmalarini shakllantirish ishonchli bo‘lish uchun qanday sharoitlar yaratish lozim?**

a. jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini optimal ta‘minlash. Charchash holatlarida harakatlarni bajarishni eslab qolish

b. psixologik o‘zini boshqarish ko‘nikmasini shakllantirish. Shug‘ullanuvchining qiziqishini oshirish. Boyitilgan harakat ko‘nikmalarini shakllantirish, yo‘sin bilan emas, balki usul bilan harakat vazifalarini hal qilish

c. a va b

d. b va c.

**14. O‘rgatishning amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyili nimada ko‘rinadi?**

a. musobaqa faoliyatida mashg‘ulotdagi o‘rgangan materialni shug‘ullanuvchining maqsadga erishish uchun qo‘llashida

b. shug‘ullanuvchining shaxsiy psixologik xususiyatlarida

c. dasturli o‘rgatishni qo‘llashda

d. a, b va c.

**15. O‘rgatishning amaliyot bilan bog‘liqlik tamoyilini amalda qo‘llash uchun qanday sharoitlarni bajarish kerak?**

a. alohida harakat vazifalarini o‘rgatishni emas, balki harakat vazifalarining o‘zini qurish usuli bilan va o‘rgatishni amaliyot bilan tanishishdan boshlash

b. faoliyatdagi harakatning bajarilishini o‘rganish va qaysi faoliyatni o‘rganayotgan bo‘lsa, o‘sha faoliyatning sifati bo‘yicha o‘rganganligini baholash

c. a va b

d. b.

**16. O‘rgatishda qaysi usullardan foydalaniladi?**

a. so‘z usulidan foydalaniladi

b. ko‘rsatish usulidan foydalaniladi

c. amaliy usullardan foydalaniladi

d. a, b va c.

**17. Harakatni bajarishga o‘rgatish jarayoni qanday bosqichlarga bo‘linadi?**

a. boshlang‘ich o‘rgatish va qismlarga bo‘lib o‘rgatish

- b. keyingi takomillashtirishni mustahkamlash
- c. shug‘ullanuvchilarning ota-onalari bilan trenerning yaqin muloqotda bo‘lish bosqichi

d. a va b.

**18. Boshlang‘ich o‘rgatish bosqichida qanday vazifalar hal qilinadi?**

- a. trener va texnik harakatlarni o‘rganish joyi bilan tanishish
- b. shug‘ullanuvchilarda harakat bajarilishini to‘g‘ri o‘rgatish tasavvurini yaratish

c. ancha murakkab koordinatsion-harakat mashqlarini bajarish

d. a, b va c.

**19. Qismlarga bo‘lib o‘rgatish usulida qanday vazifalar hal qilinadi?**

- a. o‘rgatilayotgan texnik usulning qismlarini aniqlashga va o‘rganishga, o‘rgatilayotgan harakatning qonuniylik tushunchalarini chuqurlashtirilishiga erishish

b. o‘quv mashg‘ulot bellashuvlarida o‘rgatilayotgan texnik usulning erkin va kerak bo‘lgan harakatlarni o‘z vaqtida birgalikda aniqlash, sifatini nazorat va kerak bo‘lgan operatsiyalarni ketma-ket hamda to‘liq eshitarli qilib aytib bajara olishga o‘rgatish

c. b

d. a va b.

**20. Texnik-taktik harakatlarni mustahkamlash va takomillashtirish bosqichida qanday vazifalar hal qilinadi?**

- a. umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish
- b. harakat ko‘nikmalarini shakllantirishni ta‘minlash va musobaqa bellashuvlarida o‘zlashtirilgan texnik usullarni qo‘llay olish

c. boshlang‘ich tayyorgarlik davrida texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish

d. a, b va c.

**O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

№	A	B	C	D
1.				*
2.		*		
3.	*			
4.	*			

5.		*		
6.	*			
7.	*			
8.			*	
9.	*			
10.				*
11.		*		
12.				*
13.			*	
14.	*			
15.			*	
16.				*
17.				*
18.		*		
19.				*
20.		*		

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Бoгeн М.М. Oбyчeниe двигaтeльнoм дeйствийaм. М., 1985.
2. Kerimov F.A. Kurash tushaman. T., 1990.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usulyati. T., 2001.
4. Керимов Ф.А. Кпoрт сoхaсидa зaмoнaвий тaджикoт услyвлaри. Т., 2004.
5. Окoнь В. Ввeдeниe в oбщyю дидактикy. М., 1990.
6. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. T., 2014.

## **7-BOB. KURASH TURLARIDA JISMONIY TAYYORGARLIK TO‘GRISIDA TUSHUNCHA**

### **7.1. Kurashchining jismoniy tayyorgarligi.**

Kurashchining jismoniy tayyorgarligi sport trenirovkasining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va jismoniy sifatlar – kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayondir.

Jismoniy tayyorgarlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Sportchilar sog‘lig‘i darajasi va ular organizmi turli tizimlarining funksional imkoniyatlarini oshirish.

Jismoniy sifatlarni sport kurashining o‘ziga xos xususiyatiga javob beradigan birlikda jismoniy sifatlarni rivojlantirish.

Jismoniy tayyorgarlik umumiy, yordamchi va maxsus tayyorgarlikka bo‘linadi.

Kurashchining umumiy jismoniy tayyorgarligi yuqori natijalarga erishish uchun poydevor, zarur asos hisoblanadi. U asosan quyidagi vazifalarning hal etilishini ta‘minlaydi:

Kurashchi organizmini har tomonlama garmonik rivojlantirish, uning funksional imkoniyatlarini oshirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish.

Salomatlik darajasini oshirish.

Shiddatli trenirovka va musobaqa nagruzkalari davrida faol dam olishdan to‘g‘ri foydalanish.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik turli vositalar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Ular orasida snaryadlarda va snaryadlar bilan bajariladigan mashqlar, sherik bilan maxsus trenajyorlarda bajariladigan mashqlar, boshqa sport turlari: akrobatika, yengil atletika, sport o‘yinlari, suzish va h.k.dan olingan umumiy rivojlantiruvchi mashqlar ajratiladi.

Yordamchi jismoniy tayyorgarlik maxsus harakat malakalarini rivojlantirishga qaratilgan katta hajmdagi ishni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus asosni yaratishga mo‘ljallangan. U ancha tor va o‘ziga xos yo‘nalishga ega hamda quyidagi vazifalarni hal etadi:

Asosan kurash uchun ko‘proq xos bo‘lgan sifatlarni rivojlantirish.

Kurashchi harakatlarida katta darajada ishtirok etuvchi mushak guruhlarini tanlab rivojlantirish.

Yordamchi jismoniy tayyorgarlikning ilg‘or vositalari sifatida shunday mashqlar qo‘llaniladiki, ular o‘zining kinematik va dinamik



tarkibi hamda asab-mushak kuchlanishi xususiyatiga ko'ra kurashchining musobaqa faoliyatida bajaradigan asosiy harakatlariga mosdir. Shunday mashqlar orasida quyidagilarni ajratish mumkin: kurashning turli usullarini ishora orqali bajarish; maxsus trenajyor moslamalarida bajariladigan mashqlar; kurashchilar manekeni bilan mashqlar.

Kurashchining maxsus jismoniy tayyorgarligi harakatlanish sifatlarini kurashchilarning musobaqa faoliyati xususiyatlari tomonidan qo'yiladigan talablarga qat'iy muvofiq holda rivojlantirishga qaratilgan.

Kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi asosan kurash gilamida o'tkaziladi va harakat malakalari tarkibidagi eng muhim harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuning uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida mumkin bo'lgan turli murakkabliklarni jalb qilgan holda musobaqa mashqlari qo'llaniladi. Bunday murakkablashtirilgan mashqlar kurashchi organizmiga bo'lgan ta'sirni kuchaytiradi. Masalan, og'irroq vazn toifasidagi sherigini tashlash, sheriklarni almashtirgan holda o'quv-trenirovka bellashuvlari bajariladi va h.k. Mana shu hamma mashqlar energiya ta'minotining u yoki bu mexanizmlarini rivojlantirish imkonini ta'minlaydi, kurashchining mashqlanganligiga kompleks holda ta'sir ko'rsatadi hamda bir vaqtning o'zida uning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini oshiradi.

Jismoniy tayyorgarlikning hamma ko'rsatilgan turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Trenirovka jarayonida biron-bir jismoniy tayyorgarlik turlariga yetarlicha baho bermaslik oxir-oqibat sport mahoratini oshishiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun trenirovka jarayonida ko'rsatilgan jismoniy tayyorgarlik turlarini optimal nisbatiga rioya qilish juda muhimdir. Uning son jihatdan ifodasi doimiy o'lcham hisoblanmaydi, balki kurashchilar malakasi, ularning alohida xususiyatlari, trenirovka jarayoni davri va organizmning shu paytdagi holatiga bog'liq holda o'zgarib turadi.

### **7.1.1. Kuch va uni rivojlantirish uslubiyati**

Jismoniy sifat bo'lmish "kuch" deganda kurashchining raqib qarshiligini yengib o'tish yoki mushak kuchlanishi hisobiga unga qarshilik ko'rsatish qobiliyati tushuniladi.

Kuchning quyidagi turlarini ajratish qabul qilingan: umumiy va maxsus, mutlaq va nisbiy, tezkor va portlovchan, kuch chidamliligi.

Umumiy kuch – bu kurashchining maxsus harakatlariga taalluqli bo‘lmagan holda sportchi tomonidan namoyon qilinadigan kuch. Maxsus kuch musobaqa harakatlariga mos bo‘lgan maxsus harakatlarda sportchi tomonidan namoyon bo‘ladi. Mutlaq kuch sportchining juda katta xususiyatiga ega harakatlarida namoyon bo‘ladigan kuch imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Kurashda u kuch yordamida yakkamayka olishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Nisbiy kuch, ya’ni sportchining 1 kg vazniga to‘g‘ri keladigan kuch kurashchining shaxsiy og‘irligini yengib o‘tish imkoniyati ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu usullarning tezkorlik bilan bajarilishida muhim ahamiyatga ega.

Tezkor kuch mushaklarning nisbatan kichik tashqi qarshilikni yengib o‘tish bilan bog‘liq harakatlarni tez bajarishga bo‘lgan qobiliyatida aks etadi.

Portlovchan kuch qisqa vaqt ichida o‘z shiddatiga ko‘ra katta kuchlanishlarni namoyon qilish qobiliyatini tavsiflaydi.

Kuch chidamliligi – bu sportchining nisbatan uzoq vaqt davomida mushak kuchlanishlarini namoyon qilishga bo‘lgan qobiliyatidir. Kurashchining kuch imkoniyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo‘llaniladi: takroriy kuchlanishlar; qisqa muddatli maksimal kuchlanishlar; tobora o‘sib boradigan og‘irliklar, zarbdor, birgalikda ta’sir ko‘rsatish; variantlilik; izometrik kuchlanishlar uslublari.

Takroriy kuchlanishlar uslubi shundan iboratki, sporchi mashqni “so‘nggi nafasgacha” bajarishda maksimal og‘irlikdan 70–80% ga teng bo‘lgan og‘irliklar bilan mashqlarni takroran bajaradi. Ushbu uslub kuch mashqini seriyalab bajarishni nazarda tutadi. Har bir seriya – “so‘nggi nafasgacha”, hammasi bo‘lib 3–4 seriya, seriyalar o‘rtasidagi dam olish oralig‘i – 3–4 min.

Takroriy kuchlanishlar uslubining bir turi dinamik kuchlanish uslubi hisoblanadi. U mashqlarni maksimumdan 20–30% og‘irlikda chegaradagi tezlikda bajarish bilan tavsiflanadi. Bunda katta mushak zo‘riqishi og‘irlik vazni hisobiga emas, balki yuqori tezlikdagi harakat hisobiga erishiladi.

Qisqa muddatli maksimal kuchlanish uslubi hozirgi paytda mushaklarning mutlaq kuchini oshirish uchun eng samarali hisoblanadi. U chegaradagi va chegaraga yaqin bo‘lgan og‘irliklar bilan ishlashni nazarda tutadi. Mushaklar trenirovkasida maksimal kuchlanishlar uslubi trenajyorlarda va bitta yondashishda bitta-ikkita harakatlar yordamida,

katta og'irlikdagi shtanga bilan bajariladigan mashqlarda (siltab ko'tarish, dast ko'tarish, o'tirib-turish) namoyon bo'ladi. Trenirovkada hammasi bo'lib 3–4 ta yondashish bajariladi. Yondashishlar o'rtasidagi dam olish oralig'i – 3–5 min.

Tobora o'sib boradigan og'irliklar uslubi bitta trenirovka mashg'ulotida singari keyingilarida ham qarshilik ko'rsatish hajmining asta-sekin o'sib borishini nazarda tutadi.

Trenirovka mashg'ulotida birinchi yondashishda sportchi 10-marta ko'tara oladigan (10 MT) og'irlikdan 50% ga teng og'irlik bilan boshlash tavsiya etiladi. Ikkinchi yondashishda mashq 10 MT dan 75% og'irlik bilan bajariladi, uchinchi yondashishda esa – 10 MT dan 100% og'irlik bilan bajariladi. Trenirovka davomida hammasi bo'lib 3 ta yondashish amalga oshiriladi. Yondashishlar o'rtasidagi dam olish oralig'i – 2–4 min. Har bir yondashishda mashq chegaradagi tezlik bilan aniq toliqib qolgunga qadar bajariladi.

Zarbdor uslub tushadigan og'irlikning kinematik energiyasi va shaxsiy gavda og'irligidan foydalanish yo'li orqali mushak gurublarini zarbdor rag'batlantirishga asoslangan.

Mashqlanayotgan mushaklarning kamayayotgan og'irlik energiyasini yutib olishi mushaklarning faol holatga keskin o'tishiga, ish kuchlanishining tez rivojlanishiga yordam beradi, mushakda qo'shimcha kuchlanish imkoniyatini hosil qiladi. Bu keyingi itaruvchi harakat shiddati va tezkorligini hamda qoloq ishdan yengib o'tiladigan ishga tez o'tishni ta'minlaydi.

Oyoqlar portlovchan kuchini rivojlantirishning zarbdor uslubini qo'llash usuli sifatida ketidan balandlikka yoki uzunlikka sakrash bilan bajariladigan chuqurlikka sakrash mashqlarini aytish mumkin. Mashq 70–80 sm balandlikdan oyoq tizzalarini bir oz bukkan holda yerga tushib, ketidan tez va shiddat bilan yuqoriga otilib chiqish orqali bajariladi. Sakrashlar seriyalab: 2–3 seriyada, har bir seriyada 8–10 tadan sakrashlar bajariladi. Seriyalar o'rtasidagi dam olish oralig'i – 3–5 min. Mashq haftada ko'pi bilan ikki marta bajariladi.

Birgalikda ta'sir ko'rsatish uslubi shunga bog'liqlik, kurashchining kuch imkoniyatlarini rivojlantirish bevosita ixtisoslashgan mashqlarni bajarish paytida sodir bo'ladi. Bir vaqtning o'zida kurashchining kuch qobiliyatlari va texnik-taktik harakatlari rivojlantiriladi hamda takomillashtiriladi. Kurashda birgalikda ta'sir ko'rsatish uslubidan foydalanishga misol tariqasida shunday mashqlarni keltirish mumkinki,

kurashchi bu mashqlarda o'z texnik harakatlarini og'irroq vazn toifasidagi raqib bilan takomillashtiradi.

Og'irlikning optimal o'lchamini aniqlab olish juda muhimdir. Haddan tashqari katta o'lcham harakat malakasi tarkibining buzilishiga olib keladi, bu oqibatda harakat texnikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Variantlilik uslubi asosan turli vazndagi og'irliklar bilan maxsus mashqlarni bajarishni ko'zda tutadi. Har xil vazndagi sheriklar bilan mashqlar seriyalab bajariladi. Bitta seriyada avval og'irroq vazn toifasidagi raqib bilan 10–12 ta tashlash bajariladi, so'ngra teng vazndagi raqib bilan 15–16 ta tashlash, shundan keyin o'z vazn toifasidagi raqib bilan 10–12 ta tashlash bajariladi. Hammasi bo'lib 3 seriya bajariladi. Dam olish oralig'i – 3–4 min. Tezkor-kuch sifatlarini (me'yordagi, kichik) rivojlantirishda variantlilik uslubi ayniqsa samaralidir.

Usullarni ancha og'ir raqib bilan takomillashtirish alohida kuch imkoniyatlarini rivojlantirishga, kichik vazn toifasidagi raqib bilan esa – tezkorlik imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu, oqibatda musobaqa mashqida natijaning oshishiga olib keladi.

Mushaklarning izometrik kuchlanishi uslubi turli mushak guruhlarining 4–6 sek davom etadigan statik maksimal kuchlanishini nazarda tutadi. Izometrik mashqlarning qiymati shundaki, ularning hajmi uncha katta emas, ko'p vaqt olmaydi, bajarilishi ancha oson. Bundan tashqari, ularning yordamida ma'lum bir mushak guruhlariga zarur holatlarda yoki gavda qismlarini bukish yoxud yozishning tegishli bo'g'im burchaklarida tanlab ta'sir ko'rsatish mumkin.

### **7.1.2. Tezlik va uni rivojlantirish uslubiyati**

Kurashchi tezligi – bu uning mumkin qadar qisqa vaqt ichida ayrim harakatlar va usullarni bajarish qobiliyatidir. Tezkorlik sifatini yaxshi rivojlantirmasdan kurashda yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi. O'z raqibidan hatto sekundning yuzdan bir bo'lagiga tezroq harakat qiladigan kurashchi uning oldida muhim ustunlikka ega bo'ladi.

Kurashchi tezkorligi ko'p jihatdan uning asab jarayonlari harakatchanligiga, sharoitlarga, raqib harakatlaridagi ko'rimsiz o'zgarishlarni sezishga bo'lgan sezgirlik unda qay darajada rivojlanganligiga, bellashuvda har safar yuzaga kelgan vaziyatni bir zumda qabul qilish va to'g'ri baholay olish malakasiga, taktik harakatlarni o'z vaqtida va aniq bajarishga bog'liq.

Tezkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo'llaniladi:

Mashqlarni yengillashtirilgan sharoitlarda bajarish uslubi. Harakatlar va katta tezkorlik bilan bajariladigan alohida harakatlarni yengillashtirilgan sharoitlarda ko'p marta takrorlash. Masalan, usulni kichik vazn toifasidagi sherik bilan tezkorlikka e'tibor qaratgan holda bajarish. Mashqlarni yengillashtirilgan sharoitlarda bajarish tezligi bo'yicha oddiy sharoitlarda bajariladigan harakatlardan oshadigan o'ta tez harakatlarning bajarilishini rag'batlantiradi. Masalan, yugurish tezligini oshirish uchun qiyalangan yo'lkacha bo'ylab (tog'dan) yugurish qo'llaniladi.

Mashqni og'irlashtirilgan sharoitlarda bajarish uslubi. Kurashchi musobaqalarda duch keladigan sharoitlardan ham ancha qiyin sharoitlarda maksimal tezkorlik bilan bajariladigan harakatlarni ko'p marta takrorlash. Masalan, og'ir vazndagi sherik bilan maxsus mashqlarni bajarish.

Takroriy kuchlanishlar uslubi. Ikki xil ko'rinishda qo'llaniladi:

– mashqlarni chegaradagi va chegara atrofidagi tezlik bilan bajarish;

– mashqlarni shunday sharoitda bajarishki, bunda chegaradagi kuch zo'riqlashlari nisbatan yengil yukni katta tezlik bilan bir joydan ikkinchisiga o'tkazish yo'li orqali ta'minlanadi.

O'vin va musobaqa usullari ham katta ahamiyatga ega bo'lib, ulardan foydalanish sportchining emotsional muhiti, ruhiy holati, raqobatchilik hissining o'zgarib turishi hisobiga tezkorlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha turtki (rag'bat) bo'lishi mumkin.

Kurashchining tezkorlik sifatlarini tarbiyalash uchun maksimal tezlik bilan bajariladigan mashqlar (ular, odatda, tezlik mashqlari deb ataladi) qo'llaniladi. Tezlik mashqlarining texnikasi ularning chegaradagi tezliklarda bajarilishini ta'minlashi shart. Mashqlarni bajarish paytida asosiy kuchlanishlar bajarish usuliga emas, balki uning tezligiga qaratilishi uchun mashqlar shunchalik yaxshi o'rganilgan va egallangan bo'lishi kerak. Mashqlar davomiyligi shunday bo'lishi zarurki, bajarish oxiriga kelib tezlik, toliqishga qaramasdan, pasaymasligi shart.

Tezlik mashqlarini bajarish tartiblari katta ahamiyatga ega. Har bir mashq davomiyligi 20 sek dan oshmasligi lozim, dam olish oralig'i, mashqni takrorlash boshida, bir tomondan, kurashchining

tiklanishishini ikkinchi tomondan, uning markaziy asab tizimini optimal qo'zg'aluvchanligini ta'minlashi optimal bo'lishi kerak.

Oraliqlarda dam olish faol bo'lishi lozim. Buning uchun tanaffuslarda katta kuchlanishlarni talab qilmaydigan turli xil mashqlar bajariladi.

### **7.1.3. Chidamlilik va uni rivojlantirish uslubiyati**

Kurashchining chidamliligi – bu butun bellashuv davomida harakatlarni yuqori sur'atda bajarish va butun musobaqa davrida bir nechta bellashuvlarni shiddat bilan o'tkazish qobiliyatidir. Yuqori darajadagi chidamlilik kurashchiga katta trenirovka va musobaqa nagruzkalarini o'zlashtirishga, musobaqa faoliya-tida o'zining harakat qobiliyatlarini to'laqonli ravishda amalga oshirishga imkon beradi.

Kurashda umumiy va maxsus chidamlilik farqlanadi.

Umumiy chidamlilik deganda sportchining sust shiddatdagi ishni uzoq vaqt bajarishga bo'lgan qobiliyati tushuniladi.

Maxsus chidamlilik kurashchining musobaqa bellashuvi davomida turli xususiyatdagi harakatlar va amallarni har xil kuchlanishlar bilan hamda gavdaning turli holatlarida yuqori sur'atda bajarish qobiliyati orqali tavsiflanadi.

Kurashchining musobaqa faoliyati ko'p qirrali va mushak tizimining ulkan ishi bilan bog'liq (kurashda statik va dinamik tartibda ishlovchi deyarli hamma mushak guruhлари qatnashadi). Shuning uchun chidamlilik nafaqat ishlayotgan mushaklarga yetkazib beriladigan kislorod miqdori bilan, balki mushaklarning o'zining uzoq vaqt davom etadigan kuchli zo'riqishli ishga bo'lgan moslashishi bilan aniqlanadi. Sportchi trenirovka va musobaqa faoliyatida ma'lum bir toliqishni yengib o'tgan taqdirdagina uning chidamliligi takomillashadi. Jismoniy toliqish va chidamlilik asosida mushak faoliyatining turli xildagi ta'minoti jarayonlari yotganligini bilgan holda ularning faoliyat ko'rsatish darajasini oshirish uchun ularga maqsadli ta'sir etish mumkin.

Trenirovka nagruzkasi, sportchi organizmiga ta'sir ko'rsatish chorasi sifatida, quyidagi tavsiflar bilan belgilanadi:

- mashq shiddati;
- mashq davomiyligi;
- takrorlash soni;
- dam olish oralig'i davomiyligi;

– dam olish xususiyati.

Bajarilayotgan mashq shiddati energiya ta'minotining aerob va anaerob jarayonlari nisbati xususiyatiga ta'sir ko'rsatadigan nagruzkaning eng muhim tavsifi hisoblanadi. To'rtta shiddat zonasini ajratish qabul qilingan: maksimal, submaksimal, katta, sust.

Mashq davomiyligi uni bajarish shiddatiga nisbatan teskari bog'liqlikka ega. Ish davomiyligining 20–25 sekunddan 4–5 minutgacha ko'payishi bilan uning shiddati keskin kamayadi. Mashqning energiya ta'minoti turi uning davomiyligiga bog'liq.

Anaerob-alaktat rejimdagi mashqlar davomiyligi 3–8 sekundga, anaerob-glikolitik rejimda 20 sekunddan 3 minutgacha hamda aerob rejimda – 3 minutdan va ko'proqqa teng.

Ko'p sonli tadqiqotlar natijalariga asoslanib, davomiyligi har xil bo'lgan maksimal jismoniy nagruzkada anaerob va aerob jarayonlarning umumiy energetik metabolizmga nisbatan hissasini aniqlash mumkin.

Tegishli natijalar 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

**Davomiyligi har xil bo'lgan maksimal jismoniy nagruzkada anaerob va aerob jarayonlarning umumiy quvvat sarflanishiga ketadigan nisbiy ulushi**

Ish davomiyligi chegarasi	quvvatning chiqishi			Nisbiy ulush	
	anaerob jarayonlar	aerob jarayonlar	jami	anaerob jarayonlar, %	aerob jarayonlar %
10 sek	20	4	24	83	17
1 min	30	20	50	60	40
2 min	30	45	75	40	60
5 min	30	12	150	20	80
10 min	25	245	270	9	91
30 min	20	675	695	3	97
60 min	15	1200	1215	1	99

Mashqlarni takrorlash soni ularning organizmga ta'sir ko'rsatish darajasini belgilaydi.

Aerob sharoitlarda ishlashda takrorlash sonini ko'paytirish nafas olish va qon aylanish organlari faoliyatini yuqori darajada uzoq vaqt ushlab turishga majbur qiladi.

Anaerob tartibida mashqlarni takrorlash soni kislorodsiz mexanizmlarning tugashiga yoki markaziy asab tizimining qurshovda qolishiga olib keladi.

Dam olish oraliq'i davomiyligi organizmning trenirovka nagruzkasiga bo'lgan javob reaksiyasi hajmi singari, uning xususiyatini ham aniqlash uchun katta ahamiyatga ega. Bunda dam olish oraliqlarida sodir bo'ladigan tiklanish jarayonlari quyidagilardan iborat:

– tiklanish jarayonlari tezligi bir xil emas – avval tiklanish tez kechadi, so'ng sekinlashadi;

– turli ko'rsatkichlar har xil vaqtdan keyin tiklanadi (geteroxronlilik);

– tiklanish jarayonida ish qobiliyati va boshqa ko'rsatkichlarning fazali o'zgarishi kuzatiladi.

Dam olish oraliq'i tiklanish uchun yetarli bo'lgan sust shiddatli mashqlarni bajarishda har bir keyingi urinish taxminan avvalgisiga o'xshagan ko'rinishda boshlanadi.

Ushbu holda dam olish oraliq'ini kamaytirishda nagruzka ko'proq aerob nagruzkaga aylanadi, chunki odatda 3–4 minutga kelib vujudga kelayotgan nafas olish jarayonlari ham o'z kuchini saqlab qolgan bo'ladi.

Maksimal va submaksimal quvvatli mashqlardagi dam olish oraliq'ini kamaytirish nagruzkani anaerob nagruzkaga aylantiradi, chunki mashq takrorlangan sari kislorod qarzi oshib boradi.

Dam olish xususiyati mashqlar o'rtasida faol, sust va aralash bo'lishi mumkin.

O'qitishning kritik nuqtasiga yaqin bo'lgan tezlikda ishlash paytida faol dam olish nafas olish jarayonlarini yuqori darajada ushlab turishga yordam beradi va ishdan dam olishga hamda aksincha holatga keskin o'tishning oldini oladi. Bu nagruzkani ko'proq aerob nagruzkaga olib keladi. Bundan tashqari, og'ir mehnatdan so'ng faol dam olish tiklanish jarayonlarini tezlashtiradi. Mashqlar o'rtasida sust dam olish paytida sportchi, butkul tinch holatda bo'lib, hech qanday harakatlarni bajarmaydi.



Chidamlilikni rivojlantirish uchun quyidagi uslublar qo'llaniladi: bajariladigan mashqlar hajmi va shiddatini oshirish, o'zgaruvchan, oraliqli, o'zgaruvchan-oraliqli, takrorlash.

Hajmni oshirish uslubi shundan iboratki, jismoniy mashqlarni bajarish vaqti mashg'ulotlardan mashg'ulotga asta-sekin oshib boradi. Bu uslub mashg'ulotlar sonini ko'paytirishini nazarda tutadi.

Shiddatni oshirish uslubi jismoniy mashqlarni bajarish sur'ati, shuningdek butunlay mashg'ulot zichligini mashg'ulotdan mashg'ulotga asta-sekin oshirib borishni ko'zda tutadi.

O'zgaruvchan uslub shundan iboratki, jismoniy mashqlar har xil sur'atda bajariladi. Bunda past sur'atda o'tkaziladigan vaqt bo'laklari mashg'ulotdan mashg'ulotga kamayib, baland sur'atda o'tkaziladiganlari ortib boradi.

Oraliqli uslub shundan iboratki, bunda jismoniy mashqlar bo'laklarga bo'linib (seriyalab), sust va faol dam olish oraliqlari bilan bajariladi. Trenirovka vazifalari mashqlarni bajarish sur'ati va davomiyligiga, shuningdek kurashchining mashqlanganlik darajasi hamda kayfiyatiga qarab, ish hamda dam olish oraliqlari davomiyligiga ko'ra har xil bo'lishi lozim.

Takrorlash uslubi shundan iboratki, sportchi bir mashg'ulotning o'zida yoki bir nechta mashg'ulotda hajmi va shiddatiga ko'ra bir xil bo'lgan mashqlarni takrorlaydi.

Sport trenirovkasi jarayonida hamma uslublar bir-biri bilan turlicha uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Chidamlilikni tarbiyalash samaradorligi ko'p jihatdan trenirovka jarayonining oqilona tuzilganligi bilan belgilanadi. Turli yo'nalishdagi mashqlarni bajarishda ma'lum bir ketma-ketlikka amal qilish va ularning ijobiy o'zaro ta'sir etishini ta'minlash juda muhimdir. quyidagi ketma-ketlikka rioya etish maqsadga muvofiqdir:

– avval alaktat-anaerob mashqlar (tezkor va tezkor-kuch), so'ngra anaerob-glikolitik (kuch chidamliligi uchun) mashqlar;

– avval alaktat-anaerob, so'ngra aerob mashqlar (umumiy chidamlilik uchun);

– avval anaerob-glikolitik, keyin aerob mashqlar.

Agar mashqlar ketma-ketligi teskari bo'lsa, tez trenirovka samarasining o'zaro ta'siri salbiy bo'ladi hamda bunday mashg'ulot kam foyda beradi.

#### 7.1.4. Chaqqonlik va uni rivojlantirish uslubiyati

Kurashchining chaqqonligi – bu harakatlarni nazorat qila olish, bellashuvda to‘satdan o‘zgarib turadigan vaziyatda tez hamda aniq yo‘l tutish va tegishli harakatlarni oqilona bajarish qobiliyatidir.

Chaqqonlik deganda sportchining koordinatsion qobiliyatlari yig‘indisi tushuniladi. Shunday qobiliyatlardan biri yangi harakatlarni egallash tezligi, ikkinchisi – to‘satdan o‘zgaradigan vaziyat talablariga muvofiq harakatlarni tez qayta qurish hisoblanadi.

Chaqqonlik sportchini o‘rgatish jarayonida rivojlantiriladi. Buning uchun yangi harakatlarni muntazam egallab borish lozim. Chaqqonlikni rivojlantirish uchun har qanday mashqdan foydalanish mumkin, lekin ularda yangilik elementlari bo‘lishi shart.

Chaqqonlikni rivojlantirishning ikkinchi yo‘li mashqning koordinatsion murakkabligini oshirishdan iborat. Bunday murakkablik harakatlarni yuqori darajada aniq bajarish, ularning o‘zaro muvofiqligi, to‘satdan o‘zgarib turadigan vaziyatga mosligiga bo‘lgan talablarni oshirish bilan aniqlanishi mumkin.

Uchinchi yo‘li – bu nooqilona mushak kuchlanishi bilan kurashish, chunki chaqqonlikni namoyon qilish ko‘p jihatdan mushaklarni zarur hollarda bo‘shashtirish malakasiga bog‘liq.

Kishi koordinatsiyasini rivojlantirishning to‘rtinchi yo‘li – uning gavda muvozanatini ushlab turish qobiliyatini oshirishdir. Bunday qobiliyatni rivojlantirishning bir nechta usullari mavjud:

1) muvozanatni ushlab turishni qiyinlashtiruvchi harakatlardagi mashqlar;

2) akrobatika va gimnastika mashqlari;

3) hamma tekisliklarda boshni tez harakatlantirish yordamida bajariladigan mashqlar.

A.I. Yarotskiy kompleksiga (majmuasiga) beshta mashq kiradi: boshni chapga va o‘ngga burish; boshni oldinga va orqaga egish; boshni yon tomonlarga egish; soat millari bo‘ylab aylanma harakatlar; soat millariga qarshi tomonga aylanma harakatlar. Bu mashqlar tez sur‘atda kuniga uch marta 10 minutgacha bajariladi.

Kurashchi chaqqonligini rivojlantirishning hamma vositalarini ikkita bo‘limga ajratish maqsadga muvofiqdir: umumiy chaqqonlikni rivojlantirish vositalari va maxsus chaqqonlikni rivojlantirish vositalari.

Umumiy chaqqonlikni rivojlantirish vositalari umuman harakatlantirish tajribasi va harakat koordinatsiyasini boyitishga qaratilgan.

Maxsus chaqqonlikni rivojlantirish vositalari kurashchining o'ziga xos maxsus harakatlanish koordinatsiyasini hamda musobaqa faoliyatining favqulotda sharoitlarida o'zining o'z harakatlarini baholay olish va qayta qurish qobiliyatini takomillashtirishga qaratilgan.

### **7.1.5. Egiluvchanlik va uni rivojlantirish uslublari**

Egiluvchanlik – bu kurashchining katta amplitudada harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Egiluvchanlik bo'g'imlardagi harakatchanlik bilan aniqlanadi. U, o'z navbatida, bir qator omillarga bog'liq: bo'g'im sumkalarining tuzilishi, paylar, mushaklar cho'ziluvchanligi va ularning cho'zilish qobiliyati. Bir nechta egiluvchanlik turlari mavjud.

Faol egiluvchanlik – bu shaxsiy mushak kuchlanishlari hisobiga harakatlarni katta amplitudada bajarish qobiliyatidir.

Sust egiluvchanlik – bu tashqi kuchlar: og'irliklar, raqib harakatlari hisobiga harakatlarni katta amplitudada bajarish qobiliyatidir. Sust egiluvchanlik hajmi faol egiluvchanlikning tegishli ko'rsatkichlaridan yuqori.

Dinamik egiluvchanlik – dinamik xususiyatlarga ega mashqlarda namoyon bo'ladigan egiluvchanlikdir.

Statik egiluvchanlik – statik egiluvchanlikka ega mashqlarda namoyon bo'ladigan egiluvchanlikdir.

Umumiy egiluvchanlik – turli yo'nalishlarda eng yirik bo'g'imlarda katta amplituda bilan harakatlarni bajarish qobiliyatidir.

Maxsus egiluvchanlik – kurashchining texnik-taktik xususiyatlarga tegishli bo'g'imlar va yo'nalishlarda harakatlarni katta amplituda bilan bajarish qobiliyatidir. Cho'ziltiruvchi mashqlar: oddiy, prujinali harakatlar, o'zini ushlagan holda siltanishli, tashqi yordam bilan bajariladigan harakatlar egiluvchanlikni rivojlantirishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Bunday mashqlar bilan shug'ullanish paytida bir qator uslubiy shartlarni bajarish lozim:

1) mashqlarni boshlashdan oldin albatta badan qizdirish mashqlarini kiritish;

2) muayyan maqsadlarni oldinga qo'yish, masalan, gavda yoki buyumning ma'lum bir nuqtasiga qo'lni tekkazish;

3) cho'ziltirish mashqlarini ma'lum bir ketma-ketlikda seriyalab bajarish: qo'llar uchun, gavda uchun, oyoqlar uchun;

4) cho‘ziltirish mashqlari seriyalari orasida bo‘shashtirish mashqlarini bajarish;

5) mashqlarni bajarish paytida asta-sekin ularning amplitudasini oshirish;

6) mashqlarni bajarishda shuni hisobga olish lozimki, harakatchanlikni rivojlantirishning eng asosiy uslubi – bu takrorlash uslubi hisoblanadi.

Bir-ikki oyda har kuni ikki marta shug‘ullanuvchilarning alohida qobiliyatlariga qarab 25–50 takrorlashdan iborat me‘yordagi cho‘ziltirishga qaratilgan mashqlardan tashkil topgan mashg‘ulotlar davomida egiluvchanlik ancha o‘sishi mumkin.

### **7.1.6. O‘smir yoshdagi kurashchining jismoniy tayyorgarligi**

O‘smir yoshdagi jismoniy tayyorgarlik to‘g‘ri qaddi-qomatni, harakatlanish malakalarini shakllantirish, har tomonlama jismonan takomillashtirish, kurashda texnik harakatlarni egallash uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

12–14 yoshda tezkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. 15–16 yoshdagi o‘smirlarda kuch rivojlana boshlaydi va tezkorlik-kuch mashqlarini bajarishga qobiliyat namoyon bo‘ladi. 16–18 yoshda ko‘p kuch va tezlik talab etiladigan mashqlar osonroq o‘zlashtiriladi, chidamlilikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. O‘smir kurashchilarni tayyorlashda shularni e‘tiborga olish juda muhimdir.

Chidamlilikni boshqa jismoniy sifatlarni bilan birga rivojlantirish zarur. Professor V.P. Filinning (1980) ta‘kidlashicha, bu yoshda chidamlilikka qaratilgan uzoq vaqt davom etadigan va bir tomonli trenirovka o‘smirlarga xos bo‘lgan tezkorlik nagruzkalariga moslashishni pasaytiradi.

12–15 yoshda kuchni rivojlantirish asosan o‘z massasi og‘irligi, to‘ldirma to‘plar, gantellar, gimnastika tayoqchalari, sherik (turli og‘irlikdagi) bilan hamda turli gimnastika sport anjomlarida mashqlar bajarish yordamida amalga oshirilishi lozim.

16–18 yoshdagi kurashchilarda kuchni rivojlantiruvchi mashqlar sport anjomi og‘irligini oshirish, dastlabki holatni o‘zgartirish, mashq bajarish vaqtini uzaytirish, mashqlar orasidagi dam olish vaqtini kamaytirish hisobiga murakkablashtiriladi.

Yosh o'smirlarning chidamliligini rivojlantirishda ehtiyotkor bo'lish lozim (o'rtacha nagruzkalar, kichik me'yor yoki dam olish uchun tanaffusli o'quv-trenirovka bellashuvlaridan iborat mashqlar). Nagruzkalarga moslashib borgan sari dam olish tanaffuslari qisqartiriladi. Masalan, tik turishda 2x2 kurashida (navbatma-navbat hujumlar va himoyalar) 3 minutlik tanaffus asta-sekin 1 minutgacha qisqartiriladi. Parterda 2x2 bo'lib 1 minut tanaffus bilan navbatma-navbat kurashishda trenirovka vaqtini 3x3 gacha uzaytiriladi. Keyinchalik kurash sur'atini kuchaytirish mumkin. Chidamlilikni rivojlantirish uchun chegaralangan joyda bir tomonlama qarshilik bilan (biri faqat hujum qiladi, ikkichi faqat himoyalanaadi), parterdan yuqori yoki tik turishga chiqish bilan kurash o'tkaziladi. Bu mashqlar qiyin holatlardan chiqib ketish yo'lini topishga o'rgatadi.

Professor V.P. Filin tadqiqotlarining ko'rsatishicha 13 yoshda bo'g'imlarda harakatchanlik yangidan oshadi, 15 yoshda u eng katta hajmga ega bo'ladi, 16–17 yoshda harakatchanlik ko'rsatkichlari kamayadi. Shu sababli o'smirlilik yoshida egiluvchanlik va bo'g'imdagi harakatchanlik mashqlari majburiydir.

12–18 yoshda egiluvchanlik va bo'g'imlardagi harakatchanlik buyumlarsiz hamda kichik og'riqlar bilan (gimnastika tayoqlari, gantellar, to'ldirma to'plar) bajariladigan faol-sust xususiyatiga ega mashqlar orqali yoki asta-sekin harakat amplitudasini kuchaytiruvchi va kengaytiruvchi sherik yordamida rivojlantiriladi. Shuningdek qaddi-qomatni shakllantirish mashqlari kattalarga nisbatan ko'p qo'llaniladi.

Shunday qilib, o'smirlarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligi ko'pgina vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Yosh o'smirlar bilan ko'proq o'yin uslubi qo'llaniladi, mashg'ulotlar turlicha va ehtirosli o'tkaziladi. Hamma mashqlar asosiy mashg'ulot shakli – darsda bajariladi.

O'smir kurashchining jismoniy tayyorgarligini maqsadli amalga oshirish uchun kurashdagi o'quv-trenirovka jarayonida saf (tartibli) mashqlar (saflanish, buyruqlarni bajarish, qadam tashlab va yugurib harakatlanishlar) qo'llaniladi. Ularning maqsadi – kurash mashg'ulotini tashkil etish, to'g'ri qaddi-qomatni shakllantirish, intizom, o'zaro munosabat va tartibni tarbiyalashdir. Saf mashqlari darsning kirish, tayyorlov va yakuniy qismida mashqlarni bajarish uchun guruhlarni tashkil qilish, saflantirish va qayta saflanish uchun, shuningdek nagruzkadan so'ng zo'riqishni bartaraf etish maqsadida bajariladi.

Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar qatoriga oddiy gimnastika (qo'llar, oyoqlar, gavda, og'irliklar bilan, og'irliklarsiz, buyumlar bilan va buyumlarsiz hamda sheriklar bilan) mashqlari va og'ir atletika, eshkak eshish, sport o'yinlari kabi sport turlaridagi ba'zi mashqlar kiradi. Bunday mashqlar kurashchining jismoniy rivojlanishini yaxshilaydi, harakat malakalari zaxirasini kengaytiradi, organizmning funksional imkoniyatlarini oshiradi, ish qobiliyatining tiklanishiga yordam beradi. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar bilan bir vaqtda asab-mushak kuchlanishlari xususiyati va o'smir organizmining ish tartibiga ko'ra o'xshash bo'lgan mashqlarni ko'proq qo'llash zarur. Turli sport turlaridan olingan mashqlar, ularni bajarish xususiyati va shartlariga qarab, jismoniy sifatlarni rivojlantirishda turli pedagogik vazifalarni hal etishga imkon berdi. Asosan kuch, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik va chaqqonlikni tarbiyalashga qaratilgan mashqlarni ajratish qabul qilingan. Og'irliklar bilan (tayoqlar, gantellar, to'ldirma to'plar va h.k.) gimnastika mashqlarini ko'p marta bajarish kuch chidamliligini rivojlantiradi. Ushbu mashqlarni katta tezlikda qisqa vaqt ichida bajarish tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Har bir mashq ma'lum bir sifatni yoki bir guruh sifatlarni rivojlantiradi. Masalan, sherik qarshiligida yoki shtanga bilan bajariladigan mashqlar, o'z og'irligi bilan tortilish hamda qo'llarni bukib-yozish mashqlari kuchni; kesishgan joyda yugurish – chidamlilikni; katta tezlik bilan bajariladigan gimnastika mashqlari, qisqa masofalarga yugurish – kurashda harakat tezligini tarbiyalashga yordam beradi. Basketbol o'yini chaqqonlik, chidamlilik va tezkorlikni kompleks holda tarbiyalashga imkon yaratadi.

Yuqori emotsional qo'zg'alishda katta bo'lmagan shiddat bilan bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi mashqlar organizm ish qobiliyatini, ayniqsa shiddatli mashg'ulotlar o'tkazilgandan so'ng asab tizimini tiklashga yordam beradi. Ular ertalabki badantarbiya vaqtida va trenirovka mashg'ulotlarida darsning birinchi bo'lagida (tayyorlov qismida) hamda asosiy qism oxirida qo'llaniladi. Bundan tashqari, o'rmonda, dalada, daryo bo'yida (suzish, eshkak eshish va to'p o'ynash bilan) jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maxsus mashg'ulotlarni tashkil qilib turish shart.

Kurash mashg'ulotlarida katta jismoniy nagruzkadan so'ng organizmni nisbatan tinch holatga keltirish uchun o'smirlarni

mushaklarni bo'shashtirishga, nafas olishni tinchlantirishga (o'ta bo'shashtirilgan mushaklarni silkitish harakatlari, chuqur nafas olish uchun o'pka qafasini kengaytiruvchi mashqlar va h.k.) qaratilgan mashqlarni mustaqil bajarishga o'rgatish zarur.

Mushaklarni bo'shashtirishga qaratilgan mashqlar hatto bellashuv jarayonida ushlab va zo'riqishdan holi bo'lgan qisqa vaqt ichida kuchning yanada tez tiklanishiga yordam beradi.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun test savollari:**

#### **1. Kurashchining jismoniy tayyorgarligi deganda nimani tushunasiz?**

a. kurashchining jismoniy tayyorgarligi – uning mas'uliyatli musobaqalarga tayyorligi

b. jismoniy tayyorgarlik, ya'ni musobaqa faoliyatini yaxshiroq o'tkazishda yordam beruvchi yoki imkon beruvchi mashqlar va yo'llar hamda ularni qo'llash uslubi

c. kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik va tezlik – jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan jarayon

d. milliy terma jamoa bosh murabbiysining talablarini bajarish.

#### **2. Jismoniy tayyorgarlikning asosiy vazifalarini belgilang.**

a. sportchi organizm tizimining har xil funksional imkoniyatlari va sog'liq darajasini oshirish

b. jismoniy sifatlarini sport kurashi xususiyatlariga maqbul, ularni uzviy birlikda rivojlantirish

c. a

d. a va b.

#### **3. Qaysi mashqlar talabga javob beradigan mashqlar, konditsion mashqlar deb ataladi?**

a. kurashchining yuqori darajadagi sezgirligiga yordam beruvchi mashqlar

b. kurashchining taktik tayyorgarligini rivojlantiruvchi mashqlar

c. parter va tik turgan holatlarda texnik harakatlarni to'g'ri o'rgatishga yordam beruvchi mashqlar

d. talabga javob beradigan, ya'ni konditsion mashqlar – bu kurashchining jismoniy sifatlarini rivojlantirishga va takomillashtirishga qaratilgan mashqlar.

**4. Qaysi mashqlarni kurashchining maxsus tayyorgarlik mashqlari deb ataladi?**

- a. tayyorgarlik davrida qo'llaniladigan mashqlar
- b. jismoniy sifatlarni ko'rsatuvchi o'z ichiga musobaqa mashqlarining tarkibiy qismi yoki unga tavsifi va shakli jihatdan yaqin mashqlar
- c. a va b
- d. kurashchi musobaqa davrida qo'llanadigan mashqlar.

**5. Yordamchi jismoniy tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz?**

- a. maxsus harakat sifatlarini rivojlantirish, katta hajmdagi ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus asosni yaratishga yo'naltirilgan tayyorgarlik
- b. bu tayyorgarlik kurashchiga musobaqada muvaffaqiyatli qatnashishga yordam beradi
- c. bu tayyorgarlik maxsus konditsion mashqlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi
- d. bu tayyorgarlik yillik siklda mashg'ulot vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishda yordam beradi.

**6. Yordamchi jismoniy tayyorgarlik qanday vazifalarni hal qilish uchun kerak?**

- a. texnik, taktik va musobaqa vazifalarini
- b. kurash xususiyatiga ancha yaqin bo'lgan, ko'proq mushak sifatlarini rivojlantirish
- c. kurashchi harakatida qatnashuvchi, mushak guruhlarini tanlab olingan rivojlantirish
- d. b va c.

**7. Yordamchi jismoniy tayyorgarlik(YoJT) tizimida qanday mashqlar qo'llaniladi?**

- a. kurashchi mashg'ulotning boshida qo'llaydigan mashqlar
- b. barcha jismoniy sifatlarni va kurash xususiyatlarini rivojlantirishda yordam beruvchi mashqlar
- c. kurashning texnik usullar imitatsiyasi, maxsus trenajyor moslamalarida mashqlarni bajarish, kurashchilar manekeni bilan ishlash mashqlari
- d. a va b.



**8. Kurashchining maxsus jismoniy tayyorgarligi nimaga yo‘naltirilgan?**

a. kurashchining musobaqa faoliyatida ko‘rinadigan xususiyatlariga qat’iy ravishda javob beruvchi harakat sifatlarini rivojlantirishga

b. kurashchining gilamda maxsus jismoniy tayyorgarlikni bajarishiga

c. sport mahoratini o‘shishiga yordam beruvchi mashqlar tizimi

d. b va c.

**9. MJT jarayonida asosiy vosita sifatida nimadan foydalaniladi?**

a. maneken va og‘irlashtirilgan mashqlar bilan

b. har xil murakkab musobaqa mashqlarini qo‘shib, ularni kurashchi organizmiga ta’sirini kuchaytirish

c. parter va tik turgan holatdagi chidamlilikni rivojlantirish mashqlari

d. a, b va c.

**10. Kurashchi tayyorgarligida kuchning turlari qanday farqlanadi?**

a. umumiy va maxsus, absalyut va nisbiy

b. dinamik, izometrik, tezkor kuch , portlovchi kuch, start kuchi, jadallashuvchi kuch

c. a va b

d. turnikga tortilish kuchi, shtangani ko‘tarish kuchi, sherikni ko‘tara olish kuchi.

**11. “Kurashchining maxsus kuchi” deganda nima tushuniladi?**

a. musobaqa faoliyatida ko‘rinadigan o‘xshash, kurashchining maxsus harakatlarida namoyon bo‘ladigan kuch turi

b. kurashchining yaqqol ustunlik bilan bellashuvda g‘alaba qozona olishi

c. yuqori ish qobiliyati va chegaradagi kuch imkoniyatlari

d. kuchli raqib bilan bellasha olishi.

**12. “Kuch” sifati deganda nima tushuniladi?**

a. kurashchi raqibining qarshiligini yengib o‘tish yoki raqibga mushak kuchlanishi yordamida qarshi harakatlanish qobiliyati

b. tik turgan holatda kurashchining taktik harakatlanish qobiliyati

c. katta kuchlanish bilan kurashchining bilimdonlik bilan bellashuvni o'tkazish qobiliyati

d. katta og'irliklarni ko'tara olish qobiliyati.

**13. "Nisbiy kuch" deganda nima tushuniladi?**

a. bu kurashchi va uning raqib kuchini solishtirish

b. sportchining 1kg vazniga to'g'ri keladigan kuch birligi

c. kurashchining kuch qobiliyatini rivojlantirish uslubiga munosabati

d. texnik usul bilan kuchning solishtirishdagi ko'rsatkichi.

**14. "Tezkor kuch" deganda nima tushuniladi?**

a. katta kuchlanish bilan o'tilgan masofa natijasi

b. tezlikning har bir qismida kuchni o'lchash

c. tezkor kuch mushaklarning tashqi nisbatan katta bo'lmagan qarshilik aniqlanishi bilan harakatni tez bajarishda ko'rinadi

d. a, b va c.

**15. "Portlovchi kuch" deganda nima tushuniladi?**

a. kurashchining keskin start jadallashuvi

b. qisqa vaqt ichida katta amplituda bilan texnik usulni amalga oshirish

c. bellashuvni olib borishda kurashchining "portlash" qobiliyati

d. qisqa vaqt ichida katta kuchlanishni ko'rsatish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

**16. Kurashchining kuch chidamkorligi deganda nima tushuniladi?**

a. uzoq vaqt davomida yukni olib borish qobiliyati

b. uzoq vaqt davomida katta zo'riqish bilan bellashuvni olib borish

c. nisbatan uzoq vaqt davomida mushak kuchlanishini kurashchi tomonidan ko'rsata olish qobiliyati

d. kuchli raqib himoyasini yengib o'ta olish qobiliyati.

**17. Kurashchining kuch sifatini rivojlantirish uchun qanday usullardan foydalaniladi?**

a. kuchlanishni takrorlash usuli

b. qisqa muddatli maksimal kuchlanish usuli

c. og'irlikni oshirib borish, zarbaviy, birgalikda ta'sir etuvchi, variativ(to'lqinsimon), izometrik kuchlanish

d. a, b va c.

**18. Tezlik deganda nima tushuniladi?**

a. qisqa masofani tez yugurib o'tish qobiliyati

- b. texnik usulni tez bajarish qobiliyati
- c. iloji boricha qisqa vaqt ichida alohida harakatlar va texnik usullarni bajara olish qobiliyati
- d. a, b va c.

**19. Tezlikni rivojlantirish uchun qanday usullardan foydalaniladi?**

- a. yengillashtirilgan sharoitlarda mashqlarni bajarish usuli
- b. murakkablashtirilgan sharoitlarda mashqlarni bajarish usuli
- c. yengillashtirilgan sharoitlarda mashqlarni chegaradagi tezlikda alohida harakatlarni bajarish va harakatlarni ko'p marta qaytarish usuli
- d. a, b va c.

**20. "Chidamlilik" deganda nima tushuniladi?**

- a. uzoq vaqt davomida yukni olib borish qobiliyati
- b. uzoq vaqt davomida katta zo'riqish bilan bellashuvni olib borish
- c. bellashuv davomida yuqori sur'at bilan harakatlarni bajarish va musobaqa paytida barcha bellashuvlarni faol o'tkazish qobiliyati
- d. a, b va c.

**21. Chidamlilikni rivojlantirish uchun qanday usullardan foydalaniladi?**

- a. qaytariluvchi mashqlar usuli
- b. bajarilayotgan mashqlar shiddat hajmini oshirish usuli
- c. o'zgaruvchan, oraliq, o'zgaruvchan-oraliq, takroriy usul
- d. b va c.

**22. "Chaqqonlik" deganda nima tushuniladi?**

- a. akrobatik mashqlarni yaxshi bajara olish qobiliyati
- b. gimnastika mashqlari va sport o'yinlari tarkibiy qismlarini yaxshi bajara olish qobiliyati
- c. harakatlarni muvofiqlashtirish, bellashuvda kutilmagan holatda o'zgargan sharoitga aniq va tez javob berish hamda tegishli harakatlarni tejamkorlik bilan bajarish qobiliyati

- d. a, b va c.

**23. "Egiluvchanlik" deganda nima tushuniladi?**

- a. harakatlarni katta amplituda bilan bajara olish qobiliyati
- b. juda pastga egilish, tanani aylantirish
- c. nafis mashqlarni ta'sirli etib bajarish qobiliyati
- d. a va b.

**24. Egiluvchanlikning qanday turlarini bilasiz?**

- a. faol, sust.

- b. dinamik, statik
- c. umumiy, maxsus
- d. a, b va c.

**O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

<b>№</b>	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
1.			*	
2.				*
3.				*
4.		*		
5.	*			
6.				*
7.			*	
8.	*			
9.		*		
10.			*	
11.	*			
12.	*			
13.		*		
14.			*	
15.				*
16.			*	
17.				*
18.			*	
19.				*
20.			*	
21.				*
22.			*	
23.	*			
24.	*			

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

- 1.Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсмена. М., 1988.
- 2.Керимов Ф.А. Кураш тушаман. Т., 1990.
- 8.Кerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Т., 2005.
- 3.Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, 1999.
- 4.Платонов В.П. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Киев, 1997.
- 5.Станков А.Г., Климин В.П., Письменский И.А. Индивидуализация подготовки борцов. М., 1984.
- 6.Шахов Ш.К. Программирование физической подготовки единоборцев. М., 1997.
- 7.Tastanov N.A. Yunon-rim kurashi nazariyasi va uslubiyati. Т., 2014.

## **8-BOB. KURASH TURLARIDA TEXNIK TAYYORGARLIK TO‘G‘RISIDA TUSHUNCHA**

### **8.1. Texnik tayyorgarlik**

#### **8.1.1. Kurashchilar trenirovka jarayonida texnik tayyorgarlik**

Kurashning texnik tayyorgarligi sportchi tomonidan yuqori sport natijalariga erishishni ta‘minlovchi harakatlar tizimining egallaganlik darajasi bilan tavsiflanadi.

Kurashchining umumiy va maxsus texnik tayyorgarligi ajratiladi. Umumiy texnik tayyorgarlik yordamchi sport turlaridagi har xil harakat malakalari hamda ko‘nikmalarini egallashga, maxsus texnik tayyorgarlik sport kurashida texnik mahoratga erishishga qaratilgan.

Sport kurashida texnik tayyorgarlik bir qator murakkab vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan:

- maksimal kuchlanishdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ish kuchlanishini tejash;
- musobaqa faoliyatini o‘zgaruvchan holat sharoitlarida harakatlanish tezligi, aniqligini oshirish.

Sport texnikasini takomillashtirish kurashchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi davomida amalga oshiriladi va u tanlangan kurash turida texnik mahoratni oshirishga qaratiladi.

Texnik mahorat deganda keskin sport kurashi sharoitlarida eng oqilona harakat texnikasini mukammal egallash tushuniladi.

Texnik mahoratni takomillashtirishning uchta bosqichi ajratiladi;

1. Izlanish.

2. Barqarorlashtirish.

3. Moslashishni takomillashtirish.

Birinchi bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining yangi texnikasini shakllantirishga, uni amaliyotda egallash shart-sharoitlarini yaxshilashga, musobaqa harakatlari tizimiga kiruvchi ayrim harakatlarni o‘rganishga (yoki qayta o‘rganishga) qaratilgan.

Ikkinchi bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining butun malakalarini chuqur o‘zlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Uchinchi bosqichda texnik tayyorgarlik shakllangan malakalarni takomillashtirish, ularning asosiy musobaqalar sharoitlariga mos holda maqsadga muvofiq variantlilik, barqarorligi, ishonchliligi chegaralarini kengaytirishga qaratilgan.

Har bir texnik tayyorgarlik bosqichining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Kurash texnikasi asosini tashkil etadigan harakat malakalarining yuqori barqarorligi hamda oqilona variantivligiga erishish, musobaqa sharoitlarida ularning samaradorligini oshirish.

2. Harakat malakalarini qisman qayta qurish, musobaqa faoliyati talablarini hisobga olgan holda usullarning ayrim qismlarini takomillashtirish.

Birinci vazifani hal etish uchun tashqi vaziyatni murakkablashtirish uslubi, organizmning turli holatlarida mashqlarni bajarish uslubi qo'llaniladi. Ikkinchi vazifani hal etish uchun – texnik harakatlarni bajarish sharoitlarini yengillashtirish uslubi, birga (sopryajenny) ta'sir ko'rsatish uslubi qo'llaniladi.

Texnik usullarni bajarishda tashqi vaziyatni murakkablashtirish uslubi quyidagi bir qator usullarda amalga oshiriladi:

1. Shartli raqib qarshiligining uslubiy usuli sportchiga texnik harakatni bajarish tuzilmasi va maromini takomillashtirishga, barqarorlik va natijalilikka tezroq erishishga yordam beradi.

2. Qiyin dastlabki holatlar va tayyorgarlik harakatlarining uslubiy usuli. Masalan, egilab tashlashni takomillashtirishda ushlab olish joyi va kurashchilar o'rtasidagi masofani o'zgartirish lozim.

3. Usullarni bajarish uchun joyni cheklash uslubi malakani takomillash-tirishda mo'ljallangan shartlarini murakablashtirishga yordam beradi. Kurashda, kichraytirilgan o'lchamdagi gilamlar qo'llaniladi.

Texnik harakatlarning bajarilishini qiyinlashtiruvchi sportchi organizmining turli holatlarida mashqlarni bajarish uslubi ham turli xildagi usullarda amalga oshiriladi:

Harakatni ancha toliqqan holda bajarishning uslubiy usuli. Bu holda katta hajm va shiddatdagi jismoniy nagruzkadan keyin sportchiga texnikani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar taklif qilinadi.

Nazorat o'quv-trenirovka bellashuvlari o'tkazilgandan so'ng katta emotsional zo'riqish holatida harakatlarni bajarishning uslubiy usuli.

Vaqti-vaqti bilan ko'rishni ta'qiqlash yoki cheklashishning uslubiy usuli harakatlanish malakasining retseptorli-analizatorli tarkibiga tanlab ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Musobaqa vaziyatida ayrim usullar yoki harakatlarni majburan bajarish usuli malakani takomillashtirish jarayonida kurashchi faolligini

rag'batlantiradi. O'quv-trenirovka bellashuvlarida kurashchi himoyaning texnik usullari, yoki aksincha, hujum usullariga ko'proq diqqatni to'plashga ko'rsatma oladi.

Texnik harakatlarni bajarish shartlarini yengillashtirish uslubi bir qator uslubiy usullardan iborat:

1. Harakat elementini ajratish uslubiy usuli. Masalan, erkin kurashda – beldan yuqori qismdan ushlab olishni amalga oshirish.

2. Mushak zo'riqishini pasaytirish uslubiy usuli kurashchiga harakatlanish malakasidagi ayrim harakatlarga yanada aniq tuzatishlarni kiritishga yordam beradi. Texnik harakatlarni takomillashtirish uchun kurashchiga ancha yengil vazn toifasidagi raqib tanlanadi.

3. Tezkor axborot uslubiy usuli zarur harakat kengligi, maromi, sur'atini tez egallab olishga yordam beradi, bajariladigan harakatni anglash jarayonini faollashtiradi.

Texnik harakat to'g'risidagi tezkor axborot uchun videokamera va videomagnitofondan foydalanish qulaydir.

Birga ta'sir ko'rsatish uslubi sport trenirovkasida o'zaro birgalikda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va harakat malakalarini takomillashtirishga asoslangan uslubiy usullar yordamida amalga oshiriladi. Bu holda usullarni takomillashtirishda kurashchiga ancha og'ir vazn toifasidagi raqib tanlanadi.

### **8.1.2. Texnik harakatlarni amalga oshirishning umumiy asoslari**

Kurash texnikasi – bu musobaqa qoidalarida ruxsat etiladigan usullar, qarshi usullar va himoyalaniqlar yig'indisidir.

Usullar – bu maqsadga yo'naltirilgan hujum harakatlari bo'lib, ular yordamida kurashchi raqibidan ustunlikka erishadi. Har bir usul ikki qismdan iborat. Birinchi qism – usul qo'llash uchun ushlab olish. Ushlab olishlar yuqoridan, pastdan, orqadan, oldindan, yon tomondan va boshqalarga ushlab olishlarga bo'linadi. Ushlash usulni muvaffaqiyatli bajarishda katta ahamiyatga ega. Butun usullarni bajarish sifati ushlab olishning qay darajada oqilona amalga oshirilganligiga bog'liq. Ikkinchi qismda turli xildagi harakatlar: tik turishda – o'tkazishlar, tashlashlar, ag'darishlar; parterda – o'girishlar va parterda tashlashlar bo'lishi mumkin.

Erkin kurash, sambo, dzyudo va kurashda usullarni amalga oshirish paytida bir vaqtning o'zida oyoklar bilan turli harakatlar ham bajariladi,



ya'ni bular – chalishlar, qoqishlar, ilishlar, oldindan ilib otishlar, chirmashlar, orqadan ilib otishlar. Bu harakatlarning ko'pchiligi orqadan, oldindan, yondan, ichkaridan, tashqaridan bajarilishi mumkin.

Bir xildagi ushlab bilan bir qator harakatlarni bajarish mumkin va, aksincha, bir xil harakatning o'zi turli ushlab bilan bajarilishi mumkin. Masalan, qo'ldan va gavdadan ushlab tashlashni, zarba bilan ag'darishni amalga oshirish mumkin. Lekin raqibni egilib qo'l, gavda, qo'l va bo'yindan ushlab tashlash ham mumkin.

Kurashchi har qanday usulni hujum va qarshi hujum uchun qo'llashi mumkin. Usul yoki uning bir qismini aldamchi harakat sifatida qo'llab, kurashchi haqiqiy niyatidan raqib diqqatini chalg'itish va boshqa usul bilan hujumni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni tayyorlashi mumkin.

Qarshi usullar – bu raqib hujumiga javob tariqasida bajariladigan maqsadli harakatlar bo'lib, ular yordamida kurashchi raqibi ustidan ustunlikka erishadi.

Qarshi usullar murakkab texnik harakatlarga kiradi. qarshi hujum uyushtirayotgan kurashchi bir zumda to'g'ri qaror chiqarishi va raqibi usulni amalga oshirishga ulgurmasligi uchun o'z harakatlarini hujum qilayotgan raqib harakatlari bilan aniq moslashtirishi lozim.

Himoyalalanishlar – bu raqibning usullarni (qarshi usullarni) bajarishiga to'sqinlik qiluvchi maqsadli harakatlardir.

Himoyalalanishlar dastlabki va bevosita himoyalalanishlarga ajratiladi. Dastlabki himoyalalanish oldindan, ya'ni raqib usulni amalga oshirishdan avval bajariladi.

Bevosita himoyalalanish raqib hujumini to'xtatishga qaratilgan. Bunday himoyalalanish samaradorligi uning o'z vaqtda bajarilishiga bog'liq. Bevosita himoyalalanish usul boshida, usulni bajarish davomida yoki usulni bajarish oxirida amalga oshirilishi mumkin.

Hamma texnik harakatlar kurashchilar tomonidan turli holatlardan turib bajariladi. Asosiy holatlar quyidagilar: tik turish, parter va ko'prik.

Tik turish – bu kurashchining holati bo'lib, unda u oyoqlarda tik turadi. O'ng, chap va yalpi tik turishlar ajratiladi. Ularning har biri, o'z navbatida, baland, o'rta va past bo'lishi mumkin. Tik turishda kurashish yaqin, o'rta va uzoq masofalarda olib borilishi mumkin.

Parter – bu kurashchining dastlabki holati bo‘lib, u tizzalarida turadi. Bunda tekis yozilgan qo‘llarning kaftlari bilan gilamga tayanib turiladi, qo‘llar tizzalardan 20–25 *sm.* uzoqlikda joylashadi.

Parterda baland holat va past holat farqlanadi. Baland holat – bu kurashchining parterdagi dastlabki holati, past holat esa – bu kurashchining tizzalarda turib, bilaklar bilan gilamga tayanish holatidir.

Parterda kurashish paytida kurashchilardan biri pastda, ikkinchisi yuqorida bo‘ladi. Parterda yuqoridagi holatda turgan kurashchi kurash boshlanishidan oldin istagan dastlabki holatni egallashi mumkin. Faqatgina qo‘l kaftlari pastdagi kurashchining yelkasida turishi lozim.

Ko‘prik – bu kurashchining quyidagi holati bo‘lib, ya‘ni bunda u, orqaga egilib, oyoq kaftlari (ular taxminan yelka kengligida yozilgan) va bosh (istagan qismi) bilan gilamga tayanadi.

Kurashchi ushbu holatga kuragini gilamga tekkizmaslik uchun o‘tadi.

Erkin va yunon-rum kurashida ko‘prik bir holatda qator hujum hamda qarshi hujum harakatlarini bajarishda asosiy eementlardan biri hisoblanadi.

### **8.1.3. Kurashchining texnik mahoratini oshirish yo‘llari**

Kurashchining texnik harakatlari zaxirasi qanchalik boy bo‘lsa, ularni qanchalik katta mahorat bilan qo‘llay bilsa, uning texnik mahorati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Kurash texnikasi kurashchi mahoratining asosi hisoblanadi va ko‘p jihatdan uning imkoniyatlarini belgilab beradi. Kurashda o‘nlab usullar va ularning variantlari mavjud. Biroq bu kurashchi ularning hammasini mukammal bilishi lozim degani emas.

Sportchi yanada yangi va yangi usullar, qarshi usullar hamda himoyalanihlarni egallab borishi bilan uning alohida xususiyatlari va odatlariga javob beradigan hamda uning tomonidan muvaffaqiyatli bajariladigan usullarning bir qismi keyinchalik takomillashtirish maqsadida rejaga kiritiladi.

Kurashchining har tomonlama texnik tayyorgarligi – turli sport turlarini rivojlantirishning zamonaviy darajasiga qo‘yiladigan muhim talablardan biridir. Mustahkam egallash uchun texnik harakatlarni tanlashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

– amaldagi musobaqa qoidalarida qaysi biri texnik harakat muvaffaqiyatli hisoblangan o‘sha texnik harakatlarni egallash;

– texnikaning hamma turlari ichidan sportchining alohida xususiyatlariga eng yaxshi javob beradigan usullar, qarshi usullar va himoyalashlarning variantlarini egallash;

– asosiy raqobatchilarning mahorati xususiyatlarini hisobga olish va ular bilan kurashishda yaxshi natija beradigan texnik harakatlarni tanlash;

– avval o‘rganilgan usullar va qarshi usullarni qo‘llash imkoniyatini kengaytirish mumkin bo‘lgan texnik harakatlarga ko‘proq e‘tibor qaratish;

– kurashchi zaxirasida mavjud bo‘lgan usullar bilan kombinatsiyalar hamda bog‘lanishlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan texnik harakatlarni o‘rganish;

– harakat vazifasini eng oqilona hal etish xususiyatiga ega bo‘lgan harakat texnikasiga o‘rgatish lozim; bu kelgusida qayta o‘rganishdan xolos qiladi;

– kerak bo‘lmagan harakatlar va ortiqcha mushak zo‘riqishini bartaraf etib, texnika asoslari hamda umumiy harakat maromini egallash;

– usullarga o‘rgatish vaqt oraliq‘ida jamlangan bo‘lishi zarur, chunki trenirovka mashg‘ulotlari orasidagi uzoq tanaffuslar uning ta‘sirini pasaytiradi. Boshqa tomondan, bitta trenirovka darsi davomida usullarni juda tez-tez takrorlash maqsadga muvofiq emas, chunki yangi koordinatsiyalarni yaratish asab tizimini tez toliqtiradigan qiyinchilikni yengib o‘tish bilan bog‘liq;

– jismoniy shart-sharoitlar yetarlicha bo‘lmasligi oqibatida yuzaga keladigan texnik holatlarni oldini olish maqsadida harakatlarning dinamik tavsiflariga mos keladigan yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish lozim.

Kurashchining texnik mahoratini oshirish uchun harakatlarni bajarish paytida harakatlanishdagi xatolarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni paydo bo‘lish sabablarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Bunday xatolarni o‘z vaqtida bartaraf etish ko‘p jihatdan texnik takomillashtirish jarayoni samaradorligiga sabab bo‘ladi. Harakatlarga o‘rgatishda yuzaga keladigan hamma harakatlanish xatolari beshta guruhga bo‘linadi: harakatlanish yetishmasligi sababli hatolar; o‘qitishdagi kamchiliklar sababli xatolar; sharoitlarning g‘ayritabiiyligi sababli xatolar hamda kutilmagan xatolar (8-jadval).

Shu bilan birga texnik takomillashtirish jarayonida yuzaga kelgan harakatlanishdagi xatolarni bartaraf etish uchun uslubiy qoidalarni ishlab chiqish zarur.

8-jadval

### Harakatlarga o'rgatishda yuzaga keladigan xatolar tarkibi

Harakatlanishdagi xatolar				
Harakatlarning yetishmasligi sababli	O'qitishdagi kamchilik sababli	Ruhiy gen	Sharoitlarning g'ayritabiiyligi sababli	Kutilmagan
Jismoniy sifatning yetishmasligi	Noto'g'ri bajarish texnikasiga o'rgatish	Qoniqarsiz o'z-o'zini nazorat qilish	Tashqi jismoniy sharoitlar xususiyatlari	O'z-o'zidan ixtiyoriy
Koordinatsiya yetishmasligi	O'qitishdagi uslubiy xatolar	Ruhiy ta'sirlar	Sherik yoki raqib xususiyatlari	Kutilmagan tashqi omillardan kelib chiqqan
Gavda tuzilishi xususiyatlari	Mos bo'lmagan malakani ko'chirish	Ishonchsizlik, xavotirlanish, qo'rquv	Tartibga solish xususiyatlari	Kutilmagan tashqi va ichki omillarning to'g'ri kelishidan paydo bo'lgan
Malakaning qashshoqligi	Malakani qoniqarsiz nazorat qilish	Emotsional zo'riqish va ruhiy toliqish	Ruhiy va harakatlanish ko'rsatmasidagi kamchiliklar	Muntazam bo'lmagan, kelib chiqishi noaniq

### O'z-o'zini tekshirish uchun test savollari

#### 1. Kurashning texnik tayyorgarligiga tavsif bering

a. kurashning texnik tayyorgarligi sportchi tomonidan yuqori sport natijalariga erishishni ta'minlovchi harakatlar tizimining egallaganlik darajasi bilan tavsiflanadi

b. qo‘l va belini ushlab beldan oshirib tashlash usulini o‘rganganlik darajasi bilan tavsiflanadi

c. qo‘l va belini ushlab ko‘krakdan oshirib tashlash usulini o‘rganganlik darajasi bilan tavsiflanadi

d. qo‘lini ikki qo‘l bilan ushlab yelkalardan oshirib tashlash usulini o‘rganganlik darajasi bilan tavsiflanadi.

## **2. Kurashchilarning umumiy va maxsus texnik tayyorgarligi o‘rtasidagi farq nimada?**

a. umumiy texnik tayyorgarlik barcha texnik usullarni bilish, maxsus texnik tayyorgarlik esa faqatgina bir texnik usulni mukammal bilishga qaratilgandir

b. umumiy texnik tayyorgarlik yordamchi sport turlaridagi har xil harakat malakalari hamda ko‘nikmalarini egallashga, maxsus texnik tayyorgarlik sport kurashida texnik mahoratga erishishga qaratilgan

c. umumiy texnik tayyorgarlik umumiy jismoniy tayyorgarlikga bog‘liq holda o‘rganiladi, maxsus texnik tayyorgarlik esa faqatgina bir sifatni yordamida texnik usul amalga oshiriladi

d. umumiy texnik tayyorgarlik psixologik tayyorgarlikga bog‘liq holda o‘rganiladi, maxsus texnik tayyorgarlik esa faqatgina bir psixologik xususiyat yordamida texnik usul amalga oshiriladi.

## **3. Kurashchining texnik mahorati deganda nima tushuniladi?**

a. texnik harakatlarni generalizatsiya darajasiga chiqarganlikda ko‘rinadi

b. texnik harakatlarni kontsentratsiya darajasiga chiqarganlikda ko‘rinadi

c. texnik mahorat deganda keskin sport kurashi sharoitlarida eng oqilona harakat texnikasini mukammal egallash tushuniladi

d. kurashchi bajargan texnik usulni boshqa kurashchi bajara olmasagina texnik mahoratga erishgan bo‘ladi.

## **4. Kurashchi texnik tayyorgarligini rivojlantirishning uchta bosqichini ayting**

a. qidirish, topish, amalga oshirish

b. yugurish, chopib izlash, maqsadga erishish

c. qayta o‘zlashtirish, takomillashtirish, yutuqga erishish

d. izlanish. Barqarorlashtirish. Moslashishni takomillashtirish.

## **5. Kurashchi texnik tayyorgarligining har bir bosqichidagi asosiy vazifalar nimadan iborat?**

a. har bir bosqichda texnik tayyorgarlik musobaqa harakatlarining yangi texnikasini shakllantirishga, yaxshilashga, o'rganishga malakalarini chuqur o'zlashtirish, mustahkamlash, takomillashtirish, maqsadga muvofiq variantlilik, barqarorligi, ishonchlilik chegaralarini kengaytirishga qaratilgan

b. qayta o'zlashtirish, takomillashtirish, yutuqqa erishish

c. texnik harakatlarni generalizatsiya, kontsentratsiya, avtomatizatsiya bosqichlariga chiqarish

d. kurashchi bajaragan texnik usulni boshqa kurashchi bajara olmasagina texnik mahoratga erishish.

#### **6. Kurashchining texnikasi tushunchasiga ta'rif bering.**

a. o'tkazishlar, yiqitishlar, tashlashlar hamda ularning himoyalari

b. musobaqa qoidasi bo'yicha ruxsat etilgan, mazkur harakatlar yordamida kurashchi yutuq ballariga erishish, raqib usulidan himoyalani, qarshi usul qo'llash va kombinatsion harakatlarni amalga oshirish yordamida bellashuvda g'alabaga erishish uchun qo'llanilgan harakatlar bilan ta'riflanadi

c. o'tkazishlar, yiqitishlar, tashlashlar hamda ularning qarshi usullari

d. o'tkazishlar, yiqitishlar, tashlashlar hamda ularning kombinatsiyalari.

#### **7. Kurash texnik usullari tushunchasiga ta'rif bering.**

a. qo'l va bo'ynidan ushlab beldan oshirib tashlash

b. ikki qo'lining bilagidan ushlab beldan oshirib tashlash

c. musobaqa qoidasi bo'yicha ruxsat etilgan, mazkur harakatlar yordamida kurashchi yutuq ballariga erishish harakatlari bilan ta'riflanadi

d. musobaqa qoidasi bo'yicha ruxsat etilgan barcha harakatlar.

#### **8. Himoya tushunchasiga ta'rif bering.**

a. raqib qo'lini ikki qo'l bilan ushlab usul bajarish harakatlariga yo'l bermaslik

b. raqibning qo'l va bo'ynini old-tepadan ushlab vaqtini o'tkazish

c. bellashuv paytida yutuq ballarini saqlab qolish

d. raqibning texnik usullarini amalga oshirmaslikga qaratilgan harakatlar.

#### **9. Qarshi usul tushunchasiga ta'rif bering.**

a. raqibning texnik usullariga qarshi qulay bo'lgan texnik usullar

b. musobaqa qoidasi bo'yicha ruxsat etilgan barcha harakatlar

- c. raqibni tashlash uchun aldamchi harakatlar
- d. musobaqa qoidasi bo'yicha ruxsat etilgan, mazkur harakatlar yordamida kurashchi yutuq ballariga erishish harakatlari bilan ta'riflanadi.

**10. Kombinatsiya tushunchasiga ta'rif bering.**

- a. Musobaqa sharoitida birdaniga to'rtta texnik usulni bajarish
- b. Zanjirsimon bir nechta texnik usullar tizimi bo'lib, bunda har bir texnik usulni amalga oshirish paytida raqibning himoya harakatlari hisobga olingan holda amalga oshiriladigan texnik usullar tizimi
- c. Raqibning texnik usullariga qarshi qulay bo'lgan texnik usullar
- d. Musobaqa qoidasi bo'yicha ruxsat etilgan barcha harakatlar.

**11. Texnik harakatlardagi bog'lam tushunchasiga ta'rif bering.**

- a. Zanjirsimon bir nechta texnik usullar tizimi
- b. Musobaqa qoidasi bo'yicha ruxsat etilgan barcha harakatlar
- c. Tik turgan holatdagi texnik usulga qo'shimcha to'xtamasdan parter holatida texnik usulning bajarilishi
- d. O'tkazishlar, yiqitishlar, tashlashlar.

**12. Texnik harakatlarni egallashda zarur bo'lgan asosiy qoidalarni ko'rsating.**

a. yuqori malakali kurashchilar oqilona texnik-taktik harakatlarni qo'llab, hattoki jismonan kuchli bo'lgan raqibni yengadilar. Ichki va tashqi kuchlar to'g'ri uyg'unlashtirilganda hamda ishga solinganda hujum texnik-taktik harakatlari tuzilmasi tashkil qilinadi

b. ag'darish va o'girish bilan hujum qilishda kuchlar juftligi tayanch reaksiyasi va ishqalanish kuchi bilan hosil bo'ladigan bir faol, boshqa sust kuch bilan yaratiladi, raqibgilamga tegib turgan nuqtalarida joylashgan o'qlar atrofida uning gavdasi o'giriladi

c. kuch berish joyi va yo'nalishi (raqib gavdasining yuqori qismini ushlab olish va ushlab turish yoki uning oyog'idan qoqish) katta ahamiyatga ega. Muhimi shundaki, aynan shu joylar aylanish o'qidan uzoq turishi va to'g'ri burchak ostida turishi lozim. Parterdagi o'girishlarni uzunasiga o'q atrofida bajarish maqsadga muvofiqdir. Hujum harakatlari tuzilmasini qurishda maksimal amplitudali harakatlar ajralib turadigan elementlar harakatlar o'rtasida bog'lanishlarni yaratish lozim

d. texnik harakatlarni egallash; usullar, qarshi usullar va himoyalarning variantlarini egallash; raqib mahorati xususiyatlarini hisobga olish, texnik harakatlar qo'llash imkoniyatini kengaytirish,

kombinatsiyalar hamda bog'lanishlarda qo'llash, harakat vazifasini eng oqilona hal etish, ortiqcha mushak zo'riqishini bartaraf etish, yangi koordinatsiyalarni yaratish, texnik holatlarni oldini olish, dinamik tavsiflariga mos keladigan maxsus jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish lozim.

**13. Harakatlarga o'rgatishda xatolar yuzaga kelishining asosiy sabablarini aytib bering.**

a. harakatlanish yetishmasligi sababli hatolar, o'qitishdagi kamchiliklar sababli xatolar, sharoitlarning g'ayritabiyligi sababli xatolar va kutilmagan xatolar

b. raqibning kuchliligi, sharoitning yoqmasligi, ob-havoning o'zgarishi, dengiz sathidan haddan tashqari yuqori joyda musobaqaning o'tkazilishi

c. raqibni qulay dinamik vaziyat paytida tutib olish maqsadida o'ziga hujum qilish uchun unga imkon berish va maqsadga muvofiq emasligi

d. kurash seksiyasiga 10–12 yoshdan qabul qilish, tayyorgarlikning ko'p yillik bosqichlariga bo'linishi.

**14. Erkin va yunon-rim kurashida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada bir ball beriladi?**

a. tik turgan holatdagi yiqitishlar va tashlashlar uchun, parter holatidagi tashlashlar uchun

b. raqibni parter holatiga o'tkazish, xavfli holatda besh sekund ushlab, gilamdan tashqariga chiqarish, to'liqsiz bajarilgan tashlash va to'ntarishlar uchun

c. qo'pol xatolar uchun

d. qo'l va belidan ushlab beldan oshirib tashlash uchun.

**15. Erkin va yunon-rim kurashida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada ikki ball beriladi?**

a. raqibni parter holatiga o'tkazish

b. xavfli holatda besh sekund ushlab

c. to'liq bajarilgan to'ntarishlar uchun

d. qo'l va belidan ushlab beldan oshirib tashlash uchun.

**16. Erkin va yunon-rim kurashida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada uch ball beriladi?**

a. gilamdan tashqariga chiqarish, to'liqsiz bajarilgan tashlash va to'ntarishlar uchun

b. to'liq bajarilgan to'ntarishlar uchun



- c. raqibni parter holatiga o'tkazish
- d. to'liq bajarilgan yiqitishlar va tashlashlar uchun.

**17. Erkin va yunon-rim kurashida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada besh ball beriladi?**

- a. to'liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan tashlashlar uchun
- b. to'liq bajarilgan yiqitishlar
- c. parter holatidagi to'ntarishlar
- d. gilamdan tashqariga chiqarish, to'liqsiz bajarilgan tashlash va to'ntarishlar uchun.

**18. Kurash sport turida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada chala bahosi beriladi?**

- a. to'liq bajarilgan yonbosh usuli uchun
- b. to'liqsiz bajarilgan texnik usul uchun
- c. to'liq bajarilgan ko'krakdan oshirib tashlash usuli uchun
- d. to'liq bajarilgan yelkadan oshirib tashlash usuli uchun.

**19. Kurash sport turida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada yonbosh bahosi beriladi?**

- a. to'liqsiz bajarilgan texnik usul uchun
- b. to'liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan ko'krakdan oshirib tashlash usuli uchun
- c. to'liq bajarilgan tashlashlar uchun va bunda raqibning gilamga tushish paytida kuraklar bo'yicha o'tkazilgan vizual chiziq  $90^0$  ni tashkil etadigan bo'lsa
- d. to'liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan yonbosh usuli uchun.

**20. Kurash sport turida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada halol bahosi beriladi?**

- a. to'liq bajarilgan tashlashlar uchun va bunda raqibning gilamga tushish paytida kuraklar bo'yicha o'tkazilgan vizual chiziq  $90^0$  ni tashkil etadigan bo'lsa
- b. to'liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan yonbosh usuli uchun
- c. to'liqsiz bajarilgan texnik usul uchun
- d. to'liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan tashlashlar uchun.

**21. Dzyudo sport turida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada yuko bahosi beriladi?**

- a. to'liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan tashlashlar uchun
- b. to'liq bajarilgan tashlashlar uchun va bunda raqibning gilamga tushish paytida kuraklar bo'yicha o'tkazilgan vizual chiziq  $90^0$  ni tashkil etadigan bo'lsa

- c. to‘liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan yonbosh usuli uchun
- d. to‘liqsiz bajarilgan texnik usul uchun.

**22. Dzyudo sport turida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada vazari bahosi beriladi?**

a. to‘liq bajarilgan tashlashlar uchun va bunda raqibning gilamga tushish paytida kuraklar bo‘yicha o‘tkazilgan vizual chiziq  $90^0$  ni tashkil etadigan bo‘lsa

b. to‘liqsiz bajarilgan texnik usul uchun

c. to‘liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan tashlashlar uchun

d. to‘liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan belini ushlab zarb bilan yiqitish usuli uchun.

**23. Dzyudo sport turida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada ippon bahosi beriladi?**

a. to‘liqsiz bajarilgan texnik usul uchun

b. to‘liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan tashlashlar uchun

c. to‘liq bajarilgan tashlashlar uchun va bunda raqibning gilamga tushish paytida kuraklar bo‘yicha o‘tkazilgan vizual chiziq  $90^0$  ni tashkil etadigan bo‘lsa

d. raqibga shido bahosi berilganligi uchun.

**24. Belbog‘li kurash sport turida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada yonbosh bahosi beriladi?**

a. to‘liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan tashlashlar uchun

b. raqibga jazo bahosi berilganligi uchun

c. to‘liq bajarilgan tashlashlar uchun va bunda raqibning gilamga tushish paytida kuraklar bo‘yicha o‘tkazilgan vizual chiziq  $90^0$  ni tashkil etadigan bo‘lsa

d. to‘liqsiz bajarilgan texnik usul uchun.

**25. Kurash va belbog‘li kurash turlarining oldingi nomlari qanday nomlangan?**

a. milliy kurash

b. Samarqandcha kurash usuli va Andijoncha kurash usuli

c. Surxon kurashi va Namangan kurashi

d. Buxoracha kurash usuli va Farg‘onacha kurash usuli.

**26. Belbog‘li kurash sport turida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada halol bahosi beriladi?**

a. to‘liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan tashlashlar uchun

b. raqibga yonbosh bahosi berilganligi uchun

c. raqibga ikki marta jazo bahosi berilganligi uchun

d. to'liqsiz bajarilgan tashlash texnik usuli uchun.

**27. Sambo kurashi sport turida qaysi texnik harakatlar uchun musobaqada to'rt ball beriladi?**

a. to'liq va yuqori amplituda bilan bajarilgan tashlashlar uchun, bunda hujumchi hujumni qabul qiluvchi bilan birgalikda gilamga tushsa; xavfli holatda 20 sekund ushlashni amalga oshirsa

b. og'riq beruvchi texnik usulni bajarganligi uchun

c. to'liqsiz bajarilgan tashlash texnik usuli uchun

d. bellashuvni sust olib borganligi uchun.

**28. Sport kurashi texnikasiga o'rgatishda akademik Pavlov A.I.ning qaysi nazariyasiga asoslanish mumkin?**

a. assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonlari to'g'risidagi nazariya

b. shartli va shartsiz reflekslar to'g'risidagi nazariya

c. fotosintez jarayonlari to'g'risidagi nazariya

d. butun olam gravitatsiyasi to'g'risidagi nazariya.

**29. Ko'p marotaba takrorlash oqibatida kurashchi tomonidan texnik usullarni qanday o'rganganlik stadiyalarda ko'rinishi mumkin?**

a. assimilyatsiya, dissimilyatsiya va gravitatsiyasi stadiyalariga

b. fotosintez, assimilyatsiya va dissimilyatsiya stadiyalariga

c. generalizatsiya, konsentratsiya va avtomatizatsiya stadiyalariga

d. charchash, toliqish, haddan tashqari charchash stadiyalariga.

**30. Erkin va yunon-rim kurash turlarida qanday holatlarda texnik usullarni bajarish mumkin?**

a. o'tirgan holatlarda

b. yugurayotgan holatlarda

c. sakrayotgan holatlarda

d. parter va tik turgan holatlarda.

**31. Kurash sport turida qanday holatlarda texnik usullarni bajarish mumkin?**

a. faqat tik turgan holatlarda

b. parter va tik turgan holatlarda

c. tizzada turgan holatda

d. sakrayotgan holatlarda.

**32. Belbog'li kurash sport turida qanday holatlarda texnik usullarni bajarish mumkin?**

a. egilgan holatlarda

- b. faqat tik turgan holatlarda
- c. o'tirgan holatlarda
- d. parter va tik turgan holatlarda.

**33. Dzyudo kurash turida qanday holatlarda texnik usullarni bajarish mumkin?**

- a. tizzada turgan holatda
- b. faqat tik turgan holatlarda
- c. parter va tik turgan holatlarda
- d. sakrayotgan holatlarda.

**34. Sambo kurash turida qanday holatlarda texnik usullarni bajarish mumkin?**

- a. sakrayotgan holatlarda
- b. tizzada turgan holatda
- c. faqat tik turgan holatlarda
- d. parter va tik turgan holatlarda.

**O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

<b>№</b>	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
1.	*			
2.		*		
3.			*	
4.				*
5.	*			
6.		*		
7.			*	
8.				*
9.	*			
10.		*		
11.			*	
12.				*
13.	*			
14.		*		
15.			*	
16.				*
17.	*			
18.		*		
19.			*	

20.				*
21.				*
22.	*			
23.		*		
24.			*	
25.				*
26.	*			
27.	*			
28.		*		
29.			*	
30.				*
31.	*			
32.		*		
33.			*	
34.				*

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2005.

2. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев, 1999.

3. Петрунев А.А. и др. Подготовка квалифицированных борцов классического стиля. Красноярск, 1988.

4. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Киев, 1997.

5. Современная система спортивной подготовки. Под. ред. Суслова Ф.П. и др. М., 1995.

6. Теоретическая подготовка новых спортсменов. Под. ред. Буйлина Ю.Ф. и др. М., 1981.

## **9-BOB. KURASH TURLARIDA TAKTIK TAYYORGARLIK TO‘G‘RISIDA TUSHUNCHA**

### **9.1. Taktik tayyorgarlik**

#### **9.1.1. Taktik tayyorgarlik maqsadi va vazifalari**

Kurash taktikasi – bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanishdir. Taktik tayyorgarlik sportchilarda taktika sohasidagi zarur bilimlarni egallash, sport kurashini to‘g‘ri olib borishda ma’lum malaka hamda bilimlarni shakllantirish, shuningdek taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan.

Taktik tayyorgarlikning asosiy maqsadi sportchida musobaqada g‘alabaga erishish yoki yuqoriroq natijani ko‘rsatish maqsadida sport bellashuvini to‘g‘ri tashkil qilish hamda olib borish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. Sport taktikasini egallash jarayonida bir qator xususiy vazifalar hal qilinadi. Sportchi:

– musobaqa vaziyatini shunday qabul qilishi va tahlil qilishi lozimki, ushbu vaziyatdan kelib chiqadigan taktik vazifalarni tushuna bilishi hamda qisqa vaqt ichida uni hayolan va harakat bilan hal etishi zarur;

– musobaqada o‘z kuchidan shunday foydalanishi kerakki, raqib ustidan g‘alaba qozonish maqsadida, uni oxirigacha safarbar qila olishi lozim;

– to‘satdan o‘zgarib qolgan vaziyatlarda bellashuv rejasini mustaqil o‘zgartira olishi kerak.

Taktik tayyorgarlikning asosiy vazifalari:

- taktik bilimlarga ega bo‘lish;
- taktik ko‘nikmalarni egallash;
- taktik malakalarga ega bo‘lish.

Taktika vositalariga qat’iy belgilangan harakat tuzilmasi va ularni namoyon qilish uchun zarur jismoniy sifatlar darajasi bilan ifodalanadigan sportchilar harakatlari kiradi.

Kurashda taktika uchta asosiy bo‘limlardan tashkil topadi:

- hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi;
- bellashuvni tuzish taktikasi;
- musobaqalarda qatnashish taktikasi.

Kurashda musobaqa faoliyatining tahlili hujumning ikkita turini aniqlab berdi: oddiy, qachonki hujum darhol asosiy usuldan so'ng boshlanadi, va murakkab, qachonki kurashchi ikkita yoki uchta turli xil harakatlarni qo'llaydi (birinchisi keyingi harakatlar bilan hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatni yaratadi). Ularning ikkalasi to'xtovsiz, bir butun harakat sifatida bajariladi (N.M. Galkovskiy).

Murakkab hujum harakatlarining ikkita turini ajratish qabul qilingan:

– qulay dinamik vaziyatni tayyorlashning maxsus usuli va (u bilan o'zaro bog'liqlikda) hal qiluvchi usulni o'z ichiga oluvchi hujum;

– bir nechta usullardan iborat kombinatsiyali hujum. Ushbu hujum mantiqan bitta, sifat jihatdan yangi tuzilgan usul bo'lib, qulay dinamik vaziyat yaratuvchi boshlang'ich harakatni hamda bu vaziyatdan foydalaniladigan boshqa usulning yakuniy qismini o'z ichiga oladi.

N.M. Galkovskiy (1972) fikricha, kurashda ko'pincha oddiy hujum harakatlari emas, balki murakkablari muvaffaqiyat keltiradi. U o'tkazgan tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, usul tuzilmasidan darhol boshlanadigan to'g'ridan-to'g'ri hujum kamdan-kam maqsadga erishadi. Odatda, qulay dinamik vaziyatni tayyorlash uslubi hamda hujum usuli tuzilmasi yaxlit harakatga, ya'ni harakat ansambliga qo'shib ketadigan hujum harakatlari muvaffaqiyat keltiradi.

Usulni amalga oshirish uchun taktik tayyorgarlik usullarini guruhlariga tasniflashni birinchi bor A.N. Lens (1967) ishlab chiqqan. Tasnifga muvofiq usullar (ular yordamida texnik harakatlarni amalga oshirish uchun qulay bo'lgan sharoitlar yaratiladi) uchta guruhga bo'linadi:

– shunday usullarki, ular yordamida kurashchi o'ziga zarur bo'lgan raqibning himoya reaksiyasiga erishadi (xavf solish, harakatni cheklash, kishanlash, qurshab olish muvozanatdan chiqarish);

– kurashchi uchun foydali bo'lgan raqibning faol reaksiyani ta'minlaydigan usullar (chorlash);

– shunday usullarki, ularni bajarish natijasida raqib kurashchining ma'lum bir harakatlariga yoki e'tibor qilmaydi, yoki bo'sh himoya bilan javob beradi, yoki bo'shshadi (takroriy hujum, qayta chorlash, qo'shaloq aldash va boshq.).

Texnik usullarni amalga oshirish taktik tayyorgarligining hamma usullari nafaqat mustaqil, balki uyg'unlashgan holda qatnashishi mumkin (ya'ni usulni amalga oshirish uchun bir xil bo'lgan qulay

sharoitlar bitta emas, balki bir-birini to'ldirib keladigan bir qancha usullar bilan tayyorlanadi).

Qulay dinamik vaziyat murakkab hujumning birinchi qismi (birinchi usul) bilan yaratilishi mumkin. U kombinatsiya deb ataladi.

Taktik tayyorgarlik usullari guruhlarining tasnifiga muvofiq quyidagi harakatlar ajratiladi:

– birinchi usul, u orqali hujum qiluvchi o'ziga zarur bo'lgan raqibning himoya reaksiyasiga erishadi. Bunday reaksiya hujum harakatini (usulni) amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, hujum qiluvchi yelkasidan oshirib tashlashni amalga oshiradi, raqib, himoyalani b gavdasini to'g'rilaydi, bu bilan qo'lni va shunga mos bo'lgan oyoqni ichkaridan ushlab olib zarba bilan ag'darishni amalga oshirishga yordam beradi;

– usul raqibning faol reaksiyasiga erishish maqsadida amalga oshiriladi, ya'ni: raqib qarshi usul qo'llaydi, undan so'ng hujum qiluvchi ikkinchi usulni amalga oshiradi. Masalan, hujum qiluvchi oyoqni ushlab olib ag'darish, raqib – uzoqdagi sondan teskari ushlab olib ag'darishni amalga oshiradi. Hujum qiluvchi vaziyatdan foydalanib, qo'ldan ushlab oladi va yelkadan oshirib tashlashni bajaradi.

– hujum qiluvchi birinchi usulni amalga oshirish natijasida raqibni shunday holatga solib qo'yadiki, u yoki bu himoya, bo'sh shish bilan javob qaytaradi, yoki javob qaytarmaydi.

Bu kombinatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, ikki usul yaxlit qilib birlashtiriladi va tanaffussiz bajariladi. Masalan, qo'ldan siltab, gilamga tushirish – oldidan qoqish; teskari oyoqni tashqaridan ilib olib, qo'l va gavadani ushlab olgan holda zarba bilan ag'darish – qo'l va gavadani ushlab olib egilib tashlash.

Kurashda ayrim usullarni qo'llash, odatda, doimiy ijobiy samara bermaydi, chunki usulni bajarish uchun ketadigan vaqt raqibga munosib qarshilik ko'rsatish choralari bilan javob kaytarishga imkon beradi.

Murakkab hujum harakatlari bilan muvaffaqiyatli hujum qilish shunga asoslanadiki, raqib kuch berish yo'nalishini o'zgartib bajariladigan dasturlangan murakkab hujum harakatiga 2–3-marta javob qaytarishga majbur va har safar hujum qiluvchining harakatlanish xususiyati hamda yo'nalishini oldindan bilish uchun unga javob qaytarish vaqtidan yutqazadi, chunki unda bitta yoki ikkita reaksiyaning latent davri yuzaga keladi. Birinchisi – yashirincha davr – murakkab



hujumning boshlanish harakatiga javoban, ikkinchisi (latent) – motor davri va murakkab hujum xususiyati hamda yangi yo‘nalishini aniqlashga qaratilgan reaksiyani to‘xtatish, so‘ngra ikkinchi motor davri (odatda kechikuvchan) sodir bo‘ladi. Murakkab hujum harakatining yakuniy (hal etuvchi) harakati hujum qiluvchi harakatining birinchi qismiga bo‘lgan raqib reaksiyasining motor qismi yoki murakkab hujumning ikkinchi qismi kechikkan hollarda hal etuvchi harakatga bo‘lgan raqib reaksiyasining latent davri bilan mos keladi (N.M. Galkovskiy, 1972).

Turli xildagi murakkab harakatlar zamonaviy kurashda mavjud ba’zi adabiyot manbalarida murakkab texnik-taktik harakatlar deb ataladi. Sport kurashida texnika va taktika dialektik birlikni tashkil etadi. Ayrim texnik harakatlar (usullar) taktik usullar bo‘lishi ham mumkin. Bu – hujum, qarshi hujum va himoya harakatlaridir. O‘z navbatida ba’zi taktik harakatlar ma’lum bir texnik harakatlar hisoblanadi (siltab ko‘tarish, dast ko‘tarish).

N.M. Galkovskiy (1971) hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatlarning beshta guruhidan foydalanishni tavsiya etadi:

– qachonki, raqib gavdasi yenga olinadigan muvozanat burchagini ag‘darishning nisbatan tanlangan tomoniga ega bo‘lsa;

– qachonki, raqib UOM tayanch maydoning chetiga harakatlanishi natijasida mustahkamlik burchagi ag‘darish yo‘nalishiga qarab kamaysa;

– qachonki, raqibning UOM tezlik bilan yuqoriga o‘tga (ko‘chsa);

– qachonki, raqib tayanchini osonlikcha bartaraf etish mumkin bo‘lsa;

– qachonki, raqib “o‘lik nuqta” holatida turgan bo‘lsa (uning reaksiyasining latent davri).

Shuningdek, kurashchi o‘z harakatlari bilan turli xil qulay dinamik vaziyatlarni tayyorlay olishi lozim. Raqib holatidagi ahamiyatli bo‘lgan belgilarni (ular yuzaga kelgan vaziyatni tavsiflaydi) qabul qilish va baholashga qaratilgan texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish sport mahoratining shakllanish jarayonini ancha tezlashtiradi (V.D.Mironov, 1975).

A.N. Lens (1972) usulni amalga oshirish taktikasini quyidagi ketma-ketlikda egallashni tavsiya etadi:

– usulni bajarishning taktik shart-sharoitlari bilan tanishish;

– usulni qulay vaziyatlardan bajarish;

– qulay sharoitlarni yaratish usullarini egallash, ularda raqib aldamchi harakatga javoban oldindan belgilangan himoyalani bilan javob qaytarishi lozim;

– texnik harakatning optimal variantini tanlash va muayyan dinamik vaziyatga muvofiq holda uni bajarish tuzilmasiga ayrim o‘zgartirishlarni kiritish.

Asosiy usulni samarali bajarishda tayyorlov harakatlari katta ahamiyatga ega, shuning uchun ular uzviy bog‘liqlikda takomillashtirilishi lozim. Takomillashtirishda asosiy qiyinchilik harakatning bir turidan ikkinchisiga o‘tish fazasida yuzaga keladi (A.A. Novikov, 1966). Mahorat darajasi qancha yuqori bo‘lsa, bunday bog‘liqliklar kam ko‘zga tashlanadi (A.V. Rodionov, 1971).

### **O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari**

#### **1. “Kurash taktikasi” tushunchasini ta’riflab bering.**

a. musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanish

b. razvedka, siqimga olish, chorlash, aldash, ikkitalik aldash, gilam chekkasida bellashuvni olib borish uslublarini rivojlantirish

c. ichki va tashqi razvedkani rivojlantiruvchi omillar

d. yutuqni boy bermaslik uchun har xil bahonalar bilan vaqtni to‘xtatish hisobiga nafasni rostdash va qolgan vaqt davomida himoya qilib yutuqni saqlab qolish.

#### **2. Kurashchi taktik tayyorgarligining asosiy maqsadi qanday?**

a. asosiy raqibga nisbatan barcha imkoniyatlarni ishga solish yordamida munosib qarshilik ko‘rsatish

b. sportchida musobaqada g‘alabaga erishish yoki yuqoriroq natijani ko‘rsatish maqsadida sport bellashuvini to‘g‘ri tashkil qilish hamda olib borish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat

c. bellashuvni yuqori sur‘atda olib borish hisobiga g‘olib bo‘lish

d. absolyut kuchni ishga solish hisobiga raqib ustidan g‘alaba qozonish.

#### **3. Taktik tayyorgarlikning asosiy vazifalarini belgilang.**

a. taktik malakalar evaziga raqib ustidan g‘alabaga erishish

b. taktik bilim evaziga raqib ustidan g‘alabaga erishish

c. taktik bilimlarga ega bo‘lish, taktik ko‘nikmalarni egallash, taktik malakalarga ega bo‘lish

d. taktik ko'nikmalarni egallash evaziga raqib ustidan g'alabaga erishish.

#### **4.Sport taktikasini egallash jarayonidagi vazifalarni belgilang.**

a. bellashuvda trenerning ko'rsatmasisiz, mustaqil ravishda taktik muammolarni hal qilish evaziga raqib ustidan g'alaba qozonish

b. bellashuvda har bir ball uchun shiddatni yuqori cho'qqiga chiqarib, maqsadga erishish

c. kurashchi bellashuvda yengil harakatlar bilan chaqqonlik sifatini qo'llash yordamida munosib qarshilik ko'rsatish

d. musobaqa vaziyatini tahlil qilishi, vaziyatdan kelib chiqqan holda o'z vaqtida tushuna bilishi va texnik harakatlarni to'g'ri qo'llay olish, musobaqada g'alaba qozonish maqsadida o'z kuchini oxirigacha safarbar qila olish, to'satdan o'zgarib qolgan vaziyatlarda bellashuv rejasini mustaqil o'zgartira olishi.

#### **5.Taktika vositalariga nimalar kiradi?**

a. qat'iy belgilangan harakat tuzilmasi va ularni namoyon qilish uchun zarur jismoniy sifatlar darajasi bilan ifodalanadigan kurashchi harakatlari

b. umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik sifatleri

c. texnik va taktik tayyorgarlik harakatlari

d. psixologik tayyorgarlikni baqarorlashtiruvchi omillar.

#### **6.Kurashda taktika nechta asosiy bo'limlardan tashkil topgan?**

a. musobaqada to'rta bellashuvda g'olib bo'lish

b. hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi, bellashuvni tuzish taktikasi, musobaqalarda qatnashish taktikasi

c. bilim berish bo'limi, tarbiya berish bo'limi, sog'lomlashtirish bo'limi

d. umumrivojlantiruvchi bo'lim, maxsus bo'lim, musobaqa bo'limi.

#### **7.Kurashda musobaqa faoliyatining tahlili hujumning nechta turini aniqlab beradi?**

a. salbiy va ijobiy, birinchisida yutqazilgan ballar nisbati, ikkinchisida yutuq ballari

b. yaxshi va yomon, yaxshi hujumda g'alaba, yomon hujumda mag'lubiyat

c. oddiy va murakkab, ularning ikkalasi to'xtovsiz, bir butun harakat sifatida bajariladi

d. tezkor va sekin, tezkor hujumda yutuq ballariga erishish mumkin, sekin hujumda raqibga ballarni xad'ya qilishi mumkin.

### **8. Qachon hujumning oddiy turi aniqlanadi?**

- qo'l va belini ushlab beldan oshirib tashlash paytida
- qo'l va belini ushlab ko'krakdan oshirib tashlash paytida
- asosiy hujum kech boshlansa
- hujum darhol asosiy texnik usuldan boshlansa.

### **9. Qachon hujumning murakkab turi aniqlanadi?**

- kurashchi ikkita yoki uchta turli xil texnik usul harakatlarini qo'llaydi (birinchisi keyingi harakatlar bilan hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatni yaratsa
- texnik usulga himoya, qarshi usul va kombinatsiyalardan keyin
- taktik uslublardan razvedka va siqimga olishdan keyin
- ballar nisbati bo'yicha oldinga chiqqandan keyin himoyaga to'liq o'tib, imkoniyatni boy bermaslik.

### **10. Murakkab hujum harakatlarining nechta turini ajratish mumkin?**

- ikkita. Birinchisi – qo'ldan tortib parterga o'tkazish va ikkinchisi – qo'lini ikki qo'l bilan ushlab beldan oshirib tashlash kombinatsiyasini amalga oshirish
- ikkita. Birinchisi – qulay dinamik vaziyatni tayyorlashning maxsus usuli va hal qiluvchi usulni o'z ichiga oluvchi hujum; ikkinchisi – bir nechta usullardan iborat kombinatsiyali hujum
- uchta. Birinchisi – qo'ldan tortib parterga o'tkazish, ikkinchisi – qo'lini ikki qo'l bilan ushlab beldan oshirib tashlash, uchinchisi – qo'l va belini ushlab ko'krakdan oshirib tashlash kombinatsiyasini amalga oshirish
- uchta. Birinchisi – parterdagi to'ntarishlar, ikkinchisi – parterdagi tashlashlar, uchinchisi – tik turgan holatdagi tashlashlar.

### **11. Usulni amalga oshirish uchun taktik tayyorgarlik usullarini nechta guruhga tasniflash mumkin?**

- uchta. Birinchisi – hujum taktikasi, ikkinchisi – himoya taktikasi, uchinchisi – faol himoyalani taktikasi
- ikkita. Birinchisi – birinchi taqsil yili guruhi, ikkinchisi – ikkinchi taqsil yili guruhi
- uchta. Birinchisi – ular yordamida kurashchi o'ziga zarur bo'lgan raqibning himoya reaksiyasiga erishadi, ikkinchisi – kurashchi uchun foydali bo'lgan raqibning faol reaksiyani ta'minlaydigan usullar,

uchinchisi – ularni bajarish natijasida raqib kurashchining harakatlariga bo'sh himoya bilan javob beradi

d. ikkita. Birinchisi – qulay vaziyat kelguncha kutish guruhi, ikkinchisi – qulay vaziyatning kelishini kutmasdan amalga oshirish guruhlari.

**12. Sport kurashida texnika va taktika qanday birlikni tashkil etadi?**

- a. utopik birlikni
- b. subtropik birlikni
- c. simbilizatsiya birligi
- d. dialektik birlikni.

**13. N.M. Galkovskiy tomonidan hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatlarning nechta guruhidan foydalanish tavsiya etiladi?**

- a. beshta guruhidan foydalanishni
- b. ikkita guruhidan foydalanishni
- c. uchta guruhidan foydalanishni
- d. to'rtta guruhidan foydalanishni.

**14. Raqib UOM (umumiy og'irlik markazi) tayanch maydonining chetiga harakatlanishi natijasida mustahkamlik burchagi ag'darish yo'nalishiga qarab kamaysa nima bo'ladi?**

- a. raqibning ikki kuragi gilamga tekkiziladi
- b. qulay dinamik vaziyatlar yaratiladi
- c. kurashchi texnik yutuq ballariga ega bo'lmaydi
- d. yuqori amplitudaga ega texnik usul amalga oshiriladi.

**15. Raqibning UOM tezlik bilan yuqoriga o'tsa (ko'chsa) nima bo'ladi?**

- a. kurashchi texnik yutuq ballariga ega bo'lmaydi.
- b. yuqori amplitudaga ega texnik usul amalga oshiriladi
- c. qulay dinamik vaziyatlar yaratiladi
- d. raqibning ikki kuragi gilamga tekkiziladi.

**16. A.N. Lents tomonidan usulni amalga oshirish taktikasini qanday ketma-ketlikda egallash tavsiya etiladi?**

a. musobaqaga borish, raqiblar sonini hisobga olish, raqiblar kiyimiga e'tibor berish, ularning sport natijalarini tahlil qilish va boshqalar

b. mashg'ulot jarayonida o'zlashtirilgan taktik fikrlarni aniq amalga oshirish

c. raqibning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda taktik harakatlarni amalga oshirish

d. taktik sharoitlar bilan tanishish, usulni qulay vaziyatlarda bajarish, qulay sharoitlarni yaratish, raqib aldamchi harakatiga javoban oldindan belgilangan himoyalarni bilan javob qaytarish, texnik harakatning optimal variantini tanlash va dinamik vaziyatga muvofiq o'zgartirishlarni kiritish.

### **17. Taktik tayyorlov harakatlari deganda nimani tushunasiz?**

a. texnik usulni amalga oshirishdan oldingi taktik harakatlar

b. himoya harakatlarini amalga oshirishdan oldingi taktik harakatlarni

c. qarshi usulni amalga oshirishdan oldingi taktik harakatlar

d. kombinatsiyani amalga oshirishdan oldingi taktik harakatlar.

### **18. Taktik harakatni takomillashtirishda qaysi fazada asosiy qiyinchilikga duch kelish mumkin?**

a. asosiy qiyinchilikga texnik usulni o'rgatishda uchrash mumkin

b. harakatning bir turidan ikkinchisiga o'tish fazasida

c. asosiy qiyinchilikga taktik usulni o'rgatishda uchrash mumkin

d. asosiy qiyinchilikga taktik usulni bajarishda uchrash mumkin.

### **19. Sh.X. Xankeldiev fikricha taktik harakatning nechta fazasi mavjud?**

a. uchta. Birinchisi – generalizatsiya, ikkinchisi – kontsentratsiya, uchinchisi – avtomatizatsiya

b. ikkita. Birinchisi – taktik harakatni boshlash, ikkinchisi – taktik harakatni yakunlash

c. uchta. Musobaqa situatsiyasini anglash va tahlil qilish, maxsus taktik vazifani xayolan hal qilish, taktik vazifani amaliy hal qilish

d. ikkita. Birinchisi – taktik harakat vazifalarini bajarish, ikkinchisi – taktik harakat uslublarini bajarish.

### **20. Taktik uslub turlarini aniqlang.**

a. umumrivojlantiruvchi, maxsus, o'yin, musobaqa

b. parterda bajariladigan usullar, tik turgan holatda bajariladigan usullar

c. gilam chekkasida bellashuv uslubi, texnik ballar nisbati bo'yicha yutkazayotgandagi bellashuv uslubi

d. razvedka, manevrlash, iskanjaga olish, chorlash, qayta chorlash, qayta hujum, tahdid solish, aldamchi harakat, ikkitalik aldash, usullar kombinatsiyasi.

## 21. Hujum samaradorligi deganda nimani tushunasiz?

- kurashchining baholangan hujum usullarining umumiy hujum usullariga nisbati
- kurashchining baholanmagan hujum usullarining baholangan hujum usullariga nisbati
- raqibning baholangan hujum usullarining umumiy hujum usullariga nisbati
- raqibning baholanmagan hujum usullarining baholangan hujum usullariga nisbati.

### O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollarining kaliti

№	A	B	C	D
1.	*			
2.		*		
3.			*	
4.				*
5.	*			
6.		*		
7.			*	
8.				*
9.	*			
10.		*		
11.			*	
12.				*
13.	*			
14.		*		
15.			*	
16.				*
17.	*			
18.		*		
19.			*	
20.				*
21.	*			

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Алиханов Н.И. Техника и тактика вольной борьбы. М., 1985.
- 2.Галковский Н.М., Керимов Ф.А. Вольная борьба. Т., 1987.
- 3.Ленц А.Н. Тактика в спортивной борьбе. М., 1967.
- 4.Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Киев, 1997.
- 5.Современная система спортивной подготовки. Под.ред. Сулова Ф.П. и др. М., 1995.



## **10-BOB. KURASH TURLARIDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK**

### **10.1. Psixologik tayyorgarlik**

#### **10.1.1. Umumiy psixologik tayyorgarlik**

Psixologik tayyorgarlik deganda psixologik-pedagogik tadbirlar va sportchilar faoliyati hamda hayotiga muvofiq sharoitlar yig'indisi tushuniladi.

Ular kurashchilarda trenirovka va musobaqada qatnashish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlaydigan psixologik funksiyalar, jarayonlar, holatlar va shaxs xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Kurashchining "psixologik tayyorgarligi" tushunchasi ikkita tushunchani o'z ichiga oladi: umumiy psixologik tayyorgarlik va muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarlik.

Umumiy psixologik tayyorgarlik butun sport takomillashuvi jarayoni davomida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik bilan olib boriladi. Uning yordamida quyidagi o'ziga xos vazifalar hal etiladi:

1. Kurashchining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.
2. Sport jamoasi va jamoadagi psixologik muhitni shakllantirish.
3. Iroda sifatlarini tarbiyalash.

4. Ilg'ab olish jarayonlarini rivojlantirish, xususan, "raqibni his qilish", "vaqt va makonni his qilish" kabi ilg'ashning maxsus turlarini takomillashtirish va h.k.

5. Diqqatni, uning mustahkamligi, jamlanishi, taqsimlanishi hamda biridan ikkinchisiga o'tishini rivojlantirish.

6. Taktik fikrlashni rivojlantirish.

7. O'z hayajonlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

#### **Kurashchining axloqiy sifatlarini tarbiyalash**

Kurashchini tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlarni tarbiyalash va texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish bilan yonma-yon shaxs xususiyatlari hamda shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish juda muhimdir. Sportchini o'z ustida ishlashga, madaniyati va tafakkurini oshirishga muntazam yo'naltirib turishi lozim. Trenirovka jarayoni davomida va musobaqalarda shaxsiy sifatlarni shakllantirishga

izchil ta'sir ko'rsatib, jamoa yordamida salbiy holatlarni to'g'ri bartaraf etib borish zarur.

Sport jamoasini shakllantirish. Jamoa orasida yashash yuksak hissiyoti, do'stona munosabatlar, kurashchilarning birdamligi – trenirovka mashg'ulotlari va musobaqalardagi yaxshi psixologik iqlim uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Iroda sifatlarini tarbiyalash. Sportchining iroda sifatлари quyidagi paytlarda, ya'ni iroda harakatlarining maqsad va sabablari sportchining dunyoqarashi, qat'iy e'tiqodlari hamda axloqiy ko'rsatmalari bilan aniqlanganida namoyon bo'ladi. Katta iroda talab qilinadigan o'ta og'ir mashqlar iroda sifatlarini maqsadli tarbiyalashga yordam beradi. Bunda mashqlarni bajarishga bir maqsadni ko'zlab yo'naltirish muhimdir.

Jasurlik va qat'iyatlilikni tarbiyalash uchun mashqlarni bajarish paytida ma'lum darajadagi tavakkalchilik va qo'rquv hissini yengib o'tish bilan bog'liq bo'lgan mashqlardan foydalanish zarur.

Maqsadga yo'nalganlik va qat'iyatlilik kurashchilarda trenirovka jarayoni, kurash texnikasi va taktikasini egallash muhimligi, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish orqali tarbiyalanadi.

O'z sport faoliyatiga qiziqish uyg'otish maqsadida, trenirovka jarayonida yuqori darajada murakkab bo'lgan emotsional mashqlarni qo'llash hamda ularni nazorat qilish foydalidir.

Chidash va o'zini tuta bilish – kurashchining o'ta muhim sifati hisoblanib, bellashuvdan oldin va, ayniqsa, bellashuv jarayonida salbiy emotsional holatlarni (o'ta qo'zg'aluvchanlik va jahldorlik, o'zini yo'qotib qo'yish, tushkunlikni) yengib o'tishda namoyon bo'ladi.

Mashg'ulotlarda bu sifatlarini tarbiyalash uchun kuchli toliqishni yuzaga keltiruvchi va og'riq beruvchi mashqlar kiritiladi. Trenirovkalarda vaziyat to'satdan o'zgaradigan murakab holatlar modellashtiriladi va ularda shunga erishish lozimki, kurashchi shunday sharoitlarda o'zini yo'qotib qo'ymasligi, salbiy hayajonlarini jilovlab o'z harakatlarini boshqara bilishi kerak.

Tashabbuskorlik va intizomlilik trenirovka hamda musobaqa faoliyatidagi ijodiy ishda va faollikda namoyon bo'ladi. Tashabbuskorlik o'quv-trenirovka bellashuvlarida murakkab texnik-taktik harakatlarni amalga oshirish yo'li orqali tarbiyalanadi. Bunda kurashchilarga maqsadga erishish uchun andozadan holi hamda

kutilmagan harakatlarni qo'llagan holda mustaqil qaror chiqarish taklif etiladi.

Intizom o'z majburiyatlarini bajarishga bo'lgan vijdonan munosabatda, tartiblilik hamda ijrochilik sifatlarida aks etadi.

Ilg'ash jarayonlarini rivojlantirish. Kurash bellashuvining har qanday vaziyatlarida harakat qila olish malakasi kurashchining eng muhim sifati hisoblanadi. U ko'p jihatdan raqib harakatlarini vaqt va makonda to'g'ri ilg'ab olishga bog'liq. Buning asosida nozik mushak-harakat sezgilari va harakat koordinatsiyasi yotadi.

Diqqatni rivojlantirish. Kurashchining texnik-taktik harakatlari samaradorligi ko'p jihatdan diqqatning rivojlanganligi: uning hajmi, shiddati, mustahkamligi, taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga o'tishi bilan belgilanadi. Kurashchi raqibning murakkab va tez o'zgaruvchan harakatlari ko'p sonli turli texnik-taktik harakatlarni ilg'ab oladi. Diqqatning bu xususiyati uning hajmi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga kurashchi eng asosiy qismlarga diqqatni jamlashni o'rganishi lozim. Bu diqqatning shiddatiga taalluqlidir, har xil chalg'itishlar va aldanchi omillar ta'siriga qarshi turish malakasi diqqatning mustahkamligidan dalolat beradi. Biroq, kurashda diqqatning eng muhim xususiyatlaridan biri uning taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga o'tishi, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta ob'yektlarni (qo'llar, oyoqlar, gavda harakatlari, raqibning joy o'zgartirish tezligi va h.k.) nazorat qilish hamda diqqatni tez biridan ikkinchisiga o'zgartirish qobiliyati hisoblanadi.

Taktik fikrlashni rivojlantirish. Taktik fikrlash – bu kurashchining raqib bilan oqilona kurashish yo'lini topishga qaratilgan fikrlash jarayonlarining tez maqsadga ko'chishidir.

Taktik fikrlash musobaqa faoliyatining ijodiy xususiyatini belgilaydi va turli murakkab holatlarni modellashtiruvchi musobaqa mashqlari yordamida, shuningdek o'quv-trenirovka bellashuvlarida rivojlantiriladi. Bunda raqibning taktik o'ylanmalarini topish, uning ehtimoldagi harakatlarini oldindan ko'zlay bilish malakasiga murakkab vaziyatda o'zini o'nglash, asosiy vaziyatlarni ajratib, ularni tez va to'g'ri baholash malakasiga kurashchining diqqati qaratiladi. Yuqori malakali kurashchi tez sur'atda oqilona yechimlarni topishi va muayyan musobaqa vaziyati uchun eng samarali texnik-taktik harakatlarni qo'llashni bilishi lozim.

O‘z hayajonlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish. Sportchilarning o‘z hayajonli holatlarini boshqara olish malakasi ko‘p jihatdan ular sport mahoratining oshishiga yordam beradi. Trenirovka yoki musobaqaning ayrim vaziyatlari, lahzalariga pozitiv va salbiy munosabatda bo‘lish hayajonlar bilan birga kechadi. Ular sportchining subyektiv va ob‘yektiv qiyinchiliklarni yengib o‘tishini yengillashtiradi yoki qiyinlashtiradi. Hayajonli holatlar shiddati musobaqalar ahamiyatiga va mas‘uliyatiga bog‘liq.

### **10.1.2. Muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarlik**

Oldinda turgan musobaqaga psixologik tayyorgarlik umumiy psixologik tayyorgarlik asosida tashkil qilinadi va u quyidagi aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1) kurashchilarning oldinda turgan musobaqalar ahamiyatini anglashi;

2) oldinda turgan musobaqalar sharoitlari (o‘tkazish vaqti, joyi) xususiyatlarini o‘rganish;

3) raqibning kuchli va bo‘sh tomonlarini o‘rganish, ularni hamda o‘zining hozirgi paytdagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish;

4) oldinda turgan musobaqalarda g‘alabaga erishish uchun o‘z kuchi va imkoniyatlariga qattiq ishonishni shakllantirish;

5) oldinda turgan musobaqalar tufayli yuzaga kelgan salbiy hayajonlarni yengib o‘tish va tetik emotsional holatni yaratish.

Birinchi to‘rtta vazifalar raqib to‘g‘risida turli, mumkin qadar to‘liq ma‘lumotni to‘plash hamda ishlab chiqish asosida trener tomonidan hal etiladi.

Raqib to‘g‘risidagi hamma ma‘lumotlarni o‘rganib chiqib va uning imkoniyatlarini o‘z sportchisi imkoniyatlari bilan solishtirib, trener oldinda turgan bellashuv rejasini ishlab chiqadi. Uni amalga oshirish o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarida modellashtiriladi hamda batafsil aniqlanadi.

Beshinchi vazifani hal etish uchun quyidagi uslubiy usullardan foydalanish mumkin:

– o‘z-o‘ziga buyruq berish, o‘z-o‘zini ma‘qullash yordamida sportchi tomonidan salbiy hayajonlarni ongli ravishda bostirish ;

- kurashchilarning alohida xususiyatlari va ularning emotsional holatiga qarab, badan qizdirish mashqlari vositalari hamda uslublaridan maqsadli foydalanish;
- autogen va psixologik boshqarish trenirovkasi vositalari hamda uslublaridan foydalanish;

### **10.1.3. Psixologik tayyorgarlik va texnik-taktik mahorat**

Texnik-taktik mahoratni takomillashtirish psixologik tayyorgarlik bilan ajralmasdir. Kurashchining taktik harakati ishonchligi uning emotsional qobig'i va bilish jarayonlari darajasi bilan ta'minlanadi. Texnik-taktik harakatlarga o'rgatish taktik fikrlash, koordinatsiya, tezkorlik, propriotseptiv sezuvchanlikni rivojlantiradi.

Taktik qaror – bu kurashchining fikrlash faoliyati mahsulidir. Kurashchi taktik holat obrazlarini ishlatadi hamda “kelishilgan” va “kelishilmagan” tamoyili bo'yicha qaror qabul qiladi. Psixologik tayyorgarlik umumiy tayyorgarlik tizimida asos bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy tayyorgarlik o'z navbatida takomillashuvning o'ziga xos poydevori, texnik-taktik tayyorgarlik sportchining jismoniy va psixologik imkoniyatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

Tanlashni bilish hamda qabul qilingan qarorni bajarish tezligi kurashchi psixologik tayyorgarligining eng muhim tomoni hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlikda sport bellashuvining turli vaziyatlarida kurashchining to'g'ri bir qarorga kela olish qobiliyatini hisobga olish lozim.

Bunday harakatlarni to'rt xil varianti mavjud va ular bir-biridan farqlanadi.

Birinchi tip – xatti-harakatning qat'iy dasturi bo'yicha harakatlar: bunda sportchi o'z raqibini u muayyan bir usulni bajarayotgan vaqtida “qo'lga tushirish”ni oldindan mo'ljallab qo'yadi. Buning uchun u xuddi o'sha paytning kelishini poylab turadi hamda hujumga o'tish uchun tug'ilgan imkoniyatlarning boshqa variantlarini tan olmay turadi.

Ikkinchi tipdagi sportchilarda dastlabki “model” sifatida bir nechta “oldindan tayyorlangan” taktik harakatlar mavjud bo'ladi. Hujumga o'tish, odatda, “yoki-yoki” tamoyiliga asosan amalga oshiriladi.

Uchinchi tipdagi sportchilarning hatti-harakatlari ancha mulohazali bo'ladi: ular hal qiluvchi yo'lni oldindan o'ylab qo'ymaydilar va yuzaga kelgan vaziyatga, raqib harakatlariga qarab ish tutadilar.

To'rtinchi tipdagi kurashchilarni raqib harakatlariga bog'lanib qolmaslik hamda uning hal etuvchi hujum harakatlari uchun tayyorlangan paytdan tanaffussiz, darhol foydalanib qolish maqsadida o'sha dinamik vaziyatni tayyorlaydigan, ya'ni hujum qilish uchun qulay vaziyatni oldindan amalga oshiradigan harakatlarga o'rgatish zarur bo'ladi.

Shunday qilib, kurashchilarda harakatlarni faollashtirishga qaratilgan psixologik yo'nalishni tarbiyalash zarur. Bu ish hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatni yuzaga keltirish hamda bu vaziyatdan ustunlikka va g'alabaga erishish uchun foydalanish maqsadida amalga oshiriladi. Bellashuv davomida yuzaga keladigan qulay dinamik vaziyatlarni bilish va texnik harakatlarni hamda hujumlarni o'z vaqtida bajarishga tayyor turish psixologik yo'nalishning faqat bir tomonini aks ettiradi, xolos. Yuqori malakali zamonaviy kurashchini tarbiyalash uchun qulay dinamik vaziyatni tayyorlashga va undan foydalanishga psixologik yo'naltirish yaxshi jismoniy hamda texnik tayyorgarlikka tayanish lozim, ya'ni kurashchi butun bellashuv mobaynida to'xtovsiz faol harakatlarga tayyor turishi zarur.

Sportchining oldinda turgan bellashuvni yuqori darajada emotsional kayfiyatda, raqibining kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda to'g'ri hamda o'z vaqtida ruhlana olish qobiliyati g'alaba qozonish uchun katta ahamiyatga ega. Katta ko'tarinki ruh yordamidagina kuchni maksimal ravishda rivojlantirish mumkin.

Sport musobaqalaridagi kuchayib borayotgan raqobatlashish sportchilarning nafaqat jismoniy va texnik tayyorgarligiga, balki mas'uliyatli musobaqalar sharoitlarida o'zlarining emotsional holatini boshqara olishiga ham katta talablar qo'yadi.

Chempionatdagi keskin vaziyat salbiy hayajonlar, musobaqa davomida vujudga keladigan ko'pgina ob'yektiv va subyektiv to'siqlar ba'zi yosh kurashchilar uchun texnik-taktik mahoratni muhim darajada pasaytiruvchi kuchli omilga aylanishi mumkin.

Maxsus tadqiqotlar kurashchilarning musobaqa arafasida va kunidagi emotsional hayajonlanish darajasi, musobaqalardagi emotsional zo'riqishining (qur'a tashlash natijasi, raqib bilan bo'ladigan birinchi bellashuvni kutish va boshq.) o'zgarishini kuzatishga imkon berdi.

Hayajonlanishning ancha oshib borishi kurashchilarda qur'a tashlash natijalarini kutish paytida, uning ancha pasayishi-natijalar e'lon qilingandan so'ng kuzatiladi.

Bu, ayniqsa, musobaqalarning birinchi davrasida kuchsizroq raqib bilan bellashishga to'g'ri kelgan kurashchilarda yaqqol ko'zga tashlangan.

Birinchi davrada asosiy raqiblar bilan uchrashish lozim bo'lgan sportchilarda ham hayajonlanish oshib borgan. Hayajonlanish darajasi psixolog-mutaxassislar tomonidan pulsometriya hamda harakatlanayotgan ob'yektga reaksiya (HOR) ko'rsatkichlari uslublaridan foydalangan holda nazorat qilindi.

Kurashchilarning musobaqalarda qatnashish paytida o'z emotional holatini boshqara olishi salbiy hayajonlarning jangovar ruhga ko'rsatadigan ta'sirini kamaytiradi va yuqori sport natijalariga erishishga imkon yaratadi.

Ko'pgina kuchli kurashchilar o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini ishontirish va ideomotor qarashlardan foydalanib, bellashuvga o'zlarini tayyorlaydilar. Bellashuv oldidan harakat va funksional imkoniyatlarni yaxshilaydigan, hayajonlanish darajasini tartibga soladigan eng muhim vositalardan biri badan qizdirish mashqlaridir.

Bizning yetakchi kurashchilarimiz bir necha juftlikning gilamga chiqishidan oldin o'zi yoqtirgan usullarni ishora orqali bajarishi, o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'ziga buyruq berishdan iborat bo'lgan qisqa vaqtli badan qizdirish mashqlarini o'tkazadi. Oldinda turgan bellashuvlarga shu tariqa tayyorlanib, ular hayajonlanish hissini oshiradilar. Jadal, hayajonli, texnik harakatlarni ishora orqali bajarishdan iborat bo'lgan badan qizdirish mashqlari kurashchining emotsional hayajonlari darajasini ko'taradi.

Uzoq vaqt davom etadigan, lekin kam shiddatli bo'lgan badan qizdirish mashqlari o'z-o'zini ishontirish uslubini qo'llash bilan birgalikda kurashchilarni tinchlantiradi va ularning asab energiyasini saqlaydi. So'z sportchining asab-psixologik holatini yuqori darajada boshqarib turuvchi hisoblanadi. Har bir trener yetarli darajada sportchi holatini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim: raqib bilan bellashishdan oldin sportchi o'ta hayajonlanib ketmaslik maqsadida vaqtdan oldin hayajonlanish yuzaga kelganda uni tinchlantirishi zarur.

Soʻz yordamida taʼsir koʻrsatishning turli uslublari – ishontirish, tushuntirish, uqtirishni qoʻllayotib, kurashchining oliy asab faoliyati tipini hisobga olish lozim.

Fikrlovchi tipdagi sportchilarga mantiqiy tushuntirish koʻproq qoʻl keladi, badiiy tipdagi sportchilarga uqtirish (his qoʻzgʻatish) katta taʼsir koʻrsatadi.

Oʻz-oʻzini boshqarishning psixologik uslublari orasida sport amaliyotida autogen trenirovkaning (AT) turli variantlari hamda yangilangan shakllari – psixologik boshqarish trenirovkasi (RBT), psixologik mushak trenirovkasi (RMT) keng tarqalgan.

Psixologik mushak trenirovkasining oʻziga xos xususiyatlari uni oʻtkazish osonligi hamda yuqori natija berishidan iborat. Bundan tashqari, u koʻp vaqt talab qilmaydi. Amaliyotning koʻrsatishicha, 10 kun (bitta trenirovka yigʻini) davomida sportchilar RTBning tinchlantiruvchi qismini muvaffaqiyatli egallaydilar. Uning asosiy maqsadi – sportchining sezgirligi darajasini pasaytirish, relaksatsiya (boʻshashish), tiklanish va sportchining jismoniy hamda maʼnaviy kuchini saqlab qolishdir. RTB ni faollashtiruvchi (safarbar etuvchi) qismining maqsadi – zarur paytda kurashchining optimal jangovar holatni (gilamga chiqishdan oldin) egallashi va tinchlantirish xususiyatiga ega boʻlgan uyqudan oldin tashkil qilinadigan jamoa bilan alohida suhbatlar, ayniqsa, ular musobaqalar boshlanishidan oldin soʻnggi kunlarda oʻtkazilsa, yaxshi natija beradi. Agar musobaqalarga bevosita tayyorgarlik bosqichida vaqtdan avval ortiqcha hayajonlanishning yuzaga kelishini oldini olishga erishilsa va trenirovkani osoyishta oʻtkazishga sharoit yaratilsa, psixologik jihatdan sportchilarga gʻalaba kafolatlanishi mumkin.

Kurashchilarning psixologik zoʻriqishini qoldirish va psixologik yumshatishda sportchilar kuchi bilan tayyorlangan badiiy havaskorlar konsertlari katta ahamiyat kasb etadi.

Emotsional zoʻriqishni qoldirish va dam olish uchun qarmoq bilan balik ovlash (2–3 kishilik guruhlar boʻlib) yaxshi tinchlantiruvchi vosita boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida aytib oʻtilgan hamma uslublar yaxshi dam olishga va masʼuliyatli musobaqalar oldidan kurashchining shiddatli ishlashi uchun osoyishta sharoit yaratishga yordam beradi. Kurashchiga emotsional holatni oshirish faqat bellashuv oldidangina kerak.



## **O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari**

### **1. Kurashchining psixologik tayyorgarligiga ta’rif bering**

- a. psixologik-pedagogik tadbirlar va sportchilar faoliyati hamda hayotiga muvofiq sharoitlar yig‘indisi tushuniladi
- b. sportchining ruhini tiklash, ma’lum musobaqaga va ma’lum texnik harakatni amalga oshirishda qulay sharoitlar
- c. sportchining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishdagi asosiy omil hisoblanadi
- d. autogen trenirovka va meditatsiya mashqlarini bajarish yordamida kurashchining ruhini tiklash.

### **2. Kurashchining umumiy psixologik tayyorgarligi vazifalarini aytib bering.**

- a. bellashuvni yuqori ruhda o‘tkazish, aniq raqibga nisbatan trener tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish
- b. psixologik funksiyalar, jarayonlar, holatlar va shaxs xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan vazifalar
- c. bilim berish, sog‘lomlashtirish, tarbiya berish vazifalarini hal qilish
- d. trenirovka vazifalarini to‘liq bajarish.

### **3. Kurashchining iroda sifatlariga tavsif bering.**

- a. start oldi emotsional holatlarini barqarorlashtirish
- b. jangovor holat, lixoradka, apatiya va xayojonlanishni barqarlashtirish
- c. kurashchining dunyoqarashi, qat’iy e’tiqodlari hamda axloqiy ko‘rsatmalari bilan aniqlanganida namoyon bo‘ladi
- d. raqibga nisbatan bepisand gilamga chiqish, raqib ustidan to‘liq ustunlikga ega bo‘lish, raqibning ruhini sindirish.

### **4. His qilish uslubiyatini tushuntirib bering.**

- a. teri-mushak sezgirlini rivojlantirish, ichki organizmning holatini nagruzkalarga moslashtirish
- b. autogen trenirovka va meditatsiya mashqlarini bajarish yordamida kurashchining ruhini tiklash
- c. markaziy nerv tizimini o‘rganish oqibatida mavjud kamchiliklarni yo‘qotish uslublarni foydalanish
- d. ilg‘ab olish jarayonlarini rivojlantirish, xususan, “raqibni his qilish”, “vaqt va makonni his qilish” kabi ilg‘ashning maxsus turlarini takomillashtirish va h.k.

### **5. Diqqat uslubi**yatini tushuntirib bering.

a. diqqatni, uning mustahkamligi, jamlanishi, taqsimlanishi hamda biridan ikkinchisiga o'tishini rivojlantirish

b. sharoitni og'irlashtirilgan uslubi yordamida dars o'tish

c. sharoitni yengillashtirish uslubi yordamida dars o'tish

d. teri-mushak sezgirini rivojlantirish, ichki organizmning holatini nagruzkalarga moslashtirish.

### **6. Taktik fikrlash uslubi**yatini tushuntirib bering.

a. shaxmat o'yini yordamida kurashchining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish

b. har xil vaziyatlardan chiqish va uni o'z foydasiga hal qilish yo'llarini mashg'ulotlarda o'rganish bilan tushuntiriladi

c. taktik fikrlashni, uning mustahkamligi, jamlanishi, taqsimlanishi hamda biridan ikkinchisiga o'tishini rivojlantirish

d. autogen trenirovka va meditatsiya mashqlarini bajarish yordamida kurashchining ruhini tiklash.

### **7. Jasurlik va qat'iyatlikni tarbiyalash uchun qanday mashqlarni bajarish zarur?**

a. umumrivojlantiruvchi mashqlar, gimnastika mashqlari egiluvchanlikga yo'naltirilgan "stretching" mashqlari.

b. autogen trenirovka va meditatsiya mashqlarini bajarish, yugurish mashqlar yordamida kurashchining jasurligini tarbiyalash

c. mashqlarni bajarish paytida ma'lum darajadagi tavakkalchilik va qo'rquv hissini yengib o'tish bilan bog'liq bo'lgan mashqlardan foydalanish zarur

d. shashka o'yini yordamida kurashchining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

### **8. Qiziqishni uyg'otish maqsadida qanday mashqlarni qo'llash va nazorat qilish foydali?**

a. faqat trenirovkada texnik usul harakatlari bilan futbol o'yinini o'tkazish foydali

b. markaziy nerv tizimini o'rganish oqibatida mavjud xususiyatlarni hisobga olgan holda mashqlarni o'tkazish foydali

c. kurashchining dunyoqarashi, qat'iy e'tiqodlari hamda axloqiy ko'rsatmalari bilan aniqlanganida namoyon bo'ladi

d. trenirovka jarayonida yuqori darajada murakkab bo'lgan emotsional mashqlarni qo'llash hamda ularni nazorat qilish foydalidir.

## **9. Kurashchining muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarligi vazifalarini ko'rsating.**

a. ahamiyatini anglashi, xususiyatlarini o'rganish, raqibning va o'zining imkoniyatlarini hisobga olish, o'z kuchi va imkoniyatlariga qattiq ishonishni shakllantirish, yuzaga kelgan salbiy hayajonlarni yengib o'tish va tetik emotsional holatni yaratish

b. mashqlarni bajarish paytida ma'lum darajadagi tavakkalchilik va qo'rquv hissini yengib o'tish bilan bog'liq bo'lgan mashqlardan foydalanish

c. katta iroda talab qilinadigan o'ta og'ir mashqlar iroda sifatlarini maqsadli tarbiyalashga yordam beradi va bunda maqsadni ko'zlab yo'naltirish

d. qat'iy reglamentlashtirilgan tamoyil yordamida olib boriladigan umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish.

## **10. Tayyorgarlikning umumiy tizimida kurashchining psixologik tayyorgarligi qanday o'rin egallaydi?**

a. butun sport takomillashuvi jarayoni davomida musobaqa faoliyati modelidagi tarmoqlarni o'z ichiga oladi

b. butun sport takomillashuvi jarayoni davomida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik bilan olib boriladi

c. butun sport takomillashuvi jarayoni davomida organizm imkoniyatlari modelidagi tarmoqlarni o'z ichiga oladi

d. butun sport takomillashuvi jarayoni davomida tezkor-kuch tayyorgarligi modelidagi tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

## **11. Sport amaliyotida o'z-o'zini boshqarishning qanday psixologik uslublari qo'llaniladi?**

a. yerdan kuch olish mashqlari, sezgirlikni rivojlantirish mashqlari, irodani rivojlantiruvchi mashqlar, uzoq masofaga yugurish

b. beriladigan nagruzkalarning yuqori shiddatiga oxirigacha chidash, beriladigan og'irlikni 100–110% li yukni ko'tarishda oxirigacha chidash

c. autogen trenirovka (AT) va uning turli variantlari, psixologik boshqarish trenirovkasi (RBT), psixologik mushak trenirovkasi (RMT), meditatsiya

d. barcha sport takomillashuvi jarayoni davomida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik bilan olib borish uslubi.

## **12. Irodani tarbiyalashning qanday uslubiyatlari mavjud?**

a. trenirovka jarayonida yuqori darajada murakkab bo'lgan emotsional mashqlarni qo'llash hamda ularni nazorat qilish foydalidir

b. irodani, uning mustahkamligi, jamlanishi, taqsimlanishi hamda biridan ikkinchisiga o'tishini rivojlantirish

c. stimulyatorlar, akkumulyatorlar, farmakologik vositalar va doridarmon uslublari

d. katta iroda talab qilinadigan o'ta og'ir mashqlar iroda sifatlarini maqsadli tarbiyalashga yordam beradi va bunda maqsadni ko'zlab yo'naltirish.

### **13. Chidash va o'zini tuta bilish qachon namoyon bo'ladi?**

a. mashg'ulotlarda va musobaqalarda, bellashuvdan oldin va bellashuv jarayonida salbiy emotsional holatlarni yengib o'tishda namoyon bo'ladi

b. uyalish holatida, kulish holatida, quvonish holatida, yig'lash holatida

c. do'stlar bilan xazillashish paytida, saboq olish jarayonida, bellashuv jarayonida

d. qisqa masofaga yugurishda, texnik usullarni tezkor bajarish paytida.

### **14. Chidashni va o'zini tuta bilishni tarbiyalashda qanday mashqlar beriladi?**

a. qisqa masofaga yugurish, texnik usullarni tezkor bajarish, bellashuvning birinchi minutlarida kerak bo'lgan razvedka uchun mashqlar

b. kuchli toliqishni yuzaga keltiruvchi va og'riq beruvchi mashqlar kiritiladi

c. o'rta masofaga yugurish, turnikda tortilish, qo'llarni tiralib tirsak bo'g'inlarini bukish va yozish mashqlari

d. ko'prik holatiga turish, ko'prik holatida shtanga ko'tarish, shtangani yelkaga qo'yib o'tirib turish mashqlari.

### **15. Tashabbuskorlik va intizomlilik qachon namoyon bo'ladi?**

a. apatiya holatida

b. lixoradka holatida

c. trenirovka va musobaqa faoliyatidagi ijodiy ishda hamda faollikda namoyon bo'ladi

d. hayajonlanish holatida.

### **16. Ilg'ash jarayonining asosini nima tashkil etadi?**

a. ko'z bilan ko'rish

b. qo‘l bilan ushlab sezish (palpatsiya)

c. quloq bilan eshitish

d. mushak-harakat sezgilari va harakat koordinatsiyasi.

**17. Diqqatning rivojlanganligi nima bilan belgilanadi?**

a. hajmi, shiddati, mustahkamligi, taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga o‘tishi bilan belgilanadi

b. yaxshi tinglay olishlik

c. yaxshi ko‘ra olishlik

d. yaxshi eshita olishlik.

**18. Kurashchi nimaga diqqatni jamlashni o‘rganishi lozim?**

a. bellashuv paytida texnik usulni amalga oshirishga

b. raqibning va o‘zining texnik va taktik harakatlardagi eng asosiy qismlariga jamlashni o‘rganishi lozim

c. bellashuv paytida jismoniy sifatlarini namoyon qilishga

d. bellashuv paytida raqibni gilamdan surib chiqarib yuborishga.

**19. O‘z hayajonlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda nimaga e‘tiborni qaratish kerak?**

a. raqibning jismoniy tayyorgarligidagi kamchiliklarga va taktik uslublariga e‘tiborni qaratish kerak

b. raqibning texnik tayyorgarligidagi kamchiliklarga va taktik uslublariga e‘tiborni qaratish kerak

c. trenirovka yoki musobaqaning vaziyatlarini, lahzalariga subyektiv va ob‘yektiv qiyinchiliklarga e‘tiborni qaratish kerak

d. raqibning maxsus jismoniy tayyorgarligidagi kamchiliklarga va taktik uslublariga e‘tiborni qaratish kerak.

**20. Hayajonli holatlar shiddati nimalarga bog‘liq?**

a. raqibning tana relefiga va albatta kavkazlik ekanligiga

b. raqibning mashhurligiga va televidenie orqali reklama roliklarida ko‘p chiqishiga

c. kurashchi o‘zining jismoniy imkoniyatlarini kam deb xisolashiga

d. raqiblarning malakasiga va mavjud ayrim kurashchi uchun noqulay texnik usullar arsenaliga, musobaqalar ahamiyatiga va mas‘uliyatiga.

**21. Kurashchining taktik harakat ishonchliligi uning qanday jarayonlari darajasi bilan ta‘minlanadi?**

a. emotsional qobig‘i va bilish jarayonlari darajasi bilan ta‘minlanadi

b. texnik usul harakatlarini ko'p marotaba qaytarishi bilan ta'minlanadi

c. jismoniy tayyorgarlik sifatlarining barchasini maksimal darajada rivojlantirilishi bilan ta'minlanadi

d. taktik fikr yuritib, puxta ishlab chiqarilgan taktik harakatlar bilan ta'minlanadi.

## **22. Taktik qaror nima?**

a. tojli texnik usul(koronka)ni qo'llash

b. bu kurashchining fikrlash faoliyati mahsulidir

c. raqibga jarohat yetkazish xavfini ko'rsatish yordamida texnik usulni bajarish

d. bellashuvdan oldin raqibga zo'rovonlik ko'rsatish.

## **23. Qanday tezlik psixologik tayyorgarligining eng muhim tomoni hisoblanadi?**

a. jismoniy tayyorgarlikda tanadagi mushaklarning ishlash tezligi

b. latent davridagi tezlik

c. tanlashni bilish hamda qabul qilingan qarorni bajarish tezligi

d. 100 metrga yugurishdagi tezlik.

## **24. Psixologik tayyorgarlikda sport bellashuvining turli vaziyatlarida kurashchining to'g'ri bir qarorga kela olish qobiliyati nechta tipga ajratiladi?**

a. ikkita tipga b. uchta tipga

c. beshta tipga d. to'rtta tipga.

## **25. Ancha mulohazali xatti-harakatlar qaysi tipga kiradi?**

a. uchinchi tipga b. ikkinchi tipga

c. beshinchi tipga d. to'rtinchi tipga.

## **26. Dastlabki "model" sifatida bir nechta "oldindan tayyorlangan" taktik harakatlar qaysi tipga kiradi?**

a. beshinchi tipga b. ikkinchi tipga

c. to'rtinchi tipga d. uchinchi tipga.

## **27. Raqib harakatlariga bog'lanib qolmaslik va hujum qilish uchun qulay vaziyatni oldindan amalga oshiradigan harakatlarga o'rgatish qaysi tipga kiradi?**

a. ikkinchi tipga b. to'rtinchi tipga

c. uchinchi tipga d. beshinchi tipga.

## **28. Hatti-harakatning qat'iy dasturi bo'yicha harakatlar qaysi tipga kiradi?**

a. to'rtinchi tipga b. ikkinchi tipga

c. birinchi tipga d. uchinchi tipga.

**29. Temperament turlarini ko'rsating.**

- a. xolerik, sangvinnik, pingvinnik, flegmatik
- b. xolerik, sangvinnik, flegmatik, matematik
- c. sangvinnik, xolerik, molyarik, melanxolik
- d. xolerik, sangvinnik, flegmatik, melanxolik.

**30. Start oldi emotsional holatlarini ko'rsating.**

- a. jangovor, apatiya, hayajon, lixoradka
- b. jangovor, apatiya, lopatiya, lixoradka
- c. jangari, apatiya, lixoradka, separatka
- d. jangovor, jangari, jangchi, ovchi.

**31. Kurashchini tayyorlashda ma'naviy, ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning ahamiyatini ko'rsating.**

a. texnik, taktik, jismoniy tayyorgarligini rivojlantiradi, sport natijalarini ko'tarilishiga 60% yordam beradi

b. kurashchini ham o'zi uchun, ham jamiyat uchun salbiy ta'sir etuvchi omillardan saqlaydi, mas'uliyatli musobaqalarda Vatan sharafini himoya qilish va vatanparvarlik his-tuyg'ularining oshirilishi sport natijasini ko'tarishga yordam beradi

c. kurashchilar musobaqalarda o'zini boshqalardan ustun ekanligini ko'rsatish uchun ahamiyatli

d. kurashchilar musobaqalarda faqat o'zini va o'zining oilasini o'ylab gilamga chiqishida ahamiyatli.

**32. Psixologik charchashni oldini olish tadbirlarini ko'rsating.**

- a. dori-darmonlardan foydalanish
- b. tiklantiruvchi massaj olish
- c. faol dam olish, madaniy hordiq, xobbi bilan shug'ullanish, tinchlantiruvchi vositalardan foydalanish
- d. detektiv filmlar ko'rish.

**O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

<b>№</b>	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
1.	*			
2.		*		
3.			*	
4.				*
5.	*			
6.		*		
7.			*	

8.				*
9.	*			
10.		*		
11.			*	
12.				*
13.	*			
14.		*		
15.			*	
16.				*
17.	*			
18.		*		
19.			*	
20.				*
21.	*			
22.		*		
23.			*	
24.				*
25.	*			
26.		*		
27.		*		
28.			*	
29.				*
30.	*			
31.		*		
32.			*	

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Вяткин Б.А. Управление психическим стрессом в спортивных соревнованиях. М., 1998.
2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T., 2001.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2005.
4. Кретти Б.Д. Психология в современном спорте. М., 1978.
5. Найдиффер Р.М. Психология соревнующегося спортсмена. М., 1979.
6. Родионов А.В. Психодиагностика спортивных способностей. М., 1973.
7. Родионов А.В. Психофизическая тренировка. М., 1995.
8. Уэйнберг Р.С., Гоулд Д. Основа психологии спорта и физической культуре. Киев, 1998.



## **11-BOB. KURASH TURLARI BO‘YICHA BITIRUV MALAKAVIY ISHINING TASHKILIIY-USLUBIY ASOSLARI**

### **11.1. Sport kurashida tadqiqot uslublari**

#### **11.1.1. Tadqiqot uslublarning umumiy tavsifi**

Sportdagi dolzarb muammolarni muvaffaqiyatli hal etish ko‘p jihatdan zamonaviy tadqiqot uslublari to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. Bunday uslublarning ichida pedagogik uslublarning muhim o‘rin egallaydi, shuningdek tibbiy-biologik, psixologik, ijtimoiy va boshqa tadqiqot uslublari keng qo‘llaniladi.

Trenirovka uslubiyatini takomillashtirishda trenerlar va ilmiy xodimlarning yutuqlari ko‘p jihatdan sportchilarning yirik halqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishiga yordam berdi. Bunda sportchilarning musobaqalarga tayyorgarligi va qatnashishi davrida amalga oshirilgan kompleks tadqiqotlar jarayonida olingan qimmatbaho ilmiy ma‘lumotlar katta ahamiyat kasb etdi.

Sportning dolzarb muammolarini o‘rganishda quyidagi turdagi tadqiqotlar qo‘llaniladi: nazariy, amaliy (pedagogik tajribani yo‘lga qo‘yish, hodisalarni trenirovka yoki musobaqa faoliyatining tabiiy sharoitlarida o‘rganishni o‘z ichiga oladi) va laboratoriya tajribalari. Ulardan kompleks holda foydalanish ko‘pgina tadqiqotlar uchun xosdir. Bunda ulardan biri yetakchi o‘rinni egallaydi. Tadqiqot dasturiga qaysi uslublarni kiritish maqsadga muvofiq ekanligini aniqlashda quyidagi shartlarga rioya etish lozim: tadqiq qilinayotgan hodisa tabiatini chuqur va har tomonlama o‘rganish; tadqiqot maqsadi, vazifalari, farazini aniq ifodalash; tadqiqotchining ushbu sohasidagi bilim darajasining yetarli bo‘lishi; tadqiqot xodimlarining texnik jihozlanganligi; tadqiqot guruhining moddiy imkoniyatlari; tadqiqot vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa shartlar.

Tadqiqot uslublarni egallash va sportda ulardan oqilona foydalanish o‘quv-trenirovka jarayonini boshqarishga to‘g‘ri yondashish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari sport kurashida taraqqiyot asosi hisoblanadi.

Oldinda turgan tadqiqotlarga kirishayotib, FILA Prezidenti M.Ertseganning maslahatini yodga olish lozim: “Biz shunday davrga kirdikki, har bir fanda ilmiy tadqiqotlar natijalari qo‘llanilishi zarur, emperizm tarixda qoldi va kurashga ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslangan yangicha yondashish kerak.

Ilmiy izlanishlarni yaxshi tashkil etish va ilmiy natijalarni kurash mutaxassislarini tayyorlash amaliyotiga tatbiq etish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratish lozim”.

### **11.1.2. Tadqiqot uslublari**

Kurashchini o‘qitish va trenirovka qildirish nazariyasi hamda uslubiyati vazifalarini hal etish uchun quyidagi tadqiqot uslublarini samaraliroq deb hisoblash mumkin:

Pedagogik tajriba (tabiiy, modeli, laboratoriya).

Bevosita qayd qilish uslublari: a) pedagogik kuzatishlar; b) xronometriya va xronografiya; v) texnik harakatlarning stenografiyasi va magnitofon tasmasiga yozish; g) nazorat sinovlari, nazorat mashqlari uslubi; d) qayd qilishning instrumental uslublari (turli xil apparaturalar yordamida) bilan bir qatorda kino, video va fotosuratga olish, polidinometriya, tenzometriya va kurash ixtisosligiga javob beradigan boshqa qayd qilish uslublari; e) sportchi mahoratining asosiy tomonlari hamda organizmi tizimi ko‘rsatkichlarini qayd qilish uchun kompleks stendlar.

Adabiyot manbalarini tahlil qilish.

Anketa savol-javoblari va boshq.

Tadqiqot uslublarini tanlash birinchi navbatda ishning muayyan vazifasi hamda mavzuni butunligicha hal etishning maqsadga muvofiqligi bilan aniqlanadi.

Tajriba guruhlarida o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish uslublari uchta turda bo‘ladi:

1) tajriba uslubi, bunda o‘quv-tarbiya jarayoniga qandaydir yangi pedagogik omillar ularning ta’sir etish samaradorligini o‘rganish maqsadida kiritiladi; 2) nazorat uslubi, bunda o‘quv-tarbiya ishlarining umumiy qabul qilingan shakllari va mazmuniga tajriba uslubi bilan taqqoslash mezoni sifatida amal qilinadi; 3) individual uslub, bunda o‘quv-tarbiya jarayoni shaxsiy rejaga muvofiq tadqiqotni aralash-tirmagan holda pedagog tomonidan amalga oshiriladi.

Birinchi ikkita uslub tajriba guruhlarida qiyosiy tajribani o‘tkazishda bir-biri bilan qo‘shilib keladi. Tajriba uslubi nazorat uslubisiz qo‘llanilishi mumkin. Nazorat uslubi tajriba uslubisiz hech qanday ma’noga ega bo‘lmaydi, shuning uchun alohida qo‘llanilmaydi.

Individual uslub mavjud pedagogik jarayonni unga bevosita aralashmay turib o‘rganish zarur bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi.

Kundalik ma'lumotlarni tanlab olish uslubi turli xil – oddiy ko'z bilan kuzatib tahlil qilish va baholashdan tortib to zamonaviy qayd qiluvchi elektron moslamalarni qo'llashdan iborat bo'lishi mumkin. Ushbu uslublarning doimiy guruhlarini yaratishga bo'lgan har qanday urinish samarasiz yakunlanishi mumkin, chunki ularning turlari muntazam o'zgarib boradi.

Retrospektiv axborot olish usublari adabiyot manbalarini tahlil qilish va retrospektiv voqealarining anketa savol-javobini o'z ichiga oladi.

Matematik ishlab chiqish usublari juda har xil: umumiy qabul qilingan statistik parametrlar bo'yicha farqlar ishonchlilikini belgilashning oddiy uslublaridan tortib to omillar tahlili kabi murakkab uslublar. qanday uslubni tanlash – bu tadqiqotning muayyan vazifalariga bog'liqdir.

Tadqiqot uslublarini tanlash birinchi navbatda ilmiy ishning muayyan vazifalari bilan belgilanadi. Ularning rejalashtirilayotgan tadqiqot muvaffaqiyati uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida I.P.Pavlov shunday deydi: "Uslub – eng birinchi, asosiy narsa. Butun tadqiqot jiddiyligi uslubga, harakat usuliga bog'liq. Hamma gap yaxshi uslubda. Yaxshi uslubda uncha iqtidorli bo'lmagan kishi ham ko'p ish qilishi mumkin. Yomon uslubda esa yuksak zakovatli kishi ham bekorga ishlaydi va qimmatbaho, aniq ma'lumotlar ololmaydi".

### **11.1.3. Tadqiqot uslublariga umumiy talablar**

U yoki bu tadqiqot uslublarini har bir muayyan holda ularning maqsadga muvofiqligiga mos ravishda qo'llash lozim. Shuning uchun u yoki bu uslubning yaroqliligini aniqlashda ba'zi umumiy talablar to'g'risida gapirish mumkin, xolos.

*1-chi talab.* Uslub birga keladigan omillar ta'siriga bo'lga ma'lum bir mustahkamlikka ega bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, uslub bevosita vujudga keladigan omillarning emas, balki faqat tajriba omili ta'siridan kelib chiqadigan sinaluvchilar holatini aks ettirishi lozim.

*2-chi talab.* Uslub o'rganilayotgan hodisalarga nisbatan ma'lum bir tanlanish xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, u o'rganilayotgan hodisaga muvofiq bo'lishi hamda, natijada, tadqiqot vazifasiga binoan aks ettirishi lozim bo'lgan narsani aks ettirishi zarur.

*3-chi talab.* Uslub hajmga ega bo'lishi lozim, ya'ni maksimal darajada ma'lumot berishi kerak. Uslubning yetarlicha hajmda bo'lishi

hodisani haqiqiy holatini ta'riflashga imkoniyat beradigan hajmda ma'lumot olishga imkon yaratadi. Uslubning katta hajmi uning birga keladigan omillar ta'siriga yanada mustahkamroq qiladi.

*4-chi talab.* Uslub qayta amalga oshirilish imkoniyatiga (ishonchlilikka), ya'ni quyidagi hollarda o'xshash natijalarni berish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim: a) bir sinovchining o'zi tomonidan bir shug'ullanuvchining o'zini ko'p marta tadqiq qilish; bitta sinovchining o'zi tomonidan turli, lekin o'xshash shug'ullanuvchilar guruhlarida tadqiqotlarni o'tkazish; b) turli sinovchilar tomonidan lekin, bir shug'ullanuvchilarning o'zi bilan tadqiqotlar olib borish.

*5-chi talab.* Agar tadqiqot o'z mohiyatiga ko'ra pedagogik tajribani qo'llashga ruxsat etsa, u ilmiy ishga kiritilishi lozim. I.P. Pavlov tadqiqotning kuzatishga nisbatan afzalligi to'g'risida shunday yozgan: "Kuzatish tabiat unga taqdim etgan narsalarni to'playdi, tajriba esa tabiatdan o'zi hohlagan narsani oladi".

*6-chi talab.* Maqsadga muvofiq holda bitta emas, balki bir nechta tadqiqot uslubini qo'llash lozim. Bunda, agar tadqiqot vazifalari talab etsa, fiziologik uslublar bilan birga psixologik tahlil uslublaridan foydalanish zarur. Uslublarning kompleks holda qo'llanilishi hodisani har tomonlama va yanada holisona o'rganishga imkon beradi.

*7-chi talab.* Sinovchi asosiy materialni yig'ishdan oldin tadqiqot uslublarini mukammal egallagan bo'lishi shart.

*8-chi talab.* Har bir yangi uslub, uning samaradorligini aniqlash maqsadida, aprotatsiyadan o'tishi lozim.

*9-chi talab.* Har qanday tadqiqot uslubi olinadigan ma'lumotlarni qayd qilish uchun hujjatlarni ishlab chiqishdan iborat sharoitlarni oldindan puxta tashkil qilishni taqozo etadi.

*10-chi talab.* Takroriy tadqiqotlarda uslublarni qo'llashning o'xshash sharoitlarini yaratish lozim.

Tadqiqot uslublarini tanlashda yuqorida aytilgan uslublarga rioya qilish olingan ma'lumotlarni ob'yektivlashtirish asosini yaratadi va tadqiqot natijalari ishonchliligini oshiradi.

#### **11.1.4. Modelli tajriba**

Model – bu hodisani ma'lum bir, sun'iy tashkil qilingan sharoitlarda qayta amalga oshirishdir. Modelli tajribada tadqiqot uslublarining katta kompleksini (instrumental uslublarni qo'shgan holda)

bir vaqtning o'zida qo'llash, shu orqali aniqlangan qonuniyatni katta anqlik bilan hamda qismlarga bo'lib ochib berish imkoniyati mavjud.

Modelning muhim belgilari bo'lib ko'rgazmalilik, ilmiy va ijodiy fantaziya elementi, o'xshashlikni amaliy haqqoniyat bilan qo'llash hisoblanadi. Modelni tajriba ishida qo'llash davomida uning ayrim tomonlariga shakl beriladi. Tajribaning boshlang'ich variantiga tuzatishlar kiritiladi. Variant xuddi ikkinchisi, uchinchisi va h.k. ning modeliga aylanadi. Oxir-oqibat modeli tadqiqotlar variantlari sportchi tayyorgarligining u yoki bu tomoniga lokal, ta'sir ko'rsatuvchi trenirovka uslubi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### **11.1.5. Laboratoriya tajribasi**

Laboratoriya tajribasi sinaluvchilarni tashqi muhit omillari ta'siridan chetlashtirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni qat'iy andozaga solish bilan tavsiflanadi.

Laboratoriya tajribasi asosan qandaydir jarayon asosida yotgan chuqur fiziologik mexanizmlarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Laboratoriya tajribasini o'tkazishda hamma shartlarga puxta amal qilish talab etiladi.

#### **11.1. 6. Tabiiy tajriba**

Tabiiy tajriba tadqiqochi uchun mashg'ulotlar sharoitlarini bir oz o'zgartirish zarur bo'lgan paytda o'tkaziladi. Sinaluvchilar odatda bunday o'zgarishlarni sezmaydilar. Tabiiy tajribaga sport kurashi bo'yicha quyidagi mashg'ulotlarni eng oddiy misol tariqasida ko'rsatish mumkin, ya'ni bunda o'qituvchilar yangi trenirovka vositalari va uslublari kompleksining shug'ullanuvchilar organizmiga ta'sir ko'rsatishini tekshiradilar. Mazkur kompleks oddiy dastur muammolari kompleksiga kiritilgan holda o'rganiladi.

Guruhlarni jamlash shakliga ko'ra pedagogik tajribalarning ikkita asosiy tipini ajratish mumkin. Birinchi tipga faqat tajriba guruhi mavjud bo'lgan va nazorat guruhi bo'lmagan yoki uning borligi nazarda tutilmagan tip taalluqli, ikkinchisiga bitta yoki bir nechta nazorat va tajriba guruhlari mavjud bo'lgan tip kiradi.

Tajriba sinaluvchilarning undagi ishtiroki darajasiga qarab ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin.

### **11.1.7. Bevosita qayd qilish uslublari**

Pedagogik kuzatishlar. Treirovkalarda bajariladigan nagruzkani nazorat qilish quyidagicha aniqlanadi: muayyan ishning sof vaqti shiddat (shu shiddatda ish bajariladi) ballariga ko'paytiriladi. Shiddat yurak qisqarish tezligi bo'yicha aniqlanadi (15-bobga qarang) Ishning hamma bo'laklari yig'indisi (shartli birliklarda) qaysidir bir mashg'ulotning umumiy nagruzkasini tavsiflaydi.

Sport kurashida texnik-taktik mahoratni nazorat qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan ramziy belgilardan foydalaniladi.

Ramziy belgilar yordamida kurashchilar bellashuvda bajargan hamma texnik harakatlarni qayd qilish, har bir sportchi biladigan usullar soni va sifatini aniqlash, qanday usullar turli vazn toifasidagi kurashchilar orasida eng keng tarqalganligini belgilash, asosiy raqiblarning texnik mahorati rivojlanishi yo'nalishini aniqlash, bajarilgan usullarning (soni va sifatiga qarab) bellashuv davrlari bo'yicha taqsimlanishini belgilash mumkin.

Mutaxassilarning fikricha, kino va videoyozuv bayonnomalar bilan amalga oshiriladigan pedagogik kuzatishlarni o'rni bosa olmaydi. Shuning uchun kurashchilar uslubiyatini takomillashtirishga intilish zarur, xususan bitta hodisani oldindan tayyorlangan bir nechta shaxslar bilan kuzatishni tashkil etish lozim.

### **11.1.8. Anketa so'rovi**

Anketa savol-javob shunday usullar guruhiga taalluqliki, u sotsiologiya, pedagogika va psixologiyada so'rovnoma deb ataladi. Bu guruhga, anketa so'rovidan tashqari, intervyu va suhbatlashish kiradi. Ushbu hamma uslublar bitta yetakchi xususiyatga ega: ular yordamida tadqiqotchi so'raluvchilarning (respondentlar) og'zaki ma'lumotlarida mavjud axborotlarni oladi.

Tadqiqotning boshqa uslublariga qaraganda, so'rov samaradorligi ikkita narsaga bog'liq: birinchidan, respondent berilgan savollarga javob berishni hohlaydimi va javob beradimi, hamda, ikkinchidan, u bu savollarga javob bera oladimi.

Anketa so'rovi – bu respondentlarning andozalashtirilgan anketa savollari tizimiga bergan yozma javoblaridan axborot olish uslubidir.

Intervyu – tadqiqotchi tomonidan og'zaki beriladigan savollar tizimiga respondentlarning og'zaki javob berish yo'li bilan axborot olish uslubidir.

Suhbatlashish – tadqiqotchining qiziqtirgan masalalar bo‘yicha ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama muhokama qilish yo‘li bilan axborot olish uslubidir.

Anketa so‘rovi jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatida eng ko‘p tarqalgan uslublardan hisoblanadi.

Anketa kirish, asosiy va demografik qismdan iborat bo‘lishi lozim. Anketaning kirish qismi respondentlarga o‘ziga xos murojaatdan iborat bo‘lib, unda: 1) mazkur tadqiqot mavzusini olib borayotgan ilmiy muassasa hamda tadqiqotchi kimning nomidan ishtirok etayotganligi; 2) tadqiqot vazifalari; ushbu vazifalarni hal etishning nazariy va amaliy ahamiyati; 3) oldinga qo‘yilgan vazifalarni hal etishda har bir respondentning vazifasi; 4) respondent javoblarining to‘liq sir tutilishiga ishonch bildirilishi tadqiqot ma‘lumotlari hamda nashrda so‘raluvchining ismi ko‘rsatilmashligi lozim; 5) anketani to‘ldirish qoidalari; 6) agar respondent istasa, tadqiqot natijalarining unga etkazilishiga ishonirish; 7) anketani tadqiqotchiga qaytarib berish usuli ko‘rsatiladi.

Asosiy qism savollar to‘plamidan tashkil topadi, ularga berilgan javoblar tadqiqotchi vazifalarini hal etishga qaratilgan.

Respondent ruhiyatini hisobga olib, sotsiologlar asosiy qismning uch pog‘onali shaklini ishlab chiqqanlar: savollarning uchdan bir qismi respondentlarni qiziqtirish hamda ishga jalb qilishga mo‘ljallangan. Bu qismdagi savollar nisbatan oddiy va ko‘p jihatdan faktlar, voqealarga taalluqlidir. Savollarning ikkinchi qismi tadqiqotning asosiy vazifalarini hal etishga qaratilgan holda, odatda: sabablar va baholashga taalluqli bo‘ladi. Oxirgi uchdan bir qismida avvalgi pog‘onalardan olingan savollarni, shuningdek respondentning alohida javobini talab etgan nazorat va yashirin savollarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilarning ko‘rsatishicha, yashirin savollarga respondentlar anketa oxirida to‘g‘riroq javob beradilar.

Anketaning demografik qismi respondentning pasport ma‘lumotlarini aniqlovchi savollardan tashkil topadi. Olimlar uzoq tortishuvlar natijasida shunday fikrga keldilarki, anketaning demografik qismi uning oxirida joylashgan bo‘lishi lozim.

### **11.1.9. Matematik statistika uslubi**

O‘rtacha arifmetik o‘lchamni hisoblash. O‘rtacha arifmetik o‘lcham qator bir xildagi ko‘rsatkichlarning son qiymatlarini

umumlashtiruvchi hosila hisoblanadi. Ma'lum bir yig'indini\_bitta son bilan ifodalayotib, u go'yoki tasodifiy alohida og'ishlar ta'sirini yumshatadi hamda umumlashtirilgan son tavsiflariga e'tibor qaratib, o'rganilayotgan ko'rsatkichlar qatorining eng tipik xossalarini aniqlaydi.

O'rtacha arifmetik o'lcham hamma olingan qiymatlarni (ular variantlar deb ataladi) ko'paytirish va yig'indini variantlar soniga bo'lishi yo'li orqali hisoblanadi.

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n}$$

O'rtacha arifmetik o'lcham o'rganilayotgan hodisalar guruhlarini butunligicha taqqoslash va baholashga imkon beradi. Biroq hodisalar guruhini tavsiflash uchun faqat bu o'lcham kamlik qiladi, chunki variantlarning tebranish o'lchovi (o'lchov ana shu variantlardan tashkil topadi) turli xil bo'lishi mumkin. Shuning uchun hodisalar guruhlari tavsifiga shunday ko'rsatkich kiritish lozimki, bu ko'rsatkich variantlar tebranishi o'lchami to'g'risida ularning o'рта o'lchami atrofida tasavvur hosil qilishi lozim.

O'rtacha kvadratlar og'ishmasi – bu statistik parametr bo'lib, u standart og'ishma yoki oddiy standart deb ataladi. O'rtacha kvadratlar og'ishmasi o'lchami tarqalish ko'rsatkichi, ya'ni tadqiqotda olingan variantlarning ularning o'rtacha o'lchamidan og'ishi hisoblanadi hamda hodisalar guruhlari tavsifini to'ldirishga xizmat qiladi.

Ushbu ko'rsatkich quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum (x - \bar{x})^2}{n - 1}}$$

O'rtacha arifmetik o'lchamning o'rtacha hatosini hisoblash (variatsiya). O'rtacha arifmetik o'lchamning o'rtacha xatosining shartli belgisi –  $V$ . Shuni yodda tutish lozimki, statistikada "hato" deganda tadqiqot xatosi emas, balki ushbu o'lchamni ko'rsatish miqdori, ya'ni shunday miqdorki, u bo'yicha yig'indidan olingan o'rtacha arifmetik o'lcham bosh yig'indi asosida olingan haqiqiy arifmetik o'lchamdan farq qiladi. Bunda agar 20%gacha bo'lgan ko'rsatgich qayd etilsa, demak solishtirishdagi guruhlar bir hil emasligi nazarda tutiladi.

$$V = \frac{\sigma}{\bar{x}} \times 100\%$$



Styudentning t-hisoblash mezonini bo'yicha ikki guruhning ko'rsatkichlari orasidagi solishtirish darajasi aniqlanadi. U quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$n=n_1=n_2; \sigma_1 \neq \sigma_2 \text{ Erkin darajali son } v=2n-2$$

$$t_{xisob} = \frac{|\bar{X}_1 - \bar{X}_2|}{\sqrt{\sigma_1^2 + \sigma_2^2}} \cdot \sqrt{n}$$

$$n_1 \neq n_2; \sigma_1 \neq \sigma_2 \text{ } v=n_1+n_2-2$$

$$t_{xisob} = \frac{(\bar{X}_1 - \bar{X}_2)}{\sqrt{\frac{\sigma_1^2}{n_1} + \frac{\sigma_2^2}{n_2}}}$$

$$n_1 \neq n_2; \sigma_1 = \sigma_2 = \sigma \text{ } v=n_1+n_2-2$$

$$t_{xisob} = \frac{|\bar{X}_1 - \bar{X}_2|}{\sigma \cdot \sqrt{\frac{1}{n_1} + \frac{1}{n_2}}}$$

### 9-jadval. Styudentning t-mezoni bo'yicha ahamiyatlilik darajasi

Erkin darajali son $v$	Ahamiyatlilik darajasi $\alpha$		
	0,05	0,01	0,001
1	12,71	63,66	-
2	4,30	9,92	31,60
3	3,18	5,84	12,92
4	2,78	4,60	8,61
5	2,57	4,03	6,87
6	2,45	3,71	5,96
7	2,37	3,50	5,41
8	2,31	3,36	5,04
9	2,26	3,25	4,78
10	2,23	3,17	4,59
20	2,09	2,85	3,85
30	2,04	2,75	3,65
60	2,00	2,66	3,46

Bunda ko'rsatgichlar quyidagicha belgilanadi:

agar,  $P > 0,05$  – farqlanmaydi (95%dan kam ishonchlilik);  $P < 0,05$  – kichik farq mavjud (95%dan yuqori ishonchlilik);  $P > 0,01$  – o'rtacha farq mavjud (99%dan kam ishonchlilik);  $P < 0,01$  – sezilarli darajada farqlanadi (99%dan yuqori ishonchlilik);  $P > 0,001$  – yuqori darajada farqlanadi (99,9%dan kam ishonchlilik);  $P < 0,001$  – juda yuqori darajada farqlanadi (99,9%dan yuqori ishonchlilik).

Yuqorida keltirilgan bir qator tadqiqot uslublari sport kurashi bo'yicha ixtisoslashadigan talabalar ilmiy tayyorgarligining muhim qismi hisoblanadi. Bu o'rinda shuni ta'diklash joizki, "tadqiqot usuliyati" va "tadqiqot uslublari" tushunchalari o'rtasida farq bor.

Tadqiqot uslubiyati – bu o'ziga xos dastur, umuman tadqiqot rejasi, o'rganilayotgan muammoning u yoki bu mavzusini har tomonlama oldindan ishlab chiqish natijasidir.

Har qanday muayyan tadqiqot bir qator bosqichlar ko'rinishida berilishi mumkin. Bosqichlarning bog'liqligi, ularning shartli ketma-ketligi tadqiqotni tashkil etish sxemasida aks ettirilishi mumkin.

Tuzilma quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Adabiyotlar va amaliyotni tahlil qilish – mavzu tanlash – vazifalarni aniqlash – farazni ishlab chiqish – tadqiqot rejasi – sinaluvchilarni tanlash – tadqiqot uslublarni tanlash – yordamchilarni tayyorlash – hujjatlarni tayyorlab qo'yish – sharoitlarni yaratish – materialni tanlash – materialni ishlab chiqish – natijalarni rasmiylashtirish – amaliyotga tatbiq etish.

Har bir bosqich o'zining, nisbatan mustaqil vazifalariga ega. Ular doim ketma-ketlikda, ba'zida esa bir vaqtning o'zida hal qilinadi.

## **11.2. Kurash turlari bo'yicha bakalavr yo'nalishidagi bitiruv malakaviy ishi to'g'risida tushuncha**

Bitiruv malakaviy ish (BMI) – bakalavriyat yo'nalishidagi talabaning ilmiy-tajriba ishi hisoblanadi. BMI bakalavriyatning ikkinchi bosqichidan boshlanib, bitiruvchining Yakuniy Davlat Attestatsiyasida himoya qilinishi bilan yakunlanuvchi ishdir. BMIning mavzusi talaba va uning ilmiy rahbari birgalashib quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tanlagan muammolar doirasida yoziladi. BMI – kirish, I-II-III boblar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

## ***BMIni bajarishning maqsad va vazifalari***

### ***BMIni bajarish maqsadi:***

- ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, ijtimoiy bilimlarni muayyan ilmiy, amaliy, pedagogik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqarish vazifalarini hal etishda qo'llash;

- ijodiy ishlash, ishlab chiqarilayotgan masalaning (muammoning) qo'yilishi jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga yetkazish bo'yicha qaror qabul qilishga bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish;

- zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiy, texnika, jismoniy tarbiya va sportni rivojlanishi talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlash.

### **BMIning vazifalari:**

- mavjud muammolar yuzasidan tajriba, tadqiqotlar o'tkazish zarurligini asoslash;

- metodologiya va usullarini tanlash, axborot yig'ish va uni qayta ishlash;

- tajriba, tadqiqotning mantiqiy o'ylangan rejasini va o'tkazilgan tahliliy tajriba, tadqiqot natijalarini izchil asoslab bayon etish va xulosa chiqarish.

## ***BMIlarning mavzusi***

BMilar mavzusi muammoning zamonaviy holatini, ishlab chiqarish, texnika, fan, ta'lim, jismoniy tarbiya va sportning istiqbolli rivojlanirishni aks ettirishi kerak (2-ilova).

BMilar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan har o'quv yilining 20 sentyabr kunigacha belgilanadi va fakultetning ilmiy kengashida, so'ngra institutning ilmiy-uslubiy hamda ilmiy kengashlarida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.

Talabalarga BMIlarning mavzusini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabalarining o'qishi uchun to'lov-kontrakt to'lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan BMilar mavzusi bo'yicha o'z mavzularini taklif etishlari mumkin.

BMI mavzusi rahbarning talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

BMI rahbari, ishning mavzusiga muvofiq talabaga BMlga tegishli materiallarni to'plash bo'yicha topshiriq beradi. Topshiriqning shakli

va bajarish nazorati o'quv bo'limi tomonidan nazorat qilib boriladi. Topshiriqni bajarish shakli Davlat Attestatsiya Komissiyasiga taqdim etiladi.

### ***BMI ni bajarishga rahbarlik qilish***

BMI larga rahbarlik kafedraning ixtisoslik yo'nalishi bo'yicha professor-o'qituvchilari yoki boshqa muassasa va tashkilotlarning yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

BMI rahbari:

- topshiriqlar beradi;
- BMI ning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan mavzu bo'yicha muntazam suhbatlar va yaxlitligicha himoyaga tavsiya etadi;
- talaba bajargan BMI ning sifati va muallifiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki ko'chirmakashlikka yo'l qo'ymaydi.

Milliy va xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası – mutaxassis chiqaruvchi kafedra hisoblanib, BMI larni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqadi va talabalarni ta'minlaydi.

BMI berilgan topshiriqlar asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi. BMI – Davlat tilida va rus tilida bajarilishi mumkin. Kafedraning tavsiyasiga binoan BMI chet tillarning birida bajarilishi ham mumkin. Chet tilida bajarilgan ishga davlat yoki rus tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

### ***BMI ning bajarilishi***

BMI korxonada va muassasalarda, boshqaruv organlarida, jismoniy tarbiya sport jamoalarida, ilmiy laboratoriyalarida bajarilishi mumkin.

BMI ning bajarilishi bo'yicha talaba va ilmiy rahbarning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat qiladi. Dekanat belgilangan muddatlarda talaba BMI ning bajarilishi to'g'risida ilmiy rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi, kafedra mudiri BMI ning holati uchun mas'ul hisoblanadi.

### ***BMIning tuzilishi va mazmuni***

BMIlar tuzilishining eng asosiy tamoyili materialni aniq va izchil bayon etishdir. Boblar mazmunan tugallangan va ko'zda tutilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

#### ***BMIning tarkibiy tuzilishi quyidagicha beriladi:***

- BMIning titul varag'i;
- BMI mundariyasi;
- kirish;
- BMIning asosiy qismi ( I-II-III boblar, paragraflar);
- xulosa (rezyume, tavsiya va takliflar);
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (bibliografik tartibda);
- ilovalar.

BMI o'z mazmuniga ko'ra dolzarb amaliy va nazariy masalalarni hal qilishni ta'minlaydigan mustaqil ilmiy tadqiqot hisoblanadi.

**Titul varag'i** BMIning birinchi beti hisoblanadi va qat'iy qoidalar asosida to'ldiriladi (1-ilova).

Titul varag'idan keyin mundarija joylashtiriladi. Mundarijada kirish, I-II-III boblar, paragraflar va BMIning barcha boshqa qismlari asosiy matndagi sarlavhalar bet raqamlaridan **boshqacha shaklda, izchillikda yoki qisqartirib berilishi mumkin emas**. Mundarijadagi sarlavhalar asosiy matndagi sarlavhalar bilan bir xilda bo'lishi shart.

#### ***BMIning kirish qismida:***

– Davlat siyosatidagi huquqiy va demokratik jamiyat qurish yo'nalishi;

– Respublika Prezidenti va Hukumat tomonidan “Jismoniy tarbiya va sport” sohasidagi Qonunlar, farmoyishlar va nizomlar to'g'risida;

– yunon-rim kurash turining O'zbekiston sportidagi tutgan o'rni;

– har bir kurash turining bugungi kundagi muammolari;

– mavzuning dolzarbligini asoslash;

– tadqiqotning maqsadi;

– tadqiqotning ob'yekti va predmeti;

– tadqiqotning farazi;

#### ***Birinchi bobda:***

– muammo bo'yicha ilmiy-nazariy risolalar tahlilidan kelib chiqqan holda fikrlar to'plash;

– mavzuning umumiy nazariy masalalari;

– tatqiqot obyektida mavjud kamchiliklarni yo‘qotishga qaratilgan takliflari va tavsiyalariga asoslanish;

– tajriba orttirishi vaqtida yig‘ilgan hamda tadqiqot jarayonida tahlil qilingan materiallar talabaga hal qilinmagan masalalarni, muommolarni aniqlash va shunga muvofiq xulosa chiqarish.

***Ikkinchi bobda:***

– qo‘yilgan vazifalar;

– tadqiqotchi amalga oshiradigan tajriba yo‘llari va tadqiqot uslublari;

– tadqiqotni tashkillashtirish;

– o‘tkazilgan tajriba vaqti;

– tadqiqot ob‘yekti va kontingenti ko‘rsatilishi shart.

***Uchinchi bobda:***

– muallif tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallar asosida tadqiqot obyektini yaxshilash;

– takomillashtirishni dalillar yordamida asoslash;

– dalillarga mos jadvallar;

– takomillashtirish yo‘llari;

– taklif etilayotgan qarorlarning samaradorligini aniqlash;

– erishilgan natijalarni muhokama shaklida yozish.

***Xulosa qismi*** BMIning asosini tashkil qiladi. BMIning ayrim boblari xulosalar va takliflar bilan tugallanishi mumkin, ammo ulardan eng muhimlari ishning oxirida, yani xulosa bo‘limida aks ettirilishi kerak.

***BMIning hajmi va rasmiylashtirish qoidalari***

BMIning titul varag‘i, mundarijasi, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (bibliografik tartibda) kompyuterda terilgan bo‘lishi mumkin. Zarur hollarda grafiklar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, sxemalarni kompyuter vositalarida bajarilishiga ruxsat beriladi. BMIning qolgan qismlari qo‘lyozma tarzida A4 qog‘ozida, chap tomondan 3 *sm*, o‘ng tomondan 1 *sm*, tepa tomondan 2 *sm*, pastki tomondan 2 *sm* joy qoldirib rasmiylashtirilgan bo‘lishi shart. Betlarning raqami varaqning tepa qismining o‘rtasiga qo‘yiladi (ajratilgan 2 *sm* ichida). Yangi fikrni ifodalaydigan jummalari xat boshidan yoziladi.

BMIning har bir bobi yangi betdan yoziladi. Bobning nomi yoki sarlavhasi asosiy matndan qo‘shimcha interval bilan ajralib turishi kerak. Bobning nomidan keyin paragraf nomi yoziladi. Boblar rim

raqamida, bob ichidagi sarlavhalar oddiy raqamlar tartibida qo'yilishi kerak (masalan: I-BOB, 1.1., 1.2. II-BOB, 2.1., 2.2. III-BOB, 3.1., 3.2.).

### ***BMliga beriladigan xulosaga qo'yiladigan talablar***

Malakaviy ishga ilmiy rahbar **xulosa** beradi. Ilmiy rahbar xulosasida quyidagi masalalar yoritilish shart:

1. Mavzuning dolzarligi.
2. Ishning maqsad va vazifalari muallif tomonidan qay darajada yoritilganligi.
3. Tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi.
4. O'tkazilgan tadqiqot natijalarini asoslanganligi.
5. BMning xulosalar takliflarining sifati.
6. BMning qo'yilgan talablarga mosligi.

### ***Foydalanilgan manbalarni bibliografik bayon etish qoidalari***

Foydalanilgan manbalarni bibliografik ro'yxat ishning xulosa qismidan keyin joylashtiriladi. Bibliografik ro'yxat talaba tomonidan bevosita nashr qilgan manbalaridan yoki kataloglar va bibliografik ko'rsatkichlardan adabiyotlar ro'yxatini to'raligicha sarlavhalarni qisqartirilmagan holda olib tuziladi.

Har bir manba bo'yicha:

- foydalanilgan adabiyotni tartib raqami;
- muallifning familiyasi, ismi va nasabi;
- nashr qilingan joyning nomi;
- nashr nomi;
- chop etilgan yili;
- manbalarning betlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati bibliografik ro'yxati quyidagi tartibda tuzilishi lozim:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari.
5. Harflar ketma-ketligida joylashgan maxsus adabiyotlar.
6. Me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalar.
7. Statistika materiallari va statistik to'plamlarning materiallari.

### ***BMI ni himoya qilish***

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan BMI talaba tomonidan ilmiy rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, BMI talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirganidan so'ng, ishni o'z xulosasi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan material asosida, BMI ni talaba tomonidan DAKda himoyaga kirishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar, kafedra mudiri talabaning BMI ni himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, ilmiy rahbar ishtirokida muhokama etiladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarni iste'mol soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Taqrizchilar safida oliy o'quv yurtlarining professorlari va o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

Muqovalangan BMI ning asl nusxasi himoyaga taqdim etiladi.

Fakultet dekani BMI larni taqriz bilan himoya uchun Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etadi.

BMI ni himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining Yakuniy Davlat Attestatsiyasi to'g'risidagi Nizomi bilan belgilanadi.

BMI himoyadan so'ng (kamida 10 yil) oliy o'quv yurtida saqlanadi. Har xil sabablar bo'yicha BMI ni boshqalarga topshirish zaruriyati mavjud bo'lgan holda, ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o'quv yurtida qoldiriladi).



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT  
ISHLARI VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA INSTITUTI  
(12-shrift)**

**Qurbonov Sherzod Olim o‘g‘li  
(12-shrift)**

**YUQORI MALAKALI YUNON-RIM KURASHCHILARINING  
MUSOBAQA FAOLIYATIGA BOG‘LIQ TEZKOR-KUCHNI  
RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI  
(16-shrift)**

**Ta‘lim yo‘nalishi: 5810200 – sport faoliyati (yunon-rim kurashi  
bo‘yicha)  
(12-shrift)**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI  
(16-shrift)**

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga  
qo‘yildi  
“Milliy va xalqaro kurash  
turlari” kafedrası mudiri  
\_\_\_\_\_ p.f.n. Bakiev Z.A.  
“ ” \_\_\_\_\_ 2014-y.  
**(12-shrift)**

Ilmiy rahbar  
\_\_\_\_\_  
p.f.d. prof. Kerimov  
F.A..  
**(12-shrift)**

**Toshkent – 2014  
(14-shrift)**

***Kurash turlari ixtisosligi bo'yicha  
bitiruv malakaviy ishlari mavzularining  
taxminiy yo'nalishlari  
(yunon-rim kurashi misolida)***

***Tadqiqot ishining tuzilishi***

1. Rivojlantirish. 2. Takomillashtirish. 3. O'rganish. 4. O'rgatish. 5. Tahlil. 6. Nazorat va tahlil. 7. Modellashtirish. 8. O'Ichamlardagi dinamik ko'rsatkichlarning o'zgarishi. 9. Turlar. 10. Vositalar. 11. Usullar. 12. Uslublar. 13. Shakllar. 14. Tizimlar. 15. Rejalar.

***Sport tayyorgarlik modellari***

**I. Musobaqa faoliyati (model)**

1. Musobaqa faoliyatini nazorat va tahlil qilish.

2. Musobaqa qoidalari.

**II. Tayyorgarlik tomonlari (mavjud me'yor)**

**1. Jismoniy tayyorgarlik**

1) Umumiy jismoniy tayyorgarlik.

1. Tezlik. 2. Kuch. 3. Chaqqonlik. 4. Egiluvchanlik. 5. Chidamlilik.

2) Maxsus jismoniy tayyorgarlik

1. Maxsus tezlikni rivojlantirish. 2. Maxsus kuchni (dinamik-start, jadallashuvchi, portlovchi; izometrik, absalyut, maksimal) rivojlantirish. 3. Maxsus chaqqonlikni rivojlantirish. 4. Maxsus egiluvchanlikni rivojlantirish (aktiv, passiv, stretching). 5. Maxsus chidamliligini rivojlantirish.

3) Jismoniy tayyorgarlikning yo'nalishlari:

1. Tezkor yo'nalishi.

2. Tezkor-kuch yo'nalishi.

3. Kuch yo'nalishi.

2. Texnik tayyorgarlik

1) Texnik usullarni bajarish

Parterdagi texnik usullar:

**To'ntarishlar**

1. Qayirib to'ntarish.

2. Aylana yugurib to'ntarish.

3. O'tish bilan to'ntarish.

4. Aylantirib to'ntarish.

5. Ag'darib to'ntarish.

6. Bel orqali to'ntarish.
7. Ko'krak orqali to'ntarish.

#### Tashlashlar

1. Aylantirib tashlash.
2. Beldan oshirib tashlash.
3. Belini teskari ushlab tashlash.
4. Egilib tashlash
5. Ko'krak oshirib tashlash.

Tik turgan holatdagi texnik usullar:

#### Parterga o'tkazishlar

1. Qo'lidan tortib parterga o'tkazish.
2. Qo'lining ostidan sho'ng'ib parterga o'tkazish.
3. Qo'lini bo'yinga o'rab parterga o'tkazish.
4. Oldinga o'tirish bilan parterga o'tkazish.

#### Yiqitishlar

1. Qayirib yiqitish.
2. Zarb bilan yiqitish.

#### Tashlashlar

1. Qo'lini bo'yinga o'rab tashlash.
2. Yelkalardan oshirib tashlash.
3. Beldan oshirib tashlash.
4. Egilib tashlash.
5. Ko'krakdan oshirib tashlash.

#### Texnik usullarni bajarishdagi ushlashlar

1. Bilakdan yoki bilaklardan ushlash.
  2. Qo'lidan ushlash.
  3. Ikki qo'lidan ushlash.
  4. Bo'ynidan ushlash.
  5. Belidan ushlash.
  6. O'ng yoki chap qo'lidan ushlash.
  7. Yuqoridan yoki pastdan ushlash.
  8. Oldindan yoki orqadan ushlash.
- 2) Himoyalar (barcha usullarga).
  - 3) Qarshi usullar (barcha usullarga).
  - 4) Kombinatsiyalar (barcha usullar uchun – ikkitalik, uchtalik va undan ko'p).
3. Taktik tayyorgarlik

1. Har bir texnik usulni bajarishga tayyorgarlik harakatlariga o'rgatish usublari.

2. Har bir texnik usulga o'rgatish usublari.

3. Har bir texnik usulning himoya usuliga o'rgatish usublari.

4. Har bir texnik usulning qarshi usuliga o'rgatish usublari.

5. Har bir texnik usulning kombinatsion usuliga o'rgatish usublari.

6. Har bir texnik usulning taktik bajarilishi.

7. Taktik tayyorgarlikning bo'limlarini (texnik usulni amalga oshirish, bellashuvni o'tkazish, musobaqada qatnashish) amalga oshirish yo'llari.

4. Psixologik tayyorgarlik

1) Kurashchilarining ma'naviy va ma'rifiy tayyorgarligi.

2) Kurashchilarining irodaviy tayyorgarligi.

3) Kurashchilarining startoldi emotsional holatini barqarorlashtirish.

4) Kurashchilarining temperamentini hisobga olgan holda individual tayyorgarlik xususiyati.

5) Yosh kurashchilarini murakkab texnik usullarga o'rgatishdagi irodaviy tayyorgarlik.

6) Kurashchilarining musobaqadan keyingi psixologik tiklanishi.

7) Kurashchilarining tayyorgarligida autogen va meditatsiya mashqlarining ahamiyati.

8) Kurashchilarining tayyorgarligida ijobiy va salbiy omillarning ta'siri.

III. Organizm imkoniyatlari (imkoniyat zahiralari)

1. Morfo-funksional.

2. Yurak-qon tomir.

3. Endokrin, vegetativ.

4. Markaziy nerv sistemasi.

5. Mushak-nerv to'qimalari.

6. Reabilitatsiya.

Kompleksli ko'rik.

Kompleksli chuqur diagnostik-tibbiy ko'rik.

O'rgatish usublari

O'rgatishning usullari.

O'rgatishning usublari.

O'rgatishning vositalari.

Yangi jismoniy mashqlar majmuasi.

Yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar.  
Yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalar.  
Yangi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish.  
Yangi zamonaviy texnika va trenajyorlardan foydalanish.  
Boshqaruvchi ta'sirlar  
Tashqi muhit va ijtimoiy sharoit.  
Mashg'ulotning yo'nalishi.  
Raqiblar soni.  
Mashg'ulotning vositalari.  
Mashg'ulotning noan'anaviy vositalari.  
Tiklanish vositalari.  
Ovqatlanish sistemasi.  
Tarbiyaviy va psixologik yo'naltiruvchi tadbirlar.  
Ta'sir etuvchi subyektiv yo'naltiruvchilar.  
Kurashchilarining yoshi:  
Yosh kurashchilar.  
Malakali kurashchilar.  
Yuqori malakali kurashchilar.  
Kurash turlari bo'yicha seksiyasiga qatnashuvchilarni saralash  
Saralash uslublari.  
Saralashning o'ziga xos tamoyillari va xususiyatlari.  
Terma jamoalarga saralash uslublari.  
Saralashdagi mavjud bo'lgan talablar.  
Saralashdagi axborot texnologiyalari.  
Kurash turlarida rejalashtirish  
Istiqbolli rejalashtirish (ko'p yillik, to'rt yillik).  
Joriy rejalashtirish (yillik, oylik, haftalik, dars konspekti).  
Tezkor rejalashtirish (makrosikl, mezosikl, mikrosikl).  
Kurash turlari bo'yicha trener kasbiga yo'naltirilgan faoliyat muommalari  
Kurash turlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassis tayyorgarligi.  
Trenerning me'yoriy hujjatlarni yurgizish uslublari.  
Kurash turlari bo'yicha trenerning tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish.  
Trenerning kurashga o'rgatishda texnik vositalardan foydalanish uslublari.  
Trenerning kurashga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish uslublari.

Kurash turlari bo'yicha trenerning intellektual qobiliyatini rivojlantirish.

Kurash turlari bo'yicha trenerning psixologik tayyorgarligi.

Kurash turlari bo'yicha trenerning axloqiy sifatlarini takomillashtirish.

Kurash turlari bo'yicha trenerning sport jamoasidagi psixologik muhitni shakllantirish.

Kurash turlari bo'yicha trenerning iroda sifatlarini tarbiyalash.

Trenerdagi kurash turlari bo'yicha tayyorgarlik jarayonida ilg'ashning maxsus turlarini takomillashtirish.

Kurash turlari bo'yicha trenerning diqqatini rivojlantirish.

Kurash turlari bo'yicha trenerning taktik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Trenerdagi emotsional kechinmalarni boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

Trenerdagi tashabbuskorlik va intizomlilik qobiliyatini rivojlantirish.

Kurash turlari bo'yicha trenerning axborot yig'ish qobiliyatini rivojlantirish.

Kurash turlari bo'yicha trenerning hakamlik qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Kurash turlari bo'yicha trenerning moliyaviy ishlarni yuritish qobiliyatini rivojlantirish.

Trenerning mashg'ulot jarayonidagi travmalarning oldini olish va o'z vaqtida birinchi yordam ko'rsatishi.

Trenerning farmakologik uslubdan foydalanishini optimalashtirish.

Trenerning sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilishi.

Trenerning tayyorgarlik sharoitlarini baholash va rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirish.

Trenerning tayyorgarlik yuklamalarini nazorat va tahlil qilishi.

Trenerning nazariy bilimlarini oshirish uslublari.

Trenerning amaliy bilim mahoratini oshirish uslublari.

Trenerning jismoniy qobiliyatlarini optimallashtirish.

## **O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari**

### **1. Tadqiqot usullari degani nima?**

- a. adabiyotlarni o‘rganish, tajriba o‘tkazish va bajarilgan ishlar bo‘yicha doklad
- b. laboratoriya va asosiy tajribalarni o‘tkazish
- c. umumiy tadqiqotning o‘ziga xos dastur-rejasi, muammoning mavzusini u yoki bu darajada bosh ishlanma natijasi
- d. ma’ruza maqolalari va tezislarni yozish.

### **2. “Tadqiqotning gipotezasi” deganda nimani tushunasiz?**

- a. tadqiqotni o‘tkazish va tasnifi to‘g‘risida taxmin
- b. oldinga surilgan tadqiqot mazmunlarining isbotlash mumkin bo‘lgan yo‘llari to‘g‘risida, hodisa sabablari to‘g‘risida taxmin
- c. bilim chegaralarini kengaytirish va yangi fikrlarning paydo bo‘lishi
- d. tadqiqot vazifalarini nazariy taxmin yordamida hal qilish.

### **3. Ilmiy tadqiqot ishlarida qanday pedagogik tajriba turlari qo‘llaniladi?**

- a. laboratoriya va tabiiy
- b. stenografiya, xronografiya va sifatni nazorat
- c. modeli
- d. a va b javoblar.

### **4. Tadqiqot omillari deganda nima tushuniladi?**

- a. bu shunday omillarki, o‘quv-tarbiyaviy jarayoni paytida gipotezaga binoan sun‘iy kiritiladi
- b. o‘zgaruvchan omillar, bunda tadqiqotni borishida har xil vaqtda qo‘llaniladi
- c. xususiy mantiqiy yuklamalarni olib boruvchi omillar
- d. a, b va c.

### **5. Tadqiqot paytida bevosita yozib borish usullarini ayting.**

- a. magnitofon va videokamera ga hodisalarni yozib borish
- b. vaqt o‘lchamlarini o‘lchash – xronometrlash vai xronografiya
- c. texnik harakatlarni stenografiyalash, yozishni instrumental usuli
- d. a, b va c.

### **6. Tadqiqot usullarini tanlash nima bilan aniqlanadi?**

- a. tadqiqotchi xohishi va vujudga keladigan sharoit bilan
- b. asboblarning mavjudligi va tadqiqotchi malakasi bilan
- c. mavzuni umumiy maqsadga muvofiq etib va aniq vazifalarni hal qilish bilan

d. o‘tkaziladigan ishning darajasi va tadqiqot tasnifi bilan.

**7. Pedagogik nazorat usuliga tasnif bering.**

a. pedagoglar guruhining kuzatishi

b. jarayonga tadqiqotchi aralashmasdan o‘quv jarayonini tashkillashtirishning individual usulini baholash va rejali tahlil

c. mashg‘ulotni o‘tkazishni tahlil amaliyoti

d. a, b va c.

**8. “Modelli tajriba” deganda nimani tushunasiz?**

a. har xil modellarni foydalangan holda tadqiqotni o‘tkazish

b. yopiq binolar va alohida sharoitlarda tajriba o‘tkazish

c. sun’iy qurilgan sharoitlarda, aniqlamalarda hodisalarni qayta tiklash

d. kelib chiqishi har xil va har xil rejali guruhlarini jamlash.

**9. “Laboratoriya tajribasi”ga tushuncha bering va u qanday o‘tkaziladi?**

a. tashqi ta’sir omillaridan tadqiqot ishtirokchilarini chegaralash uchun kerak bo‘lgan sharoitlarni qat’iy standartlashtirish

b. tadqiqotda laboratoriya asboblari va qurilmalarni qo‘llash

c. sportchining tibbiy-biologik va psixologik xususiyatlarini tadqiq etish

d. a, b va c.

**10. “Tabiiy tajriba” tushunchasiga tasnif bering.**

a. ochiq havoda o‘tkaziladigan tadqiqot

b. jismoniy sifatlarning dinamikasining ko‘tarilishiga ta’sir etuvchi tadqiqot

c. pedagog-ekspertlar nazoratida o‘tkaziladigan tadqiqot

d. an’anaviy o‘rgatish va tarbiyalash sharoitlaridan kam miqdorda o‘zgarishi bilan tasniflanadi va tadqiqot ishtirokchilari tomonidan bu holat sezilmaydi.

**11. “Testlash” deganda nimani tushunasiz?**

a. sportchilarni torozidan o‘tkazish va o‘lchash, ularning harakatini xronometrlash

b. sportchining jismoniy holatini va uning jismoniy sifatlarini aniqlash

c. nazorat mashqlari yoki testlar yordamida o‘tkaziladigan nazorat sinovlari

d. o‘lchashlardagi oqilona ketma-ketlik.



**12. Tadqiqot usuli sifatida “so‘rovnoma” degani nima?**

- a. o‘z ma‘lumotlari to‘g‘risida so‘rovnomaning to‘ldirish
- b. so‘rovnomadagi standardlashtirilgan yozma savollar tizimiga respondentlar javobidan axborot to‘plash usuli
- c. ob‘yektning operativ va joriy holatini o‘rnatish
- d. a va c.

**13. Tadqiqot uslubi sifatida “intervyu”ni tasniflang.**

- a. sportchi va trenerlarni so‘rovnomadadan o‘tkazish
- b. sportchilar bilan suhbatlashish natijalarini tahlil
- c. tadqiqotchining og‘zaki savollariga respondentlarning og‘zaki javob berish yo‘li bilan axborot olish usuli
- d. muammoni respondentlar bilan ularda so‘rovnoma o‘tkazish yo‘li bilan muhokama qilish.

**14. Tekshirish uslubi sifatida “intervyu”ni tasniflang.**

- a. muloqotda vujudga kelgan muammoni o‘zaro hal qilish
- b. tadqiqotchini qiziqtiruvchi savollarni ikki yoki ko‘p tomonlama muhokama qilish yo‘li bilan axborot olish usuli
- c. qiziqtiruvchi savolni qismlarga ajratib muhokama qilish
- d. a, b va c.

**15. Testning “barqarorligi”ga tasnif bering.**

- a. birnecha sinovlar jarayonida testning qaytarilishi
- b. har xil testlarning ob‘yektiv ahamiyati
- c. testning jismoniy sifatlarini ob‘yektiv o‘lchash imkoniyati
- d. b va c.

**16. Testning “empirik axborotlilik” degani nima?**

- a. tajribalarda testlarni qo‘llash tasnifi
- b. ko‘rsatkichlarni o‘lchash paytida natijalarning dinamikasi
- c. etalon bilan testning ahamiyatini solishtirish
- d. qo‘llaniladigan testning me‘yoriy ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqlik darajasi.

**17. Bitiruv malakaviy ishining asosiy bosqichlarini tasniflang.**

- a. mavzuni tanlash – adabiyotlar va amaliyot tahlili
- b. vazifalarni belgilash, gipotezani ishlab chiqarish, tadqiqot rejasi, tadqiqot ishtirokchilarini tanlash, tadqiqot usullarini tanlash
- c. tadqiqot sharoitini tashkillashtirish, yordamchilarni tayyorlash, materiallarni yig‘ish, natijalarni rasmiylashtirish, amaliyotga tadbiq etish
- d. a, b va c.

**18. “Model tasnifi” tushunchasi nima degani?**

- a. modeli tajriba tasnifi
- b. har bir model tuzilishidagi sportchining tayyorgarlik koʻrsatkichlari (musobaqa faoliyati, texnik-taktik mahorat, jismoniy tayyorgarlik morfofunktsional xususiyatlar)
- c. modellarni qoʻllash tasnifi va ularning sportdagi elementlari
- d. a, b va c.

**19. Sport ilmidagi qanday ilmiy-tadqiqot ishlarining turlari mavjud?**

- a. dissertatsiya, maʼruza, referat
- b. darslik, oʻquv qoʻllanma, monografiya
- c. ilmiy maqola, dissertatsiya, taqriz, tezis
- d. a, b va c.

**20. Sport yakkakurashlarida mashgʻulot jarayonini boshqarishning uch darajali tizimida qanday darajalari mavjud?**

- a. bilim, amaliyot va ilmiy tadqiqot darajalari
- b. musobaqa modeli, sport mahorati modeli, potentsial imkoniyatlar modeli
- c. psixologik, aqliy va jismoniy
- d. oʻrgatish, tarbiyalash va nazorat.

**Oʻz-oʻzini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

№	A	B	C	D
1.			*	
2.		*		
3.				*
4.	*			
5.				*
6.			*	
7.		*		
8.	*			
9.	*			
10.				*
11.			*	
12.		*		
13.			*	
14.		*		

15.	*			
16.				*
17.				*
18.		*		
19.				*
20.		*		

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Ашмарин В.А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. М., 1978.

2. Благущ П.К. К теории тестирования двигательных способностей. М., 1982.

3. Годик М.А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок. М., 1980.

4. Иванов В.В. Комплексный контроль в подготовке спортсменов. М., 1987.

5. Игуменов В.М., Подливаев Б.А. Методика и организация научных исследований в спортивной борьбе. М., 1985.

6. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2005.

## **12-BOB. KURASH TURLARIDA TAKTIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

### **12.1. Taktik tayyorgarlik**

Sport kurashining taktikasi – bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanishdir. Taktik tayyorgarlik sportchilarda taktika sohasidagi zarur bilimlarni egallash, sport kurashini to‘g‘ri olib borishda ma‘lum malaka hamda bilimlarni shakllantirish, shuningdek taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan.

Kurashda taktika uchta asosiy bo‘limlardan tashkil topadi:

- hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi;
- bellashuvni tuzish taktikasi;
- musobaqalarda qatnashish taktikasi.

Asosiy usulni samarali bajarishda tayyorlov harakatlari katta ahamiyatga ega, shuning uchun ular uzviy bog‘liqlikda takomillashtirilishi lozim. Takomillashtirishda asosiy qiyinchilik harakatning bir turidan ikkinchisiga o‘tish fazasida yuzaga keladi (A.A. Novikov, 1966). Mahorat darajasi qancha yuqori bo‘lsa, bunday bog‘liqliklar kam ko‘zga tashlanadi (A.V. Rodionov, 1971).

#### **12.1.1. Hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi**

Hujum harakatini ma‘lum bir usul bilan taktik tayyorlash murakkab usulning bir qismi bo‘lishi lozim. Bunda u hujum usuli bilan uzluksiz ravishda bajariladi. Aldamchi harakatdan (shaxsan hujum bajarishni taktik tayyorlashdan) murakkab hujum harakatining (MHH) hal etuvchi yakuniy harakatiga o‘tish paytiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Turli hujum usullariga eng maqsadga muvofiq bo‘lgan taktik tayyorgarlik usullarini tanlash lozim. Shu maqsadda kurashchilar taxminiy MHH bilan tanishgandan so‘ng quyidagi topshiriqni oladilar: ma‘lum bir usulga mustaqil ravishda taktik tayyorgarlik usullarini tanlash va ularni hujum usullari bilan MHH ga birlashtirish (yangi MHH ni o‘ylab topish).

Murakkab hujum harakatlarini takomillashtirishda pedagogik jarayon yangi malakani tarbiyalashga qaratilgan. Yangi MHHni muvaffaqiyatli egallash faqat avval o‘rganilgan usullar asosida amalga oshirilishi mumkin. MHHni o‘rganish jarayonida MHHni shaki-

lantirishda qiyinchiliklarni ketma-ket yengib o'tish talabiga rioya etish lozim. MHHni bajarishda oldingi mashqlar egallangandan va MHHning tayyorlov harakatidan yakuniysiga o'tishda yuqori aniqlikka erishilgandan so'ng keyingi beshta urinish davomida takrorlashni bajarish zarur. Agar bunday takrorlashlarda aniqlik yomonlashmasa (malaka yetarlicha mustahkam bo'ladi), unda keyingi MHHni egallashga o'tish lozim. MHHga o'rgatish boshida bir harakatdan ikkinchisiga o'tishi aniqligi kamroq bo'ladi, keyinchalik u oshib boradi.

Ma'lum bir usulga (hujum usullariga) nisbatan hujum harakatlarini qo'llashni o'rganishda raqib harakatlarida "o'lik nuqta"ni (harakatsiz holat va ma'lum bir vaqt ichida himoyalani sh harakatlarini bajara olmaslik) yaratib, usul harakati yo'nalishi tomoniga kabi qarama-qarshi tomonga turli taktik tayyorgarlik usullarini tanlash zarur. Kurashda oyoqni ushlab olish bilan bajariladigan usullar ko'p qo'llanilishi sababli o'smirlarni ko'p sonli hujumni taktik tayyorlash usullariga o'rgatish zarur. Buning asosiy maqsadi – o'smirlar o'zlariga yoqadigan murakkab hujum harakatlarini mustaqil yarata olsinlar. Bundan tashqari, o'smir turli raqiblarga qarshi tanlab qo'llay olishi mumkin bo'lgan turli MHHni egallashi lozim.

Hujum harakatlari taktikasiga keyinchalik o'rgatish turli usullardan kombinatsiyalar tuzish va ular bilan hujum qilishni egallash yo'li orqali olib boriladi. Kombinatsiyalar shunday tuzilishi kerakki, birinchi usul bilan bajarilgan hujum raqibning himoyalani sh harakatlari natijasida keyingi usul bilan hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatni yaratishi lozim. Kombinatsiyalar to'xtovsiz bajariladigan uchta-to'rtta usullardan tashkil qilinishi mumkin. Bunda oxirgisidan oldingi hujum usuli oxirgi (yakuniy) usul uchun qulay dinamik vaziyatni yaratishi zarur.

Bunday kombinatsiyalar bilan hujum qilish misollarini o'qituvchi ko'rsata olishi hamda o'smirlarni bunday hujumlarni mustaqil o'ylab topishga o'rgatishi lozim.

### **12.1.2. Bellashuvni tuzish taktikasi**

Sport kurashi taktikasi texnika rivojlanishi, musobaqa qoidalari va hakamlilik tizimining o'zgarishiga muvofiq holda muntazam rivojlanib kelmoqda.

Hozirgi paytda kurashchi tomonidan to'xtovsiz hujum bajariladigan taktika afzal hisoblanadi. Ushbu holda, hattoki agar u ballar bilan baholanadigan hech qanday hujum uyushtirmagan, uning raqibi esa

faqat himoyalangan bo'lsa ham, unga ustunlik beriladi, raqib esa sustkashligi uchun ogohlantirish oladi.

Kurashchi to'ovsiz hujumlar taktikasini qo'llash uchun o'z jamg'armasida taktik tayyorgarlikning turli usullari, ko'p sonli oddiy hujum harakatlari va MHHga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari, bunday taktika yuqori darajada chidamlilikka ega bo'lishni taqozo etadi. Shu bilan birga u nisbatan tinch hamda raqibni hujumga chorlash davrlari bilan almashtirib turilishi mumkin. Bunda kurashchi raqib hujumini qaytarishga tayyor turishi lozim.

Texnika taktikaning asosiy vositasi hisoblanadi. Muayyan taktikani tanlash ham usullar jamg'armasiga bog'liq. Ko'pincha u kurashchining jismoniy qobiliyatlari: kuchi, tezkorligi, chaqqonligi bilan aniqlanadi. Ushbu sifatlardan biron birining yuqori darajada rivojlanganligi shu jismoniy sifatga urg'u bergan holda (hal etuvchi harakat bilan) taktikani tuzishga imkon yaratadi.

Bellashuvni olib borish taktikasi, asosan, raqib tayyorgarligi darajasiga bog'liq. Bellashuv taktikasini to'g'ri tuzish uchun, birinchi navbatda, raqibning qanday hujum harakatlarini qo'llashi, qanday himoyalaniishi, uning jismoniy tayyorgarligi qandayligini bilish lozim.

Taktikani o'z tayyorgarligining kuchli tomonlari va muayyan raqibning bo'sh tomonlarini hisobga olgan holda rejalashtirish shart. Masalan, agar kurashchi katta kuchga ega bo'lsa, unda hal qiluvchi hujumni kuch usulida qurish lozim. Agar raqib harakatlarni tez bajara olsa, unda uning harakatlarini ushlab olishlar bilan bo'g'ish va kuch bilan bostirish zarur. Agar u jismonan kuchli bo'lsa, uning harakatlaridan ilgari harakatlanish va murakkab hujumlar bilan ustunlikka erishish lozim. Raqibning yaxshi ko'rgan hujumlarini bilgan holda qarshi hujum harakatlarini tanlash zarur. Baland bo'yli raqib bilan kurashishda MHHning hal qiluvchi usuli oyoqdan ushlab olish bo'lishi kerak. Past bo'yli raqibning oyog'idan ushlab olish qiyin, shuning uchun hujum uning yelkasidan siltab muvozanatdan chiqarish hamda egilib yelkadan oshirib tashlash va oyoq harakatlari yordamida siltab parterga o'tkazish hisobiga qurish zarur.

Muayyan raqib bilan bellashuvni o'tkazish uchun kurashchi ma'lum bir taktika rejasini oldindan belgilab olishi lozim. Bunda, agar u ustunlikka erishishga olib kelsa, uni bellashuv oxirigacha ushlab turish lozim. Agar u muvaffaqiyatsiz bo'lsa, ehtiyot shart boshqa variantlari tuziladi.

Taktik reja quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Bellashuv maqsadi va unga erishish uslublari. Maqsad kurashchi va raqibning imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Nisbatan bo'sh raqib bilan bo'ladigan kurashda kurashchining maqsadi – sof g'alabaga; kuchli raqib bilan esa – ochkolar bo'yicha g'alabaga erishishdan iborat.

2. Texnik harakatlarni tanlash. Kurashchi o'z tayyorgarligini hisobga olgan holda belgilangan maqsadga to'liq mos keladigan va muayyan raqib bilan kurashishda samarali bo'lgan texnik harakatlar hamda ularni tayyorlash usullarini (MHH) tanlaydi. Usullar va MHH raqibning bo'sh tomonlarini hisobga olgan holda tanlanadi.

3. Bellashuvni tuzishning umumiy yo'nalishi bellashuvning birinchi davridanoq g'alabaga erishish yoki ballarda ustunlikka ega bo'lishga qaratiladi.

4. Bellashuv sur'ati. Yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan kurashchi yetarlicha chidamlilikka ega bo'lmagan, lekin kuch va texnikada undan ustun bo'lgan raqib bilan uchrashuvda bellashuvni yuqori sur'atda olib borishni rejalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Chidamli raqib bilan bo'ladigan bellashuvda o'z energiyasini tejab sarflash lozim. Raqibga bellashuvni yuqori sur'atda olib borishga yo'l qo'ymaslik maqsadida uning harakatlarini cheklab qo'yish, o'zi esa qarshi hujum uchun eng kichkina imkoniyatdan foydalanib qolishga tayyor turishi lozim.

5. Tik turish va masofani tanlash. Tik turish va masofani tanlashda shuni hisobga olish lozimki, ular belgilangan hujum harakatlarini bajarishga yordam berishi hamda raqib "yaxshi ko'rgan" hujumlarni qyinlashtirishi lozim. Kurash davrlari o'rtasidagi tanaffuslarda bellashuvning borishini tanqidiy baholash hamda tuzatishlar kiritish, ya'ni uni qanday olib borilganligini baholash, raqibning bo'sh tomonlarini aniqlash, nimadan ehtiyot bo'lishni belgilab olish, kurashning qolgan vaqtidagi hatti-harakatlarni aniqlab olish zarur. Masalan, g'alaba keltiradigan holatga erishgandan so'ng bellashuv taqdiri hal etilgan deb hisoblash mumkin emas. Arbitrning final hushtagi yangramaguncha, diqqatni jamlab turish, e'tiborli bo'lish va raqibning hujum harakatlariga tayyor turish zarur. Chunki raqib, yutqaza turib, o'z kuchini safarbar etadi va har doim ham hujumni oqilona tashkil qilmaydi. Bu paytda manevr olib borish, aldanchi hujumlar hamda harakatlarni cheklaydigan ushlab olishlarni qo'llash zarur.

Kurashchi, bellashuvda yutqaza turib, oxirgi sekundga qadar hal qiluvchi hujumni tayyorlashi lozim. Kurashchi, o'z harakatlari bilan mag'lubiyatni tan olgandek ko'rsatib, raqib uchun kutilmagan vaziyatda "portlashi" va bellashuv taqdirini o'z foydasiga hal qiluvchi murakkab hujumni amalga oshirishi zarur.

Ko'pgina mutaxassislarning belgilashicha, amaliyotda sportchilarni o'rgatish texnik tayyorgarlik bilan cheklanadi, ba'zi hollardagina trenerlar texnik usullarni amalga oshirish taktikasi bo'yicha tavsiyalar beradi. Bellashuvni olib borish taktikasiga kelganda, tayyorgarlikning bu bo'limini sportchilar asosan bevosita musobaqalarda o'rganadilar. Musobaqalar paytidagi trener ko'rsatmalari va musobaqadan so'ng bellashuvni tahlil qilish ko'p jihatdan sportchilarning nazariy bilimlari doirasini kengaytiradi, lekin bir vaqtning o'zida ular muayyan o'rgatish bilan mustahkamlanmagan nazariy material bo'lib qoladi, xolos.

Shunday qilib, bevosita musobaqalarda ishtirok etish hozirgi kunda taktik mahoratga o'rgatish hamda takomillashtirishning yagona ta'sirchan uslubi hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida (R.A. Piloyan, V.T. Djaparaliev, 1984) birinchi marta kurash bellashuvi tuzilmasini tashkil etuvchi va muayyan vazifalarni hal etishning turli usullari hamda vositalarini tavsiflovchi taktik harakatlar ajratildi:

– razvedka qilish – harakat kurashchilarning katta "aldamchi" faolligi bilan tavsiflanadi. Bellashuvning birinchi minutlarida manevr olib borish aldamchi harakatalar, siltashlar, chorlash hisobiga amalga oshiriladi. Sifat tavsiflari (ro'yobga chiqish yoki chiqmaslik) keyingi harakatning amalga oshirilish darajasi bo'yicha aniqlanadi;

– hujumni amalga oshirish – ushbu harakat uchun oldindan aniq tayyorgarlik ko'rmasdan hujumning texnik usulini o'tkazish xosdir. Usulni bajarish vaqti, aks holda – shunday tayyorgarlik vaqti ham qayd qilinadi. Ikkala holda ham usulning tugash vaqti yoki maqsadli ko'rsatmaning o'zgarish vaqti qayd etiladi;

– qarshi hujumni amalga oshirish – maqsad bellashuvda raqibning hujum harakatlari paytida singari maxsus yaratiladigan sharoitlar vaqtida yuzaga keladi. Birinchi holatda kurashchi avval himoyalanih harakatini amalga oshiradi, so'ngra qarshi hujumni bajaradi. Ikkinchi holatda kurashchi raqibni ma'lum bir ushlab olishga chorlaydi va keyin qarshi hujum harakatlari amalga oshiriladi. Birinchi holda himoyalanih harakatini tugallash vaqtidan boshlab to qarshi hujumning texnik



usulini yakunlashga qadar, ikkinchi holda – chorlashni qo‘llash paytidan boshlab to usulni yakunlash yoki maqsadli ko‘rsatmani o‘zgartirishga qadar bo‘lgan vaqt oraliqlari hisobga olinadi;

– himoyalani shni amalga oshirish – himoyalani sh harakatlari raqib tomonidan ma‘lum bir hujum harakatini amalga oshirish uchun ushlab olish paytidan boshlanadi va himoyalani shni amalga oshirish yoki raqib tomonidan hujumni amalga oshirish bilan yakunlanadi;

– faollikni namoyish qilish – ushbu harakatni hal etish boshi va oxiri birmuncha qo‘shilib ketgan hamda kurashchining o‘zidan tuzatish kiritishni talab qiladi. Lekin diqqat bilan tahlil qilganda ularni yetarlicha aniq ko‘rish mumkin. Faollik bilan siltashlar, itarishlar, aldanchi harakatlarning ko‘pligi bilan tavsiflanadi.

Kurashchilar hujum usullarining boshlang‘ich harakatlarini bajarayotgan paytlarida, odatda, usulni oxirigacha yetkazmaydilar;

– ustunlikni ushlab qolish, ya‘ni kurashchi yutilgan ballar orqali ustunlikka erishgandan so‘ng uni ushlab qolishi lozim. Bu taktik harakat shu bilan tavsiflanadiki, sportchi imkon qadar uzoq vaqt ichida raqibiga yutqazib qo‘yilgan ballarni kamaytirishga xalaqit berishi zarur. Ushbu harakatni amalga oshirishda manevr olib borish va hujum harakatlari keng qo‘llaniladi, buning ustiga kurashchi asosan ushlab olishni amalga oshiradi hamda hakam bellashuvni to‘xtatgunga qadar raqib harakatini cheklab qo‘yadigan holatda turadi;

– kuchni tiklash – kurashchi, turtishlardan foydalanib, harakatlarni cheklab, manevr olib borib, nafas olishni tiklashga va, mushaklarni to‘liq bo‘shashtirib, ulardagi qon oqimlarini kuchaytirishga harakat qiladi. Bu holda ushlab olishlarga yo‘l qo‘ymasdan, raqibni uzoq masofada ushlab olishga intiladi;

– gilam chetida ushlab olishni amalga oshirish – hujum usuli bilan bajariladi, bunda usulni amalga oshirish uchun faqat ushlab olish bajariladi va bu ushlab olishda sportchi raqibni gilam tashqarisiga itarib chiqaradi. qoidalarda o‘zgarishlar bo‘lganligi sababli bu harakatlarni qo‘llash mumkin bo‘ldi. Bu yerda, agar kurashchi raqibni ushlab olib, gilam tashqarisiga chiqsa, unga bu harakati uchun yutuq balli yoziladi, raqib esa ogohlantiriladi. Bu topshiriqning boshlanishi usulni amalga oshirish uchun ushlab olish paytidan boshlab to uni tamomlagunga yoki hakam xushtagi chalinguncha qadar qayd qilinadi;

– xavfli holatni amalga oshirish – ushbu harakatni hal qilish boshlanishi va oxiri bellashuvda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu xavfli

holat paydo bo'lish paytidan boshlab belgilanadi va "tushe" holati yoki raqib tomonidan xavfli holat bartaraf etilishi bilan tugullanadi;

– xavfli holatni bartaraf etish – vazifaning vaqt parametrlari (xavfli holatni amalga oshirilishidan oldin bartaraf etish) oldingi harakatdagi kabi yengil qayd qilinadi.

Musobaqa bellashuvining umumiy vaqti ichida hisobga olinmaydigan va ma'lum bir maqsadli ko'rsatmaning yo'qligi bilan tavsiflanadigan maqsadsiz sarflangan (kurashchi sustkashligi va kutib turish holati bilan ifodalangan) vaqt oraliqlari ko'p sonli ortiqcha harakatalar bilan ajralib turadi. Odatda, bu paytda sportchilar, raqibidan faol harakatlarni kutayotib, uning texnik rejasiga bog'liq holda bo'ladi.

Trenirovka jarayoni mazmunining tahlili shuni ko'rsatadiki, kurash bellashuvi tuzilmasini tashkil etuvchi taktik harakatalarga yetarlicha ahamiyat berilmaydi. Trenirovkalarda hujum, qarshi hujum va himoyalaniş harakatlariga katta qiziqish borligiga qaramasdan, ularning musobaqalardagi samaradorligi katta emas. Buning sababi shundaki, sportchilar trenirovkalarda taktik tayyorgarlik usullaridan ajralgan holda, o'tkazilgan usuldan so'ng xavfli holatni amalga oshirish sifatida taktik harakatni kiritmasdan hujum, himoyalaniş va qarshi hujumlarni amalga oshirish malakalari hamda ko'nikmalarini takomillashtiradilar.

Turli malakali kurashchilar tomonidan olib boriladigan kurash xususiyatlarini tavsiflovchi va alohida harakatlarning bellashuv minutlari bo'yicha taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkich bellashuv davomida kuchning to'g'ri taqsimlanganligi to'g'risida fikr yuritishga imkon beradi.

Yanada yuqori malakaga ega bo'lgan kurashchilarda alohida harakatlarning minutlar bo'yicha taqsimlanishida ma'lum bir qonuniyat kuzatiladi. Bellashuvning birinchi minutlarida – razvedka, hujum, himoyalaniş; ikkinchi minutida – hujum, gilam chetida ushlab olishlar, faollikni namoyish qilish; uchinchisida – kuchni tiklash, gilam chetida ushlab olishlar, himoyalaniş, qarshi hujum; to'rtinchisida – hujum, qarshi hujum, gilam chetida ushlab olishlar, faollikni namoyish qilish, himoyalaniş; beshinchisida – hujum, qarshi hujum, gilam chetida ushlab olishlar, faollikni namoyish qilish, himoyalaniş; oltinchisida – ustunlikni ushlab turish, qarshi hujum.

Kurashchilar musobaqa bellashuvlari yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori malakali sportchilarga qo'l-

laniladigan usullarning turli-tumanligi hamda ularni bellashuv davomida oqilona almashtirib turilishi yuqori malakali sportchilar uchun xosdir.

Ushbu aytilgan fikr kurashchilar taktik tayyorgarligini individuallashtirish muammosiga boshqacha yondashishga imkon beradi. Buning uchun sportchining jismoniy va ma'naviy kuch sarflab g'alabaga erishishga yordam beradigan hamma harakatlar to'plamini egallashi asos bo'lib xizmat qiladi.

Kurashchining hamma o'nta harakatlarni hal eta olish va ularni bellashuv davomida to'g'ri joylashtira olish malakasi uning bazaviy individual tayyorgarligi bo'lib hisoblanadi.

Shuning uchun taktik tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha ishlarni uchta yo'nalishda olib borish lozim:

– kurashchilarni ular avval egallamagan harakatlarga o'rgatish;

– kurashchining ruhiy, morfologik va jismoniy xususiyatlarini hisobga olib, har bir harakatni amalga oshirishning eng oqilona vositalari hamda usullarini tanlash (harakatning operatsiya tarkibi);

– raqib xususiyatlariga qarab, bellashuv davomida taktik harakatlarning turli kombinatsiyalarini shakllantirish.

Birinchi ikkita vazifani hal etish uchun quyidagi uslubiy usullarni qo'llash mumkin;

– Darsning tayyorlov qismiga, umumiy rivojlantiruvchi mashqlardan tashqari, kurashchining tez o'zgaradigan o'yin vaziyatida taktik vazifalarni o'z vaqtida hal etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan ishorali va o'yin mashqlarini kiritish;

– qo'l kaftini raqibning oyoq kaftiga tekkazish uchun kurashish: kurashchilar juft-juft bo'lib, gilam ustida harakatlanadilar. Bunda ular raqib tovoniga qo'l tekkazishga intiladilar va bir vaqtning o'zida o'z tovonlariga raqibning qo'li tegmasligiga harakat qiladilar. O'yin paytida hamma taktik usullardan: manevr olib borish, xavf solish, siltashlar, aldamchi harakatlardan foydalanish mumkin. Bu mashq kurash bellashuvining murakkab, tez o'zgaradigan vaziyatlarida diqqatni bir yerga to'plash va mo'ljal olish qobiliyatini rivojlantiradi. Uni razvedka qilish, kuchni tiklash, faollikni namoyish qilish vazifasini hal etish vositasi sifatida qo'llash mumkin;

– “quvlashmochoq” o'yini. Kurashchilar oyoq uchi bilan raqibning oyoq kaftiga tepishga harakat qiladilar, bunda ularning qo'llari orqada turadi. Bu mashq ham diqqatni jamlashga yordam beradi va

kurashchilarda harakatlarni raqibidan ilgari bajarish qobiliyatini hosil qiladi;

– raqib qo‘lini qayirib qo‘yish uchun kurashish. Kurashchilar juft-juft bo‘lib raqibning bir yoki ikkita qo‘lini shunday ushlab olishga intiladilarki, raqib uzoq vaqt ichida qo‘llarini bo‘shata olmasligi lozim. Bu mashqda siltashlar, muvozanatdan chiqarishlarni qo‘llash mumkin. u kurashchini ustunlikni saqlab qolish va raqibning kuch bilan ta’sir ko‘rsatishiga qarshilik qilish vazifasini hal etishga tayyorlaydi;

– hududiy ustunlikka erishish uchun kurashish. Kurashchilar gilamning ma’lum bir qismida joylashadilar va belgilangan joydan bir-birlarini tashqariga itarib chiqarishga harakat qiladilar. Bunda hamma taktik usullardan foydalanish mumkin. Bu mashq kurashchilarda raqibning turli aldanchi harakatlariga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantiradi. U gilam chetida ushlab olishni amalga oshirish, faollikni namoyish qilish kabi vazifalarni hal etish vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin.

O‘quv-trenirovka mashg‘ulotining asosiy qismida taktik vazifalarni hal etish vositalari va uslublarini topshiriqli uslubni qo‘llagan holda o‘rganish hamda takomillashtirish, shuningdek jahonning eng kuchli kurashchilari bellashuvlarini videoyozuvlarini tomosha qilish hamda tahlil etish tavsiya qilinadi. Bir vaqtning o‘zida kurashchilar yo‘l qo‘ygan xatorlarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida ularning bellashuvlari tahlil qilinadi. Kurashchilar qancha ko‘p vositalar va uslublarni o‘rganib chiqsalar, ularni musobaqa bellashuvida shuncha to‘g‘ri, tez hamda samarali qo‘llay oladilar, turli malakali kurashchilarning musobaqa bellashuvlarini tahlil etish qobiliyatini rivojlantirish bilan esa sportchi notanish vaziyatdan to‘g‘ri yo‘l topib chiqib ketishi mumkin.

Trenirovka mashg‘ulotini o‘tkazish jarayonida kurashchilar quyidagi vazifalarni o‘z oldilariga qo‘yishi kerak: raqib maqsadi, yuzaga keladigan vazifalarni hal etish usullari, raqibning bellashuvdagi hatti-harakatlarini aniqlash uchun razvedka qilish. Razvedkani chorlash, aldanchi harakatlar, aldashlar bilan o‘tkazish mumkin.

Trenirovka mashg‘ulotlari davomida bellashuvni olib borish vositalari va uslublarini takomillashtirishni quyidagi uslubiyat orqali amalga oshirish mumkin: muayyan harakatni bajarish maqsadini tushuntirish; jahonning kuchli kurashchilari bellashuvlarining videomagnitofon yozuvini tahlil qilish hamda shunga muvofiq

kelgusida bellashuvni olib borish vositalari va usullarini tanlash, kurashchilar yo'l qo'ygan xatolarni bartaraf etish. Har bir muayyan vazifani hal etish vositalari va uslublarini o'rganish hamda takomillashtirish; o'quv-trenirovka bellashuvlari davomida harakat malakasini takomillashtirish.

O'quv-trenirovka bellashuvlarini shug'ullanuvchilar malakasiga muvofiq holda olib borish lozim. Misollar keltiramiz.

**1-vazifa.** Maqsadni va raqibning unga erishish vositalarini aniqlash (ko'pi bilan ikkita ball yutqazish bilan). Ikkinchi kurashchi bellashuvda g'alaba qozonish topshiriqladi.

*Vositalar:* xavf solish, chorlash, muvozanatdan chiqarish, himoyalanişlar, qarshi hujum.

*Maqsad:* razvedka qilish harakatini takomillashtirish.

Bellashuv formulasi: bir minutdan ikkita davr. Kurashchining bellashuvdan keyingi hisoboti baholash mezonini bo'lib xizmat qiladi.

**2-vazifa.** Birinchi kurashchi "sof" g'alabaga erishishi yoki ma'lum bir miqdorda ballar to'plashi, ikkinchisi – qarshi usullar yoki himoyalanişlarni (qanday harakat takomillashtirilayotganligiga qarab) bajarishi lozim. Masalan, birinchi kurashchi oyoqni ushlab olishni amalga oshiradi, bosh tashqarida. Tajriba o'tkazayotgan trener buyrug'i bilan har bir kurashchi o'z vazifasini yechishga kirishadi. Ushbu bellashuvda hujum, himoyalaniş va qarshi hujum harakatlari takomillashtiriladi.

Shunga o'xshash vazifalar hamma taktik harakatlarni takomillashtirish uchun ishlab chiqilishi mumkin. Yuzaga keladigan vazifalarni hal etish vositalari va usullariga asosiy e'tibor qaratiladi. Bunda sportchilarning jismoniy sifatlari (kuch, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik), texnik tayyorgarligi hisobga olinadi. Bundan tashqari, tajriba orttirish va taktik bilimlar darajasini oshirish maqsadida yuqori malakali kurashchilar tomonidan muayyan vaziyatlardan foydalanish vositalari hamda usullarining egallashişiga ham alohida e'tibor beriladi.

Ko'pgina mutaxassislarining fikricha, taktik mahorat ko'p jihatdan tez o'zgaritib turadigan musobaqa vaziyatlarida to'g'ri yo'l tutish qobiliyati bilan belgilanadi, shuning uchun yuqori surat'da amalga oshiriladigan ma'lum bir musobaqa vaziyatlarini mashg'ulotlarga kiritish lozim. Bundan tashqari, yana shu narsa muhimki, kurashchi juda toliqqan vaziyatlarda ham taklif qilingan har qanday topshiriqlarni

hal eta olishi lozim. Shuning uchun aynan shu narsa trenirovka jarayonida o'z o'rmini topishi lozim. Shuningdek bo'y uzunligi har xil bo'lgan raqiblar bilan kurashishda yuzaga keladigan vazifalarni hal eta olish malakasiga katta e'tibor berish zarur. Taktik mahoratni (turli musobaqa vaziyatlarini yoki bellashuvda paydo bo'ladigan vazifalarni hal etish qobiliyatini) baholash mezonini bo'lib hujum samaradorligi koeffitsienti xizmat qilishi mumkin.

N.M. Galkovskiy (1970) ma'lumotlariga ko'ra, kurashchi musobaqalarda g'alabaga erishish uchun 60% gacha hujum va himoyalanihlarni amalga oshirishi lozim. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, sportchilar musobaqalarda g'alaba qozonishi uchun 70% gacha razvedka harakatlarini, 60% – ushlab olishlarni, 60% – faollikni namoyish qilishni, 100% – xavfli holatni amalga oshirishni, 60% – qarshi hujum harakatlarini, 80% – ustunlikni ushlab qolishni, 80% – kuchni tiklashni, 100% – xavfli holatni bartaraf etishni bajarishlari lozim.

Uchinchi vazifani hal etish uchun, avval foydalanilgan uslubiy usullardan tashqari, darsning asosiy qismidan oldin kuchli sportchilar bellashuvlarini ko'rish hamda bitta kurashchini ikkinchisidan farqlab turadigan o'ziga xos belgilarni ajratgan holda tahlil qilish lozim. Aynan shunga asoslangan holda bellashuvni olib borishning taktik rejasini tuzish mumkin. Shundan so'ng kurashchilar bellashuv rejasini tuzadilar, trenerga ma'lum qiladilar va turli kurash usulida o'quv-trenirovka bellashuvini o'tkazadilar. Bellashuv tugashi bilan uning tahlili o'tkaziladi.

Taklif qilinadigan materialni yanada to'g'ri qabul qilishga yordam beradigan vazifalardan iborat o'quv-trenirovka bellashuvlaridan foydalanish lozim.

**1-vazifa.** Ikki minut tik turishda bellashish. Ikkala kurashchi mumkin qadar ko'p ball to'plashi lozim. Keyin bir minut – parterda. Birinchi kurashchi – yuqorida, ikkinchisi – pastda. Birinchisi qandaydir hujum harakati yoki hujum harakatlari kombinatsiyasini bajarishi lozim, ikkinchisi – yuqoriga chiqib olishi va yuqorida kurashishni davom ettirishi yoki pastda ushlanib qolishi zarur. So'ngra ikkala kurashchi tik turishda: birinchisi ikki minut ichida ustunlikni ushlab turishi, ikkinchisi – faollikni ko'rsatishi lozim. Keyin – aksincha, parterda (ikkinchisi yuqorida, birinchisi pastda) birinchi vazifaga o'xshash bo'lgan teskari vazifa oladilar, ya'ni bellashuv formulasi

quyidagicha: ikki minut tik turish – bir minut parter – ikki minut tik turish – bir minut “ko‘prik” – ikki minut tik turish – bir minut parter – ikki minut tik turish – bir minut “ko‘prik”.

**2-vazifa.** Uch kishilik o‘quv-trenirovka bellashuvlari. Birinchi, ikkinchi kurashchi – ikki minut tik turish; birinchi, uchinchi – bir minut “ko‘prik”; uchinchi, ikkinchi – ikki minut tik turish; ikkinchi, birinchisi – bir minut “ko‘prik”; birinchi, uchinchi – bir minut parter; uchinchi, ikkinchi – ikki minut tik turish.

Vazifalar quyidagicha bo‘lishi mumkin: razvedka qilish; 4 ball yutish; ustunlikni ushlab qolish; faqat himoyalaniish; himoyalaniish va qarshi hujum; kuchni tiklash; “ko‘prik” holatidan bosib turish; “ko‘prik” dan chiqib ketish, faollikni namoyish qilish ; gilam chetida ushlab olishni bajarish.

Bellashuv davomida raqibni almashtirish bilan bajariladigan o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlariga katta e‘tibor berish lozim. Bu sportchilarda eng qimmatbaho sifatlardan biri – raqib bellashuvni olib borish taktikasini o‘zgartirgan vaziyatda bellashuvning taktik ko‘rinishini qayta tuzish malakasini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda raqibni o‘zgartirish kurashchi uchun kutilmagan vaziyatda va bellashuvning istagan paytida amalga oshiriladi. Masalan, birinchi va ikkinchi kurashchilar o‘quv-trenirovka bellashuvini olib bormoqda, bir minutu 20 sekunddan keyin, kurashchilar holatidan qat‘i nazar, bellashuv to‘xtatiladi va uchinchi hamda to‘rtinchi kurashchilar bellashuvga kirishadilar. Gilamda ikkita juftlik hosil bo‘ladi: birinchisi – birinchi va uchinchi kurashchilar, ikkinchisi – ikkinchi va to‘rtinchi kurashchilar.

Bir minutdan so‘ng juftliklar yana sheriklar bilan almashadilar. Texnik harakatlarning amalga oshirilish samaradorligi va ularning bellashuvning har bir minuti hajmida taqsimlanishi sportchilar tomonidan bellashuvning olib borilishini baholash mezonini bo‘lib xizmat qiladi.

### **12.1.3. Musobaqalarda qatnashish taktikasi**

Butun musobaqani o‘tkazish taktikasi tortilishdan so‘ng, ya‘ni raqiblar tarkibi aniqlangandan va yaqin orada bo‘lib o‘tadigan bellashuvlar juftliklari tuzilgandan keyin belgilanadi. Shundan keyin ikkita mashg‘ulotdan so‘ng chiqib ketish yo‘li bilan o‘tkaziladigan musobaqalarda ma‘lum bir o‘rinni egallash uchun o‘tish lozim bo‘lgan davrlar (uchrashuvlar) sonini tahminan bilish maqsadida har bir

uchrashuv maqsadi aniqlanadi. Kurashchi qaysi bellashuvlarni “sof” g‘alaba, yaqqol ustunlik bilan, qaysilarini ballar bo‘yicha yutishi lozimligini belgilab olish lozim. Taktik jihatdan to‘g‘ri yo‘l tutish maqsadida, har bir davra tugashi bilan turnirdagi o‘z holati hamda raqib holatini baholab borish zarur. Buning uchun o‘z vazn toifasi bo‘yicha musobaqalar jadvalini olib borish lozim.

Ko‘p sonli qatnashchilar (20 dan ortiq) ishtirok etadigan musobaqalarda sportchi finalga yetib borishi uchun kamida oltita bellashuvni o‘tkazishi kerak. Katta nagruzkani hisobga olib, kurashchi bellashuvlar o‘rtasidagi tanaffuslarda o‘zining jismoniy kuchi va ruhiy qobiliyatlarini yaxshi tiklab borishi, ortiqcha jismoniy va ruhiy zo‘riqishlardan holi bo‘lishi zarur. Jamoa musobaqalarida trener har bir uchrashuvga dastlabki taktik reja ishlab chiqadi. U har bir ishtirokchi oldiga ma‘lum bir vazifani qo‘yadi: “sof” g‘alaba, yaqqol ustunlik bilan yoki ochkolar bo‘yicha g‘alabaga erishish.

Match musobaqalarida kurashchi faqat bitta bellashuv o‘tkazadi va uning vazifasi shundan iboratki, u hamma texnik va taktik usullar to‘plami, jismoniy hamda ruhiy tayyorgarlikdan foydalana olishi va bellashuvda g‘alabaga erishishi lozim.

Razvedka kurashchilarning eng muhim taktik vositasi hisobalanadi. U bellashuv davomida oldindan va bevosita amalga oshiriladi.

Musobaqa oldidan dastlabki razvedka kurashchining musobaqa qoidalari, uning maqsadi, miqyosi, xususiyati (turnir yoki match musobaqasi), o‘tkazilish usullari, sinov xususiyatlari, o‘tkazish joyi va vaqtini bilishni nazarda tutadi. Muayyan raqib tayyorgarligi: uning texnik-taktik tayyorgarligi, yaxshi ko‘rgan usullari, qay holatda (tik turishda yoki parterda) kurashishni afzal ko‘rishi, qaysi usullar bilan yutishi va qaysilari bilan yutqazib qo‘yishi to‘g‘risida oldindan ma‘lumotlar olish kerak. Bu ma‘lumotlarni kurashchi va trener matbuot, kinolavhalar, videoyozuvlari, shu raqib bilan avval uchrashgan kurashchilarning ma‘lumotlari orqali olishi mumkin. Uchrashish ko‘zda tutilayotgan raqiblarga imkoni boricha alohida qog‘ozcha tayyorlash va unga uning jismoniy hamda texnik tayyorgarligi, ularning rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qayd qilish lozim. Raqibning boshqa kurashchilar bilan bo‘lgan bellashuvlardagi xatti-harakatlarini kuzatish ko‘p foydalidir.



Bellashuv davomidagi razvedka raqibning tayyorgarligi to'g'risida yanada aniq ma'lumotlarni olishga yordam beradi. Razvedka asosan bellashuv boshida o'tkaziladi va raqib qanday usullardan foydalanayotganligi, qanday qarshi hujum uyushtirayotganligi, uning taktik tayyorgarligi usullari, reaksiya tezligi, kuchi va chidamliligini aniqlashga qaratilgan. Buning uchun raqibga hujumning u yoki bu usulini bajarish uchun ataylab qulay sharoit yaratish bilan uni chorlashni qo'llash mumkin. Bunda himoyalanihga va qarshi hujum uyushtirishga tayyor turish lozim. Raqibning javob reaksiyasini aniqlash uchun turli xil usullar bilan aldamchi hujumlarni qo'llash mumkin, lekin bir vaqtning o'zida uning qarshi hujumlaridan himoyalanihga tayyor turish lozim. Manevr olib borish raqibning hujum usullarini aniqlashga xizmat qiladi (tik turishni o'zgartirish, raqibdan chekinish va unga yaqinlashish, uning atrofida harakatlanish, h.k.).

Gilam maydonida, uning markazida yoki chetida holatni o'zgartirish razvedka maqsadi bo'lib xizmat qilishi mumkin. U raqib qaysi joyda kurashishni afzal ko'rishini, unga qanday hujum qilish yoki undan qanday himoyalanihni aniqlashga imkon beradi. Ma'lumotlarni har safar yangitdan to'plash zarur emas, avval shu raqib bilan bo'lgan uchrashuvlardan ma'lum hamma axborotdan foydalanish hamda ehtimoldagi raqiblar tayyorgarligi to'g'risidagi qog'ozchaga ega bo'lish lozim.

Razvedkadan tashqari, muhim taktik harakatlardan yana biri – bu niyatni yashirish hisoblandi. U kurashchining taktik harakati bo'lib, bunda kurashchi kurash jarayonida raqibning razvedka qilishiga to'sqinlik qilgan holda undan o'zining asl niyatini yashiradi. To'g'ri yashirish kurashchining shaxsiy kashfiyotchiligiga bog'liq. Tezlashgan; qattiq nafas olish va harakatlarning sustligi bilan qattiq toliqqanlikni namoyish qilish va shu vaqtning o'zida "portlashga" tayyor bo'lib, bellashuvda tez va keskin hujumni bajarish mumkin. Bo'sh raqib bilan o'zining "shoh" usullarini qo'llamasdan turib ikkinchi darajali usullar bilan g'alaba qozinishga harakat qilish lozim.

## **O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari**

### **1. Sportchining taktik tayyorgarligi degani nima?**

- a. texnik hatolarni zamonaviy aniqlash va to‘g‘irlash
- b. sport turining xususiyatlarini hisobga olgan holda bellashuv borishini sportchi oqilona tuzishni bilish
- c. texnik usullarni egallash va amalga oshirish uslublari
- d. musobaqa faoliyatining yuqori darajali ko‘rinishi.

### **2. Taktika degani nima?**

- a. musobaqa bellashuvini oqilona olib borishni bilish
- b. trenerning barcha ko‘rsatmalarini bajarish
- c. sport kurashini olib borish uslublari jamlanmasi
- d. a, b va c.

### **3. Bellashuvni olib borish deganda nima tushuniladi?**

- a. bellashuvga qo‘yilgan reja bo‘yicha olib borish
- b. raqib harakatlaridan oldin harakatlanish va uni razvedka qilish
- c. musobaqa harakatlari va jismoniy tayyorgarlikni nazorat qilish
- d. sharoitdan kelib chiqib bellashuvning har qanday holatida va aniq raqib xususiyatini hisobga olib ko‘proq maqsadga muvofiq bo‘lgan o‘zining texnik, taktik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlarini qo‘llash.

### **4. Taktika elementi nima deb hisoblanadi?**

- a. taktik yo‘llar, texnik-taktik harakatlar, hamda raqibga psixologik ta’sir etish, joyni tanlash va niyatni yashirish
- b. texnik-taktik harakat turlari, ularni boshqarish uslublari
- c. texnik harakatlarning tezligi va sharoitlarni baholash
- d. bellashuv paytida qayta yo‘nalishni o‘zgartira olish.

### **5. Taktik variantlar deganda nima tushiniladi?**

- a. hujum harakatlarining biomexanik tasnifi
- b. texnik-taktik harakatlarning har xilligi
- c. taktik yo‘llarning kombinatsiyasi
- d. bellashuv paytida harakatlar va tashkillashtirish tadbirlar tizimi.

### **6. Taktik fikrlash deganda nima tushiniladi?**

- a. bellashuvni olib borish rejasini shakllantirish va musobaqada qatnashish
- b. tezkor sharoitni baholash va qaror qabul qilish
- c. raqib harakatlarini tahlil qilish va javob harakatlarini qurish
- d. to‘g‘ri qarorni qabul qila olishni bilish.

**7. Sport kurashidagi bellashuv paytida qanday taktik turlar ajratiladi?**

- a. usullarni o'tkazish taktikasi va musobaqada qatnashish taktikasi
- b. nazariy jihatdan ko'rilgan taktika va uning amalda bajarilishi
- c. hujumkor, qarshihujumkor, himoya taktikasi
- d. to'xtovsiz hujum va qarshihujum taktikasi.

**8. Sport taktikasining qanday amaliy elementlari mavjud?**

- a. musobaqa kurashini samarali ta'minlovchi, maqsadga muvofiq vosita va musobaqa harakat uslublari
- b. musobaqa jarayonida kuchni oqilona taqsimlash uslubi
- c. raqibga psixologik ta'sir etish va o'z niyatini yashirish
- d. a, b va c.

**9. Hujum taktikasi qanday turlarga ajratiladi?**

- a. individual modellarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish
- b. to'xtovsiz hujum taktikasi va epizodli hujum taktikasi (sportlar)
- c. tashabbusni o'z qo'liga olishga intilish va hujumga o'tish
- d. taktik harakatlarda yuqori darajadagi tezlik va chidamlilik.

**10. Algoritmik taktika nima asosida quriladi?**

- a. musobaqada qatnashishning istiqbolli rejasini tuzish asosida
- b. qaror va o'ylagan rejani amalga oshirish uslublarida
- c. oldindan harakatlarni rejalashtirilgan va uni ataylab amalga oshirish tizimida
- d. strategik vazifalarning samarali hal qilish qaror yo'llarini to'pishda va foydalanishda.

**11. G.Tumanyan va Ya.K. Koblev fikricha dzyudochilarning ko'p yillik texnik-taktik tayyorgarligini qanday bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiqdir?**

- a. texnik-taktik mahorat va musobaqa harakatlar fundamenti
- b. jismoniy va texnik tayyorgarliklar, va undan keyingina taktik tayyorgarlik
- c. nazariy, amaliy, taktik va strategik tayyorgarlik
- d. yakkakurashni olib borish asosini shakllantirish, bazaviy texnikani shakllantirish, aralash yo'sinni shakllashtirish, individual tayyorgarlik.

**12. Taktikaning umumiy hajmi deb nima aytiladi?**

- a. bellashuvning borishida oqilona harakat elementlari
- b. sportchi yoki jamoa egallagan taktik yo'llar ro'yxati
- c. musobaqada va bellashuvda kuchlarni taqsimlash variantlari

d. taktik fikrlash va harakatning tejamkorligi va samaradorligi.

**13. Qarshi hujum taktikasi nimaga asoslangan?**

a. yuqori darajadagi tezkorlik va chidamlilikga

b. kurashchi bellashuv holatini yaxshi his etib to'g'ri yo'lni aniqlash

c. raqib tomonidan faol harakati natijasida qulay vaziyatlar tug'ilganda bellashuvda hujum va qarshihujumni qurishni bilishda

d. a, b va c.

**14. Kurashchining taktik tayyorgarligi qaysi asosiy turlari bilan tavsiflanadi?**

a. musobaqada qatnashish taktikasi

b. bellashuvni o'tkazish taktikasi

c. texnik harakatni amalga oshirish taktikasi

d. a, b va c.

**15. Sport kurashida murakkab hujum harakatini o'tkazish tuzilmasi qanday texnik-taktik elementlardan tashkil topgan?**

a. raqibni adashtirish va usulni o'tkazish

b. taktik tayyorgarlik harakati yordamida qulay dinamik holatni vujudga keltirish, ushlab va yakunlovchi texnik harakatni o'tkazish

c. texnik usullar kombinatsiyasini va bog'lamlarni o'tkazish

d. a, b va c.

**16. Sport kurashida texnikaning hajmi qanday aniqlanadi?**

a. musobaqa va mashg'ulotlarda sportchi bajaradigan umumiy harakatlar soni bilan

b. texnik harakatlar tuzilmasi va ularning har xilligi

c. texnik usullarni ishonchli va samarali bajarishda

d. musobaqaning borishini kuzatish usuli bilan.

**17. Sport taktikasining amaliy elementlarini egallash samaradorligi avvalombor nima bilan aniqlanadi?**

a. sportchining aqliy va jismoniy imkoniyatlari bilan

b. shaxsiy imkoniyatlarni maksimal amalga oshirish bilan

c. avvalombor sportchining texnik tayyorgarligi bilan

d. to'g'ri javob yo'q.

**18. Kurashchilarning taktik mahorati qanday usul va uslublar bilan aniqlanadi?**

a. o'quv-mashg'ulot jarayonini tadqiq etish bilan

b. so'rovnoma, suhbat o'tkazish va intervyu olish bilan

c. kurashchilarning musobaqa faoliyatini stenografiya qilish va taktik fikrlashni testlash asbobi bilan

d. bellashuvni olib borishida o'rgangan usullarni amalga oshirish qobiliyati bilan.

**19. Nima "tojli usul" (koronny priyom) deb ataladi?**

a. bellashuvni yakunlaydigan usulni

b. kurashchining hujum paytida o'tkazadigan usuli

c. raqib o'zini har doim ham himoya qila olmaydigan usul

d. jismoniy va axloqiy-irodaviy sifatlarni jamlagan, avtomatik darajada takomillashtirilgan texnik harakat.

**20. Yu.A. Shaxmuradov kurashchi zaxirasidagi harakatlar va ularni amalga oshirishda qanday guruhlariga ajratadi?**

a. alohida amalga oshiriladigan harakatlar(elementlar) va texnik-taktik harakatlar

b. turg'un jamlangan amalga oshiriladigan harakatlar (ushlashlar, usullar)

c. algoritmlar, kombinatsiyalar va bog'lamlar

d. a, b va c.

**21. Yuqori malakali kurashchilar musobaqa bellashuviga qarab qanday tipologik xususiyatlarga ajratiladi?**

a. hujumkor va qarshihujumkorlarga

b. bellashuvni oqilona o'tkaza oladigan va g'alaba yetisha oladiganlarga

c. o'yin shaklida (texnarlar), tezkorlar (funksionallar), tezkor-kuchlilarga

d. texnik mahorat va taktik kamolotga etganlikga.

### O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kaliti

№	A	B	C	D
1.		*		
2.			*	
3.				*
4.	*			
5.			*	
6.		*		
7.			*	
8.				*
9.		*		
10.			*	
11.				*
12.		*		
13.			*	*
14.				*
15.		*		
16.	*			
17.			*	
18.			*	
19.				*
20.				*
21.			*	

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Алиханов Н.И. Техника и тактика вольной борьбы. М., 1985.
2. Галковский Н.М., Керимов Ф.А. Вольная борьба. Т., 1987.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2001.
4. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2005.
5. Ленц А.Н. Тактика в спортивной борьбе. М., 1967.
6. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Киев, 1997.
7. Современная система спортивной подготовки. Под.ред. Сулова Ф.П. и др. М., 1995.

## **13-BOB. KURASH TURLARIDA REJALASHTIRISH TURLARI**

### **13.1. Rejalashtirish mohiyatiga ahamiyati, uning turlari**

Sport trenirovkasini rejalashtirish – bu sport tayyorgarligi vazifalarini hal etish shartlari, vositalari va uslublarini, sportchi egallashi lozim bo‘lgan sport natijalarini oldindan ko‘zlashdir. Sportchilar tayyorgarligini to‘g‘ri rejalashtirish bu mazkur sportchilar kontingenti (yoki bitta sportchi) xususiyatlarining tahlilidan kelib chiqib, tayyorgarlik jarayonidagi asosiy ko‘rsatkichlarni belgilash hamda ularni vaqt oraliq‘ida taqssimlashdir (V.P. Filin, N.A. Fomin, 1980).

So‘nggi paytlarda sport kurashida trenirovka jarayonini rejalashtirish to‘g‘risidagi tasavvurlar ancha o‘zgardi. Bu musobaqa qoidalariga ba‘zi o‘zgartirishlarning kiritilishi va Xalqaro kurash federatsiyasining musobaqa bellashuvlari tomoshabopligini oshirish bo‘yicha qo‘ygan talablari bilan bog‘liq.

Hozirgi paytda katta tajriba materiali to‘plangan, sportchilar tayyorgarligini yanada yuqori darajada sifatli rejalashtirish uchun ob‘yektiv shart-sharoitlar yaratilgan.

Sportchilar tayyorgarligi jarayonini muvaffaqiyatli boshqarish ikkita muhim shartlarni hisobga olishni taqozo etadi: birinchidan, nagruzkalar hajmi va shiddatining keskin o‘sishi (hozirgi zamon yuqori natijalar sportida nagruzkalar biologik me‘yorlar chegarasiga yaqinlashmoqda); ikkinchidan, trenirovkaning son parametrlari va mahorat darajasining tenglashishi (jahonning yetakchi sportchilari tajribasida). Shu sababli trenirovka tuzilmasini optimallashtirish va optimal trenirovka dasturlarini tuzish birinchi darajadagi ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda (M.P. Matveyev, 1977).

Trenirovka jarayonini rejalashtirish – bu birinchi navbatda turli davrlar uchun rejalar tizimini yaratish hisoblanadi. Bu davrlarda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan maqsadlar kompleksi amalga oshirilishi lozim.

Dars (mashg‘ulot) trenirovka jarayonining elementar tarkibiy qismi hisoblanadi. Alohida mashg‘ulotlardan trenirovka kuni, ulardan – mikrosikl tashkil topadi, bir nechta mikrosikllar birlashmasi yangi, nisbatan mustaqil, trenirovka jarayonining butun bo‘lagi bo‘lgan mezotsiklni hosil qiladi.

Bir nechta mezosikllarning birlashmasi yanada yirik va nisbatan tugallangan tuzilma – makrosiklni tashkil etadi (G.S. Tumanyan, 1984). Trenirovkaning mikro-, mezo- va makrosikllar kabi davrlarga

ajralishiga qarab nagruzkalar o'lchamlari, hajmi, shiddati, tayyorgarlik vositalari hamda uslublari o'zgaradi.

Sport kurashida o'quv-trenirovka jarayonini rejalashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- istiqbolli – bosqich, davr, yil, bir qator yillar uchun;
- kundalik – trenirovka mikrosikli uchun;
- tezkor – bir mashg'ulot uchun.

Kurashchilarning ko'p yillik trenirovkasiga mo'ljallangan rejani tuzishda sport kurashi rivojlanish yo'lining bashorati hamda musobaqalar qoidalaridagi o'zgarishlarga amal qilish lozim. Shu sababli trenirovka vositalari, hajmi va shiddati vazifalarining o'zgarishini nazarda tutish zarur.

Istiqbolli reja butun o'quv guruhi kabi alohida har bir kurashchi uchun tuziladi.

Sport trenirovkasining umumiy (guruhli) rejasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: guruhning qisqacha tavsifi; ko'p yillik trenirovka maqsadi va asosiy vazifalari; tayyorgarlik bosqichlari va trenirovka jarayonining bosqichlar bo'yicha asosiy yo'nalishi (asosiy vazifalari, ularning har bir bosqichdagi ulushi); sportchilar tayyorgarligini tavsiflovchi sport-texnik ko'rsatkichlar va nazorat me'yorlari; pedagogik hamda tibbiy nazorat (V.P. Filin, N.A. Fomin, 1986).

Trenirovkaning istiqbolli rejalashtirilishi albatta yillik rejalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Yillik rejalarga qo'llaniladigan vositalar va trenirovka nagruzkalarining batafsil bayoni kiritiladi. Kundalik rejalashtirishda sport formasi dinamikasining ilmiy qonuniyatlari (yuzaga kelish, barqarorlashtirish va vaqtinchalik pasayishi) qo'llaniladi. Kundalik rejalashtirish tuzilmasiga turli omillar: o'qish va mehnat tartibi, mashg'ulotlar mazmuni, soni va nagruzkalar o'lchamlarining umumiy yig'indisi, trenirovka nagruzkalariga bo'lgan reaksiyaning alohida xususiyatlari hamda kurashchilar malakasi ta'sir etadi.

Tezkor rejalashtirish kundalik rejalashtirish asosida amalga oshiriladi. Bunday rejalashtirish turi vazifalar, vositalar, uslublar, nagruzkalar hajmi va shiddatini aniqlashtirishni ko'zda tutadi. Trenirovka mashg'ulotlari tuzilmasi, birinchi navbatda, maksimal trenirovka samarasiga erishishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Trenirovkaning tezkor rejasiga muvofiq mashg'ulotlar konspekti tuziladi, unda



tayyorlov (badan qizdirish) asosiy va yakuniy qismlar, takrorlashlar soni, tanaffuslar davomiyligi hamda dam olish xususiyati bayon qilinadi.

Trenirovka jarayonida uchta davr: tayyorgarlik, musobaqa, o'tish davrlari ajratiladi.

Tayyorgarlik davrida trenirovkalar faol dam olishdan shiddatli maxsus ishga, jismoniy sifatlarni keyinchalik ham rivojlantirishga, kurash texnikasi va taktikasini egallash ham takomillashtirishga asta-sekin o'tishni ta'minlashga qaratilgan. Bu davrda sportchilarning oldinda turgan musobaqa davrida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun mustahkam poydevor yaratish lozim. Tayyorgarlik davrining asosiy vazifalari organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash va kurashchi uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan, texnik-taktik harakatlarni egallash hamda takomillashtirish, ularni amalga oshirishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, iroda va ma'naviy sifatlarni tarbiyalashdan iborat.

Trenirovkaning musobaqa davri maqsadi – musobaqalarga tayyorlash va unda muvaffaqiyatli ishtirok etish. Ushbu davrning asosiy vazifalari yuqori darajada mashqlanganlikka ega bo'lish, texnik-taktik harakatlarni keyinchalik ham mustahkamlash hamda takomillashtirish, musobaqalarda qatnashishda bellashuvni olib borish taktikasi bilimlarini kengaytirish hamda mustahkamlash, yuqori darajada jismoniy, iroda va ma'naviy sifatlarning rivojlanishiga erishish nazariy bilimlarni kengaytirishdan iborat.

Bu bosqichda sportchilar, malakalariga qarab, mas'uliyatli musobaqalarda ishtirok etadilar.

Trenirovkaning o'tish davriga trenirovka nagruzkasining pasayishi xos bo'ladi. Davrning asosiy vazifalari: salomatlikni mustahkamlash va organizmni chiniqtirish, umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish.

Asosiy vositalar: sport o'yinlari, suzish va boshq. To'g'ri tuzilgan o'tish davri organizm funksional imkoniyatlarini keyinchalik ham rivojlantirish, kurashchining maxsus tayyorgarligini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

### 13.2. Tayyorgarlik mezosikllarini rejalashtirish

Trenirovka mezosikli 3 haftadan 6 haftagacha davom etadigan trenirovka jarayoni bosqichidir. Mezosikllar asosida trenirovka jarayonini tashkil etish uni tayyorgarlik davri yoki bosqichining asosiy vazifasiga muvofiq tizimlashtirish, trenirovka nagruzkalari va musobaqa faoliyatining optimal dinamikasi, turli tayyorgarlik vositalari va uslublarining maqsadli uyg'unlashuvi, pedagogik ta'sir omillari hamda tiklash tadbirlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga, turli sifatlar va qobiliyatlarni rivojlantirishda zarur izchillikka erishishga imkon yaratadi (L.P. Matveyev, 1977; V.N. Platonov, 1986).

L.P. Matveyev (1976) an'anaviy mezosikllarning sakkizta turini ajratadi: tortuvchi; bazaviy, ular rivojlantiruvchi va barqarorlashtiruvchi bo'ladi; nazarot-tayyorgarlik; sayqallashtiruvchi; musobaqa oldi; musobaqa tiklanish-tayyorlov va tiklanish-saqlab turuvchi. Har bir mezosikl uchta, oltita mikrosikllardan iborat bo'ladi. Ularning to'plami rejalashtirilayotgan mezosiklning muayyan vazifalari bilan aniqlanadi.

Mezosikl turlarining bunday ko'p bo'lishi trenirovka jarayoni tuzilmasini juda murakkablashtirib yuboradi va trenirovkani rejalashtirishni qiyinlashtiradi.

G.S. Tumanyan (1984) fikricha, sportchilar trenirovkasini rejalashtirishda yuqorida aytib o'tilgan mezosikl turlarining kamdan-kam qo'llanilishi aynan shunga bog'liq. Ehtimol, V.N. Platonov (1988) tomonidan taklif qilingan mezosikllar turlari tasnifiy amaliyot uchun qulayroqdir: tortuvchi, bazaviy, nazorat-tayyorgarlik, musobaqa oldi va musobaqa. Muallif fikriga ko'ra, tortuvchi mezosikllarning asosiy vazifalari sportchilarni maxsus trenirovka ishini samarali bajarishga maqsadli yaqinlashtirishdan iboratdir. Bazaviy mezosikllarda organizm asosiy tizimlarining funktsional imkoniyatlarini oshirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnik, taktik va ruhiy tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha asosiy ishlar olib boriladi.

Nazorat-tayyorgarlik mezosikllarida sportchilarning avvalgi mezosikllarda erishgan imkoniyatlari (musobaqa faoliyati xususiyatiga muvofiq) sintezlashtiriladi, ya'ni integral tayyorgarlik amalga oshiriladi. Musobaqa oldi mezosikllari sportchi tayyorgarligi davomida aniqlangan mayda kamchiliklarni bartaraf etish, uning texnik imkoniyatlarini takomillashtirish uchun mo'ljallangan. Bu mezosikllarda ma'lum bir maqsadga qaratilgan ruhiy taktik tayyorgarlik alohida o'rin egallaydi. Musobaqa mezosikllari soni va tuzilmasi sport turining

o'ziga xos xususiyatlari, sport kalendari xususiyatlari, sportchilar malakasi va tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi.

Mezosikllarning umumiy tuzilmasi barqarorligi ularning mazmunini muntazam takomillashtirib borishga, ta'sirchan nazorat o'rnatishga hamda S.M. Vaytsexovskiy (1979) taklif etgan "ilgarilovchi" rejalashtirish tamoyilini amalda yuzaga chiqarishga yordam beradi. Ushbu tamoyilga binoan joriy makrosiklning mikrosikllari va mezosikllaridagi trenirovka natijalari darhol navbatdagi makrosiklning shunga o'xshash tuzilmalari dasturini rejalashtirish uchun qo'llaniladi.

#### An'anaviy rejalashtirish uslubi.

Reja – Rejaning bajarilishi – Bajariladigan ishning yakuniy tahlili  
– Yangi rejani ishlab chiqish.

#### Parallel rejalashtirish uslubi.

Reja – Rejaning bajarilishi – Bajariladigan ishning yakuniy tahlili

↓

Kundalik tahlil ↓

(Parallel) Yangi reja ↓

Yangi rejani ishlab chiqish (parallel)

### **13.3. Tayyorgarlik mikrosikllarini rejalashtirish**

Sport amaliyotida trenirovka mikrosikli deganda bir necha kun davomida o'tkaziladigan va mazkur tayyorgarlik bosqichi vazifalarini kompleks hal etishni ta'minlaydigan mashg'ulotlar seriyasi tushuniladi.

Mikrosikllar davomiyligi – 3–4 kundan 10–14 kungacha.

Kalendar haftaga muvofiq bo'lgan 7 kunlik mikrosikllar ko'p tarqalgan (L.P. Matveyev, V.N. Platonov).

Mikrosikllarni rejalashtirishda an'anaviy va noan'anaviy yondashishni ajratish mumkin.

An'anaviy mikrosikllar. L.P. Matveyev hammualliflari bilan an'anaviy mikrosikllarning to'rtta turini ajratishni taklif qiladi: shaxsan trenirovka mikrosikli, ular trenirovka nagruzkasi yo'nalishiga qarab, umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik mikrosikllariga, nagruzka o'lchami hamda dinamikasiga qarab, oddiy hamda zarbdor mikrosikllarga bo'linadi; yaqinlashtiruvchi, ular o'z mazmuniga ko'ra musobaqa vaziyatini qisman modellashtiradi va kurashchilarning maxsus ish qobiliyatini muntazam oshirishga qaratiladi; musobaqa, ular

musobaqa sharoitlarini to'liq aks ettiradi; tiklanish (yoki musobaqalardan keyingi yengillashtiruvchi) mikrosikl, ularning maqsadi sportchilarning musobaqalarda qisman yo'qotgan ish qobiliyatini tiklashdan iborat (G.S. Tumanyan, 1984).

O'z navbatida taniqli mutaxassis V.N. Platonov (1986) beshta turdagi mikrosikllarni ajratishni taklif qildi; tortuvchi, zarbdor, yaqinlashtiruvchi, musobaqa va tiklanish. Biroq bu turdagi mikrosikllar mazmunining tahlilidan shu narsa ko'zga tashlanadiki, ular L.P. Matveyev taklif etgan turlardan muhim darajada farq qilmaydi.

Shuni esda tutish lozimki, mikrosikldagi nagruzkalar va dam olishning turli almashuvi uchta turdagi reaksiyalarga olib kelishi mumkin; a) mashqlanishning maksimal darajada o'sishi; b) trenirovka samarasining kamligi yoki butunlay bo'lmasligi; c) sportchining toliqib qolishi. Amaliyotning katta va juda katta nagruzkali (ular ham o'zaro, ham kichik nagruzkali mashg'ulotlar bilan oqilona almashib turiladi) mashg'ulotlarning optimal soni mikrosiklga kirgan hollar birinchi turdagi reaksiyaga xosdir. Katta nagruzkalarni haddan ortiq qo'llash toliqishga olib keladi.

#### **13.4. Yillik tayyorgarlik siklida trenirovkani tashkil qilish tizimini modellashtirish**

Ma'lumki, zamonaviy sport tayyorgarligi mavjud nazariy va amaliy bilimlarni umumiyashtirish hamda tartibga tushurishni taqozo etadi. Bir qator olimlar (Yu.V.Verxoshanskiy, A.P.Bondarchuk, L.P.Matveyev, V.V.Petrovskiy, I.N. Mironenko va boshq.) tomonidan yillik va ko'p yillik sikllarda trenirovkani tashkil etish modellari ishlab chiqilgan. Ular trenirovka nagruzkalari mazmunini, hajmining muhim parametrlari va ular musobaqa kalendari, mazkur bosqichda hal etiladigan vazifalar, an'anaviy bo'lib qolgan tayyorgarlikni davrlash va boshqa bir qator omillardan kelib chiqqan holda trenirovka nagruzkalari mazmuni, hajmi hamda vaqt ichida taqsimlashning eng muhim parametrlarini son jihatdan aks ettiradi.

Yillik sikldagi trenirovka modellarini ishlab chiqishga bo'lgan zarur shart-sharoitlar sifatida quyidagilar avval bajarilishi lozim:

– yetakchi sportchilar trenirovkasini tashkil etish va terma jamoalarni tayyorlashdagi amaliy tajribani o'rganish hamda umumlashtirish;

– sportchi holati dinamikasining trenirovka nagruzkasi mazmuni, hajmi va taqsimlanishiga bog‘liqligini tekshirish;

– tayyorgarlikning an’anaviy davrlanishi va musobaqalar kalendari-ga ko‘ra sportchilarning yillik sikldagi maxsus ish qobiliyati darajasi dinamikasidagi oqilona yo‘nalishni aniqlash.

Yillik siklni tuzishning prinsipial (mantiqiy), so‘ngra uning asosida esa individual (son) modelini ishlab chiqish zarur.

Maxsus adabiyotlar va trenirovkaning amaliy tajribasi tahlili mutaxassislarga shunday xulosaga kelishga imkon berdiki, ko‘p yillar avval vujudga kelgan trenirovkani tashkil etishning an’anaviy shakllari va tamoyillari bugungi kunda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash vazifalarini qoniqtirmaydi. Yuqori malakali sportchilar maxsus jismoniy sifatlarining rivojlanishi shunday darajaga yetdiki, ularni keyinchalik takomillashtirish uchun yangi, yanada samarali trenirovka vositalari hamda uslublarini izlab topishni talab qiladi. Bundan tashqari, maxsus jismoniy tayyorgarlikning yillik sikldagi o‘rnini qayta ko‘rib chiqish hamda uning boshqa tayyorgarlik turlari bilan o‘zaro bog‘liqlik shakllarini aniqlash lozim.

Hozirgi paytda shu narsa ma’lumki, trenirovkani tuzish modelini ishlab chiqishning zarur shartlaridan biri amaliy tajribani tahlil qilish hisoblanadi. Bunday tahlil jarayonida yuqori malakali sportchilarning yillik sikldagi trenirovkasini tashkil qilishning amaliyotda mavjud bo‘lgan uslublarini o‘rganish, shuningdek sportchilar qo‘llaydigan trenirovka (zarur hollarda musobaqa) nagruzkalari hajmining aniq o‘lchamlarini aniqlash nazarda tutiladi.

Professor Yu.V.Vexoshanskiy hammualliflar bilan trenirovka modelini tuzish tamoyillari va shakllarini aniqlab beradigan asosiy omillar sifatida sportchilar holati hamda trenirovka nagruzkasining o‘zaro bog‘liqligining umumiy qonuniyatlari, shuningdek muntazam trenirovka ta’siri ostida kurashchi organizmining bir holatdan boshqasiga o‘tish qonuniyatini ajratadi. Har bir muayyan holda ushbu tamoyillarni amalga oshirish usullariga ta’sir ko‘rsatuvchi xususiy sharoitlar qatoriga quyidagilar kiradi: yillik tayyorgarlik siklini an’anaviy davrlash hamda joriy yil uchun muayyan musobaqalar kalendari, sportchining mahorat darajasi va maxsus tayyorgarligining alohida xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik bosqichlaridagi trenirovka xususiyati va yo‘nalishi, sportchi oldiga qo‘yiladigan vazifalar, musobaqa faoliyatining keskinligi va boshq. Biroq olimlar tomonidan

tavsiya etilgan bunday bo‘linish shartli ravishda ekanligini hisobga olish lozim.

### **13.5. Trenirovkaning katta bosqichini tuzish modeli**

Katta bosqich 5 oygacha davom etishi mumkin. Trenirovkani tashkil qilishning taklif etilayotgan shakli an’anaviysidan qat’iy farqlanadi va biz ularni ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, trenirovka jarayonini tashkil qilishning an’anaviy shaklida maxsus jismoniy va texnik tayyorgarlik deyarli bir vaqtda olib boriladi. Aytish joizki, trenirovkani bunday shaklda tashkil etishda nagruzkaning umumiy hajmi o‘sib borishi bilan uning shiddati ham ortadi. Keyin hajmi pasayadi, shiddati esa oshib borishda davom etadi.

Bir qator tadqiqotchilar (Yu.V. Verxoshanskiy; A.R. Levchenko; T.A. Antonova; I.N. Mironenko va boshq.) tomonidan taklif qilinadigan katta bosqichda trenirovkani tuzish varianti ishni tashkil qilishning butunlay yangi shakli hisoblanadi va ikkita mikro bosqichlarning bo‘linishidan hosil bo‘ladi): birinchisida katta hajmdagi maxsus kuch nagruzkasi jamlanadi, ikkichisida qoldirilgan trenirovka samarasi) amalga oshiriladi, natijada texnik mahoratning chuqurlashgan takomillashuvi sodir bo‘ladi. Bunda an’anaviy shakldan farqli ravishda, birinchi bosqich nagruzkasi nisbatan past shiddatga ega bo‘ladi, so‘ngra u asosan texnik tayyorgarlik vositalari hisobiga tez oshadi. Maxsus ish qobiliyati darajasi birinchi mikrobosqichda pasayadi, keyin tez oshadi.

Biroq bu sportchilarning maxsus jismoniy sifatlarini oshirish darajasi ustida alohida ish olib boriladi, degani emas. Texnik tayyorgarlik butun bosqich davomida trenirovkalarda olib boriladi. Lekin jamlangan kuch nagruzkasi “bloki” doirasida uning hajmi katta emas. Bu vaqtda texnikaning asosiy elementlari, sport mashqining alohida fazalari hamda butun harakat sxemasining ritmik tasviri takomillashtirishadi.

Jamlangan kuch ishining uzoq muddatli trenirovka samarasini (UMTS) amalga oshirishda (ikkinchi mikro bosqichida) texnik ish hajmi va shiddati asta-sekin oshib boradi. Musobaqa sharoitlariga yaqin yoki teng bo‘lgan rejimda asosiy mashqning bajarilish ulushi ortadi.

Trenirovkani tuzishning ko‘rib chiqilayotgan shakli umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT) vositalarini keng qo‘llashni va ularni maxsus ish bilan ma’lum darajada uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. UJT ning asosiy vazifasi maxsus ishdan keskin farq qiladigan va

sportchining ish qobiliyati hamda uning motor apparatini tiklashga yordam beradigan past shiddatli faoliyatga o'tish samarasini qo'llashdan iborat.

Yillik siklga ikkita katta bosqichlarni kiritish) maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan. Bunda bu sikl bitta yoki ikkita musobaqa mavsumini o'z ichiga olishi mumkin. Jamlangan kuch nagruzkasining ikkinchi "bloki" birinchisiga nisbatan hajmiga ko'ra kichik bo'lishi lozim.

Prinsipial model asosida trenirovkaning muayyan son modeli tuziladi. U quyidagilarni hisobga oladi:

- mazkur sport turida trenirovkani tuzish tajribasi va avvalgi bosqichda sportchilarning tayyorgarlik xususiyatlari;

- aniq musobaqalar kalendari;

- sportchilar maxsus tayyorgarligi va alohida topshiriqlarning kundalik darajasi;

- oldinga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun trenirovka va musobaqa nagruzkalari hajmlarining holisona zarur qiymatlari;

- sportchilar tayyorgarligining muayyan sharoitlari va moddiy ta'minoti.

### **13.6. Rejalashtirishning noan'anaviy shakli**

D.A.Arosev tomonidan trenirovka yilini rejalashtirishning maxsus tayyorgarlikni shakllantirish tizimi deb ataluvchi noan'anaviy shakli taklif qilingan edi. Ushbu tizimda hamma tayyorgarlik vositalarini muvofiqlashgan holda rejalashtirish usullariga e'tibor qaratilgan, ya'ni trenerning sportchilar maxsus tayyorgarligini shakllantirish bo'yicha hamma harakatlari sikli ko'zda tutilgan. Mazkur sikl tayyorgarlik maqsadlarini aniqlash, mavjud vositalarni tartibga solish, ularni vaqt oralig'ida taqsimlash va h.k. ni o'z ichiga oladi.

Trenirovka yilini rejalashtirishning noan'anaviy variant tuzilmasi ham boshqacha. U almashinadigan to'plash va amalga oshirish bosqichlariga bo'lingan va ular o'zaro almashini turiladi.

Yilda asosiy musobaqalar qancha bo'lsa, bunday bosqichlar shuncha bo'ladi. Bu bosqichlar ichida shuningdek ikkita turdagi mikrosikllar: asosiy va tartiblashtiruvchi mikrosikllar almashib turadi. Ularning bosqichdagi soni 3 dan 6 gacha atrofida o'zgarib turadi.

Noan'anaviy rejalashtirishning bunday shaklini takomillashtirish bo'yicha jadal olib borilgan ishlar sababli uning asosiy vazifalarini aniq

ajratib ko'rsatish imkoni yuzaga keldi: sportchilarni yilning asosiy musobaqalariga tayyorlash maqsadlarini aniqlash, maqsadli mashg'ulot, mikrosikl, bosqich uchun maqsadli vazifalarni ishlab chiqish; trenirovka vazifalarini tartibga keltirish, ya'ni ularni sportchilar tayyorgarligining turli tomonlariga (jismoniy, texnik-taktik, ruhiy, safarbarlik tayyorgarligi) yo'naltirilgan ta'sirini hisobga olgan holda tasniflash; hamma vazifalar guruhini ularning musobaqa faoliyati xususiyatiga yaqinligi darajasini hisobga olgan holda bir qatorga tizish (ya'ni ularning miqyosini aniqlash); trenirovka vazifalarini vaqt oralig'ida taqsimlash (ya'ni trenirovkani rejalashtirish, matnli hamda chizmalı rejalarni tuzish, bosqichlar, mikrosikllarni belgilab chiqish va h.k.).

Trenirovka yilini rejalashtirish shu bilan tugallanadi. Keyin rejaga tuzatishlar kiritish va uni takomillashtirish, ko'zda tutilgan rejani amalga oshirish boshlanadi.

Hozirgi paytda sportchilar musobaqa oldi tayyorgarligini olib borishning ikkita usuli ajaratiladi: an'anaviy va noan'anaviy. Musobaqa oldi tayyorgarligining an'anaviy usuli (L.P. Matveyev) haftama-hafta ixtisoslashtirilgan trenirovka nagruzkalarining asta-sekin o'sib borishi bilan rejalashtiriladi. Bevosita musobaqalar oldidan 1–2 kun dam olish beriladi. Bunda musobaqa boshlanishidan bir kun oldin bo'lajak bellashuvlar joyi, sport anjomlari va boshqa sharoitlar albatta sinab ko'riladi. Musobaqa oldi tayyorgarligining noan'anaviy usuli (D.A. Arosev; G.S. Tumanyan va boshq.) "tebrangich" tamoyiliga asoslanadi. Uning zaminida ikkita nazariy qoida yotadi: a) I.M. Sechenovning faol dam olish fenomenini amalga oshirish; b) sportchilarning umumiy va maxsus ish qobiliyatini maromga keltirish imkoniyati.

Ushbu tamoyilning amalga oshirilishi ikkita turdagi: asosiy (MTSa) va tartiblashtiruvchi (MTSt) mikrosikllarni almashtirib turish hisobiga erishiladi. Bu ikkala mikrosikllar trenirovka davomiyligi, maqsadi, vazifalari, vositalari, uslublari, nagruzkalar dinamikasi mashg'ulotlarni tashkil qilish shakllari, kun tartibi, ovqatlanish va h.k. bo'yicha farq qiladi.

Rejalashtirish uchun quyidagi dastlabki ma'lumotlar qo'llanilgan: o'quv-trenirovka yig'ini davomiyligi – 14 kun, oldindan turgan turnir davomiyligi – 3 kun.



Vertikaliga – musobaqa dasturi, rejasi va shartlariga nisbatan mashg‘ulotlarning ixtisoslashganlik darajasi; gorizontaliga – musobaqa oldi tayyorgarlik va musobaqa kunlari.

Xulosa qilib aytish mumkinki, trenirovkani va uni davrlashning uslubiy tamoyillari (L.P. Matveyev, 1964), sportchilar tayyorgarligining zamonaviy tizimi (N.G. Ozolin, 1970; L.S. Xomenkov, 1975; V.V. Kuznetsov, A.A. Novikov, 1977), trenirovka jarayonini boshqarishni (Yu.V. Verxoshanskiy, 1970) ishlab chiqish hamda keyinchalik takomillashtirish, inson sport ish qobiliyatining fiziologik mexanizmlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish quyidagi muhim muammo – trenirovkani dasturlashni hal etish uchun ob‘yektiv shart-sharoitlar yaratadi.

Yu.V. Verxoshanskiy (1985) ta‘rificha, dasturlash – bu trenirovka jarayonini rejalashtirishning yangi va yanada takomillashtirilgan shakli bo‘lib, u sportchi vaqti hamda energiyasini optimal sarflagan holda oldinga qo‘yilgan vazifalarning hal etilishini ta‘minlaydigan qandaydir o‘ziga xos tamoyillarga muvofiq hamda u yoki bu bosqich doirasida vositalarni tanlash hamda ularning mazmunini tartiblashtirishni ko‘zda tutadi.

### **13.7. Kurashchilar trenirovka jarayonini zamonaviy rejalashtirish**

Yil davomida bir tekis taqsimlangan mas‘uliyatli sport musobaqalari sonining ortib borishi 3–4 ta makrosikllarni rejalashtirishni taqozo etadi. Bitta makrosikl asosida yillik trenirovkani tuzish bir siklli, ikkita makrosikl asosida – ikki siklli, uchta makrosikl asosida – uch siklli deb ataladi.

Har bir makrosiklda tayyorgarlik, musobaqa va o‘tish davrlari ajratiladi. Ikki va uch siklli trenirovka jarayonida “ikkitalik” va “uchtalik” sikllar, deb nom olgan variantlar doim qo‘llaniladi).

Bunday hollarda birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi makrosikllar orasida o‘tish davrlari rejalashtirilmaydi, joriy makrosiklning musobaqa davri silliqqina keyingisining tayyorgarlik davriga o‘tadi (V.N. Platonov, 1986).

Bir qator mutaxassislar ko‘p yillik rejalashtirishda yillik siklning o‘z variantlarini taklif etadilar.

R.Petrov (1977) kurashchilarning birinchi va ikkinchi yilida bir siklli, uchinchi va to‘rtinchi yillarda – ikki siklli rejalashtirishni taklif

qiladi; bolalar hamda o'smirlar uchun tezkor reja tuzishda haftalik sikldagi trenirovka sxemasini tavsiya etadi (10-jadval)

Trenirovka jarayonini oqilona tuzish hozirgi zamon sport nazariyasi va usuliyatining markaziy muammosi hisoblanadi.

10-jadval

**Bolalar, kichik va katta yoshdagi o'smirlar uchun taxminiy haftalik sikllar (R.Petrov bo'yicha)**

Yosh guruhlar	Hafta kunlari						
	Du-shanba	Se-shanba	Chor-shanba	Pay-shanba	Juma	Shan-ba	Yak-shanba
	Tayyorgarlik davri						
Bolalar	UJT	-	TTT	-	UJT	-	Ham-mom
Kichik yoshdagi o'smirlar	UJT	TTT	-	UJT	TTT	-	Ham-mom
Katta yoshdagi o'smirlar	UJT	TTT	UJT	MJ TTT	UJT	TTT	Ham-mom
	Musobaqa davri						
Bolalar	-	TTT	-	UJT	-	MJ TTT	Ham-mom
Kichik yoshdagi o'smirlar	-	UJT	MJ TTT	UJT	TTT	MJ TTT	Ham-mom
Katta yoshdagi o'smirlar	MJ TTT	UJT	MJ TTT	UJT	TTT	MJ TTT	Ham-mom
	O'tish davri						
Bolalar	-	UJT	-	-	UJT	-	Sayo-hat
Kichik yoshdagi o'smirlar	UJT	-	TTT	-	IJT	-	Sayo-hat
Katta yoshdagi o'smirlar	-	UJT	TTT	-	UJT	UJT	Sayo-hat

*Izoh:* UJT – umumiy jismoniy tayyorgarlik, TTT – texnik-taktik tayyorgarlik, MJ TTT – maxsus jismoniy texnik-taktik tayyorgarlik.

## O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari

**1. Sport trenirovkasini rejalashtirish deganda nima tushuniladi?**

- a. zarur tadbirlar va dasturlarni ishlab chiqarish
- b. sport tayyorgarligi vazifalarini hal qilishda sharoit, vosita va usullarni oldindan ko‘ra olish
- c. konspekt-rejasi va musobaqa taqvim rejasini ishlab chiqarish
- d. sportchini tayyorgarlik tizimida aniq maqsadni belgilash.

**2. Trenirovka jarayonida nima oddiy tuzilma birligi deb ataladi?**

- a. berilgan mashqlarni bajarish
- b. aniq davrdagi nagruzka tuzilmasi
- c. trenirovka mashg‘uloti, dars
- d. trenirovka jarayonini har xil tashkil etuvchi mikrotuzilmalar.

**3. Sport kurashida o‘quv-mashg‘ulot jarayoni qanday rejalashtirish shakllarida olib boriladi?**

- a. shakl va jismoniy sifatlarni rejalashtirish
- b. istiqbolli, joriy va tezkor rejalashtirishlar
- c. nagruzka va musobaqalarni rejalashtirish
- d. o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari va natijalar taxminini rejalashtirish.

**4. Trenirovka mikrosikli nima deb atalish qabul qilingan?**

- a. ma’lum bir davr vazifalarini hal qilishni ta’minlovchi va birnecha kun davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar seriyasi
- b. trenirovkaning aylanma va statsionar shakli
- c. trenirovka jarayonining o‘rta tuzilmasi
- d. b va c.

**5. Istiqbolli rejalashtirish qancha vaqtga mo‘ljallangan?**

- a. yaqin musobaqani o‘tkazishgacha
- b. 2–3 yil trenirovka muddatigacha
- c. musobaqa natijasi chiqquncha
- d. davr, bosqich, yil, birnecha yillarga.

**6. Yillik trenirovka jarayonida qanday davrlarga ajratiladi?**

- a. katta nagruzka va tiklanish davri
- b. tayyorgarlik, musobaqa va o‘tish davrlari
- c. musobaqa va unga tayyorgarlik davri

d. boshlang'ich tayyorgarlik va takomillashtirish davri.

**7. Trenirovka mikrosikllari qanday tiplarga ajratiladi?**

a. texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik va musobaqada qatnashish

b. musobaqaga yakuniy tayyorgarlik va jismoniy sifatlarni tarbiyalash

c. tortuvchi, zarbaviy, yaqinlashtiruvchi, musobaqa va tiklanish

d. a va b.

**8. Tayyorgarlik davrining asosiy vazifasi nimalardan iborat?**

a. organizmning funksional holatini ko'tarish, umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash va kurashchiga zarur jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnik tayyorgarlik va axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash

b. taktik vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish

c. sportchini musobaqa tayyorlash

d. b, c.

**9. Musobaqa davrining maqsadi nimadan iborat?**

a. sportchining maxsus tayyorgarligini ko'tarish

b. texnik-taktik va musobaqa harakatlarini mustahkamlash va takomillashtirish

c. musobaqalarga tayyorgarlik va muvaffaqiyatli qatnashish

d. bellashuvni olib borish tarzini takomillashtirish.

**10. O'tish davrining asosiy vazifalari nimalardan iborat?**

a. sportchining boshqa darajaga o'tishga tayyorlash

b. sog'liqni mustahkamlash va organizmni chiniqtirish, umumiy tayyorgarlik darajasini ko'tarish

c. sportchi organizmini moslashuvi uchun har xil vositalardan foydalanish

d. keyingi musobaqa davriga yaxshiroq tayyorgarlik ko'rishga yordam berish.

**11. Trenirovka mezosikli qanday ko'rinishga ega?**

a. bir nechta haftalik mikrosikllar va trenirovka mashg'uloti

b. tayyorgarlik bosqichining maxsus tuzilmasi

c. 3 tadan 6 ta haftagacha davom etuvchi trenirovka jarayoni bosqichi

d. a va b.

**12. Trenirovka jarayonida qanday mezosikllar ajratiladi?**

a. tortuvchi va bazaviy mezosikllar

b. nazorat-tayyorlovchi, musobaqa oldi va musobaqa

c. texnik tayyorgarlik, umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni takomillashtirish

d. a va b.

**13. Tortuvchi mezosiklning asosiy vazifasi nimadan iborat?**

a. sportchini katta nagruzkalarga tortish

b. sportchilarni samarali maxsus trenirovka ishiga asta sekinlik bilan yaqinlashtirish

c. sportchini musobaqaga tayyorlash uchun har xil nagruzka shakllarini qo'llash

d. a, b va c.

**14. Bazaviy mezosiklni borishida qanday vazifalar qo'yiladi?**

a. organizmning asosiy tizimlarida funksional imkoniyatlarini ko'tarish

b. jismoniy sifatlarni rivojlantirish

c. texnik, taktik va psixologik tayyorgarliklarini takomillashtirish

d. a, b va c.

**15. Ikki makrosikl asosida yillik trenirovka tuzish metodikasi nima deb ataladi?**

a. tayyorgarlikning ikki elementidan iborat istiqbolli

b. ikki siklli

c. ikki yarim yillik

d. to'g'ri javob yo'q.

**16. Sport trenirovkasiga moslashishning qanday tiplari ajratiladi?**

a. sportchi organizmning funksional zaxiralari tasnifi va ularni yukla-malarga moslashtirish

b. muddatli (barqaror emas) va uzoq muddatli (nisbatan barqaror)

c. boshlang'ich oraliq va yakuniy

d. kuch va chidamlilikga yo'naltirilgan yuklamalarga moslashtirish.

**17. Sport trenirovkasi vositalari va trenirovka mashqlari qanday guruhlarga ajratiladi?**

- a. umumjismoniy va musobaqa vositalari
- b. tayyorgarlik, musobaqa va o'tish vositalari
- c. umumtayyorgarlik, yordamchi, maxsus-tayyorgarlik, musobaqa vositalari
- d. a, b va c.

**18. Sport trenirovkasining qaysi vositasi maxsus-tayyorgarlik deb ataladi?**

- a. yo'nalishi trenirovka ta'siriga qarab ajratilgan
- b. musobaqa elementlarini qo'shuvchi, hamda ularga shakli va sifatlarning ko'rinishi jihatidan yaqinlashtirilgan vositalar
- c. mashq texnikasini egallashga yo'naltirilgan vositalar
- d. harakat sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan vositalar.

**19. Qo'llaniladigan vosita va usullarning yo'nalishiga qarab trenirovka mashg'ulotlari qanday turlarga ajratiladi?**

- a. kuch va chidamlilikni rivojlantirishni ko'zlaydigan mashg'ulotlarga
- b. musobaqa oldi va musobaqa davrlari mashg'ulotlariga
- c. tanlab olingan (ko'proq) va majmualiy yo'naltirilganlarga
- d. nagruzkalarning kichik, o'rta va katta hajmdagi mashg'ulotlariga.

**20. Sportchining koordinatsion qobiliyati deganda nima tushuniladi?**

- a. sportchining harakat vazifalarini ancha takomillashtirgan holda, tez, aniq, maqsadga muvofiq, tejab va topqirlik bilan bajara olishi
- b. yangi harakatni tez va chaqqonlik bilan zabt etish qobiliyati
- c. harakatni har xil tasnifga tabaqalashtira olish, ularni boshqarish va to'g'ri qarorga kelishi
- d. sportchining harakatni boshqarish jarayonida sharoitdan kelib chiqqan holda harakatni o'zgartira olish va kombinatsiyalarga o'ta olish qobiliyati.

### O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollarining kaliti

№	A	B	C	D
1.		*		
2.			*	
3.		*		
4.	*			
5.				*
6.		*		
7.			*	
8.	*			
9.			*	
10.		*		
11.			*	
12.				*
13.		*		
14.				*
15.		*		
16.		*		
17.			*	
18.		*		
19.			*	
20.	*			

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Верхошанский Ю.В. Программирование и организация тренировочного процесса. М., 1985.
2. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. М., 1988.
3. Керимов Ф.А. Кураш тушаман. Т., 1990.
4. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усуляти. Т., 2001.
5. Матвеев Л.П. Общая теория спорта. М., 1997.
6. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Киев, 1997.
7. Современная система спортивной подготовки. Под.ред. Суслова и др. М., 1995.
8. Туманян Г.С. Спортивная борьба: отбор и планирование. М., 1984.

## **14-BOB. KURASH TURLARI BO‘YICHA SPORT MAKTABLARIDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKILLASHTIRISH VA O‘TKAZISH USHLUBLARI**

### **14.1. Sport maktablarida kurashchilarni tayyorlashning tashkiliy-uslubiy xususiyatlari**

#### **14.1.1. Sport maktablari oldida turgan vazifalar**

Kurashchilarni tayyorlash maxsus sport maktablarida olib boriladi. Ular bolalar-o‘smirlar sport maktablari (BO‘SM), ixtisoslashgan bolalar-o‘smirlar olimpiya o‘rinbosarlari maktablari (IBO‘OO‘M), oliy sport mahorati maktablari (OSMM), shuningdek sportga ixtisoslashgan maktab-internatlarga (SIMI) bo‘linadi.

Sport maktablaridagi ishlar ma‘lum bir muayyan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan.

BO‘SM sportchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va har tomonlama jismoniy rivojlantirishni ta‘minlagan holda har tomonlama rivojlangan yuqori malakali o‘smir sportchilarni tayyorlashni amalga oshiradi; shug‘ullanuvchilar orasidan jamoatchi yo‘riqchilar va hakamlarni tayyorlaydi, uslubiy markaz hisoblanadi hamda umumta‘lim maktablariga sinfdan tashqari ommaviy sport ishlarini tashkil qilishda yordam ko‘rsatadi.

Ixtisoslashgan bolalar-o‘smirlar olimpiya o‘rinbosarlari maktablari oldida yuqorida aytilgan vazifalardan tashqari, yana bitta vazifa: tayyorgarlik vazifasi turadi. Bu vazifa IBO‘OO‘M uchun asosiy hisoblanadi va ularning butun faoliyatini belgilab beradi.

OSMM vazifalari quyidagilardan iborat:

– xalqaro toifadagi sport ustalari, sport ustalari, respublika terma jamoalariga nomzodlarni tayyorlash;

– sport trenirovkasining ilg‘or uslublarini ishlab chiqish, takomillashtirish va trener-o‘qituvchilar tarkibining ish amaliyotiga joriy etish;

– BO‘SM, IBO‘OO‘M, SIMI va boshqa sport tashkilotlarining o‘quv-trenirovka ishida izchillikni amalga oshirish;

– shahar, viloyat va respublikada o‘quv-trenirovka ishiga uslubiy rahbarlik qilish.



Sport maktabida muntazam shug‘ullanish sportchilarning\_katta zaxirasini talab etadi. Shu maqsadda sportga ixtisoslashgan maktab-internatlar tashkil qilinadi.

SIMI ning asosiy vazifasi – birga ishlash sharti bilan respublika terma jamoasi uchun yuqori malakali sportchilarni tayyorlashdan iborat.

#### **14.1.2. Guruhlarni to‘ldirish va trenirovka jarayonini tashkil etish**

Sport maktablarida quyidagi o‘quv guruhleri ajaratiladi: boshlang‘ich tayyorgarlik guruhleri (3 yillik ta‘lim); o‘quv-trenirovka guruhleri (4 yillik ta‘lim), sport takomillashuvi guruhleri (3 yillik ta‘lim) va oliy sport mahorati guruhleri (3 yillik va undan ortiq ta‘lim).

Har bir guruhning o‘quvchilar bilan to‘ldirilishi va o‘quv soatlari soni 11-jadvalda keltirilgan.

BO‘SM bo‘linmalari boshlang‘ich tayyorgarlik guruhleri va o‘quv-trenirovka guruhlaridan shakllanadi. O‘quv-trenirovka guruhleri yuqori sport ko‘rsatkichlariga ega bo‘lganida va kelgusida sportda o‘shish uchun zarur imkoniyatlar mavjud bo‘lgan taqdirda BO‘SM da sport takomillashuvi guruhleri tashkil qilinishi mumkin. Bunday guruhlarning ochilishi, BO‘SM yuqoridagi qaysi bir tashkilotga qarashli bo‘lsa, shu tashkilotning qarori bilan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan bolalar-o‘smirlar olimpiya o‘rinbosarlari maktablarida boshlang‘ich tayyorgarlik, o‘quv-trenirovka va sport takomillashuvi guruhleri tashkil etiladi. Bu guruhlardan tashqari IBO‘OO‘M da oliy sport mahorati guruhleri tashkil qilinishi mumkin.

Oliy sport mahorati maktablarida faqat sport takomillashuvi guruhleri va oliy sport mahorati guruhleri tashkil etiladi hamda faqat ayrim hollardagina OSM da o‘quv-trenirovka guruhleri tashkil qilinishi mumkin.

Sportga ixtisoslashgan maktab-internatning sport kurashi bo‘linmasi umumta‘lim maktabining kamida 6-sinfini muvaffaqiyatli tugatgan, BO‘SMda ma‘lum bir tayyorgarlikdan o‘tgan yoki musobaqalarda o‘zini yaxshi ko‘rsatgan, sport bilan shug‘ullanishga o‘ta qobiliyatli bolalar hamda o‘smirlarni tanlov asosida tanlab olish yo‘li orqali to‘ldiriladi.

**O'quv guruhlarining to'ldirilishi va o'quv-trenirovka ishi tartibi**

O'quv yili	Qabul qilish uchun o'quvchilar yoshi (yosh)	Minimal soni		O'quv soatlarining maksimal soni		Umumiy, maxsus va sport tayyorgarligi bo'yicha talablar
		Gu-ruhlar	o'quv-chilar	hafta-da	yilda	
<b>Boshlang'ich tayyorgarlik guruhleri</b>						
1-chi	10	5	20	6	312	Umumiy va maxsus tayyorgarlik bo'yicha me'yorlar hamda sinov talablarini bajarish
2-chi	11	5	18	6	312	
3-chi	12	4	16	8	416	
<b>O'quv-trenirovka guruhleri</b>						
1-chi	13	5	12	12	624	Umumiy va maxsus tayyorgarlik bo'yicha me'yorlar hamda sinov talablarini bajarish
2-chi	14	4	12	16	832	
3-chi	15	3	10	18	936	
4-chi	16	2	10	20	1040	
<b>Sport takomillashuvi guruhleri</b>						
1-chi	17	1	8	22	1144	50% SUN
2-chi	18	1	6	24	1248	SUN
3-chi	19	1	6	28	1456	50% SU
<b>Oliy sport mahorati guruhleri</b>						
1-chi	19	1	4	30	1560	SU
2-chi	20	1	4	30	1560	SU (tasdiqlash)
3-chi	21 va katta	1	4	30	1560	50% XTSU

SIMIda o'quv-trenirovka guruhleri va sport takomillashuvi guruhleri tashkil qilinadi.

Sport maktablarida o'quv yili 1-sentyabrdan boshlanadi. O'quv dasturining o'quv yillari bo'yicha va soatlardagi mazmuni 12-jadvalda keltirilgan.

**Sport maktablarida o'smir kurashchilar ko'p yillik tayyorgarligining taxminiy o'quv rejasi  
(soatlarda) (A.M.Dyakin bo'yicha, 1990)**

GURUHLAR													
Tayyorgarlik bo'limlari	Boshlang'ich tayyorgarlik			O'quv-trenirovka				Sport takomillashuvi			Oliy sport mahorati		
	1-yil	2-yil	3-yil	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil	1-yil	2-yil	3-yil	1-yil	2-yil	3-yil
1.Nazariy tayyorgarlik	10	10	13	18	24	27	30	40	44	52	50	50	52
2. Umumiy jismoniy tayyorgarlik	90	90	107	150	190	215	228	229	250	320	312	312	312
3.Maxsus jismoniy tayyorgarlik	50	52	71	94	133	150	165	172	174	205	234	234	234
4.Texnik-taktik, ruhiy tayyorgarlik	130	132	179	250	350	411	482	532	609	704	758	756	760
5.Kurash bo'yicha musobaqaga tayyorgarlik	16	16	24	32	40	40	40	48	48	48	56	56	64

6. Yo'riqchilik va ha-kamlik qilish amali-yoti	-	-	-	16	16	16	16	18	20	20	20	20	22	22	22
7. Qabul qilish va ko'chirish sinovlari	16	8	10	12	12	10	10	10	8	8	8	8	8	8	10
8. Tiklanish tadbirlari	-	-	-	52	67	67	67	67	83	83	83	104	104	104	106
9. Tibbiy guruhlash-tirilgan kompleks tek-shiruv	8	8	12	12	12	12	12	12	12	12	12	16	16	16	16
Jami soatlar soni:	312	312	416	624	832	936	104	104	1144	124	145	156	156	156	156
							(0)			(8)	(6)	(6)	(6)	0	0

Hamma turdagi sport maktablari uchun tuzilgan yagona dastur tashkiliy tuzilmani o‘smir sportchilar ko‘p yillik tayyorgarlik tizimining ilmiy-usuliy tizimi bilan boshlang‘ich tayyorgarlik guruhlaridan, to oliy sport mahorati guruhlarigacha birlashtirishga imkon beradi. Turli miqyosdagi sport maktablarida zaxira tayyorlashda quyidagi asosiy uslubiy qoidalar hisobga olinadi:

Bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar va katta yoshdagi sportchilarni tayyorlash vazifalari vositalari hamda uslublarining qat‘iy izchilligi.

Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari hajmining bir tekis oshib borishi. Ular o‘rtasidagi nisbat muntazam o‘zgarib turadi: yildan yilga maxsus jismoniy tayyorgarlik hajmi (trenirovka nagruzkasining umumiy hajmiga nisbatan) ortib boradi va tegishli ravishda umumiy jismoniy tayyorgarlikning ulushi kamayadi.

Trenirovka nagruzkalari hajmi va shiddatining izchilligni, ko‘p yillik trenirovkalar davomida ularning to‘xtovsiz oshishi.

Kurashning texnik-taktik harakatlariga o‘rgatishni sport maktablari dasturidagi nazariy masalalarni chuqur o‘rganish bilan birga olib borish.

O‘smir sportchilar bilan ko‘p yillik ish jarayonida trenirovka va musobaqa nagruzkalarini qo‘llash izchilligi tomoyiliga qat‘iy amal qilish (13-jadvalga qarang).

*13-jadval*

### **Yillik siklda musobaqa nagruzkalari ko‘rsatkichlari**

Son ko‘rsatkichlari	Tayyorgarlik bosqichlari			
	Boshlang‘ich	O‘quv-trenirovka		Sport takomilla-shuvi
	1–3 -yillar	1–2-yillar	3–4-yillar	1–3-yillar
Musobaqalar	3	5	5	6
Musobaqa bellashuvlari	12–15	20–23	24–26	28–32

Sport maktablari o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash natijalarini kompleks baholashni hisobga olgan holda sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi to‘g‘ri tashkil qilinsagina, ushbu qoidalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoni tug‘iladi.

Sport maktablarining hamma o'quv guruhlari uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha taxminiy me'yorlar 14-jadvalda keltirilgan.

BO'SM (IBO'OO'M) da o'quv-trenirovka mashg'ulotlarining asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- jadval bo'yicha guruhlardagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar;
- alohida reja bo'yicha trenirovkalar, uy vazifalarini bajarish;
- o'quv videofilmlari va kinofilmlari, kinogrammalar hamda sport musobaqalarini tomosha qilish;
- sport maktabi qaysi tashkilotga qarashli bo'lsa, shu tashkilot tomonidan tasdiqlangan sport tadbirlarining kalendar rejasiga muvofiq sport musobaqalari hamda match uchrashuvlarida ishtirok etish.

Butun yil davomida mashg'ulotlarni o'tkazish va yozgi hamda qishki ta'til davrlarida o'quvchilarning faol dam olishlarini ta'minlash maqsadida sport maktabida sog'lomlashtirish-sport oromgohlari tashkil qilinadi.

**BO'SM, I BO'SO'M** ning boshlang'ich tayyorgarlik va o'quv-trenirovka guruhlari uchun kurashda umumiy hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha qabul qilish va ko'chirish me'yor talablari (A.M. Dyakin bo'yicha, 1990, qayta ishlangan)

**Sport maktablarning kurash bo'linmasiga bolalar va o'smirlarni sarflash uchun testlar**

T/ r	Ko'rsatkichlar	Bosqichlar														
		Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari						O'quv-trenirovka guruhlari								
		1-yil		2-yil		3-yil		1-yil		2-yil		3-yil		4-yil		
		qabul qilish-da	ko'chirishda	qabul qilish-da	ko'chirishda	qabul qilish-da	ko'chirishda	qabul qilishda	ko'chirishda	qabul qilishda	ko'chirishda	qabul qilishda	ko'chirishda	qabul qilishda	ko'chirishda	
1.	60 m ga yugurish (s) 100 m (s)	10,8	10,4	10,2	10,0	9,8	9,6	9,4	9,2	8,8						
2.	1000 m ga yugurish (min, s) 2000 m (min, s) 3000 m (min, s)	5,2	5,1	5,0	4,4	4,3	9,4	9,3	9,0	8,2	14,4	14,2	13,6	7,4	13,4	
3.	Tennis koptog. uloqtirish (m) granata 700 g (m)	30	32	34	36	37	38	39	39	40	26	28	30	32		

4.	Baland turnikda tortilish (marta)		3	4	5	5	6	7	8	8	8	9	10	11	12	13
5.	Suzish 50 m (s)	-	qayd -siz	-	qayd -siz	-	qayd -siz	60	58	56	53	55	50	50		
6.	Arqonga chiqish (4 m) oyoq yordamida yordamisiz		16,0	15,0	14,8	14,4	14,0	13,6	13,2	13,0	12,6	12,4	12,0	11,6	11,0	
7.	Yotib qo'llarni bukib-yozish (marta) 10 s ichida (marta)		25	30	35	36	40	41	42	44	46	47	48	49	53	
	10 s ichida (marta)		2	3	4	5	6	8	9	10	11	11	12	12	13	
	Bosh arofida yugurish 5 ta chapga 5 ta o'ngga (s)		2	3	4	4	22,0	20,0	18,5	18,0	17,0	16,5	16,0	15,5	15,0	
	Ko'priklar holatida to'ntarishlar (marta) (s) 10-marta (s)		3	4	6	44,0	42,0	39,0	36,0	33,0	30,0	29,0	27,0	26,0	24,0	



Tik turishdan yotish holatiga o'tishda oyoqlarni orqaga tashlash 10 s ichida (marta)	-	5	6	7	8	9	9	10	10	11	11	12	12	13
Yotgan holatdan gavgdani orqadan ushlab sherigini ko'tarish (marta)	-					6	9	10	10	11	11	12	12	13
Test manekenni (sherigini) tegirmon usulida egi-lib orqadan oshirib tashlash 10 ta tashlash (s) 15 ta tashlash (s)		qayd siz	45,0	40,0	35,0	30,0		56,0	54,0	53,0	52,0	51,0	50,0	48, 0 49, 0

T/r	Ko'rsatkichlar	Bosqichlar												
		Sport takomillashuvi guruhlari						Oliy sport mahorati guruhlari						
		1-yil		2-yil		3-yil		1-yil		2-yil		3-yil		
		gabu qilishda	ko'chirish- da	gabu qilishda	ko'chirish- da	gabu qilishda	ko'chirish- da	gabu qilishda	ko'chirish- da	gabu qilishda	ko'chirish- da	gabu qilishda	ko'chirish- da	
UJT														
1.	30 m ga yugurish (s)	4,5	4,4	4,4	4,3	4,3	4,2	4,2	4,2	4,2	4,2	4,1	4,1	4,0
2.	300 m ga yugurish (min, s)	12,0	11,4	11,3	11,1	11,0	10,5	10,5	10,5	10,4	10,4	10,4	10,3	10,3
3.	700 g li granata uloqtirish (m)	33	34	34	35	35	36	36	36	37	37	37	38	38
4.	Baland tumikda tortilish (marta)	14	16	17	18	19	20	20	20	22	22	24	26	28
5.	50 m ga suzish (s)	50,0	49,0	49,0	49,0	48,0	48,0	48,0	48,0	48,0	48,0	47,0	47,0	47,0
6.	Oyoqlar yordamisiz 4 m li arqonga tirmashib chiqish	10,8	10,6	10,4	10,2	10,0	9,8	9,8	9,8	9,6	9,6	9,4	9,2	9,0
7.	Yotib, qo'llarni 10 s ichida bukib-yozish (marta)	13	14	15	16	17	18	18	18	19	19	20	21	22

8.	10 s ichida oyoqlar va gavgdani ko'tarish (marta)	14	15	15	16	16	17	17	18	18	19	19	20
9.	Orqada yotib, shtanga (o'z vaznidagi) bilan qullarni bukib-yozish (marta)	3	4	5	6	7	8	8	9	10	11	12	13
10.	Bosh atrofida yugurish 5-marta chapga 5-marta o'nga	15,0	14,5	14,3	14,1	14,0	13,8	13,8	13,8	13,6	13,4	13,4	13,2
11.	Ko'prik holatida 10-marta to'ntarishlar (s)	24,0	22,0	21,0	20,0	19,0	18,0	18,0	18,0	17,0	16,0	16,0	15,0
12.	10 s ichida tik turishdan yotish holatiga o'tishda oyoqlarni orqaga tashlash (marta)	13	14	14	15	15	16	16	16	17	18	19	20
13.	Yotgan holatdan gavgdani orqadan ushlab sherigini ko'tarish (marta)	13	14	14	15	15	16	16	16	17	18	18	19
14.	Test manekenini (sherigini) tegirmon usulida egilib orqadan oshirib tashlash 15 ta tashlash (s)	47,0	46,0	45,0	44,0	43,0	42,0	42,0	42,0	41,0	40,0	39,0	38,0

*Izoh:* O'ta yengil, yengil, yarim og'ir va og'ir vazndagi sportchilar uchun musobaqa qoidalariga bironan yosh guruhlariga qarab me'yorlar 10% gacha kamaytirilishi mumkin.

## O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari

**1. Kurashchilarni tayyorlash qanday sport maktablarida olib boriladi?**

- a. maxsus sport maktablarda
- b. o‘rta maktablarda
- c. umumta’lim maktablarida
- d. internatlarda.

**2. BO‘SM nimaligini ko‘rsating.**

a. ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar olimpiya zaxiralari maktabi

- b. bolalar va o‘smirlar sport maktabi
- c. oliy sport mahorati maktabi
- d. umumta’lim maktabi.

**3. IBO‘OZM nimaligini ko‘rsating.**

a. bolalar va o‘smirlar sport maktabi

b. oliy sport mahorati maktabi

c. ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar olimpiya zaxiralari maktabi

d. ilmiy boshqariluvchi o‘smirlar olimpiya zaxiralari maktabi.

**4. ROZK nimaligini ko‘rsating.**

- a. Rossiya olimpiya zaxiralari kolledji
- b. Ramiton olimpiya zaxiralari kolledji
- c. Rishton olimpiya zaxiralari kolledji
- d. Respublika olimpiya zaxiralari kolledji.

**5. OSMM nimaligini ko‘rsating.**

- a. oliy sport mahorati maktabi
- b. oliy sayyohlar mahorati maktabi
- c. oliy san’at mahorati maktabi
- d. oshpazlarni saralash markaziy maktabi.

**6. BO‘SM vazifalari nimalardan iborat?**

a. yosh sportchilarni tayyorlash, tezligini rivojlantirish, texnik tayyorgarligini rivojlantirish.

b. sog‘lig‘ini mustahkamlash va har tomonlama jismoniy rivojlantirishni ta’minlagan holda har tomonlama rivojlangan yuqori malakali o‘smir sportchilarni tayyorlashni amalga oshiradi

c. yosh sportchilarni tayyorlash, taktik tayyorgarligini rivojlantirish.

d. yosh sportchilarni tayyorlash, jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.

**7. IBO‘OZM vazifalari nimalardan iborat?**

a. tuman birinchiligi g‘oliblarini tayyorlash, Kombinatsion harakatlarni yuqori darajada amalga oshirish

b. yosh sportchilarni tayyorlash, jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.

c. BO‘SMLardagi va yana butun sport faoliyatini belgilovchi, OSMMga yuqori malakali sportchilar zaxirasini tayyorlab berish

d. sog‘lomlashtirish va tarbiyalash.

**8. OSMM vazifalari nimalardan iborat?**

a. sog‘lomlashtirish va tarbiyalash

b. yuqori darajada kuch sifatini rivojlantirish

c. xalqaro musobaqalarga chiqarish, harbiy tayyorgarlik ko‘rsatish

d. sport ustalari, xalqaro toifadagi sport ustalari, respublika terma jamoalariga nomzodlarni va a‘zolarini tayyorlash.

**9. Ko‘p yillik sport tayyorgarlik bosqichlarini sanab bering.**

a. bazaviy, ixtisoslikga chuqurlashtirish, o‘quv-mashg‘ulot, sportda takomillashtirish, oliy sport mahorati bosqichlari

b. tayyorgarlik, asosiy, o‘tish

c. tayyorgarlik, asosiy, yakuniy

d. boshlang‘ich, o‘quv-mashg‘ulot, oliy sport mahorati.

**10. Bazaviy bosqichda yoki boshlang‘ich guruhlarining necha tahsil yili mavjud?**

a. 4 yillik

b. 3 yillik

c. 5 yillik

d. 6 yillik.

**11. O‘quv-mashg‘ulot guruhlarining necha tahsil yili mavjud?**

a. 5 yillik

b. 6 yillik

c. 4 yillik

d. 3 yillik.

**12. Sportda takomillashtirish guruhlarining necha tahsil yili mavjud?**

a. 4 yillik

b. 5 yillik

c. 6 yillik

d. 3 yillik.

**13. Oliy sport mahorati guruhlarining necha tahsil yili mavjud?**

a. 3 yillik

b. 4 yillik

c. 5 yillik

d. 6 yillik.

**14. Boshlang'ich 1-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

a. 32 soat

b. 24 soat

c. 28 soat

d. 36 soat.

**15. Boshlang'ich 2-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

a. 33 soat

b. 21 soat

c. 24 soat

d. 35 soat.

**16. Boshlang'ich 3-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

a. 38 soat

b. 39 soat

c. 40 soat

d. 32 soat.

**17. O'quv-mashg'ulot 1-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

a. 48 soat

b. 52 soat

c. 55 soat

d. 38 soat.

**18. O'quv-mashg'ulot 2-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

a. 70 soat

b. 64 soat

c. 60 soat

d. 75 soat.

**19. O'quv-mashg'ulot 3-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

- a. 78 soat
- b. 68 soat
- c. 72 soat
- d. 80 soat.

**20. O'quv-mashg'ulot 4-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

- a. 56 soat
- b. 66 soat
- c. 76 soat
- d. 80 soat.

**21. Sportda takomillashtirish 1-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

- a. 96 soat
- b. 90 soat
- c. 100 soat
- d. 110 soat.

**22. Sportda takomillashtirish 2-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

- a. 102 soat
- b. 112 soat
- c. 122 soat
- d. 132 soat.

**23. Sportda takomillashtirish 3-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

- a. 108 soat
- b. 118 soat
- c. 128 soat
- d. 138 soat.

**24. Oliy sport mahorati 1-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

- a. 134 soat
- b. 114 soat
- c. 124 soat
- d. 144 soat.

**25. Oliy sport mahorati 2-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

- a. 160 soat
- b. 150 soat
- c. 170 soat
- d. 180 soat.

**26. Oliy sport mahorati 3-tahsil yili guruhidagi bir oylik soatlardagi yuklama qancha?**

- a. 150 soat
- b. 160 va undan ko'p soat
- c. 144 soat
- d. 124 soat.

**27. Boshlang'ich 1-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 10 ta
- b. 30 ta
- c. 20 ta
- d. 40 ta.

**28. Boshlang'ich 2-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 8 ta
- b. 28 ta
- c. 38 ta
- d. 18 ta.

**29. Boshlang'ich 3-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 16 ta
- b. 6 ta
- c. 26 ta
- d. 36 ta.

**30. O'quv-mashg'ulot 1-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 2 ta
- b. 12 ta
- c. 22 ta
- d. 32 ta.



**31. O'quv-mashg'ulot 2-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 8 ta
- b. 18 ta
- c. 12 ta
- d. 20 ta.

**32. O'quv-mashg'ulot 3-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 18 ta
- b. 20 ta
- c. 22 ta
- d. 10 ta.

**33. O'quv-mashg'ulot 4-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 9 ta
- b. 15 ta
- c. 16 ta
- d. 17 ta.

**34. Sportda takomillashtirish 1-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 3 ta
- b. 8 ta
- c. 12 ta
- d. 14 ta.

**35. Sportda takomillashtirish 2-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 2 ta
- b. 13 ta
- c. 6 ta
- d. 15 ta.

**36. Sportda takomillashtirish 3-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 8 ta
- b. 9 ta
- c. 10 ta
- d. 6 ta.

**37. Oliy sport mahorati 1-tahsil yili guruhidagi shug‘ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 4 ta
- b. 8 ta
- c. 9 ta
- d. 10 ta.

**38. Oliy sport mahorati 2-tahsil yili guruhidagi shug‘ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 8 ta
- b. 4 ta
- c. 9 ta
- d. 10 ta.

**39. Oliy sport mahorati 3-tahsil yili guruhidagi shug‘ullanuvchilar soni qancha?**

- a. 9 ta
- b. 10 ta
- c. 4 ta
- d. 8 ta.

**40. Boshlang‘ich va o‘quv-mashg‘ulot guruhlarida shug‘ullanuvchilarga talablar qanday?**

a. UJT va MJT bo‘yicha yuqori darajada tayyorgarlikdan o‘tganligi  
b. sport kurashi tarixi va musobaqa qoidalari bo‘yicha sinov talablarini bajarish.

c. sport kurashi turlari bo‘yicha texnik tayyorgarlik talablarini bajarish

d. umumiy va maxsus tayyorgarlik bo‘yicha me‘yorlar hamda sinov talablarini bajarish.

**41. Sportda takomillashtirish 1-tahsil yili guruhidagi shug‘ullanuvchilarga talablar qanday?**

- a. 50% SUN
- b. 10% SUN
- c. 20% SUN
- d. 30% SUN.

**42. Sportda takomillashtirish 2-tahsil yili guruhidagi shug‘ullanuvchilarga talablar qanday?**

- a. 50% SUN
- b. 100% SUN
- c. 80% SUN

d. 65% SUN.

**43. Sportda takomillashtirish 3-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilarga talablar qanday?**

- a. 100% SU
- b. 90% SU
- c. 50% SU
- d. 35% SU.

**44. Oliy sport mahorati 1-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilarga talablar qanday?**

- a. 35% SU
- b. 90% SU
- c. 50% SU
- d. 100% SU.

**45. Oliy sport mahorati 2-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilarga talablar qanday?**

- a. 100% SU (tasdiqlash)
- b. 90% SU
- c. 50% SU
- d. 35% SU.

**46. Oliy sport mahorati 3-tahsil yili guruhidagi shug'ullanuvchilarga talablar qanday?**

- a. 90% SU
- b. 50% XTSU
- c. 50% SU
- d. 35% SU.

**O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

<b>№</b>	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
1.	*			
2.		*		
3.			*	
4.				*
5.	*			
6.		*		
7.			*	
8.				*
9.	*			
10.		*		

11.			*	
12.				*
13.	*			
14.		*		
15.			*	
16.				*
17.	*			
18.		*		
19.			*	
20.				*
21.	*			
22.		*		
23.			*	
24.				*
25.	*			
26.		*		
27.			*	
28.				*
29.	*			
30.		*		
31.			*	
32.				*
33.	*			
34.		*		
35.			*	
36.				*
37.	*			
38.		*		
39.			*	
40.				*
41.	*			
42.		*		
43.			*	
44.			*	
45.	*			
46.		*		

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Волков В.М., Филин В.П. Спортивный отбор. М., 1983.
2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usulyati .Т., 2001.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Т., 2005.
4. Малинин А.Б. Организация и управление деятельностью спортивных школ. М., 1984.
5. Основы управления подготовкой юных борцов. Под. ред. Набат-никовой М.Я. М., 1982.
6. Программы по видам борьбы для спортивных школ. М., 1990.
7. Типовые положения о детско-юношеской спортивной школе. М., 1977.
8. Филин В.П. Теория и методика юношеского спорта. М., 1987

## **15-BOB. O‘QITUVCHI MURABBIYNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

### **15.1. Sport kurashi trenerining kasb-pedagogik faoliyati**

Sport kurashi trenerining kasb-pedagogik faoliyati ko‘p qirralidir. U bir qator majburiyatlarning bajarilishini o‘z ichiga oladi. Ular orasida quyidagilarni ajratish lozim: o‘quv-tabiiyaviy ishlar, kurashchilarning trenirovka va musobaqa faoliyatini boshqarish, sportga layokatli va iqtidorli bolalar orasidan saralash, ilmiy-usuliy ishda qatnashish, musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish, trenirovkalar hamda musobaqalarni moddiy-texnik ta‘minlash, shaxsiy kasb mahoratini oshirish.

Trenerning o‘quv-tarbiyaviy vazifasi eng muhimlardan biri hisoblanadi. U shug‘ullanuvchilarni sport kurashining texnik-taktik harakatlariga o‘rgatish, jismoniy va axloqiy-iroda sifatlarini rivojlantirish, har tomonlama rivojlangan insonni shakllantirish malakasidan iborat.

O‘qitish vazifasi trenerning texnik harakatlarni namunadek ko‘rsatib berish, mashqni qisqa va oson tushuntirish, texnikadagi xatolar hamda uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, kuzatish uchun to‘g‘ri joy tanlash, bajarilayotgan mashq texnikasini o‘quvchi bilan tahlil qilish, usul uchun tayyorgarlik harakatlarini, usul va yakunlovchi harakatni bajarishda mumkin bo‘lgan ushlarlarni tanlash malakasini o‘z ichiga oladi.

Trener jismoniy va axloqiy-iroda sifatlarini tarbiyalashda usuliy yondashishlarni tabaqalash, trenirovka nagruzkalarini me‘yorlash, shug‘ullanuvchilarning alohida xususiyatlariga qarab, tegishli vositalar hamda usullarni tanlashni bilishi zarur.

Trener sportchilar tayyorgarligini maqsadli boshqarish uchun quyidagilarni bilishi lozim: sportchilar, shuningdek ular yashaydigan, trenirovka qiladigan va musobaqalashadigan muhit to‘g‘risida axborot to‘plash hamda uni tahlil qilish; sportchilar tayyorgarligi strategiyasi to‘g‘risida qaror chiqarish; ularning tayyorgarlik rejalari va dasturlarini tuzish; sportchilar tayyorgarligi dasturi hamda rejasini amalda ro‘yobga chiqarish; buning uchun tuzilgan dastur va rejalarning amalga oshirilishini nazorat qilish; zarur hollarda trenirovka jarayoniga o‘zgartirishlar kiritish.

Kurashchilar tayyorgarligi dasturlari va rejalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi trenerning trenirovka mashg'uloti, ish kuni, mikro-, mezo- va makrosikllar davomida trenirovka jarayonini oqilona tuzishni amalga oshira olgandagina, shuningdek, pedagogik, tibbiy-biologik va psixologik vositalar hamda uslublardan iborat tiklanish tadbirlar to'g'ri foydalanilgan taqdirdagina mumkin bo'ladi.

Musobaqa faoliyatini boshqarish oldinda turgan musobaqa bellashuvlari rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirishni nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Trener oldinda turgan bellashuv rejasini ishlab chiqishda o'quvchisining raqib ustidan g'alaba qozonishi uchun eng samarali taktik harakatlarni aniqlash maqsadida raqib to'g'risida axborotga ega bo'lishi lozim. Musobaqa faoliyatini nazorat qilish va uni keyinchalik tahlil etish u yoki bu sportchi tayyorgarligidagi kuchli hamda bo'sh tomonlarni aniqlashga yordam beradi.

Bellashuv davomida kurashchilar musobaqa faoliyatini boshqarish malakasi turli texnik-taktik vaziyatlarni kuzatish hamda tahlil qilish, shuningdek muayyan ko'rsatmalar shaklida zarur qarorlarni chiqarish malakasidan hosil bo'ladi.

Kurashchilar tayyorgarligining ko'p qirrali tizimida saralash vazifasi muhim ahamiyatga ega. U trenerning bilimlari va pedagogik tajribasi asosida yosh hamda yuqori malakali sportchilar uchun turli holdagi saralash mezonlaridan foydalanib, eng iqtidorli sportchilarni aniqlash malakasi bilan ifodalanadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yuqori malakali mutaxassis o'z kasb darajasini muntazam oshirib borishi lozim. Buning uchun u ilmiy-usuliy ish olib borish malakasiga ega bo'lishi, tadqiqot vazifalarini oldinga qo'yishni bilishi, tegishli tadqiqot-usullari hamda uslublarini tanlay olishi, olingan ma'lumotlarni tahlil qila olishi lozim.

Trener o'z amaliy faoliyatida turli musobaqalarni tashkil qilish va o'tkazishni bilishi zarur. Buning uchun u kurash turi qoidalarini bilishi, hakamlik vazifalarini bajara olishi va musobaqalarni o'tkazish uchun barcha zarur hujjatlarni tayyorlay olishi lozim.

Trenirovka jarayonini yuqori darajada tuzish uchun trenerning sport zalini moddiy-texnik jihozlash, kurash zallari va tiklanish mar-kazini asbob-anjomlar bilan jihozlash malakasi katta ahamiyatga ega.

Trenerning ko'p qirrali kasb faoliyati jarayonida ko'rsatib o'tilgan vazifalarning samarali amalga oshirilishi uning o'z kasbiga bo'lgan

muhabbati va sadoqati, o‘z mutaxassisligini mukammal darajada bilishi, pedagogik qobiliyatlar hamda yuksak shaxs sifatleri darajasi bilan aniqlanadi.

## **15.2. Psixologik tayyorgarlik**

### **15.2.1. Umumiy psixologik tayyorgarlik**

Psixologik tayyorgarlik deganda psixologik-pedagogik tadbirlar va sportchilar faoliyati hamda hayotiga muvofiq sharoitlar yig‘indisi tushuniladi.

Ular kurashchilarda trenirovka va musobaqada qatnashish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishni ta‘minlaydigan psixologik funksiyalar, jarayonlar, holatlar va shaxs xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan.

Kurashchining “psixologik tayyorgarligi” tushunchasi ikkita tushunchani o‘z ichiga oladi: umumiy psixologik tayyorgarlik va muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarlik.

Umumiy psixologik tayyorgarlik butun sport takomillashuvi jarayoni davomida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik bilan olib boriladi. Uning yordamida quyidagi o‘ziga xos vazifalar hal etiladi:

1. Kurashchining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.
2. Sport jamoasi va jamoadagi psixologik muhitni shakllantirish.
3. Iroda sifatlarini tarbiyalash.
4. Ilg‘ab olish jarayonlarini rivojlantirish, xususan, “raqibni his qilish”, “vaqt va makonni his qilish” kabi ilg‘ashning maxsus turlarini takomillashtirish va h.k.

5. Diqqatni, uning mustahkamligi, jamlanishi, taqsimlanishi hamda biridan ikkinchisiga o‘tishini rivojlantirish.

6. Taktik fikrlashni rivojlantirish.

7. O‘z hayajonlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish.

### **15.2.2. Kurashchining axloqiy sifatlarini tarbiyalash**

Kurashchini tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlarini tarbiyalash va texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish bilan yonma-yon shaxs xususiyatlari hamda shaxsiy sifatlarining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatish juda muhimdir. Sportchini o‘z ustida ishlashga, madaniyati va tafakkurini oshirishga muntazam yo‘naltirib turishi lozim. Trenirovka jarayoni davomida va musobaqalarda shaxsiy sifatlarini shakllantirishga



izchil ta'sir ko'rsatib, jamoa yordamida salbiy holatlarni to'g'ri bartaraf etib borish zarur.

Sport jamoasini shakllantirish . Jamoa orasida yashash yuksak hissiyoti, do'stona munosabatlar, kurashchilarning birdamligi – trenirovka mashg'ulotlari va musobaqalardagi yaxshi psixologik iqlim uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Iroda sifatlarini tarbiyalash. Sportchining iroda sifatleri quyidagi paytlarda, ya'ni iroda harakatlarining maqsad va sabablari sportchining dunyoqarashi, qat'iy e'tiqodlari hamda axloqiy ko'rsatmalari bilan aniqlanganida namoyon bo'ladi. Katta iroda talab qilinadigan o'ta og'ir mashqlar iroda sifatlarini maqsadli tarbiyalashga yordam beradi. Bunda mashqlarni bajarishga bir maqsadni ko'zlab yo'naltirish muhimdir.

Jasurlik va qat'iyatlilikni tarbiyalash uchun mashqlarni bajarish paytida ma'lum darajadagi tavakkalchilik va qo'rquv hissini yengib o'tish bilan bog'liq bo'lgan mashqlardan foydalanish zarur.

Maqsadga yo'nalganlik va qat'iyatlilik kurashchilarda trenirovka jarayoni, kurash texnikasi va taktikasini egallash muhimligi, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish orqali tarbiyalanadi.

O'z sport faoliyatiga qiziqish uyg'otish maqsadida, trenirovka jarayonida yuqori darajada murakkab bo'lgan emotsional mashqlarni qo'llash hamda ularni nazorat qilish foydalidir.

Chidash va o'zini tuta bilish – kurashchining o'ta muhim sifati hisoblanib, bellashuvdan oldin va, ayniqsa, bellashuv jarayonida salbiy emotsional holatlarni (o'ta qo'zg'aluvchanlik va jahldorlik, o'zini yo'qotib qo'yish, tushkunlikni) yengib o'tishda namoyon bo'ladi.

Mashg'ulotlarda bu sifatlarini tarbiyalash uchun kuchli toliqishni yuzaga keltiruvchi va og'riq beruvchi mashqlar kiritiladi. Trenirovkalarda vaziyat to'satdan o'zgaradigan murakkab holatlar modellashtiriladi va ularda shunga erishish lozimki, kurashchi shunday sharoitlarda o'zini yo'qotib qo'ymasligi, salbiy hayajonlarini jilovlab o'z harakatlarini boshqara bilishi kerak.

Tashabbuskorlik va intizomlilik trenirovka hamda musobaqa faoliyatidagi ijodiy ishda va faollikda namoyon bo'ladi. Tashabbuskorlik o'quv-trenirovka bellashuvlarida murakkab texnik-taktik harakatlarni amalga oshirish yo'li orqali tarbiyalanadi. Bunda kurashchilarga maqsadga erishish uchun andozadan holi hamda kutilmagan harakatlarni qo'llagan holda mustaqil qaror chiqarish taklif

etiladi. Intizom o'z majburiyatlarini bajarishga bo'lgan vijdonan munosabatda, tartiblilik hamda ijrochilik sifatlarida aks etadi.

Ilg'ash jarayonlarini rivojlantirish. Kurash bellashuvining har qanday vaziyatlarida harakat qila olish malakasi kurashchining eng muhim sifati hisoblanadi. U ko'p jihatdan raqib harakatlarini vaqt va makonda to'g'ri ilg'ab olishga bog'liq. Buning asosida nozik mushak-harakat sezgilari va harakat koordinatsiyasi yotadi.

Diqqatni rivojlantirish. Kurashchining texnik-taktik harakatlari samaradorligi ko'p jihatdan diqqatning rivojlanganligi: uning hajmi, shiddati, mustahkamligi, taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga o'tishi bilan belgilanadi. Kurashchi raqibning murakkab va tez o'zgaruvchan harakatlarida ko'p sonli turli texnik-taktik harakatlarni ilg'ab oladi. Diqqatning bu xususiyati uning hajmi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga kurashchi eng asosiy qismlarga diqqatni jamlashni o'rganishi lozim. Bu diqqatning shiddatiga taalluqlidir, har xil chalg'itishlar va aldanchi omillar ta'siriga qarshi turish malakasi diqqatning mustahkamligidan dalolat beradi. Biroq, kurashda diqqatning eng muhim xususiyatlaridan biri uning taqsimlanishi va biridan ikkinchisiga o'tishi, ya'ni bir vaqtning o'zida bir nechta ob'yektlarni (qo'llar, oyoqlar, gavda harakatlari, raqibning joy o'zgartirish tezligi va h.k.) nazorat qilish hamda diqqatni tez biridan ikkinchisiga o'zgartirish qobiliyati hisoblanadi.

Taktik fikrlashni rivojlantirish. Taktik fikrlash – bu kurashchining raqib bilan oqilona kurashish yo'lini topishga qaratilgan fikrlash jarayonlarining tez maqsadga ko'chishidir.

Taktik fikrlash musobaqa faoliyatining ijodiy xususiyatini belgilaydi va turli murakkab holatlarni modellashtiruvchi musobaqa mashqlari yordamida, shuningdek o'quv-trenirovka bellashuvlarida rivojlantiriladi. Bunda raqibning taktik o'ylanmalarini topish, uning ehtimoldagi harakatlarini oldindan ko'zlay bilish malakasiga murakkab vaziyatda o'zini o'nglash, asosiy vaziyatlarni ajratib, ularni tez va to'g'ri baholash malakasiga kurashchining diqqati qaratiladi. Yuqori malakali kurashchi tez sur'atda oqilona yechimlarni topishi va muayyan musobaqa vaziyati uchun eng samarali texnik-taktik harakatlarni qo'llashni bilishi lozim.

O'z hayajonlarini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish. Sportchilarning o'z hayajonli holatlarini boshqara olish malakasi ko'p jihatdan ular sport mahoratining oshishiga yordam beradi. Trenirovka

yoki musobaqaning ayrim vaziyatlari, lahzalariga pozitiv va salbiy munosabatda bo'lish hayajonlar bilan birga kechadi. Ular sportchining subyektiv va ob'yektiv qiyinchiliklarni yengib o'tishini yengillashtiradi yoki qiyinlashtiradi. Hayajonli holatlar shiddati musobaqalar ahamiyatiga va mas'uliyatiga bog'liq.

### **15.2.3. Muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarlik**

Oldinda turgan musobaqaga psixologik tayyorgarlik umumiy psixologik tayyorgarlik asosida tashkil qilinadi va u quyidagi aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1) kurashchilarning oldinda turgan musobaqalar ahamiyatini anglashi;

2) oldinda turgan musobaqalar sharoitlari (o'tkazish vaqti, joyi) xususiyatlarini o'rganish;

3) raqibning kuchli va bo'sh tomonlarini o'rganish, ularni hamda o'zining hozirgi paytdagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish;

4) oldinda turgan musobaqalarda g'alabaga erishish uchun o'z kuchi va imkoniyatlariga qattiq ishonishni shakllantirish;

5) oldinda turgan musobaqalar tufayli yuzaga kelgan salbiy hayajonlarni yengib o'tish va tetik emotsional holatni yaratish.

Birinchi to'rta vazifalar raqib to'g'risida turli, mumkin qadar to'liq ma'lumotni to'plash hamda ishlab chiqish asosida trener tomonidan hal etiladi.

Raqib to'g'risidagi hamma ma'lumotlarni o'rganib chiqib va uning imkoniyatlarini o'z sportchisi imkoniyatlari bilan solishtirib, trener oldinda turgan bellashuv rejasini ishlab chiqadi. Uni amalga oshirish o'quv-trenirovka mashg'ulotlarida modellashtiriladi hamda batafsil aniqlanadi.

Beshinchi vazifani hal etish uchun quyidagi uslubiy usullardan foydalanish mumkin:

– o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini ma'qullash yordamida sportchi tomonidan salbiy hayajonlarni ongli ravishda bostirish ;

– kurashchilarning alohida xususiyatlari va ularning emotsional holatiga qarab, badan qizdirish mashqlari vositalari hamda uslublaridan maqsadli foydalanish;

– autogen va psixologik boshqarish trenirovkasi vositalari hamda uslublaridan foydalanish;

#### **15.2.4. Psixologik tayyorgarlik va texnik-taktik mahorat**

Texnik-taktik mahoratni takomillashtirish psixologik tayyorgarlik bilan ajralmasdir. Kurashchining taktik harakati ishonchliligi uning emotsional qobig'i va bilish jarayonlari darajasi bilan ta'minlanadi. Texnik-taktik harakatlarga o'rgatish taktik fikrlash, koordinatsiya, tezkorlik, propriotseptiv sezuvchanlikni rivojlantiradi.

Taktik qaror – bu kurashchining fikrlash faoliyati mahsulidir. Kurashchi taktik holat obrazlarini ishlatadi hamda “kelishilgan” va “kelishilmagan” tamoyili bo'yicha qaror qabul qiladi. Psixologik tayyorgarlik umumiy tayyorgarlik tizimida asos bo'lib xizmat qiladi. Jismoniy tayyorgarlik o'z navbatida takomillashuvning o'ziga xos poydevori, texnik-taktik tayyorgarlik sportchining jismoniy va psixologik imkoniyatlarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi.

Tanlashni bilish hamda qabul qilingan qarorni bajarish tezligi kurashchi psixologik tayyorgarligining eng muhim tomoni hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlikda sport bellashuvining turli vaziyatlarida kurashchining to'g'ri bir qarorga kela olish qobiliyatini hisobga olish lozim.

Bunday harakatlarni to'rt xil varianti mavjud va ular bir-biridan farqlanadi.

Birinchi tip – xatti-harakatning qat'iy dasturi bo'yicha harakatlar: bunda sportchi o'z raqibini u muayyan bir usulni bajarayotgan vaqtda “qo'lga tushirish”ni oldindan mo'ljallab qo'yadi. Buning uchun u xuddi o'sha paytning kelishini poylab turadi hamda hujumga o'tish uchun tug'ilgan imkoniyatlarning boshqa variantlarini tan olmay turadi.

Ikkinchi tipdagi sportchilarda dastlabki “model” sifatida bir nechta “oldindan tayyorlangan” taktik harakatlar mavjud bo'ladi. Hujumga o'tish, odatda, “yoki-yoki” tamoyiliga asosan amalga oshiriladi.

Uchinchi tipdagi sportchilarning xatti-harakatlari ancha mulohazali bo'ladi: ular hal qiluvchi yo'lni oldindan o'ylab qo'ymaydilar va yuzaga kelgan vaziyatga, raqib harakatlariga qarab ish tutadilar.

To'rtinchi tipdagi kurashchilarni raqib harakatlariga bog'lanib qolmaslik hamda uning hal etuvchi hujum harakatlari uchun tayyorlangan paytdan tanaffussiz, darhol foydalanib qolish maqsadida o'sha dinamik vaziyatni tayyorlaydigan, ya'ni hujum qilish uchun qulay vaziyatni oldindan amalga oshiradigan harakatlarga o'rgatish zarur bo'ladi.

Shunday qilib, kurashchilarda harakatlarni faollashtirishga qaratilgan psixologik yoʻnalishni tarbiyalash zarur. Bu ish hujum qilish uchun qulay dinamik vaziyatni yuzaga keltirish hamda bu vaziyatdan ustunlikka va gʻalabaga erishish uchun foydalanish maqsadida amalga oshiriladi. Bellashuv davomida yuzaga keladigan qulay dinamik vaziyatlarni bilish va texnik harakatlarni hamda hujumlarni oʻz vaqtida bajarishga tayyor turish psixologik yoʻnalishning faqat bir tomonini aks ettiradi, xolos. Yuqori malakali zamonaviy kurashchini tarbiyalash uchun qulay dinamik vaziyatni tayyorlashga va undan foydalanishga psixologik yoʻnaltirish yaxshi jismoniy hamda texnik tayyorgarlikka tayanish lozim, yaʼni kurashchi butun bellashuv mobaynida toʻxtovsiz faol harakatlarga tayyor turishi zarur.

Sportchining oldinda turgan bellashuvni yuqori darajada emotsional kayfiyatda, raqibining kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda toʻgʻri hamda oʻz vaqtida ruhlana olish qobiliyati gʻalaba qozonish uchun katta ahamiyatga ega. Katta koʻtarinki ruh yordamidagina kuchni maksimal ravishda rivojlantirish mumkin.

Sport musobaqalaridagi kuchayib borayotgan raqobatlashish sportchilarning nafaqat jismoniy va texnik tayyorgarligiga, balki masʼuliyatli musobaqalar sharoitlarida oʻzlarining emotsional holatini boshqara olishga ham katta talablar qoʻyadi.

Chempionatdagi keskin vaziyat salbiy hayajonlar, musobaqa davomida vujudga keladigan koʻpgina obʼyektiv va subyektiv toʻsiqlar baʼzi yosh kurashchilar uchun texnik-taktik mahoratni muhim darajada pasaytiruvchi kuchli omilga aylanishi mumkin.

Maxsus tadqiqotlar kurashchilarning musobaqa arafasida va kunidagi emotsional hayajonlanish darajasi, musobaqalardagi emotsional zoʻriqishining (qurʼa tashlash natijasi, raqib bilan boʻladigan birinchi bellashuvni kutish va boshq.) oʻzgarishini kuzatishga imkon berdi.

Hayajonlanishning ancha oshib borishi kurashchilarda qurʼa tashlash natijalarini kutish paytida, uning ancha pasayishi-natijalar eʼlon qilingandan soʻng kuzatiladi.

Bu, ayniqsa, musobaqalarning birinchi davrasida kuchsizroq raqib bilan bellashishga toʻgʻri kelgan kurashchilarda yaqqol koʻzga tashlangan.

Birinchi davrada asosiy raqiblar bilan uchrashish lozim boʻlgan sportchilarda ham hayajonlanish oshib borgan. Hayajonlanish darajasi

psixolog-mutaxassislar tomonidan pulsometriya hamda harakatlanayotgan ob'yektga reaksiya (HOR) ko'rsatkichlari uslublaridan foydalangan holda nazorat qilindi.

Kurashchilarning musobaqalarda qatnashish paytida o'z emotsional holatini boshqara olishi salbiy hayajonlarning jangovar ruhga ko'rsatadigan ta'sirini kamaytiradi va yuqori sport natijalariga erishishga imkon yaratadi.

Ko'pgina kuchli kurashchilar o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini ishontirish va ideomotor qarashlardan foydalanib, bellashuvga o'zlarini tayyorlaydilar. Bellashuv oldidan harakat va funksional imkoniyatlarni yaxshilaydigan, hayajonlanish darajasini tartibga soladigan eng muhim vositalardan biri badan qizdirish mashqlaridir.

Bizning yetakchi kurashchilarimiz bir necha juftlikning gilamga chiqishidan oldin o'zi yoqtirgan usullarni ishora orqali bajarishi, o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'ziga buyruq berishdan iborat bo'lgan qisqa vaqtli badan qizdirish mashqlarini o'tkazadi. Oldinda turgan bellashuvlarga shu tariqa tayyorlanib, ular hayajonlanish hissini oshiradilar. Jadal, hayajonli, texnik harakatlarni ishora orqali bajarishdan iborat bo'lgan badan qizdirish mashqlari kurashchining emotsional hayajonlari darajasini ko'taradi.

Uzoq vaqt davom etadigan, lekin kam shiddatli bo'lgan badan qizdirish mashqlari o'z-o'zini ishontirish uslubini qo'llash bilan birgalikda kurashchilarni tinchlantiradi va ularning asab energiyasini saqlaydi. So'z sportchining asab-psixologik holatini yuqori darajada boshqarib turuvchi hisoblanadi. Har bir trener yetarli darajada sportchi holatini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim: raqib bilan bellashishdan oldin sportchi o'ta hayajonlanib ketmaslik maqsadida vaqtidan oldin hayajonlanish yuzaga kelganda uni tinchlantirishi zarur.

So'z yordamida ta'sir ko'rsatishning turli usublari – ishontirish, tushuntirish, uqtirishni qo'llayotib, kurashchining oliy asab faoliyati tipini hisobga olish lozim.

Fikrlovchi tipdagi sportchilarga mantiqiy tushuntirish ko'proq qo'l keladi, badiiy tipdagi sportchilarga uqtirish (his qo'zg'atish) katta ta'sir ko'rsatadi.

O'z-o'zini boshqarishning psixologik usublari orasida sport amaliyotida autogen trenirovkaning (AT) turli variantlari hamda yangilangan shakllari – psixologik boshqarish trenirovkasi (RBT), psixologik mushak trenirovkasi (RMT) keng tarqalgan.

Psixologik mushak trenirovkasining o'ziga xos xususiyatlari uni o'tkazish osonligi hamda yuqori natija berishidan iborat. Bundan tashqari, u ko'p vaqt talab qilmaydi. Amaliyotning ko'rsatishicha, 10 kun (bitta trenirovka yig'ini) davomida sportchilar RTBning tinchlantiruvchi qismini muvaffaqiyatli egallaydilar. Uning asosiy maqsadi – sportchining sezgirligi darajasini pasaytirish, relaksatsiya (bo'shashish), tiklanish va sportchining jismoniy hamda ma'naviy kuchini saqlab qolishdir. RTB ni faollashtiruvchi (safarbar etuvchi) qismining maqsadi – zarur paytda kurashchining optimal jangovar holatni (gilamga chiqishdan oldin) egallashi va tinchlantirish xususiyatiga ega bo'lgan uyqudan oldin tashkil qilinadigan jamoa bilan alohida suhbatlar, ayniqsa, ular musobaqalar boshlanishidan oldin so'nggi kunlarda o'tkazilsa, yaxshi natija beradi. Agar musobaqalarga bevosita tayyorgarlik bosqichida vaqtdan avval ortiqcha hayajonlanishning yuzaga kelishini oldini olishga erishilsa va trenirovkani osoyishta o'tkazishga sharoit yaratilsa, psixologik jihatdan sportchilarga g'alaba kafolatlanishi mumkin.

Kurashchilarning psixologik zo'riqishini qoldirish va psixologik yumshatishda sportchilar kuchi bilan tayyorlangan badiiy havaskorlar konsertlari katta ahamiyat kasb etadi.

Emotsional zo'riqishni qoldirish va dam olish uchun qarmoq bilan baliq ovlash (2–3 kishilik guruhlar bo'lib) yaxshi tinchlantiruvchi vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan hamma uslublar yaxshi dam olishga va mas'uliyatli musobaqalar oldidan kurashchining shiddatli ishlashi uchun osoyishta sharoit yaratishga yordam beradi. Kurashchiga emotsional holatni oshirish faqat bellashuv oldidangina kerak.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun test savollari**

**1.O'rgatish jarayonida trenerning bashqaruvchilik roli nimada ko'rinadi?**

- a. o'rgatishda nazoratni tashkillashtirishda, rejalashtirishda
- b. o'rgatish jarayonini optimallashtirishda
- c. o'rganuvchilar shaxsini shakllantirishda
- d. a, b, c.

**2.Samarali o'rgatish jarayoni nimalarga bog'liq, qanday shart-sharoitlarga?**

- a. ijtimoiy-pedagogik va psixologo-didaktik sharoitlarga

- b. trenerning bilim darajasiga
- c. shug'ullanuvchilarning faolligiga
- d. sport zalining shart-sharoitiga va anjomlar bilan ta'minlanganligiga.

**3.O'rgatish jarayonining ijtimoiy-pedagogik sharoitlarga nimalar kiradi?**

- a. malakali , ijodkor ishlaydigan o'qituvchining mavjudligi
- b. moddiy-texnik sharoitlarning mavjudligi (o'quv-uslubiy qo'llanmalar, o'rgatishning texnik vositalari va x.k.)
- c. qulay psixologik sharoitlarning mavjudligi, shug'ullanuvchilar va o'qituvchi orasidagi yaxshi munosabatlar
- d. a, b, c.

**4.Pedagogik tizimda trenerning faoliyati ajralmas bo'lagi sifatida ekanligini ko'rsating.**

- a. tuzilma va funksional bo'lagi
- b. trenerning ma'lumoti va uning tashkilotchilik qobiliyati
- c. jamoani boshqara olishi
- d. b, c.

**5.Trener faoliyatidagi tuzilmaviy bo'lagini aytib bering.**

- a. mazmuni (o'quv va ilmiy axborot)
- b. pedagogik ta'sirning vositalari, usullari va shakllari
- c. pedagogik ta'sirning ob'yekti (trener) i subyekti (shug'ullanuvchi, sportchi, jamoa)
- d. a, b, c.

**6.Trener faoliyatidagi funksional bo'lagining ichiga qanday harakatlar kiradi?**

- a. gnostik, loyihaviy va kommunikativ bo'laklar
- b. tashkilotchilik va harakatchan bo'laklar
- c. a, b
- d. ilmiy, uslubiy va psixologiyani bilish bo'laklari.

**7.Trenerning gnostik bo'lagi o'z ichiga qanday harakatlarni oladi?**

- a. b, c, d
- b. har xil sport mahorati bosqichlarida sport trenirovkasining maqsadi, qo'yilgan maqsadga erishish vositalari
- c. kurashchilarning trenirovka nazariyasi va uslubiyati bo'yicha bilim tizimi, trener faoliyati funksiyasi



d. faoliyat ob'yektlari (kurashchi, butun guruh) ularning holati va rivojlanishi, nagruzkalarga kurashchilar organizmining ko'nikish qonuniyatlari.

**8. Trenerning loyihalashtiruvchi bo'lagi o'z ichiga qanday harakatlarni oladi?**

a. kurashchilarda maxsus bilimlarni shakllantirish

b. kurashchilar harakatini oldindan mo'ljallash darajasini aniqlash darajasi

c. trenirovka jarayonini rejalashtirish va trenirovka dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq harakatlar

d. a, b.

**9. Trenerning qaysi harakatlari konstruktiv (yaratuvchilik tomonini) komponentni o'z ichiga oladi?**

a. o'quv material mazmunini tanlash va dasturlash. kurashchini tarbiyalash, ta'lim va o'rgatish bo'yicha o'quv vazifalarini ishlab chiqarish

b. o'quv mashg'ulotida o'quvchilar va o'zining faoliyatini dasturlash. kurashchilarda maxsus bilim va ko'nikma tizimini shakllantirish

c. kurashchilarda zarur bo'lgan sifatlarini to'g'ri loyihalashtirish

d. a, b, c.

**10. Trenerning qaysi harakatlari kommunikativ (yaxshi muomalalik) komponentni o'z ichiga oladi?**

a. ota-onalar, sport maktabi ma'muriyati, sport jamoasi bilan muomalani o'rnatish

b. barcha hisobga olingan qaror va vazifalarni bajarish

c. mashg'ulot va musobaqalarni yaxshi o'tkazish

d. b, c.

**11. Trenerning qaysi harakatlari tashkilotchilik (organizator) komponentni o'z ichiga oladi?**

a. sport jamoasining faoliyatini, jamoada an'analarni rivojlantirish va yaratishni tashkillashtirish

b. o'quvchilarga jamoani boshqarishni va tashkilotchilik ko'nikmalarini, hisobga olishni birga olib borish, rag'batlantirish va jazolashni nazorat qilishni o'rgatish

c. a, b

d. dars konspekt-rejasini ishlab chiqarishni bilish.

**12. Trenerning qaysi harakatlari harakatchanlik (dvigatelniy) komponentni o'z ichiga oladi?**

a. tanlangan va yordamchi sport turlarining jismoniy mashqlar texnikasini malakali tarzda egallaganlik.

b. a;d javoblar.

c. dars o'tishning shakllarini, uslublarini to'g'ri tanlash.

d. sport maydoni va sport zalida o'quvchilarning qo'zg'alishini tashkillashtirish uslublarini egallaganlik.

**13. Trener shaxsining tuzilishida qanday tuzilmalar ajratiladi?**

a. pedagogning shaxsining axloqiy sifatlari va kasbiy sifatlari

b. trener shaxsining shaxsiy psixologik qirralari

c. a, b va d

d. shaxsning dinamik xususiyatlari.

**14. Trenerlar uchun jamoani boshqarishning qaysi uslubda olib boriladi?**

a. avtoritetli, demokratik va liberal uslubda

b. muammoni aniq anglash va vazifalarni oqilona ifoda etish hamda zarur rejalarni ilgari surish

c. hissiy tuyg'ularga turg'un, ijodga intilish

d. b, c.

**15. Trener avtoritetining shakllanish yo'llarini qaysi omillar aniqlaydi?**

a. barcha jabhada o'quvchilarga ko'maklashish

b. muomala uslubi, o'zini tutish, maxsus kasbiy ishbilarmonlik sifati

c. adolatli va intizomli bo'lish

d. a, b.

**16. Trenerning ideal modelini qanday sifatlar tavsiflaydi?**

a. hissiy tuyg'ularga turg'un, suhbatdosh

b. yuqori darajali aql egasi, ishbilarmon

c. ijod qilishga intiluvchi, mustaqil

d. a, b, d.

**17. Sport jamoasini va trenerni demokratik uslubda boshqarishni tavsiflang.**

a. sport jamoasi oldida turgan muammo va vazifalarni muhokama etish hamda jamoaviy fikr yuritishning mavjudligi

b. trenerning kasbiy mahorati yuqori darajadali

c. kasbdoshlar va sportchilarning xurmat qilishi

d. b, c.

**18. Trener avtoritetini shakllanish yo'lini qanday omil gu-ruhlari aniqlaydi?**

a. ishlarda omadning chopishi va yaxshi natijalar.

b. muomala uslubi, o'zini tutish, maxsus kasbiy ishbilarmonlik sifati

c. hamkorlik va shug'ullanuvchilarni hurmat qilish

d. to'g'ri yo'lni topishni bilish.

**19. Sport jamoasini va trenerni avtoritetli uslubda bosh-qarishni tavsiflang.**

a. kuchli ehtiros, qat'iy e'tiroz, qaysarlik.

b. jamoa fikriga qo'shilmalik

c. yakkaboshchilik, tanqid va e'tirozlarni rad etish, muhokamada qat'iylik

d. a, b.

**20. Yuqori darajada darsni o'tkazish uchun trener nima qilishi lozim?**

a. dars vazifalarini aniqlash (mashg'ulot)

b. a, c, d

c. aniq dars rejasini ishlab chiqarish

d. zarur anjomlar bilan ta'minlanganligini oldindan ko'ra bilish.

**21. Trener shaxsining shaxsiy-psixologik qirralarini ko'rsating.**

a. b, c, d

b. aql darajasi, motivatsiya, nerv tizimi jarayonlarining to'g'ri yo'naltirilishi, turg'unligi va kuchi

c. eruditsiya, aql, xotira, fikr yuritish, irodaviy sifatlar

d. hissiy tuyg'ular, hayotiy quvonch, tajriba va sezgirlik.

**22. Trenerni liberal uslubda boshqarishni tavsiflang.**

a. mashg'ulot jarayoniga kam aralashib va asosan tashkiliy masalalarni hal etish

b. mashg'ulot jarayonini yaxshilashga trenerning noloyiqligi

c. mashg'ulot jarayonini o'z holiga qo'yish

d. b, c.

**23. Yosh sportchilar bilan ishlovchi trener qanday sifatlarni ko'rsatishi lozim?**

a. tanlangan sport turini sevishga undashni bilish, yaxshi ko'rgan ishga to'liq berilish

b. bolalarni yaxshi ko'rish, shaxs bo'lib yetishishda va hayotiy muhim masalalarni yechishda yordam berish.

c. qiyin paytlarda yordam berishga intilish, darsdan tashqari paytlarda o'quvchilar xulqini nazorat qilish

d. a, b, c.

### O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kaliti

<b>№</b>	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
1.				*
2.	*			
3.				*
4.	*			
5.				*
6.			*	
7.	*			
8.			*	
9.				*
10.	*			
11.			*	
12.		*		
13.			*	
14.	*			
15.		*		
16.				*
17.	*			
18.		*		
19.			*	
20.		*		
21.	*			
22.	*			
23.				*

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Вяткин Б.А. Управление психическим стрессом в спортивных соревнованиях. М., 1998.
2. Игуменов В.М. Психолого-педагогическая характеристика деятельности преподавателя-тренера по борьбе. М., 1986.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2001.
4. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2005.
5. Кретти Б.Д. Психология в современном спорте. М., 1978.
6. Малков О.Б. Деловые игры в подготовке тренера по спортивной борьбе. М., 1986.
7. Михеев А.И. Формирование педагогического мастерства тренера. М., 1986.
8. Найдиффер Р.М. Психология соревнующегося спортсмена. М., 1979.
9. Родионов А.В. Психодиагностика спортивных способностей. М., 1973.
10. Родионов А.В. Психофизическая тренировка. М., 1995.
11. Уэйнберг Р.С., Гоулд Д. Основы психологии спорта и физической культуры. Киев, 1998.
12. Филь С.Н., Пешков В.П. Профессиональная подготовка студентов в институте физической культуры. Киев, 1985.

## **16-BOB. O'QUV-MASHG'ULOT YIG'ININI TASHKILLASHTIRISH VA O'TKAZISH**

### **16.1. O'quv-trenirovka yig'inlarini tashkil qilish va o'tkazish**

#### **16.1.1. O'quv-trenirovka yig'inlarini o'tkazish zaruriyati**

So'nggi yillarda deyarli hamma sport turlarida kuzati-layotgan natijalarning o'sishini sport fani taraqqiyoti va uning amaliyotga yaqinlashishi, trenirovka mashg'ulotlarini rejalashtirish hamda o'tkazishning ilg'or uslublari, jismoniy nagruzkalalar hajmi va shiddatining oshishi, moddiy-texnika sport bazasining yaxshilanishi, sport maydonlarida raqobatning kuchayishi va h.k. bilan tushuntirish mumkin.

Sport natijalarining o'sishini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri – bu trenirovka jarayonini tashkil qilish shakllarini takomillashtirishdir. Ma'lumki, hozirgi zamonda yuqori malakali sportchilarga bo'lgan talablarda ular bir kunda ikki, ba'zida esa uch marta trenirovka o'tkazishi lozim. Sportchilar sport mashg'ulotlari joylaridan juda uzoq yashaydigan sharoitlarda bunday trenirovkalarni belgilangan tartibga amal qilgan holda o'tkazish katta qiyinchiliklar bilan kechadi, gohida esa umuman imkoni bo'lmaydi.

Tabiiyki, maxsus tashkil qilingan o'quv-trenirovka yig'inlari sharoitlaridagi trenirovka samaradorligi juda yuqori bo'ladi. Yuqori malakali sportchilar uchun o'quv-trenirovka yig'inlarining o'tkazilishi ham shu bilan tushuntiriladi.

Biroq o'quv-trenirovka yig'inlari qoniqarsiz tashkil qilinganda, musobaqa o'tkazish joyi noto'g'ri tanlanganda va trenirovka vositalari bilan yomon jihozlanganda, shuningdek trenirovka nagruzkalari nooqilona rejalashtirilganda, tarbiyaviy ishlar va intizom bo'sh bo'lganda zarur natijalarga erishib bo'lmaydi.

#### **16.1.2. O'quv-trenirovka yig'inini tayyorlash**

O'quv-trenirovka yig'inlari sport tadbirlarining yillik kalendar rejasida ko'zda tutiladi.

Yig'inlarning muayyan maqsadi va vazifalariga muvofiq holda ularni o'tkazish joyi tanlanadi. Bunda iqlim sharoitlari, dengiz sathidan balandligi, mahalliy relef, sport inshootlari, trenirovka vositalari va maishiy sharoitlarning mavjudligi hamda sifati hal etuvchi omillar bo'lishi mumkin. Mas'uliyatli musobaqalar oldidan bo'ladigan

yig'inlarni musobaqalar o'tadigan joyda yoki bo'lib o'tadigan musobaqalar sharoitiga juda yaqinlashtirilgan sharoitlarda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Yig'ining o'quv rejasi asosiy hujjat hisoblanadi. U quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim:

1. Yig'inlar maqsadi va vazifalari.
2. O'tkazish joyi.
3. O'tkazish muddatlari.
4. Ishtirokchilar soni.
5. Ma'muriyat, tibbiy va ilmiy xodimlar lavozimlarini ko'rsatgan holda ularning soni.

6. Trenirovka sikli davomiyligi.

7. Bir kunda o'tkaziladigan trenirovka mashg'ulotlari soni va ularga ajratiladigan vaqt.

8. Trenirovka vositalari ro'yxati, ularning har biriga ajratiladigan o'quv soatlari soni va soatlarning umumiy yig'indisi.

9. Nazariy mashg'ulotlar mavzulari ro'yxati, ularning har biriga ajratiladigan o'quv soatlari soni va soatlarning umumiy yig'indisi.

O'quv rejasiga ilova tariqasida quyidagilar bo'lishi lozim:

- a) zarur sport asbob-anjomlari ro'yxati;
- b) tez o'quv axborotnomasini ta'minlash uchun zarur jihozlar hamda turli buyumlar ro'yxati.

Yig'inlarda o'quv-trenirovka jarayoni samaradorligiga bog'liq bo'lgan asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. Yuqori malakali trenerlarning doimiy tarkibi.

2. Soni va tayyorgarlik darajasiga ko'ra o'quv guruhlarining optimal tarkibi. Bu narsa har bir sportchining alohida tayyorgarligiga kerakli darajada e'tibor qaratishga yordam beradi.

3. Vrach va doimiy kompleks ilmiy guruhlar a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan tibbiy-pedagogik kuzatishlar; trenirovka nag-ruzkalari hajmi va shiddatini boshqarish hamda mas'uliyatli musobaqalar davriga sportchilarni sport formasi holatiga olib kelish uchun trenerga yordam beradigan tiklash vositalari kompleksining mavjudligi.

4. Yaxshi tashkil qilingan, yuqori sifatli, kaloriyali ovqatlanish. Sportchi quvvati sarflanishining qoplanishi birinchi navbatda shunga bog'liq.

5. Yaxshi tashkil qilingan tarbiyaviy va madaniy-ommaviy ishlar.

6. Tezkor ko'rgazmali o'quv axborotnomalaridan (videomagnitofon yozuvlari, internet va boshq.) keng foydalanish.

7. Sport asbob-anjomlari va jihozlarini mashg'ulotlarga o'z vaqtida hamda sifatli tayyorlash.

Trenirovka jarayonida yig'in qatnashchisi, ya'ni har bir sportchiga alohida yondashishga amal qilish juda muhimdir. Trenirovka nagruzkalari hajmi va shiddati trenirovkaning alohida rejasiga mos kelishi zarur.

Nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunday mashg'ulotlar sportchilarga trenirovka uslubiyatining ilmiy asoslari, uni rejalashtirish, hisobga olish va tahlil qilish bo'yicha tizimlashtirilgan kompleks bilimlarni beradi, sportchilarning trenirovka jarayoniga ongli ravishda munosabatda bo'lishni va, eng asosiysi, ular sport mahoratining tezroq takomillashishini ta'minlaydi.

### **16.1.3. O'quv-trenirovka yig'inlarini rejalashtirish**

O'quv-trenirovka yig'inlari har hafta uchun rejalashtiriladi va 2 yoki 3 haftalik mikrosiklni o'z ichiga oladi. Trenirovka nagruzkalari hajmi va yo'nalishi shunday rejalashtiriladiki, maxsus trenirovka vazifalari soni oshib borishi, umumiy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik nagruzkalari esa musobaqalar boshlanishi vaqtiga kelib kamayishi lozim.

Bevosita musobaqa oldidan hammom va 1–2 kun dam olish rejalashtiriladi. Bunday musobaqalardan bir kun oldin oldinda turgan musobaqalar joyi, asbob-anjomlar va boshqa sharoitlar bilan tanishib chiqish shart (G.S. Tumanyan, 1984).

Sportchilarning musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishi yakuniy yig'inlardagi trenirovka nagruzkalarining to'g'ri rejalashtirilganligiga bog'liq. Rejalarni tuzishda shuni hisobga olish lozimki, eng og'ir bellashuvlar ko'pincha musobaqalarning oxirgi kuniga to'g'ri keladi. Bolgariyalik kurashchilarni tayyorlashda ikki haftalik o'quv-trenirovka yig'ini rejasining tahlili 9-jadvalda keltirilgan (R.Petrov, 1986).

O'quv-trenirovka yig'inlarini bunday rejalashtirish, R.Petrov (1986) fikricha, sport formasining tez shakllanishiga yordam beradi, chidamlilik va ruhiy mustahkamlik zaxirasini yaratadi, shuningdek kurashchilarni yuqori natijalarga olib keladi.



**Kurashchilarni musobaqalarga tayyorlash uchun ikki haftalik o'quv-trenirovka yig'inini rejalashtirish.**

Hafta kunlari	Birinchi hafta		Ikkinchi hafta	
	Tushlikdan oldingi trenirovka	Tushlikdan keyingi trenirovka	Tushlikdan oldingi trenirovka	Tushlikdan keyingi trenirovka
Dushanba	dam olish	dam olish	dam olish, hammom	dam olish
Seshanba	TTT	UJT	-	UJT
Chorshanba	nazariy tayyorgarlik	MKT	-	TTT
Payshanba	UJT	-	UJT	-
Juma	-	MKT	-	MKT
Shanba	TTT	UJT	MKT	MKT
Yakshanba	MKT	MKT	MKT (2 ta bellashuv)	-

*Izoh:* UJT – umumiy jismoniy tayyorgarlik.

TTT – texnik-taktik tayyorgarlik.

MKT – maxsus kompleks tayyorgarlik.

Trenirovka siklining davrlariga qarab, o'quv-trenirovka yig'inlaridagi trenirovka nagruzkalari mazmuni har xil bo'ladi. 16, 17, 18-jadvallarda 17–18 yosh va 19–20 yoshdagi sport takomillashuvi guruhleri kurashchilari uchun o'tish, tayyorlov va musobaqa davrlarining haftalik mikrosikllardagi trenirovka nagruzkalari keltirilgan.

10, 11, 12-jadvallarda trenirovka ishining minimal hajmi ko'rsatilgan (YuqT 155 *ur/min* dan ortiq bo'lganda shiddatli ishning "sof" vaqti va ulushi).

Tomir urish tezligini aniqlash uslubiyati juda oson. Badan qizdirish va har bir ma'lum ish bo'lagidan so'ng trener topshirig'iga ko'ra 10 *sek* ichida 2–3 ta sportchining tomir urishi o'lchanadi. Agar guruhda ko'p miqdorda istiqbolli kurashchilar shug'ullansa, ularni o'z tomir urishlarini mustaqil o'lchashga o'rgatish zarur.

Ayrim hollarda musobaqalarga bevosita tayyorgarlik bosqichida trenirovka nagruzkalari tuzilmasini rejalashtirishga amal qilish mumkin. Bunda “sof” ish vaqti 30% ga ko‘paytiriladi va tomir urish tezligi 155 *ur/min* dan ortiq bo‘lganda yuqori shiddatli ishning ulushini 45% gacha oshiriladi. Shuni esda tutish lozimki, zarbdor mikro-sikllardagi zo‘riqishli trenirovkalar 3–4 kun davom etadigan tiklanish mikrosikllari bilan uyg‘unlashtirilmasa, jarohat olish hamda miokardning zo‘riqib ketishi hafi oshadi. Tayyorgarlikni noto‘g‘ri rejalashtirish immunitetni pasaytiradi va turli xil kasalliklarning yuzaga kelish ehtimolini oshiradi.

#### **16.1.4. Yig‘inlar natijalarini tahlil qilish**

O‘quv-trenirovka yig‘inlari natijalarining tahlili ularni tayyorlash va o‘tkazishdagi kamchiliklar, ularning sabablarini aniqlash, shuningdek, bu kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini belgilashga yordam beradi.

Tahlil quyidagi asosiy savollarga javob berishi lozim:

1.Yig‘in o‘tkazish joyining uning maqsad va vazifalariga muvofiqligi.

2.Tegishli moddiy-texnika bazasining mavjudligi. Zarur trenirovka vositalari va sport asbob-anjomlarining mavjudligi hamda holatlari va maishiy sharoitlarni baholash (joylashtirish hamda ovqatlanish), ularning qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi.

3.Ishtirokchilarni yig‘inga chaqirishni o‘z vaqtida rasmiylashtirish.

4.Yig‘inga chaqirilgan va yetib kelgan sportchilar soni, ularning yoshi hamda sport malakasi.

5.Yig‘inga kelmagan sportchilarning shaxsiy ro‘yxati, ularning kelmaganlik sabablari.

6.Yig‘indagi o‘quv guruhleri soni.

7.Trenerlarning shaxsiy tarkibi va ular haqida qisqa ma‘lumot: ular shug‘ullangan o‘quv guruhleri va ularning son tarkibi.

8.Yig‘inda vrachning qatnashganligi va tibbiy-pedagogik kuzatishni baholash.

9.Yig‘in boshida va oxirida ishtirokchilarning nazorat me‘yorlarini topshirish yakunlari.

10.Yig‘in o‘quv rejasining bajarilish yakunlari.

11.Yig‘inda tezkor ko‘rgazmali – o‘quv axborot vositalarining (videomagnitofon yozuvlari, SD ROM va boshq.) qo‘llanilishi.

12. Sportchilar tomonidan alohida trenirovka rejalarining bajarilishini tekshirish natijalari.

Ish yakunlarini tahlil qilmay turib, jismoniy nagruzkalar hajmi va trenirovka mashg'ulotlari shiddatini tavsiflovchi materiallarni taq-qoslamasdan, sportchilar mahoratini takomillashtirishni rejalashtirib bo'lmaydi. Har tomonlama batafsil o'tkazilgan tahlil sportchilar tayyorgarligi va tarbiyasi holatini, shuningdek trenerlarning egallab turgan lavozimlariga munosibligini holisona aks ettiradi.

**Sport takomillashuvi guruhlari sportchilari uchun o'tish davrining haftalik mikrosiklidagi trenirovka nagruzkalari tuzilmasi ("sof" ish vaqtining minutlardagi me'yori)**

Hafta kunlari va mashg'ulotlar soati	Trenirovka vositalari va uning me'yori	Hajmi	Shiddatli ishning ulushi (min)		Nagruzkani pedagogik baholash
			17-18 yosh	19-20 yosh	
<u>Dushanba</u> 8.00-8.45	Ertalabki badantariya (kross-15, URM-10, MTM-10) Badan qizdirish mashqlari-15, sport o'yinlari-40. Badan qizdirish mashqlari-15 (harakatdagi mashq.-5, akro-batika mashqlari-5, MTM-5) O'TI: P- 6x5, P-6x3, TTM ni alohida takomillashtirish-15	35 35 78	-	-	o'rt
11.00-12.30			-	5	
17.00-19.15			10	10	
<u>Seshanba</u> 8.00-8.45 11.00-12.30	Ertalabki badantariya Nazariya	35 -	-	-	kichik

17.00–19.15	Badan qizdirish mashqlari-15, sport anjomlarida UJT-20, sport o'yinlari-40	75	10	10	
<u>Chorshanba</u>					
8.00–8.45	Ertalabki badantarbiya	35	–	–	
11.00–12.30	Kross-5 km, URM-10, MTM-10	45	5–10	10	kichik
17.00–19.15	Basseyin, hammom, massaj	–	–	–	
<u>Payshanba</u>					
8.00–8.45	Ertalabki badantarbiya	35	–	–	
11.00–12.30	Badan qizdirish mashqlari-15, sport o'yinlari-40, sport anjom-larida URM-10	65	–	5	
17.00–19.15	Badan qizdirish mashqlari-15, O'TI:Ttda-6x5, P-6x3, TTM individual takomillashtirish-15	78	10	10	o'rta
<u>Juma</u>					
8.00–8.45	Ertalabki badantarbiya	35	–	–	
11.00–12.30	Badan qizdirish mashqlari-15, aylanma UJT 3x6, TTM ni alohida takomillashtirish-20	53	10	10	katta
17.00–19.15	Badan qizdirish mashqlari -15, O'TI:Ttda-6x5, P-6x3, 3Q3 topshiriq bo'yicha O'TB	69	10	15	
<u>Shanba</u>					
8.00–8.45	Ertalabki badantarbiya	35	–	–	
11.00–12.30	Basseyin, hammom, massaj	–	–	–	kichik
17.00–19.15	Nazariya	–	–	–	
<u>Yakshanba</u>	Dam olish				

**Sport takomillashuvi guruhlari sportchilari uchun tayyorgarlik davrining haftalik mikrosiklidagi trenirovka nagruzkalari tuzilmasi ("sof" ish vaqtining minutlardagi me'yor)**

Hafta kunlari va mashg'ulotlar soati	Trenirovka vositalari va uning me'yor	Hajmi	Shiddatli ishning ulushi (min)		Nagruzkani pedagogik baholash
			17-18 yosh	19-20 yosh	
<u>Dushanba</u> 8.00 – 8.45 11.00 – 12.30 17.00 – 19.15	Ertalabki badantarbiya (kross-15, URM-10, MTM-10) Badan qizdirish mashqlari – 15, sport o'yinlari-40, aylanma UJT – 2x6 Badan qizdirish mashqlari -15, O'TI: P-3x5, P- 10x3, P da alohida takomillashtirish- 15	35 67 80	– 10 10	– 10 15	– o'rta
	Ertalabki badantarbiya Badan qizdirish mashqlari -15, aylanma UJT- 2x6, sport o'yinlari-40 Badan qizdirish mashqlari -15, O'TI: P-4x3, Tt -6x5, Tt da alohida takomil. – 15	35 58 72	– 10 15	– 10 20	– katta
	Ertalabki badantarbiya Kross-5 km, URM-10, MTM-10 Nazariya, hammom, massaj	35 50 –	– 10 –	– 10 –	– Kichik
<u>Chorshanba</u> 8.00 – 8.45 11.00 – 12.30 17.00 – 19.15					

<b>Pavshanba</b>	Ertalabki badantarbiya				
8.00 – 8.45	Badan qizdirish mashqlari -15, sport o'yinlari- 30, aylanma UJT – 1x10	35	–	–	
11.00 – 12.30	Badan qizdirish mashqlari -16, aylanma MJT – 2x6, TTM alohida takomillashtirish- 40	55	12	15	katta
17.00 -19.15	Ertalabki badantarbiya	70	10	15	
<b>Juma</b>	Ertalabki badantarbiya				
8.00 – 8.45	Badan qizdirish mashqlari -15, O'TI: Tt – 4x5, P – 4x3, 3Q3 topshiriq bo'yicha O'TB /P/	35	–	–	
11.00 – 12.30	Badan qizdirish mashqlari -15, O'TI: Tt- 4x5, P-4x3, 3Q3 topshiriq bo'yicha nazorat O'TB, alohida takomil. – 20	53	10	10	maksimal
17.00 – 19.15		70	20	25	
<b>Shanba</b>	Ertalabki badantarbiya	35	–	–	
8.00 – 8.45	Kross- 5 km, basseyn, hammom, massaj Nazariya	–	–	–	kichik
11.00 – 12.30		–	–	–	
18.00 – 19.00	Dam olish	–	–	–	
<b>Yakshanba</b>					

**Sport takomillashuvi guruhlari sportchilari uchun musobaqa davrining haftalik mikrosiklidagi trenirovka nagruzkalari tuzilmasi ("sof" ish vaqtining minutlardagi me'yor)**

Hafta kunlari va mashg'ulotlar soati	Trenirovka vositalari va uning me'yor	hajmi	Shiddatli ishning ulushi (min)		Nagruzkani pedagogik baholash
			17-18 yosh	19-20 yosh	
<u>Dushanba</u> 8.00 – 8.45  11.00 – 12.30  17.00 – 19.15	Ertalabki badantariya (kross-15, URM-10, MTM-10) Badan qizdirish mashqlari – 15, sport o'yinlari-30, aylanma UJT – 3x6 Badan qizdirish mashqlari -15, O'TI: P- 4x5, P- 6x3, P da O'TB -4x30 sek. TTM ni P da alohida takomillastirish-20	35  63  75	–  10  10	–  10  15	–  10  o'rt
	Ertalabki badantariya Badan qizdirish mashqlari -15, O'TI: Tt da- 4x5, P da- 4x4, alohida takomillastirish, TTM – 10. Badan qizdirish mashqlari -15, O'TI: Tt da - 4x5, P da -4x4, 3Q3 topshiriq bo'yicha O'TB	35 61 58	– 15 15	– 15 25	– 15 katta
	Ertalabki badantariya Kross-5 km, URM-15, MTM-15	35	–	–	–
<u>Chorshanba</u> 8.00 – 8.45					



11.00 – 12.30 17.00 – 19.15	Nazariya, hammom, massaj	60	12	15	Kichik
<u>Payshanba</u> 8.00 – 8.45 11.00 – 12.30 17.00 – 19.15	Ertalabki badantariya Badan qizdirish mashqlari -15, sport o'yinlari- 40, Badan qizdirish mashqlari -15, O'TI: P- 4x5, P da – 4x4, 3Q3 topshiriq bo'yicha O'TB, TTM ni alohida takomillashtirish- 20	35 35 77	– 12 15	– 15 25	
<u>Juma</u> 8.00 – 8.45 11.00 – 12.30 17.00 – 19.15	Ertalabki badantariya Badan qizdirish mashqlari -15, 3Q3 nazorat O'TB, TTM ni alohida takomil. Badan qizdirish mashqlari -15, 3Q3 nazorat O'TB, TTM ni alohida takomil. – 40	35 46 72	– 15 20	– 20 30	
<u>Shamba</u> 8.00 – 8.45 11.00 – 12.30 18.00 – 19.00	Ertalabki badantariya Basseyn, hammom, massaj Nazariya	35 – –	– – –	– – –	kichik
<u>Yakshanba</u>	Dam olish				

*Izoh:* 1. Ertalabki badantariya trener topshirig'i bo'yicha mustaqil bajariladi.

2. O'tish va tayyorgarlik davrlarining haftalik sikllarida joylarda tayyorgarlik paytida haftada 1–2-marta kunduzgi va kechqurungi trenirovkalarni qo'shib o'tkazish mumkin (ish hajmi muvofiq ravishda qisqartirilada). Qisqartirishlar: URM – umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, MTM – maxsus tayyorgarlik mashqlari, Tt – tik turish, P – parter, O'TI – o'quv-trenirovka ishi (o'rganish va takomillashtirish), TTM – texnik-taktik mahorat, O'TB – o'quv-trenirovka bellashuvi.

## O'z-o'zini tekshirish uchun test savollari

**1. Kurash bo'yicha O'MYni o'tkazish qaysi hujjatga asosan o'tkazish rejalashtiriladi?**

- a. dars konspekt-rejasiga asosan
- b. sport tadbirlarining yillik rejasiga asosan
- c. o'rta sikllar, mezosikllar o'tkazishni olib borish jadvaliga asosan
- d. a va b.

**2. O'MY uchun qaysi hujjat asosiy hisoblanadi?**

- a. nagruzkalarni taqsimlash rejasi
- b. nazorat sinovlari ro'yxati
- c. yig'inlarning o'quv rejasi
- d. O'MYni o'tkazish jurnali.

**3. Yig'inlarning o'quv rejasi qanday ma'lumotlar mazmuniga ega bo'lishi lozim?**

- a. maqsadi yig'in vazifalari, o'tkazish joyi, o'tkazish vaqtlari
- b. ishtirokehilar soni, trenirovka mashg'ulotining davomiyligi, trenirovka vositalari ro'yhati, o'quv mashg'ulot soni
- c. ma'muriyat, tibbiy va ilmiy xodimlar soni va ularning lavozimlarini, bir kundagi mashg'ulotlar soni va ularga qancha vaqt ajratilishi
- d. a, b va c.

**4. O'MYni nima uchun o'tkaziladi?**

- a. sportchilarni tayyorgarlash uchun yaxshiroq sharoitni yaratish va ularning kun tartibi buzilishidan chalg'itish uchun
- b. kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini ko'tarish uchun
- c. trenirovkani samaraliroq o'tkazish uchun
- d. kurashchilarning faolligini ko'tarish uchun.

**5. Mas'uliyatli musobaqalar oldidan qayerda yig'inlarni o'tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi?**

- a. musobaqa o'tkaziladigan joyda
- b. oldindagi musobaqa sharoitiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan sharoitlarda
- c. a va b
- d. alohida ajratilgan joylarda.

**6. O'MY rejasiga qo'shimcha ilova sifatida nimani olish kerak?**

- a. yig'in rahbarlarining lavozimlar ro'yhati
- b. zarur bo'lgan qator sport anjomlari va zudlik bilan axborot olish uchun har xil asboblarni
- c. yig'in o'tkaziladigan joyning geografik ma'lumotlari va mahalliy joyning tasnifi

d. a va c.

**7. O'MYni o'tkazish qancha vaqtga rejalashtiriladi?**

a. bir oydan yarim yilgacha b. 12–18 oyga

c. 2–4 haftalik mikrosiklga d. 35–40 kunga.

**8. Yillik siklda necha katta sikl (makrosikl) bo'lishi mumkin?**

a. 1 tadan 3 tagacha

b. 5–6

c. qancha kerak bo'lsa, shuncha rejalashtiriladi

d. a va b.

**9. Makrosiklda tayyorgarlikning qanday davrlari rejalashtiriladi?**

a. tayyorgarlik b. musobaqa va o'tish

c. umumiy va maxsus tayyorgarlik d. a va b.

**10. Tayyorgarlik davri qanday bosqichlarga bo'linadi?**

a. tayyorgarlikning texnik va psixologik bosqichlariga

b. umumitayyorgarlik va maxsus-tayyorgarlik bosqichlariga

c. musobaqalarga tayyorgarlik bosqichi

d. a va b.

**11. Musobaqa davrida qanday vazifalar rejalashtiriladi?**

a. keyingi tayyorgarlikning har xil tomonlarini takomillashtirish va integral tayyorgarlik o'tkaziladi

b. musobaqalarning o'ziga bevosita tayyorgarlik va qatnashish

c. UJT va TTT darajasini ko'tarish

d. a va b.

**12. O'tish davrida qanday vazifalar rejalashtiriladi?**

a. boshqa trenirovka joyiga o'tishni amalga oshirish

b. mashg'ulot va musobaqa nagruzkalaridan keyingi jismoniy va psixologik imkoniyatlarni tiklash

c. sportchilarni moslashish imkoniyatlarini va ularning funksional imkoniyatlarini ko'tarish

d. a va c.

**13. Umumiy tayyorgarlik bosqichida O'MYning asosiy vazifalarini ko'rsating.**

a. jismoniy sifatlar darajasini va kurashchi organizmining funksional imkoniyatlarini ko'tarish

b. texnika va taktika darajasini rivojlantirish

c. nazariy tayyorgarlikni takomillashtirish

d. b va c.

**14. Maxsus-tayyorgarlik bosqichida O'MYning asosiy vazifalarini ko'rsating.**

- a. maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish
- b. texnik-taktik imkoniyatlar darajasini ko'tarish
- c. a va b
- d. psixomotor va axloqiy-irodaviy tayyorgarlikni takomillashtirish.

**15. Musobaqaga yakuniy keltirish bosqichining asosiy vazifalarini ko'rsating.**

- a. nagruzkaning hajm darajasini pasaytirish
- b. musobaqa muddatigacha sport formasini maksimal darajada "cho'qqi"ga olib chiqish
- c. axloqiy-irodaviy va psixologik tayyorgarlik
- d. a, b va c.

**16. O'MY yakunining tahlili nima uchun kerak?**

a. tayyorgarlik kamchiliklarini aniqlash, ularning sabablari va yo'q qilishni qidirish

b. "Eng yaxshi murabbiy" va "eng yaxshi sportchi" unvonlarini aniqlash uchun

c. nazorat sinovlarini baholash uchun

d. b va c.

**17. O'MYlarini o'tkazishda nagruzkalar nimaga taalluqli bo'lishi lozim?**

a. sportchining tayyorgarlik darajasi va rivojlanganlik darajasi

b. sportchining individual tayyorgarlik rejalariga

c. yig'inlarda trenerlarning ko'rsatmalariga binoan

d. a va c.

**18. O'MYning borishida nazariy mashg'ulotlar nimaga yo'naltirilgan?**

a. trenirovka uslubini ilmiy asoslarda o'rgatishga

b. rejalashtirish, hisobga olish va nagruzkalarni tahlil qilish

c. trenirovka jarayoniga sportchining ongli munosabatda bo'lishini ta'minlashga

d. a, b va c.

**19. Yig'inlarga kompleksli ilmiy guruh va vrach nima uchun jalb etiladi?**

a. texnik-taktik mahoratning o'sishini va musobaqa tayyorgarligini nazorat qilish uchun

b. sportchining funksional holati darajasini nazorat qilish uchun

c. a, b va d

d. trenirovka nagruzkasi hajmini aniq yo'naltirish uchun.

**20. O'MYlari qanday me'yoriy hujjatlar asosida o'tkaziladi?**

a. trenerning bildirishnomasi va kurash federatsiyasi qarori asosida

b. BO'SM rahbarining yoki yuqoridagi muassasalar buyrug'i asosida

c. madaniyat va sport ishlari boshqarmasi yoki vazirlikning buyrug'i asosida

d. a, b va c.

### O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kaliti

№	A	B	C	D
1.		*		
2.			*	
3.				*
4.	*			
5.			*	
6.		*		
7.			*	
8.	*			
9.				*
10.				
11.				*
12.		*		
13.	*			
14.			*	
15.				*
16.	*			
17.		*		
18.				*
19.			*	
20.				*

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

Галковский Н.М., Керимов Ф.А. Вольная борьба. Т., 1993.

1. Kerimov F.A. Kurash tushaman. Т., 1990

2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Т., 2005.

3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. Т., 2001.

4. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. М., 1999.

5. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Киев, 1997.

6. Туманян Г.С. Спортивная борьба. Отбор и планирование. М., 1984.

7. Черневич Г.Л. Организация учебно-тренировочных сборов. М., 1977.

## 17-BOB. SPORT KURASHIDA SARALASH USLUBLARI

### 17.1. Sport kurashida saralash

#### 17.1.1. Saralash ko'p yillik jarayon sifatida

Saralash – bu pedagogik, sotsiologik, ruhiy va tibbiy-biologik tadqiqot uslublarini o'z ichiga oladigan kompleks xususiyatga ega tashkiliy-uslubiy tadbirlarning ko'p yillik tizimidir. Mazkur tadqiqot usublari asosida o'smirlarning kurashga ixtisoslashishi uchun qobiliyatlar va iqtidor aniqlanadi, shuningdek kuchli sportchilarni terma jamoalarga saralash amalga oshiriladi.

Saralashning asosiy vazifasi turli sport turlariga ko'p jihatdan mos keladigan qobiliyatlar va iqtidorlilarni har tomonlama o'rganish hamda aniqlashdan iborat.

Trenirovka jarayonida birlamchi va ikkilamchi saralash ajratiladi.

Birlamchi (boshlang'ich) saralash – bu bo'lajak sportchi bilan tanishish, uni seksiyaga qabul qilishda, umumta'lim maktablaridagi darslarda qobiliyatli bolalarni izlashda o'rganishdir. Birlamchi saralash mezonlari quyidagilardan iborat: harakat qobiliyatlari va gavda tuzilishi xususiyatlarini baholash, ruhiy fiziologik tekshirish, sabab doirasini o'rganish, ota-onalar bilan tanishish.

Ikkilamchi saralash – boshlang'ich ixtisoslashish jarayonida bolaning iqtidori yoki kamchiligini aniqlashni nazarda tutadi. Sport trenirovkasi jarayonida bolani kuzatish boshlang'ich tavsifni belgilab olishga, yashirin imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Bolani to'g'ri yo'naltirish hamda saralash maqsadida o'rgatishda ko'p sonli ko'rsatkichlarni hisobga olish lozim.

Sportga layoqatlilik bahosi pastda sanab o'tiladigan barcha mezonlar bo'yicha qo'yiladi:

1. Sport turini tanlash sabab. Sport bilan shug'ullanishga bo'lgan kuchli ichki da'vat sabab deyiladi.

Bolani sportga yetaklab keladigan asosiy sabablar -- bu o'z-o'zini barkamollashtirishga bo'lgan intilish, harakat faolligiga bo'lgan talabni qondirish; o'z-o'zini namoyon qilish va o'z-o'zini mustahkamlashga intilish (muvaqqafiyatga intilishi, jamiyatda tanilishiga bo'lgan intilish); sport mashug'ulotlari bilan bog'liq bo'lgan taassurotlarni olish; ijtimoiy muloqotga bo'lgan talab, do'stlari bilan birga bo'lishga intilish va h.k.

2. Morfologik xususiyatlar. Morfologik xususiyatlar bir qator harakat sifatlarining namoyon bo'lishiga va umuman sport yutuqlariga erishishga ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich bosqichda gavdaning total o'lchamlari: bo'y, og'irlik va gavda yuzasi, ko'krak qafasi hajmi parametrlari aniqlanadi. Shuningdek, gavda nisbatlari, ya'ni turli xil indekslarni hisoblab chiqish yo'li bilan alohida gavda qismlari o'lchamlarining nisbatlari belgilanadi.

Bola morfologik xususiyatlarini o'rganishning keyingi bosqichida gavda tuzilishining umumiy bahosi, gavda tuzilishi tipi aniqlanadi.

3. Sportga yo'naltirish va saralashning fiziologik mezonlari ham harakatlanish, ham vegetativ tizimlar uchun anaerob va aerob imkoniyatlar darajasi muhim hisoblanadi. Kislorodni maksimal iste'mol qilish (KMIQ) eng yaxshi bashoratli ko'rsatkich hisoblanadi (KMI qancha yuqori bo'lsa, chidamlilikni talab qiluvchi ishga bo'lgan imkoniyatlar shuncha katta).

4. Shaxsning ruhiy xususiyatlari. Shaxsning ruhiy xususiyatlari tajriba yo'li orqali o'rganiladi. Yo'naltirish va saralashda asab tizimi xususiyatlarini hisobga olish foydalidir, chunki ular tug'ma, kam o'zgaradigan shaxsning asosiy tuzilmasi hisoblanadi, shuning uchun ishonchli bashorat belgisi bo'lib xizmat qiladi.

5. Sportga saralashda irsiyat omili ham muhim mezon hisoblanadi. Bo'y, vazn va boshqa morfologik belgilarning bolalarga ota-onalaridan nasldan-naslga o'tishi isbotlangan. Bir qator tadqiqotlarda bolalar va ota-onalarning harakat imkoniyatlari o'rtasida bog'liqlik borligi aniqlangan.

Ko'p sonli tadqiqotlar natijalarining tahlili sportga saralash nazariyasining asosiy qoidalarini shakllantirishga yordam beradi.

Sportga saralash sport tayyorgarligining hamma davrlarini qamrab oladigan ko'p pog'onali, ko'p yillik jarayon hisoblanadi. U sportchilar qobiliyatlarini har tomonlama o'rganishga, bu qobiliyatlarni shakllantirish uchun tanlagan kurash turida muvaffaqiyatli takomillashishga imkon beradigan qulay shart-sharoitlarni yaratishga asoslangan.

Sportchilarni saralashning ko'p yillik tizimi oltita bosqichga bo'linadi:

1. Dastlabki saralash.

2. Dastlabki saralashning muvofiqligini chuqur tekshirish.

3. Sportga yo'naltirish bosqichi.



4. O‘smirlar terma jamoalariga saralash.

5. Yoshlar terma jamoalariga saralash.

6. Mamlakat terma jamoasining asosiy tarkibiga saralash.

Saralashning asosiy vazifalari va asosiy uslublari, shuningdek har bir saralash bosqichidagi shug‘ullanuvchilar tarkibi 19-jadvalda keltirilgan.

19-jadval

### Sportchilarni saralash tizimi

(V.P. Filin bo‘yicha)

Saralash bosqichi	Saralashning asosiy vazifalari	Saralashning asosiy uslublari	Shug‘ullanuvchilar tarkibi
I	Bolalar va o‘smirlarni sport maktabiga dastlabki saralash	1. Pedagogik kuzatish 2. Nazorat sinovlari (testlar) 3. Sport turlari bo‘yicha ko‘rik-tanlovlar. 4. Sotsiologik tadqiqotlar 5. Tibbiy tekshiruv	Turli yoshdagi bolalar va o‘smirlar (sport turi xususiyatiga qarab)
II	Tanlangan sport turida muvaffaqiyatli ixtisoslashishga qo‘yiladigan talablarga dastlab saralab olingan shug‘ullanuvchilar tarkibining muvofiqligini chuqur tekshirish. Bolalar va o‘smirlarni sport maktabiga qabul qilish.	1. Pedagogik kuzatish 2. Nazorat sinovlari (testlar) 3. Musobaqa va nazorat chamalash bellashuvlari. 4. Psixologik tadqiqotlar 5. Tibbiy-biologik tadqiqotlar	Turli yoshdagi bolalar va o‘smirlar
III	Sport maktabining har bir o‘quvchisini uning	1. Pedagogik kuzatish 2. Nazorat sinovlari (testlar)	Bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar

	alohida ixtisosligini oxirgi bor aniqlash maqsadida ko'p yillik muntazam o'rganish (sportga yo'naltirish bosqichi)	3. Musobaqa va nazorat chamalash bellashuvlari. 4. Psixologik tadqiqotlar 5. Tibbiy-biologik tadqiqotlar	
IV	Sport jamiyatlari, idoralar, mamlakat o'smirlar terma jamoalariga saralash	1. Pedagogik kuzatish 2. Nazorat sinovlari (testlar) 3. Musobaqa va nazorat chamalash bellashuvlari 4. Psixologik tadqiqotlar 5. Tibbiy-biologik tadqiqotlar	O'smirlar va qizlar
V	Sport jamiyatlari, idoralar, mamlakat yoshlar terma jamoalariga saralash	1. Pedagogik kuzatish 2. Nazorat sinovlari (testlar) 3. Musobaqa va nazorat chamalash bellashuvlari 4. Psixologik tadqiqotlar 5. Tibbiy-biologik tadqiqotlar	O'spirinlar
VI	Mamlakat terma jamoalarining asosiy tarkibiga saralash	1. Pedagogik kuzatish 2. Nazorat sinovlari (testlar) 3. Musobaqa va nazorat chamalash bellashuvlari 4. Psixologik tadqiqotlar 5. Tibbiy-biologik tadqiqotlar	Katta yoshdagi sportchilar

### **17.1.2. Bolalarni kurash bo‘linmasiga saralash uchun testlar**

Sport kurashida saralash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi: kurash bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qobiliyatning erta uyg‘onishi, mehnatsevarlik, botirlik, qat‘iyatlilik, jasorat kabi xususiyatlarga ega bo‘lish, bilimlarni tez egallash va malaka, ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirish, sport texnikasini o‘rganish va takkomillashtirish jarayonida ijodiy elementlarning mavjudligi.

Bolalarning sport maktablarining kurash bo‘linmalariga tanlash jarayonida salomatlik, organizmning analizator tizimi holati morfologik belgilar, jismoniy tayyorgarlik harakatini vaqt ichida makonda va kuchlanish berish bo‘yicha yanada aniq bajarishga yordam beradigan koordinatsion qobiliyatlar darajasini hisobga olish zarur.

Sport maktablarining kurash bo‘linmalariga tanlashda quyidagi nazorat sinovlari (testlari) qo‘llaniladi (20-jadval).

#### **17.1.3 Terma jamoaga saralash**

Sportchilarni saralash yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda muhim qism (tizimcha) bo‘lib hisoblanadi. U ikki xil bo‘ladi: nomzodlarni terma jamoaga saralash; terma jamoa a‘zolarini xalqaro musobaqalarda qatnashi uchun saralash.

Birinchi xilning asosiy mezonlari dastlabki bo‘lib hisoblanadi va nomzodlarning ikkinchi xildagi saralashga tayyorlash uchun shart-sharoit bo‘lib xizmat qiladi. Ularga quyidagilar kiradi:

– sport-texnik natija va uning so‘nggi trenirovka yillari ichida erishgan yutuqlari dinamikasi;

– kurashchi yoshi, antropometrik ko‘rsatkichlari va sport turining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda salomatligi;

– kurash texnikasining eng muhim fazalari va elementlarini bajarishda texnik xatolarni yo‘qotish bo‘yicha ularning mustahkamlash darajasi;

– ko‘p yillik trenirovka jarayonida kam o‘zgaradigan maxsus jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasi;

– organizm funktsional tizimining kurashdagi o‘ziga xos harakatlarni bajarishga bo‘lgan imkoniyatlari;

– ixtisoslashgan trenirovka nagruzkalariga ruhiy mustahkamlik;

– maqsadga yo‘nalganlik.

## Bolalar va o'smirlar sport maktablarining kurash bo'linmalariga saralash uchun testlar

(N.N. Sorokin va Yu.G. Kopjaspirov bo'yicha)

### 1. 12 yoshli o'smirlar tezkor-kuch, kuch va iroda sifatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun testlar

Nazorat mashqlari	Natijani baholash	
	dastlabki	birinchi o'quv yili oxiriga kelib
30 m ga baland startdan yugurish (s)	5,4 – a'lo 5,5 – yaxshi 5,6 – qoniqarli 5,8 – yomon	5,1 – a'lo 5,2 – yaxshi 5,3 – qoniqarli 5,5 – yomon
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm) Zalda gilam yoki rezinali yo'lakchada o'tkaziladi. Ikkita urinish, yaxshisi hisobga olinadi	160 – a'lo 155 – yaxshi 150 – qoniqarli 140 – yomon	180 – a'lo 175 – yaxshi 170 – qoniqarli 160 – yomon
Gimnastika devorchasi, xalqalarida osilib 90° burchak holatni ushlab turish vaqti	4 – a'lo 3 – yaxshi 2 – qoniqarli 0 – yomon	8 – a'lo 7 – yaxshi 5 – qoniqarli 3 – yomon
Polda yotgan holatda, 60 sm balandlikdagi o'rindiqqa oyoqlar bilan tayanib qo'llarni bukib-yozish (marta)	6 – a'lo 4 – yaxshi 2 – qoniqarli 0 – yomon	15 – a'lo 12 – yaxshi 8 – qoniqarli 4 – yomon
Turnikda yoki xalqalarda dahan-gacha tortilish (marta)	4 – a'lo 3 – yaxshi 2 – qoniqarli 1 – yomon	6 – a'lo 5 – yaxshi 4 – qoniqarli 2 – yomon
To'p uchun kurashish (gilamda, tizzalarda turib, to'ldirma to'pni o'zaro ushlashdan, trener buyrug'i bilan to'pni egallab olish uchun kurashish) Sherik bilan 3-marta bajariladi. Har bir bellashuv vaqti va natijasi qayd qilinadi.	3 ta g'alaba – a'lo 2 ta g'alaba – yaxshi 1 ta g'alaba – qoniqarli	

<b>2. 12 yoshdagi o'smirlarning egiluvchanlik darajasini aniqlash uchun testlar</b>		
<b>Nazorat mashqlari</b>	<b>Bajarish sifati</b>	<b>Bahosi</b>
Polda oyoqlarni kerib o'tirib, qo'llar yon tomonlarga, bosh ko'tarilgan, orqa tekislangan holatda oldinga egilish	1. Ko'krak va qorin polga tekkiziladi, bosh ko'tarilgan, oyoqlar tekis, oyoq uchlari tortilgan	a'lo
	2. Orqa tekis holda (78°) oldinga egilish	qoniqarli
	3. Orqa yarimigacha tekislangan holda (45°) oldinga egilish	qoniqarli
	4. Bel bukilgan holda (45° dan kam) oldinga egilish	yomon
Gimnastika ko'prigi	1. Oyoqlar tekis, yelkalar polga perpendikulyar holatda	a'lo
	2. Oyoqlar birmuncha bukilgan, yelkalar tik holatdan bir oz og'gan	yaxshi
	3. Oyoqlar bukilgan, yelkalar 45° burchak ostida	qoniqarli
	4. Oyoqlar juda ham bukilgan, yelkalar 30° burchak ostida	yomon
Shpagat	1. Oyoqlar to'liq polga tegib turadi, qo'llar yon tomonlarga	a'lo
	2. Oyoqlar tizzalargacha polga tegib turadi, qo'llar yon tomonlarga	yaxshi
	3. Oyoqlar to'piqlari bilan polga tegib turadi, qo'llar yon tomonlarga	qoniqarli
	4. Oyoqlar to'piqlari bilan polga tegib turadi, qo'llar polda	yomon

Bolalarni saralash uchun hamma testlar tezkor-kuch, kuch, iroda sifatleri hamda egiluvchanlikning rivojlanganlik darajasini aniqlashga ajratilgan.

### **17.1.3.1. Sport natijasi**

Kurashchining sport natijasi ikkinchi xildagi saralashning muhim pedagogik mezon bo'lib hisoblanadi. Bu mezon natija ko'rsatilgan shariotlar kompleksi va uning bajarilishiga ta'sir etgan sabablarni batafsil tahlil qilish hamda ko'rib chiqishni taqozo etadi. Kurashda birinchi o'rinni egallash ko'p hollarda qur'a tashlanishiga bog'liq bo'ladi. Kurashchi musobaqa boshida hamma kuchli raqiblar bilan uchrashishi va finalga yetib bormasligi yoki katta jismoniy quvvat hamda asabni sarf qilgan holda finalga chiqishi mumkin. Boshqa kurashchi finalgacha faqat bo'sh raqiblar bilan uchrashishi va kuchini tejab, finalga chiqishi mumkin.

Shu sababli muhim musobaqalar uchun terma jamoaga saralashda nazorat musobaqalarida 1–5-chi o'rinlarni egallagan nomzodlarning tayyorgarligi ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Ba'zan oxirgi nazorat bellashuvlarida qatnashmagan kurashchi so'ngi paytdagi yutuqlari va tayyorgarlik darajasi dinamikasi bo'yicha saralab olinishi mumkin. Masalan, u hamma kuchli sportchilar ustidan yoki taqqoslanayotgan nomzodlar o'rtasidagi shaxsiy uchrashuvda g'alaba qozongan. Kurashchi sport formasining rivojlanish dinamikasi, uning maxsus jismoniy tayyorgarligi, ayniqsa, maxsus chidamlilik darajasi, musobaqalarda hujum va himoya harakatlarini bajarishda ko'pincha o'zgarmas bo'lgan texnik-taktik mahorat elementlarini mustahkamlash darajasi, sport kurashining favqulodda sharoitlarda kurashni olib borishga bo'lgan ruhiy tayyorgarlik va mustahkamlik darajasi, bellashuvning o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda salomatlik, musobaqa sharoitlari hamda xalqaro musobaqalardagi hakamlikka ko'proq mos bo'lgan bellashuvni olib borish uslubi, ehtimoldagi raqiblar bilan bellashuvni muvaffaqiyatli olib borishga yordam beradigan texnik-taktik mahorat to'plami har doim ham hisobga olinmaydi.

Asosiy shartlar kompleksi shundan iborat bo'lib, uning asosida yirik musobaqalarda ishtirok etadigan jamoa tarkibiga saralashda sport natijasi tuzatib borilishi lozim.

### 17.1.3.2. Texnik-taktik mahorat darajasi

Kurash bo'yicha terma jamoaga saralashning boshqa eng muhim pedagogik mezonlaridan biri – bu texnik-taktik mahorat darajasidir. U olimpiada sovrindori model tavsiflarining bir qator ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi, natijada shunga qarab sport natijasi yuzaga keladi.

Bu ko'rsatkichlar kurashchilar musobaqa faoliyati jarayonidagi bir qator nazorat musobaqalarida aniqlanadi. Bunda uning oxirgi yillardagi dinamikasi hisobga olinadi.

Ko'p yillik tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, kurashchidan texnik-taktik mahoratning turli bo'limlari bo'yicha kurashchining model tavsiflari minimal ko'rsatkichlarini bajarish qobiliyati mavjudligi sababli, yuqori sport natijasiga erishiladi.

Kurashda texnika, boshqa sport turlaridagi kabi, hajmi, turli-tumanligi va samaradorligi bilan baholanadi (V.M. Zautsiorskiy, 1976).

Sovrindor – olimpiadachining texnik tayyorgarlik bo'yicha model tavsiflari kurash uchun ishlab chiqilgan minimal ko'rsatkichlardan tashkil topadi.

Hajmi bo'yicha: butun musobaqa jarayonida muvaffaqiyatli qo'llaniladigan 13 ta hujum varianti.

Turli-tumanligi bo'yicha: 7 usullar guruhidan 5 tasi (o'tkazishlar, ag'darishlar, tik turishda tashlashlar va qarshi usullar, ag'darishlar, parterda tashlashlar va qarshi usullar). Kurashchilar texnik tayyorgarligining bunday hajmi va turli-tumanligi ularga bellashuv davomida raqiblar tayyorgarligiga qarab hujum harakatlarini qo'llashga yordam beradi. Usullarning turli guruhlaridan ko'p hujum variantlarini muvaffaqiyatli qo'llayotgan raqibga qarshi himoyalaniş juda qiyin hamda ularda hujum samaradorligi yuqori bo'ladi.

Hujum samaradorligi bo'yicha: koeffitsient 0,60 ga teng. Bu minimal koeffitsient bo'lib, kuchli kurashchilar odatda undan ko'p natijaga erishadilar.

Yuqori hujum koeffitsienti kurashchining ikkita turli yo'nalishidagi harakatlari: birinchisi – harakatni yakunlash uchun qulay dinamik vaziyatni tayyorlaydigan aldamchi harakatni tanaffussiz bitta harakatga birlashtirish yo'li orqali murakkab hujum harakatlari bilan hujum qilish malakasidan hosil bo'ladi.

Bu taktik tayyorgarlik usulini hal qiluvchi hujum usuli bilan yoki 2–3 ta usullarni bitta harakatga (bunda hujum boshi birinchi usullar, yakuni – keyingilari bilan amalga oshiriladi) birlashtirishdir.

Himoyalani sh samaradorligi bo'yicha: koeffitsienti 0,60 ga teng. Amalda hamma kuchli kurashchilar o'z raqiblariga hujum harakatlarini kamdan-kam boy beradilar. Turli usullardan mohirona himoyalani sh – kurashchi mahoratining muhim ko'rsatkichidir.

Taktik fikrlash vaqti: kurashchining bellashuv davomida yuzaga keladigan hujum uchun qulay dinamik vaziyatlarni tushunib yetish va undan tez foydalanish malakasi. Kuchli kurashchilar taktik fikrlashining model tavsiflari ko'rsatkichi – 330 ms dan ko'p.

Hozirgi zamon hakamlik tizimi kurashchilardan butun bellashuv davomida to'xtovsiz hujum harakatlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Shu sababli faollik ko'rsatkichi kurashchining 1 minut ichida kamida ikkita aniq hujumidan iborat bo'lishi lozim. Biroq hujum maromi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Kurashchi o'rtacha 2 ta faollik ko'rsatkichiga ega bo'lishi mumkin. Biroq kurashning ba'zi minutlarida u tez-tez hujum qilishi mumkin. Yuqori malakali kurashchi bir maromda, butun bellashuv davomida har bir 30–40 s. orasida hujum qila bilishi hamda butun bellashuv vaqtining 75% ichida ogohlantirish olmasligi lozim. Faqat kuchli kurashchilar bilan uchrashgan paytda u teng olishuvda 5 ta bellashuvdan bittasida yoki kamida 8 ta bellashuvdan ikkitasida ogohlantirish (ba'zan ikki tomonlama) olishi mumkin. Uning hujumlari maromi minimum holda 0,75 ga teng bo'ladi.

Texnik-taktik mahoratning hamma model tavsiflari ko'rsatkichlari, o'z navbatida, texnik-taktik mahoratni takomillashtirish bo'yicha uning butun musobaqa faoliyati va trenirovka ishi jarayonidan hosil bo'ladi.

Musobaqa faoliyati jarayoni o'zining minimal ko'rsatkichlariga ega, ularga bellashuvlar soni (28), musobaqalardagi natijalar (1-chi o'rin), musobaqa tajribasi (3 ta yirik, jumladan chet eldagi musobaqa). Texnik-taktik mahorat va musobaqa faoliyatining bunday model tavsiflari saralash paytida terma jamoa a'zolari bo'lgan kurashchilarning natijalari hamda tayyorgarligining turli tomonlari bilan kompleks holda hisobga olinishi kerak.

## **O'z-o'zini tekshirish uchun test savollari**

### **1.Sportda saralash nima degani?**

- a. muhim musobaqalarda qatnashish uchun jamoalar va seksiyalardan sportchilarni tanlab olish.
- b. terma jamoa tarkibiga eng yaxshi sportchilarni tanlash



c. pedagogik, ijtimoiy, psixologik va tibbiy-biologik tadqiqot uslublarini tashkillashtirish tadbirlarini o'z ichiga oluvchi ko'p yillik tizim bo'lib, uning asosida o'spirinlarning qobiliyatlari aniqlanadi va kuchli sportchilar tanlanadi

d. musobaqa faoliyatini tahlil qilish va texnik-taktik tayyorgarlik asosida sportchilarni tanlash.

### **2.Sportda saralash vazifalari nimalardan iborat?**

a. umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari bo'yicha sportchilarni sinovdan o'tkazish.

b. har xil kurash turlariga ta'luqli har tomonlama imkoniyatning ilk ko'rinishlarini va qobiliyatlarning mavjudligini o'rganish

c. sportchilarni tayyorlash tizimini yaxshilash uchun lozim bo'lgan axborotni tayyorlash

d. bolalarning, o'smirlarning sog'lig'ini va kuchli sportchilarning sport natijalarini yaxshilash.

### **3.Birlamchi saralash nima degani?**

a. sport maktabining 1-sinfida o'qiyotgan yosh sportchini imkoniyatning ilk ko'rinishlarini va xususiyatlarini tadqiq etish.

b. uslublar va yosh sportchilarning maqsadga intiluvchanligini o'rganish

c. mashg'ulot darsiga kelgan yosh sportchini fiziologik imkoniyatning ilk ko'rinishlarini va chaqqonlik qobiliyatlarini o'rganish

d. seksiyaga qabul qilishda bo'lajak sportchi bilan tanishish, uning harakat qobiliyatlarini o'rganish.

### **4.Birlamchi saralash mezonlari nimadan iborat?**

a. sportchining alohida qismlari, vazni va tanasining proporsiyaliligini aniqlash.

b. ota-onalari bilan tanishish, shug'ullanish sabablarini o'rganish, psixofiziologik xususiyatlarini, tanasining tuzilish jihatlarini va harakat qobiliyatlarini baholash

c. o'zini ko'rsatishga intilish, mashg'ulot joyi yashash joyiga yaqinligi, umumta'lim maktabida uning o'qish sifati

d. sportchining yaxshi suhbatdosh ekanligi va mazkur sport turi bo'yicha ota-onalarining sport yutuqlari.

### **5.Ikkilamchi saralash nima degani va uning vazifalari?**

a. birlamchi saralashdan 2-3 oydan keyin saralash va yosh sportchini bo'smga yozish.

b. yosh kurashchining harakat, vegetativ va psixologik tizimini chuqurroq tahlil qilish

c. mutaxassislikning boshlang'ich jarayonlaridagi iqtidorini yoki kamchiliklarini aniqlash. Boshidagi tavsiflarni aniqlashtirish, yashirish imkoniyatlarni aniqlashtirish.

d. BO'SMning 2-sinfidagi yosh sportchining o'qishini tadqiq etish.

### **6. Bola sportga kelishining asosiy sababini tavsiflang.**

a. katta musobaqalarning chempioni va sovrindori bo'lish.

b. o'zini takomillashuviga intilish, harakat faolligidagi o'z talablarini qondirish, o'zini ko'rsatishga intilish, ijtimoiy munosabatdagi talab, sport bilan shug'ullanishdagi ta'surotlar olish

c. kuchli shaxs ekanligini tasdiqlash va tengdoshlari orasida boshqaruvchi bo'lish

d. do'stlari, qo'shnilari va sinfdoshlari orasida kengroq tan olinishiga erishish.

### **7. Qaysi tadqiqot dinamik yoki longitudinal deb ataladi?**

a. sport bilan shug'ullanishga va sportda saralashga ta'sir etish hamda nasl xususiyatlarini tadqiq etish.

b. yosh kurashchilarda kurash bilan shug'ullanish qobiliyatlarini aniqlash

c. tadqiq etiluvchilarning doimiy kontingentida ko'p yillik tajribalar o'tkazish

d. qo'llaniladigan o'quv-mashg'ulot nagruzkalarini tadqiq etish.

### **8. Saralash jarayoni qaysi tomonlarni o'z ichiga oladi?**

a. sportchining aniq yoshini va axloqiy ko'rinishini aniqlash.

b. saralash jarayoni o'z ichiga quyidagi: biologik, tibbiy, jamiyat, pedagogik, psixologik va axloqiy(etik) tomonlarni oladi

c. tayyorgarlikga ketadigan moliyaviy chiqimlar va sport natijalarini bashorat tomonlari

d. sportchilarni tayyorlashning boshlang'ich tizimini takomillashtirish.

### **9. Yosh sportchilarning morfologik xususiyatlari nimaga ta'sir ko'rsatadi?**

a. kurashning texnikasiga va taktikasiga o'rgatish sifatiga.

b. shaxsiy xususiyatlarni harakat imkoniyatlarini ko'rsatishda

c. qator harakat sifatlarini va umuman sport natijalarini ko'rsatishda

d. yuqorida keltirilganlarning barchasi.

**10. Shug‘ullanuvchi o‘smirlarning biologik yoshini tavsiflash qay yo‘sinda aniqlanadi?**

a. uning tana tuzilishi va organizmining yetilganlik darajasi

b. shug‘ullanuvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va ularning aqliy qobiliyatlari

c. organizmning mos ravishda rivojlanish darajasi, uning alohida tizim va tarmoqlari, pasport yoshi bo‘yicha bir xil shaxslarni o‘rtacha belgilarining mos kelishi

d. aniq harakat imkoniyatlarini mos ravishda amalga oshirish bo‘yicha yosh chegaralari.

**11. Sensitiv bosqichi nima degani?**

a. shunday yosh bosqichiki, unda ko‘proq shiddat bilan alohida tabiiy harakat qobiliyatlarining o‘shishi sodir etiladi va bunda jismoniy sifatlarning o‘shishini ko‘proq kutish mumkin

b. jismoniy sifatlarni rivojlantirishni ko‘zlovchi mashg‘ulotning yillik sikl rejasining muhim tuzulmasi

c. maksimal sport natijalarini ko‘rsatish bosqich

d. sportchini yangi harakat imkoniyatlariga o‘rgatish jarayoni.

**12. Sportga yo‘naltirishda qanday fiziologik mezonlar mavjud?**

a. nerv tizimining o‘ziga xos tipologik xususiyatlari

b. mushak taranglashuviga organizmning yuqori darajadagi tayyorligi

c. aerob va anaerob imkoniyatlar, jismoniy nagruzkalarga ko‘nikish, jismoniy ish qobiliyati darajalari

d. mashg‘ulotda pedagogik va tibbiy-biologik tamoyillariga qat’iy tayanish.

**13. Sportga yo‘naltirish nima degani?**

a. sport maktabiga saralash va imkoniyatning ilk ko‘rinishlarini aniqlash.

b. yosh bolalarni sport bilan shug‘ullanish uchun qulay sharoitlar yaratish

c. maxsus ko‘rik o‘tkazish yo‘li bilan yosh sportchilarning shaxsiy qobiliyatlarini ob‘yektiv baholash

d. majmuali ko‘rinishdagi tashkiliy-uslubiy tadbirlar tizimi, uning asosida aniq sport turida individning tor mutaxassisligi aniqlanadi.

#### **14. “Sportga layoqatlilik” nima degani?**

a. aniq bir sport turi bilan shug‘ullanishga bolaning qiziqishini aniqlash.

b. tanlangan sport turi mutaxassisligida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, individning qobiliyatlar va imkoniyatining ilk ko‘rinishlarini aniqlash uslublar hamda vositalar tizimi

c. yosh sportchilarning shaxsiy qobiliyatlarini ob‘yektiv baholash

d. tajribadagilarni jismoniy sifatlarining rivojlanishi, koordinatsion qobiliyatlari va sport-texnik mahorati darajasini baholash.

#### **15. Sport maktabiga boshlang‘ich saralash jarayoni qanday davrlarga bo‘linadi?**

a. yosh sportchining oilasi bilan tanishish davri, uning qiziqishi va harakat sifatlarini nazorat qilish

b. bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, saralashning zarur vosita va uslublari hamda mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish

c. 1) bolalar va o‘spirinlarni oldindan tanlash davri; 2) tanlangan sport turidagi mutaxassislik talablariga oldindan tanlangan tarkibni mosligini chuqurroq tekshirish davri; 3) sportga yo‘naltirish davri

d. jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash va nagruzkani rejalashtirish.

#### **16. Bolalarni saralash paytida nimalarni hisobga olish zarur?**

a. jiddiy faxr tuyg‘usi va bolaning o‘zini yaxshi ko‘rishi hamda chidamkorligi va jismoniy sifatning yuqori darajadali

b. asosiy mashg‘ulot bazasining yashash joyiga yaqinligi

c. koordinatsion qobiliyatlar va sportchi oilaga mansub ekanligi

d. barcha yuqorida ko‘rsatilganlar.

#### **17. Terma jamoaga saralash uchun qanday uslublar qo‘llaniladi?**

a. turnirlarda sportchilarning bir maromda chiqishini baholash

b. sportchining o‘shish istiqbollari

c. qisqa vaqtli saralash (joriy mashg‘ulot yili doirasida – yilning asosiy musobaqasiga qatnashish uchun)

d. uning irodaviy sifatlarini, axloqiy turg‘unligi va jismoniy tayyorgarligini baholash.

#### **18. O‘zbekiston terma jamoasiga saralash paytida kurashchida hujum va himoya harakatlari qanday darajada samarali bo‘lishi kerak?**

a. Respublika chempioni bo‘lish uchun yetarli

b. samarali ravishda murakkab hujum harakatlari va raqib hujumidan himoyalaniish

c. tik turgan holatda kombinatsiyalarni qo'llash va samarali himoyalaniish

d. O'zbekiston chempionatida o'zi bilan teng raqibga qarshi bellashuv paytida, hujum samarasi va himoyalaniishning 60% dan kam emasligi.

**19. Sport kurashi bo'yicha O'zbekiston terma jamoasiga tanlashda texnik tayyorgarlik darajasi qanday mezon bilan belgilanishi lozim?**

a. tik turgan holatda va parter holatida hujumni amalga oshirish hamda kombinatsiyalarni bajarish

b. hajmi bo'yicha hujumning 13 variantining hammasini, har xilligi bo'yicha 7 tadan 5 ta guruh usullarini (o'tkazishlar, yiqitishlar, tashlashlar va parterdagi qarshi usullar)

c. amplitudasi yuqori tashlashlar va parterda kombinatsiyalarni samarali o'tkazish

d. ritmik ravishda, to'xtamasdan hujum qilish va har hil usullar bajarish.

**20. Kurash bo'yicha jamoaga saralashning asosiy tamoyillarini ko'rsating.**

a. saralash jarayonining umumiy ochiqligi va nomzodlar tarkibi.

b. terma jamoaga nomzodlarning barchasiga bir xildagi imkoniyatni yaratish

c. yuqori sport natijalariga erishishda sportchilarni rag'batlantirish va kurashchilar mahoratiga tayanish

d. barcha yuqorida ko'rsatilganlar.

### O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollarining kaliti

№	A	B	C	D
1.			*	
2.		*		
3.				*
4.		*		
5.			*	
6.		*		
7.			*	
8.		*		
9.				*
10.			*	
11.	*			
12.			*	
13.				*
14.		*		
15.			*	
16.				*
17.			*	
18.				*
19.		*		
20.				*

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Бриль М.С. Отбор в спортивных играх. М., 1980.
2. Волков В.М., Филин В.П Спортивный отбор. М., 1983.
3. Галковский Н.М., Керимов Ф.А. Вольная борьба. Т., 1987.
4. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2001.
5. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2005.
6. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в Олимпийском спорте. -К., 1997.
7. Теория и методика физического воспитания. Под редакцией Ашмарина Б.А. М., 1979.
8. Туманян Г.С. Спортивная борьба: отбор и планирование. М., 1984.
9. Филин В.П. Теория и методика юношеского спорта. М., 1987

## **18-BOB. KURASH TURLARIDA TAYYORGARLIKNING KO‘P YILLIK BOSQICHLARI**

### **18.1. Kurash turlarda sport zaxiralarining ko‘p yillik tayyorgarligi**

#### **18.1.1. Sport yakkakurashlari uchun zaxira tayyorlashni boshqarishning uch pog‘onali tizimini qo‘llash xususiyatlari**

Sportchilar tayyorgarligini boshqarish tizimi samaradorligini oshirish muammosi trenirovka vositalari va uslublarining sport tayyorgarligi ko‘p yillik jarayonining hamma bosqichlarida belgilanadigan maqsadlarga to‘liq mos kelishini talab etadi. Ushbu muammo mamalakatimizda hamda chet ellarda o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida turadi. Uni hal etish yo‘llaridan biri sportchi organizmi bilan birga sportdagi muvaffaqiyatni belgilab beruvchi turli omillarni ilmiy modellashtirish hisoblanadi.

Bu holda ko‘p yillik trenirovkani sportchini yangi shug‘ullanuvchi darajasidan yuqori malaka darajasigacha tayyorlashning umumiy (yaxlit) jarayoni sifatida ko‘rib chiqish va uni ma‘lum bir qonuniyatlarga bo‘ysungan optimal yo‘llar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu fikrlardan keyin kelib chiqib, A.A. Novikov va A.O. Akopyan (1983) sport yakkakurashlarida tayyorgarlikni boshqarishning ierarxiya xususiyatiga ega bo‘lgan tizimini ishlab chiqdilar.

U deyarli sportchi tayyorgarligining hamma tomonlarini son jihatdan tavsiflab beradi va uchta pog‘onani o‘z ichiga oladi:

birinchisi – musobaqa faoliyati (yoki musobaqa modeli);

ikkinchisi – sportchi tayyorgarligining asosiy tomonlari (yoki sport mahorati modeli);

uchinchisi – sportchi organizmi tizimi (yoki potentsial imkoniyatlar modeli)

Bunday ierarxiyada pog‘onalarning bir-biriga ergashib bog‘lanishi yuqori malakali sportchilarni tayyorlash uchun shubha tug‘dirmaydi.

O‘spirinlarni tayyorlashga e‘tiborni qaratgan holda oldinga qo‘yilgan vazifalarning hal etilishi qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi.

Sport yakkakurashlari amaliyoti shuni ko‘rsatdiki, musobaqalarda muvaffaqiyatga erishish uchun vaqtdan oldin yo‘naltirish natijalarning besabab oshirilishiga olib keladi va sportchining faol qatnashish

muddatini cheklab qo'yadi. Pedagogik kuzatishlar ham shuni ko'rsatadiki, maksimal natijaga erishish maqsadida tayyorgarligi tezlashtirilgan kurashchilarning ko'pchiligi vaqtdan oldin o'z chegarasiga yetganlar, so'ngra esa sport faoliyatini erta tugatishga majbur bo'lganlar.

M.Ya. Nabatnikova (1982) sportchilar tayyorgarligining ko'p yillik jarayonida uch pog'onali model miqyoslarini taqqoslab va o'spirinlarning o'ziga xos tayyorgarligini e'tiborga olib, pog'onalarni quyidagi ketma-ketlikda joylashtiradi:

birinchi – potensial sport imkoniyatlari modeli;

ikkinchi – mahorat modeli;

uchinchi – musobaqa modeli.

Ushbu tushunchalarni ko'rib chiqamiz. Potensial sport imkoniyatlari modeli sport staji, jismoniy rivojlanganlik xususiyati, ya'ni o'spirinning biologik rivojlanganligining yosh darajasi, shuningdek sportchi organizmining funksional tayyorgarligi bilan aniqlanadi.

Mahorat modeli uchun asosiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi va texnik-taktik harakatlarning egallanganlik darajasini aniqlaydigan (o'lchaydigan yoki baholaydigan) ko'rsatkichlar xosdir.

Musobaqa modeli musobaqa paytidagi musobaqalashish faoliyati xususiyatlarini aks ettiradi.

Shunday qilib, agar sport tayyorgarligi tizimida oldinga qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqilsa, unda darajalar ierarxiyasida o'zgarishlar qay tarzda sodir bo'lishini kuzatish mumkin. Ular quyidagilardan iborat: agar sport bilan shug'ullanish oldidan (o'smirlik chog'ida) potensial imkoniyatlar modeli birinchi pog'onada bo'lsa, yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda sport faoliyati modeli birinchi pog'onada turadi.

Tabiiyki, ko'p yillik trenirovka jarayonining ma'lum bir bosqichida tayyorgarlik dasturlarida pog'onalar ahamiyatini qayta yo'naltirish sodir bo'ladi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, musobaqa bellashuvlarini va sport tayyorgarligi bo'yicha dasturlarni kuzatish bizga tayyorgarlikni boshqarishda pog'onalar ahamiyati dinamikasining modelini ishlab chiqish hamda amalda asoslab berishga yordam berdi).

Modellar darajalari: I – musobaqa faoliyati;

II – mahorat modeli;



### III – potensial imkoniyatlar modeli.

Ko‘rinib turibdiki, erta yoshda trenirovka jarayoni sportchi organizmini rivojlantirishga qaratilishi lozim, shuning uchun tayyorgarlik dasturlarida jismoniy rivojlanganlik xususiyatini aniqlaydigan potensial imkoniyatlar modeli asosiy bo‘lishi zarur.

13–16 yoshda asosiy sifatlarning jadal rivojlanish va bazaviy texnikaning yuzaga kelishi sodir bo‘ladi. Shuning uchun sportchi tayyorgarligida sport kurashida o‘rgatish uchun texnik-taktik harakatlar, murakkab hujum harakatlari, taktik tayyorgarlikning turli usullari, kombinatsiyali bog‘lanishlarga asosiy e‘tiborni karatish zarur. Bu yoshidagi sportchilar texnik-taktik tayyorgarligida kelgusida ko‘proq rivojlantirish uchun alohida xususiyatlarni aniqlash lozim. Ushbu davrning yakunlovchi bosqichida sportchilarni o‘yinchi, kuchli va sur‘atli sportchi kabi toifalarga ajratish mumkin. 16 yoshdan boshlab musobaqa modelining ahamiyati ortib boradi, u 18–19 yosh davrida o‘zining maksimal ahamiyatiga yetadi. Bunda sportchining musobaqa faoliyati birinchi o‘ringa chiqariladi.

Ko‘p yillik trenirovka jarayonida musobaqa faoliyatini shartli ravishda to‘rtta bosqichga bo‘lish maqsadga muvofiqdir:

10–12 yosh – dastlabki tayyorgarlik;

13–14 yosh – boshlang‘ich sport ixtisoslashuvi;

15–17 yosh – tanlangan sport turida chuqurlashtirilgan trenirovka;

18 va katta yosh – sport takomillashuvi.

Trenirovka bosqichlarining davomiyligi shug‘ullanuvchilarning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq, shuning uchun bosqichlar o‘rtasida chegara yo‘q.

Uch pog‘onali tizimdagi modellar dinamikasi xususiyatini aniqlashda, bizningcha, qaysi bosqichda trenirovka vositalaridan maqsadli foydalanish uchun tegishli tayyorgarlik darajasiga alohida e‘tibor qaratish lozimligini belgilab olish juda muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, trenirovka jarayonini oqilona tuzish trenirovka maqsadlari, vosita hamda uslublarini birlashtirishdan iborat.

Ushbu modelni sportchi tayyorgarligining diagnostik tahlilidan so‘ng trenirovka jarayonini dasturlashda ham qo‘llash mumkin. Bunda tayyorgarlik dasturlarida mazkur bosqichda pog‘onalar ierarxiyasining xususiyati aniqlovchi maqsad bo‘lib xizmat kiladi.

### **18.1.2. Ko'p yillik trenirovka jarayonining usuliy qoidalari**

Deyarli hamma sport turlarida yuqori sport natijalari, odatda, tayyorgarlik sifatini oshirish, trenirovka usuliyatini keyinchalik takomillashtirish, fan va texnikaning yangi yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq.

Yosh sportchilarning ko'p yillik muntazam tayyorgarligi kishi rivojlanishining yosh xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi, tanlangan sport turining o'ziga xos xususiyatlarini qat'iy hisobga olgan holdagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Ko'p yillik o'quv-trenirovka jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun optimal yosh chegarlariga (shu yosh chegaralarida sportchilar o'zlarining yuqori natijalariga erishadilar) e'tibor qaratish lozim. (V.P. Filin, N.A. Fomin, 1980).

Tirishqoqlik bilan shug'ullanadigan sportchilar 18–19 yoshlarida sport ustasi unvoniga sazovor bo'ladilar. 20–22 yoshda kuchli kurashchilar xalqaro toifadagi sport ustasi me'yorini bajaradilar.

Olimpiya o'yinlari finalchilarining o'rta yoshi 25–26 yoshni tashkil etadi.

V.P. Filin va N.A. Fomin (1980) fikricha, yosh sportchilarning ko'p yillik trenirovka jarayoni quyidagi uslubiy qoidalar asosida amalga oshirilishi lozim:

- bolalar, o'smirlar, o'spirinlar va katta yoshdagi sportchilar trenirovkasi vazifalari, vositalari hamda uslublarining izchilligi;

- umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari hajmining asta-sekin o'sib borishi. Ular o'rtasidagi nisbat asta-sekin o'zgarib boradi (trenirovka nagruzkasining umumiy hajmida maxsus jismoniy tayyorgarlik ulushi ortib boradi va shunga muvofiq ravishda umumiy jismoniy tayyorgarlik hajmining ulushi kamayadi);

- sport texnikasini muntazam takomillashtirish. O'qitishning birinchi bosqichining asosiy vazifasi oqilona sport texnikasi asoslarini egallash; sport takomillashuvi bosqichining vazifasi esa – yuqori darajada harakat koordina-tsiyasiga erishish, texnikaning alohida qismlarini sayqallashdir;

- trenirovka va musobaqa nagruzkalarini to'g'ri rejalashtirish. O'smir sportchilarning funksional imkoniyatlarini reja asosida oshirish, ko'p yillik trenirovka jarayonida harakat malakalari va ko'nikmalarini takomillashtirish trenirovka hamda musobaqa nagruzkalari hajmi va shiddatini ketma-ket oshirish bilan ta'minlanadi. Trenirovka

nagruzkalari hajmi va shiddatini oshirish jarayonida izchillikka erishish, ko'p yillik trenirovka davomida ularning to'xtovsiz o'sishini amalga oshirish zarur;

– ko'p yillik trenirovka jarayonida trenirovka va musobaqa nagruzkalarini asta-sekin oshirib borish tamoyiliga qat'iy amal qilish. Agar nagruzka ko'p yillik tayyorgarlikning hamma bosqichlarida sportchi organizmining yosh, alohida va funksional imkoniyatlariga to'liq mos kelsa bu holda sportchi tayyorgarligi yaxshilanadi;

– ko'p yillik trenirovkaning hamma bosqichlarida jismoniy sifatlarni baravar rivojlantirish hamda eng qulay bo'lgan yosh davrlarida ko'proq alohida sifatlarni rivojlantirish.

Yuqorida keltirilgan asosiy uslubiy qoidalar o'smir sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligi jarayonini optimal boshqarishni amalga oshirishga imkon beradi. Optimal boshqarish sport trenirovkasi ob'yektiv qonuniyatlarining samarali amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratilishida namoyon bo'ladi. Trenirovkani optimal boshqarish – o'quv-trenirovka jarayonini ilmiy asoslangan holda tashkil etishning samarali tizimidir. U sportchi tayyorgarligining turli tomonlari kompleksini sifat jihatdan yangi, oldindan dasturlashtirilgan holatga izchil o'tkazishga qaratilgan.

Sportchi ko'p yillik trenirovkasini yanada samarali boshqarish uchun ba'zi mutaxassislar uni bosqichlarga bo'ladilar. V.P. Filin, N.A. Fomin (1986) to'rtta bosqichni tavsiya etadi: dastlabki tayyorgarlik, boshlang'ich sport ixtisoslashuvi, tanlangan sport turida chuqurlashtirilgan trenirovka va sport takomillashuvi.

V.N. Platonov (1986) beshta bosqichni ajratishni tavsiya etadi: boshlang'ich tayyorgarlik, maxsus bazaviy tayyorgarlik, alohida imkoniyatlarni maksimal amalga oshirish va yutuqlarni ushlab turish.

Sport rivojlanishining zamonaviy kimlarini hisobga olib, vatanimiz va xorijiy mutaxassis-trenerlarning ish tajribalarini umumlashtirib, T.S. Tumanyan (1985) ko'p yillik trenirovkada to'rtta siklni ajratadi (boshlang'ich, rekord oldi, rekord va yakuniy).

Ular oltita bosqichni o'z ichiga oladi: bazaviy, maxsus tayyorgarlik, chuqurlashtirilgan maxsus tayyorgarlik, yuqori natijalarni namoyish qilish, sport yutuqlarini barqarorlashtirish, kurash bilan shug'ullanishni asta-sekin to'xtatish.

G.S. Tumanyan dzyudo misolida o'zi ishlab chiqqan kurash-chilarning ko'p yillik trenirovkasi sxemasini taklif qiladi

Ko'p yillik trenirovkaning turli tasniflarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular o'rtasida muhim darajada farqlar yo'q, biroq amaliyotda S.V. Filin, N.A. Fomin (1980) tasnifi ko'proq qo'llaniladi.

### **18.1.3. Yosh kurashchilar tayyorgarligining turli tomonlarini tashkil etish va rejalashtirish**

Zamonaviy sport kurashi sportchidan yaxshi jismoniy, texnik-taktik, funksional va ruhiy tayyorgarlikni talab qiladi.

Sport turlari tasnifi bo'yicha sport kurashi, uchinchi guruhga kiradi (S.V. Farfel, 1969; Yu.V. Verxoshanskiy, 1985). Uning uchun kompensator toliqish va o'zgaruvchan ish shiddati sharoitlarida harakatlarning yuqori variantlilikligi xosdir. Musobaqa faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari tahlili sport kurashi turlari (yunon-rum, erkin kurash, sambo, dzyudo) ichida tasniflarni ishlab chiqish zarurligi to'g'risida guvohlik beradi. Bitta guruhga taalluqli bo'lgan sport turlaridagi trenirovka uslublarini ko'r-ko'rona ko'chirib olish samara bermaydi, ba'zi hollarda esa sport natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (A.A. Novikov, 1986 va boshq.).

Yunon-rum va erkin kurash bo'yicha musobaqalar qoidalari, umuman olganda, bir xil, faqat texnik harakatlarning baholanishida ba'zi farqlar bor. Musobaqa uch kun ichida aylanma tizim bo'yicha o'tkaziladi. g'olib eng kamida 6–7 ta bellashuvni 6 min. davomida o'tkazishi lozim (kuniga 2–3 ta).

Bu sportchilardan yaxshi tezkorlik-kuch tayyorgarligi hamda maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Bundan tashqari, yangi harakatlarni egallash, improvizatsiya qilish, harakat faoliyati jarayonida kombinatsiyalarni o'zlashtirishga bo'lgan qobiliyat, turli harakat tavsiflarini tabaqalash hamda ularni boshqarish malakasi talab qilinadi (V.N. Platonov, 1986).

Sambo bo'yicha musobaqalarni tashkil qilish tuzilmasi erkin hamda yunon-rum kurashiga yaqinroq. Reglament, g'olibni aniqlash shakli bir xil. Bu o'z navbatida, musobaqa faoliyatining o'ziga xosligi va trenirovka jarayonini tuzish xususiyatlariga bo'lgan yagona talablarni nazarda tutadi.

Dzyudo bo'yicha musobaqalarni o'tkazish qoidalari va tizimi boshqa kurash turlaridagi qoidalardan keskin farq qiladi. Kurashchi bir kun ichida tanaffussiz 5 min davom etadigan 6–7 ta bellashuvni o'tkazadi. Har bir bellashuv hal qiluvchi hisoblanadi, chunki

mag'lubiyatga uchragan holda kurashchi finalga chiqa olmaydi. Sport kurashining ushbu turida muvaffaqiyatli qatnashish uchun sportchi maxsus chidamlilikni rivojlantirishi lozim. Bunda tezkor-kuch chidamliligi tarkibi katta ahamiyat kasb etadi (A.A. Novikov, 1986 va boshq).

Sport kurashida musobaqa faoliyatining tahlili hamma kurash turlariga xos bo'lgan tezkor-kuch tayyorgarligi hamda maxsus chidamlilikka bo'lgan katta talabni aniqladi. Buni yosh kurashchilarning ko'p yillik trenirovkasini rejalashtirishida hisobga olish lozim.

Sport musobaqalari kurashchilarni tayyorlashda o'quv – trenirovka jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Kurashchining yoshi va tayyorgarligiga qarab musobaqalar dasturi hamda nagruzkalar me'yorlari ishlab chiqilgan.

Kurash bilan shug'ullanishning boshlang'ich bosqichida musobaqalarda ishtirok etish uchun bolalar tayyorgarligining davomiyligi bir yilni tashkil qiladi. Yunon-rum va erkin kurash bo'yicha musobaqalarni o'tkazish yuzasidan uslubiy tavsiyalar 21-jadvalda keltirilgan (V.P. Filin, N.A. Fomin, 1980).

21-jadvalda o'smir kurashchilar uchun musobaqa nagruzkasi yosh va sport bilan shug'ullanish stajiga qarab asta-sekin oshib boradi. O'smir kurashchilar uchun musobaqalarning optimal sonini aniqlash ko'p yillik tayyorgarlikni rejalashtirishda muhim tarkibiy qism hisoblanadi.

## Yunon-rum va erkin kurash

Musobaqalarga talablar	Yoshi		
	12–13	14–15	16–18
Dastlabki tayyorgarlik davomiyligi	kamida 1 yil	Nazorat me'yorlarini topshirish sharti bilan kamida 4–5 oy	kamida 2 oy
Vazn toifalari soni (kg)	29–32, 32–35, 35–38, 38–41, 41–44, 44–47, 47–50, 50–53, 53–56, 56–59, 59–62, 62–65, 65 dan ortiq	16 ta vazn toifasi, 32–35, 35–38, 38–41, 41–44, 44–47, 47–50, 50–53, 53–56, 56–59, 59–62, 62–65, 65–68, 68–71, 71–74, 74–77, 77 dan ortiq	11 ta vazn toifasi 42–45, 45–48, 48–52, 52–56, 56–60, 60–65, 66–70, 70–75, 75–81, 81–87, 87 dan ortiq.
Sport razryadlarini berish uchun tasniflash me'yorlari	-	II usmiralr razryadi yil ichida yangilarni 10-marta yoki II o'smirlar razryadidagi kurashchilar ustidan 5-marta g'alaba qozonish.	I o'smirlar razryadi: yil ichida II razryaddagi kurashchilar ustidan 12-marta yoki I o'smirlar razryadidagi kurashchilar ustidan 6-marta g'alaba qozonish.
Musobaqalar miqyosi	Maktab ichida	Respublika (u ham qo'shiladi) musobaqalari-gacha	Har qanday miqyosida
Yildagi xalqaro musobaqalar soni	-	-	1–2
Yildagi kurash bo'yicha (turnir) musobaqalar soni	Ko'pi bilan 2 ta	Ko'pi bilan 4 ta	Ko'pi bilan 6 ta
Turnir musobaqalaridagi kunlar soni	Ko'pi bilan 1 ta	Ko'pi bilan 2 ta	3–4

Toifalash musobaqalari (ochiq gilam) soni	Bir oyda 1-marta	Bir oyda 2-marta	Bir oyda 3–4-marta
Bellashuv davomiyligi	2+2 <i>min</i>	2+2 <i>min</i>	3+3 <i>min</i>
Bir kundagi bellashuvlar soni	Ko‘pi bilan ikkita	Ko‘pi bilan ikkita	Ko‘pi bilan uchta
Bitta musobaqada bellashuvlar soni	2–4	4–6	6–8
Bir yildagi bellashuvlar-ning taxminiy soni	14–16	20–30	60–90
Turnirlar va musobaqalar o‘rtasidagi tanaffus	Kamida 4 oy	Kamida 2 ta	Kamida 1 oy
Toifalash musobaqalari o‘rtasidagi tanaffus	Kamida 1 oy	Kamida 2 hafta	Kamida 1 hafta
UJT va MJT bo‘yicha nazorat kuzgi-bahorgi musobaqalar	Hamma yosh guruhlari uchun ikkita musobaqa		

#### 18.1.4. Kurashchining ko‘p yillik texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligi

Kurashchining ko‘p yillik tayyorgarligi – yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga karatilgan murakkab hamda uzoq davom etadigan pedagogik jarayondir. G.S. Tumanyan (1982) fikricha, trener, ko‘p yillik trenirovka rejasini tuzayotib, trenirovka va musobaqa nagruzkalari hajmi, yo‘nalishi yildan yilga qay tarzda o‘zgarib borishini, bu o‘zgarishlar tarbiyalanuvchilarning axloqiy, iroda, jismoniy, texnika-taktik va nazariy tayyorgarligiga qanday ta’sir

ko'rsatishini hamda u sport yutuqlarining yosh dinamikasida xalqaro toifadagi sport ustasigacha kandy aks etishini tasavvur kila olishi lozim.

Ko'p yillik trenirovka jarayonidagi trenirovka nagruzkalari yo'nalishi hamda hajmi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida umumiy va yordamchi tayyorgarlik asosiy o'rinni egallaydi (bosqichlarining tasnifi V.N. Platonov bo'yicha keltiriladi). Dastlabki bazaviy tayyorgarlik bosqichi yordamchi tayyorgarlik hajmining oshishi bilan tavsiflanadi (u umumiy bilan birga trenirovka ishining umumiy hajmidan 80–90% ga oshadi). Maxsus tayyorgarlik, odatda, 15% dan oshmaydi.

22-jadval

Boshlan-g'ich	Bazaviy dastlabki tayyorgarlik	Bazaviy maxsus tayyorgarlik	Individual imkoniyatlarni maksimal ishga solish	Erishilgan yutuqlarni saqlab qolish
---------------	--------------------------------	-----------------------------	---	-------------------------------------

Ko'p yillik trenirovka jarayonida umumiy (A), yordamchi (B) va maxsus (V) tayyorgarlikning taxminiy nisbatlari (% da).

Ixtisoslashgan bazaviy tayyorgarlik bosqichida maxsus tayyorgarlik ulushi muhim darajada oshadi va umumiy tayyorgarlik ulushi kamayadi. Alohida imkoniyatlarni maksimal amalga oshirish bosqichida maxsus tayyorgarlik umumiy ish hajmidan 60% gacha etishi va undan ko'p bo'lishi mumkin.

Yutuqlarni ushlab turish bosqichida maxsus tayyorgarlik ulushi qat'iy yuqori bo'ladi va umumiy tayyorgarlik ulushi minimumgacha kamaytiriladi (V.N. Platonov, 1986). Har xil tayyorgarlik turlari nisbatlarining bunday sxemasi hamma sport turlari uchun umumiy hisoblanadi, lekin kurashda u trenirovka to'g'risida umumiy tasavvurlarni beradi.

Sport kurashidagi yutuqlar ko'p jihatdan kurashchining oqilona texnik-taktik tayyorgarligiga bog'liq.

Mukammal texnika – bu eng yuqori natijaga erishish maqsadida sport mashqlarini bajarishning samarali usullari yig'indisidir. O'rgatish jarayonida texnikani egallash darajasi o'zgarib turadi (yangi shug'ullanuvchining soddax texnikasidan to' xalqaro toifadagi sport ustasining mukammal texnikasigacha).



Oqilona texnika sportchiga harakatlarni tejamkorlik bilan bajarish uchun imkon yaratadi. (V.P. Filin, N.A. Fomin, 1980).

Yosh sportchining xalqaro toifadagi sport ustasi darajasigacha bosib o'tadigan yo'lini to'rtta bosqichga ajratish mumkin (G.S. Tumanyan bo'yicha, 1985); I bosqich – “maktab” texnikasini, ya'ni ixtisoslashgan elementlar hamda ularning komplekslarini shakllantirish; II bosqich – bazaviy texnikani shakllantirish (taktik tayyorgarlik, usullar, qarshi usullar, himoyalar); III bosqich – kombinatsion texnikani (texnik-taktik komplekslarni) shakllantirish; IV bosqich – trenirovkaning alohida rejaları bo'yicha alohida texnikani takomillashtirish.

**Kurashchilar ko'p yillik tayyorgarligida texnik-taktik tayyorgarlik mazmuni va bosqichlari (G.S. Tumanyan bo'yicha) 23-jadval**

	Kitob	Xalqaro toifadagi sport ustasi	Bog'	Musobaqa vaqtida qayd qilingan texnika, taktika.
Jismonan va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash vazifalari	matnlar	IV bosqich individual texnikani takomillashtirish: individual trenirovka rejasi asosida	mevalar	
	jumlalar	III bosqich kombinatsiyali texnikani shakllantirish: texnik-taktik komplekslar	novdachalar	
	so'zlar	II bosqich bazaviy texnikani shakllantirish: – taktik tayyorgarlik; – usullar; – qarshi usullar; – himoyalanishlar.	tana	
	bo'g'inlar harflar	I bosqich “maktab” texnikasi, ya'ni ixtisoslashgan elementlar va ularning komplekslarini shakllantirish	ildiz	

Ko'p yillik texnik-taktik tayyorgarlikning har bir bosqichida "o'sish o'lchamini" aniqlash va musobaqalarda qayd qilingan TTH ni baholash tizimidan foydalanish lozim. Sport kurashi bo'yicha maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlarni har tomonlama tahlil qilish natijasida professor I.I. Alixonov, 1986) kurashchining texnik-taktik tayyorgarligini ko'p yillik rejalashtirishni ishlab chiqdi.

2-jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, kurash texnikasi elementlari va taktik tayyorgarlik usullari, asosan, 10–15 yoshda o'rganilishi lozim (I.I. Alixonov, 1986). Texnik-taktik mahoratni kelgusida takomillashtirish o'smirlik hamda o'spirinlik yoshlarida amalga oshiriladi.

Tayyorgarlik rejasidagi mashqlar shiddati V.P. Andreev va A.A. Novikov shkalasi bilan baholanadi. Shu shkalaga muvofiq YuqT: 1 ball – 10 s ichida 18–19 zarba, 2 ball – 20–21; 3 ball – 22–23; 4 ball – 24–25; 5 ball – 26–27; 6 ball – 28–29; 7 ball – 30–31 va 8 ball – 32–33 zarbaga teng.

Kurashchining kuchini rivojlantirish uchun ish hajmi uning yoshi va og'irligiga bog'liq hamda bir yilda 100 dan 200 tonnagacha atrofida bo'lishi mumkin.

Texnik-taktik tayyorgarlikka vaqtning umumiy sarflanishi kurashchilar malakasi ortib borishi bilan o'sadi, lekin trenirovkaning umumiy hajmiga nisbatan foizlarda kamayib boradi. Bunday nisbat kuch tayyorgarligi va tezkorlik chidamliligi darajasini oshirish zaruriyatiga bog'liq.

### **18.1.5. Yosh mezonlari va jismoniy qobiliyatlar**

Yuqori malakali sportchilarni tayyorlash yuqori darajada ko'p yillik tayyorgarlik tizimi samaradorligiga bog'liq. Unga sport maktablarida o'quv dasturlari asosida amalga oshiriladigan bolalar, o'smirlar, o'spirinlar hamda katta yoshdagi kurashchilarni o'qitish, tarbiyalash va trenirovka qildirishning oqilona tashkil etilgan jarayoni sifatida ta'rif berish mumkin.

Kurashchining ko'p yillik tayyorgarligi inson rivojlanishining – yosh xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi, tanlangan sport turining o'ziga xos xususiyatlari, jismoniy sifatlarining rivojlanish xususiyatlari, harakat malakalari va ko'nikmalarining shakllanishini hisobga olgan holdagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Ko'p yillik trenirovka jarayonini to'g'ri tuzish uchun kurashchilar o'zlarining yuqori natijalariga erishayotgan yosh chegaralari atrofiga bog'liq holda

yo'l tutishi lozim. Masalan, Olimpiya o'yinlari finalchilarining o'rtacha yoshi 24–26 yoshni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkichlarni hisobga olib, bir qator mutaxassislar kurashchilar eng yuqori natija ko'rsatadigan chegaralarni belgilashni tavsiya qiladilar. Kurashchining ko'p yillik tayyorgarligi jarayonida odatda, uchta yosh zonalar ajratiladi: birinchi katta muvaffaqiyatlar (19–21 yosh), optimal imkoniyatlar (22–26 yosh) va yuqori natijalarni ushlab turish (27–30 yosh).

Trenerning yosh zonalarini bilishi ko'p yillik trenirovka jarayonini yaxshi tizimlashtirishga imkon beradi. Biroq sportchilarning yoshi ko'p yillik trenirovkaning oqilona tizimini qurishda hisobga olinishi shart bo'lgan yagona omil emas. Kurashchining alohida jismoniy sifatlarini tarbiyalash uchun eng qulay davrlar, shuningdek texnik-taktik harakatlarni sifatli o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olish zarur.

O'smirlik chog'ida jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Bunda oqilona va tizimli pedagogik ta'sir etish ta'minlanishi lozim. Yosh sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi pedagogik ta'sir yosh rivojlanishining u yoki bu pog'onasida eng yaqqol ko'zga tashlanadigan jismoniy sifatlarining to'liqroq namoyon bo'lishiga yordam beradi.

16-jadvalda maktab yoshidagi bolalarda harakat funksiyalari rivojlanishining sezish fazalari topografiyasi keltirilgan.

Yuqori qatorda o'g'il bolalardagi harakat funksiyasi rivojlanishining sezish fazalari, pastki qatorda esa qizlarniki keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar trenerga u yoki bu sifatning rivojlanishida to'xtatilishlarni kamaytirishga yordam beradi.

### **18.1.6. Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlari va trenirovka jarayonining yo'nalishi**

Ko'p yillik trenirovka jarayonini ma'lum bir qonuniyatlarga bo'ysunadigan yaxlit jarayon, shaxsiy rivojlanish yo'liga ega, o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgan yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Sportchilarning ko'p yillik jarayoni tayyorgarlikning ustuvor yo'nalishiga qarab, shartli ravishda to'rtta bosqichga bo'lingan:

1. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi.
2. Chuqurlashtirilgan sport ixtisoslashuvi bosqichi.
3. Sport takomillashuvi bosqichi.
4. Oliy sport mahorati bosqichi.

Trenirovka bosqichlari davomiyligi kurash turlarining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek shug'ullanuvchilarning sport tayyorgarligi darajasiga bog'liq.

Bosqichlar o'rtasida aniq chegara yo'q. Har bir bosqich o'zining tayyorgarlik vazifalari, uslublari va vositalariga ega.

24-jadval

**Maktab yoshidagi bolalarda harakat funksiyasi rivojlanishining sezish fazalari ( A.A. Gujalovskiy bo'yicha)**

Jismoniy sifatlar	Yosh davrlari (yosh)										
	7-8	8-9	9-10	10-11	11-12	12-13	13-14	14-15	15-16	16-17	
Kuch	•• •••	••• •••	+ +	••• •••	••• •••	+ •••	+ •••	+ •••	+ •••	+ •••	••• •••
Tezkorlik	••• •••	••• •••	+ +	••• •	+ +	+ +	+ +	+ +	+ +	+ +	
Tezkor-kuch sifatleri	+ •••	+ •••	+ ••	+ •••	+ ••	+ •••	+ •••	+ •••	+ ••	+ •••	
Statik chidamlilik	+ +	+ +	••• ••	+ •	+ +	+ +	+ •••	+ •••	+ +	+ •••	
Dinamik chidamlilik	+ •	• ••	••• +	• +	••• •••	+ •	+ +	+ +	+ •	+ +	
Umumiy chidamlilik	+ ••	+ •••	+ +	• •••	+ +	+ •••	+ +	+ •••	+ +	+ •••	
Egiluvchanlik	+ +	+ +	+ •	+ +	• +	+ +	••• •	•• +	+ •••	+ ••	
Muvozaratlar	+ +	•• +	+ •••	+ +	+ +	+ +	+ +	+ +	+ +	+ +	

Shartli belgilar:

+ – subkritik va kritik belgilar;

• – past sezish fazasi;

•• – o'rtacha sezish fazasi;

••• – yuqori sezish fazasi.

**Maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlar va vazn-bo'yi  
rivojlanishining taxminiy sensitiv (sezgir) davri  
(B.N. Shustin bo'yicha)**

№	Ko'rsatkichlar	Yoshi											
		7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	
1	Bo'yi						+	+	+	+			
2	Vazni						+	+	+	+			
3	Kuchi							+	+		+	+	
4	Tezligi		+	+	+						+	+	+
5	Tezkor-kuch sifatleri			+	+	+	+	+	+	+			
6	Chidamliligi (aerob qobiliyatleri)		+	+	+						+	+	+
7	Tezkor chidamliligi										+	+	+
8	Anaerob qobiliyatleri										+	+	+
9	Egiluvchanligi	+	+	+	+		+	+					
10	Koordinatsion qobiliyatleri			+	+	+	+						
11	Muvozanati	+	+	+	+	+	+	+	+				

### 18.1.6.1. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi

Ushbu bosqichning asosiy vazifalari bo'lib har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, sog'liqni mustahkamlash va yosh kurashchilarni chiniqtirish, sport kurashi texnikasi asoslari va boshqa jismoniy mashqlarni egallash, har tomonlama tayyorgarlik asosida funksional tayyorgarlik darajasini oshirish hisoblanadi.

Bundan tashqari, mehnatsevarlikni va intizomni tarbiyalash, sport kurashi bilan shug'ullanishga qiziqish uyg'otish ham shular jumlasidandir. Asosiy trenirovka uslublari: o'yin, bir tekis, o'zgaruvchan, aylanma, takroriy.

Trenirovka vositalari: harakatli va sport o'yinlari, gimnastika mashqlari, kross yugurish, kurashchining maxsus mashqlari, o'z-o'zini ehtiyotlash, o'quv-trenirovka bellashuvlari.

Ushbu bosqichda kurashchilar taktik tayyorgarlik usullari bilan asosiy usullar guruhini o'rganishlari lozim. Biroq kurashchining harakat texnikasini barqarorlashtirishga urinmaslik kerak. Bu davrda kelgusida kombinatsiyali usulda bellashuvni olib borishni takomillashtirish uchun har tomonlama texnik asosni yaratish lozim.

Bolalar kurash usullarini, odatda, trener bevosita ko'rsatib va tushuntirib berganidan so'ng yaxshi o'zlashtiradilar. Shuning uchun trener juda ko'p miqdorda usullarni egallagan bo'lishi lozim.

O'tilgan texnik harakatni yaxshi mustahkamlash uchun bolalarga usullarni ko'rsatib berish yoki uning bajarilishini tushuntirib berish taklif qilinadi.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida usullarga o'rgatish paytida usullarni butunligicha ko'rsatish uslubidan ko'proq foydalanish lozim. Yangi usullarni tushuntirishda shu narsa muhimki, bolalar texnika qismlarini tushunishlari va anglab yetishlari zarur.

Ushbu davr tezkorlik va harakat tezligini tarbiyalash uchun juda qulaydir. Ushbu davrda chaqqonlikni tarbiyalashga e'tibor berishi lozim, chunki chaqqonlik murakkab texnik-taktik harakatlarni muvaffaqiyatli egallash uchun asos yaratadi. O'smir kurashchilarning gavda o'lchamlari va og'irligining o'sishi kuchning o'sishidan ilgari rivojlanadi. Kuchni tarbiyalash uchun zo'r berish va uzoq vaqt kuchlanishdan holi bo'lgan mashqlarni tanlash zarur. Bu davr egiluvchanlikni tarbiyalash uchun eng qulaydir, chunki 13 yoshlarga kelib egiluvchanlik hamda bo'g'imlardagi harakatchanlik birmuncha pasayadi. Egiluvchanlikni tarbiyalash uchun sherik bilan, snaryadlar va snaryadlarsiz bajariladigan umumiy rivojlantiruvchi hamda maxsus mashqlar qo'llaniladi.

Ushbu bosqichda trenirovka jarayonini tashkil qilishda tiklanish tadbirlarini ham ko'zda tutish lozim. Ularga trenirovkadan keyingi suv muolajalari, chiniqishlar, suzish, hammom va mashg'ulotlarni toza havoda o'tkazish kiradi.

### **18.1.6.2. Chuqurlashtirilgan sport ixtisoslashuvi bosqichi**

Ushbu bosqichning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: kurashchining har tomonlama jismoniy tayyorgarligi, sog'lig'ni mustahkamlash, umumiy chidamlilik va tezkor-kuch sifatlarini tarbiyalash, bellashuvni kombinatsiyali usulda olib borish asoslarini

egallash, maxsus chidamlilikni rivojlantirish, musobaqa tajribasiga ega bo'lish.

Trenirovkaning asosiy uslublari: o'yin, bir tekis, o'zgaruvchan, takroriy, musobaqa, aylanma.

Trenirovka vositalari: sport o'yinlari, kross yugurish, kurashchining maxsus mashqlari, akrobatika mashqlari, kichik og'irliklar bilan mashqlar, musobaqa xususiyatidagi o'quv-trenirovka bellashuvlari.

Ko'pgina mutaxassislar tomonidan shu narsa isbotlanganki, chuqurlashtirilgan sport ixtisoslashuvi bosqichida kurashchining har tomonlama trenirovkasi katta samara beradi.

Sport kurashida trenirovka jarayonini rejalashtirishda texnik-taktik tayyorgarlikka ko'p vaqt ajratish lozim, chunki kurashchi katta hajmda hujum harakatlarini o'zlashtirishi kerak.

Ushbu davrda texnik harakatning to'g'ri biodinamikaviy tuzilmasiga o'rgatishga harakat qilish zarur. Biroq texnik tayyorgarlikda muvaffaqiyatga erishish ko'p hollarda kurashchi jismoniy sifatlari rivojlanishining optimal nisbatlariga bog'liq. Ushbu davrda trenirovka jarayoniga harakatli va sport o'yinlari, shuningdek sport kurashida muhim ahamiyatga ega bo'lgan jismoniy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan kurashchining maxsus mashqlarini kiritish hisobiga tezkorlikni tarbiyalashni davom ettirishi kerak. Mazkur davrda o'smir kurashchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Bu bosqichda kurashchining egiluvchanligini tarbiyalashni davom ettirish lozim.

Harakat amplitudasini oshirishga yordam beradigan cho'ziltirish mashqlari egiluvchanlikni rivojlantirishda asosiy bo'lib hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikricha, trenirovkaning ushbu davrida chidamlilikni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim. Umumiy chidamlilikni tarbiyalash vositalariga kross yugurish, sport o'yinlari, suzish kiradi.

V.P. Filin va N.A. Fomin (1980) fikricha, sport mashqlarida chaqqonlikni tarbiyalash, ya'ni harakat malakalari, ko'nikmalarini egallash, vaziyat o'zgargan paytda harakat faoliyatini samarali qayta qurish qobiliyatini takomillashtirishga katta o'rin ajratilishi zarur. Shuning uchun chaqqonlikni tarbiyalash koordinatsion murakkab harakatlarni egallash hamda to'satdan o'zgargan vaziyat talablariga

muvofig holda harakat faoliyatini qayta tashkil qilish qobiliyatlarini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

Ushbu tavsiyalar sport kurashi turlariga taalluqlidir, bu yerda sportchi faoliyati variantli – to'qnashuvli vaziyatlarda o'tadi.

Kurashchi chaqqonligini tarbiyalashning asosiy vositalari – bu sport o'yinlari, akrobatika va gimnastika mashqlaridir.

Tiklanish tadbirlari o'smirning kundalik faoliyatida trenirovka mashg'ulotlari va dam olishning optimal tartibiga erishishga qaratilgan.

Massaj, basseynda suzish, bug'li hammom (haftada bir marta), vitaminlar va oqsillarga boy ovqatlanish tavsiya qilinadi.

### **18.1.6.3. Sport takomillashuvi bosqichi**

Ushbu bosqichning asosiy vazifalari quyidagilar: trenirovka nagruzkalari hajmi va shiddatini oshirish, kurashchining texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish, yetakchi jismoniy sifatlarning maksimal darajada rivojlanishiga erishish, musobaqa tayyorgarligini takomillashtirish, trenirovkalar hamda musobaqalarda qiyinchiliklarni yengib o'tish jarayonida axloqiy-iroda sifatlarini tarbiyalash.

Trenirovkaning asosiy uslublari: takroriy, aylanma, o'zgaruvchan, o'yin, musobaqa.

Trenirovka vositalari: o'quv-trenirovka bellashuvlari, kurashchining maxsus mashqlari, musobaqa xususiyatiga ega bellashuvlar, akrobatika va gimnastika mashqlari. Bu bosqichga o'smir kurashchilar texnik-taktik mahorat asoslarini egallagan holda yetib keladilar, shuning uchun kurashchining asosiy faoliyati harakat malakasini takomillashtirishga qaratilgan. O'rganilgan kurash usullarini ketma-ket ko'p marta takrorlash zarur. Kurashchilar bu usullarni o'quv-trenirovka bellashuvlarida albatta qo'llashlariga e'tibor berish hamda shunga erishish lozim. Shu sababli ushbu bosqichda maxsus vazifalar (masalan, faqat tashlashlardan foydalanib kurashish va h.k.) bo'yicha o'quv-trenirovka bellashuvlarini rejalashtirish mumkin. Kurashchilarga bellashuvni olib borish taktikasi variantlari to'g'risida to'liq ma'lumotlar berish zarur.

Sport takomillashuvi bosqichida jismoniy sifatlarni tarbiyalashga katta e'tibor berish lozim. Yuqorida aytilganidek, sport kurashida musobaqa faoliyatida muvaffaqiyatga erishish muhim darajada tezkor-kuch va maxsus chidamlilikning rivojlanganligiga bog'liq.



Sport takomillashuvi bosqichida quyidagi tezkor-kuch sifatlarini tarbiyalash uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: mashqni takroran o'zgartirish uslubi, dinamik kuchlanishlar uslubi, turli vazndagi sheriklar bilan texnik harakatlarni takroran bajarish uslubi.

O'smir kurashchilarda tezkor-kuch sifatlarini tarbiyalash uchun tuzilmasi jihatidan texnik-taktik harakatlarga yaqin bo'lgan jismoniy mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tezkorlik va kuchni tarbiyalashni trenirovkaning birgalikdagi uslubini qo'llagan holda tanlangan sport turi texnikasida takomillashish bilan uyg'unlashtirish lozim (V.M. Dyachkov).

Kurashchining umumiy va maxsus chidamliligini tarbiyalash trenirovka jarayonining asosiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Kurashchining umumiy chidamliligini oshirishning asosiy vositalari bo'lib kross yugurish, sport o'yinlari, suzish hisoblanadi. Umumiy chidamlilikni tarbiyalashga qaratilgan mashqlarni bajarishda nagruzkaning beshta tarkibiga e'tibor berish lozim:

- 1) mashq shiddati (harakatlanish tezligi);
- 2) mashq davomiyligi;
- 3) dam olish uzoqligi;
- 4) dam olish xususiyati, tanaffuslarni boshqa faoliyat turlari bilan to'ldirish;
- 5) takrorlashlar soni.

Kurashchining maxsus chidamliligini tarbiyalash maqsadida sheriklarni almashtirgan holda o'quv-trenirovka bellashuvlari, maxsus tartibda bellashuvni olib borish (bitta bellashuvda 4–5-martadan sportlar) va h.k.

Tiklanish tadbirlari: o'qish, trenirovka mashg'ulotlari va dam olishning optimal tartibiga rioya qilish. Shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish, chiniqish. Massaj, basseynida suzish, bug'li hammom, to'laqonlil vitaminli ovqatlanish.

#### **18.1.6.4. Oliy sport mahorati bosqichi**

Ushbu bosqichning asosiy vazifasi moslashish jarayonlarining juda tez kechishini keltirib chiqarishga qodir bo'lgan trenirovka vositalaridan maksimal foydalanishdan iborat. Trenirovka ishi hajmi va shiddatining umumiy yig'indisi o'lchamlari maksimumiga yetadi, katta nagruzkali mashg'ulotlar keng miqyosda rejalashtiriladi, musobaqa amaliyoti keskin oshadi. Trenirovkaning bu bosqichi trenirovka

jarayonini tuzishning o'ta alohida xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Muayyan sportchini tayyorlashdagi katta trenerlik tajribasi shu sportchiga xos bo'lgan xususiyatlarni, uning tayyorgarligining bo'sh va kuchli tomonlarini har jihatdan o'rganishga, tayyorgarlikning eng samarali usublari hamda vositalarini, trenirovka nagruzkasini rejalashtirish variantini aniqlashga yordam beradi. bu, o'z navbatida, trenirovka jarayoni samaradorligi va sifatini oshirish hamda shuning hisobiga sport natijalari darajasini ushlab turish imkonini beradi.

Ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini samarali boshqarish uchun ko'p yillik dasturning ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega. Eng yangi ilmiy ma'lumotlarni hisobga olgan holda kurashchining ko'p yillik tayyorgarlik dasturi tuzilgan (18-jadval).

Dasturning ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarini hisobga olgan holda tuzilgan alohida tarkibi o'quv-trenirovka jarayonining ustuvor yo'nalishini to'g'riroq aniqlashga, muayyan ko'rsatkichlarni belgilashga (kurashchi tayyorgarligi davomida ularga tayaniladi) imkon beradi.

## Kurashchilarning ko'p yillik tayyorgarligi dasturi

Tayyorgarlik tizimi tarkibi	Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari	O'quv-trenirovka takomillashuvi	Sport takomillashuvi guruhlari	Oliy mahorat guruhlari
	2	3	4	5
Tayyorgarlik bosqichi	Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi	Chuqurlashtirilgan sport ixtisoslashuvi bosqichi	Sport takomillashuvi bosqichi	Oliy sport mahorati bosqichi
Sportchilar	10-17 yosh, kurash bilan shug'ullanishga qiziquvchilar, maktabda yaxshi o'zlashtiruvchi, vrach tomonidan ruxsat olgan o'quvchilar.	10-17 yosh, yangi shug'ullanuvchilar, II o'smirlar, III katta razryadi, sport kurashida keyingi tayyorgarlikka layoqatli, yetarli darajada har tomonlama rivojlanganlar	16-18 yosh, I kattalar, SUN, yuqori darajada texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikka ega, ruhiy mustahkam kurashchilar.	O'ta qobiliyatli, 19 yosh va katta. SU, yuqori darajada texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikka ega, katta jismoniy va ruhiy nagruzkalarni ko'tara oladiganlar
Trenerlar	Dastlabki saralash, boshlang'ich tayyorgarlik va kurash bilan shug'ullanish sabablarini shakllantirish uslublarini egallagan trenerlar	Trenirovkani rejalashtirish tamoyillari va razryadchilar bilan guruhli mashg'ulotlarni o'tkazish uslubiyatini yaxshi biladigan trenerlar	Kurashchilar tayyorlash usuliyati va sport tashkilotchisi malakasiga ega, guruh bilan va alohida ishlash uslublarini egallagan trenerlar	Kurashchilar alohida tayyorgarligi usuliyati va yuqori malakali sportchilar tayyorgarligini ilmiy ta'minlash usuliyatini yaxshi biladigan trenerlar

Tayyorgarlik maqsadlari	Kurash bilan shug'ullanish sababini shakllantirish va mustahkamlash, kurash asosini egallash, jismoniy rivojlanishni oshirish	Har tomonlama rivojlanish va kurash asoslarini chuqur egallashga yordam berish	Sport natijalarini ke-yinchalik ham oshirish hamda terma jamoalarga qabul qilinish uchun shart-sharoitlar yaratish	Mumkin qadar yuqori natijalarga erishish va ko'p yillar davomida xalqaro maydonda yetakchi sportchi holatini ushlab turish
Sport tayyorgarligi bo'yicha asosiy vazifalar	Saralash va sifati jihatdan to'laqonli guruhlarini tashkil qilish	II o'smirlar, I o'smirlar va II kattalar razryadi me'yorlarini bajarish	I sport razryadi, SUN me'yorlarini bajarish va ularni tasdiqlash	SU va XTSU me'yorlarini bajarish
O'quv-trenirovka jarayoni: a) Maxsus- ruhiy tayyorgarlik	Kurash bilan shug'ullanish sabablarini shakllantirish	Sabab, javobgarlik, ongillik va mustaqillik darajasini oshirish, musobaqa sharoitlariga ruhiy mustahkallikni tarbiyalash	Ijtimoiy-foydali shaxsga xos bo'lgan sifatlarni shakllantirish musobaqa sharoitlariga ruhiy mustahkamlikni oshirish, yuqori natijalarga erishish sababini shakllantirish	Yuqori natijalarga erishish sabablarini shakllantirish. Favqulodda vaziyatlarda ruhiy holatni o'zi boshqarish qobiliyatini tarbiyalash
b) Texnik tayyorgarlik	Kurash texnikasi asoslarini o'zlashtirish (ushlab olishlar, harakatlanish, kurashning oddiy usullari, oddiy hujum	Texnikani egallashni chuqurlashtirish, himoya, hujum va qarshi hujum harakatlarini eg'llash	Hujum, himoya va qarshi hujum bazaviy harakatlarini takomillashtirish "yaxshi ko'rgan" harakatlar to'plamini	"Yaxshi ko'rgan" hujum, himoya va qarshi hujum harakatlari samadorligini oshirish va "yaxshi

	harakatlari)		shakllantirish	ko'rgan" harakatlar, kombinatsiyalar to'plamini kengaytirish
v)Taktik tayyorgarlik	Sport kurashi taktikasi to'g'risida tushuncha hosil qilish	Bazaviy hujum harakatlari, kombinatsiyalarga taktik tayyorgarlikning asosiy usullarini egallash, bellashuvni olib borish asosini egallash	“Yaxshi ko'rgan” hujum harakatlari, kombinatsiyalarga taktik tayyorgarlik usullari egallashni chuqurlashtirish, bellashuvni olib borish taktikasi malakasini mustahkamlash, musobaqalarda qatnashish taktikasi asoslarini mustahkamlash	“Yaxshi ko'rgan” hujum harakatlari, kombi-natsiyalarga taktik tayyorgarlik to'plamini kengaytirish, raqib lar xususiyatiga qarab, bellashuvni olib borish taktikasini o'zgartirish, musobaqalarda ishtirok etish taktikasini mustahkamlash
g) Jismoniy tayyorgarlik	UJT vositalaridan foydalangan holda har tomonlama jismoniy rivojlanish asosini yaratish	Kurashchi maxsus mashqlardan foydalanish yo'li bilan keyinchalik UJT ni oshirish asosida maxsus jismoniy tayyorgarlik asosini yaratish	“Yaxshi ko'rgan” hujum, himoya, qarshi hujum harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etadigan mushak guruhlarini ko'proq rivojlantirish bilan UJT va MJT ni	Yetakchi sifatlarini keyin-chaliki rivojlantirish va qoloq sifatlarini yetishtirib olishga qaratilgan holda UJT va MJT ni individual-lashtirish

			indivduallashtirish	
d) Nazariy tayyorgarlik	Kurashchi trenirovkasi tizimi to'g'risida tasavvur hosil qilish	Kurashchi tayyorgarligi tizimi to'g'risida tasavvur hosil qilish	Kurashchi tayyorgarligi tizimi bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish (trenirovka vositalari va uslublarini qo'llash masalalari, trenirovka samaradorligini tahlil qilish hamda pedagogik nazorat)	Trenirovkaning yangi vositalari va uslublari to'g'risidagi bilimlarni, fan hamda ilg'or tajriba yutuqlarini egallash
e) Musobaqa faoliyati	Guruh va maktab musobaqalarida qatnashish	Maktab, shahar, viloyat, respublika musobaqalarida qatnashish	Shahar, respublika va xalqaro musobaqalarda qatnashish	Respublika va xalqaro musobaqalarda qatnashish
Trenirovka jarayonini tashkil qilish	O'qitish va trenirovkaning yalpi uslubini	O'qitish va trenirovkaning yalpi uslubini hamda guruhli uslubini	O'qitish va takomillashtirishning guruhli va alohida uslubini	Takomillashtirishning asosan alohida uslubini
Tiklanish vositalari	Dush, hammom	Dush, hammom, o'z-o'zini massaj qilish, faol dam olish	Dush, hammom, massaj, fizioterapiya va ruhiy-gigienik vositalar, faol dam olish	Dush, hammom, massaj, fizioterapiya, ruhiy-gigienik, kimyofarmakologik vositalar, faol dam olish
Kutilayotgan	Kurash bilan	UJT, MJT darajasini	Shahar, viloyat terma	Maksimal sport

<p>natija</p>	<p>shug'ullanishga layoqatli sportchilardan tashkil topgan o'quv guruhlarini jamlash, har tomonlama rivojlantirish, kurash asoslarining egallashishini rivojlantirish. O'tish va nazorat me'yorlarini bajarish. 50% shug'ullanuvchilarni o'quv-trenirovka guruhiga o'tkazish</p>	<p>oshirish, bazaviy texnikani chuqur egallash. Sport tayyorgarligi bo'yicha talablarni bajarish, shug'ullanuvchilarning umumiy sonidan 50% ni sport takomillashuvi guruhiga o'tkazish</p>	<p>jamoalari tarkibidan o'rin olish, respublika kengashlari terma jamoalariga qabul qilinish, UJT, MJT darajasini oshirish. Malaka me'yorlarini bajarish</p>	<p>natijalariga erishish va uni keyinchalik ham oshirishga bo'lgan intilishning mavjudligi. Mamlakat terma jamoasi tarkibidan mustahkam o'rin egallash</p>
---------------	--	--	--	--

## **O'z-o'zini tekshirish uchun test savollari**

### **1. Sport kurashida ko'p yillik tayyorgarlik tizimining samaradorligi nimaga bog'liq?**

a. mashg'ulotni va o'rgatish jarayonini ixcham tashkillashtirilganidan

b. bolalarni, o'spirinlarni, o'smirlarni va katta yoshdagilarni tayyorlash jarayonining sifatli va uyushkorlikda tashkil etilganligidan

c. sport maktablarida to'g'ri va o'z vaqtida bajarilayotgan o'quv-mashg'ulot talablaridan

d. hamma yuqoridagilardan.

### **2. Ko'p yillik tayyorgarlik tizimida mashg'ulot davrlarining davom etishi qanday ravishda va nima bilan belgilanadi?**

a. har xil ko'lamdagi jismoniy nagruzkalarga sportchi organizmining ko'nikish darajasi bilan

b. jismoniy sifatlarning rivojlanish tasnifi va sport natijalari ko'rsatish samaraliligi bilan

c. sport turining o'ziga xos xususiyati bilan, shug'ullanuvchi sportchilarning sport tayyorgarlik darajasi bilan

d. shug'ullanuvchi sportchilarning yosh chegaralari bilan.

### **3. Ko'p yillik sportchilarni tayyorlash jarayoni qanday bosqichlarga bo'lingan?**

a. texnikaga o'rgatish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish bosqichlari

b. boshlang'ich o'rganish, sportda takomillashtirish va maksimal natijalarga erishish bosqichlari

c. sport bilan tanishish, mashg'ulotni o'tkazish, musobaqalarda qatnashish va sport natijalarini targ'ibot qilish bosqichlari

d. boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi, mutaxassislikga chuqurlashtirish bosqichi, sportda takomillashtirish bosqichi, oliy sport mahorati bosqichi.

### **4. Shug'ullanuvchilarning harakat qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida sensitiv davri deganda nima tushuniladi?**

a. katta va maksimal nagruzkalarni qo'llash jarayoni hamda vaqti

b. yosh sportchilardagi aniq harakat qobiliyatlarini rivojlantirishning sezgir fazasi

c. sportchilarni tayyorlash jarayoniga va tasnifiga psixologopedagogik ta'sir etish bosqichi

d. yosh chegaralarini hisobga olgan holdagi nagruzkalarni tuzish.



**5. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichining asosiy vazifalarini ko'rsating.**

a. yosh sportchilarning sog'lig'ini mustahkamlash va organizmini chiniqtirish, sportga qiziqishini uyg'otish

b. a, c, d javoblar

c. sport turining texnika asosini va boshqa jismoniy mashqlarni egallash

d. har tomonlama tayyorlash asosida funksional tayyorgarlik darajasini, mexnatsevarligini va intizomni ko'tarish.

**6. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida texnik usullarga o'rgatish uchun ko'proq qaysi usuldan foydalanish kerak?**

a. aylanma mashg'ulot va jismoniy sifatlarni rivojlantirish usuli

b. maqsadga intiluvchanligini va qat'iyatligini tarbiyalash usuli

c. texnik harakatlarga o'rgatishning to'liq o'rgatish usuli

d. kuch, egiluvchanlik va chaqqonlikni tarbiyalash usuli.

**7. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotdan keyin qanday tiklanish tadbirlarini qo'llash mumkin?**

a. massaj, sport o'yinlari, vitaminlar berish

b. yuqori darajada gigienik, ovqatlanish, psixologik barqarorlik qoidalarini saqlash

c. autogen mashg'ulot, relaksatsiya, suzish va chiniqish

d. mashg'ulotdan keyingi cho'milish tadbirlari, chiniqish, suzish, hammom va toza havoda darsni o'tkazish.

**8. Mutaxassislikga chuqurlashtirish bosqichining asosiy vazifalarini ko'rsating.**

a. texnika va taktikani chuqurroq o'rgatish, hamda chidamkorlikni tarbiyalash

b. sportchini har tomonlama tayyorlash, sog'lig'ini mustahkamlash, texnikani chuqurroq o'rgatish, umumiy va maxsus chidamlikni tarbiyalash, tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish va musobaqa tajribasiga ega bo'lish

c. musobaqa bellashuvini olib borishni bilish, egiluvchanlikni va tezlikni tarbiyalash

d. a va c javoblar.

**9. Mutaxassislikga chuqurlashtirish bosqichida mashg'ulotning qanday asosiy uslublaridan foydalaniladi?**

a. usulning alohida detallariga o'rgatish va interaktiv uslubda o'rgatish.

- b. o'yin va mashg'ulotni qaytarish uslubi
- c. birtekis, almashuvchi, musobaqa va aylanma uslublari
- d. b va c javoblar.

**10. Mutaxassislikga chuqurlashtirish bosqichi mashg'ulotlarini rejalashtirishda birinchi navbatda nimaga e'tiborni qaratish lozim?**

- a. yaxshi psixologik, texnik va nazariy tayyorgarlikga
- b. keng miqyosda texnik arsenalni egallashga, jismoniy sifatlar nisbatini mutanosib rivojlanish, tezlikni va koordinatsiyani rivojlantirishga
- c. musobaqa davrida kerak bo'lgan texnikani qo'llashni bilishga, sport gigienasiga va taktikasiga
- d. a va c javoblar.

**11. Sportda takomillashtirish bosqichining asosiy vazifalarini ko'rsating.**

- a. texnik-taktik harakatlar, axloqiy-irodaviy sifatlarni takomillashtirish
- b. mashg'ulot nagruzkasini shiddatini va hajmini ko'tarish
- c. a, b va d javoblar
- d. ko'proq kerak bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishda maksimal darajaga erishish.

**12. Sportda takomillashtirish bosqichidagi kurashchilarning texnik tayyorgarligida nimaga e'tibor qaratish lozim?**

- a. gilamda to'g'ri turish va gilamda o'zini tutishiga
- b. mashg'ulot jarayonini va musobaqa harakatlarini o'tkazishda to'g'ri yo'naltirishga
- c. trenerning hamma ko'rsatmalarini to'liq bajarish
- d. musobaqa faoliyati samarasini ko'tarish, texnik arsenalini kengaytirish, kombinatsiyalarni va usullar bog'lamlarini takomillashtirish.

**13. Oliy sport mahorati bosqichining asosiy vazifalari nimalardan iborat?**

- a. sportchining umumiy va maxsus chidamligini tarbiyalash, hamda musobaqalashuv mahoratini ko'tarishdan
- b. mashg'ulot jarayonining kengaytirilgan o'tkazilishini keltiruvchi, mashg'ulot vositalarini maksimal qo'llash. yurtimizda va jahonda yuqori natijalarni ko'rsatishdan

c. eng maqbul mashg'ulot tartibini saqlash, dinamik sifatlarni tarbiyalash, hamda nazariy imkoniyatlardan

d. katta musobaqalashuv tajribasiga ega bo'lish va kurashchining funksional holatini ko'tarish.

**14. Ko'p yillik mashg'ulot jarayonida kurashchilar tayyorgarligini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan modellarni ko'rsating.**

a. musobaqa faoliyati modeli va mashg'ulotni tuzish

b. texnik-taktik mahorat modeli

c. morfo-funksional holatiga qarab sportchini tayyorlash modeli

d. barcha yuqoridagilar.

**15. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida nechta tahsil yili mavjud?**

a. bitta

b. ikkita

c. uchta

d. to'rtta.

**16. Mutaxassislikga chuqurlashtirish bosqichida nechta tahsil yili mavjud?**

a. bitta

b. ikkita

c. uchta

d. to'rtta.

**17. Sportda takomillashtirish bosqichida nechta tahsil yili mavjud?**

a. bitta

b. ikkita

c. uchta

d. to'rtta.

**18. Oliy sport mahorati bosqichida nechta tahsil yili mavjud?**

a. bitta

b. ikkita

c. uchta

d. to'rtta.

**19. O'quv-mashg'ulot guruhлари qaysi bosqich tarkibiga kiradi?**

a. boshlang'ich tayyorgarlik

b. mutaxassislikga chuqurlashtirish

c. sportda takomillashtirish

d. oliy sport mahorati.

**20. Milliy terma jamoa a'zolari qaysi bosqich tarkibiga kiradi?**

a. boshlang'ich tayyorgarlik

b. mutaxassislikga chuqurlashtirish

c. sportda takomillashtirish

d. oliy sport mahorati.

**O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

<b>№</b>	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
1.				*
2.			*	
3.				*
4.		*		
5.		*		
6.			*	
7.				*
8.		*		
9.				*
10.		*		
11.			*	
12.				*
13.		*		
14.				*
15.			*	
16.				*
17.			*	
18.			*	
19.		*		
20.				*

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Kerimov F.A. Kurash tushaman. T., 1990.
2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2001.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2005.
4. Начальный этап в многолетней подготовке борцов. Малаховка, 1991.
5. Основы управления подготовкой юных спортсменов. Под ред. М.Я. Набатниковой, М., 1982.
6. Теория спорта. Под ред. В.Н. Платонова. Киев, 1987.
7. Филин В.П., Фомин Н.А. Основы юношеского спорта. М., 1980
8. Филин В.П. Теория и методика юношеского спорта. М., 1987.

## **19-BOB. MUSOBAQA FOALIYATINI PEDAGOGIK NAZORAT VA TAHLIL QILISH**

### **19.1. Musobaqa va o'quv-mashg'ulot faoliyatini pedagogik nazorat va tahlil qilish ahamiyat darajasi**

Kurashchilarning trenirovka mashg'ulotlari va musobaqa faoliyatini nazorat qilish hamda tahlil etish malakasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya ma'lumotiga ega bo'lgan talablarning hozirgi zamon darajasida kasb tayyorgarligida ilmiy-tadqiqot ishlari katta ahamiyatga ega bo'lmoqda, shuning uchun kurashchilar musobaqa va trenirovka faoliyatini tadqiq qilish uslublari hamda usuliyatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Trener sportchilar tayyorgarligini maqsadli boshqarish uchun quyidagilarni bilishi lozim: sportchilar, shuningdek ular yashaydigan, trenirovka qiladigan va musobaqalashadigan muhit to'g'risida axborot to'plash hamda uni tahlil qilish; sportchilar tayyorgarligi strategiyasi to'g'risida qaror chiqarish; ularning tayyorgarlik rejalari va dasturlarini tuzish; sportchilar tayyorgarligi dasturi hamda rejasini amalda ro'yobga chiqarish; buning uchun tuzilgan dastur va rejalarining amalga oshirilishini nazorat qilish; zarur hollarda trenirovka jarayoniga o'zgartirishlar kiritish.

Musobaqa faoliyatini boshqarish oldinda turgan musobaqa bellashuvlari rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirishni nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Sport musobaqalari – kurashchi tayyorgarligi tizimining tarkibiy qismidir. Ular trenirovka maqsadlari hamda uning samaradorligi mezonini bo'lib xizmat qiladi, boshqa tomondan esa, ular maxsus musobaqa tayyorgarligining samarali vositasi hisoblanadi.

Musobaqa nagruzkasi – musobaqa faoliyati hajmi va shiddatining son miqdoridir.

Musobaqa mashqlari mavjud musobaqa qoidalariga muvofiq sport ixtisosligi predmeti hisoblangan harakatlar kompleksini bajarishni nazarda tutadi. Sport kurashida ularga nazorat va musobaqa bellashuvlari kiradi.

– Nazorat bellashuvi musobaqa sharoitlariga yaqinlashtirilgan sharoitlarda raqiblarning o'zaro to'liq qarshilik ko'rsatishi bilan o'tkaziladi.

Uning maqsadi – kurashchining mashqlanganlik darajasi, uning musobaqalarda ishtirok etishga bo‘lgan tayyorgarligini belgilash, kurashchining u yoki bu texnik-taktik harakatlarni egallab olganlik darajasini aniqlashdir. Nazorat bellashuvi musobaqa qoidalariga mos bo‘lgan formula bo‘yicha o‘tkaziladi, uni to‘xtatish va qandaydir tushuntirishlar bilan birga olib borish mumkin emas. Xatolar bellashuv tugagandan so‘ng tahlil qilinadi.

– Musobaqa bellashuvi musobaqa qoidalariga muvofiq holda o‘tkaziladi. Uning maqsadi – o‘z vazn toifasida eng kuchli kurashchini aniqlashdir. Musobaqa bellashuvida kurashchi tayyorgarligining hamma tomonlarini keyingi takomillashtirilishi amalga oshiriladi. Bu bellashuvlar o‘zining ruhiy shiddatiga ko‘ra kurashchi musobaqalarda o‘tkazadigan bellashuvlarga yaqinlashtirilishi mumkin.

Trener oldinda turgan bellashuv rejasini ishlab chiqishda o‘quvchisining raqib ustidan g‘alaba qozonishi uchun eng samarali taktik harakatlarni aniqlash maqsadida raqib to‘g‘risida axborotga ega bo‘lishi lozim. Musobaqa faoliyatini nazorat qilish va uni keyinchalik tahlil etish u yoki bu sportchi tayyorgarligidagi kuchli hamda bo‘sh tomonlarni aniqlashga yordam beradi. Bellashuv davomida kurashchilar musobaqa faoliyatini boshqarish malakasi turli texnik-taktik vaziyatlarni kuzatish hamda tahlil qilish, shuningdek muayyan ko‘rsatmalar shaklida zarur qarorlarni chiqarish malakasidan hosil bo‘ladi.

## **19.2. Kurashchining texnik-taktik harakatlarini qayd etish usuliyati. Umumiy tushunchalar**

Sport kurashi sport faoliyatining shunday turlari sirasiga kiradiki, bunda muvaffaqiyat asosan bo‘lmasa ham ko‘proq texnik harakatlarga, xilma-xil texnik harakatlarni bilishga, qo‘yilgan sport maqsadlarini samarali hal etishning eng maqbul taktik va strategik yo‘llarini tanlab amalga oshira olishga bog‘liq bo‘ladi.

Bunda trener-pedagog hamda kurash sirlarini o‘rganayotgan sportchi oldida TTTni (texnik-taktik tayyorgarlik) samarali rejalashtirish hamda sport mahoratining o‘shish dinamikasini nazorat qilish va tahlil etish, shuningdek, sport mashg‘ulotlariga unumli o‘zgartirishlar kiritish maqsadida TTT xususiyatlariga tizimli asosda baho berish zarurati paydo bo‘ladi.

Sport kurashining ko'pgina mutaxassislari fikricha, TTT bugungi kungacha muammoli masalaligicha qolmoqda, shuning uchun ham THni ko'p miqdorda qo'llaydigan kurashchilar, xullas, «texnikachilar» borgan sayin kamayib borayotir.

TTTni baholash tizimi hamda yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni bajarish yo'lida ularni qo'llash usullarining ishlab chiqilishi sportchilar TTT darajalari chegaralarini miqdoriy tekislash hamda sport tayyorgarligi pedagogik jarayoniga muhim tahrirlar kiritish uchun imkon beradi.

Hozirgi vaqtda kurashchilar tayyorgarligini baholash asosan musobaqa faoliyati jarayonida yoki nazorat bellashuvlari natijalariga ko'ra amalga oshiriladi. Bunda ko'pincha kurashchi tayyorgarligining bahosi sifatida musobaqada egallangan o'rin yoki nazorat bellashuvi natijalari hisobga olinadi.

Yuqorida ko'rsatilgan natijalar qo'lga kiritilganidan so'ng trener-pedagog va sportchi intuitiv ravishda oldinda turgan musobaqaning xususiyatlarini modellashtirib, ma'lum darajada muayyan sportchilar bilan bo'lajak bellashuvlarning natijalarini (asosan evristik usul bilan) bashorat qilib, sport tayyorgarligi pedagogik jarayoniga qandaydir o'zgartirishlar kirita boshlaydilar.

Bunda, asosan, bayon etilgan axborot tahlil qilinadi, muayyan miqdoriy ko'rsatkichlar, ularning baholari berilmaydi.

Misol tariqasida shunday axborotga murojaat qilamiz: trener-pedagog ehtimoliy raqiblarning musobaqa faoliyatini o'z usullari yordamida baholab ko'rgach, shogirdiga taxminan quyidagicha axborot beradi: A kurashchi parterda yaxshi ishlaydi, bukib turib to'nkarish va uzatilgan oyoq sonini ters tomondan ushlab ag'darib otishni, dastlabki turishda ikki oyoqdan olish bilan bog'liq usullarni bajaradi, ayniqsa, yakuniy davrni yaxshi amalga oshiradi.

Tayyorgarlikning mavjud darajasiga doir bunday ma'lumotlar yoki modellar bor ekan, raqibning kuchli jihatlarini yengish uchun qandaydir javob choralarini ko'rish, uning bo'sh tomonlaridan foydalanib, bellashuvni yutib chiqishga harakat qilish kerak.

Biroq TTT miqdoriy ko'rsatkichlarining, TTT darajalari miqdoriy baholarining yo'qligi pedagogik tahrirlar samaradorligini ancha tushiradi, kurashchilarning turli bosqichlardagi tayyorgarligi dasturini nazorat qilishga yordam beradi.



Sport tayyorgarligi amaliyotiga tizimli yondashuvning tatbiq etilishi sport kurashida sportchilar tayyorgarligining turli bosqichlarida TTT ko'rsatkichlari miqdoriy baholari tizimini ishlab chiqish hamda qo'llash uchun sharoit yaratadi. TTTning alohida ko'rsatkichlari ko'p mutaxassislar tomonidan bayon etilgan, ular tasniflangan (B.N. Shustin), ularni qo'llashning turli yo'nalishlari belgilab berilgan. Bu ma'lumotlarning hammasi TTT ko'rsatkichlari tizimining ishlab chiqilishini talab etadi, busiz sport mashg'ulotlarining turli bosqichlarini samarali tarzda nazorat qilib bo'lmaydi, sport muvaffaqiyatlarini bashorat qilish usullarini ishlab chiqish, dasturiy tayyorgarlikning maqsadli vazifalarini qo'yish mumkin emas. TTT ko'rsatkichi sportchilar tayyorgarligining umumiy baholanishi tarkibiga kiruvchi taktik-texnik tayyorgarligi xususiyatlarining miqdoriy ifodasidir. Bunda eng kuchli sportchilar, Olimpiya o'yinlari, jahon chempionlarining ko'rsatkichlari namunaviy «champion modeli» sirasiga kiradi.

Ayrim ko'rsatkichlarning miqdoriy ifodalarini asosiy deb qabul qilib, sportchi yoki jamoaning taktik-texnik tayyorgarligi darajasini, shuningdek, sport tayyorgarligi pedagogik jarayonining sifati va dinamikasini baholash mumkin.

Texnik-taktik tayyorgarlik darajasi deganda, TTT ko'rsatkichlari yig'in-disining shunga muvofiq asosiy ko'rsatkichlar yig'indisi bilan taqqoslanishiga tayanuvchi nisbiy tavsifnoma tushuniladi.

### **19.3. Kurashchilarning musobaqa faoliyatida qo'llaniladigan texnik va taktik harakatlarning tahlil qilish yo'llari**

Zamonaviy sport kurashida kurashchining texnik-taktik zaxirasidagi uzluksiz hujum harakatlari yuqori baholanadi. Bu kurashchilardan MF da texnik-taktik harakatlarning muayyan zaxirasidan foydalanib, tezkor ravishda taktik qarorlar chiqarish malakasini talab etadi. MF sharoitida kurashchining TTT haqida ishonchli axborot olishga tizimli yondashuv hamda tezkor nazorat darajasiga qo'yiladigan talablar o'sib ketdi. Ishining bosh yo'nalishlaridan biri kurashchilarning MFdagi qayd etiladigan ko'rsatkichlarni samarali usuliyatni ishlab chiqish bo'lib, bu TTTni tahlil qilish asosida ishonchli ko'rsatkichlardan foydalanishni tezkor imkoniyat bilan ta'minlaydi, shuningdek, turli bosqichlarda kurashchilarning TTTni individuallashtirib borib, mashg'ulot

jarayonining har xil darajalarini tahrir etish mumkin bo'ladi. Oldinga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda yirik musobaqalarga kurashchilarni aniq maqsad bilan texnik-taktik jihatdan tayyorlash uchun MF xususiyatlarini tinimsiz o'rganib borish zarur. Musobaqalardagi muvaffaqiyatlarni tavsiflovchi asosiy omillarni o'rganar ekanmiz, biz MFning an'anaviy tahlilida qator nuqsonlar mavjudligini aniqladik, ularning asosiysi kurashchilarning musobaqa faoliyati to'g'risida ishonchli axborot olishga tinimsiz yondoshuv hamda nazorat yo'qligi hisoblanib, bu musobaqalarda qaror qabul qilish uchun miqdoriy axborotlardan foydalanish tezkor imkoniyatlari yo'lini berkitadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni aniqlash uchun, shu qatorda qo'llaniladigan trenirovka nagruzkalarining xususiyatlarini topish maqsadida kurashchilarning MF ni pedagogik nazoratdan o'tkazish hamda trenirovka jarayonining olib borishni tahlil qilish kerak. MF jahon chempionati, Olimpiya o'yinlari, Osiyo, Respublika birinchiliklari va boshqa bir qator yirik xalqaro musobaqalardagi bellashuvlarni bevosita va MF ko'rsatkichlarini tahlil qilish uslublardan hamda videomateriallar orqali kuzatish jarayonida tahlil qilish kerak.

Kurashchilar musobaqa faoliyatini chuqur o'rganish zamonaviy musobaqa qoidalari kurash bellashuvlari shiddatini jiddiy oshirishga olib kelgani faktini ta'kidlaydi. Sport fanining yetakchi mutaxassislari, murabbiylar sportchilarning MF xususiyatlarini batafsil o'rganish asosida o'quv-mashq ishlari samaradorligini oshirishga urinadilar. Shundan kelib chiqib, kurashchilarning alohida xususiyatlarini hisobga olishi kerak bo'ladigan TTTni boshqarishning maxsus tizimi belgilandi. Uning mohiyati sportchilar tayyorgarligida rejalashtirilgan maqsadlarga erishish yo'llari va individuallashtirilgan faoliyatning jiddiy jihatlarini ochishdan iborat. Mazkur vaziyatning oqibati sifatida sportchilarning maxsus-jismoniy, texnik-taktik va boshqa tomonlari darajasiga qo'yiladigan talablar oshib ketdi. Kurashchilar o'tkazadigan hujum usullari miqdorini orttirish hisobiga ballardagi arziimas ustunlik bilan g'alabalarga ko'proq erisha boshladilar. Bellashuvni baholashda ogohlantirish va passivlar miqdori katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, musobaqa qoidalaridagi o'zgarishlarni e'tiborga olib, kurashchilarning musobaqa faoliyatini tavsiflovchi model qiymatlar majmuasini yana ham sinchiklab ishlab chiqish talab etiladi.

### 19.3.1. Pedagogik kuzatishlarni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar

TTT baholarining turli tomonlarini bazaviy ko'rsatkichlar bilan taqqoslab, maqsadli o'quv ishlari samaradorligini oshirish uchun tegishli pedagogik tuzatishlarni ishlab chiqish va amalga oshirish mumkin.

Bunda TTT ning har bir jihatini – hujum, himoya, hajm, xilma-xillik kabi xususiyatlarni baholash asnosida musobaqa faoliyatini chuqurroq tahlil etish, tayyorgarlikning etishmagan darajalarini topish va ularni yaxshilashga harakat qilish zarur.

Masalan, A kurashchining hujum harakatlarini baholashda uning hujumi ishonchliligi ko'rsatkichi yuqori-  $N_a=0,8$ , darajasi  $W_a=0,8$  esa yetarli emasligi ma'lum bo'ldi, ya'ni bellashuvlarning bayonnomalaridan ko'rinib turibdiki, kurashchi, asosan, raqibini parterga o'tkazish usullaridan foydalanishga harakat qilgan. Parterda kurashchi A usullarni ishga solmas ekan. Bunday hollarda parterda kurashchi yo'llarini takomillashtirishga ko'proq e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Misol uchun: raqibni parter holatiga o'tkazgandan so'ng, o'sha zahoti aylantirish yoki ag'darish, yohud gavdasidan, yo bo'lmasa uzoqdagi sonidan teskari ushlab tashlash usulini amalga oshirish zarur, ya'ni murakkab hujum harakatlarini – raqibni parterga o'tkazishni – parterda texnik harakatni amalga oshirish kerak. Tuzatishlarning boshqa bir turi – ancha yuqori ballarni qo'lga kiritishga imkon beradigan texnik harakatlarni – egilib tashlash, belidan oshirib tashlash, yelkalaridan oshirib tashlash, orqadan chalish kabi amallarni o'rganishdan iborat bo'lishi mumkin.

Tuzatish amallaridan kurashchi o'z alohida xususiyatlariga qarab eng tez va yaxshi o'zlashtirib oladiganlarini tanlab o'rganishi zarur.

Agar kurashchi himoyasining ishonchliligi yetarli bo'lmasa yoki darajasi past bo'lsa, musobaqa bayonnomalarini tahlil etib, uning raqibga yutqazishiga olib keladigan texnik harakatlarini aniqlash, xavfli holatlarda himoyalaniшни qanday bajarganligiga, xavfli holatlardan chiqib ketish yo'llariga e'tibor berish lozim.

Pedagogik tuzatishlar uchun tavsiya sifatida raqib qo'llagan texnik harakatlardan himoya variantlarini chuqur o'zlashtirib olish, ularga ishlov berib, takomillashtirish, xavfli holatga tushganda himoyalaniş samaradorligini oshirish, shuningdek, qarshi hujum harakatlarini o'rganish singari amallarni qayd etib o'tish mumkin.

Aniqlangan miqdoriy ma'lumotlarga ko'ra qayd etish mumkinki, sportchilar musobaqa faoliyati natijalarining tahlilidan ayon bo'lishicha, yengil vazn toifasidagi kurashchilar xalqaro musobaqalarda ancha yuqori TTT va samarali kurashni namoyish etdilar. TTHlarga urinishlar miqdorining, TTHlarga muvaffaqiyatli urinishlar miqdorining va TTHlarni amalga oshirish uchun ballar miqdorining yuqori ko'rsatkichlari shundan darak beradi. MF qiyosiy tahlilining dalolat berishicha, vaznlari toifasi ortib borishi bilan kurashchilarda chappa hujumlar nisbati pasayadi. Shunday qilib, biz kurashchilar musobaqa faoliyatining quyidagi ko'rsatkichlarini aniqladik:

Masalan:

1. Xalqaro musobaqalarda (XM) va O'zbekiston chempionatlarida (O'zCh) yengil (e), o'rta (o') va og'ir (o) vazn toifalarida 1 daqiqada bajarilgan TTHlarga urinishlar miqdori (m) hujum harakatlari texnik-taktik zaxirasi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili (o'rtacha):

XM – e – 2,69, o' – 2,48, o – 1,92 ta o'ngga hujum harakatlari;

O'zCh – e – 2,17, o' – 1,96, o – 1,81 ta o'ngga hujum harakatlari;

XM – e – 1,46, o' – 1,22, o – 0,68 ta chappa hujum harakatlari;

O'zCh – e – 0,89, o' – 0,68, o – 0,57 ta chappa hujum harakatlari.

2. Kurashchilar XM va O'zChda TTHlarning muvaffaqiyatli urinishlari miqdoriga ko'ra (i) bir daqiqada yengil (e), o'rtacha (o') va og'ir (o) vazn toifalarida o'rtacha qo'llaydilar:

XM – e – 1,32, o' – 1,11, o – 0,52 ta o'ngga hujum harakatlari;

O'zCh – e – 0,80, o' – 0,57, o – 0,41 ta o'ngga hujum harakatlari;

XM – e – 0,82, o' – 0,63, o – 0,08 ta chappa hujum harakatlari;

O'zCh – e – 0,34, o' – 0,11, o – 0,12 ta chappa hujum harakatlari.

3. TTHlarni o'tkazish uchun ballar miqdoriga ko'ra (a) ham xuddi shunday yo'nalish kuzatiladi, kurashchilar Xm va O'zCh da bir daqiqada yengil (e), o'rtacha (o') va og'ir (o) vazn toifalarida o'rtacha qo'llaydilar:

XM – e – 1,53, o' – 1,33, o – 0,76 miqdordagi ballar o'ngga o'tkazgani uchun;

O'zCh – e – 0,91, o' – 0,68, o – 0,66 miqdordagi ballar o'ngga o'tkazgani uchun;

XM – e – 1,28, o' – 1,07, o – 0,57 miqdordagi ballar chappa o'tkazgani uchun;

O'zCh – e – 0,47, o' – 0,24, o – 0,37 miqdordagi ballar chappa o'tkazgani uchun.

Xalqaro musobaqalarda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan kurashchilar turli vazn toifalarida faol kurashishning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, hujum va qarshi hujum harakatlari uzluksizligini tahlil qilish lozim.

Pedagogik kuzatishlar yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqish bo'yicha xulosalar sifatida quyidagilarni keltiramiz:

1. Samarali tuzatish amallarini ishlab chiqish uchun tayyorgarlikning har bir tomonini (hujum, himoya, hajm va ishlanmalar) alohida baholash va tahlil etish zarur.

2. TTT ni oshirishga yo'naltirilgan bir necha xil tuzatish variantlarini ishlab chiqish va sportchi qaysi birini oson o'zlashtirsa, shuni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

3. Tavsiyalarni tanlash imkoniyati trener va sportchilarning TTT umumiy darajasini oshirishga yo'naltirilgan ijodiy rejalarini aslo cheklamaydi.

4. Kurashchilar TTT darajalarini tadqiq etish va baholash bo'yicha bajariladigan vazifalar TTT xususiyatlarining miqdoriy baholarida ifodalanuvchi yechish usullariga tizim sifatida yondashishni hamda ularga umumlashtirilgan holda baho berishni talab qiladi.

5. Sport tayyorgarligining vaqt birligidagi o'zgarishlarini alohida va majmuali ko'rsatkichlar darajasini (dinamikasini) bazaviy ko'rsatkichlar darajasi (dinamikasi) bilan taqqoslash asosida tahlil qilish mumkin, bu sport mashg'ulotlari jarayonini rejalashtirish hamda uni boshqarish samaradorligini oshiradi.

6. TTT ning alohida xususiyatlari yoki tomonlarini baholash tayyorgarlik jarayoniga pedagogik tuzatishlar kiritish bo'yicha xususiy tavsiyanomalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

7. TTT ko'rsatkichlarining to'la ro'yxati TTT modelini yaratish va sport kurashida bashorat qilish vazifalarini hal etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

## O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari

### 1. Sportchining musobaqa faoliyati deganda nima tushuniladi?

- sportchilar va jamoalar tomonidan erishgan natijalarini ko‘rsatish
- o‘yin paytida, bellashuvda, uchrashuvda, masofada va boshqalarda kurash musobaqasi mazmunini tashkil etadigan barcha usul va harakatlar
- sportchini xulqi va atrofida gilar (trener, hakamlar, tashkilotchilar, vrachlar va x.k.)
- b va c javoblar.

### 2. Sport tayyorgarligi paytida qanday musobaqa turlariga ajratiladi?

- tayyorlov va asosiy musobaqa.
- bolalar, o‘smirlar va kattalar musobaqasi
- nazorat, keltiruvchi va saralash musobaqalari
- a va c javoblar.

### 3. Asosiy musobaqada qatnashish maqsadiga tavsif bering.

- qatnashchilarni terma jamoa tarkibiga saralash.
- g‘alabaga erishish yoki mumkin qadar yuqoriroq o‘rin egallash
- sportchini texnik harakatini va bellashuvni olib borish taktikasini ancha yaxshilash
- sportchining iqtidorini ko‘tarish, uning jismoniy sifatlarini va musobaqa tayyorgarligini ko‘tarish.

### 4. Sport kurashida musobaqa faoliyatini baholaydigan umumiy tasniflovchi ko‘rsatkichlarni ko‘rsating.

- usul va kombinatsiyalarni chiroyli va samarali bajarilishi
- kurashchining chiqishida sifatini va natija ko‘rsatishini baholash
- hujum va himoya harakatlarining samarasi, faolligi va natija ko‘rsatishi
- sport natijasi va sportchining axloqiy xulqi.

### 5. Kurashchining texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari deganda nimani tushunasiz?

- sportchilarning tayyorgarligini umumiy baholash tarkibiga kiruvchi texnik-taktik tayyorgarlik xususiyatlarini son jihatdan tavsiflashga
- tik turgan holatda va parter holatida usullarni bajarish sifatiga
- sportchining tanlangan sport turiga ta‘luqli harakat tizimini egallaganlik darajasi

d. b va c javoblar.

**6. Kurashchining texnik-taktik tayyorgarlik darajasi degani nima?**

a. kurashchining mashg'ulotda va musobaqada bajaradigan usullar hajmi

b. sport bellashuvining samarali olib borilishi va natija ko'rsatilishi

c. bazaviy ko'rsatkichlar bilan texnik-taktik tayyorgarlik ko'rsatkichlarining jamlangan holda solishtirishga asoslangan nisbiy tavsif

d. kurashda usulni bajarishdagi omadli urinish.

**7. Sport kurashida qaysi yo'l bilan musobaqa faoliyatini yozib borish amalga oshiriladi?**

a. maxsus usullar yordamida texnik harakatlarni hisobga olish

b. bazaviy tuzilmasida va asosiy harakatda ajralish bilan, hamda ularni qo'llash tavsifi bilan

c. daftar va sportchining kundaligida yozib borish bilan

d. video va kinolavha yordamida maxsus notatsion belgilarni qo'llash bilan.

**8. Texnikaning samaradorligi nima bilan izohlanadi?**

a. birtekisligi, bellashuvni kombinatsiyali yo'sinda bellashuvni olib borish va raqibga hujumni amalga oshirishni bilish

b. raqibning shiddatli qarshilik ko'rsatish sharoitida harakatlarni bajarishni bilish

c. samaraliligi, birtekisligi, variativligi, ixchamligi, raqib uchun texnika to'g'risida axborotning kamligi bilan

d. harakatning dinamikligi, bellashuvni olib borish tajribasi bilan.

**9. "Hujum samaradorligi"ni qaysi ko'rsatkichlarning nisbatlari aniqlaydi?**

a. qayta tiklanish va hujum qilish

b. yaxshi himoya va qarshi hujum

c. yaxshi hujum faoliyati va yutuq ballarining jami bilan

d. bellashuvdagi baholangan texnik usullarning sonini umumiy hujum texnik usullarni bajarish uchun urinish soniga nisbati.

**10. Kurashchining musobaqa faoliyatini tahlil qilishda asosiy shart nimadan iborat?**

a. hech bir narsani o'tkazib yubormasdan, musobaqani diqqat bilan kuzatib borish va x.k.

b. musobaqa faoliyatini baholash uchun taxminan bir hil mahoratlar bellashuvining bayonnomalarini tahlil qilish

c. hujumning ishonchliliigi va himoya orasidagi bog'liqlikni tadqiq qilish

d. texnik-taktik tayyorgarlikning har xil tomonlarini bazaviy ko'rsatkichlar bilan solishtirish.

**11. Texnik-taktik tayyorgarlikning tizimi qanday tuzilmalardan iborat?**

a. umumiy jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni baholovchi ko'rsatkichlaridan

b. sportchini psixomotor sifatlarini baholovchi ko'rsatkichlaridan

c. tenik tayyorgarlikda asosiy kvalifikatsion guruhlarini baholovchi ko'rsatkichlaridan

d. yagona, majmual, guruhli va umumlashtirilgan ko'rsatkichlardan.

**12. Texnik-taktik tayyorgarlikning qaysi ko'rsatkichi yagona ko'rsatkich deyiladi?**

a. bu ko'rsatkich bayonnomada bir marta paydo bo'ladi

b. bu ko'rsatkich kurashchining asosiy va oliy xususiyatlarini tavsiflaydi

c. bu shunday ko'rsatkichki, unda texnik-taktik tayyorgarlikning aniq bir xususiyatga kiradi

d. bu shunday ko'rsatkichki, unda faqat musobaqa faoliyati bo'laklarining belgilari ko'riladi.

**13. Texnik-taktik tayyorgarlikning qaysi ko'rsatkichi umumlashtirilgan ko'rsatkich deyiladi?**

a. texnik-taktik tayyorgarlikning umumlashtirilgan ko'rsatkichi deganda, bu sportchi tayyorgarlik turini tadqiq etishning barcha xususiyatlarini o'z ichiga oladi

b. ko'p sonli kurashchilarning xususiyatlarini umumlashtiruvchi ko'rsatkich

c. sportchining barcha natijalarini jamlashtiruvchi ko'rsatkich

d. sportchining ko'proq umumiy xususiyatlarini baholovchi ko'rsatkich.

**14. "Hujum darajasi" ko'rsatkichi qaysi tavsif bilan aniqlanadi?**

a. kurashchi qancha usul bajardi va qancha yutuq ballariga erishishi bilan



b. "Hujum samaradorligi" ko'rsatkichini usulning o'rtacha bahosiga ko'rsatkichiga ko'paytirish bilan

c. yutuqqa erishilgan bellashuvlar soni va musobaqa borishida erishilgan ballar bilan

d. hakamlar va murabbiylarni tavsiflovchi baho bilan.

**15. "Hujum oralig'i" ko'rsatkichi qaysi uslub bilan aniqlanadi?**

a. bellashuvning aniq vaqtida o'tkazilgan hujum soni bilan

b. raqib hujumi va uning hujumini qaytarish soni bilan

c. butun bellashuv vaqtining amalga oshirilgan hujum soniga nisbati

d. hujumni amalga oshirishdagi o'rtacha baho.

**16. "Himoya samaradorligi" ahamiyat ko'rsatkichi qaysi uslub bilan aniqlanadi?**

a. amalga oshirilgan qarshi usullar soni bilan.

b. raqibning hujumini qaytarilgan sonini raqibning umumiy hujumlar soniga nisbati bilan

c. musobaqa borishining hammasida himoyalaniшни bilish bilan

d. yuqori psixologik turg'unlik va axloqiy-irodaviy tayyorgarlik bilan.

**17. Texnik-taktik tayyorgarlik darajasi dinamikasini baholash uchun qanday uslublardan foydalaniladi?**

a. ko'z bilan ko'rib baholash va natijalarni muhokama qilish

b. yuqori malakali ekspertlar guruhini qo'llash

c. diferensial, majmual, aralash

d. hakamlar bayyonomalarini tahlil qilish va videodasturlarni ko'rish.

**18. Texnik-taktik tayyorgarlikni baholashning diferensial uslubi qaysi yo'l bilan amalga oshiriladi?**

a. berilgan vaqt ichida aniq ko'rsatkichni baholash yordami bilan

b. texnik-taktik tayyorgarlikning alohida ko'rsatkichlarini boshqa kurashchi ko'rsatkichlari bilan yoki shunga o'xshash bazaviy ko'rsatkichlar bilan solishtirish

c. murabbiylar kengashi va federatsiya a'zolari majlisining borishida

d. sport natijalarini doimiy monitoringdan o'tkazish paytida.

**19. Jismoniy mashqlar texnikasi deganda nima tushuniladi?**

a. harakatni doim yangilash va sportchi mahoratining o'sishi

- b. harakatning keng tavsifi va bajarilishining aniqligi
- c. har xil sharoitda sportchi tekisligi va harakatlar turg'unligi
- d. harakatni amalga oshirish uslubi, uning yordamida nisbatan katta samara bilan harakat vazifasi maqsadga muvofiq hal qilinadi.

**20. Hujum samaradorligini aniqlash qaysi formula yordamida amalga oshiriladi?**

a.  $a = \frac{n}{N}$

b.  $t = \frac{x_1 - x_2}{\sqrt{\delta_1^2 + \delta_2^2}} \cdot \sqrt{n}$

c.  $\delta = \sqrt{\frac{E(x-x)^2}{n-1}}$

d.  $\bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^n x_i n_i}{n}$

**O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

<b>№</b>	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
1.				*
2.			*	
3.		*		
4.			*	
5.	*			
6.			*	
7.				*
8.			*	
9.				*
10.		*		
11.				*
12.			*	
13.	*			
14.		*		

15.			*	
16.		*		
17.			*	
18.		*		
19.				*
20.	*			
21.	*			

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Ашмарин Б.А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. М., ФиС, 1978.

1.Галковский Н.М., Керимов Ф.А. Вольная борьба. Т., Медицина, 1987.

2.Kerimov F.A. Kurash tushaman. Т., Meditsina, 1990.

3.Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. Т., 2001.

4.Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. Т., 2005.

5.Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. Т., 2007.

## 20-BOB. SPORT KURASHIDA MASHG'ULOT NAGRUZKALARINING SHIDDATINI ANIQLASH USLUBLARI

### 20.1. Treirovka va musobaqa nagruzkalarini nazorat qilish

Zamonaviy kurash treneri treirovka nagruzkasi darajasini muntazam tahlil qilib borishi va musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari bilan uni taqqoslab turishi lozim. Shu orqali nagruzkaning qanday turi sportchi texnikasini takomillashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi, nagruzka hajmi yetarlichami, har xil nagruzka turlarining hajmi va yo'nalishi sportchisidagi nisbat optimal qanchalik ekanligi aniqlanadi (Yu.M. Kostov, M.A. Godik, 1980).

M.A. Godik (1980) tomonidan ishlab chiqilgan treirovka nagruzkalarining tasnifiga muvofiq nagruzkalarni nazorat qilish hamda tahlil etish quyidagi tavsiflarning son qiymatlarini aniqlash zarur:

– ixtisoslashganlik, ya'ni ushbu treirovka vositasining musobaqa mashqi bilan o'xshashlik darajasi;

– u yoki bu harakat sifatini rivojlantirishga qaratilgan treirovka mashqlarining ta'sir etish yo'nalishi;

– treirovka samarasi hajmiga ta'sir etuvchi koordinatsion surakkablik;

– mashqning sportchi organizmiga ta'sir etishining son darajasi va sifatidagi hajmi.

Ushbu tavsiflarni sport kurashiga taalluqli holda ko'rib chiqamiz.

Nagruzkaning ixtisoslashganligi. Sport kurashida hamma treirovka mashqlari kurashchining ixtisoslashgan maxsus mashqlari, texnika va taktikani takomillashtirish mashqlari, sherik bilan mashqlar, bellashuvlardagi mahoratni takomillashtirish mashqlari hamda ixtisoslashmagan mashqlarga (sport o'yinlari, og'ir va yengil atletika, akrobatika va gimnastika, kross tayyorgarligi) bo'linadi. Treirovkaning muvaffaqiyatli o'tkazilishida ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan mashqlar nisbatini hisobga olish zarur. Ko'p sonli ixtisoslashmagan mashqlarni muvaffaqiyatli o'tkazilish o'smir kurashchilarning har tomonlama tayyorgarligiga yordam beradi. Ixtisoslashgan mashqlar ulushi sportchining ko'p yillik treirovka jarayonida asta-sekin oshib boradi.

Ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan nagruzkalar sonining trener tomonidan doimo qayd qilib borilishi treirovka jarayonini maqsadli o'tkazilishga yordam beradi.

Nagruzka yo'nalishi. Ma'lumki, sport kurashida musobaqa faoliyatining o'ziga xos xususiyati tezkor-kuch tayyorgarligi va maxsus chidamlilikka katta talablar qo'yishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun trenirovka nagruzkalari kurashchining shu harakat sifatlarini tarbiyalashga qaratilishi lozim. Trenirovka mashqlarida nagruzkani to'rtta guruhga bo'lish qabul qilingan: anaerob-alaktat (tezkor-kuch); anaerob-glikolitik (tezkorlik chidamliligi); aralash; aerob (umumiy chidamlilik nagruzkasi).

Trenirovka jarayonida turli yo'nalishdagi mashqlarni bajarish ketma-ketligini hisobga olib borish zarur. N.I.Volkov (1975) trenirovka mashg'ulotida mashqlarni quyidagi ketma-ketlikda bajarishni oqilona hisoblaydi:

– avval alaktat-anaerob (tezkor-kuch), so'ngra anaerob-glikolitik mashqlar (tezkorlik chidamliligiga qaratilgan mashqlar);

– avval alaktat-anaerob, so'ngra aerob mashqlar (umumiy chidamlilikka qaratilgan mashqlar);

– avval anaerob-glikolitik (kichik hajmda), so'ngra aerob mashqlar.

Muallifning fikricha, mashqlar boshqacha uyg'unlashtirilsa, ijobiy o'zaro ta'sirga erishish juda qiyin, qolaversa, mumkin ham emas.

Trener amaliy faoliyatda trenirovka jarayoni yo'nalishini quyidagi tavsiflar: davomiylik va shiddat, mashqlar o'rtasidagi dam olish oraliqlari va xususiyati, takrorlashlar soni va bajarilayotgan mashqning koordinatsion murakkabligi bo'yicha o'zi baholay olishi lozim.

Trener, mashg'ulotlarda nagruzkani qayd qilayotib, uni nagruzkalar tasnifi bilan taqqoslashi zarur (27-jadval).

**Trenirovka mashqlarini uning yoʻnalishi boʻyicha guruhlarga taqsimlashda nagruzka tarkibining ahamiyati (N.I. Volkov boʻyicha)**

Nagruzka yoʻnalishi	Nagruzka tarkibi			
	Mashqlar davomiyligi	Mashqlar shiddati	Dam olish vaqti	Takrorlashlar soni
Anaerob-ataktat (tezkor-kuch)	6 s gacha	Maksimal	Mashqlar oʻrtasida 1-2 min seriyalar orasida 3-5 min.	Bitta seriyada 6-7 takrorlash, 5-6 seriya
Anaerob-glikolitik (tezkorlik chidamliliigi)	Bir martalik ishda 0,5-3 min.	Submaksimal	-	-
	Takroriy ishda 0,5-2 min.	Submaksimal yoki katta	3-10 min	3-6
Aerob-anaerob (harakat sifatlarining hamma turi)	2 min	Katta	Mashqlar oʻrtasida 0,2-0,5 min, seriyalar orasida 3 min gacha	Seriyada 2-4 takrorlash, 5-6 seriya
	05,-1,5 min.	Katta	Mashqlar oʻrtasida 0,5-1,5 min, seriyalar orasida 6 min gacha	Bir martalik takroriy ishda 10 va undan ortiq 2-4 seriyada 5-6 takrorlash
	3-10 min.	Katta	Cheklanmagan, toʻliq tiklanishgacha	2-6
	30 min.	Susidan maksimalgacha	-	-

Aerob (umumiy chidamlilik)	1–3 min	sust	0,5–1,5 min.	Takroriy ishda 10 va undan ortiq, 2–8 seriyada 5–8
	3–10 min	sust	Cheklanmagan, kayfiyatiga qarab takroriy ish	6–8
	30 min va ortiq	O'zgaruvchan ish da kichikdan kattagacha	-	-
Anabolik (kuch va chidamlilik)	1,5–2 min.	Kattadan submaksimalgacha	1,5–2 min.	5–6 mashqdan iborat seriya, 3–4-marta takrorlanadi
	Oxirgi nafasgacha	Katta	3–4 min.	4–6

Trenirovka mashqlari yo'nalishini yurak qisqarish tezligi (YuQT) bo'yicha nazorat qilib borish mumkin. Maksimal shiddatda va kichik hajmda bajariladigan mashqlar, odatda, tezkor-kuch sifatlarining rivojlanishiga ta'sir etadi.

Bunday mashqlarda ichki zaxiraning erib ketishi sodir bo'ladi, yurak-qon tomir tizimiga tushadigan yuk uncha katta emas, shuning uchun YuQT ni nazorat qilmaslik ham mumkin. xuddi shunday, lekin katta hajmdagi mashqlar yoki katta shiddat bilan 30–120 atrofida bajariladigan mashqlar tezkorlik chidamliligiga ta'sir ko'rsatadi. Ularni bajarish paytida YuQT 160–190 ur/min. gacha yetadi. Uzoq vaqt davom etadigan kam shiddatli mashqlar umumiy chidamlilikning takomillashishiga ta'sir etadi, YuqT – 130–160 *ur/min* (M.A. Godik, 1987).

M.A. Godik (1987) ma'lumotlariga ko'ra, mashqlarning YuQT bo'yicha yo'nalishini qayd qilishda ularning ketma-ketligini hisobga olish lozim. Bu ketma-ketlik mashg'ulot boshidagi xuddi shu mashq bilan solishtirganda uning yakunida YuQT ning nisbatan 20–30%ga oshishiga imkon beradi. Birinchi holda nagruzka umumiy chidamlilikning, ikkinchi holda tezkorlik chidamliligining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

## **20.2. Nagruzkaning koordinatsion murakkabligi.**

Nagruzkaning koordinatsion murakkabligi. Bu tavsif trenirovka nagruzkalarini kamida ikkita: oddiy (raqib qarshiligrisiz, kam tezlikda va h.k.) va murakkab (musobaqa sharoitlariga yaqinlashtirilgan holda) guruhlariga taqsimlashni nazarda tutadi. Trenirovka mashg'ulotlarida oddiy va murakkab texnik harakatlarni nazorat qilib borish zarur.

Oddiy texnik harakatlarga dast ko'tarishlar, siltab\_ko'tarishlar, ushlab olishlar, ushlab olishlardan chiqib ketish, oddiy hujum harakatalari kiradi (II, ya'ni hujum darhol usul tarkibidan boshlanadi).

Murakkab texnik harakatlarga murakkab hujum harakatlari (MII, ya'ni taktik tayyorgarlik usullari bilan hujum harakatlari va usullar kombinatsiyalarini qo'llab hujum qilish), himoyalinishlar, qarshi usullar, usullar bog'lanishlari, ya'ni ikki usul birikmasidan (birinchisi tik turishda (parterda) boshlanadi, ikkinchisi parterda (tik turishda) yakunalanadi) iborat usullar kiradi.

Sport kurashi bo'yicha yirik musobaqalarning tahlili shuni aniqlashga imkon beradiki, MII ni tez-tez qo'llab turadigan



kurashchilar katta muvaffaqiyatlarga erishar ekan. Demak, trenirovka mashg'ulotlarida murakkab texnik harakatlarni rejalashtirish kurashchining jismoniy imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

### **20.3. Nagruzka hajmi**

Nagruzka hajmi deganda sportchi bajarayotgan mashqlarning uning organizmiga ta'sir etish darajasi (maksimal, katta, o'rta, kichik) tushuniladi. Nagruzka hajmi odatda hajm va shiddat ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi.

Kurashchilar trenirovkasida nagruzka hajmini nazorat qilayotib, quyidagilarni qayd etish zarur: trenirovka va musobaqa faoliyatiga sarflangan vaqt (soatlar, kunlar, haftalar, oylar), trenirovka mashg'ulotlari soni (sikllar, bosqichlar, davrlar).

Trenirovka mashg'ulotidagi nagruzka hajmini aniqlash uchun mashqdan keyin YuQT ning o'rtacha hisobi topiladi, so'ngra jadvaldan shiddat qiymati topiladi, uni shu mashqni bajarish vaqtiga ko'paytiriladi. Nagruzka hajmini trenirovkaning ta'sir etish yo'nalishi bo'yicha qayd etish maqsadga muvofiqdir.

Trenirovka dasturini tuzuvchi trener sportchi tomonidan bajarilgan ishlar to'grisida aniq hamda ishonchli ma'lumotga ega bo'lishi lozim, trener uning tayyorgarligidagi ijobiy hamda salbiy tomonlarni bila turib, trenirovka jarayonini maqsadga muvofiq holda amalga oshirishi mumkin.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun test savollari**

#### **1. Jismoniy mashqlar nagruzkasi deganda nima tushuniladi?**

- a. organizmning jismoniy mashqlarni bajarishidagi toliqishi
- b. har bir mashqning nagruzka shiddati va hajmi
- c. jismoniy mashqlar nagruzkasining shug'ullanuvchilar organizmiga ta'sir hajmi va organizmning nagruzkaga reaksiyasi
- d. har bir mashqning nagruzka shiddati va jamlangan ahamiyati.

#### **2. Mashg'ulot mashqlarining qanday nagruzka tavsiflari mavjud?**

- a. tezlik, chaqqonlik, tezkorlik va toliqish
- b. ixtisoslashtirilgan va hajm
- c. mashqning ta'sir yo'nalishi va koordinatsion murakkablik
- d. b va c javoblar.

#### **3. Nagruzkaning ixtisoslashganligi deganda nima tushuniladi?**

- a. maxsus texnika va unga maxsus yondoshish
- b. sportchilarning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantiruvchi mashqlar
- c. ko'lamli musobaqa mashqlariga o'xshash mazkur mashg'ulot vositalari
- d. musobaqa mashqlari, texnika va taktika.

**4. Jismoniy mashqlar ta'sirining yo'naltirilganligi deganda nima tushuniladi?**

- a. u yoki bu sifatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi yo'naltirilgan mashg'ulot mashqlariga
- b. mashg'ulotni turli davrlarida har xil mashqlarni rejalashtirish uslubiga
- c. mashg'ulotda aniq ketma-ketlikda bajariladigan mashqlarga
- d. mikrosiklda mashg'ulot nagruzkasi hajmini ko'tarish.

**5. Nagruzkaning koordinatsion murakkabligi deganda nima tushuniladi?**

- a. mashqning sportchi mahoratining o'sishiga ta'sir darajasi.
- b. mashg'ulot samarasi hajmiga ta'sir etuvchi mashqning murakkabligi
- c. sportchining harakat qobiliyatini tarbiyalash mashqlarining ta'sir darajasi
- d. mashg'ulot jarayonida har xil murakkab nagruzkalarning mutanosibligi.

**6. Mashg'ulot nagruzkalarining "hajmi" tushunchasini ko'rsating.**

- a. mashg'ulot nagruzkasining vaqt davomiyligi
- b. shiddatli jismoniy ishni bajarish
- c. sportchi organizmiga mashqlar ta'sirining o'lcham birligi
- d. bajarilayotgan mashqlar shiddatining darajasi.

**7. Belgilari bo'yicha standardlashtirish yoki nagruzkaning tashqi ko'rinishlarini almashtirib ta'sir etish qaysi uslublarda joy egallagan?**

- a. tabiiy va bevosita ko'rsatish uslubi
- b. qulaylik va nagruzkaj hajmini doimiy ko'paytirish uslubi
- c. standart-qaytarish uslubi va mashqlarni almashtirish uslubi
- d. qaytarib-o'stiruvchi mashqlar uslubi.

**8. Nagruzkaj hajmini hisoblashda qaysi shkala qo'llaniladi?**

- a. standart o'lchash shkalasi
- b. tartib va atamalar shkalasi

c. O'zDJTning o'sish shkalasid. V.A. Sorvanov shkalasi.

**9. Nagruzkaning "tashqi" tomoni qaysi ko'rsatkichlarda taqdim etilgan?**

a. u yoki bu mashg'ulot jarayonini tashkiliy tuzilmasiga mansubligini tavsiflash

b. ish hajmining jamlangan ko'rsatkichi va mashqlarni bajarish shiddati

c. harakat sur'ati, og'irlashtirilganlik hajmi, yugurib o'tgan masofa soni

d. har xil quvvat zonalarida nagruzkani bajarish.

**10. Kurashda nagruzka hajmi qaysi uslub bilan aniqlanadi?**

a. ish vaqti qancha daqiqa bo'lsa, shu daqiqalar soni nagruzka uchun qo'yilgan ballarga ko'paytiriladi

b. yurak qon tomir urishi chastotasini yozib borish yo'li bilan

c. sportchi organizmining toliqish darajasi bilan

d. a, b va c javoblari.

**11. Qo'llaniladigan mashqlar nagruzkasining dam olish oraliqlarini asosiy turlarini ko'rsating.**

a. o'tirgan va yotgan holdagi dam olish b. ordinar oraliqli

c. qattiq va ekstremal dam olish oraliq'i d. b va c javoblar.

**12. Qaysi dam olish oraliq'i ordinar oraliq deb ataladi?**

a. kurashchi ish qobiliyatini tiklashni nazorat qilishga yo'l qo'yuvchi

b. mashg'ulot oxiridagi dam olish oraliq'i

c. shunday oraliqki, unda dastlabki holatgacha bo'lgan ish qobiliyatini keyingi nagruzka bo'limigacha to'liq tiklashni kafolatlaydi

d. mashg'ulot darsining bo'limlari orasidagi uzilish.

**13. "Qattiq" dam olish oraliq'iga tavsif bering.**

a. o'zining vaqt chegaralarini o'zgartirmaydigan dam olish oraliq'i

b. shunday oraliqki, unda butun organizm holatining ayrim funksiyalari to'liq tiklanmagan vaqtda navbatdagi nagruzka qismi to'g'ri keladi

c. dars paytida o'zining vaqt chegaralarini kamaytiruvchi dam olish oraliq'i

d. standart mashqlarni bajarish orasidagi dam olish oraliq'i.

**14. Qaysi dam olish oraliq'i "ekstremal" oraliq deb ataladi?**

a. shunday oraliqki, unda navbatdagi nagruzka sportchi ish qobiliyatining yuqori pog'onaga ko'tarilgan paytiga to'g'ri keladi

b. shiddati bo'yicha ekstremal bo'lgan mashq o'tkazishidagi dam olish oralig'i

c. musobaqa oldi tayyorgarligi davridagi mashqlarning dam olish oralig'i

d. yuqori shiddatli va hajmli mashqlarni o'tkazish paytidagi dam olish oralig'i.

**15. "Maksimal nagruzka" tushunchasiga izoh bering.**

a. nagruzka komponentlarining son jihatdan barcha jamlangan ko'rinishi

b. to'liq rad etilguncha to'lqinsimon ko'tarilib boruvchi nagruzka

c. organizmning funksional qobiliyatlar chegarasigacha bo'lgan nagruzka

d. haddan tashqari mashg'ulotlanganlikga va haddan tashqari charchaganlikga keltiruvchi nagruzka.

**16. Mashg'ulot nagruzkalari oqibatida qanday toliqish darajalari paydo bo'ladi?**

a. jismoniy va psxologik toliqish

b. organizm toliqishi va ish qobiliyatining susayishi

c. o'rta va katta daraja

d. kichik, o'rta, katta va maksimal darajalar.

**17. Musobaqa bellashuvlari tahlili yakuniga ko'ra sportchilarni uchta guruhga bo'linishini ko'rsating?**

a. baland, past va o'rta bo'yli

b. faol, sust va impulsiv

c. "Mo'tadil", "ikkicho'qqili" va "uchecho'qqili"

d. yuqori texnikaviy, kuchsiz texnikachi va chidamli.

**18. Kurashchilar bellashuvida "sport" degani nima?**

a. yuqori shiddatda raqibga to'xtovsiz hujum qilishni bilish

b. to'g'ri start olishni va bellashuvni oqilona yakunlashni bilish

c. raqibning kuchsiz tomonlarini bilish va unga to'g'ri hujum qilish

d. chegaradagi kuch imkoniyatlarida ishni bajarish.

**19. Nagruzkaning ta'sir yo'nalishi va hajmini qaysi komponentlar aniqlaydi?**

a. mashg'ulot samarasiga mashqlarning ta'sir darajasi

b. mashqlarning tavsifi, shiddati va davomiyligi, mashqlar orasidagi dam olish oralig'ining tavsifi

c. mashg'ulot joyi, anjomlar va dars o'tish uchun sharoitlar

d. a, b, c javoblar.

**20. “Jismoniy ish qobiliyat” tushunchasiga izoh bering.**

a. nagruzkaning har xil quvvat zonalarida berilgan ishni bajarish qobiliyati

b. ko‘lamli ishdan keyin tiklanish qobiliyati

c. berilgan reja bo‘yicha shug‘ullanishni bilish

d. a, b, c javoblar.

**O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

<b>№</b>	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
1.			*	
2.				*
3.			*	
4.	*			
5.		*		
6.			*	
7.			*	
8.				*
9.		*		
10.	*			
11.				*
12.			*	
13.		*		
14.	*			
15.			*	
16.				*
17.			*	
18.	*			
19.		*		
20.	*			

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1.Годик М.А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок. М., 198.

2.Kerimov F.A. Kurash tushaman. T., 1990.

3.Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2001.

4.Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2005.

5.Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti. T., 2007

6.Петрунев А.А. и др. Подготовка квалифицированных борцов классического стиля. Красноярск, 1988.

7.Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Киев, 1997.

## **21-BOB. SPORT KURASHIDA TIKLANISH VOSITALARI**

### **21.1. Kurashchilar trenirovkasi jarayonida tiklanish vositalari**

#### **21.1.1. Turli tiklanish vositalarini qo'llash**

Trenirovka va tiklanish – o'zaro bog'langan yagona jarayondir. Mashqlanganlikning o'sib borishi va ish qobiliyatining ortishi faqatgina energetik sarflar tiklanish jarayonida qoplangan taqdiridagina mumkin bo'ladi. Tiklanish – bu faqatgina organizm funksiyalarini ish holatiga qaytarish emas, balki hayotni ta'minlash tizimini energetik imkoniyatlarning yanada yangi, yuqori darajasiga o'tkazishdir.

V.A. Geselevich (1978) ma'lumotlariga qaraganda, skelet mushaklarida glikogen va adenzintrifosfor kislotasining (ATF) dastlabki holatga nisbatan ortiqcha to'planishi yetakchi kurashchilar mushak ishida tiklanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Nagruzka og'irligiga qarab, glikogen va ATF ning ortiqcha to'planishi har xil muddatlarda sodir bo'ladi (maksimal shiddatdagi nagruzkadan so'ng 7–9 kungacha).

Sog'liqqa zarar yetkazmay, trenirovka jarayonini jadallashtirish faqat tiklanish tadbirlaridan (tibbiy-biologik, ruhiy, pedagogik) foydalanilgan taqdiridagina mumkin bo'ladi.

Bunda pedagogik vositalar asosiysi, yetakchi hisoblanadi, chunki aynan ular har bir sportchi rejimini va sportchilar ko'p yillik tayyorgarligining hamma bosqichlarida nagruzka hamda dam olishning oqilona uyg'unligini belgilab beradi.

#### **21.1.2. Tiklanishning pedagogik vositalari**

Tiklanishning pedagogik vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– trenirovkani oqilona rejalashtirish, nagruzkaning sportchi funksional imkoniyatlariga mos kelishi; jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlikning umumiy hamda maxsus vositalarining zarur uyg'unligi; trenirovka va musobaqa mikro-, mezo- va makrosikilarini oqilona tuzish, nagruzkalarning to'liqsimonligi va variantiligi, ixtisoslashmagan jismoniy nagruzkalar, ish va dam olishni to'g'ri uyg'unlashtirish, maxsus tiklanishi mikrosikllarini kiritish, o'rta tog' sharoitlaridagi trenirovkadan foydalanish;

– toliqishni tez qoldirish maqsadida zarur tiklanish vositalaridan foydalangan holda alohida trenirovka mashg'ulotini tuzish; to'laqonli alohida badan qizdirish va trenirovka vazifalariga muvofiq yakuniy

qism, mashg'ulotlar joyi, snaryadlarni to'g'ri tanlash, dam olish va bo'shshish uchun maxsus mashqlarni kiritish, ijobiy ematsional holatni yaratish va h.k.

### **21.1.3. Tiklanishning tibbiy-biologik vositalari**

Ushbu tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- salomatlikni baholash va hisobga olish; joriy funksional holat to'g'risida ekspress-nazorat tartibidagi axborot;
- biologik qiymati yuqori bo'lgan dori-darmonlar va mahsulotlardan foydalangan holda oqilona ovqatlanish;
- dopingga qarshi nazorat talablarini hisobga olgan holda farmakologik vositalar kompleksini qo'llash;
- fizioterapiya va balneologiya uslublari (sauna, massaj va boshqa muolajalar bilan birga);
- o'rtacha tog' sharoitlari, iqlimiy terapiya, sanatoriya-kurort uslublariidan foydalanish va h.k.

### **21.1.4. Farmakologik vositalar**

Sportchilar organizmida tiklanish vositalarini tezlashtirish omillaridan biri modda almashinuviga yo'naltirilgan ta'sir etish vositalari hisoblanadi. Bunga turli xildagi dori-darmonlar va komplekslar, ba'zi farmakologik bog'lanishlar, yuqori darajada biologik qiymatga ega mahsulotlardan foydalanish orqali erishiladi. Yuqori darajadagi biologik qiymatga ega mahsulotlar orasida eng muhim ahamiyatga egalari quyidagilar:

- energetik ta'sir etish dori-darmonlari (karnitinxlorid, panangin, glyutamin kislotasi, kalsiy-glitserofosfat, kalsiy-laktat, litsitin, aminolon);
- adaptogen dori-darmonlar (eleuterokkok, saparel, polli-tabas);
- qon hosil qiluvchi stimulyatorlar (turli tuzlar ko'rinishidagi temir).

Kimyoviy tarkibi va farmakologik ta'siriga ko'ra turlicha bo'lgan dori-darmonlar ma'lum bir tizimli yondashishni va ularni mutaxassis rahbarligi ostida oqilona qo'llashni taqazo etadi. Hozirgi paytda mutaxassislar turli farmakologik dori-darmonlarni "Aerovit", "Dekamevit", "Undivit" vitaminlari hamda yuqori biologik qiymatga ega mahsulotlar (oqsilli pechene, uglevodli-mineral ichimliklar va boshq.) bilan qo'shib foydalanish taktikasini ishlab chiqqanlar.

Dori-darmonlarni qo'llash taktikasi quyidagi muhim omillarga bog'liq holda quriladi:

Dori-darmonlarni trenirovka davrlari bo'yicha (o'tish, tayyorgarlik va musobaqa) va asosiy musobaqalarga bevosita tayyorgarlik davrida qo'llash.

Trenirovka mikrosikllarida vositalar kompleksini tayinlashning tamoyilli sxemasi.

O'rtacha tog' sharoitlarida tayyorgarlikning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish.

Nagruzka oshirilganda asosiy dori-darmonlar dozasi ko'paytirilishi nazarda tutiladigan alohida komplekslarni tanlash va qo'shimcha dori-darmonlarni kiritish hamda bitta vositalarni boshqasi bilan almashtirish.

Ma'lum bir tayyorgarlik bosqichida u yoki bu sportchi oldiga qo'yilgan maxsus pedagogik vazifalarni hal etish.

Sportchi yoshi va stajini hisobga olish.

Oldin qo'llanilgan dori-darmonlarga bo'lgan ta'sirni o'rganish.

Yuqorida aytib o'tilgan omillarga qarab, dori-darmonlarni muayyan holda qo'llash tegishli soha mutaxassislarini (vrachlar, fiziologlar, biokimyochilar va farmakologlar) qat'iy nazorati ostida o'tkazilishi lozim.

### **21.1.5. Uyquni me'yorlashtirish uchun vositalarni qo'llash**

Yuqori malakali kurashchilar o'rtasida o'tkazilgan anketa savol-javobi natijasida olingan ma'lumotlar hamda trenirovka jarayonidagi dinamik tadqiqotlar materiallariga ko'ra sportchilarning uyqusi buzilishi ko'p marta kuzatilgan. Katta va shiddatli nagruzkali trenirovka davrida uyqusizlik 35% kurashchilarda, vazn yo'qotish davrida – 59% kurashchilarda, emotsional-ruhiy zo'riqishda esa 67% hollarda kuzatiladi.

Uyqusizlikda uyqu holatiga qulaygina o'tish uchun quyidagicha tavsiyalar beriladi: kechki soatlarda asab tizimining qo'zg'aluvchanligini kamaytirish lozim. Buning uchun ochiq havoda tinch sayr qilish, uyqudan kamida 2–3 soat oldin kechiktirmay ovqatlanish lozim. Kechasiga achchiq choy ichishdan voz kechish zarur. Uyqudan oldin xonani shamollatish foydalidir. Eulay bo'lgan o'rinda uxlash tavsiya qilinadi. Iliq (issiq emas), iloji boricha archali ekstrat bilan tayyorlangan vanna yaxshi samara beradi. Bir qator hollarda



oyoqlarning sovuq qotishi uxlashga halaqit beradi. Bunday hollarda kechasiga paypoq kiyib yotish yoki oyoqlarga isitgich (gryelka) qo'yish zarur.

Ko'rsatib o'tilgan oddiy vositalar bilan bir qatorda medikamentoz dori-darmonlar, elektr uyqu, ruhiy boshqarish, ruhiy-mushak trenirovkasi va h.k. qo'llaniladi.

Uyquni me'yorlashtirish uchun quyidagi farmakologik dori-darmonlar qo'llaniladi:

Valeriana – gipotalamusga ta'sir ko'rsatuvchi yengil dori-darmonlarga kiradi. Vegetativ asab tizimi tashvishni oladi, salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Valokordin – yurak urishi bilan asabiylashish holatlarida qo'llaniladi. Startdan oldingi holatda foydalanish mumkin.

Turli uyqu dorilarining ta'sir ko'rsatishini kuchaytiruvchi vositalar, shuningdek uyqu beruvchi samaraga ega dori-darmonlar sifatida dimedrol, suprastin, tavegil va boshq. qo'llaniladi.

#### **21.1.6. Bellashuv o'rtasidagi tanaffusda massaj**

Agar trenirovka jarayonida sportchilar ish qobiliyatini tiklash tizimida umumiy massajning ta'siri avvaldan o'rganib kelingan va u keng tarqalgan bo'lsa, bevosita bellashuvlar o'rtasidagi tanaffusda ish qobiliyatini oshirish muammosi yetarlicha o'rganilmagan. Bu bellashuvning davom etish vaqti, bellashuvlar o'rtasidagi va bellashuvlardagi dam olish tanaffuslari davomiyligini tartibga soluvchi qoidalarning ko'p marta o'zgartirilishi bilan tushuntiriladi.

Qisqa dam olish ichida murakkab turnir vaziyati va ruhiy zo'riqish sharoitlarida sekundantlik qilish, ko'pincha esa birinchi tibbiy yordam ko'rsatish hamda tiklanishga ko'maklashish masalalarini hal etish lozim.

Bir qator mutaxassislar tomonidan (V.A. Geselevich, G.K. Bakushev, I.E. Davletshin) bellashuv tanaffusida quyidagi tiklanish tadbirlari sxemasi tavsiya qilinadi. Bellashuv davri tugagandan so'ng kurashchi stulga o'tiradi va unga suyanadi. Oyoqlar tekislanadi, bo'shashtiriladi, tovonlar polga (gilamga) tegib turadi.

Trener, massajchi yoki tayyorlangan sportchi qo'li bilan navbatmanavbat kurashchi oyoqlarini ko'tarib, yelkasiga joylashtiradi. Qo'llarni bo'shashtirishga esa ularga gorizontal holat berish bilan erishiladi.

Buning uchun massaj qiluvchi iloji boricha stolga yaqin kelib, tizzalarida turadi.

Faol va sust giperventilyatsiya hamda kurashchi yuzi va gavdasini ho'l sochiq bilan artishdan so'ng yuqori yelka kamaridan massaj qilishni boshlash lozim. Asosiy usullari – yarim aylanali, navbatma-navbat uqalash. Usullar ikki qo'llab bajariladi (qo'l kaftlari bir-biriga parallel joylashtiriladi va qarama-qarshi tomonga harakatlantiriladi). Shu usul ikki va uchboshli yelka mushaklarini massaj qilish uchun ham foydalaniladi.

Yelkani bukuvchi va yozuvchi mushaklar uchun uqalash usuli qo'llaniladi. Massajchi uni tik turgan holda ikkala qo'l kaftini parallel holda uzatib, qarama-qarshi tomonga harakatlantiradi.

Ishlagan mushaklarning zo'riqish (“shishib ketish”) darajasiga qarab, ko'ndalangiga bitta yoki ikkita qo'l bilan to'xtovsiz uqalash qo'llaniladi. Muayyan holda (bellashuv davrida) asosan nagruzkani ko'taradigan oyoq-qo'llarga (mushaklar guruhiga) yengil massaj qo'laniladi. Yuzaki silashdan so'ng chuqur qamrovchi silashni bajarish mumkin. Oyoq-qo'llar sezilarli darajada shishgan va mushaklar zo'riqqan paytda hamda vaqt yetarli bo'lsa, yelka yana bir bor uqalanadi. Uqalashdan so'ng siltash bajariladi.

Yelkani bukuvchilar va yozuvchilar mushaklar ko'proq shishadi. Bu ko'pincha keskin og'riqlar va kuch imkoniyatlari hamda ish qobiliyatining susayishi bilan kuzatiladi. Ushbu holat kurashchilarda birinchi bellashuvdan so'ng, ayniqsa, ko'proq vaznni yo'qotish paytida hamda suv-tuz almashinuvi buzilganda, kam harakatli bellashuvlarda, ushlab olish uchun kurashishda yuzaga keladi.

Qo'llarni massaj qilishdan so'ng (vaqt yetarli bo'lgan taqdirda) bo'yinni massaj qilish usullari bajariladi. Massaj qiluvchi kurashchi o'tirgan stul orqasida turib, qo'llarini olmasdan ensa va bo'yin yuzasini yelka usti tomon shoshilmay silaydi (2–3 usul).

Keyin o'pkalarning sustgina giperventilyatsiyasi bajariladi. Stul orqasida turgan holda massaj qiluvchi bo'shashtirilgan ikkala qo'llarni tirsaklaridan ushlab, ularni yuqoriga ko'taradi (“nafas ol” deb) va pastga tushiradi (“nafas chiqar” deb).

Oyoqlarni massaj qilish tanaffuslarda kamdan-kam bajariladi. Alohida hollarda uqalash va siltash usullari qo'llaniladi. Bellashuv tanaffusidagi massaj juda nozik va murakkab ishdir. U massaj

qilayotgan shaxsdan katta bilim, har tomonlama tayyorgarlik va muntazam ijod qilishni taqazo etadi.

Tiklanish tadbirlarining samaradorligi ikkita massajchining o'zaro kelishilgan ishi bilan kuchaytirilishi mumkin. Trener-sekundant ikkinchi massajchi bo'lishi mumkin. U bir vaqtning o'zida tegishli ruhiy terapiyani olib boradi, bellashuvning keyingi taktikasi to'g'risida ko'rsatmalar beradi va h.k.

#### **21.1.7. FunkSIONAL musiqa tiklanish vositasi sifatida**

Funksional musiqa kurashchilarning emotsional doirasi hamda ish qobiliyatiga ta'sir etish uslublaridan biri hisoblanadi.

Funksional musiqa sport faoliyatida turli sharoitlarda qo'llaniladi hamda kutib olish, hosil qilish, yetakchi, tinchlashtirish va kuzatish turlariga ajratiladi (Yu.G. Kadjaspirov, 1976). Tiklanish maqsadida asosan yoqimli va past ohangdagi tinchlantiruvchi musiqa, qushlar kuyi, dengiz yoki irmoq shovqini, barglarning, yomg'irning shitirlashini bildiruvchi tovushlar hamda boshqa maromli ohanglar qo'llaniladi.

Tinchlantiruvchi musiqa emotsional zo'riqishni kamaytiradi, toliqishni yumshatadi, sportchilar diqqatini chalg'itadi. Bu past musiqa tiklanish maqsadida kurash zalida va boshqa dam olish xonalarida yangrashi mumkin. Maromli (ritmik) musiqa ostida bo'shshish va turli xil nafas olish mashqlarini o'tkazish mumkin. Shaxsiy magnitofonga yozib olingan yoki mahalliy radio – tarmoq orqali uzatilayotgan tinchlantiruvchi musiqa alohida quloqliklar yordamida kunduzgi dam olish paytida, kechki uyqudan oldin, trenirovka mashg'ulotlari o'rtasida sportchilar o'rtnashgan joyda qayta eshittirilishi mumkin. Uni ruhiy boshqarish va ruhiy mushak trenirovkasi, ruhiy terapiya bilan birga qo'shib olib borish ham mumkin.

#### **21.1.8. Tiklanishning ruhiy-pedagogik vositalari**

Har bir trener yetarli darajada psixolog bo'lishi, sportchilar fikri va hissiyotlarini tushunish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda zo'riqishli trenirovka jarayoni, musobaqa faoliyati sharoitlarida ularning holatini boshqara olishi lozim.

Sportchilarning ruhiy holati va faoliyatini yuqori darajada boshqarish uchun so'z katta ta'sir ko'rsatadi. Faqatgina so'zdan to'g'ri foydalanilgandagina va har bir sportchiga alohida yondashilgan taqdirdagina, trener-kurashchi tizimi muvaffaqiyatli amal qilish

mumkin. Kurashchi ushbu tizimning asosi hisoblanadi. Trener tomonidan amalga oshiriladigan boshqarishning ruhiy-pedagogik vositalarini ko'rib chiqayotib, shu narsani ko'ramizki, ularning asosiylari quyidagilardan iboratdir: ishonitirish, tushuntirish va singdirish. Ruhiy terapiya sifatida tetik holatda ularni qo'llash, birinchi navbatda, trener, vrach, psixolog, rahbarning so'z orqali ta'sir etishini nazarda tutadi. Ularning so'zlari bevosita ikkinchi signal tizimiga va shu orqali u yoki bu somatik mexanizmlarga ta'sir qiladi.

So'z orqali ta'sir ko'rsatishni qo'llayotib, kurashchining yuqori asab tizimi tipini hisobga olish lozim. Fikrlovchi sportchilarga mantiqiy tushuntirish ko'proq to'g'ri keladi, badiiy tipdagi kurashchilarga singdirish katta ta'sir ko'rsatadi.

Sportchiga so'z orqali ta'sir ko'rsatishni qo'llayotib, pedagogik va sport axloqi masalalariga alohida e'tibor berish lozim. U jamoa rahbariyati, trenerlar, boshqa mutaxassislar hamda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning trenirovka jarayoni samaradorligini oshiradigan, hamma omillardan maksimal foydalanishga qaratilgan hatti-harakatlarning yuksak ma'naviy tamoyillaridan iborat. Ruhiy boshqarish trenirovkasi (RTB) va ruhiy mushak trenirovkasi (RMT) ko'rinishidagi autogen trenirovka (AT) o'z-o'zini boshqarishning ruhiy uslublari orasida eng keng tarqalgan hisoblanadi. Autogen trenirovkaning eng oddiy va samarali varianti – bu ruhiy mushak trenirovkasi, uning tinchlantiruvchi qismidir. Tinchlantiruvchi qismining asosiy tavsiyasi – tetiklik darajasini pasaytirish – bo'shashtirish (relaksatsiya) hamda kurashchining jismoniy va ma'naviy kuchini tiklashdir. Tinchlantiruvchi qismdan tashqari RMT faollashtiruvchi (safariy etuvchi) qismga ega. Uning maqsadi kurashchining zarur daqiqada optimal jang qilish holatini egallashiga qaratilgan.

Turli tayyorgarlik davrlarida ruhiy-pedagogik vositalar hamda tiklanish uslublarini qo'llash har xil vazifalarni hal etadi.

Tayyorgarlik davrida quyidagi vazifalar hal etiladi: dam olish va hordiq chiqarishni tashkil qilish, RMT ning jamoali seanslari, ruhiy terapevtik suhbatlar va h.k.

Kurashchilar dam olishi va hordiq chiqarishini rejalashtirish trenirovka nagruzkalari dinamikasi hamda madaniy-ommaviy, ijtimoiy-siyosiy va ruhiy terapevtik tadbirlar kompleksini o'tkazish bilan bog'lanishi lozim.

RMT ning jamoali seanslari musobaqalarga tayyorlashda katta samaradorlikka ega. Ular psixolog va trener rahbarligida sport zalida mashg'ulotlar o'rtasidagi tanaffuslarda o'tkaziladi. Ular trenirovka jarayonidagi emotsional zo'riqishni bartaraf etish va tiklanish uchun qo'llaniladi. Shuningdek bevosita trenirovka tugashi bilan to'g'ridan-to'g'ri kurash gilamida tiklovchi uyqu – dam olish qo'llanilishi mumkin. RMT seansida 10 minutlik dam olish – uyqudan so'ng yurak qisqarishi tezligi 43% ga pasayadi va emotsional zo'riqish ko'rsatkichi (dastlabki natijalarga nisbatan) 2,8-marta kamayadi. Bu tiklanish davrining o'ta tezlashganligi hamda jadallashganligini ko'rsatadi, bu esa bir kunda 2 va 3-marta bo'ladigan trenirovkalarda juda muhimdir.

Uxlash oldidan alohida va guruh bilan suhbatlashishlarni o'tkazish yuqori ruhiy terapevtik samara beradi. U RMT ning tinchlantiruvchi qismi bilan yakunlanadi.

Suhbatlar mavzusi tayyorgarlik bosqichi va sportchilar holatiga qarab tanlanadi.

Psixolog, trener va vrach suhbat jarayonida "ruhiy kuzatuvchanlik" dan foydalangan holda o'z qarashlarini shakllantiradilar, uning yordamida muayyan kurashchining asab-ruhiy holati to'g'risida kundalik axborot oladilar.

Kurashchilarni ishontirayotib, ularning hatti-harakatlari va tashvishlanishlarining ba'zi tomonlarini asoslangan holda tanqid qilish lozim. Bunda kurashchilarda ijobiy hissiyotlar o'z ahvolini yaxshilash hamda yuqori natijaga erishishga bo'lgan ishonch sababli paydo buladi.

Trener va vrachning yana eng muhim vazifasi kurashchilarning shaxsiy, ijtimoiy va sport faoliyatidagi, to'qnashuvli vaziyatlardagi munosabatlarni me'yorlashtirish hamda yumshatish hisobalandi.

Ruhiy-pedagogik uslublar fizioterapevtik ta'sir etish, massaj, sauna bilan musiqa jo'rligida kompleks holda qo'llanilganda, ularning tiklash ta'siri ancha kuchayadi.

Tashkiliy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ommaviy tadbirlar kurashchilar ruhiyatiga katta tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Bevosita mas'uliyatili musobaqalar oldidan vazifalarni qo'yish, ko'rsatmalar berish maqsadida tashkiliy yig'ilishlarni o'tkazish o'zini oqlamaydi. Ko'rsatma berish maqsadida o'tkaziladigan bunday yig'ilishlar o'quv-trenirovka yig'ini boshida o'tkazilishi lozim. Turnir yaqinlashgan sari bunday tadbirlar yanada ruhiy profilaktik xususiyatga ega bo'lishi,

kurashchining energiyasi va asab imkoniyatlari to'planishiga yordam berishi lozim.

Ruhiy zo'riqishni bartaraf etish uchun kurashchilarning o'zlari tayyorlagan badiiy havaskorlik konsertlari katta ahamiyat kasb etadi. Bu jamoa a'zolarining o'z-o'zini ijodiy ifodalashga va jamoadagi hissiyotli yetakchi sportchini aniqlashga, qulay ruhiy muhitni shakllantirishga yordam beradi.

Musobaqa davrida asosiy vazifalar ruhiy zo'riqishni oldini olish bilan bog'liq. Tinch trenirovka vaziyatini yaratish va ortiqcha emotsional qo'zg'aluvchanlikni yo'qotish uchun musobaqalarga bevosita tayyorgarlik davrida quyidagi tashkiliy tadbirlar muhim ahamiyatga ega:

Bir-biriga raqib bo'lgan, bir xil vazn toifasida qatnashadigan, katta vazni yo'qotayotgan sportchilarni bitta xonada joylashtirmaslik lozim. Ajratib joylashtirish masalalarini shaxsiy o'zaro munosabatlar, ruhiy jihatdan mos kelish xususiyatlarni hisobga olgan holda hal etish lozim.

Yuqori miqyosdagi musobaqalarda ishtirok etish uchun asosiy tarkibni aniqlash bo'yicha masalalarni o'z vaqtida hal etish zarur. Musobaqalarga bevosita tayyorgarlik bosqichi boshida saralashni yakunlash va asosiy hamda zaxiradagi qatnashchilarni rasman e'lon qilish lozim. hammaga ma'lum bo'lishi lozimki, nomzod favqulodda hollarda (asosiy kurashchining kasal bo'lishi, jarohat olishi yoki mashqlanganlik darajasining ancha yomonlashuvi) asosiy tarkibga kirishga tayyor turishi zarur.

Ushbu bosqichda tez-tez saralash va nazorat bellashuvlarini o'tkazish nafaqat rejali tayyorgarlikni buzadi, balki kurashchilarga oldinda turgan turnirga energiyani to'plashga imkon bermaydi, bir-biri bilan raqobatlashish natijasida ularning asab-emotsional shashti bekoraga sarflanadi.

Saralashni ancha oldin muddatlarda o'tkazish to'g'riroqdir. Musobaqalarga bevosita tayyorgarlik bosqichida qiyin turnirga tayyorlanayotgan kurashchilarning asab energiyasini saqlash maqsadga muvofiqdir. Yirik musobaqalarga yaqinlashtirishning shunga o'xshash tamoyili zaxirada turgan yoshlar uchun foydalidir. Ma'lumki, asosiy tarkibga kiritilmaganligidan xabardor bo'lgan sparring-sheriklar o'zlari va o'rtoqlariga trenirovkada katta foyda keltiradilar. Chunki ular bir narsadan qo'rqishmaydiki, ularning faol hujum harakatlari, tajribali kombinatsiyalari, tavakkalchiligi mag'lubiyat ballari bilan jazolan-

maydi. Trenerlar bu ballarni kurashchi foydasiga hal etmasliklari mumkin. Aks holda har bir trenirovka keskin musobaqaga aylanadi va asab energiyasining sarflanishiga olib keladi.

Birinchi musobaqa bellashuvi oldidan kurashchilarning asab energiyasini saqlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Mutaxassislarning kuzatishicha, kurashchilar turnirning birinchi kunida ruhiy zo'riqish birinchi bellashuvga chiqishdan ancha oldin start oldi talvasasi darajasiga yetadi. Ko'pincha bu tortilish paytida kuzatiladi, qur'a tashlagandan so'ng yoki musobaqa o'tkaziladigan joyga yetib kelish bilan kuchayadi.

Musobaqalarning birinchi kunida ruhiy-pedagogik vositalarning asosiy vazifasi kurashchilarning asab energiyasini saqlash hisoblanadi. Buning uchun ham jamoali, ham alohida boshqarish vositalaridan foydalanish lozim.

Mohirlik bilan sekundantlik qilish ham katta ahamiyatga ega. Sekundantlik qilish san'ati kurashchini o'ta ehtiyotkorlik bilan boshqarish maqsadida uning ruhiy holatini tushunish va sezgirlik bilan diagnostika qilishdan iborat. Shuni hisobga olish lozimki, ba'zi kurashchilar sekundantlarga muhtoj emaslar va ularda bellashuvning borishi to'g'risida o'z fikrlari mavjud. Ba'zan bir qator kurashchilarda mazkur trenerga moslashmaslik va unga ishonqirmaslik hosil bo'ladi. Sekundantlik qilishning asosiy qoidasi – kurashchiga bellashuv paytida mustaqil fikrlashga imkoniyat berish, o'ta ruhiy zo'riqish yukini bartaraf etish, agar kerak bo'lsa, sportchini qo'zg'alishga yo'naltirishdir. Tanaffus paytida birinchi navbatda kurashchini tinchlantirish lozim va shundan so'ng, ya'ni uning holati me'yorlasha boshlagandan keyin oldinda turgan davrga aniq va qisqa ko'rsatma berish lozim. Bunda sportchining alohida xususiyatlari, uning holati hamda bellashuv davomida yuzaga keladigan vaziyatni hisobga olish zarur.

Shuni nazarda tutish lozimki, har bir kishi ham trener-sekundant bo'la olmaydi. Bu ishda yuksak darajadagi sport madaniyati, tajriba va bilim, hotirjam, o'zini tuta olish, fikrlay olish, turnir bellashuvlaridagi murakkab vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'ymaslik, start talvasasiga tushmaslik katta ahamiyatga ega. Sekundant shu narsani aniq bilishi lozimki, "birovni boshqarishni bilish uchun birinchi navbatda o'zini boshqarishni bilish zarur". Buning uchun tayyorgarlik va musobaqalarni o'tkazish jarayonida sekundantlik qilishga tayyor-

lanayotgan trener ruhiy o'z-o'zini boshqarish vositalaridan foydalanishi hamda psixolog va vrach nazorati ostida bo'lishi kerak.

### **O'z-o'zini tekshirish uchun test savollari**

**1.Sportchilarning tiklanish muammolarini hal qilish nima uchun zarur?**

- a. toliqish va zo'riqishga olib kelmaslik uchun
- b. mashg'ulot nagruzkalari shiddatini va hajmini ko'tarish jarayonlarini me'yorida tashkillashtirish uchun
- c. musobaqalarda uning chiqish tajribasini hisobga uchun
- d. a, b javoblar.

**2.Sportchi organizmi diagnostikasining natijalari nimani o'tkazishga yo'l beradi?**

- a. yaxshi darajadagi texnik tayyorgarlikni
- b. mashg'ulot jarayonini tuzishning har xil qatlamlarini samarali rejalashtirishga

- c. sportchi fikrlash darajasini ko'tarishga
- d. a, c javoblar.

**3.Sportchi organizmi toliqishining birinchi alomatlarini ayting.**

- a. b, c javoblar
- b. ishning tejamkorligining pasayishi, mushak ichi va mushak orasi koordinatsiyasining yomonlashishi

- c. harakatning koordinatsion tuzilmasida sezilarli o'zgarishlar
- d. nafas olishda qiyinalish, puls tezligining oshishi.

**4.“Mushak toliqishi” tushunchasiga tavsif bering.**

- a. kuch sifatlarining pasayishi
- b. chidamlilikning pasayishi
- c. bu sportchi organizmning shunday holatki, unda uning ish qobiliyati vaqtincha pasayadi
- d. sportchining har bir mushagi bukilmaydi va yozilmaydi.

**5.Toliqishning klinik ko'rinishi qanday tasniflanadi?**

- a. yengil toliqish va zo'riqish
- b. o'tkir toliqish
- c. o'ta zo'riqish, o'ta mashqlanganlik o'ta toliqish
- d. a, b, c javoblar.



**6. Mashg'ulot va musobaqa nagruzkalariga sportchi organizmining adaptatsiya jarayonlarida tibbiy nazoratning qanday turlari qo'llaniladi?**

a. b, c, d javoblar

b. chuqurlashtirilgan va bosqichli majmuaviy ko'rik (ChMK), (BMK)

c. joriy ko'rik (JK)

d. musobaqa faoliyatini ko'rikdan o'tkazish (MFK).

**7. Joriy ko'rikdan o'tkazish vazifalarini ko'rsating (joriy ko'rik JK).**

a. antropometrik ko'rsatkichlarni nazorat qilish

b. sportchi holatidagi kundalik (joriy) o'zgarishlarni aniqlash

c. qo'llanilayotgan nagruzkalarni kuzatish

d. sportchining psixodinamik turg'unligini kuzatish.

**8. Bosqichli, majmuaviy ko'rikni o'tkazishda qanday ko'rsatmalar belgilanadi?**

a. sportchi tayyorgarligining bosqichlarini o'tkazishni nazora qilish

b. sportchining harakat qobiliyatlarini baholash

c. sportchi tayyorgarligini bosqichli holatini baholash (permanen holatini) (aniq sikl yoki mezosikl va tayyorgarlikdan keyin)

d. a, b javoblar.

**9. Chuqurlashtirilgan (tibbiy) majmuaviy ko'rikda sportchilarning qaysi parametrlari tekshiriladi?**

a. anamnez, vrach ko'rigi

b. antropometrik ko'rik va vrachning maslahati

c. funksional-diagnostik tekshirish

d. a, b, c javoblar.

**10. Sport kurashida tiklanish vositalari qanday guruhlarga ajratiladi?**

a. tashkiliy va uslubiy

b. pedagogik, tibbiy-biologik, psixologik, ijtimoiy

c. aqliy va amaliy

d. a, c javoblar.

**11. Sport kurashida tiklanishning pedagogik vositalarini ko'rsating.**

a. sportchi organizmi funksional imkoniyatlariga qarab mashg'ulo jarayonini samarali rejalashtirish

b. a, c, d javoblar

c. mashg'ulot jarayoni tuzilmasida har xil tiklanish vositalarini qo'llash bilan har xil faol dam olish shakllarini qo'llash va rejalashtirish tizimini ishlab chiqarish

d. sportchi ish qobiliyatini tezroq tiklash maqsadida maxsus jismoniy mashnlarni ishlab chiqarish, to'liq chigil yozish.

**12. Mashg'ulot oldidan chigil yozishning asosiy maqsadini ko'rsating.**

a. MNT (markaziy nerv tizimi)ning optimal uyg'onishiga erishish

b. nisbatan shiddatliroq mushak faoliyatini bajarish uchun fiziologik funksiyalarni mobilizatsiyalash (jamlashtirish)

c. mashg'ulot va musobaqa oldidan mushak-pay apparatini ishlatish

d. a, b, c javoblar.

**13. Mashg'ulot nagruzkasining asosiy tavsifini ko'rsating.**

a. hajm va shiddat

b. ko'tarilgan anjomlar og'irligi va yugurib o'tilgan masofa hajmi yoki suzib o'tilgan masofa

c. ixtisoslashtirilganligi, yo'nalishi, hajmi va koordinatsion murakkabligi

d. a, b, c javoblar.

**14. Nagruzka hajmi deb nimaga aytiladi?**

a. mashqlarni bajarish vaqti

b. bajarilgan mashqlar soni

c. sportchi organizmiga mashqlarni mashg'ulotdagi ta'sirining son jihatdan o'lchami

d. hajm kengligi va mashqni bajarish jarayonidagi sharoitlar.

**15. Nagruzkaning ixtisoslashganligi deb nimaga aytiladi?**

a. ma'lum mashg'ulot vositalarining musobaqa mashqlari bilan o'xshashligi

b. texnik-taktik va musobaqa harakatlari

c. kurashchilarning musobaqa bellashuvlari

d. v, c javoblar.

**16. Sport mashg'ulotlariga adaptatsiya deb nimaga aytiladi?**

a. sportchining mashqni bajarishga yo'naltirish

b. shiddatli ishdan keyin tezroq tiklanishni bilish

c. jismoniy nagruzkani bajarishga odam organizmining reaksiyasi

d. sport organizmining funksional imkoniyat zaxirasi.

**17. Tiklanishning tibbiy-biologik vositalar tarkibini aytib bering.**

- a. ratsional ovqatlanish, farmakologik preparatlar, vitaminlar
- b. oqsilli preparatlar, maxsus tiklantiruvchi ichimliklar
- c. massaj, fizioterapiya, hammom, adaptogenlar, me'yoridagi uyqu, rangli musiqa
- d. a, b, c javoblar.

**18. Tiklanishning psixologik vositalar tarkibini aytib bering.**

- a. psixoterapiya, psixoprofilaktika va psixogigiya
- b. sportchilar bilan suhbatlashish va ularning hayajonlanishini yo'qotish
- c. gipnoz va ishontirish seanslarini o'tkazish
- d. b, c javoblar.

**19. Psixoterapiya tarkibiga nimalar kiradi?**

- a. sportchining aqliy qobiliyatlariga ta'sir etish
- b. qiyinchiliklar va og'ir holat paytlaridan sportchini chalg'itish
- c. ishontirish, uyqu, dam olish, mushaklarni tiklantirish, maxsus nafas olish mashqlari
- d. stress holatlarining ta'sirini kamaytirish.

**20. Psixoprofilaktika tarkibiga nimalar kiradi?**

- a. oldinda turgan musobaqaga sportchini tayyorlash
- b. shaxsiy va jamoaviy psixologik yo'naltiruvchi mashg'ulot
- c. sportchi shaxsining asosiy qir'alarini aniqlashtirish
- d. sportchi motivatsiyasiga psixologik ta'sir etish.

**21. Psixogigiya tarkibiga nimalar kiradi?**

- a. har xil dam olishlar, salbiy emotsional holatni pasaytirish
- b. ijtimoiy sharoitning qulayligi
- c. a, b javoblar
- d. asab-nerv tarangligini pasaytirish.

**22. Toliqish diagnostikasini va sportchi organizmining tiklanishini baholash uchun qanday usublardan foydalaniladi?**

- a. yurak-qon tomir tizimi va tashqi nafas olish apparati parametrlarining tahlili
- b. mushak-nerv apparati va sportchi psixologik holatini parametrlarining tahlili
- c. tekshirishning bioximik usublari
- d. a, b, c javoblar.

### O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollarining kaliti

№	A	B	C	D
1.				*
2.		*		
3.	*			
4.			*	
5.				*
6.	*			
7.		*		
8.			*	
9.				*
10.				*
11.		*		
12.				*
13.			*	
14.			*	
15.	*			
16.			*	
17.				*
18.	*			
19.			*	
20.		*		
21.			*	
22.				*

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Волков В.М. Восстановительные процессы в спорте. М., 1977.
2. Волков Н.И. и др. Биомеханика мышечной деятельности. Киев, 2000.
3. Иванков Ч.Т. Теоретические основы методики физического воспитания. М., 2000.
4. Линдеман Х. Аутогенная тренировка. М., 1980.
5. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Киев, 1997.
6. Уилмор Д.Х., Костилл Д.Л. Физиология спорта и двигательной активности. Киев, 1997.

## 22-BOB. SPORT KURASHIDA MODELLASHTIRISH

### 22.1.SPORDA MODELLASHTIRISH

#### 22.1.1. Umumiy qoidalar

Mashg'ulot jarayonini samarali boshqarish, unda har xil modellarni qo'llash bilan bog'liq. Model so'zi namuna (standart, etalon) sifatida ishlatiladi. Keng ma'noda esa, biror ob'yekt jarayonining yoki hodisaning namunasi (hayoliy va shartli) tushuniladi. "Model" so'zini izohlaganda ilmiy-metodik adabiyotlarda ham, sportda ham bir xil ma'noni anglatadi.

Model bu alohida sport turida egallagan sport mahorati yutuqlari natijasining yig'indisidir. Modelni ishlatish va qayta ishlash natijasida modellashtirish jarayoni quriladi.

Sportga tayyorgarlik jarayonida va bellashuvlarda qatnashish model xarakterini o'rganishga, aniqlashga, ishlatishga yordam beradi.

Modellashtirish-tashkilotchilikda muhim omil sifatida, sportchi tayyorgarligini rejalashtirishda, istalgan darajadagi yutuqlarga erishishga imkoniyatlar yaratishda, berilgan vazifalarni to'g'ri yechishda, mashqlarda foydali vositalarni to'g'ri ishlatishda muhim ahamiyatga ega.

"Model" va "modellashtirish" – terminlari sport nazariyasida hamda amaliyotida muhim o'rin egallaydi. Masalan, ilmiy-uslubiy adabiyotlarda, sport haqidagi maqolalarda bu termin 60–70 yillarga nisbatan deyarli 20-marta ko'p ishlatiladi.

Modellashtirish ilmiy-amaliy usul sifatida zamonaviy nazariyada va sport amaliyotida keng tarqalganligini guvohi bo'lamiz. Modellashtirishning nazariy va amaliy sportdagi yechishi kerak bo'lgan vazifalari turli xarakterga ega.

**Birinchidan.** Modellar ob'yektning o'rmini bosuvchi sifatida ishlatiladi, ya'ni modelni o'rganish orqali ob'yekt haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Model ustida tajriba o'tkazilganda, modelni tuzilishi va vazifalarini aks ettiruvchi yangi bilimlar olishga muvaffaq bo'linadi.

Model bilimlarini tekshirilgandan so'ng olingan nazariy tasavvurlar mazmunining nuqtai nazaridan, model ob'yekt nazariyasining asosiy qismi bo'lib qoladi. Hayvonlarning muskul to'qimasini odatdagi sharoitda va kuchli mashqlardan keyingi holatini tekshirish natijasi ko'rilganda, hayvon to'qimalari bilan odam to'qimalari tizimi o'zaro o'xshashligi kuzatildi. Bu esa sport

nazariyasida tanlash va orientatsiya qilish, kuchlilik, tezlilik sifatlarini rivojlantirish, chidamlilik kabi xususiyatlar egallanadi. Bu modeldan olingan ishlar natijasi nazariy tasavvur qilinadi va oxirgi yillarda odamlardagi biopsixologik tadqiqotlari qo‘shimcha tekshirishlar orqali aniqlanmoqda.

**Ikkinchidan.** Empirik bilimlarni umumlashtirish uchun ishlatiladi, ya’ni sport sohasidagi turli jarayonlar va hodisalarni qonunchilik aloqalari tushuniladi. Empirik bilimlar model tasavvurida qayta ishlangan va amalga oshgan, umumlashgan nazariyaga mos keladigan holatlarni yaratadi.

**Uchinchidan.** Model sport amaliyoti sohasida tajriba o‘tkazilayotgan ilmiy ishlarga katta ta’sir o‘tkazadi. Bunda modelning nazariy bilimlar olish uchun tahlili muhim emas, balki amaliyotda amalga oshirish muhim. Morfofunktsional modelning ko‘p sonli roli, sport saralashlarida, orientatsiyada, model tayyorgarligida va musobaqa faoliyatidagi mashq jarayonlarida o‘ynaydi. Sportda ishlatilayotgan model ikkita asosiy guruhga bo‘linadi.

#### **Birinchi guruh.**

- 1) musobaqa faoliyati tizimini xarakterlovchi model;
- 2) sportchining har tomonlama tayyorgarligini xarakterlovchi model;
- 3) morfofunktsional model, organizmning morfologik tomonlarini aks ettiruvchi, alohida tizim imkoniyatlarining vazifasidagi, sport mahoratida erishilgan darajalarni ta’minlaydi.

#### **Ikkinchi guruh.**

1) sport mahoratida dinamikni tashkil topishi, ko‘p yillik sikldagi tayyorgarligi, bir yillik mashq mobaynida va makrosiklda model davomiyligini aks etishi;

2) mashqlar jarayonidagi ko‘p yillik tayyorgarlikda, mikrosiklda, bosqichlarda yirik tizimli modelning tuzilishi;

3) mashq bosqichlarida, mezo va mikrosikldagi model;

4) mashg‘ulotlardagi mashq modeli va ularning qismlari;

5) alohida turdagi mashg‘ulot mashqlarining modeli va ularning majmuasi.

#### **Modellashtirish jarayonida kerak bo‘ladiganlar:**

1) Kundalik, bosqichli kontrol, boshqaruv bilan mashq jarayonidagi turli tizimlarni tuzilishini model vazifalariga bog‘lagan holda amalga oshirish;

2) Modelga qo‘shilgan parametrlar soni, alohida parametrlarning xarakterini o‘zaro bog‘liqligini model darajalarida aniqlash;

3) Qo‘llanilayotgan model harakat vaqtini, uning qo‘llanish chegarasini, tartib vaqtini, ishni tugatishini va almashtirishni aniqlash (Shustin, 1985–1995; Platonov 1986–1987).

Modellarni umumlashtirish ob‘yekt yoki jarayon xarakterini aks ettirib, bir xil jinsdagi sportchilarning katta guruhini yoshini va kvalifikatsiyasini, shug‘ullanayotgan sport turini tadqiq qilish natijasida aniqlangan. Yugurish, suzish, qo‘l to‘pi, basketbol, tog‘ chang‘i sporti, futbol kabi sport turlari bu modellarga tegishli bo‘ladi.

Modellarni guruhlashda sportchilar yoki jamoalarning biror sport turida qatnashishi hisobga olinadi va ularning yig‘indisi asosida o‘rganiladi. Masalan: tezlilik-kuchlilik potentsiyalini yuqoriligi bilan va chidamliligini kamligi bilan farq qiluvchi shaybali xokkeydagi “beshtalik”ning harakatini, musobaqa faoliyatidagi kurashchilar yoki suzuvchilarni texnik-taktik modelini olishimiz mumkin. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, turli sport turlarida yuqori natijalarga erishayotgan sportchilar bir necha mustaqil guruhlarga bo‘linishi mumkin. Musobaqa faoliyati va tayyorgarliklar bu guruhlarni o‘zaro birlashtirib turadi.

Masalan: suzuvchilar, eshkak eshuvchilar, yuguruvchilar o‘rta masofada 3 ta asosiy guruhlarga bo‘linadi:

1) sportchilar o‘zlarining tezlilik-kuchlilik qobiliyatlari hisobiga yuqori natijalarga erishadilar;

2) sportchilar o‘zlarining chidamlilik qobiliyati asosida yuqori natijalarga erishadilar;

3) sportchilar tayyorgarligi teng emasligi bilan farqlanadi (Platonov, 1992).

Musobaqa faoliyatining tizimlarini o‘rganish natijasida mashhur kurashchilar quyidagilarga bo‘linadi:

– sportchilar to‘qnashuvning birinchi yarmida o‘zlarining kuchlilik-tezlilik qobiliyatlari bilan yuqori natijalarga erishadilar;

– sportchi tayyorgarligining har tomonlama tengligi;

– sportchilar to‘qnashuvining oxirida o‘zlarining chidamliligi bilan yuqori natijalarga erishish;

– sportchilarning uncha katta bo‘lmagan jismoniy tayyorgarligi bilan yuqori natijalarga erishish.

Sportchining har tomonlama ixtisoslashgan tayyorgarligi, masalan: ko'p yillar davomida, zamonaviy sportning besh turini har xil destiplinada egallagan imkoniyat darajalarini o'sishiga shu sport turlari imkoniyat yaratib beradi. Ko'p yillik yutuqlarning uchinchi bosqichida (besh yillik mashg'ulotdan so'ng) sportchi ko'rinarli darajada o'sadi va o'ziga kerakli sport turini aniqlaydi. Bu esa kelgusi sport faoliyatiga muhim zamin yaratadi. Effektlili mashg'ulotlarning va bellashuv faoliyatining talablariga ko'ra, sportning besh turi bilan shug'ullanuvchi sportchilar individual moslashish imkoniyatlariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

– muvofiqlashgan layoqatning rivojlanish afzalliklari shundaki, qilichbozlik, otish, ot sporti kabi sportning turlarida yuqori natijalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lindi;

– chidamlilik sifati oshishi tufayli, suzish va yugurish kabi sport turlarida yuqori natijalarga erishildi;

– muvofiqlashgan layoqat rivojlanish va chidamlilikni teng baholagani uchun suzishda va yugurishda yuqori natijalar qo'lga kiritildi;

– o'rta darajada rivojlangan teng taqsimlangan maxsus jismoniy sifatlar sportning besh turida teng qatnashishini tasdiqlaydi (Platonov, 1988)

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu guruhlariga kirgan oliy darajadagi sportchi yirik bellashuvlarda yuqori natijalarni qo'lga kiritish imkoniyati bor. Xuddi shu holatni sportning ko'p kurashlilik turini o'ziga ixtisoslashtirgan sportchilarning bellashuv vazifalariga uzoq vaqt ko'nikishida shakllanishini ko'ramiz.

Masalan, yengil atletikaning 10 ta turi bilan qatnashuvchilar.

Bu yerda yuqori natijalarga erishuvchi sportchilarning tengma-teng tayyorlanishi va musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishi hisobiga, alohida turlarda erishgan natijalariga, iqtidoriga qarab guruhlariga ajratiladi. Yugurish va sakrash yoki uloqtirish kabi turlarda yuqori natijalarni ko'rsatish ko'p kurashni guruhlariga ajratadi. Hattoki, jahon rekordchisi, ikki karra olimpiada chempioni D.Tompson ko'p kurashning hamma turida yuqori natijalarga erishgan bo'lsa ham tayyorgarligida nomutanosiblik sezilib qolgan.

Masalan, U XXII Olimpiada o'yinlarida 100 m ga yugurish turida 10.44 s, 400 m ga yugurishda 46–56, uzunlikka, balandlikka shestdan sakrashda 8.01, 203, 500 m natijalarni qo'lga kiritdi. Bu natijalar ko'p



kurashning alohida turlarida oliy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shu bilan birga D.Tompsonning yadro irg'itish, nayza otishda yuqori natijalarga erishishi birmuncha pasayib ketdi, ya'ni 15.72 va 66–24 *m*. Ko'p kurashning natijalari bo'yicha esa 19–17 va 82–14 *m* ni tashkil qiladi.

Sport amaliyotida modelning uchala darajasini qo'llanishi kuzatiladi. Yuqori darajadagi model sport tayyorgarligining va bel-lashuvlarda qatnashishini umumiy yo'nalishini ta'minlaydi. Sportchining musobaqa faoliyatida va mashg'ulotlar boshqaruviga zamin yaratadi.

Modelning umumlashtiruvchi va guruhlashtiruvchi turlarini ishlatishdagi effekti ayniqsa, hali sport cho'qqilarini egallamagan yoshlar yoki kattalarni tayyorlashdagi mashg'ulotlar jarayonida juda kattadir. (Piatonov, 1997)

Dunyo miqiyosidagi sportchilar tayyorgarligida, bunday modellarning ma'lum bir tomonini nazarda tutish kamdir. Qobiliyatli sportchi o'zining har tomonlama sport texnikasini egallashda, yorqin qirralarini, noyob qobiliyatini, chidamli irodasini ko'rsatadi.

Model bosqichlarini qayta ishlashdagi ko'p yillik tayyorgarligida, makrosiklda, mashg'ulotlarda sport mahoratining asosiy qonunchiligini ko'zda tutish kerak. Tayyorgarlik davrida oliy darajadagi sport natijalarni ko'rsatishda o'ziga xos moslashish imkoniyatlaridan foydalanish kerak.

Mashg'ulot rejalaridagi turli mashqlarning o'zaro qonuniyatlari guvohligicha, charchash jarayonlarining xususiyati, ishlash qobiliyatining yuqori darajadagi xarakterlariga bog'liq.

Alohida modeldagi mashqlar va ularning majmuasi tez ko'nikish mexanizmi asosida quriladi. Shuningdek mashq parametrlarining vazifasi (alohida mashqlarning davomiyligi va ularning majmuasi, ishning samaradorligi mashqlar orasidagi to'xtalish va yana davom ettirish, mashqlarning umumiy soni) tayyorgarlikning turlarini takomillashtirishga qaratiladi.

Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, sport sohasida model shakllanishini qo'llashda, sportning turlari, guruhlari, model yaratilishining ko'rinishi, oshirgan malakasining darajasi, sportchi tayyorgarligi, uning yoshi, jinsi kabilar mos kelishi kerak.

Bu yerda ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda, sportchilarning imkoniyat vazifalarini aks ettiruvchi konservativ va konservativsiz yoki

kompensatsiyalangan hamda kompensatsiyalanmagan xarakterlarini olish mumkin.

### **22.1.2. Tayyorgarlik modellari**

Tayyorgarlik modellari bellashuv faoliyatining rejalashtirilgan ko'rsatkichlariga erishishdagi xaxiralarni ochishga yordam beradi. Bundan maqsad, tayyorgarlik yo'nalishini asosiy tomonlarini aniqlash, sportchilarning har tomonlama rivojlanish darajasini, hamda ularning orasidagi o'zaro munosabatlarni belgilash.

Tayyorgarlik modellari, boshqa guruhlariga tegishli bo'lgan modellar kabi, sport turining o'ziga xos xususiyatlariga va uning bellashuv turiga bog'liq holda umumiy yo'naltirishga ko'mak beruvchi modellarga ajratilishi mumkin. Modeldagi musobaqa distiplinasining asosiy tomonlari, (6.2) aniq natijalarga erishishda o'zining o'rini belgilab oladi.

### **22.1.3. Mahorat modeli**

Yuqorida ko'rganimizdek, rivojlanish darajasining asosiy sifatlari xarakterini, texnik-taktik o'zlashtirishning darajalarini mahorat modeli o'z ichiga oladi. Lekin, alohida sport distiplinasiga ega bo'lib, turli-tuman variantlarning ko'pligiga qaramasdan, yosh sportchilar orasida modellashtirishning texnik-taktik mahorati hozirgi zamonda kam e'tibor berilayotgan tarmoq hisoblanadi. Shuning uchun, bu bo'limda alohida e'tiborni yoshlar va o'smirlarning umumiy va maxsus tayyorgarligiga qaratmoq lozim.

Turli yoshdagi sportchilar tayyorgarlik tizimini tahlil qilinganda, saralangan ko'rsatkichlar natijasi sportning har xil turlarida yuqori mutaxassislar etishib chiqishini ko'rsatdi. Ma'lumki, model xarakterining turiga, u yoki bu sport mahorati darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlari kirish kerak. Ko'pincha, bolalar va o'smirlar maktabi bitiruvchilari, sport maktablari sportning ko'pgina turlarida yuqori natijalarini egallashda 1 razryad ustasi va nomzod sportchilarni hissalari juda katta.

Shunday qilib, nazariy va eksperimental tadqiqotlarga suyangan holda, model xarakterini tarkibi, jismoniy tayyorgarlikning turli guruhlarida bunday holatlarni keltirib chiqargan bo'lishi mumkin (28-jadval).

### **Ruhiy tayyorgarlik**

Psixofizeologik model xakteri sport o'yinlarida muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun ular sportda mukammallashgan. Mutaxas-

sislar fikricha, ruhiy tayyorgarlikni xarakterlovchi ko'rsatkichlari soniga: shaxsning o'zligi, sensomotor ta'sir, tafakkurning ildamligi, maqsadga intilish, ruhiy zo'riqishga chidamlilik, harakatchanlik, yetakchi bo'lish, ta'sirchanlik va boshqalar.

28-jadval

Belgilash darajasi	Sport turlarining guruhlari				
	Tezlik va kuchlilik	Mavsumi	Murakab koordnatsiyali	Sport yakka-kurashi	Sport o'yinlari
1	1,2,3,4,7	7,8,5	9,10,5	10,4,5	4,3,7
2	5,3	6,1,2	7,4,1,2	7,3,1,2	5,1,2
3	8,9,10,6	3,4,9,10	3,8,6	8,9,6	6,10,9,8

*Shartli belgilar:* 1 – tezlik sifati; 2 – tezlik va kuchlilik sifati; 3 – maksimal kuch; 4 – portlash kuchi; 5 – nisbiy kuch; 6 – chidamlilik kuchi; 7 – o'ta chidamlilik; 8 – umumiy chidamlilik; 9 – egiluvchanlik; 10 – chaqqonlik.

#### 22.1.4. Bellashuv faoliyatining modellari

Bellashuv faoliyatining modeli ya'ni, musobaqaning xulosa yasovchi uchastkasi, N.G. Ozolin (2004) fikri bo'yicha, tayyorgarlik modeli bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Bu model o'ziga qo'shimcha komponentlarni kiritishni talab qilib, sportchida musobaqa jarayonidagi mexanik-taktik ish harakatini aniqlaydi.

Mazkur sportchilarning nazariy tadqiqotlar natijasida olingan musobaqalarda qatnashishga asoslanib, yuqori darajadagi yutuqlarga erishish uchun ko'pgina talablar, turli darajadagi sifatlar qo'yiladi. Bellashuv faoliyati modelini shakllanishi sport turlarida o'ziga xos xarakterga ega. Bunga misol qilib, bellashuv faoliyatidagi modelni umumlashtirgan holda 100 m masofaga yugurishdagi model xizmatining natijasini 9,90 sekundni olamiz.

(Bellashuv faoliyatining materiallarini qayta ishlash natijasida) mashhur velosipedchilarning bellashuv faoliyatidagi materiallarni qayta ishlashda D.A. Poleshuk (1996) musobaqa faoliyati modelini velosiped sport turida va boshqa sport turlarida o'tkazdi.

Umumlashgan model musobaqa faoliyatidagi guruhlashgan individual modelda rivojlanadi va sportchining funksional tayyorgarligi

asosidagi, texnik-taktik ta'minlanishi, psixologik tomonlari, murakkab musobaqalardagi holatlardan farq qiladi.

Bellashuv modeli o'zining xususiyatlarini sport faoliyatidagi musobaqalar vaqtida ko'rsatadi.

Yosh sportchilarning sport natijalari o'quv dasturlarida, sport mahoratining dinamikasini o'sishi va olimpiada darajalariga etishida optimal yoshini hisobga olgan holda rejalashtiriladi.

Yosh sportchilarning yirik musobaqalardagi materiallarini tahlil qilganda, Rossiyada va jahondagi kuchli sportchilarning ko'p yillik dinamik natijalari klassifikatsiya darajalari bo'yicha asoslanadi. Buni tasdiqlash uchun o'quvchilarning XV spartakiadasi alohida intizom natijalari 22-jadvalda ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, 1978-yildagi o'quvchilar spartakiadasining g'oliblari va finalchilari yuqori natijalarni quyidagi sport turlarida egalladilar; suzishda, ayollar gimnastikasida, yengil atletikada, ko'pkurashda, balandlikka sakrashda. Alohida aytib o'tishimiz kerakki, yengil atletikaning ulotqirish turi "kech kelgan" sport turligiga qaramasdan yuqori natijalarni I razryad finalchilari bilan teng qo'lga kiritdi.

Ko'p mutaxassislarning fikriga ko'ra (S.M. Mukinoy, V.I. Chudinova, 1978; V.P. Filina, 1980; V.N. Fomina, 1980; V.N. Platonova, 1980 va boshq.), sport ustasi normativlarini bajarishda, ko'pgina sport turlarida, erkaklar 19–20 yoshda, ayollar 17–19 yoshda birinchi marta katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar.

29-jadval

Sport turi	Birinchi g'oliblikni kiritishdagi yoshi	
	Erkaklar	Ayollar
Akademik eshkak eshish	17–20	16–19
Basketbol	19–20	16–18
Boks	18–20	–
Kurash	19–21	–
Konkida yugurish sporti	18–19	17–18
Tog' chang'i sporti	20–22	18–20
Suzish	14–16	12–15
Sport gimnastikasi	18–20	13–15
Og'ir atletika	19–21	–
Konkida figurali uchish	13–16	13–15
Futbol	20–21	–
Xokkey	20–23	–

Jadvalda keltirilgandek sport maktablarining bitiruvchilari 17–18 yoshda I sport razryadi normativlari talablarini egallash mumkin.

Musobaqa faoliyatining model xarakteriskasi 3 ta guruhga bo‘linadi.

Hamma turlar uchun umumiy; alohida sport turi o‘ziga xos (A.A. Novikov, V.V. Kuznetsov, B.N. Shustin, 1978).

Yana ham mukammal xarakteristikasini quyidagicha turlarda ko‘rish mumkin.

Modelning umumiy xarakteristikasi hamma uchun va alohida guruhlar uchun sport turlarida sportchi kuchining bellashuv vaqtida teng taqsimlanish hisoblanadi (yugurish, yarim final, final, yakkama-yakka olishish, o‘yinlar).

Uning yordami bilan sportchining maxsus jismoniy, taktik, ruhiy tayyorgarligini baholash mumkin.

Umumlashgan va maxsus model xarakteristikasi quyidagilar.

Kuchlilik va tezlilik sport turida:

a) yugurish, snaryad tarqatish, yugurishdagi qadamini soni, burilish, oxirgi qadamlardagi tezlik, ritmik-sur‘at tuzilishi;

b) yo‘nalishlar va final kuchayishidagi amplituda, snaryad uchish burchagi, itarish burchagi;

c) uchish tezligi;

Mavsumiy sport turlari:

a) alohida masofaning tezligini o‘tishi;

b) harakat tempi;

c) qadam uzunligi.

Murakkab koordinatsiya harakatidagi sport turi:

a) yuqori murakkablikning elementlar soni;

b) sakrash qiyinchiliklarining elementlar soni;

c) qiyinchiliklarning koeffitsenti;

d) asosiy bellashuvlarda o‘rta baho.

Yakkakurash sportlarida:

a) hujum qiluvchi va himoya qiluvchi harakatining natijaviyligi;

b) hujum qiluvchi va himoya qiluvchi harakatning aktivligi;

c) hujum qiluvchi va himoya qiluvchi harakatning ob‘yomi;

d) hujum qiluvchi va himoya qiluvchi harakatning har xilligi.

### 22.1.5. Morfofunktsional model

Bu model guruhi shuni ko'rsatadiki, organizmning morfologik xususiyatlarini va muhim funktsional tizimining imkoniyatlarini aks ettiradi.

Morfofunktsional modellarni ishlatishda, sportdagi ko'rsatkichlarni, alohida sport turida yuqori natijalarni qo'lga kiritish tomonlarni ko'rsatish ko'zlanadi.

Morfofunktsional modeli modellarga bo'lingan holda, sportning umumiy strategiya jarayonidagi tanlashni, tayyorgarlik jarayonidagi sport orientatsiyalarini, aniq yutuqlarni egallashdagi darajalarni ko'zlashishni, sportchilarning funktsional tayyorgarlik komponentlarni o'z ichiga oladi. Misol qilib, oxirgi tadqiqotlar natijasiga ko'ra, akademik eshkak eshish sport turidagi model-lashtirishi spetsifikasining ishlari eshkak eshish ergometrida olinadi (8 joyli qayiq). Olingan natijalar oliy toifadagi eshkakchilarning energiya ta'minlashdagi 6 minutli maksimal ishlarida umumlashgan modelni yaratadi. Shuningdek, bu model qon laktatasiga va yurak urishi tezligi munosabatlarini dinamikasiga mos keluvchi bo'lib aniqlanadi.

30-jadval

Harakat vaqti	Ko'rsatkichlar o'lchami	Qizlar	Yigitlar
Zarb berish	Itarish burchagi Bel aylanmasini burchagi	54–55° 94–99°	49–51° 102–104°
Vertikal	Oyoqlardagi tizza bo'g'imlarini bukish burchagi.	140–141°	142–144°
Tushish	Oyoqlardagi tizza bo'g'imlarini bukish burchagi. Bel aylanmasini burchagi	147–148° 34–35°	149–151° 28–29°

### 22.1.6. Musobaqa faoliyatidagi modellashtirish va sportchilarning individual xususiyatlariga ko'ra tayyorgarligi

Mashg'ulotlar jarayonidagi umumlashgan va guruhlashgan modelni ishlatish, hali sport cho'qqilarini egallamagan yosh va yoshi katta sportchilarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Umumlashgan modelni oliy toifadagi sportchilarda ishlatishning ta'siri kam, lekin

mashhur sportchilarning ham bir qancha alohida o'ziga xos tayyorgarlik tomonlari bor, qolgan komponentlarning taraqqiyotidan bir muncha o'rta darajada hisoblanadi.

## 22.2. Modellashtirish usullari

Oxirgi vaqtda sport sohasini modellashtirish masalasi sport fanining istiqbolli sohalaridan biri bo'lib qoldi.

Modellashtirish usuli ilmiy nazariy tushuncha kabi shakllarni tiklashning yoki jismlarning ba'zi xossalari va hodisalarni o'rganishni yoki takrorlashni o'z ichiga oladi. Bu ob'yektlarning (jarayonlarning) xususiyatlarini, ularning modeli bo'lgan boshqa ob'yektlar yordamida tadqiq qilishdir.

Insonlar ko'pdan beri modellashtirishni bilish vositasi deb kelganlar va o'z faoliyati davomida noaniqlikka uchrab, birinchi navbatda bu noaniqlikni o'zi uchun aniq bo'lgan hodisaga solishtirganlar. Noaniqlikdan aniqlikka solishtirish ikkilamchidan birlamchiga ko'chish hodisasidir, ya'ni boshqacha qilib aytganda bu aniqlik noaniqlikning modeli sifatida qatnashadi.

Bilimlarni ma'lum munosabatlarda bir-biriga o'xshaydigan bir jismdan boshqa jismga bunday o'tishi, logikada analogidan kelib chiqqan holda xulosa chiqarish deb nom olgan.

Modellashtirish usuli o'rganilayotgan ob'yekt haqida to'g'ridan-to'g'ri munosabatda emas, balki modelga o'xshashlik hodisasini o'rganish yo'li orqali bilim olishga yo'l qo'yadi. Shunday qilib, bilimning subyekt va ob'yekt o'rtasidagi oraliq zanjir bo'lib model turishi modellashtirishning o'ziga xos xususiyatidir.

Hozirgi vaqtda usulni modellashtirish murakkab boshqaruvda, asosan biologik tizimda "asosiy qurol" sifatida qaraladi (S.L. Optner, 1969; M.B. Blauberger, E.G. Yudin, 1972; D.M. Gvishiyani, A.A. Novikov, 1973; V.V. Petrovskiy, 1976; Yu.G. Artomonov, 1977).

Usulni modellashtirish aniq fanlarda xususan kibernetikada, biologiyada, tibbiyotda, pedagogikada, sportda qo'llaniladi. Hamma modellar tashkil topishiga qarab turkumlarga bo'linadi.

Turkumlarga bo'lishni tashkil qilishda materialistik tushuncha modeli vosita sifatida aks etadi, u yoki bu voqealikni tiklashda yana ham chuqurroq bilim olishga qaratiladi.

Shuningdek, B.A. Glinskiy, B.S. Gryaznov, B.S. Dunin va E.P. Nikitin modelning odamdagi bo'linish bilan bir qatorda ishlab chiqilgan

tomon xarakterini hisobga olib, turlarda bo‘linish usulini amalga oshirgan holda quyidagi model turlari taklif qiladi.

- 1) substantsional;
- 2) strukturaviy;
- 3) funksional;
- 4) aralash;

Mustaqil bo‘lmagan 4-guruhni chiqarib tashlaganimizda, qolgan 3 ta model muhim murakkab sistemani xarakterini yoritishga tushuncha beradi.

1) material yoki substrat ya’ni, tizimda hosil bo‘lgan elementlar to‘plami.

2) strukturasi ya’ni, elementlar orasidagi aloqalar va munosabatlar yig‘indisi.

3) funksiyalar ya’ni, tashqi sharoitda tizim holatini bir butunligi.

A.N. Kochergin modellashtirishni 3 turga ajratadi:

1) funksional – timsol xulq-atvorini o‘xshatish;

2) axborotli, timsolda o‘tayotgan jarayonlarni faqat axborot tomonlarini o‘xshatadi;

3) substrat – strukturali, faqatgina timsol xulq-atvorini emas, balki uning moddiy asosini hisobga oladi, ya’ni strukturani va substratni.

Ilmiy adabiyotlarda model va modellashtirishning yana bir necha turlari keltiriladi (Yu.A. Jdanov, 1960; L.Valt, 1869; V.A. Venikov, 1961; I.B. Novik, 1980).

Mualliflar tomonidan taklif qilingan bu turlarning orasida juda katta farq mavjudligiga qaramasdan, sport faoliyatini ishonchligini modellashtirishda ularni qo‘llash sohasini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

### **22.2.1. Sport amaliyotida modellashtirish usulini qo‘llash**

Model nima degan savolga to‘liq javob olish uchun qator tadqiqotchilar, akademik P.K. Apoxinning to‘liq tasdiqlangan funksional tizim nazariyasiga tayanadilar. Mazkur nazariyaga muvofiq biologik tizimlar “voqealikni oldindan aks ettirish” imkoniyatga ega.

Bu shunda aks etadiki, hamma maqsadlarni amalga oshirish uchun, oxirgi natija tasavvur qilinadi, ya’ni maqsad hodisasi. Oxirgi natijaga erishish uchun, organizmni programma hodisasini shakllantiradi.

Sportchi modelini yaratishda va rejalashtirilgan sportning yuqori natijalarini ko‘rsatish bu asosda o‘z aksini topadi.



Hozirgi zamonda sportda modellashtirish kengayib bormoqda.

Birinchi guruh – ob’yektiv xarakterdagi sabab (to’g’ridan-to’g’ri ob’yektini o’zini tekshirish, yoki iloji yo’q, qimmat, yoki ko’p vaqt talab qiladi)

Ikkinchi guruhning sababi – bu subyektiv sabablar, zamonaviy fanning bilimni tarqatish tizimining o’sishiga bog’liq. Bu tizimli yondashish, kompyuter texnologiyalar yordamida kengaygan fanning imkoniyatlarida atletlarmizni yuqori sport mahoratini ko’rinmas tomonlarini ochishda yordam beradi.

Murabbiylarning nazariy bilimlari esa zamonaviy sportda modellashtirish usullarini katta istiqbollarga joriy qilishda yordam beradi.

Modellashtirish usuli sport sohasida alohida o’rin turadi. Sport prognozlashtirish ob’yektidagi oqim haqida o’zgarishlardan axborotni kirib kelishi sifatida foydalaniladi. Tadqiqotchilarning nazarida sport faoliyatidagi erishilayotgan natijalar kelajakka katta umidlar bog’laydi. Hozir sport sohasida bir qancha olimlar tomonidan modellashtirishning turlari taklif qilingan. Bular A.A. Bratko, P.P. Volkov, A.N. Kochergin va G.I. Saregorodsev (1969).

Bu modellashtirish 3 turga bo’linadi:

1) Fizika-ashyoviy;

2) Ashyoviy-matematikali;

3) Mantiqiy-matematikali Boshqa turlarga nisbatan o’rtadagi ashoviy-matematikali tur modellashtirishning integrallashtirilgan xayoliy va moddiy tomonlari bilan ajralib turadi.

Birinchi turga tegishli bo’lgan model tabiatdagi o’rganilgan fizikaviy, xayoliy biologik hodisalarga o’xshashdir. Masalan, trampolindan sakrovchi sportchining aerodinamik xususiyatlarini o’rganish kuchli havo oqimiga ega aerodinamik trubaning kich-raytirilgan modeli yordamida o’tkaziladi.

Yaratilgan sport samolyotlarining noyob modellari shu turga kiradi. Gimnastika sportida fizikaviy-ashyoviy modellar gimnastikachilarning sharnir modelini yaratishda o’z aksini topadi. Bunda esa gimnastikachining asosiy texnik parametrlari tadqiq qilinadi, eng muhimi uning elementlari va bog’lamlari rejalashtiriladi.

Ikkinchi tur modeliga, fizikaviy, kimyoviy va biologiyali tabiatining yaxshi namunasiga ega bo’ladi, lekin matematik ta’riflarning nusxasi bilan bir xil bo’lmaydi.

Bu abstrakt daraja ushbu modelni sport turlariga qaratadi:

Birinchidan, ishlab chiqilgan model xarakteristikasi sportchidan yuksaklikni talab qiladi (ko'proq rivojlanayotgan samarali sportga yo'laydi).

Ikkinchidan, musobaqa mashg'ulotlaridagi mashqlarni model-lashtiradi («jang shartlariga ko'nikish» deb ataladi).

Uchinchidan, texnik vositalar, axborotlar har-xil turdagi trenajyor programmaları orqali o'qitishda jismoniy sifatlarni talab qiladi va sportchining mohirlik tafakkurini talab qiladi.

To'rtinchidan, o'quv mashg'uloti jarayonida yangi jadvalni rejalashtiradi ("mayatnik" sifatida ikkilamchi va uchlamchi davrlar).

Uchinchi turga belgilardan yasalgan modellar kiradi. Bu modellardagi fizikaviy, ximiyaviy va biologiyali namuna xarakteristikasi hech qanday rol o'ynamaydi shuningdek, bunga faqat mantiqli va matematikali xususiyatlar muhimdir.

Bu modellar mavhum modellarga tegishli va mantiqiy-matematik deb ataladi.

Bizni qiziqtirayotgan ob'yekt haqidagi yangi bilimlarni mantiqiy modellashtirish yo'lidagi mantiqiy-matematik modelning dastlabki tasvirlanishida olinadi, lekin fizikaviy yoki ashyoviy-matematikada bu mumkin emas.

Sportda bu turga korrelyatsion, regression va omil faktorlari kiradi.

a) sport sohasidagi natijalarning o'sishi sport turlaridagi parametrlar soni bilan qayd qilinadi (*m. kg*);

b) tayyorgarlik darajasi;

c) jismoniy sifatlarni tuzilishi;

d) sportchining texnik mahoratini tuzilishi;

e) sportchining bo'lib o'tadigan jiddiy musobaqalarga har tomonlama tayyorgarligi;

f) sportchining musobaqa faoliyatidagi umidli darajasi;

g) sportchining mamlakatdagi har tomonlama tayyorgarlik tizimini o'zaro bog'liqligi.

Mantiqiy-matematik tizimda sportchining har tomonlama mamlakatdagi muhim sport tizimlarining rivojlanishida, jahon sportida, olimpiadada tayyorgarligi hisobga olinadi. Bu oxirgi tur global modellashtirish deb ataladi.

Shunday asoslarni ko'rsatish mumkinki, sifatlari tadqiq qilish usuli tomonlar sonini aniq hisobga olmasa, natijasiz bo'ladi va

o'rganilayotgan hodisaning asl mohiyatiga chuqurroq kirib bo'lmaydi. Fan yetuklikka erishgan sari matematika fanining foydasi aniqlanib boradi.

Buyuk nazariyotchi Pol Lafarning guvohlik berishicha, qachonki ilm fanda matematika fanidan foydalangandagina buyuk muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Matematikaning evrestik roli shuni taqozo qiladiki:

Birinchidan, deduksiyaga asoslangan matematik nazariyada yangi asoslar haqida oldindan aytish va hisoblab berish imkoniyatlari bor.

Ikkinchidan, aniq matematik sxemalardan foydalanish (modelning o'ziga xos formalari) aniq fanlarda yangi kashfiyotlar ochishga olib keladi. Elektro-magnit maydonidagi fizikaviy nazariyaning izohlanishiga Maksvelning mashhur tenglashtirishi yorqin misol bo'la oladi.

Matematik modellar sport turlarida ko'zga ko'rinarli darajadagi yutuqlarni ko'rsatishda katta rol o'ynaydi. Tomonlarning aniq talablariga ko'ra, sportchining jiddiy musobaqalarga tayyorgarlik darajasi model xarakterining statistikasiga ko'ra ishlab chiqilmoqda. Har bir fizikali yoki matematikali modelning o'ziga xos alohida xususiyatlari bor:

- modellashgan ob'yektga ob'yektiv muvofiq kelish kerak;
- bilimning aniq bosqichlarida o'rganilayotgan ob'yekt o'rni egallash qobiliyatiga ega bo'lish kerak;
- tadqiqotlardagi tekshiruvlardan kerakli ma'lumolarni berish kerak;
- model axborotlaridan modellashtiruvchi ob'yekt axborotlariga o'tish qoidalari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish.

Shunday qilib, modelning nazariy va uslubiy asoslari sport sohasidagi hamma muammolarni yechib berdi desak bo'ladi.

1) sportchi darajasida (uning mahoratini model xarakteristikasi, uning natijalarini prognozlashtirish);

2) sport tayyorgarligi va sport mashqlaridagi tizim darajasi (mashqlar sharoitini modellashtirish, modelni rejalashtirish, TSO, EVM VA ASU ni rivojlantirish);

3) mamlakatdagi sport tizimini rivojlanish darajasi (xomashyoviy imkoniyatlari, saralash tizimi, maorif, sport turlaridagi rivojlanishning demografik, milliy va chegaradoshlik xususiyatlarini uyg'unlashuvi va boshq.);

4) dunyodagi sportning global darajada rivojlanishi asosan olimpiadada (analizga asoslangan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ideologik nuqtai nazardan ko'rsatilgan kamchiliklari).

### **22.2.2. Kuchli sportchilarning model xarakteristikasi (modelning asosiy tarkibiy qismi)**

Ilmiy asoslangan tizimni qayta ishlashda yuqori malakali sportchilar tayyorlash uchun, kuchli sportchilar modelini yaratishga katta e'tibor beriladi.

Tashkiliy-metodik asoslar yuksak darajadagi sport natijalariga erishuvchi va oldiga qo'ygan vazifalarni yecha oladigan kuchli terma jamoalarni, sportchilarni modelini yaratishni ko'zda tutadi.

Ilmiy mutaxassislar sportda shunday modellar yaratish zarurligi haqida bir necha marta murojaat qilganlar va quyidagilarni yaratganlar. "Kelajakning evristik modeli" (A.A. Gujalovskiy, 1971), "Sportchining model namunasi" (A.V. Ivaylov, 1971), "Bo'lajak sportchi modeli" (V.M. Dyachkov, 1972), "Bo'lajak sportchining modeli" (B.I. Butenko, 1972), "Yuksak maqsadlarni shakllantirish" (V.M. Zatsiorskiy, 1973).

V.V. Kuznetsov va A.A. Novikovning (1975) tadbiri bo'yicha, modelni ishlash ko'rsatmalarida "Sportchining modeli" tushunchasi kiritilmagan va umumiy tizimdagi sport tayyorgarligidagi o'rni ko'rilmagan.

Tadqiqotchilar V.V. Kuznetsova va A.A. Novikov tomonidan olib borilgan ishlari natijasida kuchli sportchilarning modellashtirish muammolari ancha oldiga surildi. 1973-yilda zamonaviy tayyorlangan oliy darajada ixtisoslashtirilgan sportchilar xarakterining modeli nazariyotga va amaliyotga kiritiladi.

Kuchli sportchilar modelining xarakteristikasi kelgusida asosiy teoretikada ham taklif qilingan.

Bir qator avtorlar ishning tahliliga asoslanib, biologik tizimi bilimi bilan uning funksional yo'nalish bilimini birligini ko'rsatuvchi (N.A. Bernshteyn, 1962, I.B. Novik, 1965; V.I. Kremlyaniskiy, 1969, O.G. Priymag, 1969, A.S. Mamzin, 1971; M.I. Setrov, 1971; I.B. Blauberg, E.G. Yudin, 1973) modellar o'rtasidagi o'zaro munosabat bloksxema modeli asosida tuzilgan.

Modelning asosiy komponentlari umumiy subordinatsiyali munosabatlarga ko'ra uchta darajaga bo'yicha bo'lingan.

Birinchi darajada – musobaqa faoliyati. Bu darajada kuchli sportchilarning jiddiy musobaqalardagi xarakteri kiradi. Bu “musobaqalar modelining” asosi hisoblanadi.

Ikkinchi darajada – mahorat modeli. Sport formasidagi sportchining maxsus jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligidagi xarakterini o‘z ichiga oladi.

Uchinchi darajada – sport imkoniyatlarining modeli (funksional va psixologik tayyorgarligi, morfologik tayyorgarligi, yoshi va sport staji).

Yuqorida bayon qilingan metodologik yondashishi tadqiqotchilar tomonidan keng qo‘llangan. V.M. Koretskiy uchta blokdan iborat jismoniy tarbiya pedagog-mutaxassislar uchun model ishlab chiqdi.

Birinchi blok – shaxs blogi (axloq-odobi, g‘oyaviyligi, ma’naviyati va boshqa sifatlari, aqli, ruhiy rivojlanish darajasining funksiyalari).

Ikkinchi blok – kasb faoliyati blogi, (hamma ish turlarining yig‘indisi va mutaxassis mehnatining asosiy ishi va bajariladigan muammollari).

Uchinchi blok – bilim blogi, kasbning ma’lum vazifalarini bajarishdagi mohirligi, bilimi, malakasi.

Tadqiqotchilar tomonidan (V.I. Kozlovskiy va boshqalar, 1978) futbolchi model xarakteristikasining blok shakli taklif qilingan. Bular uchta darajadan iborat.

Birinchisi – o‘yinchi va jamoalarning guruhda hujum qilish yoki himoya qilishi faoliyatidagi harakatining natijasi.

Ikkinchisi – texnika bilan qurollantirish, maxsus va taktik jismoniy tayyorgarligi, ruhiy turg‘unligi.

Uchinchisi – funksional tayyorgarlik xarakteristikasi, morfologik xususiyalari, sport stajining yoshi.

Tadqiqotchilarning fikriga qo‘shilgan holda, sportchilarning bosqichli tayyorgarligini hisobga olib, modellarni g‘oyaviy va kundalik modellarga ajratiladi (A.A. Novikov, R.A. Piloyan, 1982).

Bu modellar sportchining holati haqida olingan axborotdan keyin tuziladi. Kundalik va g‘oyaviy modelning muvofiqlashuvi maqsadga erishishda yagona yo‘l bo‘lib, sportchi tayyorgarligida va mashq jarayonlarida qo‘llaniladi.

Sportchining model tasnifini – bu sportni takomillashtirish parametrlari bo‘lib, tarma jamoalarga sportchi saralash uchun yordam beradi.

Model xarakterini yaratish uchun, juda zo‘r yuqori malakali sportchi tasavvur qilinadi. Kuchli sportchilarni modelini bilmasdan turib, har bir sportchining mashg‘ulot jarayonidagi natijalari ta‘siridagi muammolarni yechib bo‘lmaydi (B.N. Shustrin, 1974).

Model xakteri, sportchi mahoratining komponentlarini oshiradi, bo‘ljak musobaqalarga tayyorgarlik holatini aniqlaydi.

Jiddiy musobaqalar natijalarini aniqlagan holda, yana ham muhimroq model xakteri ajratilgan. Bu esa sportdagi natijalarni yana ham oshiradi.

Bu model xakteriga, sport faoliyatidagi staji va yoshi, morfometrik xarakteristikasi, maxsus tayyorgarlik daraja ko‘rsatkichlari (jismoniy, texnikaviy, taktikaviy, ruhiy, funksiyali, nazariyali) kiradi (V.V. Kuznetsov, A.A. Novikov).

### **O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari**

#### **1. “Model” atamasi tushunchasi nima degani?**

- a. eng kuchli sportchi
- b. jarayon yoki ko‘rinishning u yoki bu ob‘yekt namunasi (standart, etalon)
- c. musobaqada yaxshi chiqishni bilish
- d. a, c javoblar.

#### **2. Sportda “modellashirish” atamasi tushunchasi nima degani?**

- a. har xil modullarning ishlab chiqarilishi
- b. sportchi mahorati darajasini baholashni bilish
- c. tavsifini aniqlashtirish va belgilash uchun tuzish jarayonini, o‘rganishni va modulni foydalanish
- d. matematik formula va tenglamalarni qo‘llash.

#### **3. Sport faoliyatida qaysi model turlari qo‘llaniladi? (V.N. Platonov bo‘yicha).**

- a. musobaqa faoliyati va texnik-taktik tayyorgarlik modellari
- b. jismoniy tayyorgarlik modeli
- c. morfofunksional model va mashg‘ulot jarayonini tuzish modedi
- d. a, b, c javoblar.

#### **4. “Imitatsion modellashirish” tushunchasiga aniqlama bering.**

- a. tizim qonuniyatlarini tushunish maqsadida tadqiq etish va aniq tizim modelini yaratish
- b. qarorni qidirish va qabul qilish uslubini qo‘llash

c. sportchi texnik-taktik tayyorgarligidagi optimal variantlarini yaratish

d. b, c javoblar.

**5.Sport kurashida musobaqa faoliyati modelini qanday ko‘rsatkichlar tavsiflaydi?**

a. hujum va himoya harakatlarining samaradorligi

b. hujum va himoya harakatlarining har xilligi va hajmi hamda ularning samarasi

c. texnik harakatlarning o‘rtacha bahosi, hujum harakatlar oralig‘i

d. a, b, c javoblar.

**6.Sport kurashida hujum harakatlari samaradorligining ko‘rsatkichlari qanday aniqlanadi?**

a. musobaqada yutgan bellashuvlar soni bilan

b. real amalga oshirilgan usullar sonining umumiy urinishlar soniga nisbati bilan

c. bellashuvni olib borish samarasi bilan

d. a, c javoblar.

**7.Sport kurashida himoya harakatlari samaradorligining ko‘rsatkichlari qanday aniqlanadi?**

a. qaytarilgan hujumlar soni bilan

b. yutkazilgan ballar soni bilan

c. qaytarilgan hujumlar sonining umumiy raqib hujumlar soniga nisbati bilan

d. raqibga usulni o‘tkazishga bermaslik bilan.

**8.Bellashuvni olib borish samarasi ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?**

a. musobaqada yutgan bellashuvlar soni bilan

b. texnik harakatlarni o‘tkazganligi uchun erishilgan ballar (baholar) soni bilan

c. “Tushe”ga yutgan g‘alabalar soni bilan

d. b, c javoblar.

**9.“Texnik harakatlarning o‘rtacha bahosi” ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?**

a. yutib olingan ballar sonining(samarasi) real urinishlar soniga nisbati bilan

b. musobaqada yutgan bellashuvlar soni bilan

c. qaytarilgan hujumlar sonining umumiy raqib hujumlar soniga nisbati bilan

d. b, c javoblar.

**10. "Hujum harakatlari oralig'i"(intervali) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?**

a. qaytarilgan hujumlar sonining umumiy raqib hujumlar soniga nisbati bilan

b. yutib olingan ballar sonining(samarasi) real urinishlar soniga nisbati bilan

c. bellashuvni o'tkazish vaqtini usulni o'tkazishga urinishlar soniga nisbati bilan

d. a, b, c javoblar.

**11. Kurashchining texnik-taktik tayyorgarlik modeli ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?**

a. o'tkazilgan usullar sonini uning umumiy hajmiga

b. kombinatsiyalarni o'tkazish soni va bellashuvda o'zaro harakatlanishi bilan

c. musobaqada yutgan bellashuvlar soni bilan

d. a, b javoblar.

**12. Kurashchining jismoniy tayyorgarligi modeli qanday ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi?**

a. kurashchining jismoniy sifatlari rivojlanishi dinamikasini baholovchi ko'rsatkichlar yordamida

b. usulni tez bajarish qobiliyati bilan

c. bellashuvni samarali olib borish, musobaqada yutib olingan g'alabalar soni bilan

d. a, b, c javoblar.

**13. Morfofunktsional model tuzilmasiga qaysi ko'rsatkichlar kiradi?**

a. biomexanik va tibbiy-biologik nazorat ko'rsatkichlari

b. biomexanik va psixologik nazorat ko'rsatkichlari

c. jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

d. a, b javoblar.

**14. Mashg'ulot jarayoni tashkiliy tuzilmasining model tuzulishini ko'rsating.**

a. ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlari, yillik sikl va makrosikllar

b. mezo va mikrosikllar bosqichlaridagi tayyorgarlik davrlar tuzilmasi, hamda mashg'ulot darsi

c. a, b javoblar

d. jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari.



**15. Kurashchilarni ko'p yillik tayyorgarlik tuzilmasi qanday bosqichlardan iborat?**

a. boshlang'ich tayyorgarlik va sport mutaxassisligiga chuqurlashtirish bosqichlari

b. sportda takomillashtirish va oliy sport mahorati bosqichlari

c. natijalarga erishishni rejalashtirish bosqichi

d. a, b javoblar.

**16. Mashg'ulotning yillik sikl tuzilmasini ko'rsating.**

a. makrosikl va tayyorgarlikning davrlari

b. mashg'ulotning mezo va mikrosikl bosqichlari, mashg'ulot darsi

c. a, b javoblar

d. musobaqa va o'quv yig'inlari.

**17. Yillik tayyorgarlik sikli makrosikl tuzilmasini ko'rsating.**

a. tayyorgarlik, musobaqa va o'tish davrlari

b. o'quv-mashg'ulot yig'inlari

c. musobaqa

d. b, c javoblar.

**18. Tayyorgarlik davri tuzilmasi qaysi elementlardan iborat?**

a. umumiy tayyorgarlik bosqichi

b. maxsus tayyorgarlik bosqichi

c. bazaviy tayyorgarlik bosqichi

d. a, b, c javoblar.

**19. Musobaqa davri tuzilmasi qaysi elementlardan iborat?**

a. maxsus va musobaqaga bevosita tayyorgarlik bosqichi

b. umumiy tayyorgarlik bosqichi

c. musobaqa o'tkazish, o'quv yig'inlari

d. a, b javoblar.

**20. O'tish davrining asosiy vazifalarini ko'rsating.**

a. oldinda turgan musobaqaga tayyorgarlik

b. tayyorgarlik darajasini tekshirish

c. mashg'ulot va musobaqa nagruzkalaridan keyingi to'liq dam olish, keyingi sport yiliga sportchi organizmini tayyorlash

d. a, b, c javoblar.

## O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollarining kaliti

№	A	B	C	D
1.		*		
2.			*	
3.				*
4.	*			
5.				*
6.		*		
7.			*	
8.		*		
9.	*			
10.			*	
11.				*
12.	*			
13.				*
14.			*	
15.				*
16.			*	
17.	*			
18.				*
19.	*			
20.			*	

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risi”dagi qonuni (yangi tahrir). T., 2000, 26-may.

2. Закон Республики Узбекистан «О физической культуре и спорте» – Т., 14 января 1997 г.

3. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан. Сентябрь 1997 г. № 09. Т., 1997.

4. Karimov I.A. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat qurish yo‘lida. T., O‘zbekiston, 1998.

5. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., Sharq, 1997.

6. Абдиев А.Н. Борьба организация востановительного тренировочного процесса в предсоревновательном этапе. Монография. Т., 1997.

7. Absatarov A.A., Istomin A.A. Dzyudo kurashi. Т., O'qituvchi, 1998.

8. Ataev A.Q. Kurash. Т., O'qituvchi, 1987.

9. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. М., ФиС, 1988.

10. Верхошанский Ю.В. Основы специальной силовой подготовки в спорте. М., ФиС, 1985.

11. Верхошанский Ю.В. Программирование в организаций тренировочного процесса. М., ФиС, 1985.

12. Годик М.А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок. М., ФиС, 1980.

13. Годик М.А. Воспитательные процессы в спорте. М., ФиС, 1977.

14. Голковский Н.М. Керимов Ф.А. Вольная борьба. Т., 1993.

15. Дякин А.М. Борьба вольная; учебная спортивных школ олимпийского резерва, школ воспитательного спортивного мастерства (нормативного состояния). М., Советский спорт, 1990.

16. Игуменов В.М., Подливаев Б.А. Спортивная борьба. М., Просвещения. 1993.

17. Kerimov F.A. Kurash tushaman. Т., Ibn Sino, 1990.

18. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. Т., 2001.

19. Kerimov F.A. Sport sohasida tadqiqot usullari. Т., 2004.

20. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. Т., 2005.

21. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. Т., 2009.

22. Матвеев Л.П. Основы спортивной тренировки. Учебное пособие для ИФК. М., ФиС, 1977.

23. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. М., ФиС, 1991.

24. Nurshin J.M., Taymuratov A.R., Shokirjonov A.Sh. O'zbekcha milliy sport kurash usullari. Т., 1987.

25. Salomov R.S., Kerimov F.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Т., 2009.

## **23-BOB. SPORT KURASHIDA ZAMONAVIY TADQIQOT USLUBLARI**

### **23.1. Sport kurashida zamonaviy tadqiqot uslublari**

Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanishda yosh olimlar ko'pchilik tadqiqotlarga xos bo'lgan jiddiy kamchiliklardan har doim ham qutula olmaydilar. Bulardan eng muhimi shuki, tadqiqot o'quv-trenirovka jarayonining mohiyatiga chuqur kira olmay, go'yo yuzada "sirg'alib" yurgandek bo'ladi, unda sportchining trener yoki jismoniy tarbiya o'qituvchisi rahbarligida bajaradigan harakatlari tahlil qilinmaydi. Oqibatda, tadqiqot ko'pincha tashqi omillarni qayd etish bilan cheklanib, o'rganilayotgan muammoning qonuniyatlarini ochib bera olmaydi. Shunday qilib, kelib chiqishi amaliyotdan iborat bo'lgan muammoni tadqiq etish teran ilmiy-nazariy dalil-isbotsiz o'z natijalari bilan yana amaliyotga qaytadi.

Har qanday ilmiy-tadqiqot ishining yakunlovchi bosqichi uni adabiy jihatdan shakllantirishdir. Darslikda ilmiy ishning adabiy jihatdan shakllantirilishi, tadqiqot materiallarini bayon qilish tili va uslubiga qo'yiladigan talablar sanab o'tilgan.

### **23.2. Sport fanida ilmiy bilishning usul va tamoyillari**

#### **23.2.1. Ilmiy bilishning umumilmiy usullari**

Ilmiy bilish – inson aqlining narsalar mohiyatiga, ularning qonuniy aloqalari va munosabatlari dunyosiga kirib borishining murakkab dialektik jarayonidir. Ilmiy bilishsiz tabiat va ijtimoiy hayotni samarali o'zgartirish mumkin emas. Ma'lumki, dunyoni bilish haqidagi masala falsafaning asosiy masalasi hisoblanadi.

Bilish jarayonida inson (bilish subyekti) va mavjud borliq (bilish ob'yekti) o'zaro aloqada bo'ladi. Inson olamni o'rganadi, shuning uchun ham u olgan barcha bilimlar ob'yektiv borliqning shunchaki tasviri emas, balki subyektiv tasviridir. Buning ma'nosi shuki, bilish jarayonida ob'yektivlik va subyektivlik orasida ziddiyat yuzaga keladi. Bunda bilimlar tobora haqqoniy bo'lib boradi, ya'ni bilishning rivojlanishi, ob'yektiv olam to'g'risidagi bilimlarning chuqurlashuvi muqarrar ravishda borliqni yana ham adekvat tarzda aks ettirish jarayoniga aylanadi.

Sport fanining boshqa fanlar kabi rivojlanishi bundan mustasno emas. U ilmiy bilish metodologiyasining, jumladan, uning usul va tamoyillarining ishlab chiqilishi bilan chambarchas bog'liq.

Ilmiy metodologiya bu ilmiy bilishning eng umumiy, dunyoqarashga oid tamoyillari tizimidir. Metodologiya deganda umuman fanda (fanning umumiy metodologiyasi), jumladan, uning muayyan bir sohasida (bu yerda sport fani metodologiyasida) ilmiy bilishning usullari haqidagi ta'limot tushuniladi.

Usul ilmiy tadqiqot ma'lumotlarini to'plash va ularga ishlov berishning asosiy yo'lidir. Ilmiy usul har doim ob'yektning xususiyatlari haqidagi umumiy tamoyillar va tasavvurlardan kelib chiqadi hamda ularning natijasi bo'lmish maqsadga erishishni ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar va talablarni qamrab oladi.

Usuliyat muayyan usul bilan bog'liq usullar yoki texnik yo'llarning yig'indisini ifodalaydigan tushuncha bo'lib, bu tarkibga xususiy muolajalar, ularning tartibi hamda o'zaro aloqadorligi ham kiradi.

Usuliyat deganda quyidagilar tushuniladi: a) usulning xususiy varianti, muayyan muammoni hal etishning maxsus usuli (echimi), masalan: sportchining tezkorlik-kuch xususiyatlarini tadqiq etish usuliyati; b) berilgan vazifani tadqiq etish (hal qilish) usullari to'plami va ularni qo'llash tartibi: masalan: kurashchining musobaqa faoliyatini o'rganish usuliyati.

Ilmiy bilish mantiqi uning tuzilishi, bosqichlarini o'rganadi, ilmiy tadqiqot jarayoni va uni tashkil etuvchi unsurlarning yaxlit qiymatini beradi.

Har qanday ilmiy tadqiqot ilmiy muammoni o'rtaga tashlashdan boshlanishi kerak.

Ilmiy muammo bilimlarning erishilgan darajasi bilan ijtimoiy amaliyotning yangi faktlari yoki ehtiyojlari orasidagi ziddiyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi oqibati sifatida shakllanadi.

Ilmiy muammoni to'g'ri ifodalash uchun fan va texnikaning eng yangi yutuqlari va imkoniyatlarini bilish, shuningdek, shu sohada o'tkazilgan tadqiqotlar haqida tasavvurga ega bo'lib, tadqiqot darajasini aniq bilish lozim. Ilmiy muammoning to'g'ri qo'yilishi uni hal etish uchun ko'p narsa bera oladi.

Ilmiy metodologiyadan kelib chiqib, ilmiy bilishning quyidagi umumilmiy usullarini farqlash mumkin: tahlil (analiz) va sintez.

nduksiya va deduksiya, o'xshashlik (analogiya) va modellashtirish, navhumlashtirish va aniqlashtirish, tizimli tahlil, kuzatuv va tajriba.

Tahlil – predmetni xayolan yoki amalda tarkibiy qismlarga ob'jektning qismlari, belgilari, xususiyatlari, munosabatlari) ajratib o'rganishdan iborat tadqiqot usuli.

Har bir ajratilgan qism bir butun doirasida alohida-alohida tahlil qilinadi. Masalan: jamoa sportchilarining va har bir o'yinchining o'quv-mashq jarayonini tahlil qilish.

Sintez – (birlashtirish, uyg'unlashtirish, tuzish) – ob'yektni yaxlit holda, uning qismlarini birlikda va o'zaro bog'liqlikda o'rganish usuli.

Ilmiy tadqiqotlar jarayonida sintez tahlil bilan chambarchas bog'liq, chunki u predmetning tahlil jarayonida tarkibiy qismlarga ajratib yuborilgan bo'laklarini birlashtirib, ular orasidagi bog'liqlikni aniqlashga va predmetni bir butun holda o'rganishga imkon yaratadi. Masalan, sportchilar tomonidan mikro- va mezosikl yuklamalarining umumiy hajmini tashkil etuvchi turli yo'nalishdagi mashg'ulot yuklamalarining bajarilishi.

Induksiya (to'g'rilash, qo'zg'atish) – predmetning ayrim unsurlariga xos belgilarni o'rganish asosida uning barcha unsurlariga xos bo'lgan belgilar haqida umumiy xulosa chiqarishga asoslanuvchi tadqiqot usuli.

Sportchining musobaqa faoliyatidagi ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qiluvchi alohida omillar shu tariqa o'rganilib, keyin ular ko'rsatkichlar bo'yicha umumlashtiriladi.

Deduksiya (payqab olmoq) – umumiydan xususiylik tomon fikr yuritish usuli hisoblanib, bunda dastlab ob'jekt yaxlit holatda tekshiriladi, keyin uning tarkibiy qismlari tadqiq etiladi. Masalan: avval kurashchining u yoki bu usulni bajarish texnikasi o'rganiladi, keyin usul tarkibiy qismlarga ajratib ko'rib chiqiladi (ushlab olish, ko'tarib olish, chalish, yerga tushish).

O'xshashlik – ayrim predmet yoki hodisalarni boshqalari bilan o'xshashligi asosida o'rganishga tayanadigan ilmiy fikrlash usuli. Masalan: maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi alohida maktablar misolida o'rganilib, olingan natijalar barcha maktablar o'quvchilariga tatbiq etiladi.

Modellashtirish ilmiy bilish usuli bo'lib, bunda o'rganilayotgan predmet, hodisa unga o'xshash shunday boshqa predmet yoki hodisaga,

modelga almashtiriladiki, u aslning eng muhim xususiyatlarini o'zida jamlagan bo'ladi.

Sport fanida musobaqa faoliyatini modellashtirish keng qo'llaniladi – ikki sportchining bellashuvi bir xil tenglamalar asosida tasvirlanadi va zamonaviy kompyuterlardan foydalangan holda tadqiq etiladi. Masalan: kurashchining taxminiy raqibi bilan o'tkaziladigan bellashuvlarini modellashtirishga imkon beradigan kompyuter dasturlari ishlab chiqilgan va amaliyotda faol qo'llaniladi.

Mavhumlashtirish – (diqqatni bo'lish, chalg'itish) – muayyan predmetlardan rivojlanishning umumiy tushuncha va qonuniyatlariga o'tish imkonini beradigan chalg'itish usuli.

Bu usul pedagogik tadqiqotlarda o'quv-mashq jarayonining istiqbol rejasini tuzish vaqtida qo'llanilib, bunda sportchilarning o'tgan davrdagi faoliyatlarini o'rganish asosida ular tayyorgarligining keyingi davrdagi rivojlanishi bashorat qilinadi.

Aniqlashtirish – predmetlarni mavhum, umumiy tarzda o'rganishdan farq qilib, ularni butun serqirraligi, sifatiiy xilma-xilligida olib tekshirishdan iborat usuldir.

Bunda predmetlarning holati ular mavjudligining muayyan sharoiti va tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq holda tadqiq etiladi. Shu tariqa, sportchilar jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish istiqbollari yangi usuldan foydalangan holda hisob-kitoblar orqali aniqlanadi.

Tizimli tahlil tadqiqot ob'yektini bir tizimni tashkil etuvchi unsurlar yig'indisi sifatida o'rganish demak.

Ilmiy tadqiqotlarda u ob'yektning tizim sifatidagi holatiga mazkur ob'yektning amal qilishiga ta'sir ko'rsatadigan barcha omillari bilan birgalikda olib baho berishni ko'zda tutadi. Ushbu usuldan sport fanida masalan, musobaqa faoliyatini yaxlit holda o'rganish jarayonida, xususan, sportchi chiqishlarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlashda keng foydalaniladi.

Kuzatuv predmetni miqdoriy o'lchashlar va sifatiiy ta'riflar yo'li bilan o'rganish usulidir.

U sport fanining barcha tadqiqotlarida qo'llaniladi. Masalan, trenirovka mashg'uloti xronometrajida hamda mashg'ulotning umumiy va motor (harakat) zichligi foizini aniqlashda undan foydalaniladi.

Ilmiy tajriba nazariy tadqiqot natijalarini tekshirib ko'rish uchun uning maqsadiga muvofiq ravishda o'tkaziladigan ilmiy sinovdir. Ilmiy

tajriba hodisaning borishini kuzatishga va, zarur bo'lsa, uni aynan takrorlashga imkon beradigan muayyan sharoitlarda o'tkaziladi.

Sport fanida ishlab chiqilgan yangi usuliyat pedagogik ilmiy tajribada tasdiqdan o'tishi shart.

### **23.2.2. Ilmiy bilish tamoyillari**

Sport fanidagi ilmiy tadqiqotlarning o'ziga xos belgisi shuki, jismoniy tarbiyaning har qanday sohasida o'rganilayotgan har bir hodisa uning rivojlanishi jarayonida, o'zaro aloqada va nisbatda tekshiriladi. Chunonchi, sportchining o'quv-mashq jarayoni qurilishi tizimini tavsiflovchi faktlarni tadqiq eta turib, ularning ilgari qanday rivojlangani, muayyan sport turi sharoitida qanday omillar ularga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgani, jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyatining keyingi rivojiga ko'rib chiqilayotgan fakt va hodisalar qanday ta'sir o'tkaza olishi mumkinligini aniqlasa bo'ladi. Ilmiy metodologiyaga tayangan ilmiy tadqiqotlar (agar ilmiy bilishning metodologik tamoyillariga aniq rioya qilinsa), ilmda juda muhim va zarur xususiyat-ilmiy holislik va haqqoniylikka ega bo'ladi.

Ilmiy bilishning ilmiy tadqiqot jarayonida rioya qilinishi lozim bo'lgan ayrim tamoyillarini ko'rib chiqamiz. Bu ob'yektiv olamni bilish, determenizm, rivojlanish, tarixiylik, nazariya va amaliyotning birligi tamoyillaridir.

Ob'yektiv borliqni bilish mumkinligi tamoyili – insonning o'rganish faoliyati natijasida tevarak olam va uning qonuniyatlari to'g'risida haqqoniy tasavvur hosil qilish imkoniyatidir. Ob'yektiv borliq inson ongidan tashqarida mavjud bo'ladi. Ammo uni bilish haqida nisbiy ma'nodagina gapirish mumkin.

Sport fani taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, qandaydir predmet yoki hodisa haqidagi go'yo mufassal bilimlar yangi ma'lumot hamda kashfiyotlar ta'sirida tubdan o'zgarib ketgan hollar ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham fanning u yoki bu yutuqlarini, uning taraqqiyotidagi u yoki bu bosqichni mutlaqlashtirish yaramaydi. Umuman, tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida ob'yekt to'g'risida to'plangan bilimlar doimo nisbiy bo'ladi.

Ayrim faktlarni avvaldan tanlab olib, qolganlarini e'tiborsiz qoldirish, ma'lumotlarni tadqiqotchi ilgari sinovdan o'tkazgan faraz yoki qoliqlarga moslash, unga ters bo'lgan narsalar haqida eslamaslikka



harakat qilish, o'rganilayotgan hodisalar, faktlarning ayrim jihatlarini kamsitish ilmiy holislikka mutlaqo ziddir.

Bilish mumkinligi tamoyili bilishning amaliy faoliyat bilan aloqalarini aniqlash va ochib berish orqali isbotlanadi. Shu sababdan bilish natijalarini tekshirish hamda tasdiqlash, albatta, amaliyotga tayanishi zarur. Sport fanida yangi usuliyat ham pedagogik ilmiy tajribada o'z tasdig'ini topishi kerak.

Determinizm tamoyili olamda sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarning umumiy universal o'zaro munosabati hamda sababi bog'lanishlari mavjudligini bildiradi. Bu tamoyil bevosita olamning moddiy birligini tan olishdan, demak, bir moddiy hodisaning boshqasiga bog'liqligi qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Bunda turli hodisalar va moddiy ob'ektlar orasidagi munosabat hamda aloqalar nihoyatda rang-barang, turli-tuman bo'ladi. Ular ahamiyatli va ahamiyatsiz, sababli va sababsiz, tasodifiy va zaruriy, shuningdek shakl va mazmun, mohiyat va hodisa, tuzilish va vazifa va x.k. orasidagi bog'liqlikdan iborat bo'lishi mumkin.

Tadqiqotchining vazifasi o'rganilayotgan ob'yekt yoki hodisaning aloqalarini har tomonlama ochib berishgina emas, balki, albatta, haq qiluvchi, belgilovchi aloqalarni ajratib ko'rsatish, ya'ni sababi bog'lanishlarni aniqlash hamdir.

Determinizm tamoyili tadqiqotning sport fanida qo'llanadigan ilmiy usullari va ularga qo'yiladigan umumiy talablarni asoslashda katta ahamiyatga ega. Bu talablar quyidagilardir: tanlangan usulning tadqiqot ob'yekti va uning xususiyatlariga bog'liqligi, tadqiqotning har bir keyingi bosqichini undan oldingi bosqichda olingan ma'lumotlar zaminiga qurish, o'rganilayotgan ob'yekt yoki hodisaning aloqa va munosabatlarini ularning butun xilma-xilligi, murakkabligida yuzaga chiqarish zarurati.

Rivojlantirish tamoyili olimning metodologik zaxirasidagi eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. O'rganilayotgan ob'yekt yoki hodisalarning mohiyatini to'g'ri tushunish uchun ularni "materianing qotib qolgan shakli" sifatida emas, harakat, o'zgarish, rivojlanishda tekshirish, ularga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlash zarur. Bunda rivojlanish bir tekis va uzluksiz o'sish, ko'payishdan iborat bo'lmaydi u darajama-daraja sodir bo'lib, ma'lum bosqichda sakrashlar tufayli uzilib qoladi, tadrijiylikda tanaffuslar, demak o'rganilayotgan

ob'jektning (hodisaning) yangi sifat holatiga o'tishi uchun imkoniyatlar yuzaga keladi.

Ilmiy tadqiqotda taraqqiyotning metodologik tamoyilini qo'llar ekanmiz, miqdoriy va sifatiy o'zgarishlar faqat murakkablashuvga olib kelmasligini nazarda tutish lozim. Taraqqiyot soddalashuvni ham o'z ichiga oladi, negaki, u ikkita qarama-qarshi yo'nalish-tuzilish va vazifalarni murakkablashtirish hamda soddalashtirish yo'nalishlarining o'zaro munosabatini ko'zlaydi.

Rivojlantirish tamoyili ilmiy bilishning metodologik tamoyili sifatida har qanday ilmiy tadqiqotga muayyan talablar qo'yadi. Ushbu talablarga muvofiq ilmiy tadqiqot davomida o'rganilayotgan ob'jektning shakllanishi va rivojlanishini, undagi miqdoriy o'zgarishlar hamda bir sifatiy holatdan boshqa holatga o'tishni tavsiflaydigan ob'yektiv jarayonlar to'liq va har tomonlama ochib berilishi zarur bo'ladi.

Tarixiylik tamoyili rivojlantirish tamoyili bilan bevosita bog'liq, lekin u ilmiy bilishga o'ziga xos alohida talablar qo'yadi. U tadqiqotchini tekshirilayotgan ob'jekt yoki hodisani irsiy nuqtai nazardan, mazkur ob'jektning (hodisaning) kelib chiqishini, o'zgarishlari va rivojlanishini hisobga olgan holda boshqa ob'jektlar bilan aloqalarini, shuningdek, undagi o'zgarishlarning sabablarini ko'rsata borib o'rganishga yo'naltiradi.

Sport fanida kashfiyot va yutuqlarni baholash maqsadida tarixiylik tamoyili qo'llanilar ekan, ularning ilgari qarashlar hamda yutuqlarga bog'lik tomonlarini ochish, nazariy manbalarini topish lozim. Bunda u yoki bu ta'limotni, nazariyani baholash chog'ida ularning bugungi kundagi qiymati emas, paydo bo'lgan davri uchun qiymati ham hisobga olinishi shart. Mazkur ta'limot yoki nazariya sport fani va amaliyotining keyingi taraqqiyoti uchun qanday ahamiyatga ega ekanligiga alohida e'tiborni qaratish zarur.

Nazariya bilan amaliyotning birligi tamoyili insonning tashqi olamga munosabati mohiyatidan kelib chiqadi. Inson tashqi olamga faollik bilan ta'sir o'tkazadi va shu ta'sirotlar jarayonida uni bilib boradi.

Nazariya bilan amaliyotning birligi tamoyili sport fanida qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullarini asoslashda katta ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya va sportdagi amaliy faoliyatni nazariyani boyitish hamda rivojlantirishning asosiy manbai deb qarash zarur. Musobaqa,

o'quv-mashq va tashkilotchilik faoliyatlarini tahlil etish hamda umumlashtirish orqali tadqiqotchi o'zini qiziqtirgan ilmiy muammoni nazariy jihatdan tushunib olishi uchun zurur bo'lgan faktik ma'lumotlarni qo'lga kiritadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliy faoliyat jarayonida u yoki bu nazariy qoidaning nomukammalligi oshkor bo'ladi, ularni tubdan qayta ko'rib chiqish yoki tahrir qilish zarurligi sezilib qoladi, shuningdek, tushunarsiz masalalar, nazariy tomondan yana o'ylab ko'rish lozim bo'lgan o'zgaruvchan muammolar yuzaga chiqadi.

Jismoniy tarbiya va sportda o'rta tashlanayotgan nazariy qoidalar va farazlarning to'g'ri yo noto'g'riligini aniqlovchi asosiy, eng ishonchli va holis mezon amaliy faoliyatdir. Tadqiqotchi yangi nazariy qoidani maydonga tashlar ekan, u faqat musobaqa faoliyatiga yoki o'quv-mashq jarayoniga muvaffaqiyatli tatbiq etilganidan keyingina asos uchun qabul qilingan deb tan olinishi mumkin.

Shunday qilib, har qanday fanda, jumladan, sport fanida ham ilmiy bilishning umumiy usul va tamoyillaridan foydalaniladi.

Sport fanida umumfalsafiy kategoriyalar va ularga tayanadigan mazkur fanga tegishli maxsus kategoriyalar (aniqroq aytsak, tushunchalar) qo'llaniladi. Bu kategoriya va usullarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish yaramaydi, ularning umumiyliklari ham xususiyliklari kabi dialektik birlikda mavjud. Hozirgi bosqichda fanning taraqqiyoti ilmiy bilishda yangi mustaqil sohalarning paydo bo'lishi va tez rivojlanishi bilan boradigan differentsiatsiya jarayoniga qarabgina emas, balki turli fan sohalari integratsiya jarayoniga ko'ra ham tavsiflanadi. Ilmiy-tadqiqot ishida doimo yangi tadqiqot usullarining yuzaga kelish imkoniyatlarini, shuningdek, bu fanning usullari boshqa fanlarga o'tishi mumkinligini hisobga olish kerak. Masalan, zamonaviy ilmiy bilishning o'ziga xos xususiyati matematik tadqiqot usullarining ko'p boshqa fanlarga kirib kelishidir. Bu jarayon sport fanida ham allaqachon boshlangan. Shuning uchun ham zamonaviy olim-sport fanida ilmiy ishlar olib borayotgan tadqiqotchi birinchi navbatda ilmiy bilishning umumiy usul va tamoyillarini, shuningdek, sport fanining mazkur sohasida qo'llanadigan bilish usullariga taalluqli barcha ma'lumotlarni chuqur bilib olishi lozim. Shu bilan birga, u sport fanining oraliq sohaslarida ishlaydigan tadqiqotchilarning usuliy apparatlaridan yaxshi xabardor bo'lishi ham kerak.

## O‘z-o‘zini tekshirish uchun test savollari

### 1. “Tadqiqot” atamasi nimani anglatadi?

- a. tajribalar va tadqiqot o‘tkazish
- b. idrok etish faoliyatidan biri bo‘lib, yangi bilimlarni chiqarishning ilmiy jarayoni
- c. nazariy natijalarni tekshirish
- d. a, b javoblar.

### 2. “Tadqiqot uslubi” atamasi nimani anglatadi?

- a. ilmiy ishlar natijasini olishni bilish
- b. ishlanmalar va ilmiy ishlarni o‘tkazish
- c. tadqiqot yo‘llari, qandaydir bir maqsadga erishish, aniq vazifalarni hal qilish
- d. a, b javoblar.

### 3. Ilmiy tadqiqot jarayoni qanday qismlardan iborat?

- a. ishlanayotgan muammoning tadqiqot jarayoni
- b. ilmiy qidirish natijalarini adabiy rasmiylashtirish, yozib ko‘rsatish
- c. tajriba natijalarini tahlil qilish va tayyorlash
- d. a, b javoblar.

### 4. Ishlanayotgan muammo bo‘yicha tadqiqot jarayoni qanday harakatlarni o‘z ichiga oladi?

- a. tadqiq etilayotgan muammoni tavsiflovchi materiallarni yig‘ish, u to‘g‘risida isbotlovchi ko‘rsatkichlarni yig‘ish
- b. a, c, d javoblar
- c. gipotezani oldinga surish va uni tekshirish
- d. olingan ko‘rsatkichlarni tahlil va muhokama etish.

### 5. Ilmiy idrok etish uslublari qanday yo‘sinda guruhlarga ajratiladi?

- a. tajribaviy-empirik daraja uslubi, nazariy va metanazariy daraja uslubi
- b. adabiyotlar manbasini tadqiq etish
- c. olingan ko‘rsatkichlarni tahlil va muhokama etish
- d. a, c javoblar.

### 6. Tajribaviy-empirik daraja uslubi guruhiga nimalar kiradi?

- a. kuzatish, anketalashtirish, suhbatlashish
- b. mashg‘ulot va musobaqa faoliyatini kuzatish
- c. sportchi tayyorgarligini har xil tomonini testlash, har xil tajriba o‘tkazish

d. a, b, c javoblar.

**7. Tadqiqot uslublari qanday talablarga ega bo'lishi shart? (B.A. Ashmarin bo'yicha).**

a. yo'ldosh omillar ta'siriga turg'un tanlanganligi

b. ko'lami, ya'ni maksimal axborot va samaradorlik berishi

c. a, b javoblar

d. har doim aniq natija berishi.

**8. Ta'sirlarga turg'un bo'lgan uslublarga tavsif bering.**

a. tajriba omillari tasirida vujudga kelgan tadqiqotdagilar holatiga ta'sirini uslubning qaytarish imkoniyati

b. har xil sharoit ta'sirida ham o'zgarmaydi

c. har doim aniq natijalar ko'rsatish

d. a, c javoblar.

**9. Tadqiqot usullarini tanlashga tavsif bering.**

a. sportchining har xil tayyorgarlik tomonlarini testlash, har xil tajribalar o'tkazish

b. o'rganilayotgan hodisaga to'g'ri keladigan va tadqiqot vazifalaridagi natijalarni ko'rsatadi

c. tajriba omillari tasirida vujudga kelgan tadqiqotdagilar holatiga ta'sirini uslubning qaytarish imkoniyati

d. a, b javoblar.

**10. Tadqiqot usulining qayta takrorlanishi qanday imkoniyatga ega?**

a. har xil sharoitda bir xil natija ko'rsatish imkoniyatga ega

b. tajriba omillari tasirida vujudga kelgan tadqiqotdagilar holatiga ta'sirini uslubning qaytarish imkoniyati

c. o'rganilayotgan hodisaga to'g'ri keladigan va tadqiqot vazifalaridagi natijalarni ko'rsatadi

d. har doim aniq natijalar ko'rsatish.

**11. So'rovnoma usuli deb nimaga aytiladi?**

a. zarur anketani to'ldirish

b. har xil sharoitda bir xil natija ko'rsatish imkoniyatga ega

c. anketa savollariga respondentlar tomonidan yozma ravishda axborotlarni olish usuli

d. a, b javoblar.

**12. "Intervyu" deb nimaga aytiladi?**

a. savollar tizimiga respondentlar tomonidan og'zaki axborotlarni olish usuli

b. anketa savollariga respondentlar tomonidan yozma ravishda axborotlarni olish usuli

c. zarur anketani to'ldirish

d. a, b, c javoblar.

**13. So'rovnomaga qanday asosiy qismlardan iborat?**

a. birinchi va ikkinchi qismlardan

b. kirish, asosiy va demografik (pasport) qismlardan

c. birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlardan

d. a, b javoblar.

**14. Pedagogik kuzatish uslubiga tavsif bering.**

a. kurashchilar mashg'uloti ustidan nazorat qilish

b. musobaqa bellashuvlari ustidan kuzatishni olib borish

c. o'quv-mashg'ulot jarayonga tadqiqotchining aralashmagan holda uning tashkillashtirish uslubiga baho berish va rejali tahlil etish

d. to'g'ri javob yo'q.

**15. Pedagogik kuzatish ob'yektiga asosan nimani kirgizish mumkin?**

a. o'rgatish va tarbiyalash vazifalari, jismoniy tarbiya vositalari, o'rgatish va tarbiyalash uslublari

b. murabbiy va shug'ullanuvchilarning xulq-atvori, mashg'ulot nagruzkasining tavsifi va hajmi

c. texnik-taktik harakatlarning elementlari

d. a, b, c javoblar.

**16. "Xronometrlash" tushunchasiga aniqlik bering.**

a. vaqtning aniq o'lchanishi

b. qandaydir bir harakatga sarflangan vaqtni aniqlash va uning grafikdagi ko'rinishi

c. sportchilar tayyorgarligini nazorat qilish

d. a, b, c javoblar.

**17. Nazorat tajriba uslubi nimani aniqlaydi?**

a. alohida harakat sifatlarining rivojlanish darajasini

b. shug'ullanuvchilarning tayyorgarligini solishtirish va aniqroq saralash o'tkazishni

c. sportchilar tayyorgarligini nazorat qilish

d. a, b, c javoblar.

**18. Nazorat tajribasi nima yordamida o'tkaziladi?**

a. maxsus dastur yordamida

b. nazorat mashqlari yoki testlar yordamida

c. maxsus apparatura yordamida

d. a, c javoblar.

**19. Testning ishonchliligi deganda nima tushuniladi?**

a. konkret aniq natijalar berish

b. barcha o'Ichamlarni, parametrlarni aniq baholash

c. bir xil sharoitda ma'lum vaqtdan keyin qaytarganda natijalarning qayta takrorlanishi

d. a, c javoblar.

**20. Testning axborotliligi tushunchasiga aniqlik bering.**

a. aniqlik darajasi uning yordamida xususiyatlari o'Ichanaadi (sifati, imkoniyati, tavsifi va boshqalar)

b. bir xil sharoitda ma'lum vaqtdan keyin qaytarganda natijalarning qayta takrorlanishi

c. barcha o'Ichamlarni, parametrlarni aniq baholash

d. a, c javoblar.

**21. Ilmiy tadqiqotning borishida qanday pedagogik tajriba turlari o'tkaziladi?**

a. qayta tiklanuvchi, ta'kidlovchi va tabiiy tajriba

b. modeli, laboratoriya

c. ketma-ket, parallel, ochiq va yopiq

d. a, b, c javoblar.

**22. "Tabiiy tajriba" tushunchasiga aniqlik bering.**

a. tabiiy sharoitlarda tajriba

b. o'rgatish va tarbiyaning odatiy sharoitini o'zgartirmasdan o'tkaziladigan tajriba

c. shug'ullanuvchilarning har xil tarkibi bilan tajriba

d. a, c javoblar.

**O'z-o'zini tekshirish uchun test savollarining kaliti**

<b>№</b>	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
1.		*		
2.			*	
3.				*
4.		*		
5.	*			
6.				*
7.			*	

8.	*			
9.		*		
10.	*			
11.			*	
12.	*			
13.		*		
14.			*	
15.				*
16.		*		
17.				*
18.		*		
19.			*	
20.	*			
21.				*
22.		*		

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1.Бабанский Ю.К. и др. Введение в научные исследования по педагогике. Учебное пособие. М., Просвещение, 1988.

2.Власов К.П. Методы научных исследований и организация эксперимента. Учебное пособие. Санкт-Петербург, 2000.

3.Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Darslik. T., 2004.

4.Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов. Киев: Олимпийская литература, 1999.

5.Селуянов В.Н., Шестаков М.П., Космина И.П. Основы научно-методической деятельности в физической культуре. Учебное пособие. М., СпортАкадемПресс, 2001.



## MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
-----------------	---

### I BOB. KURASH TURLARINING PAYDO BOʻLISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

1.1.Kurash turlarining umumiy tarixi. ....	4
1.2. Oʻzbekistonda kurash turlarining rivojlanish tarixi .....	11
1.2.1. Yunon-rim kurashi .....	15
1.2.2. Erkin kurash .....	19
1.2.3.Dzyudo .....	24
1.2.4. Sambo. ....	29
1.2.5.Milliy kurash turlari .....	32

### II-BOB. KURASH TURLARI BOʻYICHA TEXNIK USULLARNING KLASSIFIKATSIYASI, SISTEMATIKASI VA ULARNING TERMINOLOGIYASI

2.1.Kurash turlarida klassifikatsiya, sistematika va terminologiyaning ahamiyati.....	47
2.2.Umumiy qoidalar .....	47
2.3.Kurash turlari texnik usullarining yagona sistematikasi va sistematikasi .....	50
2.4.Kurash turlaridagi tushunchalar va terminlar .....	55
2.4.1.Tushunchalar va terminlar .....	55
2.4.2.Kurash turlarida taktik harakatlar .....	57
2.4.3.Kurashchining texnik harakatlari .....	58
2.4.4.Kurash turlaridagi asosiy holatlar .....	59
2.4.5.Ushlashlar .....	59
2.4.6.Texnik usullarning terminlari.....	61

### III-BOB. KURASH TURLARI BOʻYICHA MUSOBAQA QOIDALARI VA HAKAMLIK QILISH ASOSLARI

3.1.Musobaqalar toʻgʻrisida tushuncha .....	69
3.2.Musobaqa maqsadi va vazifalari.....	72

3.3. Musobaqalarni boshqarish .....	72
3.4. Ishtirokchilar va qatnashuvchi tashkilotlar .....	72
3.5. Talabnomalarni berish muddatlari va tartibi .....	73
3.6. Ishtirokchilar va hakamlarni qabul qilish shartlari.....	73
3.7. G'oliblarni taqdirlash .....	73
3.8. Musobaqa nizomiga bo'lgan asosiy talablar .....	73
3.9. Hakamlar kollegiyasi tarkibi va hakamlarning majburiyatlari.....	73
3.10. Musobaqa Nizomi .....	76
3.11. Torozidan o'tkazish va qur'a tashlash .....	76
3.12. Musobaqani o'tkazish bayonnomasi .....	77
3.13. Klassifikatsion ochkolarning berilish tartibi .....	79
3.14. Texnik harakatlar va usullar uchun beriladigan baholar .....	80

#### **IV-BOB. KURASH TURLARIDA ILMIY ISHLAR TO'G'RISIDA TUSHUNCHALAR**

4.1. Kurash turlarida ilmiy ishlarning ahamiyati .....	100
4.2. Dars konspekti .....	102
4.3. Pulsometriya. ....	103
4.4. Xronometriya .....	108
4.5. Ilmiy ishlardagi ko'rsatgichlarni taqqoslash tuzilmasi. ....	109
4.6. Nazorat testlari .....	109

#### **V-BOB. KURASH TURLARIDA OLIB BORILADIGAN ILMIY-TADQIQOT ISHLARI**

5.1. Ilmiy-tadqiqot ishlariga kirishish .....	119
5.2. Kurash turlari va uslubiyati fani mohiyatini aniqlash .....	119
5.3. Dialektik usulning asosiy tamoyil va kategoriyalari.....	120
5.4. Bilishning nazariy va empirik shakllari .....	121
5.5. Kurash turlaridagi ilmiy tadqiqotlarga qo'yiladigan talablar .....	123
5.6. Kurashchilarni tayyorlash jarayonining ijtimoiy jihatlarini .....	124
5.7. Yuqori natijalar sportining rivojlanishi .....	125

5.8. Ilmiy tadqiqotning asosiy bosqichlari .....	126
5.9. Tadqiqot mavzusini tanlash .....	127
5.10. Tadqiqotning ish rejasini tuzish. ....	130
5.11. Tadqiqot materiallarini yig'ish va to'plash .....	132
5.12. Yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish .....	135
5.13. Tadqiqotni yakunlash va shakllantirish.....	136

## **6-BOB. KURASH TURLARIDA O'RGATISH USLUBLARI**

6.1. O'qitishning maqsadlari va vazifalari .....	147
6.2. O'qitish tamoyillari .....	148
6.2.1. O'qitishning ilmiylik tamoyili .....	149
6.2.2. O'qitishning yengillik tamoyili .....	150
6.2.3. O'qitishning muntazamlilik tamoyili .....	151
6.2.4. O'qitishning ongillik va faollik tamoyili .....	151
6.2.5. O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili.....	152
6.2.6. O'quv materialini puxta o'zlashtirish tamoyili .....	154
6.2.7. Jamoali o'qitish va o'quvchiga individual yondashish birligi tamoyili .....	155
6.2.8. O'qitishning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili .....	156
6.2.9. O'qituvchining o'qitish jarayonida yetakchilik ahamiyati tamoyili .....	157
6.3. O'qitish uslublari .....	157
6.4. O'qitish bosqichlari.....	159
6.4.1. Dastlabki o'rganish bosqichi.....	159
6.4.2. Qismlarga bo'linib o'rganish bosqichi.....	160
6.4.3. Mustahkamlash va keyingi takomillashtirish bosqichi .....	160

## **7-BOB. KURASH TURLARIDA JISMONIY TAYYORGARLIK TO'GRISIDA TUSHUNCHA**

7.1. Kurashchining jismoniy tayyorgarligi. ....	167
7.1.1. Kuch va uni rivojlantirish uslubiyati.....	168
7.1.2. Tezlik va uni rivojlantirish uslubiyati .....	171
7.1.3. Chidamlilik va uni rivojlantirish uslubiyati .....	173

7.1.4. Chaqqonlik va uni rivojlantirish uslubiyati.....	177
7.1.5. Egiluvchanlik va uni rivojlantirish uslublari.....	178
7.1.6. O'smir yoshdagi kurashchining jismoniy tayyorgarligi.....	179

## **8-BOB. KURASH TURLARIDA TEXNIK TAYYORGARLIK TO'GRISIDA TUSHUNCHA**

8.1. Texnik tayyorgarlik.....	189
8.1.1. Kurashchilar trenirovka jarayonida texnik tayyorgarlik .....	189
8.1.2. Texnik harakatlarni amalga oshirishning umumiy asoslari .....	191
8.1.3. Kurashchining texnik mahoratini oshirish yo'llari .....	193

## **9-BOB. KURASH TURLARIDA TAKTIK TAYYORGARLIK TO'GRISIDA TUSHUNCHA**

9.1. Taktik tayyorgarlik.....	205
9.1.1. Taktik tayyorgarlik maqsadi va vazifalari.....	205

## **10-BOB. KURASH TURLARIDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK**

10.1. Psixologik tayyorgarlik.....	216
10.1.1. Umumiy psixologik tayyorgarlik .....	216
10.1.2. Muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarlik .....	219
10.1.3. Psixologik tayyorgarlik va texnik-taktik mahorat.....	220

## **11-BOB. KURASH TURLARI BO'YICHA BITIRUV MALAKAVIY ISHINING TASHKILY-USLUBIY ASOSLARI**

11.1. Sport kurashida tadqiqot uslublari .....	232
11.1.1. Tadqiqot uslublarining umumiy tavsifi.....	232
11.1.2. Tadqiqot uslublari .....	233
11.1.3. Tadqiqot uslublariga umumiy talablar .....	234
11.1.4. Modelli tajriba.....	235
11.1.5. Laboratoriya tajribasi .....	236
11.1. 6. Tabiiy tajriba .....	236
11.1.7. Bevosita qayd qilish uslublari .....	237

11.1.8. Anketa so‘rovi.....	237
11.1.9. Matematik statistika uslubi .....	238
11.2. Kurash turlari bo‘yicha bakalavr yo‘nalishidagi bitiruv malakaviy ishi to‘g‘risida tushuncha .....	241

## **12-BOB. KURASH TURLARIDA TAKTIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

12.1. Taktik tayyorgarlik.....	259
12.1.1. Hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi .....	259
12.1.2. Bellashuvni tuzish taktikasi .....	260
12.1.3. Musobaqalarda qatnashish taktikasi.....	270

## **13-BOB. KURASH TURLARIDA REJALASHTIRISH TURLARI**

13.1. Rejalashtirish mohiyati va ahamiyati, uning turlari .....	278
13.2. Tayyorgarlik mezosikllarini rejalashtirish .....	281
13.3. Tayyorgarlik mikrosikllarini rejalashtirish .....	282
13.4. Yillik tayyorgarlik siklida trenirovkani tashkil qilish tizimini modellashtirish.....	283
13.5. Trenirovkaning katta bosqichini tuzish modeli.....	285
13.6. Rejalashtirishning noan’anaviy shakli .....	286
13.7. Kurashchilar trenirovka jarayonini zamonaviy rejalashtirish.....	288

## **14-BOB. KURASH TURLARI BO‘YICHA SPORT MAKTABLARIDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKILLASHTIRISH VA O‘TKAZISH USHLARI**

14.1. Sport maktablarida kurashchilarni tayyorlashning tashkiliy-uslubiy xususiyatlari .....	295
14.1.1. Sport maktablari oldida turgan vazifalar.....	295
14.1.2. Guruhlarni to‘ldirish va trenirovka jarayonini tashkil etish.....	296

## **15-BOB. O'QITUVCHI MURABBIYNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

15.1. Sport kurashi trenerining kasb-pedagogik faoliyati .....	318
15.2. Psixologik tayyorgarlik .....	319
15.2.1. Umumiy psixologik tayyorgarlik .....	319
15.2.2. Kurashchining axloqiy sifatlarini tarbiyalash .....	319
15.2.3. Muayyan musobaqaga psixologik tayyorgarlik .....	322
15.2.4. Psixologik tayyorgarlik va texnik-taktik mahorat .....	323

## **16-Bob. O'QUV-MASHG'ULOT YIG'ININI TASHKILLASHTIRISH VA O'TKAZISH**

16.1. O'quv-trenirovka yig'inlarini tashkil qilish va o'tkazish .....	333
16.1.1. O'quv-trenirovka yig'inlarini o'tkazish zaruriyati .....	333
16.1.2. O'quv-trenirovka yig'inini tayyorlash .....	333
16.1.3. O'quv-trenirovka yig'inlarini rejalashtirish .....	335
16.1.4. Yig'inlar natijalarini tahlil qilish .....	337

## **17-BOB. SPORT KURASHIDA SARALASH USHLARI**

17.1. Sport kurashida saralash .....	350
17.1.1. Saralash ko'p yillik jarayon sifatida .....	350
17.1.2. Bolalarni kurash bo'linmasiga saralash uchun testlar .....	354
17.1.3. Terma jamoaga saralash .....	354
17.1.3.1. Sport natijasi .....	357
17.1.3.2. Texnik-taktik mahorat darajasi .....	358

## **18-BOB. SPORT KURASHIDA TAYYORGARLIKNING KO'P YILLIK BOSQICHLARI**

18.1. Kurashda sport zaxiralarining ko'p yillik tayyorgarligi .....	366
18.1.1. Sport yakkakurashlari uchun zaxira tayyorlashni boshqarishning uch pog'onali tizimini qo'llash xususiyatlari .....	366
18.1.2. Ko'p yillik trenirovka jarayonining usuliy qoidalari .....	369
18.1.3. Yosh kurashchilar tayyorgarligining turli tomonlarini tashkil etish va rejalashtirish .....	371

18.1.4. Kurashchining ko‘p yillik texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligi.....	374
18.1.5. Yosh mezonlari va jismoniy qobiliyatlar .....	377
18.1.6. Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlari va trenirovka jarayonining yo‘nalishi .....	378
18.1.6.1. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi .....	380
18.1.6.2. Chuqurlashtirilgan sport ixtisoslashuvi bosqichi .....	381
18.1.6.3. Sport takomillashuvi bosqichi.....	383
18.1.6.4. Oliy sport mahorati bosqichi.....	384

## **19-BOB. MUSOBAQA FOALIYATINI PEDAGOGIK NAZORAT VA TAHLIL QILISH**

19.1. Musobaqa va o‘quv-mashg‘ulot faoliyatini pedagogik nazorat va tahlil qilish ahamiyat darajasi.....	397
19.2. Kurashchining texnik-taktik harakatlarini qayd etish usuliyati. Umumiy tushunchalar.....	398
19.3. Kurashchilarning musobaqa faoliyatida qo‘llaniladigan texnik va taktik harakatlarning tahlil qilish yo‘llari.....	400
19.3.1. Pedagogik kuzatishlarni ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar .....	402

## **20-BOB. SPORT KURASHIDA MASHG‘ULOT NAGRUZKALARINING SHIDDATINI ANIQLASH USLUBLARI**

20.1. Trenirovka va musobaqa nagruzkalarini nazorat qilish .....	411
20.2. Nagruzkaning koordinatsion murakkabligi.....	415
20.3. Nagruzka hajmi.....	416

## **21-BOB. SPORT KURASHIDA TIKLANISH VOSITALARI**

21.1. Kurashchilar trenirovkasi jarayonida tiklanish vositalari .....	421
21.1.1. Turli tiklanish vositalarini qo‘llash .....	421
21.1.2. Tiklanishning pedagogik vositalari .....	421
21.1.3. Tiklanishning tibbiy-biologik vositalari.....	422

21.1.4. Farmakologik vositalar .....	422
21.1.5. Uyquni me'yorlashtirish uchun vositalarni qo'llash .....	423
21.1.6. Bellashuv o'rtasidagi tanaffusda massaj .....	424
21.1.7. FunkSIONAL musiqa tiklanish vositasi sifatida.....	426
21.1.8. Tiklanishning ruhiy-pedagogik vositalari .....	426

## **22-BOB. SPORT KURASHIDA MODELLASHTIRISH**

22.1. Sportda modellashtirish.....	436
22.1.1. Umumiy qoidalar .....	436
22.1.2. Tayyorgarlik modellari .....	441
22.1.3. Mahorat modeli .....	441
22.1.4. Bellashuv faoliyatining modellari .....	442
22.1.5. MorfofunkSIONAL model.....	445
22.1.6. Musobaqa faoliyatidagi modellashtirish va sportchilarning individual xususiyatlariga ko'ra tayyorgarligi .....	445
22.2. Modellashtirish usullari.....	446
22.2.1. Sport amaliyotida modellashtirish usulini qo'llash.....	447
22.2.2. Kuchli sportchilarning model xarakteristikasi (modelning asosiy tarkibiy qismi).....	451

## **23-BOB. SPORT KURASHIDA ZAMONAVIY TADQIQOT USLUBLARI**

23.1. Sport kurashida zamonaviy tadqiqot uslublari.....	459
23.2. Sport fanida ilmiy bilishning usul va tamoyillari.....	459
23.2.1. Ilmiy bilishning umum ilmiy usullari .....	459
23.2.2. Ilmiy bilish tamoyillari.....	463



N.A. Tastanov

# **KURASH TURLARI NAZARIYASI VA USLUBIYATI**

*Muharrirlar:* A.Tilavov  
A.Abdujalilov  
*Texnik muharrir:* Y.O'rinov  
*Badiiy muharrir:* I.Zaxidova  
*Musahhiha:* N.Muxamedova  
*Dizayner:* Y.O'rinov

Nash.lits. № AI 245. 02.10.2013.

Terishga 13.10.2017-yilda berildi. Bosishga 20.12.2017-yilda ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times» garniturası. Shartli b.t. 30,0. Nashr b.t. 27,09. Adadi 300 nusxa. Buyurtma №125. Bahosi shartnoma asosida.

«Sano-standart» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,  
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: sano-standart@mail.ru

«Sano-standart» MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent shahri, Shiroq ko'chasi, 100-uy.  
Telefon: (371) 228-07-96, faks: (371) 228-07-95.